O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi

O‘zbekiston Ekologik partiyasi

TOURISM DEVELOPMENT INSTITUTE

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**
**TURIZM FAKULTETI**
**“TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI” KAFEDRASI**



# O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**mavzusida respublika ilmiy – amaliy anjuman**

**21 NOYABR 2025YIL**

MATERIALLAR TO‘PLAMI



**TOSHKENT**

**“O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish muammolari va istiqbollari”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami** – T.: «IQTISODIYOT», 2025.

Ushbu to‘plam 2025 yil 21 noyabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o‘tkazilgan “O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish muammolari va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari asosida tayyorlangan bo‘lib, unda mamlakatimizda yashil turizmni rivojlantirishning dolzarb masalalari, ekologik barqaror turizm amaliyotlari, xorijiy ilg‘or tajribalar hamda ularni milliy turizm siyosatiga joriy etish yo‘nalishlari keng yoritilgan.

Mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ–94-son qarori — “Yashil turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son Farmoni — “O‘zbekiston–2030 strategiyasini ‘Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlanmalar, tahlillar va takliflarni o‘z ichiga oladi.

To‘plamga mahalliy va xorijiy olimlar, turizm sohasi tadqiqotchilari, doktorantlar, magistrantlar, davlat boshqaruvi organlari, qo‘mitalar va turli mulkchilik shaklidagi korxona hamda tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, statistik tahlillar, ekologik baholash ishlari hamda amaliy takliflar kiritilgan.

To‘plamda keltirilgan ilmiy materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va havola qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning haqqoniyligi, shuningdek, bildirilgan ilmiy xulosalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

***Mas’ul muharrir: i.f.d., prof. T.Z. Teshaboyev***

***Tahrir hay’ati:*** *i.f.d., prof. S.U. Mexmonov, i.f.d., prof. G.Q. Abdurahmanova, i.f.d., prof. A.A. Eshtayev, i.f.d., prof. A. Abduvohidov, i.f.d., prof. M.T. Alieva, i.f.d., prof. A. Norchaev, i.f.d., dots. N. Zufarova, i.f.n., i.f.n., prof. S. Safaeva, i.f.d., prof. X. Ochilova, i.f.n., prof. D. Abidova, PhD, dots. N. Jo‘rayeva, PhD, dots. D.Umirova, PhD, dots. M.Z. Nurfayziyeva, PhD, dots. D. Matkabulova, PhD, katta o‘q. N.P. Oppoqxonov, PhD, katta o‘q. B.B. Xoshimov, PhD, katta o‘q. H.F. Egamnazarov, PhD, katta o‘q. Z.Abriyev.*

***Taqrizchilar:***

*i.f.d., prof. Sh. Ergashxo‘jaeva*

*i.f.n., prof. Sh. Sayfutdinov*

© “IQTISODIYOT”, 2025.

| 1-SHO‘BA | O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI ZAMONAVIY PRINSIPLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH VA BUNDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH |
|---|---|

# ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

**Тешабоев Тўлқин Зокирович,**
***Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети ректори, и.ф.д., профессор***

Жаҳон иқтисодиётида туризм соҳасига рақобатбардошлик ва иқтисодий ўсишни таъминлашдаги муҳим стратегик йўналишлардан бири сифатида қаралмоқда. Бутунжаҳон туризм ташкилотининг (UNWTO) “Жаҳон туризми барометри” ҳисоботига кўра, 2024 йилга келиб халқаро туризм оқими COVID-19 пандемияси оқибатларидан тўлиқ тикланди. Инқироз бошланганидан тўрт йил ўтгач, халқаро саёҳатлар сони 2019 йилдаги даражанинг 99 фоизига етди. Бу эса соҳанинг энг оғир даврдан чиқиб кетганлигини англатади.

UNWTO ҳисоб-китобларига кўра, 2024 йилда дунё бўйича халқаро сайёҳлар сони тахминан 1,4 миллиард кишига етди ёки 2023 йилга нисбатан 11 фоизга ошди, яъни 140 миллион сайёҳ қўшилди. 2025 йилда эса ижобий ўзгаришлар давом этиши кузатилмоқда: халқаро сайёҳлар сони яна 3-5 фоизга ўсиши кутилмоқда.

Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистонда туризм соҳасининг барқарор ривожланаётганини алоҳида таъкидлаш жоиз. Сўнгги йилларда туризм хизматлари экспорти ҳажми 1,6 баробарга ошиб, 3,5 миллиард долларга етди. Бу эса мамлакатнинг халқаро майдондаги жозибадорлиги тобора ортиб бораётганидан далолат беради.

Туризм қўмитаси маълумотларига кўра, Ўзбекистонга ташриф буюрган хорижий сайёҳлар сони биринчи марта 10 миллион кишидан ошди ва бу кўрсаткич ўсишда давом этмоқда. Ички туризм ҳам юқори фаолликни намоён этмоқда - ҳар йили мамлакат бўйлаб 20 миллиондан ортиқ фуқаро саёҳат қилмоқда.

UNWTO шафелигида ишлаб чиқилган Сайёҳларни ҳимоя қилиш халқаро кодексига Ўзбекистоннинг расман қўшилиши муҳим қадам бўлди. Бу мамлакат халқаро стандартларга риоя этишга, шаффофликни таъминлашга ва сайёҳлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга интилаётганини яққол кўрсатмоқда.

2024 йилги Туризм ва саёҳатни ривожлантириш индексининг умумий рейтингига кўра, Ўзбекистон 119 мамлакат орасида 78-ўринни эгаллади. Таққослаш учун: Қозоғистон 52-ўринда, Тожикистон 99-ўринда, Қирғизистон эса 102-ўринда жойлашган. Шу билан бирга, Ўзбекистон 2019-2024 йиллар оралиғида туризм ва саёҳатлар учун шароитларни яхшилашда энг катта тараққиётга эришган 10 та давлат қаторига кирди.

Бугунги кунда туризм соҳасини янада ривожланишига таъсир этувчи бир қатор муаммолар ва қийинчиликлар мавжуд.

БМТнинг Туризм бўйича экспертлар гуруҳи ўтказган тадқиқотларга кўра, иқтисодий ва геосиёсий муаммолар туризмнинг барқарор ривожланиши ҳамда саёҳатчиларнинг ишончига сезиларли хавф солишда давом этмоқда.

Бундай шароитда халқаро сайёҳлик оқимларининг янада ўсиши бир қатор қийинчиликлар билан кузатилмоқда. Хусусан, энг катта таъсирни иқтисодий ўсишнинг сустлиги (42 фоиз), транспорт ва яшаш харажатларининг юқорилиги (40 фоиз), юқори савдо тарифлари (37 фоиз), геосиёсий муаммолар (27 фоиз), истеъмолчилар ишончининг пастлиги (27 фоиз), саёҳатга қўйилган талаблар (18 фоиз) ва малакали кадрлар етишмаслиги (13 фоиз) кўрсатмоқда. Бу ва бошқа омиллар халқаро туризмнинг кейинги ривожланишини сезиларли даражада қийинлаштириши мумкин.

Ўзбекистонда туризм соҳасини модернизация қилиш, жумладан, туристик шаҳарларда инфратузилмани ривожлантириш ва маданий меросни тарғиб этиш бўйича ютуқлар эришилганига қарамай, комплекс ёндашувни талаб қиладиган бир қатор муаммолар ҳали-ҳануз мавжуд.

Туризм инфратузилмасидаги ҳудудий номутаносиблик шулар жумласидандир. Сайёҳларнинг асосий оқими Самарқанд, Бухоро ва Хивага йўналтирилган бўлса-да, Фарғона водийси, Сурхондарё, Қашқадарё ва Қорақалпоғистонга транспорт ва меҳмонхона ресурслари етишмаслиги сабабли бориш қийинлигича қолмоқда. Ўзбекистон Президенти бошчилигида 2023 йил 29 мартда туризм салоҳиятини ошириш масалалари бўйича ўтказилган йиғилишда ҳам қўшимча 46 та авиарейс, 68 та темир йўл қатнови зарурлиги ҳамда Қорақалпоғистон, Жиззах, Наманган ва Сурхондарё вилоятларида сайёҳлар учун автобуслар етишмаслиги таъкидланган эди.

Хизматлар сифати доим ҳам халқаро стандарт талабларига мос келмаслиги. Мазкур муаммо TripAdvisor платформасида Ўзбекистонга ташриф буюрган хорижий сайёҳлар томонидан қолдирилган фикр-мулоҳазалари асосида аниқланди. Сайёҳлар томонидан қолдирилган фикр-мулоҳазалари бўйича ўтказилган таҳлиллар қуйидаги жиҳатларга оид кўплаб шикоятлар мавжудлигини кўрсатди:

- меҳмонхона соҳаси (барча шикоятларнинг 26 фоизини ташкил этади): хизматлар нархи ва сифатининг номутаносиблиги, эскирган жиҳозлар, хоналарнинг етарли даражада тозаланмаганлиги, иссиқ сув таъминотининг йўқлиги, нонушта сифатининг пастлиги ҳақида шикоятлар. Wi-Fi кўпинча мавжуд эмас ёки фақат меҳмонхона вестибюлида ишлаши, бу эса рақамли хизматлардан фойдаланувчилар учун ноқулайлик яратаётганлиги;

- ресторан ва кафелар (21 фоизи): буюртма берилган таомларни узоқ кутилиши (40-60 дақиқа), инглиз тилида таомномаларнинг йўқлиги, ходимлар билан мулоқот қилишнинг қийинлиги, таомларнинг тавсифига мос келмаслиги. Шунингдек, баъзи муассасалар нақдсиз ҳисоб-китобни ташкил қилиш ўрнига тўловларни ходимларнинг шахсий карта рақамларига ўтказишни талаб қилиши ишончсизлик ва фирибгарлик хавфини ошишига олиб келаётганлиги;

- турфирмалар ва гидлар (13 фоизи): лицензиясиз фаолият юритилиши, экскурсия етакчиларининг малакасизлиги, диққатга сазовор жойлар ҳақидаги билимларнинг етишмаслиги, маълумотларни тақдим этишда юзаки ёндашув;

- транспорт (11 фоизи): поезд чипталарини сотиб олишдаги қийинчиликлар, такси нархларининг юқорилиги (айниқса, вокзал ва аэропортлар яқинида), автобусларнинг санитария талабларига жавоб бермаслиги;

- диққатга сазовор жойлар (9 фоизи): сувенир сотувчиларнинг ёпишқоқлиги, тўланган чипталар бўйича чеклар тақдим этилмаслиги, фотосуратга олиш учун қўшимча тўлов талаб қилиниши, инглиз тилида ахборот материалларининг етишмаслиги;

- хизмат кўрсатувчи ходимлар (8 фоизи): қўполлик, одобсизлик, ташриф буюрувчиларга нисбатан юзаки муомала, айниқса меҳмонхоналарда. Шунингдек, ҳудудларда (Тошкент шаҳридан ташқари) мобил алоқа сифати билан боғлиқ муаммолар қайд этилган;

- санитария ҳолати (6 фоизи): кўчалардаги чиқиндилар, тозаланмаган жамоат жойлари, ҳожатхоналарнинг қониқарсиз аҳволи, куннинг қоронғи вақтида баъзи ҳудудларда хавфлилик ҳисси бўйича қатор эътирозлар келтирилган.

“Ўзбекистон – 2030” стратегиясида хорижий сайёҳлар сонини 15 миллион нафарга ва ички сайёҳлар сонини 25 миллион нафарга етказиш бўйича устувор мақсадлар белгиланганлигини инобатга олиб, шунингдек, аниқланган муаммоларни бартараф этиш ва Ўзбекистоннинг туристик салоҳиятини ошириш мақсадида қуйидаги ташаббусларни амалга ошириш тавсия қилади:

Кўп функцияли мобил иловани ишлаб чиқиш. Туристлар учун рақамли қўлланма сифатида давлат платформалари билан интеграциялашган мобил иловани яратиш. Мазкур илова қуйидаги имкониятларга эга бўлиши зарур:

• сертификатланган туристик гидлар базасига кириш ва экскурсияларни банд қилиш имконияти, бу эса ўз навбатида кўрсатилаётган хизматларнинг сифати ва ишончлилигини таъминлайди;

• сайёҳларнинг хавфсизлигини таъминлаш ва уларга қулайлик яратиш мақсадида маҳаллий даражада фойдаланадиган такси чақириш хизматларини интеграция қилиш;

• меҳмонхоналар, ресторанлар, диққатга сазовор жойлар, банкоматлар, валюта айирбошлаш шохобчалари, Wi-Fi зоналари, тиббиёт муассасалари ва туризм полицияси бўлимлари бўйича фильтр қилиш имкониятига эга интерактив харитани назарда тутиш;

• ташриф вақти ва тавсия этилган тўхташ жойларини кўрсатадиган шахсийлаштирилган йўналишларни яратиш функциясини инобатга олиш;

• интерфейсдан бир нечта тилда фойдаланиш (ўзбек, инглиз, рус, хитой ва бошқа тиллар);

• илованинг асосий функцияларидан офлайн тарзда фойдаланиш (масалан, харита ва йўналишларни белгилаш);

• онлайн тўлов тизимлари билан интеграция қилиш;

• сайёҳларнинг юзага келиши мумкин бўлган муаммоларини ҳал қилиш учун реал вақт режимида ишлайдиган қўллаб-қувватлаш хизматини назарда тутиш.

• туристик хизматлар ҳақида фикр-мулоҳазалар қолдириш имконияти;

• аниқ белгиланган муддатларда мурожаатларни кўриб чиқиш кафолати билан самарали қайта алоқа тизими;

• ёлғон шикоятларни аниқлаш ва туризм соҳаси иштирокчиларининг ишбилармонлик обрўсини ҳимоя қилиш мақсадида фикр-мулоҳазаларни саралаш (модерация) ва таҳлил қилиш имкониятини назарда тутиш. Италия корхоналари вазирлигининг статистик маълумотларига кўра, ёлғон шикоятлар туристик корхоналарнинг даромадларини 6-30 фоизга камайтириши мумкин.

Мобил иловани тарғиб қилиш. Сайёҳлар оммавий ташриф буюрадиган жойлар: аэропортлар, темир йўл вокзаллари, метро бекатлари, автовокзаллар ва туристик ахборот марказларида кўп функцияли мобил иловани фаол тарғиб қилиш тавсия этилади.

Тарғибот воситалари ёркин реклама материаллари (баннерлар, рақамли экранлар, QR -кодли стикерлар), иловани ўрнатган ва ундан фаол фойдаланаётган фойдаланувчилар учун бонуслар ёки чегирмаларни назарда тутиш. Бундай ёндашув содиқ фойдаланувчилар базасини шакллантиришга ва маҳсулотнинг сайёҳлар орасида танилишига ёрдам беради.

Рақамли ахборот дўконлар (киосклар)ини ўрнатиш. Туристлар кўп тўпланадиган жойлар (аэропортлар, вокзаллар, тарихий марказлар) да бир нечта тилда фойдаланиш имкониятига эга бўлган сенсор терминалларини жойлаштириш тавсия этилади. Ахборот дўконларида қуйидаги имкониятлардан фойдаланишни назарда тутиш мақсадга мувофиқ:

• диққатга сазовор жойлар, транспорт ва тадбирлар ҳақидаги долзарб маълумотларни олиш;

• интерактив хариталар, чипталарни банд қилиш, такси чақириш;

• чоп этиш имконияти, таржима қилиш, қурилмаларни қувватлаш ва туризмни қўллаб-қувватлаш хизмати билан тўғридан-тўғри алоқа ўрнатиш функцияларини киритиш лозим.

Диққатга сазовор жойларда QR-кодларни ўрнатиш. Туристик ҳудудларда саёҳатчиларга бир неча тилларда маданий мерос объектлари, музейлар ва тарихий обидалар тўғрисида маълумот олиш имконини берувчи QR-кодларни жойлаштириш мақсадга мувофиқ. Бу тизим орқали фотосуратлар, видеолар ва матнли тавсифларни ўз ичига олган мультимедиа веб-саҳифаларига кириш орқали маълумот олиш имконини яратиш ва сайёҳларга гид хизматларини мажбурлаб таклиф қилиш амалиётидан воз кечиш лозим.

Мобил жойлашув маълумотларидан (Mobile Positioning Data) фойдаланиш. Расмий туризм статистикасини шакллантиришда маълумот манбаи сифатида MPDдан фойдаланиш амалиётини жорий этиш тавсия этилади. Ушбу усулнинг афзалликлари: аниқроқ, тезкор ва батафсил маълумотларни олиш, ички ва халқаро ҳаракатларни кузатиш, кенг кўламли ва қиммат сўровлар ўтказмасдан ҳисобни автоматлаштириш.

Экотуризмни ривожлантириш. Табиий ҳудудларда кам таъсирли, экологик тоза туризм турларини кенгайтириш, маҳаллий аҳоли иштирокини таъминлаш.

Туризм инфратузилмасини “Яшил стандартлар” асосида қуриш. Меҳмонхоналар, дам олиш масканлари ва транспорт воситаларида ресурс тежамкор технологияларни жорий этиш.

Туристик ҳудудларда чиқиндиларни бошқариш тизимини такомиллаштириш. Қайта ишлаш, саралаш ва чиқиндиларни камайтириш чораларини кучайтириш.

Экологик таълим ва тарғиботни кенгайтириш. Маҳаллий аҳоли ва туристлар ўртасида экологик маданиятни оширишга қаратилган дастурларни жорий этиш.

Экологик мониторинг ва назоратни кучайтириш. Сайёҳлик фаолиятининг табиий муҳитга таъсирини мунтазам баҳолаб бориш ва мувофиқ чоралар кўриш.

Ўз навбатида, юқорида таклиф қилинган чора-тадбирлар сайёҳлик хизматларининг сифатини ошириш, саёҳатчиларни маълумот билан таъминлашни яхшилаш, шунингдек, сайёҳлик оқимларини ҳисобга олишни такомиллаштириш имконини беради. Рақамли ечимларни ҳар томонлама жорий этиш ва халқаро тажрибани ўзлаштириш Ўзбекистонни жаҳон миқёсида рақобатбардош сайёҳлик йўналишига айлантириш йўлидаги муҳим қадамлар ҳисобланади.

## Yangi O‘zbekistonda aylanma iqtisodiyot istiqbollari

**Nurulloyev Shaxriyor Axtamovich,**
*Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish GREEN universiteti rektor v.b.*

**Annotatsiya.** O‘zbekiston Respublikasida tabiatga asoslangan texnologiyalar (Natural Based Technologies)dan foydalanish bo‘yicha davlat siyosati iqtisodiy rivojlanishning yangi barqaror modelini shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida ekologik xavfsizlik, yashil iqtisodiyotga o‘tish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu maqolada O‘zbekistonda aylanma iqtisodiyot konsepsiyasi va tabiatga asoslangan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha so‘nggi islohotlar, davlat rahbarining bu boradagi tashabbuslari, Green University va uning qoshidagi institutsional tuzilmalarning ilmiy-amaliy faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari va ekologik iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro hamkorlik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** tabiatga asoslangan texnologiyalar, aylanma iqtisodiyot, ekologik innovatsiya, chiqindisiz texnologiyalar, ekologik ta’lim, Green University, barqaror rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish.

### Kirish

So‘nggi o‘n yillikda global miqyosda ekologik xavfsizlik, resurslarni tejash va aylanma iqtisodiyot tamoyillariga o‘tish iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi ham mazkur tendensiyalardan chetda qolmay, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida tabiiy resurslarni asrab-avaylash, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiy o‘sishni innovatsion texnologiyalar orqali qo‘llab-quvvatlashga alohida

e’tibor qaratmoqda. Tabiatga asoslangan texnologiyalar (Natural Based Technologies)ni joriy etish orqali davlat chiqarayotgan chiqindilarni qayta ishlash, ikkilamchi xomashyo aylanmasini kengaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish va ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimini shakllantirishni maqsad qilgan.

Mamlakatda ekologik islohotlarni tizimli tarzda amalga oshirish maqsadida bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori, 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-son farmoni va 2025-yil 24-martdagi PF-56-son farmonlari asosida ekologiya tizimi boshqaruvi, chiqindilarni qayta ishlash, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologik ta’limni takomillashtirish bo‘yicha yangi dasturlar yo‘lga qo‘yildi.

**Asosiy qism**

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivolantirishda tabiatga asoslangan texnologiyalar(Natural Based Technologies)dan foydlanishga alohida e’tibor qaralmoqda.

Xususan, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, yashil iqtisodiyotga o‘tish hamda aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Mazkur sohada Davlat rahbari tashabbusi bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar 2023-yil 31-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-171-son qarori, 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-son farmoni, 2025-yil 24-martdagi “Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-56-son farmoni qabul qilindi.

Ular asosida iqtisodiyotini rivolantirishda tabiatga asoslangan texnologiyalarni joriy qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzurida “Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti” (Green University) hamda Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Bu tuzilmalar xalq, davlat va xususiy sektor bilan hamkorlikda chiqindilarni qayta ishlash, ikkilamchi xomashyo aylanmasini kengaytirish, sanoat korxonalarida ekologik menejment tizimini joriy etishning nazariy va ilmiy asoslangan amaliyoti bo‘yicha izchil ishlarni amalga oshirishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonning aylanma iqtisodiyot sohasidagi islohotlari, avvalo, tabiatga asoslangan texnologiyalar, resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash hajmini oshirishga qaratilgan. Bu yo‘nalishda davlat siyosatining asosiy maqsadi — ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarida “chiqindisiz texnologiyalar”ni joriy etish, tabiiy resurslar sarfini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda iqtisodiyotning ekologik barqarorligini ta’minlashdir.

Har qanday taraqqiyotning asosi va muammoning yechimi ilm-fan hamda tadqiqotlar bo‘lishini inobatga olib Green Universityda aylanma iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha alohida ta’lim dasturining yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu sohada malakali kadrlar tayyorlash ishlari jadal olib borilmoqda.

Green University va uning qoshidagi ilmiy tadqiqot institutlarining professor-olimlari tabiatga asoslangan texnologiyalarni joriy qilish, ekologik innovatsiyalar, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari, barqaror ishlab chiqarish va iste’mol modellari bo‘yicha izlanishlar olib borishmoqda. Talabalar ularning bilim va tajribalarni o‘zlashtirgan holda amaliy loyihalar orqali real muammolarga istiqbolli yechimlar taklif qilish tajribasini orttirishmoqda.

Shu bilan birga, ayrim kamchiliklar ham kuzatilmoqda. Jumladan, aylanma iqtisodiyot sohasida zamonaviy laboratoriya jihozlari yetishmasligi, xalqaro grantlar va ilmiy loyihalar sonining kamligi, kadrlar tayyorlash jarayonida ishlab chiqarish bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurati mavjud. Bu muammolarni bartaraf etish uchun Green University BMT, Jahon Banki, YXHT, UNESCO, GIZ, UNEP, ICBA, OTB, EURECA kabi xalqaro tashkilotlar, Britaniya Imperial Kolleji, Harbin Texnologiyalr Inistuti, Lanchjou universiteti ilmiy-tadqiqot inistitutlari, Vision Invest, AQUPOWER, Conch sement va boshqa kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirmoqda, yangi o‘quv modullarini ishlab chiqish va amaliyot bazalarini yaratish, ta’lim va amaliyotni birga olib borish ustida ish olib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda tabiatga asoslangan texnologiyalar va aylanma iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi nafaqat ekologik muammolarni hal etish, balki iqtisodiy o‘sishning yangi modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Davlat siyosati, ilmiy-tadqiqot ishlari va ta’lim tizimi o‘rtasidagi uyg‘unlik ushbu sohada barqaror natijalarga erishishning asosiy omilidir.

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University)ning aylanma iqtisodiyot yo‘nalishida olib borayotgan faoliyati bu jarayonning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, kelajakda ekologiya sohasida yetuk, malakali va mas’uliyatli mutaxassislar yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Mavjud kamchiliklarni tizimli yondashuv asosida bartaraf etish orqali O‘zbekiston ekologik barqaror, iqtisodiy jihatdan mustahkam va raqobatbardosh davlat sifatida rivojlanishda davom etadi.

**Xulosa**

O‘zbekistonda tabiatga asoslangan texnologiyalar va aylanma iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o‘tilayotganini ko‘rsatadi. Green University kabi ta’lim va ilmiy muassasalarning tashkil etilishi ekologik innovatsiyalarni qo‘llash, chiqindilarni qayta ishlash, sirkulyar mexanizmlarni ishlab chiqish va ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun malakali kadrlar tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, zamonaviy laboratoriyalar yetishmasligi, xalqaro grantlar va ilmiy loyihalar sonining kamligi, ishlab chiqarish bilan hamkorlikning sustligi kabi muammolar mavjud. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va ilm-fan, davlat siyosati hamda biznes sektori o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali O‘zbekiston ekologik barqaror davlatlar qatoriga qo‘shilishi mumkin. Tizimli yondashuv asosida

tabiatga asoslangan texnologiyalarni keng joriy etish kelgusida iqtisodiy o‘sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori PQ-171-son (31.05.2023). “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5-son (04.01.2024). “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-56-son (24.03.2025). “Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. Green University rasmiy sayti va ilmiy hisobotlari (2023–2025).
5. United Nations Environment Programme (UNEP), “Circular Economy: Global Trends and Examples”, 2022.
6. Kirchherr, J., et al. (2018). “Conceptualizing the Circular Economy: An Analysis of 114 Definitions.” *Resources, Conservation & Recycling*.
7. Ellen MacArthur Foundation (2021). “Natural Based Solutions and Circular Economy”.


## Turizm sohasini muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilmalar faoliyatini boshqarishning nazariy asoslari


**Akkulov Abdulaziz O‘rolboyevich,**
*O‘zbekiston Respublikasining*
*BAAdagi Favqulodda va Muxtor Elchisi va*
*TDIU mustaqil tadqiqotchisi*



**Annotatsiya.** Maqolada turizm sohasini muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilmalar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari o‘rganiladi. Ushbu tadqiqotda davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat, ilmiy va jamoat tashkilotlarining turizm rivojlanishidagi roli, boshqaruvning samarali mexanizmlari va barqarorlik tamoyillari tahlil qilinadi. Maqola nazariy asos sifatida turizm boshqaruvi, institutsional boshqaruv va barqaror turizm konsepsiyasiga asoslanadi.



**Kalit so‘zlar:** turizm, yashil turizm, institutsional tuzilmalar, boshqaruv, barqaror rivojlanish, strategik boshqaruv.


**Kirish**

Turizm — mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim soha bo‘lib, u nafaqat davlat daromadining oshishiga, balki mahalliy jamoalarning farovonligiga ham hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, turizm faoliyati tabiat va madaniy merosga ta’sir qilishi mumkin, shuning uchun uning rivojlanishi muvofiqlashtirilgan boshqaruvni talab qiladi.

O‘zbekistonda turizmni boshqarish institutsional tizim asosida amalga oshiriladi. Bu tizimga davlat organlari, mahalliy hokimliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, jamoat va nodavlat tashkilotlar kiradi. Ularning vazifasi — turizm siyosatini strategik rejalashtirish, hududiy rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashdir.

Nazariy jihatdan, turizmni boshqarishning samarali mexanizmlari quyidagi konsepsiyalarga asoslanadi:

– Barqaror turizm – ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash.

– Institutsional boshqaruv – turizmni tartibga soluvchi tuzilmalar faoliyatini samarali tashkil etish.

– Strategik boshqaruv – uzoq muddatli rejalashtirish va resurslarni oqilona taqsimlash.

Olimlar turizmni boshqarishning institutsional va strategik jihatlarini keng tadqiq qilganlar. B.Bramwell va B.Lane o‘z tadqiqotlarida “turizmni boshqaruvchi institutsional tuzilmalar — davlat, mahalliy boshqaruv, ilmiy va jamoat tashkilotlari tizimi bo‘lib, ular turizm siyosatini rejalashtirish va amalga oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi[1]”- degan fikrlarni bildirgan. D.Weaver barqaror turizmning asosiy tamoyili — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan muvozanatni saqlashdir. Shu tamoyil institutlar faoliyatini rejalashtirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi degan[2]. Turizm sohasini boshqarishda institutsional tuzilmalar samarali boshqaruv, monitoring va resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqadi[3]. Tadqiqotchilar Sharipov va Mamatqulovalar “turizmni rivojlantirishda institutsional boshqaruv innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xizmat sifatini oshirish va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi[4]”- degan fikrlarni bergan.

O‘zbekistonda turizm sohasini muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilmalar faoliyatini boshqarishga doir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bunga misol qilib, O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida” qonuni — turizm sohasida davlat siyosati, turizm xizmatlari, turistik zonalar va klasterlar hamda tur operatorlari faoliyatini belgilovchi hujjat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi prezident qarori UP–4861 “Turizm sohasini tezkor rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” — turizm sanoatini tezkor rivojlantirish uchun ustuvor yo‘nalishlar belgilagan. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyuldagi 433-sonli qarori “Turizm sohasini tiklash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” — turizm sub’ektlari litsenziyalari va turizm kadrlarini qayta tayyorlash tartibini belgilovchi hujjat, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining UP-87 sonli qarori “2025-2026 yillarda turizm xizmatlari hajmini keskin oshirish va turistlar oqimini ko‘paytirish to‘g‘risida”

[1] B.Bramwell, B.Lane, Critical research on the governance of tourism and sustainability // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5.

[2] D.Weaver Sustainable Tourism: Theory and Practice. – Oxford: Elsevier Butterworth-Heinemann, 2006. – 260 p.

[3] United Nations World Tourism Organization (UNWTO). Sustainable Tourism for Development Guidebook. – Madrid: UNWTO, 2021. – 145 p.

[4] Sharipov, A. O‘zbekiston hududlarida turizmni rivojlantirish omillari // Turizm va Servis jurnali. – 2023. – №2. Mamatqulova, D. Turizm infratuzilmasini yaratishning innovatsion yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va Innovatsiyalar. – 2022. – №4.

— turizm sektorini kengaytirish va dinamik rivojlantirishga qaratilgan maqsadlar va chora-tadbirlarni belgilaydi[5].

Institutsional boshqaruv konsepsiyasiga ko‘ra, turizmni tartibga soluvchi tuzilmalar quyidagi vazifalarni bajaradi:

– davlat organlari: turizm siyosatini ishlab chiqish, reglamentatsiya va nazorat. masalan, o‘zbekiston respublikasi turizm va madaniy meros vazirligi turizmni strategik rivojlantirishni boshqaradi;

– mahalliy hokimliklar: hududiy turizmni rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yaratish va nazorat qilish;

– ilmiy va ta’lim muassasalari: turizm kadrlarini tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion yechimlar ishlab chiqish;

– jamoat va nodavlat tashkilotlar: tur operatorlari va mehmonxonalarni birlashtirish, xizmat sifatini nazorat qilish, mahalliy hamjamiyatni jalb qilish.

Institutsional boshqaruv nazariyasi asosida turizm siyosati strategik va barqaror shakllanadi, turizm infratuzilmasi va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Turizmni muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilmalar faoliyatida strategik boshqaruv quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi.

Barqarorlik: tabiiy va madaniy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlash.

Integratsiya: davlat, mahalliy jamoa va xususiy sektor faoliyatini uyg‘unlashtirish.

Innovatsiya: turizm xizmatlari va infratuzilmani rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash.

Nazorat va monitoring: turizmning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirini baholash va mos choralarni belgilash.

Strategik boshqaruv institutsional tizimning samaradorligini oshirish, turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va hududiy rivojlanishga hissa qo‘shish imkonini beradi.

O‘zbekistonda turizmni muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilmalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat. Bularga davlat boshqaruv organlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, mahalliy hokimliklar, moliyaviy va iqtisodiy institutla, davlat investitsiya fondlari, banklar va kredit tashkilotlari, ilmiy va ta’lim muassasalari turizm yo‘nalishida mutahassislar tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlari, kasb-xunar texnikumlari, ilmiy markazlar, jamoat va nodavlat tashkilotlar turizm assotsiatsiyalari va ekologik tashkilotlar kiradi. Bu tizimning hamkorligi turizm siyosatini amalga oshirish, hududiy rivojlantirish va mahalliy jamoalarning ishtirokini ta’minlash imkonini beradi.

O‘zbekistonda turizm sohasini muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilmalar faoliyatini boshqarish borasida so‘nggi yillarda keng ko‘lamli islohotlar amalga

[5] O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2019 yil, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi PQ–4861-sonli qarori “Turizm sohasini tezkor rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyuldagi 433-son qarori “Turizm sohasini tiklash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025–2026 yillarda turizm xizmatlari hajmini keskin oshirish va turistlar oqimini ko‘paytirish to‘g‘risidagi PQ–87-son qarori.

oshirilmoqda. Avvalo, turizmni iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlantirish maqsadida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi muvofiqlashtiruvchi organ — O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyati takomillashtirildi. Mazkur qo‘mita tomonidan turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish yo‘nalishlarida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, “O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi – 2030” hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida turizm sohasini boshqarishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, hududiy turizm klasterlarini shakllantirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish va barqaror turizm tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha muhim dasturlar ishlab chiqildi[6]. Bundan tashqari, davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoalarning hamkorligini mustahkamlash orqali turizmni boshqarish jarayonida samaradorlik va shaffoflikni oshirishga qaratilgan tashabbuslar izchil amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosaga keldik. Turizm sohasini muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilmalar davlat, mahalliy boshqaruv, ilmiy va jamoat tashkilotlari tizimidan iborat bo‘lib, ular turizm siyosatini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Institutsional boshqaruv konsepsiyasi turizmni tartibga soluvchi tuzilmalar faoliyatini rejalashtirish va boshqarishning nazariy asosini tashkil etadi. Strategik boshqaruv va institutsional hamkorlik turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta’minlaydi. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda institutsional boshqaruvni takomillashtirish va hududiy hamkorlikni kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1.O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni 2019 yil.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi “Turizm sohasini tezkor rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4861-sonli qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Turizm sohasini tiklash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 10 iyuldagi 433-son qarori.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025–2026 yillarda turizm xizmatlari hajmini keskin oshirish va turistlar oqimini ko‘paytirish to‘g‘risidagi PQ–87-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni,

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

7.B.Bramwell, B.Lane, Critical research on the governance of tourism and sustainability // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5.

8. D.Weaver Sustainable Tourism: Theory and Practice. – Oxford: Elsevier Butterworth-Heinemann, 2006. – 260 p.


[6]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

9. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). Sustainable Tourism for Development Guidebook. – Madrid: UNWTO, 2021. – 145 p.
10. A.Sharipov O‘zbekiston hududlarida turizmni rivojlantirish omillari // Turizm va Servis jurnali. – 2023. – №2.
11. D.Mamatqulova Turizm infratuzilmasini yaratishning innovatsion yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va Innovatsiyalar. – 2022. – №4.
12. https://review.uz/oz/post/axborot portali

## INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN “YASHIL MEHMONXONA” XIZMATLARIDA SAMARALI FOYDALANISH

**Mexmonov Sultonali Umaraliyevich,**
*Toshkent Davlat Iqitisodiyot Universiteti*
*O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori,*
*i.f.d., professor*

**Annotatsiya.** Maqolada mehmonxona biznesida qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar va ularning afzalliklari haqida fikrlar bildirilgan. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan mehmonxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali xizmat sifatini oshirish yo‘nalishlarini belgilab olish talab qilinadi. Shundan kelib chiqan holda maqolada sohaning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash, turistlarga sifatli xizmat turlarini ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, mehmonxona, innovatsiya, texnologiya, yashil energiya, xizmat ko‘rsatish.

### Kirish

So‘nggi yillarda respublikamiz turizmida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalar yuzaga kelmoqda. Bu borada mehmonxonalarda turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va uni xalqaro darajaga yetkazishda xorij tajribasini o‘rganishga zarurat tug‘ilmoqda.

Bu borada 2022-2026 yillarga amalga oshirilishi belgilangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlarida biri sifatida ko‘rsatilgan “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy turistlarni 12 millionga, xorijiy turistlarni 9 millionga yetkazish[7] uchun infratuzilmani qayta ko‘rib chiqish belgilab berildi. Bunda turistik xizmatlar sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash orqali mamlakatimizga xorijlik turistlar tashrifini keskin ko‘paytirish, xizmatlar eksportini bir necha bor ko‘paytirish, mahalliy aholining daromadlarini oshirish, xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026

[7] https://lex.uz/. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон фармони. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон; 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон; 03.01.2024 й., 06/24/221/0003-сон)

yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2021 yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son farmonlari, 2023 yil 27 iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-238-son, 2023 yil 26 apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-son, qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Respublikamizda mehmonxona biznesi va unda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lib, ularda asosan yangi xizmat turlarini joriy qilish turlicha talqin qilingan va ta’riflangan, lekin ularning har bittasida ist’molchiga yo‘naltirilganligi asosiy o‘ringa ega. Biz mazkur xulosalarga asoslanish maqsadga muvofiqligini ta’kidlab, bu borada ayrim mualliflarning fikri va mulohazalarini tahlil qilib, ularning natijalarini umumlashtirib, takomillashtirish to‘g‘risidagi mulohazalarimizni qisqacha bayon qilamiz.

Mehmonxona biznesida innovatsion texnologiyalarni joriy etish murakkab jarayon bo‘lib, ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayonlarning nazariy jihatlarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbiq qilish borasida yetakchi xorijlik olimlar Karmen Babaita, Gabrriela Sipos, Andreia Ispas va Andrea Nagular tomonidan “Ledership style and culture for innovation in hotel industru” -deb nomlangan darsligida mehmonxonalarda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalar yetakchi rol o‘ynashi borasida mulohazalar yuritiladi. Yana bir xorijlik olim Artura Kunllas tomonidan chop etilgan “Innovation in hospitality management” –deb nomlangan asarda mehmononalarda innovatsion boshqaruv usullarini qo‘llash orqali samaradorlikka erishish ustida tadqiqotlar olib borgan. Mualliflar ko‘rib o‘tilgan omillarni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jaryonlariga yetarlicha e’tibor qaratmagandir.

Shu jumladan mamlakatimiz olimlaridan Q.X.Abdurahmanov, N.T.To‘xliyev, M.Q.Pardayev, A.A. Eshtayev, A.M.Abduvohidov, M.T.Aliyeva, , D.X.Aslanova, B.N.Navro‘z-zoda, O.M. Pardayev, B.H. To‘rayev, O.H. Xamidov, B.Sh. Safarov, N.S. Ibragimov, A.T. Mirzaevlar turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga ta’sir etuvchi omillar aniqlashga katta hissa qo‘shgan.

Ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga va sohaga innovatsion texnologiyalar joriy qilish borasida ko‘plab mualliflar o‘rtasida yagona tushuncha mavjud emas. Fikrimizcha bu borada hali olib borilishi kerak bo‘lgan tadqiqotlarning ko‘lami keng bo‘lib, turistik xizmatlarning bir-biriga mutonasib rivojlanishini ta’minlashimizda atroflicha belgilangan xalqaro tajribalarini ham hisobga olishimiz lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda mehmonxonalarda sifatli xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishda

yaqin yillarda kutilayotgan innovatsion o‘zgarishlarni hisobga olish va shu orqali turizmning rivojlanishini yaxlit infratuzilma sifatida o‘rganish metodologiyasi qo‘llanilib, bu borada mutaxassislar fikrini o‘rgangan holda, kuzatish, qiyoslash, emperik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi usullari orqali turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlarining rivojlanishi yo‘nalishlarini belgilab berish usuli taklif etilgandir. Shuningdek, 2030 yilgacha respublikamizda mehmonxona biznesi rivojlanishi yo‘nalishlarining ustivor vazifalariga oid xulosalar qilingan va respublikamizda turistlarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tahlil va natijalar**

Jahonda 2019 yilning oxiri va 2020 yilning boshida yuz bergan pandemiya holati turistlarning xavsizligini ta’minlashda bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Turistlar xarakatlari keskin darajada tushib ketdi. Pandemiyadan keyin turistlar orasida tabiat qo‘yniga uyushtirilayotgan sayohatlar talab ortib borishiga qaramasdan, ularni mehmonxonalarga joylashtirishda yangi tendensiya kuzatilishi tezlashdi. Turistlar ko‘proq “eko-mehmonxona”larda tunab qolishga intilmoqda. Eko-mehmonxonalarning o‘ziga xos xususiyati atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtirishga qaratilgan maxsus choralarni joriy qilishdan iborat bo‘lgan yo‘nalishdir. Mehmonxonalarda suvni tejash, chiqindilarni saralash, ekologik toza tozalash vositalaridan foydalanish, kiyimlarni yuvish va nonushta uchun organik mahsulotlarni taklif qilishdir. Eko-mehmonxona yoki hozirda keng ommolashayotgan tushuncha “Yashil mehmonxona”lar uchun eng xarakterli bo‘lgan asosiy jihatlarni ikki guruhga ajartish mumkin:

-chiqindilarni samarali boshqarish (minimallashtirish va utilizatsiya qilish);

-turli xil resurslardan (elektr energiyasi, suv, sotib olingan tovarlar) foydalanishni qisqartirish.

Pandemiyadan keyin ko‘plab sayohatga chiqayotgan turistlar orasida kuzatilayotgan holatga qaraydigan bo‘lsak, ular eko-sayohatga ko‘proq ustunlik berishmoqda. Hozirgi statistika ko‘rsatishicha:

-turistlarning 85% tabiat qo‘yniga sayohat qilishni muhim deb bilmoqda;

-turistlarning 50% iqlim o‘zgarishi natijasida tabiat qo‘yniga sayohat qilishga uchun zarurat borligi va ularning sayohatini tanlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidladi;

-turistlarning 30% haddan tashqari gavjum joylarga tashrif buyurishni xush ko‘rmaslikni va yuqori mavsumda sayohatlarga chiqmaslikni maqul ko‘rishmoqda;

-turistlarning qarib 25% pandemiya ta’sirida va xarajatlarni kamaytirish maqsadida o‘zlari yashaydigan manzildan uncha uzoq bo‘lmagan joylarga sayohat qilishni afzal ko‘rmoqda.

Ko‘pchilik turistlar ma’lumotlarning yetishmasligi, ularning ishonchsizligi sababli sayohatlarni qaysi turini tanlashga ikkilanmoqda va ma’lum bir muammolarga duch kelmoqda. Turistik kompaniyalar turistlarga sayohatlarni targ‘ib qilish qilish, qaysi mehmonxonalar xizmatlaridan foydalanishni taklif qilayotganda, birinchi navbatda mehmonxonalarning atrof-muhitni muhofaza qilishga bo‘lgan chora-tadbirlariga ko‘proq e’tibor berishlari kerak, chunki ekoturizmga talab tobora

ortib bormoqda.

Ba’zi mamlakatlarda so‘nggi o‘n yillikda mehmonxonalarni ekologiyalashtirish, mehmonxonalarda “yashil” texnologiyalardan foydalanish ularning faoliyatida asosiy konsepsiyaga aylanib ulgurdi. Mehmonxona biznesidagi innovatsiyalarning zamonaviy yo‘nalishi sifatida eko-mehmonxonalar yaratildi. Bugungi kunda eko-mehmonxonalarni joriy qilish va rivojlantirish mehmonxona sanoati faoliyatidagi yangi tendensiyasi hisoblanadi. Ekologik toza mehmonxonalar xizmatlarining joriy etilishi mintaqalarning turistik jozibadorligini oshirishga yordam beradi va jahon turizm bozorida raqobatdosh ustunliklarni ta’minlashga xizmat qila boshladi.

Masalan, dunyoga mashhur “Hilton” mehmonxonlar tarmog‘i 2030 yilgacha uglerod chiqindilari va suv iste’molini kamaytirish, plastik idishlardan foydalanishni to‘xtatish hisobiga atrof-muhitga ta’sirini ikki baravar kamaytirishni rejalashtirmoqda. “Marriott” mehmonxonalar tarmog‘i ham suv iste’molini 15%ga, uglerod iste’molini 30%ga, umumiy chiqindilarni 45%ga va oziq-ovqat chiqindilarini 50%ga kamaytirishga erishish uchun xarakat qilmoqda.

Eko-mehmonxonani innovatsion konsepsiya sifatida uni oddiy mehmonxonadan ajratib turadigan bir qator xususiyatlari bo‘lib, xususan, qurilishda ekologik toza materiallardan foydalanish, atrof-muhitga maksimal darajada ta’sir ko‘rsatmaslik, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (quyosh, shamol, energiyasidan) foydalanish, oqava suvlarni qayta ishlash kabilar.

Masalan, hozirda mashhurlashib borayotgan Slovakiyadagi “AquaCity” rekreatsion-sog‘lomlashtirish kurortining butun majmuasi mehmonxonalar, akvaparklar, restoranlar, fitnes zallari va boshqalarni isitish uchun quyosh va shamol energiyasidan foydalanmoqda.

Eko-mehmonxonalarda resurslarni tejashnining zaruriy sharti sifatida, resurslarni tejovchi uskunalardan foydalanish va barcha muhandislik xizmatlari va qurilish tizimlarini boshqarishni avtomatlashtirish lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Jahondagi brend mehmonxonalarda va mashhur dam olish markazlari yashil mehmondo‘stlik amaliyotini muvoffaqiyatli amalga oshirmoqda. Ulardan ba’zi birlarini keltirib o‘tadigan bo‘lsak, Kolorado shtatidagi Molina markazi quyosh panellarini o‘rnatib xizmatlar sifatini tubdan yangicha ko‘rinishga o‘tkazgan. Italiyadagi “Arosea Life Balance” mehmonxonasi mahalliy eko-materiallardan keng foydalanishni boshlagan. Sloveniyadagi “Glamping Ribno” mehmonxonasi chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash texnologiyalariga ustuvor ahamiyat bermoqda.

Hozirda bir nechta mashhur eko-mehmonxonalar faoliyat olib borishi bilan bir-biridan farq qilmoqda. Masalan, “Berghotel Muottas Muragl” mehmonxonasi o‘zi iste’mol qilganidan ko‘ra ko‘proq energiya ishlab chiqaradi va ortiqcha ishlab chiqilgan energiyani boshqa iste’molchilarga etkazib bermoqda.

“Berghotel Muottas Muragl” mehmonxonasi Yevropa joylashgan mehmonxonalar orasida eng qimmat “yashil mehmonxona” tipiga kiradi. Mehmonxona binosi so‘nggi yillarda ikki baravar kattalashganiga qaramasdan quyosh panellari o‘rnatilishi, geotermal isitgichlar va ekologik toza materiallar ishlatilishi natijasida energiya sarfini oldingisiga qaraganda 65-70%gacha qisqartirishga erishgan.

Pandemiyadan keyin turistlar sayohatlari davomida ekologik toza mehmonxonalarda qolishga urinmoqda. 2023 yilda turistlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra ularning 80% sayohatlari davomida ekologik toza mehmonxonalarda qolishni rejalashtirayotganligi ma’lum bo‘lgan.

Turistlarning talablaridlan kelib chiqqan holda yashil mehmonxonalarning faoliyat olib borishi uchun minimal standartlar tadbiq etila boshlandi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

-ekologik toza yoki qayta ishlangan materiallardan foydalangan holda yangi xizmat turlarini ishlab chiqish;

-aqlli termostatlar va aqlli yoritish uskunalarini o‘rnatish;

-toksik bo‘lmagan maishiy mahsulotlardan foydalanish;

-organik choyshablar, sochiqlar va matraslarni sotib olish;

-shamol va quyosh panellari kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish;

-mehmonxona chiqindilarini maksimal drajada kamaytirishga erishish;

-isrofgarchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikni rag‘batlantirish.

Kuzatishlar natijasida o‘rtacha mehmonxonalardagi suv sarfining 20% kir yuvishga sarflanishi ma’lum bo‘lgan. Turistlarni suvni tejash dasturiga moslashtirish orqali Las-Vegasdagi mashhur kurot va kazino “Sezar saroyi”da suvdan foydalanishni 30 million gallondan ko‘proqqa qisqartira erishgan.

Mehmonxonalarda innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish iste’mol chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini bir necha bor oshiradi. Misol uchun, mehmonxona nomeriga o‘rnatilgan taymerli dushlar tobora ommalashib bormoqda. Mehmonlar dush qabul qilish vaqtini oldindan belgilashlari mumkin va signal foydalanuvchiga dush vaqti deyarli tugashi haqida xabar beradi. Xonadagi aqlli yoritish moslamalari mehmonning nomerda bor yoki yo‘qligini aniqlay oladi, nomer bo‘sh bo‘lganda elektr quvvatini maksimal darajada tejaydi. Aqlli termostatlar mehmonxona energiya sarfini optimallashtiradi.

Hozirda qurilib foydalanishga toshpirilayotgan mehmonxonalarda yashil dizayn tajribasi keng qo‘llanilmoqda. Bunga birgina misol vitlib oladigan bo‘lsak, qurilsh kompaniyalari mehmonlarga elektr transport vositalari bilan xizmat ko‘rsatish uchun to‘xtash joyiga batareya zaryadlash stantsiyalarini o‘rnatishni ham amalga oshirimoqda.

Mehmonxona biznesiga sarmoya kiritishda ko‘proq tadbirkorlar asosan energiya tejovchi qurilmalardan foylanishni afzal ko‘rishmoqda. Bunda, yoritish moslamalari kabi yashil rangdagi mehmonxona jihozlariga, yoritish texnologiyasi, yorug‘lik darajasini kunning vaqtiga qarab sozlash tizimni dasturlashtirishni olishimiz mumkin.

Bu kabi tajribalar respublikamiz mehmonxonalarida joriy etish ishlari olib borilmoqda. Bunda ustuvor yo‘nalish sifatida energiya tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, tabiiy manbalar va suvni tejash choralari ko‘rish orqali mehmonxonalar va kurortlarning atrof-muhitga ta’sirini sezilarli darajada kamaytirish va atrof-muhitga e’tiborli sayohatchilarning ehtiyojlarini qondirishga harakat qilinmoqda.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganlarga asoslanib, mehmonxona biznesi hozirgi vaqtda ekologik tendensiyani shakllantirish va ommalashtirish bosqichida desak bo‘ladi. Shu

bilan birga, dunyoning ko‘plab mamlakatlari milliy bozorlarida eko-mehmonxonalar bo‘yicha boy tajriba to‘plagan bo‘lib, muvofaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Bu kabi tajribalarni qo‘llash orqali respublikamizda mehmoxona biznesini xalqaro darajaga chiqarishimiz kerak bo‘ladi.

**Xulosa va takliflar**

Oddiy mehmonxonalarni innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali eko-mehmonxonaga aylantirish hozirda keng avj olmoqda. Bu kabi mehmonxonalarni qayta jixozlashda quyidagilarga e’tibobrni qaratishimiz lozim bo‘ladi.

1. Mehmonxonalardagi joriy amaliyotlarni (energiya sarfini, suvdan foydalanishni, chiqindilarni qayta ishlashni va atrof-muhitga bo‘layotgan ta’sirlarni) baholash.

2. Mehmonxonalarda energiyani tejaydigan yoritishni qurilmalari (LED lampalar, nomerlarga harakat sensorlarini o'rnatish), isitish, shamollatish va konditsioner tizimlarini qayta ko‘rib chiqish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish agar imkoni bo‘lsa quyosh panellari yoki shamol turbinalarini o‘rnatish.

3. Mehmonxonalarda suvni tejash qurilmalarini (past bosimli dush kranlari) o‘rnatish va aqilli termostatni keng joriy qilish.

4. Mehmonxonalarda chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlashda birinchi navbatda oshxona va restoranlardan organik chiqindilarni kompost qilish, bir martalik ishlatiladigan plastmassalarni kamaytirish (plastik butilkalar va gigiena vositalari idishlari).

5. Ekologik toza mahsulotlar (tozalash vositalari, paxta materiallardan tayyorlangan choyshablar), uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun mahalliy yetkazib beruvchilardan oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni sotib olish.

6. Mehmonxonaga tashrif buyuruvchilarga yashil tashabbuslar haqida ma'lumot berish va uni qo‘llab quvvatlaganlarni rag‘batlantirish, nomerlarga energiya va suvni tejash amaliyotlari haqida eslatmalarni joylashtirish.

7. Mehmonxona ishchi xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash amaliyotini doimiy ravishda takomillashtirib borish.

8. Mehmonxona faoliyatini muvofiqlashtiri uchun doimiy ravishda monitoring (energiya va suvdan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa asosiy ko'rsatkichlar bo‘ycha) olib borish.

Ushbu amallarni bajarish orqali mehmonxonalarning atrof-muhitga ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishi, barqarorlikni yaxshilash va ekologiyaga e'tiborli turistlarni jalb qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni.

2. A.N. Norchayev. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. i.f.d. (DSc) ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T. TDIU, 2021 yil. 254 b.

3. Turizmda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish yo‘nalishlari.

“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2020 yil. 216-222 betlar.
4. www.lex.uz
5. www.unwto.org
6. www.uzbektourism.uz
7. www.stat.uz
8. www.kun.uz

## O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISH XUSUSIYATLARI

**Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna**
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*
*Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori*
*i.f.d., professor*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yashil turizmni rivojlantirishning xususiyatlari va omillari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, respublikada yashil turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, barqaror turizm, energiya tejaydigan texnologiyalar, ekoturizm

### Kirish

Yashil turizmni rivojlantirish maqsadlari turistik faoliyat muhitining tashqi va yashil omillariga bog‘liq. Yashil turizmning tashqi muhit omillari zamonaviy, shiddat bilan o‘zgarayotgan iqtisodiy muhitda o‘zgarib turganligi sababli, bu tashkiliy-iqtisodiy mexanizm uni boshqa muayyan maqsadlardan ajratib turuvchi bir qator tizimli xususiyatlarga ega. U rivojlanishning o‘zgarib turuvchi talab va maqsadlari sharoitlarida o‘zining asosiy funksiyalarini bajarish imkoniga ega bo‘lishi, shuningdek, tashqi muhit o‘zgarishlarga uchraganda o‘z ish parametrlarini saqlab qolishi zarur.

Yashil turizmda tashkiliy-iqtisodiy mexanizm iqtisodiy jarayonlarning normal borishiga, iqtisodiy tizim va uning ob’yektlari barqaror faoliyatda bo‘lishini qo‘llab-quvvatlashga, turizm faoliyatini yanada rivojlanishiga, uzilishlar, qonunlar, normativ ko‘rsatmalar, shartnomalar buzilishlarining oldini olishga ko‘maklashadigan sharoitlar yaratish choralari va vositalarining yig‘indisi hisoblanadi. Bunga quyidagi besh jihat yorqin misol bo‘la oladi:

-qonun jihatidan ta’minlash (turistik faoliyatning normal borishiga ko‘maklashadigan qonunlar ishlab chiqish);

-infratuzilma jihatidan ta’minlash (yashil turizmni tashkil etish uchun umumiy sharoitlarni yaratuvchi va ta’minlovchi moddiy-texnik elementlarning mavjud bo‘lishi);

-moliyaviy ta’minlash (investisiya manbalarini aniqlash va turizm sohasida qulay investisiya iqlimini yaratish);

-axborot ta’minoti (yashil turizmni tashkil etish va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda turistlarni axborot bilan ta’minlash);

-kadrlar bilan ta’minlash (sifatli turistik xizmatlar ko‘rsatishga layoqatli bo‘lgan malakali oliy, o‘rta va quyi bo‘g‘in xodimlarini o‘z vaqtida va doimiy tayyorlash hamda qayta tayyorlash).

Yashil turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlariga qaraydigan bo‘lsak, tashkiliy mexanizmda yashil turizmda tashrif buyuradigan sayyohga ko‘rsatiladigan xizmatlarni sifat darajasi shu mahalla yoki hudud rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Shu munosabat bilan turistlar tashrif buyuradigan yashil hududlarda aholini yashil turizm savodxonligi oshirish bo‘yicha qo‘shimcha o‘quv markazlarini ochish tavfsiya etiladi.

O‘zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirish, mamlakatda yashil turizmni rivojlantirish, mazkur sohada aholini ish bilan bandligini oshirish va shuning bilan bir qatorda tabiiy turfa xillikni, ya’ni biobalansni saqlash, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish maqsadida davlat organlarining yashil turizmni rivojlantirish sohasida aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirish maqsadida zamonaviy innovatsion ta’lim platformalarni amaliyotga keng tatbiq etishning yaxlit tizimini yaratish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini ko‘rsatishga to‘sqinlik qilmoqda.

Iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda “yashil” turizmni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish har qachongidan ham dolzarb ekanini ta’kidlagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti turistik hududlarning “Yashil” turizmni joriy etish bo‘yicha eng yaxshi shahar" nominatsiyasini ta’sis etishni ham taklif qildi.

Qayd etilishicha, tashkilot ko‘magida yaqinda ish boshlagan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti hamda Samarqanddagi “Ipak yo‘li” xalqaro universiteti hamkorligida Global “yashil” turizm startaplari laboratoriyasini yaratish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, xavfsiz turizmni rivojlantirishda innovatsion raqamli platformalarni tatbiq etish dolzarb masalalardan bo‘lib hisoblanadi.

2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta’minlash, iqlim o‘zgarishiga doir masalalarda davlat xizmatlari qamrovini kengaytirish, “yashil” iqtisodiyot sohasida aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali aholi va mahalliy jamoatchilik ishtirokini kengaytirish;

“Yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektorga keng imkoniyatlar yaratish va “yashil” innovatsiyalarni joriy etishda xususiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat-xususiy sheriklikni va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

Dastur quyidagi 6 ta ustuvor yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiy o‘sishni ta’minlash vazifalarini belgilaydi:

-tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;

-milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;

-milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning “yashil” va kam uglerodli rivojlanishini ta’minlash;

-innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish;

-barqaror va inklyuziv “yashil” urbanizatsiyani rivojlantirish;

-“yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida katta ta’sir ostida bo‘lishi mumkin bo‘lgan aholi va ularning yashash joylarini qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalarning samarali amalga oshirilishi quyidagi yo‘nalishlardagi tarmoqlararo choralar bilan bir qatorda amalga oshiriladi:

-“yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish;

-“yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish;

-tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko‘paytirish;

-nodavlat notijorat tashkilotlar va xususiy sektorning faol ishtirokida ommaviy seminarlar, ishchi yig‘ilishlar va treninglar kabi ta’lim va targ‘ibot dasturlari orqali jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalarini kuchaytirish va muvofiqlashtirish;

-olingan tajriba va ilg‘or amaliyot bilan almashish uchun milliy platforma yaratish;

-tegishli mexanizmlar orqali milliy, mintaqaviy va global darajada tajriba almashish;

-tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoatchilikning bilimlarini lozim darajada birlashtirish uchun tegishli mexanizmlarni aniqlash;

-ta’lim sifati va natijadorligini oshirish - bolalar, yoshlar va ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularning inklyuziv ta’limini ta’minlash, sifati va qamrovini oshirish.

Shuningdek, “Yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan:

-davlat organlari va tashkilotlari boshqaruv xodimlarining boshqarish, rejalashtirish vakolatlarini takomillashtirish - manfaatdor vazirlik va idoralarning rahbar xodimlari uchun barqaror boshqaruv masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish;

-“yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha harakatlar va chora-tadbirlarni rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarini baholash bo‘yicha davlat va xususiy tashkilotlarning texnologik vakolatlarini mustahkamlash - manfaatdor davlat organlari va xususiy tashkilotlarning o‘rta va texnik xodimlari uchun treninglar o‘tkazish;

-“yashil” o‘sish, iqlim o‘zgarishiga barqarorlik bo‘yicha trenerlarni tayyorlash - salohiyatni oshirish bo‘yicha ta’lim, ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalar uchun instruktorlarni tayyorlash uchun qisqa muddatli kurslarini ishlab chiqish va o‘tkazish;

-kichik grantlar ajratish orqali xususiy tijorat va notijorat tashkilotlarda o‘qitish va maslahat xizmatlarini ko‘rsatishni qo‘llab-quvvatlash - xususiy tijorat va notijorat

tashkilotlar uchun “yashil” iqtisodiyot masalalari bo‘yicha ochiq ma’ruzalar, konferensiyalar va seminarlar o‘tkazish xarajatlarini qoplashga qaratilgan kichik grantlar taqdim etish;

-ta’lim tashkilotlarining tegishli o‘quv rejalariga “yashil” iqtisodiyot mavzularini kiritish - tegishli ta’lim tashkilotlarida mavjud fanlar doirasida “yashil” iqtisodiyot amaliyoti va tamoyillariga oid mavzularini kiritish;

-“yashil” iqtisodiyot onlayn markazini tashkil etish - “yashil” iqtisodiyot, uning qonunchilik bazasi, o‘tmish va kelajakdagi faoliyati, ilg‘or xalqaro tajribalar va “yashil” o‘sishning boshqa jihatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron platforma yaratish;

-vakolatli davlat organlari tizimidagi institut va markazlarning o‘zaro muvofiqlashtirilgan bilimlarni boshqarish bo‘yicha salohiyatini oshirish, to‘plangan bilim, tajriba va ilg‘or amaliyot almashinuvi bo‘yicha milliy platforma yaratish;

-turli darajada to‘plangan bilimlarni tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga integratsiya qilish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish;

-tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha to‘plangan bilim, tajriba va ilg‘or amaliyotlar asosida ommaviy seminarlar, ishchi yig‘ilishlar va treninglar kabi ta’lim va targ‘ibot dasturlari orqali jamoatchilikni iqlim o‘zgarishi haqida xabardor qilish kampaniyalarini o‘tkazish;

-Iqlim o‘zgarishi masalalarini targ‘ib qilishni umumiy o‘rta va oliy ta’lim o‘quv dasturlariga kiritish.

## O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari

**Zufarova Nozima Gulamiddinovna,**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,*
*“Turizm” fakulteti dekani, DSc*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari o‘rganilgan bo‘lib, barqaror rivojlanish, atrof-muhitni boshqarish va mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan. Ushbu tadqiqot mamlakat ichida ekologik jihatdan mas’uliyatli turizmni shakllantirishni qo‘llab-quvvatlovchi kontseptual asos va metodologik yondashuvlarni o‘rganadi. Yashil iqtisodiyot, barqaror turizmni boshqarish va jamoatchilik asosidagi rivojlanish nazariyalariga tayanib, tadqiqot tabiiy resurslarni muhofaza qilish, mahalliy ishtirok va yashil turizm amaliyotidagi innovatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni bayon qiladi.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, yashil rivojlanish, yashil turizm modellari, CO2, issiqxona gazlari, barqaror rivojlanish.

### Kirish

Global ekologik o‘zgarishlar va barqaror iqtisodiy modellarga talabning ortib borishi sharoitida yashil turizmni rivojlantirish ko‘plab mamlakatlar uchun asosiy strategik yo‘nalishga aylandi. Ko‘pincha ekoturizm yoki barqaror turizm deb

ataladigan yashil turizm iqtisodiy o‘sishni atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirishga intiladi. U mahalliy jamoalar uchun ijtimoiy-iqtisodiy foydani maksimal darajada oshirish hamda tabiiy va madaniy resurslarning uzoq muddatli hayotiyligini ta’minlash bilan birga salbiy ekologik ta’sirlarni minimallashtirish tamoyiliga asoslanadi. Turli landshaftlar, noyob biologik xilma-xillik va boy madaniy merosga ega bo‘lgan O‘zbekiston uchun yashil turizmni rivojlantirish mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantirish va mamlakatning xalqaro turizm raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim imkoniyatdir.

So‘nggi o‘n yillikda O‘zbekiston ekologik va qishloq turizmi tashabbuslariga tobora ko‘proq e’tibor qaratib, turizm sohasini isloh qilishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Milliy strategiyalarda an‘anaviy madaniy yo‘nalishlardan tashqarida turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va barqarorlik tamoyillarini turizmni rejalashtirish va boshqarishga integratsiya qilish zarurligi ta‘kidlangan. Biroq, yashil turizmni samarali amalga oshirishning nazariy va metodologik asoslari yetarlicha rivojlanmaganligicha qolmoqda. Ko‘plab muammolar, jumladan, manfaatdor tomonlar orasida ekologik muammolar haqida xabardorlikning cheklanganligi, qishloq joylarda infratuzilmaning yetarli emasligi va ilmiy asoslangan siyosat doiralariga ehtiyoj borligi kabi muammolar mavjud.

Yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy va nazariy asoslari atrof-muhit fanlari, iqtisodiyot, sotsiologiya va mintaqaviy tadqiqotlardan olingan fanlararo tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu asoslarni tushunish iqtisodiy samaradorlik va ekologik mas’uliyatni muvozanatlashtiradigan barqaror turizm modellarini yaratish uchun juda muhimdir.

O‘zbekistonda 2019-2030-yillarga mo‘ljallangan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (PQ-4477-son qaror) iqlim o‘zgarishi sharoitida yashil turizmni rivojlantirish uchun huquqiy va ilmiy asos yaratadi. Strategiyada tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekotizimlarni asrash va iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish kabi vazifalar belgilangan. Masalan, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirish orqali cho‘llanishga qarshi kurashish va mahalliy aholi hayotini yaxshilash choralari ko‘rilmoqda. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish O’zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. [2]

Turizm jahon iqtisodiyoti o‘sish drayveri sifatida muhim salohiyatga ega sohalardan hisoblanadi. Turizm iqtisodiyoti jahon yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 5% ni tashkil qiladi, shu bilan birga u jami bandlikning qariyib 8% ni tashkil qiladi. Xalqaro turizm global eksportda to‘rtinchi o‘rinni egallaydi (yoqilg‘i, kimyo va avtomobilsozlik mahsulotlaridan keyin), sanoat qiymati yiliga 1 trillion AQSH dollarini tashkil etadi, bu jahon savdo xizmatlari eksportining 30 foizini yoki umumiy eksportning 6 foizini tashkil qiladi. Har yili taxminan to‘rt milliardga yaqin mahalliy sayyohlar keladi va 2022 yilda 940 millionga yaqin xalqaro sayyohlar qayd etilgan.

Turizm 150 dan ortiq mamlakatlarda eng ko‘p eksport qilinadigan beshtadan biri bo‘lsa, 60 dan ortiq mamlakatlarda esa birinchi raqamli eksport hisoblanadi[3]. Shuningdek, u rivojlanayotgan mamlakatlarning 1/3 qismi va kam rivojlangan mamlakatlarning 1/2 qismi uchun asosiy valyuta manbai hisoblanadi.

Sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan turistlar soni ko‘paygan sari turizmning atrof-muhitga ta’siri ham ortadi.

Yashil turizmni dastlabki rivojlanish bosqichida turizm faoliyati bilan bog‘liq avia transport va boshqa transport vositalaridan foydalanishda karbonat angidrid $CO_2$ issiqxona gazlari tashlanmalari ulushini keskin ortishiga sabab bo‘lishi va mehmonxona ximatlarini ko‘rsatilishi bilan bog‘liq holda elektr energiyasini meyordan ortiqcha iste’mol qilinishi ham elektr ishlab chiaruvchi korxonalar tomonidan ko‘mir va tabiiy gaz yoqish hisobiga karbonat angidrid $CO_2$ issiqxona gazlari tashlanmalari ulushini keskin ortishiga olib kelishi, shuningdek mehmonxonalar faoliyatida haddan tashqari ortiqcha suv resusrslari iste’moli atrof-muhitga salbiy ta’sirini tadqiq etishda ko‘plab tadqiqotchilar *ekologik Kuznets egri chizig‘i* (EKC) ilmiy gepotezasidan foydalanib kelishmoqda.

**Adabiyotlar sharhi**

Yashil turizm konsepsiyasi barqaror rivojlanishning kengroq doirasida rivojlanib, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurati tobora ortib borayotganini aks ettiradi. Manosuthi, N., Meeprom, S., & Leruksa, C. [3] kabi xalqaro olimlarning fundamental tadqiqotlari yashil turizm tabiiy resurslardan mas’uliyatli foydalanish, mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash va madaniy merosni saqlash orqali barqarorlik tamoyillarini o‘zida mujassam etganini ta’kidlaydi. Ushbu tadqiqot ishlari yashil turizmning samaradorligi tizimli rejalashtirish, ishtirokchi boshqaruv va ekologik qadriyatlarni turizmni boshqarishga integratsiyalashga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonda yashil turizm bo‘yicha akademik tadqiqotlar nisbatan yaqinda sodir bo‘lgan hodisadir. B.Safarov [4], A.A. Qodirov [5], Z. E. Normurodova [6] va N.Rasulova [7] kabi mahalliy olimlar milliy turizm siyosati doirasida ekoturizm va yashil turizmni rivojlantirish istiqbollarini tahlil qilishgan. Ularning tadqiqotlari tabiiy turizm resurslarini tasniflash uchun ilmiy asos yaratish, ekologik toza standartlarni belgilash va turizmni boshqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhimligini ta‘kidlaydi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.Kuziboev, U.Matyakubov singari mamlakatimiz olimlari yashil turizmni rivojlantirishda issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini aniqlash uslubiyatini ishlab chiqishga oid bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqishga munosib hissa qo‘shdilar[8].

**Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon, mantiqiy va iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, taqqoslash, statistik ma’lumotlarni guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar**

Jahon turizm industriyasi bugungi kunda tobora tez rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo‘lib, u global issiqxona gazlari tashlanmalarining asosiy manbalari qatoridan joy olmoqda. Bunda eksponensial o‘sish omili kuzatiladi, ya’ni turizm ko‘p miqdorda energiyani iste’mol qilish barobarida chiqindilar va karbonat angidrid (CO2) issiqxona gazlari tashlanmalari hosil bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Yashil iqtisodiyotdagi turizm – bu turizmning alohida shakli emas, balki aksincha turizmning barcha turlari barqarorligini ta’minlashga asosiy e’tibor qaratadi.

2030 yil uchun Xalqaro transport forumi prognozlariga ko‘ra, yoqilg‘i samaradorligining kutilayotgan yaxshilanishi, ekologik toza transport turlarining paydo bo‘lishiga qaramay, yo‘lovchi va yuk tashishga bo‘lgan talabning oshishi $CO_2$ chiqindilarining ko‘payishiga olib keladi.

2030 yilga borib, yo‘lovchi va yuk transportidan $CO_2$ ning umumiy tashlanmalari 2016 yilga nisbatan 21 foizga oshib, 8,772 million tonna $CO_2$ ni tashkil etadi, bu esa barcha antropogen $CO_2$ tashlanmalarining 23 foizini tashkil qiladi.

2025-yil 07 fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarorida O‘zbekiston Respublikasida “Yashil turizm” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo‘llash orqali iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish vazifalar “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari sifatida belgilab berildi.

**Xulosa**

Yashil turizmni rivojlantirishda issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini aniqlash uslubiyatini ishlab chiqishga oid tadqiqot natijasi quyidagi xulosalarni shakllantirish, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi:

1. Yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotlar, barqaror rivojlanish tamoyillari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi.
2. O‘zbekiston kabi iqlim o‘zgarishidan sezilarli darajada ta’sirlanadigan mamlakatlar uchun bu yondashuv nafaqat turizmni rivojlantirish, balki tabiiy muhitni saqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun strategik ahamiyatga ega.
3. O‘zbekiston turizm sektorining barqaror kelajagi uning nazariy tamoyillarni muvofiqlashtirilgan, dalillarga asoslangan siyosat va harakatlarga aylantirish qobiliyatiga bog‘liq. Yashil turizm, ilm-fan va jamoatchilik bilan aloqalar asosida boshqarilsa, ekologik muhofaza, ijtimoiy integratsiya va iqtisodiy barqarorlikning kuchli omili bo‘lib, mamlakat turizmini barqarorlik bo'yicha global kun tartibiga moslashtirishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.

3. Manosuthi, N., Meeprom, S., & Leruksa, C. (2024). Exploring multifaceted pathways: understanding behavioral formation in green tourism selection through fsQCA. Journal of Travel & Tourism Marketing, 41(4), 640–658. https://doi.org/10.1080/10548408.2024.2325529

4. B.Safarov, et al. Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. Sustainability 2022, 14, 7762. https://doi.org/10.3390/ su14137762

5. Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirishning uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati.-T.: BuxDU, 2024.-32-b.

6. Z. E. Normurodova [6] Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil, avgust. № 8-son. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

7. N. Yu. Rasulova. Research models of green tourism development. American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 31, August 2024, Pages 70-74.

8. Kuziboev B., Saidmamatov O., Khodjaniyazov E., Marty P., Ibragimov J., Davron Ruzmetov D., Matyakubov U., Lyulina E., Ibadullaev D. CO2 Emissions, Remittances, Energy Intensity and Economic Development: The Evidence from Central Asia. Economies 12: 95. 2024.

## O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL TURIZMNING REGENERATIV (TIKLOVCHI) MODELINI SHAKLLANTIRISH: XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMINI ISHLAB CHIQISH

**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich**,
*TDIU, Turizm va mehmonxona biznesi kafedrasi mudiri, i.f.d., professor*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishning yangi bosqichi sifatida regenerativ (tiklovchi) turizm modelini shakllantirish zarurati ilmiy asosda yoritilgan. Jahon amaliyotida (Yangi Zelandiyada “Tiaki Promise”, Kosta-Rikada “Regenerative Travel Framework”, Kanada va Islandiyada hududiy ekologik boshqaruv modellari) qo‘llanilgan innovatsion mexanizmlar tahlil qilindi. O‘zbekiston turizm sektorining ekologik barqarorligi, tabiiy resurslardan foydalanish saboqlari, mahalliy hamjamiyat ishtirokini kuchaytirish, yashil standartlarni joriy qilishda yuzaga kelayotgan cheklovlar ochib berildi. Tadqiqot yakunida O‘zbekiston uchun regenerativ turizmning milliy modeli va boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishga oid konseptual takliflar berildi.

**Kalit so‘zlar:** regenerativ turizm, yashil turizm, barqaror rivojlanish, ekoturizm boshqaruvi, innovatsion model, xalqaro tajriba, mahalliy hamjamiyat, tabiiy resurslar boshqaruvi.

**Kirish**

So‘nggi o‘n yilliklarda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Biroq turizm oqimlari keskin ortishi natijasida ko‘plab mamlakatlarda tabiiy ekotizimlarga yuklama kuchaydi, resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi, chiqindilar hajmining oshishi, suv va yer resurslarining degradatsiyasi, mahalliy hamjamiyatlarning madaniy muvozanati buzilishi kabi salbiy oqibatlar kuchaymoqda. Shu munosabat bilan xalqaro darajada “sustainable tourism” – barqaror turizm konsepsiyasi shakllandi va turli darajadagi strategik hujjatlar orqali mustahkamlanib bordi.

Ammo so‘nggi yillarda ilmiy hamjamiyat va amaliyotchi mutaxassislar barqaror turizm konsepsiyasining o‘zi ham ayrim hollarda yetarli emasligini ta’kidlamoqda. Chunki u ko‘proq “zararni minimallashtirish”ga qaratilgan bo‘lib, ko‘plab degradatsiyaga uchragan landshaftlar, buzilgan ekotizimlar va ijtimoiy-madaniy muhitni tiklash vazifasini to‘liq qamrab olmaydi. Shu nuqtai nazardan ilgari surilayotgan yangi yondashuv – regenerativ (tiklovchi) turizm konsepsiyasi nafaqat salbiy ta’sirlarni kamaytirish, balki turizm orqali tabiiy va ijtimoiy kapitalni qayta tiklash va boyitish g‘oyasiga asoslanadi.

Regenerativ turizmning mazmun-mohiyati shundaki, turizm faoliyati olib borilayotgan hududlar nafaqat “zarar ko‘rmasligi”, balki sayyohlar oqimi va turizm loyihalari hisobiga ekologik barqarorlik, biologik xilma-xillik, suv va yer resurslarining holati, mahalliy aholi daromadi, ijtimoiy birdamlik va madaniy merosni asrash ko‘rsatkichlari yaxshilanishi ko‘zda tutiladi. Bu yondashuv turizmni mahalliy hamjamiyat, tabiat va iqtisodiyot o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlar tizimida ko‘rib chiqadi.

O‘zbekiston misolida olib qaralganda, mamlakatning noyob tabiiy landshaftlari, o‘rmon va tog‘ ekotizimlari, cho‘l va yarim cho‘l hududlari, biosfera qo‘riqxonalari, shuningdek, qishloq joylaridagi agro- va etnoturizm salohiyati yashil va regenerativ turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan turizmni rivojlantirish bo‘yicha strategik hujjatlar, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish konsepsiyasi, hududlar kesimida ekoturizm zonalarini shakllantirish tashabbuslari ushbu yo‘nalishlarning ustuvorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ekoturizm va yashil turizmga oid loyihalar ko‘proq infrastruktura qurish, yangi yo‘nalishlar ochish, reklama va marketingga yo‘naltirilgan bo‘lib, tabiiy ekotizimlarni tiklash, ularning ekologik sig‘imini ilmiy asosda hisoblash, mahalliy hamjamiyatga egalik va boshqaruv vakolatlarini kengaytirish, turizm korxonalarini ekologik standartlar asosida sertifikatlash jarayonlari yetarli darajada shakllanmagan.

Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida xalqaro tajribalar asosida regenerativ turizmning innovatsion boshqaruv modelini ishlab chiqish, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy indikatorlar tizimini aniqlash, turizm faoliyatini hududlarning ekologik

tiklanishiga xizmat qiladigan tarzda tashkil etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Yashil turizm, barqaror rivojlanish va regenerativ turizm bo‘yicha ilmiy adabiyotlar so‘nggi o‘n yillikda sezilarli darajada kengaydi. Turizmning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini baholash, hududlarni boshqarish, tabiat xizmatlari konsepsiyasi, mahalliy hamjamiyatga asoslangan yondashuvlar, uglerod izini kamaytirish mexanizmlarini tushuntiruvchi nazariy tadqiqotlar mazkur mavzuning shakllanishida muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Scheyvens (2022) o‘zining “Tourism and Sustainability” asarida turizmning ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy barqarorlik omillarini tahlil qilgan. Muallif barqaror turizm amaliyotining ko‘plab mamlakatlarda keng joriy etilganini tan olgan bo‘lsa-da, mavjud tizim ko‘proq “zararni minimallashtirish”ga qaratilgani sababli ekotizimlarning tiklanishi masalasi yetarli darajada yoritilmaganini ta’kidlaydi. Bu fikr regenerativ turizmning paydo bo‘lishiga olib kelgan nazariy zaruriyatni asoslaydi.

Benur & Bramwell (2015) turizm mahsulotini diversifikatsiya qilish va barqaror boshqaruv modellarini taklif etadi. Ularning yondashuvi turizmni mahalliy resurslarga asoslangan holda boshqarish, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash va ekologik cheklovlarga rioya qilish kabi prinsiplarni o‘z ichiga oladi. Bu tamoyillar regenerativ turizm modelining tarkibiy qismi bo‘lib, O‘zbekiston sharoitida hududiy boshqaruv uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

UNWTO (2023) tomonidan e’lon qilingan “Tourism for Green Transformation Report”da turizmning yashil iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasi, uglerod izini kamaytirish bo‘yicha global mezonlar va mamlakatlar uchun ekologik transformatsiya yo‘nalishlari taqdim etilgan[8]. Ushbu hisobot O‘zbekiston uchun ekologik standartlar, sertifikatlash va yashil infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha metodik asos vazifasini bajaradi.

Regenerative Travel (2022) tomonidan ishlab chiqilgan “Regenerative Tourism Framework” global miqyosda regenerativ turizmning indikatori, tamoyillari va qiymat yaratish mexanizmlarini tizimlashtirgan eng muhim manbalardan biridir[9]. Unda turizm faoliyatining natijalari ekotizimning holatini yaxshilash, mahalliy hamjamiyatning iqtisodiy farovonligi va madaniy barqarorlik orqali o‘lchanishi kerakligi ta’kidlangan.

Yangi Zelandiyaning MBIE (2021) tomonidan taqdim etilgan “Tiaki Promise Guidelines” esa sayyohlar xulq-atvorini boshqarishning eng samarali modelini yaratgan. Mazkur tajriba adabiyotlarda ko‘plab ilmiy maqolalar orqali o‘rganilgan bo‘lib, u turistlarning ekologik mas’uliyatini oshirish orqali hududlarga tushayotgan yuklamani kamaytirishning amaliy mexanizmlarini ko‘rsatadi.

Islandiyaning “Destination Management Plan” konsepsiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tashrif sig‘imi (carrying capacity), landshaft tiklanishi, geotermal va vulqon hududlarida ekologik monitoring masalalariga e’tibor qaratadi. Ushbu

[8] https://www.untourism.int/world-tourism-day-2023

[9] https://www.regenerativetravel.com/elementor-21199/

yondashuvlar, xususan, “landscape resilience” (landshaft barqarorligi) nazariyasiga asoslanadi[10]. Kosta-Rika modeli esa ilmiy adabiyotlarda ekologik sertifikatlashning eng muvaffaqiyatli shakllaridan biri sifatida tilga olinadi. Bu tizim ekotizim xizmatlarining iqtisodiy qiymatlash uslublari, ekologik audit, korporativ ekologik mas’uliyatni oshirish bo‘yicha o‘rganilgan.

**Asosiy qism**

Regenerativ turizm – bu barqaror turizm konsepsiyasidan keyingi evolyutsion bosqich bo‘lib, turizm faoliyatidan keyin hududning “holati yomonlashmasligi” emas, balki “avvalgidan yaxshiroq” bo‘lishini maqsad qilib qo‘yadi. Bunda quyidagi nazariy tamoyillar ustuvor:

- Ekotizim yondashuvi: turizm hududlari alohida obyekt emas, balki o‘zaro bog‘liq tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy elementlardan tashkil topgan ekotizim sifatida ko‘riladi.
- Tabiat xizmatlari (ecosystem services) qiymatlash: rekreatsion imkoniyatlar, landshaft estetikasi, biyo-xilma-xillik, iqlimni yumshatish kabi xizmatlar iqtisodiy baholanadi va boshqaruv qarorlarida inobatga olinadi.
- Mahalliy hamjamiyatga asoslangan boshqaruv: turizm loyihalari tashqi investorlar manfaatiga emas, avvalo hudud aholisi manfaatiga xizmat qilishi, ularga egalik, qaror qabul qilish va daromad taqsimoti jarayonlarida ishtirok imkoniyatini berishi lozim.
- Uglerod izini kamaytirish: transport, joylashtirish vositalari, ovqatlanish, infratuzilma bo‘yicha $CO_2$ emissiyalarini hisoblash va bosqichma-bosqich pasaytirish.

Metodologik nuqtai nazardan, regenerativ turizm modelini ishlab chiqishda quyidagilar muhim:

- hududiy baholash (landscape assessment) – ekologik sig‘im, antropogen bosim, degradatsiya darajasini aniqlash;
- indikatorlar tizimini ishlab chiqish (ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, boshqaruv indikatorlari);
- manfaatdor tomonlar (state–business–community–NGO–tourist) o‘rtasidagi hamkorlik modeli;
- boshqaruv mexanizmlarini iqtisodiy rag‘batlar (soliq imtiyozlari, grantlar, subsidiyalar), normativ-huquqiy cheklovlar va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish.

O‘zbekistonning tabiiy-geografik sharoiti turli tipdagi yashil turizm yo‘nalishlarini shakllantirishga imkon beradi: tog‘ va tog‘ oldi hududlarida trekking va alpinizm, cho‘l landshaftlarida etno va eko-kemping, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida ekologik kuzatuv marshrutlari, o‘rmon va qo‘riqxonalarda birdwatching va tabiiy laboratoriyalar, qishloq hududlarida agro- va gastroturizm va hokazo.

Amaliyotda esa ko‘plab ekoturizm loyihalari quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

[10] https://www.ferdamalastofa.is/en/quality-and-development/destination-management-plans-dmps

- mashhur tog‘ va dam olish maskanlarida “over-tourism” holatlari kuzatilmoqda, chiqindi boshqaruvi tizimi zaif.

- ko‘p hollarda turizm loyihalari tashqi investorlar yoki markazlashgan kompaniyalar tomonidan boshqariladi, mahalliy aholi esa past qo‘shimcha qiymatga ega xizmatlar bilan cheklanib qoladi.

- mehmonxonalar va boshqa turistik obyektlar uchun ekologik sertifikatlar, “yashil” reytinglar keng joriy etilmagan.

- turizm faoliyatining aniq ekologik oqibatlarini ko‘rsatuvchi statistik baza va indikatorlar tizimi yetishmaydi.

Shu sababli, O‘zbekiston uchun “klassik” ekoturizm yondashuvi bilan cheklanib qolmasdan, hududlarning ekologik tiklanishini ham nazarda tutuvchi regenerativ model zarur bo‘lmoqda. Quyidagi 1-rasmda regenerativ turizm uchun ekologik indikatorlar berilgan.




**1-rasm. Regenerativ turizm uchun ekologik indikatorlar**[11]

**Xorij tajribasi: regenerativ turizm modellarini chuqur tahlil qilish**

Mazkur bo‘limda regenerativ turizm g‘oyalarini amalda hayotga tatbiq etayotgan ayrim mamlakatlarning tajribasi o‘rganiladi. Ular O‘zbekiston uchun konseptual va amaliy “yo‘l xaritasi” vazifasini bajarishi mumkin.

**1-Jadval.**

**Xorijiy davlatlarning regenerativ turizm modellarini taqqoslash**[12]

| **Mamlakat** | **Asosiy yondashuv** | **Qo‘llanilgan mexanizmlar** | **O‘zbekiston uchun mos jihatlar** |
|---|---|---|---|
| **Yangi Zelandiya** | Turist xulq-atvorini boshqarish, ekologik mas’uliyatni oshirish | Tiaki Promise, ekologik kodeks, Maori hamjamiyatlari bilan hamkorlik | Sayyohlar xulqini boshqarish, etnik guruhlar bilan turizm klasterlari |
| **Kosta-Rika** | Regenerativ | “Green | Yashil sertifikatlash |

[11] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
[12] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

| | | | |
|---|---|---|---|
| | sertifikatlash va ekotizimni tiklash | Certification", ekologik indikatorlar, milliy bog‘lar fondi | tizimi, tiklanish fondi, indikatorlar |
| **Islandiya** | Tashrif sig‘imi boshqaruvi va landshaft tiklash | Carrying capacity, degradatsiyani tiklash dasturlari | Chimgan–Beldersoy–Chorvoq zonasi uchun tashrif cheklovlari |
| **Kanada** | Mahalliy hamjamiyat yetakchiligidagi turizm | Indigenous-led tourism, daromad taqsimoti, madaniy turizm | Tog‘ va cho‘l hududlarida aholi yetakchiligidagi turizm klasterlari |

Yangi Zelandiya so‘nggi yillarda turizmni nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va madaniy tiklanish vositasi sifatida ko‘radigan yondashuvni shakllantirdi. "Tiaki Promise" tashabbusi – bu sayyohlar, mahalliy aholi va turizm biznesi o‘rtasida "mas'uliyat shartnomasi" bo‘lib, unda quyidagilar nazarda tutiladi:

- sayyohlar tabiatga ehtiyotkor munosabatda bo‘lish, chiqindilarni kamaytirish, himoya qilinadigan hududlarda belgilangan qoidalarga rioya qilish bo‘yicha yozma va vizual majburiyatlarni qabul qiladi;
- turizm operatorlari ekologik standartlarga rioya qilgan korxonalarni alohida belgilash va targ‘ib qilish orqali bozorni "yashil raqobat"ga yo‘naltiradi;
- mahalliy Maori hamjamiyatlari bilan hamkorlik kuchaytiriladi: landshaftlar ma'naviy qadriyat sifatida himoya qilinadi, turizm loyihalarida ularga egalik va daromadning ma'lum ulushi kafolatlanadi.

Yangi Zelandiya modelining O‘zbekiston uchun ahamiyatli jihati – bu turist xulq-atvorini boshqarish va mahalliy etnik-madaniy guruhlar bilan hamkorlikni institutsionallashtirishdir. Masalan, Surxon, Qashqadaryo, Farg‘ona vodiysi, Qoraqalpog‘iston hududlarida yashayotgan mahalliy etnik guruhlar bilan regenerativ turizm loyihalarini aynan shu model asosida olib borish mumkin.

Kosta-Rika uzoq yillardan beri ekologik turizm va biosfera qo‘riqxonalari bilan mashhur. So‘nggi bosqichda mamlakat regenerativ turizm sertifikatsiya tizimini yo‘lga qo‘ydi:

- turizm korxonalari uchun aniq ekologik va ijtimoiy indikatorlar ishlab chiqilgan (energiya iste'moli, suv sarfi, chiqindilarni qayta ishlash ulushi, hududiy ekologik loyihalarga qo‘shilgan hissasi, mahalliy aholi bandligi darajasi va h.k.);
- ushbu indikatorlar bo‘yicha audit o‘tkazilib, korxonaga muayyan darajadagi "yashil sertifikat" beriladi;
- sertifikat darajasi oshgani sari bozordagi obro‘, marketing ustunligi va ayrim moliyaviy imtiyozlar (grantlar, subsidiyalar, davlat dasturlarida ustuvor qo‘llab-quvvatlash) ham kuchayadi;
- milliy bog‘lar va qo‘riqxonalarga kirish chiptalaridan tushgan mablag‘larning ma'lum qismi ekotizimlarni tiklash, ko‘chat ekish, bioxilma-xillikni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

Bu tajriba O‘zbekiston uchun yashil sertifikatlash tizimini joriy qilish va turizm daromadlarini maqsadli ravishda tabiiy hududlarni tiklashga yo‘naltirish

mexanizmlarini ishlab chiqishda juda muhim. Masalan, Chotqol, Hisor, Nuratau kabi tog‘-o‘rmon hududlarida, Kyzylkum cho‘l landshaftlarida shunday mexanizmlar asosida regenerativ ekoturizm zonalari tashkil etish mumkin.

Islandiya misolida vulqon va geotermal landshaftlarga qiziqish juda yuqori bo‘lib, ayrim yillarda sayyohlar oqimi mahalliy aholi sonidan bir necha baravar oshib ketgan. Natijada ayrim hududlarda tuproq eroziyasi, o‘simlik qoplami yemirilishi, yo‘l infratuzilmasiga yuklama, chiqindilar ko‘payishi kabi muammolar yuzaga kelgan.

Bunga javoban Islandiya hukumati va turizm boshqaruv organlari:

- “Destination Management Plan” asosida har bir asosiy turistik hudud uchun alohida boshqaruv rejasi ishlab chiqdi;
- tashrif sig‘imi (carrying capacity) ilmiy asosda hisoblab chiqildi va ma’lum hududlarda kunlik yoki mavsumiy tashrif cheklovlari joriy qilindi;
- degradatsiyaga uchragan landshaftlarni tiklash bo‘yicha maxsus dasturlar (ko‘chat ekish, tuproqni mustahkamlash, infratuzilmani tartibga solish) amalga oshirilmoqda;
- sayyohlar oqimini diversifikatsiya qilish orqali yuklama bir necha hudud o‘rtasida qayta taqsimlanmoqda.

O‘zbekiston uchun bu tajriba Xuffar, Chimgan, Beldersoy, Chorvoq, Aydarko‘l, Aral dengizi atrofidagi ekoturizm hududlari, shuningdek, ziyorat va shaharturizm markazlarida (Samarqand, Buxoro, Xiva) tashrif sig‘imini ilmiy asosda belgilash va bosqichma-bosqich regenerativ boshqaruv rejalarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Kanadada arktik hududlar va o‘rmon zonalarida turizmni mahalliy indigenous hamjamiyatlar boshchiligida rivojlantirish amaliyoti keng yoyilgan. Bu yerda:

- turizm loyihalarining sezilarli qismi mahalliy hamjamiyatga tegishli bo‘lib, ular qaror qabul qilish jarayonida to‘laqonli ishtirok etadilar;
- turizm daromadlaridan tushgan mablag‘larning ma’lum qismi landshaftlarni, yovvoyi hayvonot olamini va an’anaviy turmush tarzini saqlab qolishga yo‘naltiriladi;
- turizm mahsuloti oddiy dam olish yoki ko‘ngilochar xizmat emas, balki madaniy tajriba, qadimiy bilimlar va ekologik ongni oshirish vositasi sifatida shakllantiriladi.

Bu tajriba O‘zbekistonda tog‘ va cho‘l hududlarida, shuningdek etnografik jihatdan noyob qishloq vohalarida mahalliy aholi yetakchiligidagi regenerativ turizm klasterlarini yaratish uchun juda muhim konseptual asos bo‘la oladi.

**Xulosa**

Yashil turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqich — regenerativ turizm modeliga ko‘tarish O‘zbekistonning ekologik barqarorlik siyosati, turizm iqtisodiyoti hamda mahalliy hamjamiyat manfaatlari bilan bevosita bog‘liq strategik masaladir. Tadqiqot davomida aniqlangan ilmiy tahlillar va xalqaro tajriba shuni ko‘rsatdiki, barqaror turizm modeli ko‘p hollarda “zararni kamaytirish” vazifasini bajaradi, biroq mavjud ekologik muammolar, resurslar degradatsiyasi va mahalliy aholi manfaatlarining yetarli darajada inobatga olinmasligi sababli ko‘plab hududlar uchun

bu model yetarli emas. Shu nuqtada regenerativ turizm O‘zbekiston uchun sifat jihatidan yangi, istiqbolli va ilmiy asoslangan yondashuv sifatida ko‘rinmoqda.

Xalqaro amaliyot — Yangi Zelandiyaning “Tiaki Promise”, Kosta-Rikaning milliy regenerativ sertifikatlash tizimi, Islandiyaning tashrif sig‘imi boshqaruvi, Kanada indigenous-led tourism modeli — O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilishi mumkin bo‘lgan samarali mexanizmlarni taklif etadi. Ushbu tajribalar ichidagi eng muhim jihatlar quyidagilardan iborat: tabiiy ekotizimni tiklashga yo‘naltirilgan iqtisodiy rag‘batlar, hududga xos ekologik indikatorlar tizimi, turist xulq-atvorini boshqarish, mahalliy aholi yetakchiligi, ekologik monitoring va tashrif sig‘imining ilmiy asosda belgilanishi.

O‘zbekistonda bugungi kunda ekoturizm rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, regenerativ yondashuv darajasiga chiqish uchun hali bir qator muammolar mavjud: ekotizimlarning degradatsiya holatini o‘lchaydigan milliy indikatorlar yo‘qligi, qayta tiklanuvchi energiya ulushining pastligi, chiqindilarni boshqarish tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi, mahalliy hamjamiyatning turizm qarorlaridagi rolini oshirish mexanizmlarining institutsionallashtirilmagani, korxonalar uchun ekologik sertifikatlash tizimining yo‘qligi va boshqalar. Bu muammolar regenerativ turizmning innovatsion boshqaruv modeli orqali hal etilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Benur, A., & Bramwell, B. (2015). Tourism product development and diversification in destinations. *Tourism Management*.
2. Scheyvens, R. (2022). *Tourism and Sustainability: Development, Impacts and Management.* Routledge.
3. UNWTO (2023). *Tourism for Green Transformation Report.*
4. Regenerative.travel (2022). *Regenerative Tourism Framework.*
5. Ministry of Business, Innovation & Employment (New Zealand). (2021). *Tiaki Promise Guidelines.*
6. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. (2023). *Turizmni rivojlantirish strategiyasi 2022–2026.*
7. Ibragimov, A. (2021). O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish masalalari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*.
8. Xodjieva, N. (2020). Turizmda barqaror rivojlanish yondashuvlari. *TDIU ilmiy axborotnomasi.*
9. Mamarasulov, Sh. (2023). Yashil iqtisodiyot va turizm integratsiyasi. *O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali.*

# ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

**Абдувахидов Абдумалик Махкамович,**
*доктор экономических наук,*
*профессор кафедры «Туризм и*
*гостиничный бизнес» ТГЭУ*

**Аннотация:** В статье рассматриваются современные тенденции развития туризма: электронный туризм, виртуализация, нишевой туризм, переход от индустрии услуг к индустрии опыта и впечатлений. Изучается роль крупных компаний на рынке онлайн-путешествий.

**Ключевые слова:** современные тенденции, электронный туризм, виртуализация туризма, нишевой туризм, электронная коммерция, индустрия опыта и впечатлений.

**Введение**

Современный туризм называют феноменом XX века, а XXI век, по оценкам специалистов, станет веком туризма. Сегодня из 195 государств мира в туризм вовлечены 155 стран, в том числе и наша республика.

Для поддержания тенденций интенсивного развития туризма как глобального социально-экономического явления в современных условиях всеобщей глобализации и ограниченности ресурсов необходимо искать новые подходы к способам удовлетворения постоянно изменяющихся и возрастающих потребностей современных туристов. Важнейшим из таких способов может выступать инновационный подход к процессу функционирования и развития туризма, применение, которого заключается во включении новых факторов производства во все элементы туристской системы, что способно обеспечить непрерывность воспроизводственных процессов в данной отрасли.

В научной статье «Цифровизация туризма: формы проявления» авторов Черевичко Т.В. и Темяковой Т.В. обосновывается актуальность исследования цифровизации туризма. Отмечаются мотивы субъектов туристского рынка к использованию цифровых технологий. Указывается, что цифровизация является новой формой коммуникационного взаимодействия между производителями и потребителями туристических услуг, становясь источником конкурентных преимуществ туристских организаций [1].

В статье Абдуллаевой Ш.Е. и Ибрагимовой Д.А. под названием «Роль цифрой экономики в сфере туризма его характеристики» рассматривается развитие цифровизации в экономике, включая различные изменения в туризме и цифровую трансформацию национальной безопасности. Важность данного исследования заключается в том, что анализируется разнохарактерное воздействие и факторы формирования цифровой экономики на туристическую сферу в регионах [2].

На сегодняшний день ряд авторов придерживаются мнения, что в современных условиях высокой конкуренции на международном рынке

туристских услуг определяющим фактором обеспечения эффективного развития туризма в Узбекистане - выступают нововведения. Однако большинство исследователей рассматривают их применение исключительно в области использования информационных технологий для туристской отрасли.

Вместе с тем малоизученными остаются вопросы выявления источников формирования принципиально новых направлений эффективного развития туризма, а именно той движущей силы, которая определяет необходимость и вектор применения инновационных решений, создавая новые потенциалы для удовлетворения возрастающих потребностей туристов и формирования благоприятных условий обеспечения непрерывности воспроизводственных процессов в туризме.

**Методы**

В данной научной статье используется ряд методов исследования, среди которых можно особо выделить теоретический и эмпирический виды анализа.

Посредством теоретического анализа было обработано большое количество теоретической информации на заданную тематику из книг, учебных пособий и доступных материалов в сети интернет. Также было изучено понятие цифровизации и исследованы преимущества и возможные риски реализации. Была доказана значимость процесса цифровизации для улучшения качества туристского впечатления и упрощения большого количества бюрократических процессов.

Эмпирический анализ позволил выявить современные формы цифровизации туризма. К их числу относятся приобретение спроектированных туроператорами туров онлайн, разработка мобильных приложений, полезных для осуществления туристского путешествия, а также разработка единых информационных платформ предназначенных для самостоятельного планирования путешествия туристами.

Кроме того при создании статьи был использован такой метод исследования как сравнительный анализ. В работе также представлена описательная статистика. Произведен анализ текущей ситуации и создан прогноз перспектив развития цифровизации в отрасли туризма на будущее.

Информационной базой исследования являются статистические данные, опубликованные на интернет-сайте Statista Research Department собирающем статистическую информацию по самым разным экономическим отраслям.

**Результаты**

Сегодня туризм представляет собой систему как совокупность структурно связанных между собой предприятий, вовлекая в себя все более широкий спектр правовых, организационных, хозяйствующих субъектов. Данный процесс происходит, с одной стороны, под влиянием изменяющихся - потребностей туристов, с другой стороны, обусловлен заинтересованностью предприятий в повышении свой конкурентоспособности и эффективности, что и заставляет их включаться в производственные - процессы, протекающие в туризме, в целом обеспечивая интенсификацию его развития в регионе:

Поскольку современный процесс функционирования и развития системы туризма включает большое количество разнообразных элементов (туристы, инфраструктура туризма, туристские организации и иные структурные образования, а также элементы, деятельность которых направлена на, предоставление услуг туристам в соответствии с их потребностями и возможностями) можно утверждать, что ей присуще такое свойство как сложность структуры системы.

Данное свойство характеризуется многообразием компонентов и связей между ними, а также объемом информации, которая необходима для эффективного управления системой туризма. При этом каждый элемент (компонент) системы может рассматриваться; как подсистема (самостоятельная система) со своим набором элементов. Так, например, сфера общественного питания - представляет собой отдельную подсистему большой системы туризма и отдельной самостоятельной системой, элементами которой могут быть предприятия питания, транспортные предприятия, заготавливающие предприятия и т.д. Все элементы по отдельности обладают определенным набором качеств. Однако, только их совокупность и наличие между ними связей предполагает возникновение нового, отличного качества, которым характеризуется подсистема в целом.

Таким образом, при изучении процессов включения и взаимодействия различных компонентов в сфере туризма весьма эффективно использование понятия - больших систем. Под большой системой понимается совокупность подсистем постоянно уменьшающегося уровня, сложности вплоть до элементарных подсистем, выполняющих в рамках данной большой системы базовые элементарные функции. В то же время это такая система, в которой число состояний, определяемых состоянием элементов или взаимосвязями между элементами, комбинаторно велико и несчетно.

Как большая система туризм обладает рядом специфических свойств, которые проявляются в процессе его функционирования и развития, а также своевременное изучение’ и учет которых имеют большое значение при совершенствовании - системы управления туризмом. Одним из таких свойств является - неаддитивность - большая система (туризм как объект исследования) не равна сумме подсистем в нее входящих, при этом свойства элементов (предприятий туризма) отличны от свойств самой системы туризма. Так, например предприятия размещения, и предприятия транспорта можно рассматривать как самостоятельные подсистемы, обладающие своими отличительными характеристиками. Первые предоставляют услуги размещения, ночлег. Вторые - услуги по перевозке пассажиров и грузов. Во взаимодействии друг с другом» они способны оказывать новый вид услуги - трансфер (встреча клиентов гостиницы в аэропорту, на вокзале и перевозка клиентов к месту назначения, а при выезде из гостиницы - наоборот).

Тесное взаимодействие туризма с окружающей его макросредой: политической, экономической, социальной, технологической и т.д., и включение в производство туристских услуг новых факторов, возникающих под влиянием повышающихся потребностей современных туристов, характеризует его как

большую открытую систему. При этом, чем полнее туризм отвечает требованиям внешней среды, тем эффективнее его работа. Именно посредством связей с внутренней и внешней средой туризм имеет возможность функционировать и обеспечивать свое развитие.

Стремительный рост электронного позиционирования и продвижения турпродукта привел к появлению понятий «электронный туризм» и «мобильный туризм».

Развитие информационных технологий и телекоммуникаций привело к невероятному росту электронной коммерции. В настоящее время электронная продажа туристических услуг оставила позади продажу книг, музыки и компьютеров. Преобладающее большинство туристских компаний имеют свои электронные офисы и предлагают потребителям полную информацию по всем видам услуг. Перечень продуктов туристических компаний, представленных в режиме онлайн, постоянно расширяется: сегодня он включает групповые и индивидуальные турпакеты по различным видам туризма, круизы, широкий выбор услуг размещения и питания, самые разные дополнительные услуги. Тенденция электронного туризма будущего – создание и продвижение еще более комплексных продуктов.

Рынок онлайн–путешествий включает в себя такие крупные компании, как Booking и Expedia, которые позволяют туристам самостоятельно бронировать туристические услуги онлайн, и туристические веб-сайты, предлагающие отзывы и варианты бронирования поездок, такие как Tripadvisor. Между тем, потребители продолжают искать больше возможностей для использования цифровых технологий во время путешествий. Они могут включать в себя такие опции, как виртуальные туры по желаемому месту назначения или размещению, а также мобильные решения для путешествий, например, использование приложения для знакомства с новыми туристическими достопримечательностями или регистрации в гостиничном номере. По оценкам Statista's Digital Market Outlook, ожидается, что в 2023 году глобальный доход от приложений для путешествий вырастет на 17 процентов по сравнению с предыдущим годом и составит почти 400 миллионов долларов США.

По информации опубликованной Statista Research Department в августе 2023 года, сегодня Booking.com занимает первое место среди ведущих онлайн-туристических компаний по всему миру с рыночной капитализацией приблизительно в 78,2 миллиарда долларов США. Конкуренты Airbnb, Trip.com, и Expedia следуют за ними по списку. Рыночная капитализация Airbnb, занимающего второе место, составила примерно 54,1 миллиарда долларов США. Данные отображены графически на рисунке 1.




**Рисунок 1. Рыночная капитализация ведущих туристических онлайн-компаний по всему миру по состоянию на декабрь 2022 года (в млн. долл. США)[13]**

Разновидностью электронного туризма является мобильный туризм. Мобильные технологии в виде приложений для мобильных телефонов уже сегодня позволяют пользователям по телефону бронировать авиарейсы, отели, автомобили, находясь в любом месте.

**Обсуждение**

Под электронным туризмом понимается не только электронная дистрибуция туристических услуг, но и электронные экскурсии, которые также называют виртуальными.

Туристские компании из разных секторов туризма объединяются с компаниями информационных технологий для своего представительства в сети Интернет. В онлайн переносятся следующие функции турфирм: выбор турпродукта или отдельных услуг, бронирование, предоплата, оплата, аннулирование, перебронирование и другие.

Для продвижения реальных туров и экскурсий, курортов и отелей, тематических парков и музеев турфирмы используют виртуальные путешествия, в которые посетитель интернет-сайта туристических компании, отеля, ресторана может отправиться, находясь у своего домашнего компьютера или с помощью мобильного телефона, находясь в любом месте.

Тенденция виртуализации путешествий приведет к сформированной потребности потенциального туриста сначала опробовать тур или посетить отель виртуально и лишь, затем принимать решение о покупке. Таким образом, виртуализация приведет к кардинальным изменениям в профилях туристов, природе туристского опыта, характере предпочтений, мотиваций и решений.

[13] Top online travel companies by market cap 2022 | Statista

**Заключение**

Будущее туризма связывают с развитием пищевого туризма, занимающего узкие сегменты рынка путешествий. К нишевому прежде всего относят специализированный туризм, к которым относятся фотографический, кинотуризм, ретротуризм, геотуризм, транспортный, гастрономический, генеалогический туризм. Любое хобби может лечь в основу специализированного путешествия, сформировать спрос на рынке туризма и таким образом занять свою нишу.

Перспективы роста нишевого туризма в будущем, включая диверсификацию специализированных путешествий, связаны с развитием информационного общества, которое производит более опытных, избирательных и требовательных туристов. Именно такие туристы формируют образ и профиль туристов будущего. Они будут стремиться к более индивидуализированному опыту и специализированному туризму, исходя из определенного хобби или условий конкретной дестинации.

Доминирующей тенденцией развития туризма является формирование и развитие туриндустрии как индустрии опыта и впечатлений. Другими словами, происходит эволюция индустрии, производящей туристических услуги, в индустрию, производящую туристский опыт. Современные путешественники находятся в поиске новых переживаний, эмоций, впечатлений. Туристские услуги имеют ценность, если их цепочка способна обеспечить потребителю получение качественного опыта в туристской дестинации. Ценность туристского опыта в его новизне, уникальности и эксклюзивности. В основе нового туристского опыта – культурное и природное разнообразие дестинаций, необычность ресурсов, самобытность культуры и культурных традиций, креативность и технологичность инфраструктуры, своеобразие, дружелюбие и гостеприимство жителей и туристских кадров.

**Список литературы**

1. Черевичко Т.В., Т.В. Цифровизация туризма: формы проявления // Изв. Сарат. ун-та Нов. сер. Сер. Экономика. Управление. Право. 2019. №1. https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovizatsiya-turizma-formy-proyavleniya (дата обращения: 27.09.2023).

2. Абдуллаева Ш.Е., Ибрагимова Д.А. Роль цифровой экономики в сфере туризма и его характеристики. “raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali (infocom.uz)

3. Абдувахидов, А.М., Маннопова Э.Т.. Теоретические подходы к формированию интеллектуальных систем как к инструменту обеспечения эффективности управления. (2018): 239-243. https://scholar.google.com/scholar?cluster=18356903660288252914&hl=en&oi=scholarr

4. Abidova D. Development, international tourism, hospitality, industry. http://www.indianjournals.com/mobile/JournalDetails.aspx?target=journal&ccode=aca&paid=True&type=browse

5. Safaeva S. Organizational and economic aspects of the development of the international tourism and hospitality industry. https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0 85090732443&origin=resultslist&sort=plf-f&cite=2-s2.0-85070736866&src=s&imp=t&sid=88ed804ee542ccb2375f01a4a12ff987&sot=cite&sdt=a&sl=0&relpos=0&citeCnt=0&searchTerm

6. Афанасьев П.А. Интернет-технологии как фактор повышения конкурентоспособности предприятий индустрии туризма / П. А. Афанасьев, Т. С. Дьяков, Ш. Ш. Галимов // Теоретические и практические аспекты научных исследований в туризме : материалы I науч.-практ. конф., Казань, 08 декабря 2018 г. / Казанский (Приволжский) федер. ун-т. – Казань : НОЦ "ЗНАНИЕ", 2019. – С. 24-30.

7. Гизун Э.И. Технологии цифрового маркетинга в туризме // Проблемы и перспективы развития туризма в Российской Федерации : сб. науч. тр. VII Всерос. конф. с междунар. участием. – Симферополь: Крымский федер. ун-т им. В.И. Вернадского, 2022. – С. 236-240. – Электрон. копия доступна на сайте Науч. электрон. б-ки eLibrary.ru.
URL: https://www.elibrary.ru/download/elibrary_50303460_48770425.pdf

8. Демьянов С.А. SEO-оптимизация туристического сайта // Туризм и гостеприимство. – 2017. – № 1. – С. 29-33. – Электрон. копия доступна на сайте Репозиторий Полесского гос. ун-та.
URL: https://rep.polessu.by/bitstream/123456789/12829/1/5.pdf (дата обращения: 22.03.2023)

9. Файзуллин Н.Ф. Классификация веб-сайтов для продвижения предприятия в современных условиях // Научное и образовательное пространство: перспективы развития : сб. материалов XVI Междунар. науч.-практич. конф., Чебоксары, 28 февраля 2020 г. / редкол.: О.Н. Широков [и др.]. – Чебоксары : ЦНС "Интерактив плюс", 2020. – С. 110-112. – Электрон. копия доступна на сайте ЦНС "Интерактив плюс". URL: https://interactive-plus.ru/e-articles/686/Action686-530230.pdf

10. Шмидт И.А. Применение цифрового маркетинга в индустрии туризма / И. А. Шмидт, С. А. Черных // Молодежь в науке и предпринимательстве: сб. науч. ст. IX междунар. форума молодых ученых, Гомель, 13–15 мая 2020 г. – Гомель : Белорус. торгово-экон. ун-т потребительской кооперации, 2020. – С. 401-404.

# YASHIL TURIZM VA GEOTURIZM FAOLIYATI UYG‘UNLIGINING XUSUSIYATLARI

**Tuxliyev Iskandar Suyunovich**,
*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,*
*iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**Annotatsiya**. Maqolada yashil turizm va geoturizmning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan jihatlari, yashil turizmning ekologik barqarorlik va hududiy rivojlanishdagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, geoturizmning O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishdagi uyg‘unligi hamda Navoiy viloyati misolida Sarmishsoy arxeologik majmuasi geoob’ektlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar**: yashil turizm, geoturizm, faoliyat uyg‘unligi, geologik meros, barqaror rivojlanish, geopark,ekologik madaniyat, geosayt, tabiiy resurslar.

## Kirish

O‘zbekiston hududlarida Yashil turizmni rivojlantirish mamlakatning so‘nggi yillardagi ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining "O‘zbekiston – 2030" strategiyasida[14] va turizmni rivojlantirishga qaratilgan boshqa dasturlarda "yashil iqtisodiyot" va barqaror turizmni rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiyani amalga oshirishda Yashil turizm turizm sohasini rivojlantirishda asosiy diversifikatsiya manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan: barqaror iste’mol va ishlab chiqarish tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tabiiy resurslarni tejash, qayta tiklash, iqtisodiy faoliyat va tabiatning hamohangligini ta’minlash, ekoturizm va geoturizmni rivojlantirish.

Yashil iqtisodiy rivojlanish davrida yashil turizm va geoturizm kabi innovatsion turizm turlarini kengaytirish, birinchi navbatda, hududiy turizmni ko‘p tarmoqli qilishga qaratilgan. Bundan tashqari, ushbu yondashuv hududning sayyohlik salohiyatini va jozibadorligini sezilarli darajada oshirishga zamin yaratadi.

Jahon turizm bozorida yashil turizm va geoturizm yo‘nalishlarga bo‘lgan talab borgan sari ortib bormoqda. Bu jarayonda tabiatni muhofaza qilish, ekosistemalarga salbiy ta’sirni kamaytirish va mahalliy aholini yangi ish joylari bilan ta’minlashga qaratilgan yashil turizm turizimning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qabul qilinmoqda. Yashil turizmning bosh maqsadi-mahalliy va global miqyosda tabiat bilan uyg‘un faoliyatni ta’minlash, shuningdek, turizm resurslaridan barqarorlik va samaradorlik tamoyillari asosida foydalanishdan iboratdir.

Ushbu jarayonda geoturizm muhim o‘rin tutadi. U geologik va geomorfologik ob’ektlarga asoslangan bo‘lib, quyidagilarni turizm sohasiga jalb qilishga qaratilgan: mavjud tog‘ tizmalari, ulardagi noyob ko‘llar va g‘orlar, qoya toshlardagi petrogliflar, mineral shifobaxsh buloqlar va chashmalar, cho‘l va tog‘ etaklaridagi qo‘riqxonalar,

[14] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида Фармони. www.lex.uz

milliy bog‘lar hamda yodgor qoya toshlar kabi qadimiy moddiy meros ob’ektlari. Bu turizm turi tabiatda sayr qilish bilan birgalikda uni o‘rganish va kelgusi avlodlarga asl xolatida saqlab qolishga asoslanadi.

Shu jihatdan, turizm sohasida innovatsion menejmentni qo‘llash, xududlarda turizmning yangi xizmat turlarini diversifikatsiya qilishda zamonaviy yashil turizm va geoturizm turlarini amaliyotga tatbiq etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Iqtisodiyot tarmoqlarida diversifikatsiya faoliyatining samarador-ligini baholash usullari V.N.Babenko, O.A.Grebenkova, A.Ya.Dru-beskoy, A.A.Dulov, A.B.Ivanova, I.D.Kurakov, Yu.N.Soinoy-Kutishevalar-ning asarlarida o‘rganilgan[15].

O‘zbekistonlik olimlardan N.Tuxliyev, M.Q.Pardayev, M.M.Muhammedov, I.S.Tuxliyev, D.X.Aslanova, B.N.Navruz-Zoda, A.Norchayev, O.X.Hamidov, M.T.Alimova, A.A.Eshtayevlarning tadqiqotlari turistik hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli masalalariga bag‘ishlangan[16].

Ammo, mamlakatimizda turizm sohasini innovatsion rivojlanti-rishda yashil va geoturizm turlari davlat tomonidan tartibga solishning tashkiliy va moliyaviy mexanizimlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Amaldagi ilmiy adabiyotlarda turizm sohasidagi yashil va geoturizm muammolarining faqatgina ayrim jihatlari yoritilgan, xolos. Shu tufayli raqamli transformatsiyalashuv sharoitida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning yashil turizm va geoturizm asoslari bo‘yicha ilmiy-amaliy

---

[15] Бабенко В.Н. Организационно-экономический механизм эффективной диверсификации производства. Краснодар 2006 г., Гребенькова О.А. Диверсификация в агропромышленных формированиях. Москва 2007 г., Друбецкая А.Я. Эффективность стратегии диверсификации в предпринимательской деятельности: Дис.канд. экон. наук: 08.00.05: Москва, 2004., Дулов А.А. Диверсификация монопрофильных предприятий: на примере предприятия нефтяного машиностроения. Автореф. дис д-ра экон. наук. Екатеринбург 2007 г., Иванова А.Б. Активизация лидерского потенциала студентов вуза в процессе внеучебной деятельности. Автореф. дис д-ра экон. наук.Челябинск 2010 г., Кураков И.Д. Выбор механизма по повышению эффективности работы предприятий легкой промышленности на базе совершенствования процесса венчурного инвестирования. Автореф. дис д-ра экон. наук. Санкт-Петербург. 2007 г., Соиной-Кутищева Ю.Н. Диверсификация деятельности как способ повышения эффективности бизнеса. Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес». 2007 г.

[16] Тухлиев Н. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана //–Т.: Гос. Науч. Изд-во “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, -2006. 386 б.; Пардаев ва бошқалар. Туристик корхоналар молиявий-хўжалик фаолияти таҳлили. Самарқанд, СамИСИ, 2019. – 268 б.; Асланова Д.Х. Модели формирования туристского кластера за рубежом // Сервис, 2013. - №1. С.4-9; Наврўз-Зода Б.Н умумий таҳрири остида. Туристик ҳудуд рақобатбардошлиги //монография – Бухоро, 2017. 150 б.; Тухлиев И.С., Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт.Дарслик (Учинчи нашр) –Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 424 бет.; Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари // - С.: Зарафшон 2007. 299 б.; Норчаев А.Н. Халкаро туризм ривожлантиришнинг иқтисодий ўсишга таъсири // Номзодлик диссертацияси. ТДИУ, 2004 й. 120 б.; Хамидов О.Х. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқаришни такомиллаштириш: муаммо ва ечимлар // Монография. – Т.:Иқтисодиёт, 2016. 203 б.; Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида) // Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - С.: СамИСИ, 2017. 265 б.; Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида) // Doctor of science диссертация автореферати. – Самарқанд. 2019. 71 б.;

tavsiya hamda takliflar ishlab chiqish zarurati maqola mavzusini tanlashda asos bo‘lib xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar**

Turizm sohasini rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan mavjud ilmiy tadqiqotlar, metodik qo‘llanmalar va amaliy tavsiyalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmga oid innovatsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari lozim darajada o‘rganilmagan. Bu holat, o‘z navbatida, turizm tizimining barqaror va samarali taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yashil turizm va geoturizm tushunchalarining mohiyatini quydagicha talqin qilsak bo‘ladi, yashil turizm- bu tabiiy landshaftlarda dam olish jarayonida tabiatni muhofaza qilish, mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilish va barqaror foydalanish tamoyillariga asoslangan faoliyat bo‘lib, geoturizm esa tabiatning geologik xususiyatlarga, manzaralarga va qadimiy tabiiy shakllarga asoslanadigan turizm turlari bo‘lib hisoblanadi. Yashil turizm va geoturizm orasidagi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan omillarining qiyosiy taxlili 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

**1-jadval.**

**Yashil turizm va geoturizmni o‘zaro bog‘liq omillarining qiyosiy tahlili**

| **Omillar** | **Geoturizm** | **Yashil turizm** |
|---|---|---|
| Asosiy maqsad | Tabiy geologik moddiy meros ob’ektlardan turizmda samarali foydalanish, turistlarda ekologik va geologik ongni rivojlantirish | Inson hayoti va salomatligi uchun zarur bo‘lgan tabiiy resurslarni va atrof-muhitni yaxlit (bir butun) holda asrab-avaylash orqali barqaror turizmni ta’minlash. |
| Foydalanuvchi resurslar | Tabiatning geologik xususiyatlarga ega manzaralari va qadimiy tabiiy shakllarga ega bo‘lgan ob’ektlar. | Tabiiy-iqlimiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-madaniy va sayyohlik zaxiralarining barchasi. |
| Ta’lim olish jarayonida | Geoturizm ob’ektlariga oid ma’lumotlar bilan yoshlarni tanishtirish va ularning bu boradagi savodxonligini oshirish. | Aholi va yosh avlodda ekoturizm (yashil turizm) borasidagi bilimlar va amaliy malakalarni shakllantirish. |
| Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni (yoki yechimlarni) tatbiq qilish | Geoaxborat tizimi orqali geoturizm ob’ektlarini haritalash, tahlil qilish va rivojlantirishda foydala-nish | Yashil turizm bo‘yicha platforma va geosaytlar-ni yaratish va ilmiy-amaliy asosda foydalanish |

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra yashil turizm va geoturizm yo‘nalishning uyg‘unlik jihatlari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi.

1. Tabiiy landshaftlardan oqilona foydalanish.
2. Tabiiy muhitni himoya qilish/asrash.
3. Sayyohlarda ekologik va geologik ongni shakllantirish.
4. Mahalliy aholini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga jalb etish.
5. Barqaror turizm infratuzilmasini barpo etish.

O‘zbekiston sharoitida yashil turizmni rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, tabiatni asrash, aholi farovonligini yaxshilash va hududlarni rivojlantirish nuqtai nazaridan. O‘zbekiston hududlarida Yashil turizmni rivojlanishida geoturizmning roli bir nechta muhim jihatlardan iborat.Jumladan :

1. Ekologik barqarorlikni ta’minlashda geosaytlar (geologik ob’ektlar)da turistik faoliyat ilmiy asosda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, tabiatga minimal ta’sir ko‘rsatadi.
2. Ekologik ta’lim va ma’rifiy faoliyatni rivojlantirishda geoturizm orqali mahalliy aholi va yoshlar geologiya, ekologiya va tabiat muhofazasi haqida bilim oladilar.
3. Mahalliy aholi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda geoturizm markazlarida ekskursovodlik, suvenir ishlab chiqarish, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlari tashkil qilinadi.
4. Geologik merosni muhofaza qilishda geosaytlar na faqat iqtisodiy, balki ilmiy va madaniy ahamiyatga ega ob’ektlar sifatida muxofaza qilinadi.
5. Turizmni barqaror infratuzilmasini shakllantirishda ekologik talablarga javob beradigan yo‘llar, axborot belgilar va “yashil” mehmonxonalar qurilishi turizmning barqaror rivojiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston misolida geoturizm va yashil turizmning uyg‘unligi O‘zbekiston geologik jihatdan boy mamlakat hisoblanadi. Har bir viloyati-da o‘ziga xos geoob’ektlar mavjud bo‘lib, ular yashil turizmni rivojlanti-rish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Navoiy viloyatida Nurota tog‘ tizmasi, Qizilqum cho‘li, Sarmishsoy petrogliflari, Qizilqum koni, Zarafshon daryosi vodiysi kabi ob’ektlar geoturizm markazlari sifatida katta ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyatida Kitob geologik qo‘riqxonasi, Hisor milliy bog‘i, Shirbadan va G‘uzor tog‘ tizmalari tabiiy geoekoturizm marshrutlari uchun qulay sharoit yaratadi.

Ushbu hududlarda geoturizmni rivojlantirish nafaqat turistik joziba-dorlikni oshiradi, balki ekoturizmning amaliy ko‘lamini kengaytiradi. Misol uchun, Navoiy viloyatining Sarmishsoy arxeologik majmuasi muzey-qo‘riqxonasidagi petrogliflar va Sangijumondagi tebranuvchi tosh. Qoyatoshlarga ishlangan V-VI asrlarga oid petrogliflar, tog‘ tepasidagi ko‘hna qo‘rg‘on qoldiqlari, XI-XVIII asrlarga oid toshga o‘yilgan xayvon sur’atlari va yozuvlar hamda qishloqning eng yuqori nuqtasidagi Fozilmon ko‘li manzaralari turistlarni hamisha qiziqtirib keladi. Sentob qishlog‘idan 12 km uzoqlikdagi “Qoratog‘” qoyatoshlarida ko‘plab ko‘hi uslubdagi arab grafikasidagi yozuvlar, Qur’on oyatlardan fragmentlar hamda qadimiy qo‘rg‘onlarni ko‘plab uchratish mumkin.

Bu kabi betakror tabiat, eng muhimi, qadimiy va noyob madaniy boyliklar xavf ostida ekaniga guvoh bo‘lasiz. Bugungi kunda ehtimol, suratlar o‘yilgan bu qoyatoshlarni kimlardir sindirib, xorijda minglab dollarga sotyapti, Yoki kimdir ularni sekin-asta shaxsiy kolleksiyalarini to‘ldirish uchun tashib ketmoqda? Har holda bu kabi qadimiy noyob, tarixiy-moddiy va ma’naviy merosimizni avvaylab saqlab qolishga barchamiz mas’uldirmiz.

Tadqiqot natijalari alohida muhofaza qilinadigan hududlarda yashil turizm va geoturizmni rivojlantirish imkonsizligini hamda uning ob’ekti hisoblangan geoparklar

to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi hozirda shakllanmaganligini ko‘rsatdi. Shu bois, geoturizm va geoparklarni YUNESKO me’zonlari va talablari asosida ilmiy jihatdan asoslash va bu yo‘nalishda malakali mutaxassislar tayyorlash amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Geoturizm bu faqat geologik sayyohlik emas, balki yashirin resurslar orqali ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni birlashtiruvchi tizim sifatida u yashil turizmning ilmiy, amaliy va ta’limiy asosini ta’minlaydi hamda tabiiy muhitni asrashda muhim o‘rin tutadi

**Xulosa va takliflar**

Turizm amaliyotiga innovatsiyalarni joriy qilishning murakkabligini e’tiborga olib, shu bois geoturizmni ilmiy asosda tashkil etish va hududiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish O‘zbekistonda yashil turizm rivojining muhim sharti hisoblanadi.

Geoturizm yashil turizm bilan birgalikda xududlarda rivojlanishi mahalliy aholiga asosiy yoki qo‘shimcha daromad olib kelishini hamda yangi ish o‘rinlari sonining ko‘payishini hisobga olib quydagilarni taklif etamiz:

Yashil turizmni rivojlantirish orqali turizm bozorini diversifikatsiya qilish va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida, madaniy va tarixiy turlardan farqli o‘laroq, aktiv, ilmiy-amaliy geoturizmga qiziquvchilar uchun yangi turistik paketlar va marshrutlar tayyorlash talab etiladi.

Yashil turizm bo‘yicha alohida ta’lim platformasini yaratish — tabiiy landshaftlardan foydalanish jarayonida hududlarning geoiqtisodiy salohiyatini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar hamda o‘quv sayohatlari uchun asosiy manba vazifasini bajaradi. Ushbu platforma oliy ta’lim talabalari, maktab o‘quvchilari va boshqa qiziquvchilarga tabiiy jarayonlarni bevosita o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda geoturizm- yashil turizmning ajralmas qismi bo‘lib, tabiatni muhofaza qilish, ekologik madaniyatni oshirish va mahalliy aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Uning asosiy vazifasi geologik merosni asrab-avaylash bilan birga, barqaror turizmni amalga oshirishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида Фармони. www.lex.uz

2. Tukhliev, I. S., & Abdukhamidov, S. A. (2021). Strategic planning processes in regional tourism in the digital economy. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, *2*(5), 22-27.

3. И.С.Тухлиев, А.А.Эштаев. Туризмда геоахборот тизимлари. Дарслик. Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти. – Тошкент: 2023. – 244

4. Тухлиев И.С. Туризм соҳасида рақамли технологиялардан фойдаланиш шартлари. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND THEORETICAL CONFERENCE "Globalisation and innovation". February 20th, 2022 / Volume 1

5. Тухлаев И.С. Янги Ўзбекистонда рақамли технологиялар орқали туризмнинг мультипликатив самарасини ошириш имкониятлари. “Марказий

Осиё минтақасида туризмни ривожлантириш истиқболлари: муаммо ва ечимлар” халқаро конференция. Қарши 2022 й. 26-май.

6. Tukhliev, I. S., Haitboev, R., Safarov, B., & Tursunova, G. R. (2014). Fundamentals of tourism. Textbook-T: Science and Technology.

7. Mamatqulov, X. M., Bektemirov, A. B., Tuxliev, I. S., & Norchaev, A. N. (2008). Xalqaro turizm. Darslik. Toshkent-SamlSI.

8. Gulmira, T., Sobirov, B., Suyunovich, T. I., & Hasanovna, A. D. Implementation Of Up-To–Date Innovative Approaches In A Competitive Merit Of Tourism Industry In Central Asia. The Case Of Uzbekistan. Journal of Management Value & Ethics, 4.

9. Тухлиев, И. С., Ҳайитбоев, Р., Сафаров, Б. Ш., & Турсунова, Г. Р. (2014). Туризм асослари. Дарслик. Т.: Фан ва технологиялар, 332.

10. Тухлиев, И. С., Кудратов, Ғ. Ҳ., & Пардаев, М. Қ. (2010). Туризмни режалаштириш. Дарслик. Т.:«Иқтисод-молия, 220.

11. Boltabayev, M. R., Tuxliyev, I. S., Safarov, B. S., & Abduxamidov, S. A. (2018). Tourism: theory and practice.–T. Science and technology.

12. Қудратов, Ғ. Х., & Тухлиев, И. С. (2007). Туризм иқтисодиёти. СамИСИ., С.

13. Tukhliev, I. S., Abdukhamidov, S. A., & Muhamadiev, A. N. (2020). Features of the use of digital technology in the development of geographic information systems in tourism. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(7 Special Issue), 2206-2208.

## O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari

**Alieva M.T.,**
*TDIU, Turizm va mehmonxona biznesi kafedrasi professori, i.f.d.*

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, hududiy imkoniyatlari va mavjud muammolari ilmiy tahlil etilgan. Namangan, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining tabiiy resurslari, infratuzilma sharoitlari hamda turizm salohiyatiga oid dalillar ko‘rib chiqilgan. Yashil turizmning iqtisodiy va ekologik oqibatlari, xalqaro tajriba bilan taqqoslangan holda, mahalliy amaliyotdagi zaif jihatlar aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, ekoturizm, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, ekologik boshqaruv, hududiy klaster, infratuzilma, xalqaro tajriba, O‘zbekiston.

### Kirish

O‘zbekiston tabiati va boy madaniy merosi “yashil turizm”ni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Mamlakat hududlarida milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar, tog‘li manzaralar hamda qadimiy madaniy obidalar ekoturizmning asosiy resurslarini tashkil etadi. So‘nggi yillarda ekologik turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati

ortib, u hududlarning barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi omil sifatida ko‘rilmoqda[17].

Ekoturizm mahalliy aholi farovonligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududiy infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Samarqand viloyati misolida o‘tkazilgan tadqiqotlar ekoturizm loyihalari aholi bandligini oshirish hamda kichik biznesni kengaytirishga sezilarli hissa qo‘shayotganini ko‘rsatmoqda[18].

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining so‘nggi yillarda qabul qilgan konsepsiya va dasturlarida yashil turizm barqaror turizmning ajralmas qismi sifatida belgilangan. Bu borada Ekologiya qo‘mitasi va Turizm qo‘mitasi tomonidan huquqiy asoslar, iqtisodiy rag‘batlar hamda ekologik me’yorlarni hisobga olgan holda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[19].

Mavjud salohiyat to‘liq foydalanilmayapti. Hududlarda ekoturizm infratuzilmasining sustligi, marketing va targ‘ibot ishlarining yetarli emasligi, kadrlar malakasi pastligi rivojlanish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda[20]. Bu esa mamlakat miqyosida ekoturizmni barqaror rivojlantirish uchun xalqaro tajribani joriy etish va ichki boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ekoturizm atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bir qatorda, mahalliy jamoalar iqtisodiy manfaatini ham ta’minlaydi. Shu bois O‘zbekiston yashil turizmni rivojlantirishda ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy manfaatdorlikning muvozanatini ta’minlashga intilmoqda.

**Adabiyotlar sharhi**

O‘zbekistonda yashil turizm masalasi bir qator ilmiy tadqiqotlarda keng qamrovda o‘rganilgan. N.T. Shamuratova fikricha, mamlakat hududlarini ekoturizm rayonlariga ajratish, ularning tabiiy-geografik xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus kartografik modellarni ishlab chiqish bu sohada ilmiy asoslangan rejalashtirish imkonini beradi[21]. U o‘z izlanishlarida iqlim sharoitlari, landshaft tuzilishi va tabiiy resurslarning xilma-xilligini hisobga olib, turizmni hududiy rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy yondashuvni taklif qilgan.

Z.T. Abdulkhakimov ta’kidlashicha, Namangan viloyatida mavjud suv havzalari va tabiiy manzaralardan samarali foydalanish ekoturizm marshrutlarini shakllantirishga imkon beradi[22]. Uning ilmiy ishida rekreatsion resurslardan oqilona foydalanish nafaqat ekologik muhofazani ta’minlashi, balki hududiy iqtisodiy faoliyat bilan ham bevosita bog‘lanishi zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu orqali u ekoturizmni hududiy rivojlanishning muhim iqtisodiy omili sifatida baholagan.

---

[17] Умарова Ф. Potential of Ecotourism in Uzbekistan: Regional Aspect // *E3S Web of Conferences*. – 2024. – № 104. – С. 1–7.

[18] Гуломхасанов Э., Уктамова У., Акрамов С. Development of Ecotourism in Uzbekistan // *Scientific Progress*. – 2021. – Т. 2. – № 8. – С. 45–52.

[19] Абдурахманова А. The economic and social impacts of ecotourism on local employment and income in the rural areas of Samarkand, Uzbekistan // *Journal of Destination Marketing & Management*. – 2025. – Vol. 32. – P. 100–112.

[20] Абдалимов И.Қ. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari // *КиберЛенинка*. – 2021: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-ekologik-turizmni-rivojlantirish-istiqbollari

[21] Шамурадова Н.Т. Natural geographical basis of the development of ecotourism in Uzbekistan : дис ..... канд. геогр. наук. – Ташкент, 2011. – 152 с.

[22] Абдулхакимов З.Т. Improvement of the organizational and economic basis of the use of recreation in the region (in the case of Namangan region) : дис .....канд. экон. наук. – Самарканд, 2019. – 165 с.

Shuningdek, M.T. Aliyeva fikricha, turizm xizmatlarini samarali boshqarish, xususan iqtisodiy liberallashtirish sharoitida, yashil turizm infratuzilmasini rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir[23]. U o‘z tadqiqotida ekoturizm faoliyatini iqtisodiy mexanizmlar orqali qo‘llab-quvvatlash, xizmatlar sifatini oshirish va jahon standartlariga yaqinlashtirish zarurligini asoslab bergan.

Ko‘rinadiki, mavjud ilmiy izlanishlarda asosan uchta yo‘nalish ustuvorlik qiladi:

- hududiy geografik zonalash va tabiiy resurslarni tizimli tahlil qilish;
- suv havzalari va landshaft resurslari asosida yangi marshrut va klasterlarni yaratish;
- turizm xizmatlarini boshqarishda iqtisodiy mexanizmlarni kuchaytirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash.

Biroq mavjud tadqiqotlarda ekoturizmni marketing mexanizmlari, innovatsion boshqaruv modellari va jamoatchilik ishtiroki orqali rivojlantirish masalalari yetarlicha yoritilmagan. Shu bois ushbu yo‘nalishlar kelgusida chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etuvchi dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil**

O‘zbekistonda yashil turizmning rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda tizimli yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, mavjud ilmiy ishlarda belgilangan nazariy tamoyillar asosida konseptual asos shakllantirildi. Keyingi bosqichda hududiy ko‘rsatkichlar, tabiiy resurslar salohiyati va infratuzilma imkoniyatlari bo‘yicha statistik materiallar taqqoslandi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan barqaror turizm mezonlari mahalliy sharoit bilan uyg‘unlashtirildi.

Namangan, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari tahlil uchun tanlandi. Bu hududlar tabiiy manzaralar, madaniy ob’ektlar va turizm infratuzilmasi darajasi bo‘yicha sezilarli farqlarga ega. Taqqoslash orqali har bir viloyatning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, istiqbolli yo‘nalishlar belgilandi.

**1-jadval.**

**Yashil turizmni rivojlantirish omillari va muammolari**

| **Hudud** | **Kuchli tomonlar (Strengths)** | **Zaif tomonlar (Weaknesses)** | **Imkoniyatlar (Opportunities)** | **Tahdidlar (Threats)** |
|---|---|---|---|---|
| Namangan | Boy suv havzalari, tog‘li manzaralar, madaniy meros ob’ektlari | Infratuzilma sust, transport yo‘llari sifatsiz | Eko-marshrutlar yaratish, hududiy klasterlarni shakllantirish | Antropogen bosim ortishi, tabiiy muhit degradatsiyasi |
| Qashqadaryo | Yirik tabiiy ob’ektlar (Kitob geologik qo‘riqxonasi, | Mahalliy boshqaruvda ekologik yondashuv yetarli emas | Xalqaro grantlar jalb qilish, ilmiy-ekspeditsion turizmni | Suv resurslari tanqisligi, iqlim o‘zgarishi |

[23] Алиева M.T. Economic aspects of tourism services management in the conditions of economic liberalization (in the case of the Republic of Uzbekistan) : дис. ... докт. экон. наук. – Самарканд, 2020. – 210 с.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Shahrisabz atrofidagi landshaftlar) | | rivojlantirish | |
| Samarqand | YuNESKO merosi, tarixiy-madaniy yodgorliklar, tabiat bog‘lari | Ekoturizm marketingi sust | Madaniy va ekologik turizmni integratsiya qilish, xalqaro turistlarni ko‘proq jalb qilish | Turistlar oqimi haddan tashqari ortishi, urbanizatsiya xavfi |

Ko‘rinib turibdiki, Namangan tabiiy resurslar salohiyati bo‘yicha yuqori o‘rinda, biroq infratuzilma ta’minlanganligi sustligi bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Qashqadaryo tabiiy ob’ektlarga boy bo‘lsa-da, ekologik boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani seziladi. Samarqandda esa madaniy meros va ekoturizmni birlashtirish imkoniyati mavjud, biroq haddan tashqari turist oqimi ekologik muvozanatni izdan chiqarishi mumkin.

Empirik tahlil shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmni rivojlantirishda resurslarning mavjudligi yetarli emas, balki ularni barqaror boshqarish, marketing mexanizmlarini kuchaytirish va hududiy infratuzilmani takomillashtirish zarur.

**Natijalar va muhokamalar**

O‘zbekiston hududlarida yashil turizm imkoniyatlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar bir necha asosiy jihatlarni ko‘rsatdi. Avvalo, tabiiy landshaft va madaniy meros obyektlari mavjudligi viloyatlar kesimida turizm salohiyatining notekis taqsimlanganini aniqlash imkonini berdi. Masalan, Namangan viloyati tog‘li hududlari va suv resurslari hisobiga ekoturizm uchun qulay sharoitlarga ega bo‘lsa, Samarqand viloyati ko‘proq madaniy meros bilan integratsiyalashgan ekologik marshrutlarga tayangan holda rivojlanmoqda. Qashqadaryo viloyatida esa tabiiy qo‘riqxonalar va noyob geologik yodgorliklar mavjud bo‘lib, ular ilmiy-ekspeditsion turizm uchun muhim omil sifatida baholanishi mumkin.

Hududlar bo‘yicha aniqlangan ustunliklarga qaramay, umumiy muammolar ham sezildi. Infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, transport yo‘llarining sifatsizligi va ekologik boshqaruv mexanizmlarining zaifligi mavjud imkoniyatlarning to‘liq ishga solinishi oldida to‘siq bo‘lib qolmoqda. Boshqa tomondan, marketing va xalqaro tajribani jalb etish masalalari ham cheklangan darajada rivojlangan. Aynan shu omillar O‘zbekiston yashil turizm bozorini jahon standartlariga yaqinlashtirishda asosiy cheklov sifatida qaralmoqda.

**2-jadval.**

**O‘zbekiston viloyatlarida yashil turizm imkoniyatlari va muammolarining qiyosiy tahlili**

| **Hudud** | **Asosiy resurslar** | **Turizm yo‘nalishlari** | **Iqtisodiy imkoniyatlar** | **Ekologik xavflar** |
|---|---|---|---|---|
| Namangan | Tog‘lar, daryo havzalari, | Tog‘-ekoturizm, | Mahalliy ishlab chiqarish va | Tabiiy resurslarning |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | o‘rmonlar | agro- va sport turizmi | xizmatlar daromad manbai | haddan tashqari ekspluatatsiyasi |
| Samarqand | Madaniy meros, voha ekotizimlari | Madaniy-ekologik marshrutlar, qo‘shma turlar | Xalqaro turistlar oqimi orqali valyuta tushumi yuqori | Turist oqimi tufayli ekologik yuklama kuchayadi |
| Qashqadaryo | Qo‘riqxonalar, geologik yodgorliklar | Ekspeditsion turizm, qo‘riqxona safari | Ilmiy turizm va ichki bozor uchun yangi segmentlar | Ekotizim muvozanatini buzish ehtimoli katta |
| Buxoro | Cho‘l landshaftlari, tarixiy ob’ektlar | Cho‘l safari, arxeoturizm | Turizm va servis sektori orqali barqaror daromad | Suv taqchilligi va chiqindilar muammosi |
| Surxondaryo | Tog‘ tizmalari, biosfera hududlari | Ekoturizm, etnoturizm | Mahalliy mahsulotlarni turizmga integratsiya qilish imkoniyati | Himoyasiz tabiiy zonalarda ekologik talafot xavfi |

O‘zbekiston hududlarida yashil turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bir xil emasligini ko‘rsatadi. Namangan viloyati tog‘-ekoturizm va agroyo‘nalishlar bilan ajralib turib, mahalliy aholi daromad manbaini kengaytirishi mumkin. Biroq infratuzilmaning cheklanganligi va turizmning mavsumiyligi barqarorlikni pasaytiradi. Samarqand viloyatida esa madaniy meros bilan ekologik resurslarning uyg‘unligi xalqaro turizm oqimini kuchaytiradi, ammo turistlar sonining ortishi ekologik yuklamani oshirib, uzoq muddatli muvozanatga xavf tug‘diradi. Qashqadaryo hududi ilmiy va ekspeditsion turizm uchun qulay bo‘lsa-da, tabiiy muvozanatni saqlash va infratuzilmani rivojlantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Buxoro viloyati cho‘l landshaftlari va tarixiy ob’ektlari orqali turizmni kengaytirish imkoniyatiga ega, lekin suv resurslarining yetishmasligi va chiqindilarni boshqarish muammosi yashil turizmni cheklaydi. Surxondaryoda esa etnik jamoalar va biosfera hududlari asosida ekoturizm rivojlanishi mumkin, biroq infratuzilmaning past darajasi va tabiiy zonalarning himoyasizligi xavf tug‘diradi.

Hududlar kesimidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil turizm resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va ekologik oqibatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, Samarqandda xalqaro turistlar oqimi katta daromad manbai hisoblanadi, biroq bu jarayon ekologik yuklama oshishiga olib keladi. Namanganda tabiat resurslari turistik jalbkorlikni ta’minlaydi, lekin mavjud infratuzilma yetishmovchiligi iqtisodiy samarani pasaytiradi. Qashqadaryoda esa tabiat ob’ektlaridan foydalanish ekoturizmni rivojlantirish bilan birga ekologik xavfsizlikka alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.

O‘zbekiston miqyosida kuzatilayotgan tendensiyalar xalqaro tajriba bilan taqqoslanganda, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror boshqaruv tamoyillari yetarlicha izchil emasligi ayon bo‘ladi. Bunday sharoitda iqtisodiy manfaatlarni

ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish, hududiy boshqaruv tizimlarida yashil turizm uchun alohida strategiyalar ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, mahalliy jamoalarning ishtiroki, ekologik ta’limni rivojlantirish va turizm sohasiga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish muhim vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

**Xulosa va tavsiyalar**

O‘zbekiston sharoitida yashil turizmning rivojlanish istiqbollari tabiiy resurslarning xilma-xilligi, madaniy meros ob’ektlarining keng tarqalganligi va hududiy iqlim sharoitlarining turfa xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Namangan, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida yashil turizm uchun turlicha imkoniyatlar mavjud bo‘lsa-da, ularni samarali boshqarish mexanizmlarida kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Infratuzilmaning sust rivojlanishi, ekologik boshqaruvning yetarli darajada izchil emasligi hamda marketing strategiyalarining cheklanganligi mavjud imkoniyatlarning to‘liq ishga solinishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, kelajakda yashil turizmni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, hududiy turizm klasterlarini shakllantirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi boshqaruv tizimlarini kuchaytirish va mahalliy aholining faol ishtirokini rag‘batlantirish zarur.

Ekoturizmni rivojlantirish jarayonida ekologik ta’lim va targ‘ibot dasturlarini kengaytirish, xorijiy turistlarni jalb etishda esa raqamli platformalar va marketing usullaridan foydalanish samarali natija beradi. Yashil turizmni barqaror rivojlantirish O‘zbekistonning ekologik muvozanatini saqlash, hududiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda xalqaro turizm bozorida mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


**1.** Абдалимов И.Қ. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari // КиберЛенинка. – 2021: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-ekologik-turizmni-rivojlantirish-istiqbollari

**2.** Абдулхакимов З.Т. Improvement of the organizational and economic basis of the use of recreation in the region (in the case of Namangan region) : дис канд. экон. наук. – Самарканд, 2019. – 165 с.

**3.** Абдурахманова А. The economic and social impacts of ecotourism on local employment and income in the rural areas of Samarkand, Uzbekistan // Journal of Destination Marketing & Management. – 2025. – Vol. 32. – P. 100–112.

**4.** Алиева М.Т. Economic aspects of tourism services management in the conditions of economic liberalization (in the case of the Republic of Uzbekistan) : дис докт. экон. наук. – Самарканд, 2020. – 210 с.

**5.** Гуломхасанов Э., Уктамова У., Акрамов С. Development of Ecotourism in Uzbekistan // Scientific Progress. – 2021. – Т. 2. – № 8. – С. 45–52.

**6.** Умарова Ф. Potential of Ecotourism in Uzbekistan: Regional Aspect // E3S Web of Conferences. – 2024. – № 104. – С. 1–7.

7. Alieva, M.T. 2018. Tourism problems in the Central Asian republics. International Scientific Journal, 67: 30-4.

8. Toychievna, A. M. Application of Innovations on the Improvement of the Quality Management System of Tourism Services. JournalNX, 492-497.
9. Шермухамедов, А. Т., & Алиева, М. Т. (2019). ТУРИЗМ ВДОЛЬ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ. In Тенденции и проблемы развития туризма и гостеприимства в XXI веке (pp. 115-125).
10. Aliyeva, M. T. (2007). Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. Darslik. T.: TDIU.
11. Алиева, М. Т. (2023). Развития смарт туризм в Узбекистане.
12. Шамурадова Н.Т. Natural geographical basis of the development of ecotourism in Uzbekistan : дис ..... канд. геогр. наук. – Ташкент, 2011. – 152 с.

## YASHIL TURIZM KONSEPSIYASI ASOSIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

**Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich**,
*Alfraganus universiteti professor*

### Kirish

Turizm sohasining jahon iqtisodiyotidagi o‘rni jadal ortib bormoqda. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik omillarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish tamoyillari asosida shakllangan turizm yo‘nalishlari ya’ni yashil turizm (green tourism) faol rivojlanmoqda. Barqaror turizm deganda turizm faoliyati ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muvozanatli ravishda tashkil etilishi, tabiiy va madaniy merosni saqlab qolgan holda amalga oshirilishi tushuniladi. Masalan, bir tadqiqotda barqaror turizm turizmni rivojlantirish bilan birga atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan ekanligi ta’kidlangan[24].

Bundan tashqari, yashil turizm esa ekologik jihatdan ham mas’uliyatli turizm shakli bo‘lib, resurslarni aqlli ishlatish, chiqindilarni kamaytirish, biologik xilma-xillikni himoya qilish kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi.

Shuning uchun, zamonaviy turizm siyosatini shakllantirishda yashil turizm konsepsiyasini barqaror turizm bilan integratsiyalash muhim vazifaga aylanmoqda. Ushbu tezisning maqsadi yashil turizm tamoyillari asosida barqaror turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va yo‘llarini aniqlash, empirik tahlil yordamida natijalar chiqarishdir.

### Adabiyotlar tahlili

Ilmiy adabiyotlarga ko‘ra, barqaror turizm konsepsiyasi turizmni rivojlantirishda uchta asosiy ustunni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik hisobga oladi. Butunjahon turizm tashkiloti turizm faoliyati joriy va kelgusidagi ijtimoiy - madaniy, iqtisodiy va ekologik ehtiyojlarni qondirishi kerak deb ta’kidlaydi. So‘nggi o‘n yil ichida pandemiya va boshqa global omillar barqaror turizmga bo‘lgan e’tiborni yanada oshirdi. Xususan, 2024-yilda “Sustainable Tourism: A Systematic Literature Review

[24] https://www.untourism.int/sustainable-development

and Bibliometric Analysis” nomli maqolada barqaror turizm tadqiqotlari 2017-2022 yillari orasida aukrin ortganligi qayd etilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, yashil turizm atamasi ekologik tamoyillarga asoslangan turizm shakllarini anglatadi va bu orqali resurslardan tejash, chiqindilarni kamaytirish, yashil infratuzilmani yaratish kabi yo‘nalishlar ilgari suriladi. Tadqiqotlarda yashil innovatsiyalar turizm kompaniyalari va destinatsiyalarda qiymat yaratishda muhim vosita ekanligi aniqlandi. Yashil va barqaror innovatsiyalarni tahlil qilib, ushbu tadqiqot sohasida nazariy hamda uslubiy bo‘shliqlar mavjudligini aniqlagan. Shuningdek, yashil marketing strategiyalari turizm destinatsiyalarida ekologik ongli sayohatchilarni jalb qilishda muhim ekanligi ham ko‘rib chiqilgan[25].

Yashil turizm va barqaror turizm o‘rtasida qisman katta moslik mavjud ikkalasi ham turizm faoliyatining ekologik jihatlarini faollashtirishga intiladi. Biroq, yashil turizm ko‘pincha atrof-muhitga qaratilgan bo‘lsa, barqaror turizm unga ijtimoiy va iqtisodiy omillarni ham qo‘shadi. Shu jihatdan, yashil turizm konsepsiyasini barqaror turizm rivojlanishi bilan birlashtirish yangi ilmiy va amaliy yo‘nalishlarni ochadi[26]. Bundan tashqari, yashil biznes modellari qishloq turizmida ham iqtisodiy rivojlanish uchun asos bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatildi.

1. Yashil turizm tamoyillarini barqaror turizm jarayonlariga tatbiq etish bo‘yicha empirik tadqiqotlar yetarli emas.

2. Yashil marketing va sayohatchilar xatti-harakati, yashil infratuzilma hamda mahalliy jamiyatlar o‘rtasidagi interaksiya jihatdan chuqur tahlillar tanqisligi ko‘zga tashlanadi.

3. Qishloq va rivojlanayotgan hududlarda yashil turizm va barqaror turizm integratsiyasini o‘rganish zarur.

Shu sababli, hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda yashil turizm konsepsiyasi asosida barqaror turizmni rivojlantirish yo‘llarini empirik jihatdan tahlil qilish muhimdir. Ushbu tadqiqotda quyidagi muammolar aniqlangan:

- yashil turizm tamoyillari (resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, yashil infratuzilma) barqaror turizm rivojlanishiga ijobiy ta’siri;
- turizm infratuzilmasi, sayohatchilarning yashil ongli xatti-harakati yashil turizm orqali barqaror turizm rivojlanishidagi ro‘li.

**Metodologiya**

Mazkur tadqiqotda yashil turizm konsepsiyasini barqaror turizmni rivojlantirish jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, taqqoslash, tahlil va empirik usullar kompleks tarzda qo‘llanildi. Avvalo, nazariy qismda turizmni barqaror rivojlantirish, yashil iqtisodiyot, ekologik menejment va innovatsion boshqaruv tamoyillariga oid xalqaro hamda milliy ilmiy manbalar, Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO), Jahon banki, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, shuningdek, so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar tahlil qilindi. Ushbu adabiyotlar tahlili barqaror turizm va yashil turizm o‘rtasidagi nazariy

[25] https://whc.unesco.org/en/tourism/

[26] https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284414529

hamda amaliy bog‘liqlikni aniqlashga, mavjud ilmiy bo‘shliqlarni belgilashga xizmat qildi.

**Natija**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil turizm konsepsiyasiga asoslangan barqaror turizmni rivojlantirishda investitsion omillar, ekologik sertifikatlash tizimi va yashil texnologiyalarning qo‘llanishi o‘zaro ijobiy bog‘liqlikka ega (1-jadval).

Ekonometrik modelda aniqlangan $R^2 = 0.79$ ko‘rsatkichi barqaror turizm rivojlanishidagi o‘zgarishlarning 79 foizi yuqoridagi uchta asosiy omil orqali tushuntirilishini anglatadi. F-statistik qiymat (24.6) modelning umumiy ahamiyatini tasdiqlaydi ($p < 0.01$).

Bunda eng kuchli ta’sirga ega omil – yashil infratuzilma investitsiyalari ($b_1 = 0.417$) bo‘lib, bu barqaror turizm o‘sishining asosiy determinanti hisoblanadi. Ekologik sertifikatlash esa xizmat sifatini oshirib, turistlarning ishonchini mustahkamlaydi. Yashil texnologiyalar ulushi esa xizmat ko‘rsatish jarayonlarida resurslardan samarali foydalanishni kuchaytiradi va chiqindilarni kamaytiradi. Bunda:

$$Y=0.324+0.482X1+0.316X2+0.271X3+0.229X4+0.198X5+\varepsilon$$

***Y*** – barqaror turizm rivojlanish darajasi (turistik oqim, investitsiya hajmi va ekologik samaradorlik asosida integrallashgan indeks)

$X_1$ – yashil infratuzilma investitsiyalari (mln so‘m)

$X_2$ – ekologik sertifikatlangan turistik obyektlar soni

$X_3$ – yashil texnologiyalardan foydalanuvchi turistik korxonalar ulushi (%)

**1-jadval**

**Yashil turizm omillarining barqaror turizm rivojlanishiga ta’sirini baholovchi ekonometrik model natijalari**[27]

| O‘zgaruvchilar (X) | Belgilanishi | Kutilgan belgi | Koeffitsient (β) | t-statistika | P-qiymat | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Yashil infratuzilma indeksi** | $X_1$ | (+) | **0.482** | 3.87 | 0.0002 | Yashil infratuzilma yaxshilansa, barqaror turizm ko‘rsatkichlari oshadi |
| **Energiya tejamkor texnologiyalar darajasi** | $X_2$ | (+) | **0.316** | 2.94 | 0.0047 | Energiya samaradorlik barqarorlikni oshiruvchi muhim omil |
| **Mahalliy jamiyat** | $X_3$ | (+) | **0.271** | 2.42 | 0.0173 | Mahalliy ishtirok |

[27] Muallif ishlanmasi

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ishtiroki ko‘rsatkichi** | | | | | | barqaror turizmga ijobiy ta’sir qiladi |
| **Ekologik siyosat va davlat qo‘llab-quvvatlash darajasi** | $X_4$ | (+) | **0.229** | 2.07 | 0.0421 | Siyosiy qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lsa, turizmda barqarorlik kuchayadi |
| **Chiqindilarni qayta ishlash va boshqaruv tizimi** | $X_5$ | (+) | **0.198** | 1.98 | 0.0513 | Chiqindilarni kamaytirish barqarorlikka oz miqdorda ta’sir qiladi |
| **Doimiy omil (α)** | α | — | **0.324** | 1.88 | 0.0620 | Modelning bazaviy darajasi |

**Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, hozirgi globallashuv sharoitida barqaror turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi — yashil turizm konsepsiyasini amaliyotga joriy etishdan iboratdir. Yashil turizm nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki turizm sohasida iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni uyg‘unlashtiruvchi muhim mexanizmdir. Ekonometrik tahlil natijalariga ko‘ra, barqaror turizm rivojlanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida yashil infratuzilma investitsiyalari (b=0.417), ekologik sertifikatlangan obyektlar soni (b=0.286) va yashil texnologiyalar ulushi (b=0.193) aniqlangan. Bu esa iqtisodiy jihatdan shuni anglatadiki, barqaror turizmni rag‘batlantirish uchun yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan siyosat yuritish zarur. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanganidek, turistik korxonalarning ekologik mas’uliyat darajasi oshgani sari ularning raqobatbardoshligi ham kuchayadi. Bu holat milliy turizm brendini xalqaro bozorda mustahkamlashga, ekologik madaniyatni rivojlantirishga va mahalliy aholi daromadlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Tadqiqotimizda quyidagi ilmiy takliflar ishlab chiqildi:

- “Green Tourism Council” (Yashil Turizm Kengashi) tashkil etish, milliy va xalqaro ekologik standartlarni muvofiqlashtirish;
- Yashil infratuzilma qurilishiga yo‘naltirilgan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grant dasturlarini kengaytirish;
- Turistik obyektlarda energiya tejamkor texnologiyalar, quyosh energiyasi, chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini qo‘llash;
- Turizm oliy o‘quv yurtlarida “Green Tourism Management”, “Eco-innovation in Tourism” kabi o‘quv modullarini joriy etish;

- “Eco-Tourism Data Platform” onlayn tizimini yaratib, yashil turizm ko‘rsatkichlarini doimiy tahlil qilish;
- Sun’iy intellekt va GIS texnologiyalari orqali turistik obyektlarning ekologik holatini monitoring qilish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. United Nations World Tourism Organization. (2024). Tourism for Sustainable Development Goals: Green Transformation Report 2024. Madrid: UNWTO Publications.
2. Gössling, S., Hall, C. M., & Scott, D. (2024). Green transitions in tourism: Pathways to sustainable destinations. Journal of Sustainable Tourism, 32(6), 845–861.
3. OECD. (2025). Green Growth and Sustainable Tourism: Policy Trends and Future Strategies.
4. Tursunov, B. O., & Abdurahmonov, A. R. (2024). Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida turizm sohasini rivojlantirish strategiyalari. O‘zbekiston Iqtisodiy Axborotnomasi, 2(58), 74–82.
5. World Bank. (2024). Sustainable Tourism and Green Investment in Central Asia. Washington, D.C.
6. United Nations Environment Programme. (2024). Green Economy and Tourism: Policy Integration for Sustainable Growth.

## O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI ZAMONAVIY PRINSIPLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT

**Xamidjon Rasulov Yakubovich**,
*Qo‘qon universitet, Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi mudiri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil turizmni zamonaviy prinsiplari asosida rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda mamlakatda turizm sohasi sezilarli darajada kengayib, xalqaro sayyohlar soni 2017 yildagi 2,7 milliondan 2023 yilda 6,6 millionga oshgani qayd etildi. Shu jarayonda ekologik barqarorlikni ta’minlash va xalqaro tajribalarni qo‘llash muhim omil sifatida ko‘rilmoqda. Maqolada yashil turizmning nazariy asoslari, xalqaro tajriba (Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari) hamda O‘zbekiston amaliyoti solishtirilib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib berildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yashil turizm mamlakat iqtisodiyoti, ekologiyasi va ijtimoiy hayotida barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishi sifatida shakllanib borayotganligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, ekologik barqarorlik, zamonaviy prinsiplar, O‘zbekiston, xalqaro tajriba, barqaror rivojlanish.

**Kirish**

So‘nggi yillarda global miqyosda turizm sohasi barqaror rivojlanish tamoyillari asosida tubdan o‘zgarib bormoqda. Xususan, ekologik barqarorlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy jamoalar manfaatlarini inobatga olishga qaratilgan yashil turizm (eco-tourism) konsepsiyasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, yashil turizm nafaqat tabiatni asrab-avaylash, balki iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashning ham samarali vositasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston boy tabiiy landshaftlari, milliy bog‘lari, qo‘riqxonalar va tarixiy obidalari bilan yashil turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Mamlakatda turizm sohasi milliy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib borar ekan, ekologik jihatdan barqaror turizmni yo‘lga qo‘yish zaruriyati yanada ortmoqda. Chunki yashil turizm ekologik muvozanatni saqlash, mahalliy aholining daromad manbalarini kengaytirish va xalqaro turistlar uchun jozibadorlikni oshirish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmni rivojlantirishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi: ekologik standartlarga amal qilish, mahalliy jamoalarni faol jalb etish, zamonaviy infratuzilmani yaratish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Janubiy Koreya va Malayziya tajribasi ushbu sohada O‘zbekiston uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonda yashil turizmni zamonaviy prinsiplari asosida rivojlantirish yo‘nalishlarini o‘rganish, xorijiy tajriba bilan taqqoslash va milliy amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali takliflarni ishlab chiqishdan iboratdir

**Asosiy qism**

Yashil turizmning barqaror rivojlanishi iqtisodiyot, ekologiya va ijtimoiy farovonlikni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda muhim omil — mahalliy aholini jalb qilish hamda ekologik infratuzilmani yaratishdir. Masalan, 2023 yilda respublikada 452 dona oilaviy mehmonxonalar tashkil etilgan, bu esa 3 458 dona mehmonxona va yotoqxona infratuzilmasini kengaytirish imkonini berdi. Buning natijasida turizm sektorida 9 492 yangi ish o‘rni yaratildi, bu iqtisodiy va ijtimoiy niqobni mustahkamlashga zamin yaratdi.

Dunyo bo‘ylab yashil turizm strategiyalari muvaffaqiyati uchun ekologik standartlar, raqamli transformatsiya va mahalliy hamkorlik muhimdir. UNWTO Samarqandda “yashil turizm xalqaro markazi” tashkil qilishni rejalashtirmoqda — bu O‘zbekistonga global miqyosda ekoturizm metodologiyasini joriy etishda muhim platforma bo‘lishi mumkin.

Yuqori darajadagi investitsiyalar orqali O‘zbekiston 2025 yilgacha yashil turizmni rivojlantirish uchun $500 million miqdorida sarmoya jalb etishni ko‘zlagan, bu esa bozor potentsialini oshiradi.

Yashil turizmni rivojlantirish orqali O‘zbekistonda global sayyoh oqimini ko‘paytirish mumkin. 2017 yilda mamlakatga 2.7 million sayyoh kelgan bo‘lsa, 2023 yilda bu raqam 6.6 millionga yetdi — bu pandemiyaga qaramay jadal tiklanish va turizm salohiyatining o‘sishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, turizm xizmatlari eksporti

2023 yilda rekord darajada oshdi — $3.5 milliardga yetib, 2022 yildagiga nisbatan yuqori darajada qayd etildi.

Yashil turizm orqali eksportni kengaytirish, mahalliy resurslarni barqaror ishlatish va turizm salohiyatini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari ochiladi.

O‘zbekiston uchun agroturizm — bu yashil turizmning asosiy shakllaridan biri. Bu yo‘nalish qishloq joylarining iqtisodiy hayotini rag‘batlantiradi, bandlikni oshiradi va ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda agroturizm jahon tajribasi asosida O‘zbekiston sharoitida rivojlantirilishi lozimligi qayd etilgan.

**Muammolar va takliflar**

Hozirgi paytda turlar istiqboli uchun asosiy muammolar: infratuzilmaning etishmasligi, ekologik standartlarning yo‘qligi va malakali kadrlarning kamligi. Dual ta’lim shakli asosida turizm sohasida malakali kadplar tayyorlash O‘zbekiston uchun asosiy yechim bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekiston yashil turizmni rivojlantirishda katta salohiyatga ega — 2023 yildagi turistlar soni, investitsion rejalashtirish va xalqaro tashabbuslar bularning asosiy ko‘rsatkichlaridir. Global metodologiya, agro-turizm va kadrlar tayyorlashga e’tibor qaratilgan holda, mamlakat ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror turizm yo‘lida mustahkam qadamlar qo‘yishi mumkin.

**Xulosa**

O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti, ekologiyasi va ijtimoiy hayoti uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda turizm sohasida barqaror o‘sish kuzatilmoqda: 2017 yilda 2,7 million sayyoh kelgan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 6,6 millionga yetdi. Shu bilan birga, turizm xizmatlari eksporti $3,5 milliardga ko‘tarilgan. Bu raqamlar yashil turizmni milliy rivojlanish modeliga qo‘shish zarurligini isbotlaydi.

Xalqaro tajribalar, jumladan Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi ekoturizm loyihalari, ekologik standartlarni joriy etish, mahalliy aholining faol ishtiroki hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish yashil turizmning muvaffaqiyatini ta’minlashini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston ham bu tajribalarni inobatga olgan holda infratuzilmani modernizatsiya qilish, agro-turizmni rivojlantirish va ekologik xizmatlar sifatini oshirish orqali o‘zining xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirishi mumkin.

Milliy amaliyotda asosiy muammolar — infratuzilmaning yetarli emasligi, ekologik talablarning to‘liq standartlashtirilmaganligi hamda malakali kadrlar taqchilligi. Shu sababli, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ta’lim tizimida ekologik turizm bo‘yicha kadrlar tayyorlash muhim yo‘nalishlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda yashil turizmni zamonaviy prinsiplarga asoslangan holda rivojlantirish nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik muhofaza va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Bu yo‘nalish mamlakatni jahon turizm bozorida barqaror va jozibador maskanga aylantirish imkoniyatini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2022). *Tourism in support of the Sustainable Development Goals*. Madrid: UNWTO.
2. Honey, M. (2008). *Ecotourism and sustainable development: Who owns paradise?* (2nd ed.). Washington, DC: Island Press.
3. Buckley, R. (2012). *Sustainable tourism: Research and reality*. Annals of Tourism Research, 39(2), 528–546. https://doi.org/10.1016/j.annals.2012.02.003
4. Gössling, S., Scott, D., & Hall, C. M. (2015). *Tourism and water: Interactions, impacts and challenges*. Channel View Publications.
5. State Committee of the Republic of Uzbekistan for Tourism Development. (2023). *Tourism statistics of Uzbekistan 2017–2023*. Tashkent: SCRTD.
6. World Bank. (2021). *Sustainable tourism development in Central Asia: Opportunities and challenges*. Washington, DC: World Bank.
7. Sharpley, R. (2020). *Tourism, sustainable development and the theoretical divide: 20 years on*. Journal of Sustainable Tourism, 28(12), 1932–1946. https://doi.org/10.1080/09669582.2020.1779732

## Применение зарубежного опыта в совершенствовании стандартов качества гостиничных услуг

**Абдуллаева Франгиза Абдуллаевна**
*Независимый исследователь*
*Ташкентского государственного*
*экономического университета*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования стандартов качества гостиничных услуг на основе изучения и интеграции зарубежного опыта. Усиление международной конкуренции, рост туристических потоков и изменение предпочтений гостей обусловили необходимость повышения качества сервиса в гостиницах. В исследовании проанализированы сущность и практическое применение международных стандартов ISO 22483:2020, AA Hotel Services, Hotelstars Union, Forbes Travel Guide, а также их роль в обеспечении безопасности, комфорта, гигиены и профессионализма персонала. Особое внимание уделено экологическим сертификатам «Green Key» и LEED, которые способствуют формированию устойчивой модели управления гостиницей. Рассмотрены национальные и внутренние стандарты гостиниц, их соответствие международным нормативам и возможности адаптации для повышения эффективности управления. Делается вывод, что интеграция международных стандартов обеспечивает повышение конкурентоспособности гостиниц, рост доходов, оптимизацию расходов и улучшение качества обслуживания гостей.

**Ключевые слова:** международные стандарты, гостиничные услуги, качество сервиса, ISO 22483:2020, Hotelstars Union, Forbes Travel Guide,

экологическая устойчивость, Green Key, LEED, гостиничный менеджмент, стандартизация, безопасность гостей, квалификация персонала.

**Введение**

Стандарты сервиса в гостинице – это свод нормативных правил, которые обеспечивают высокий уровень качества обслуживания гостей, обеспечивают результативность системы управления, охватывают максимальное взаимодействие с гостями, детально описывает совокупность процедур ежедневных операций, выполняемых сотрудниками, которые способствуют максимальному удовлетворению гостей.

На международной арене, были выявлены существенные изменения в индустрии гостеприимства. Динамичное развитие международного туристического бизнеса привело к росту конкуренции в этой сфере, а рост конкуренции, в свою очередь, требовало повышения качеству сервиса и гостеприимства.

В процессе изучения были выявлены факторы, которые непосредственно влияют на прибыль гостиницы:

- повышается удовлетворенность гостей, увеличивает загрузку гостиницы;
- качественный сервис снижает риск апелляций и исков от неудовлетворенных гостей;
- уменьшаются эксплуатационные расходы и юридические риски, так как отлаженная структура оптимизирует рабочие процессы, предотвращает потери из-за ошибок персонала и нецелевые траты;
- повышается возможность повысить цены за комфортный сервис и услуги проживания;
- увеличивается конкурентоспособность – гости начинают выбирать гостиницы с внедренной системой качества сервиса и обслуживания.

В современном гостиничном мире существуют, несколько моделей международных стандартов, это:

- стандарты ISO[28] является международной организацией по стандартизации, в частности ISO 22483:2020, определяет общие требования к менеджменту гостиницы, касающиеся персонала, услуг, безопасности, досуга и дополнительных услуг и т.д;
- стандарты «AA Hotel Services» - классификация и инспекционные стандарты для гостиниц, применяемые в Великобритании;
- стандарт «Hotelstars Union» - совместная инициатива HOTREC[29], устанавливающая единые стандарты классификации гостиниц в Европе;
- стандарт «Forbes Travel Guide» - рейтинги гостиниц на основе инспекций и оценки качества обслуживания;

Вместе с тем существует несколько уровней стандартов сервиса и обслуживания:

-международные стандарты;

[28] International Organization for Standardization

[29] HOTREC (Hotels, Restaurants & Cafés in Europe - Отели, рестораны и кафе в Европе) — это зонтичная организация, объединяющая 39 ассоциаций из 24 европейских стран

- национальные, государственные стандарты;
- внутренние стандарты гостиницы.

Международные стандарты сервиса и обслуживания, разрабатываются такими организациями как Всемирная туристская организация Объединенных Наций (ЮНВТО), Международная ассоциация конгрессов и конвенций, Всемирная Федерация Ассоциаций туристических агентств, Туристическая Ассоциация стран Азии и Тихого океана, Международная ассоциация ресторанов, Всемирная Федерация Ассоциаций туристских агентств и т. д., которые предлагают наиболее общие правила и рекомендации для обслуживания качественного сервиса гостей.

Все перечисленные международные стандарты, направлены на качественный сервис и обслуживание гостей на высоком уровне, но для того, чтобы эти стандарты выполнялись, необходим регламент обслуживания в гостинице и детальные пошаговые и должностные инструкции, для персонала. Причем не просто внедрение стандарта, но и организовать постоянный контроль и мониторинг улучшение всего процесса. Все методы обслуживания гостей в гостинице должны проверяться на практике и, при необходимости, корректироваться, в частности к международным стандартам относятся:

- безопасность гостей;
- комфорт гостей;
- важность чистоты и гигиены;
-информативный сайт;
- наличие парковки;
-квалифицированный персонал;
- наличие ресторана;
- этикет общения персонала по телефону.

Вышеназванные критерии носят рекомендательный характер, соответствие которых повысит конкурентоспособность по привлечению и устойчивому размещению гостей.

Наряду с этим, учитывая международные нормативы разработаны основные требования, которые обеспечат качественный сервис для гостей, в частности к таким критериям относятся:

Безопасность гостей – предполагает наличие средств противопожарной сигнализации, пожаротушения, видео мониторинга, а также персональную и имущественную защиту гостей;

Чистоты и гигиена – включает наличие специального, профессионального инвентаря и моющих средств, обстоятельное проведения уборок номерного фонда и общедоступных зон, наличие прачечных и посудомоечных агрегатов и т.д.;

Персонал – предполагает наличие штата квалифицированных сотрудников, которые обладают необходимой профессиональной подготовкой и навыками, по обслуживанию гостей. Руководство систематически должны проводить тренинги и доводить работу персонала до автоматизма;

Качество – один из важных элементов стандартизации, определяющий вежливость и профессионализм по отношению к гостям, оперативное решение вопросов с точным выполнением всех запросов;

Экологическая устойчивость – предполагает применение энергоэффективных решений, такие как LED[30]-освещение, солнечные батареи, тепловые насосы, ветряки для снижения энергопотребление и выбросы углекислого газа, использование экологичных моющих средств, энергосберегающие стиральные машины, оптимизация частоты смены белья и полотенец

также наряду с этим внедряются технологии сбережения воды.

Экологическая устойчивость в гостинице — это система управления, направленная на минимизацию негативного воздействия на окружающую среду**,** сохраняя при этом качества обслуживания гостей вследствие создать средство размещение, которое бережно использует ресурсы, сокращает отходы и повышает осознанность гостей и персонала.

В современном гостиничном мире, на сегодняшний день действуют несколько международных «зеленых сертификатов», которые подтверждают экологическую устойчивость средств размещения, одной из популярных считается «Green key» зеленый ключ, который предназначен для гостиниц, ресторанов и конгресс-холлов. Основа оценки по сертификации является: управление отходами, использование энергосберегающей энергией, экологичными средствами для уборки, установление сантехники с соответствующим сертификатом и спецификацией, и самое основное — это обучение персонала и информирование гостей. Данный сертификат действует более чем в 60 странах мира.

Также наряду с «Green key», известный эко-сертификат это LEED (Leadership in Energy and Environmental Design), это американская модель сертификации, которая оценивает в большей степени здание и строительство гостиницы, основные критерии, использование экологичных материалов, энергоэффективность здания.

Национальные стандарты, или ГОСТы, определяют условия безопасности и гигиены в гостиницах, ответственность предприятия, общие рекомендации к качеству сервиса и обслуживания (комфортность, эстетичность, этичность персонала и т. д.).

Внутренние стандарты гостинцы сегодня являются одними из самых востребованных регулирующих документов в гостиничном бизнесе, которые регламентируют и детализируют общие требования, относимые к обслуживанию гостей, утверждаются и устанавливаются руководством гостиницы, для достижения эффективности деятельности.

Внутренние стандарты не должны противоречить законодательству Республики Узбекистан и составляются на основе: законодательства в сфере регулирования туристской и гостиничной деятельности, национальных

[30] LED (англ. Light-emitting diode) — светодиод

стандартов, обеспечивающим применение международных стандартов ИСО и других международных организаций.

Международные стандарты и классификация гостиниц – это система рейтинга, которая помогает гостям определить качество и комфортность гостиницы. Такая система охватывает все аспекты, связанные с проживанием, включая дополнительные услуги, питание и многое другое.

Международная классификация гостиниц — это система оценки качества гостиничных услуг, разработанная Международной Ассоциацией Гостиничных и Туристических Ассоциаций (IH&RA). Система включает в себя пять категорий гостиниц: эконом-класс, средний класс, бизнес-класс, люкс и курортные отели.

Сегмент гостиниц Эконом-класса, как правило предлагают базовые услуги для проживания: номера с ограниченным набором удобств и минимальным сервисом, в большинстве случаев ориентированы на бюджетных гостей.

Гостиницы, предлагающие больше удобств, как бассейны, тренажерные залы и рестораны представлены как сегмент среднего класса, и расположены в центре города или в туристских дестинациях.

Гостиницы, локация которых расположена в деловой и центральной части города, предлагают улучшенные номера и услуги для комфортного пребывания бизнес-туристов, сегментируются как бизнес-гостиницы.

Международный опыт, показывает, что успех в гостиничном бизнесе может быть достигнут, если перед менеджментом в качестве главной задачей стоит достижение высоко уровня качества обслуживания и сам менеджмент реорганизован, в менеджмент качества.

Интегрирование международных стандартов помогает поднять не только доходную часть бизнеса, но и сократить расходы за счет оптимизации процессов и снижения убытков.

**Заключение**

Проведённый анализ подтверждает, что внедрение международных стандартов качества является ключевым инструментом повышения уровня сервиса в гостиничной индустрии. Изучение зарубежного опыта показывает, что создание чётких регламентов обслуживания, стандартизированных процедур и системы постоянного контроля способствует повышению удовлетворённости гостей, снижению операционных затрат и росту конкурентоспособности гостиницы. Экологические стандарты и «зелёные» сертификаты становятся важной частью современной модели гостиничного менеджмента, позволяя уменьшить воздействие на окружающую среду и повысить привлекательность объекта размещения для ответственных туристов. Адаптация международных требований в сочетании с национальными нормативами и внутренними стандартами обеспечивает комплексный подход к развитию гостиничного бизнеса и формированию устойчивой системы управления качеством.

**Список использованной литературы**

1. ISO 22483:2020. Tourism and related services — Requirements for the provision of professional tourist accommodation services.
2. Hotelstars Union. Общие критерии классификации гостиниц.
3. AA Hotel Services. Hospitality Standards and Rating Criteria.
4. Forbes Travel Guide. Standards for Hotels, Restaurants and Spas.
5. UNWTO. Global Guidelines for Hospitality Sector Development.
6. Green Key Global. Sustainable Tourism Certification Programme.
7. U.S. Green Building Council. LEED for Hospitality Facilities.
8. ГОСТы Республики Узбекистан в сфере туристской и гостиничной деятельности.

## ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ БАҒРИДА ЯШИЛ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

*Ибрагимова Гулчехра Тохировна*
*Фан ва технологиялар университети*
*“Иқтисодиёт кафедраси” дотценти.*

**Аннотация.** Мақолада яшил туризмни ташкил этишнинг асосий аҳамияти ва ўрни. Бугунги кунда Ўзбекистонда яшил туризимни йўлга қўйилиши, унинг хуқуқий асослари ва мамлакатимиз иқтисодиётига қўшаётган хиссаси статистик маълумотлар ва график усул билан келтирилган.

**Калит сўзлар:**
Яшил иқтисодиёт, яшил туризм**,** экотуризм, яшил макон, инвестиция.

**Кириш**

Яшил иқтисодиёт ва туризмнинг ўзаро алоқаси айниқса, ривожланаётган мамлакатлар учун катта аҳамиятга эга. Бу мамлакатларда туризм, асосан, иқтисодий ўсиш манбаи сифатида хизмат қилади, шу билан бирга, экологик муаммоларни ҳал этишга ёрдам беради. Ўзбекистонда яшил туризмнинг ривожланиши учун катта имкониятлар мавжуд. Бу мамлакатнинг мафтункор табиати ва унинг хилма-хиллигидир. Шунингдек, Ўзбекистон географик жойлашиши, мўтадил иқлими ва йил фасилларининг ўз ўрни кечиши, ёввоий хайвонот дунёси, табиий бойликлари, тарихий ва маданий мероси, туризмга оид инфратузилмаси ушбу соҳани ривожлантириш учун қулай шароитлар яратмоқда.

**Адабиётлар тахлили**

**Яшил иқтисодиёт** тушунчаси илк бор БМТнинг Барқарор ривожланиш дастурларида (UNEP, 2011) кенг ёритилиб, иқтисодий ўсиш билан бирга экологияни асраш ва ресурслардан самарали фойдаланишни таъминловчи модел сифатида таърифланган. Adabiyotlarda (Pearce, Markandya, 2017) яшил иқтисодиётнинг асосий йўналишларидан бири сифатида экологик туризм

алоҳида кўрсатилади. Чунки туризм соҳаси табиий ресурслардан бевосита фойдаланади ва уларнинг қайта тикланишига таъсир қилади.

“Green Economy Development Journal” (2022–2024 йиллар)даги мақолаларда туризмни “яшил кластер”га айлантириш имкониятлари ўрганилган.

Ҳакимов Н.А.ва бошқалар Яшил иқтисодиёт ва экология номли адабиётида раыамли иытисодиёт шароитида атроф муҳитни ифлосланишини муҳофаза қилувчи тадбирлар ва уларни самарали амалга ошириш Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш учун яшил энергия, транспорт тизими, маҳаллий жамоаларни қўллаб-қувватлаш, табиий меросни муҳофаза қилиш каби йўналишларни устувор деб белгилайди.

**Асосий қисм**

Яшил туризм соҳасини ривожлантириш учун Ўзбекистонда яшил туризмнинг ҳуқуқий базаси асосан “яшил иқтисодиёт”га ўтиш стратегияси ва туризм соҳасини ривожлантиришга қаратилган давлат қарорлари орқали шакллантирилган. 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4477-сон Президент қарори – “2019–2030 йилларда Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегияси” тасдиқланган. Унда барқарор ривожланиш, табиий ресурслардан самарали фойдаланиш, экологик хавфсизлик ва туризмда “яшил” йўналишларни ривожлантириш белгиланган. Стратегияда иқлим ўзгаришига мослашиш**,** қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш, экотизимларни асраш **ва** яшил иқтисодиётни қўллаб-қувватлаш молиявий механизмлари каби йўналишлар назарда тутилган. Бу туризм инфратузилмасида ҳам татбиқ этилди ва туризм соҳасида давлат-хусусий шериклик (PPP) механизмлари орқали экологик тоза туризм зоналари ва кластерларини яратишга ҳуқуқий асос берилган.[31]

“Яшил” иқтисодиёт – бу инсоният яшаш хавф-хатарини камайтириш ва келажак иқтисодиёти бўлиб, экологик хавф-хатарларни камайтириш, табиий ресурслардан самарали фойдаланиш ва атроф-муҳитга зарар етказмасдан барқарор ривожланишга қаратилган иқтисодиётдир.

Бир гуруҳ олимлар 2021 йил “Яшил иқтисодиёт ва экология” номли дарсликларида “Жаҳон амалиёти тахлили кўрсатишича, ривожланган мамлакатлар яшил иқтисодиётга ўтиш жараёнини молиялаштиришнинг мустахкам базаси, сифатли инсон ресурслари ва илғор технологияга эга. Шу сабабли ушбу мамлакатлар яшил иқтисодиётга ижтимоий ривожланиш ва экогогик барқарорликни таъминлашга хизмат қилувчи инвестициялар сарфлаш, иқтисодиётнинг янги тармоқларини ривожлантириш орқали ўтишади.[32] – деб таъкидлашаган. Лекин ривожланаётган мамлакатлар қаторида турган мамлакатимизда яшил иқтисодиёт бағрида яшил туризмни ривожлантириш бугунги куннинг яна бир янги тармоғи, соҳаси ва янги имкониятларидир. Яшил туризм (экотуризм) — бу атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий

[31] Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори,04.10.2019.йилдаги ПҚ-4477-сон

[32] Ҳакимов Н.А.ва бошқалар Яшил иқтисодиёт ва экология: Дарслик: - Тошкент: “Adast poligr
нашриёти, 2021.й. 165бет.

ресурслардан оқилона фойдаланиш ва маҳаллий жамоаларнинг иқтисодий манфаати учун йўналтирилган туризм шаклидир. Бугунги кунда глобал туризм саноати иқлим ўзгариши, биологик хилма-хиллик йўқолиши ва ресурслар ҳаддан ташқари фойдаланилиши каби муаммолар билан юзма-юз келмоқда. Шу боис, бугунги кунда яшил туризмни ташкил этиш барқарорлик жиҳатидан энг муҳим йўналишлардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистонда яшил туризм ҳуқуқий асоси “яшил иқтисодиёт” стратегияси билан таъминланган бўлса, амалиётда у экотуризм лойиҳалари, миллий боғлар ва “Яшил макон” ташаббуси орқали ривожланмоқда. Бу лойиҳалар миллий боғлар, қўриқхоналар ва табиий ҳудудларда барқарор туризмни ривожлантиришга қаратилган бўлиб, ушбу йўналишлари турлича йўналтирилган бўлсада асосий мақсадлари яшил туризмни ривожлантириш борасида уйғунлашиб кетган. Булар:

-“Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси – мамлакат бўйлаб миллионлаб дарахт ва кўчатлар экиш орқали туризм ҳудудларини экологик жиҳатдан яхшилаш, табиатни асраб-авайлаш ва сайёҳлар учун қулай муҳит яратиш;

- Экотуризм имкониятлари – Чимган, Зомин, Бойсун каби ҳудудларда табиат қўйнида дам олиш, миллий боғларда сайёҳлик йўналишлари ташкил этиш, маҳаллий аҳоли билан ҳамкорликда барқарор туризм хизматларини йўлга қўйиш;

- Қўриқхоналар ва миллий боғлар – Зомин миллий боғи, Угам-Чотқол қўриқхонаси, Сурхондарёдаги Бойсун тоғлари каби ҳудудларда экологик туризм йўналишлари ривожланмоқда. Бу ерларда сайёҳлар учун йўллар, дам олиш масканлари ва маданий тадбирлар ташкил этилмоқда. Ушбу йўналишлар нафақат атроф-муҳитни асраш, балки иқтисодий даромад ва маҳаллий аҳоли учун янги имкониятлар яратишга хизмат қилмоқда.

Инвестиция портали “Invest Uzbekistan” маълумотига кўра, экотуризм йўналиши бўйича бир лойиҳа қиймати 10,9 миллион АҚШ доллари миқдорида очиқ инвестицияларга мўлжалланган. Бу лойиҳа инвесторларга 568 та янги иш ўрни яратишни таклиф қилади. Лойиҳа “Ўзбекистон-2030” давлат дастури доирасида, 2025-йил охиригача экотуризмни ривожлантириш учун жами 500 миллион доллар инвестиция жалб қилиш режалаштирилган” [33]

Мамлакатимизда туризмни ривожлантиришдаги ютуқларга назар ташлайдиган бўлсак, аввало, ўлкамизга ташриф буюраётган хорижий меҳмонлар сонининг ошиб бораётганлигини инобатга олиш зарур бўлади.[34]

Экотуризм ва яшил туризм табиатни асраб-авайлаш билан бирга иқтисодий даромад келтиради. Туризм Ўзбекистон иқтисодиётида валюта тушумлари, иш ўринлари ва барқарор ривожланишни таъминлайди. 2024 йилдаги статистик маълумотлар туризмнинг иқтисодий улуши ортиб бораётганини ва яшил туризм орқали мамлакатнинг барқарор иқтисодиётга ўтиш стратегиясида муҳим омил эканини кўрсатмоқда. 2024 йил статистика Агентлигининг кўрсаткичларига асосан ватанимизга 8,2 миллион чет эллик туристлар ташриф буйирган. Бундан аёллар 4077,1 минг нафар (49,8 %),

[33] https://invest.miit.uz/en/uz-latn/projects/eco-tourism

[34] М.Т.Алиева. Туристик мамлакатлар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2007. 321-бет

эркаклар 4104,3 минг нафар (50,2%) бўлиб, 2023 йилга нисбатан туристлар сони 1,8 миллион нафарга (24,2%) кўпдир. Ички туризм ўсиши эса Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлиги маълумотларига кўра, 2024 йилда ички сайёҳлар сони 17 миллиондан ортиқни ташкил этди. Бу 2023 йилга нисбатан тахминан 13–15% ўсиш демакдир.




**1-расм. Хорижий ва ички туристлар сони, экспорт даромадлари ва ЯИМдаги улуши.**

**Тахлил ва натижалар**

Туризмни Ўзбекистон иқтисодиётига қўшган хиссаси бўйича туризм хизматлари экспорти 2024 йилда 2,14 миллиард долларга етди, ички туризм эса умумий хизматлар бозорида катта улушни таъминлади. 2024 йилда ички туризмнинг ўсиши нафақат иқтисодий даромадларни оширди, балки яшил иқтисодиётга қўшган ҳиссаси орқали барқарор ривожланиш, экологик инфратузилма ва ижтимоий самарадорликни таъминлади**.** Ички туризмнинг юқори суръатда ўсиши Ўзбекистоннинг яшил иқтисодиётга ўтиш стратегиясида муҳим омил сифатида намоён бўлди.

2024 йилда туризмнинг ЯИМдаги улуши 3,5–4% атрофида бўлиб, умумий таъсири **6–7%**га етди. Бу кўрсаткичлар туризмнинг Ўзбекистон иқтисодиётидаги аҳамияти ортиб бораётганини ва яшил туризм орқали барқарор ривожланишга ҳисса қўшаётганини кўрсатади.

Графикдан кўриниб турибдики, ички туризм хорижий туризмдан анча юқори ва мамлакат иқтисодиётида хизматлар соҳаси улушини оширган. Туризм хизматлари экспорти ва ЯИМдаги улуши орқали туризм Ўзбекистон иқтисодиётида стратегик аҳамиятга эга тармоқ сифатида намоён бўлмоқда.

**Хулоса ва таклифлар**

Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантириш табиатни асраб-авайлашга хизмат қилади. Миллий боғлар, қўриқхоналар ва табиий ҳудудларда туризм хизматлари экологик меъёрларга асосланади. Бу орқали биоҳафузлик сақланади ва табиий ресурслардан самарали фойдаланилади; иқтисодиётнинг ноишлаб чиқариш тармоқларидан бири сифатида яшил туризм орқали янги даромад манбаи ривожланиб, маҳаллий аҳолига янги иш ўринлари яратилади, қишлоқ хўжалиги ва хунармандчиликка талаб ошади; туризм инфратузилмани ривожлантириш меҳмонхоналар, транспорт ва хизмат кўрсатиш соҳасида қайта тикланувчи энергия манбалари, чиқиндиларни қайта ишлаш ва энергия самарадорлиги каби инновацион ечимларни талаб қилади. Бу яшил иқтисодиётга ўтиш стратегияси билан уйғунлашади; Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги имижини мустаҳкамлайди. Барқарор туризм йўналишлари орқали мамлакат жаҳон бозорида экологик тоза ва жозибали йўналиш сифатида намоён бўлади; маҳаллий жамоаларни туризм жараёнига жалб қилиниши натижасида аҳоли даромадлари ошади, маданий мерос асраб-авайланади ва ижтимоий барқарорлик таъминланади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантиришда мутахассисларнинг ўрни жуда катта аҳамият касб этади. Юқорида таъкидлаганимиздек янги ишчи ўринлар яратилади, лекин ушбу ишчи ўриларга махсус билимга эга, малакали ва тажрибали кадрлани тайёрлашни самарали йўлга қўйиш лозим.

Маҳаллий тадбиркорлар учун экотуризм бўйича фоизсиз кредитлар ёки 3–5 йил имтиёзли кредитларни жорий этиш.

Маҳаллий аҳолига экотуризм бўйича гидлик, қишлоқ туризми, сервис маданияти касбий ўқув дастурларини йўлга қўйиш .

Қишлоқ ва тоғли ҳудудларда оилавий меҳмон уйларини кўпайтириш ва уларга маркетинг ёрдамларини бериш.

Маҳаллий ҳунармандчилик, экологик қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини туристлар учун махсус савдо зоналари орқали тарғиб қилиш.

**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори,04.10.2019.йилдаги ПҚ-4477-сон
2. М.Т.Алиева. Туристик мамлакатлар иқтисодиѐти. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2007. 344-бет
3. Ҳакимов Н.А.ва бошқалар Яшил иқтисодиёт ва экология: Дарслик: - Тошкент: “Adast poligraf” нашриёти, 2021.-264бет
4. https://lex.uz/docs/4539502
5. https://Kun.uz/ru/news/2025/02/03/

# НАТИЖАГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН БЮДЖЕТЛАШТИРИШНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА ЯШИЛ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ

**Примова Н.И.**
*ТДИУ Молия ва*
*молиявий технологиялар кафедраси*
*доценти, n.primova@tsue.uz*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантиришда натижага йўналтирилган бюджетлаштиришнинг аҳамияти ўрганилади. Натижага йўналтирилган бюджетлаштиришнинг яшил туризм соҳасидаги самарадорлиги, иқтисодий жиҳатлари ва экологик таъсири таҳлил қилинади. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, натижага йўналтирилган бюджетлаштириш яшил туризмни ривожлантиришда самарали восита бўлиб, иқтисодий фойда ва экологик барқарорликни таъминлайди.

**Калит сўзлар:** натижага йўналтирилган бюджетлаштириш, яшил туризм, экологик барқарорлик, иқтисодий таҳлил.

## Кириш

Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантириш нафақат экологик, балки иқтисодий жиҳатдан ҳам муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизнинг ноёб табиий бойликлари - Чотқол, Нурота, Угом-Пском тоғ тизмалари, Арол денгизи атрофидаги ландшафтлар, Қорақалпоғистондаги жазиралар ва бошқа кўпгина объектлар яшил туризмни ривожлантириш учун кенг имкониятларга эга.

Яшил туризм - бу табиий муҳитни муҳофаза қилиш, ижтимоий маъсулият ва маҳаллий иқтисодиётни қўллаб-қувватлаш асосида ривожлантирувчи туризм шакли. Ўзбекистон бой табиий ва маданий меросга эга бўлган ҳолда, яшил туризмни ривожлантириш учун кенг имкониятларга эга. Бирок, бу имкониятлардан самарали фойдаланиш учун самарали бюджетлаштириш механизмларини жорий этиш зарур.

Натижага йўналтирилган бюджетлаштириш (НЙБ) - бу маблағларни тақсимлашда натижа ва самарадорликка эътибор қаратиладиган бюджет жараёни. Ушбу усулда маблағлар фақат харажатлар эмас, балки кутилган натижалар асосида тақсимланади.

## Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Яшил туризм ва натижага йўналтирилган бюджетлаштириш мавзуси бўйича илмий ишлар халқаро ва миллий даражада амалга оширилган. Robinson & Picard яшил туризмнинг ижтимоий-иқтисодий ва экологик жиҳатларини таҳлил қилган бўлса [1], OECD натижага йўналтирилган бюджетлаштиришнинг турли соҳалардаги татбиқини ўрганган [2]. Ўзбекистон контекстида Абдуллаев мамлакатимизда яшил туризмни ривожлантириш имкониятларини[3], Холиқов эса бюджет ислоҳотларининг туризм соҳасига таъсирини тадқиқ қилган [4].

**Тадқиқот методологияси**

“Натижага йўналтирилган бюджетлаштириш” технологиясидан яшил туризмдага аҳамияти бўйича тадқиқот олиб боришда гуруҳлаш, абстракциялаш, қиёсий таҳлил, таркибий таҳлил усулларидан кенг фойдаланилди.

Тадқиқотда “натижага йўналтирилган бюджетлаштириш”ва “яшил туризм” бўйича тизимли адабиётлар таҳлили амалга оширилди.

**Таҳлил ва натижалар**

Кейинги йилларда Ўзбекистонда яшил туризм соҳаси ривожига алоҳида эътибор қаратилмоқда. 2024 йил ҳисоботига кўра, туризм соҳаси Ўзбекистон ЯИМнинг 1.7% ташкил этади, яшил туризм умуммий туризм даромадининг 12,2 % ни ташкил этади.

**1-жадвал.**

**Ўзбекистонда туризм ривожи кўрсаткичлари***

| Кўрсаткич | 2020 й. | 2021 й. | 2022 й. | 2023 й. | 2024 й. |
|---|---|---|---|---|---|
| Туристлар сони (млн) | 1.5 | 1,9 | 5.2 | 6,6 | 10,1 |
| Туризм даромади (млрд $) | 0.9 | 1.3 | 2.8 | 3.1 | 3,4 |
| Яшил туризм даромади (млн $) | 65 | 95 | 210 | 310 | 412 |
| Яшил туризмнинг улуши (%) | 7.2 | 7.3 | 7.5 | 7.9 | 12,2 |

*Манба: Ўзбекистон Республикаси экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Туризм қўмитаси маълумотлари [5].

НЙБ яшил туризмда қуйидаги жиҳатдан мухим аҳамият касб этади:

Лойиҳаларга молиявий таъминот - экотуризм, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий парклар

Инфратузилмани ривожлантириш - барқарор транспорт, энергия тежамкор меҳмонхоналар

Қишлоқ туризмини ривожлантириш - маҳаллий жамиятларнинг иштироки

Экологик таълим ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш

НЙБни яшил туризмда қўллаш иқтисодий жиҳатдан юқори самарадорликка олиб келади. Қиёсий таҳлил шуни кўрсатадики, анъанавий бюджетлаштириш билан солиштирганда НЙБ 25-30% тежамкорликка эришиш имконини беради.

**2-жадвал.**

**НЙБнинг иқтисодий самарадорлиги***

| Кўрсаткич | Анъанавий бюджетлаштириш | Натижага йўналтирилган бюджетлаштириш |
|---|---|---|
| Лойиҳани амалга ошириш давомийлиги | 24 ой | 18 ой |
| Харажатлар самарадорлиги | 100% | 130% |

| | | |
|---|---|---|
| Инвестициянинг қайтиш даври | 5-7 йил | 3-4 йил |
| Ижтимоий-иқтисодий таъсир | Чегараланган | Юқори |

*Муаллиф ишланмаси.

Яшил туризмнинг иқтисодий жиҳатдан асосий афзалликлари:

- Маҳаллий аҳолининг иш билан таъминланишини кенгайтириш.
- Табиий ресурсларни барқарор усулда сақлаш ва фойдаланиш.
- Хорижий валюта киримини ошириш.
- Маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналарини ривожлантириш.

Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, натижага йўналтирилган бюджетлаштириш яшил туризмни ривожлантиришда самарали усул сифатида кенг қўлланилиб келмокда. Турли мамлакатларнинг тажрибасини ўрганиш Ўзбекистон учун фойдали бўлиши мумкин.

Европа Иттифоқи мамлакатлари тажрибаси.

Европа Иттифоқида яшил туризмни ривожлантириш “Leader”, “Interreg” каби дастурлар доирасида амалга оширилмокда. Ушбу дастурларда НЙБ асосий тамойил сифатида қабул қилинган.

Германия тажрибаси:

- Бавария тоғидаги экотуризм лойиҳалари.
- Ҳар бир лойиҳа учун аниқ натижа кўрсаткичлари белгилаш.
- Маблағларни натижалар асосида тақсимлаш.
- Мониторинг ва баҳолаш тизимини жорий этиш.

Швейцария тажрибаси:

- Тоғ туризмида экологик стандартларни жорий этиш.
- Маҳаллий жамиятларнинг фаол иштироки.
- Туризм даромадининг бир қисми табиатни муҳофаза қилишга йўналтирилиши.

Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатлари тажрибаси.

Таиланд тажрибаси:

- “Яшил маҳаллий туризм” дастури.
- Маҳаллий жамиятларнинг туризм фаолиятида иштироки.
- Аналитик дастурлар воситасида натижаларни мониторинг қилиш.

Вьетнам тажрибаси:

- Халқ парки ва қўриқхоналарда экотуризмни ривожлантириш.
- Хусусий-давлат ҳамкорлиги моделлари.
- Маблағларни самарадорлик асосида тақсимлаш.

Ўзбекистон учун таксиф этилган натижага йўналтирилган бюджетлаштириш моделли

Ўзбекистон шароитига мос келадиган НЙБ моделини ишлаб чиқиш яшил туризмни ривожлантириш борасидаги ишларни самарали ташкил этиш имконини беради.

Моделнинг асосий компонентлари

1. Стратегик режалаштириш.

- Яшил туризмни ривожлантиришнинг ўзвий дастурларини ишлаб чиқиш.

- Ҳар бир йўналтириш учун аниқ мақсад ва вазифалар белгилаш.
- Натижа кўрсаткичларини (KPI) аниқлаш.

2. Мониторинг ва баҳолаш тизими.
- Дастурларнинг амалга оширилишини мунтазам кузатиш
- Натижаларни баҳолаш механизмини жорий этиш
- Ҳисоботларнинг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш.

3. Молиявий механизмлар.
- Маблағларни натижалар асосида тақсимлаш
- Шартнома асосида молиялаштириш.

**Хулоса**

Натижага йўналтирилган бюджетлаштириш Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантиришда самарали восита бўлиши мумкин. Ушбу усулни жорий этиш орқали нафақат молиявий самарадорликни ошириш, балки экологик барқарорликка эришиш ва ижтимоий ривожланишни таъминлаш мумкин.

Бу борада қуйидагиларни амлга ошириш зарур бўлади:
- Яшил туризм соҳаси учун натижалар индикаторларини ишлаб чиқиш;
- НЙБни амалга ошириш учун меъёрий-ҳуқуқий базани такомиллаштириш;
- Халқаро тажриба ва технологиялардан фойдаланиш;
- Хусусий секторнинг яшил туризм лойиҳаларига инвестициясини рағбатлантириш;
- Яшил туризм бўйича малака ошириш дастурларини ташкил этиш.

**Адабиётлар рўйхати**

1. Robinson, M., & Picard, D. (2006). Tourism, Culture and Sustainable Development. UNESCO.

2. OECD (2019). Performance Budgeting in OECD Countries. OECD Publishing.

3. Абдуллаев И. (2020). Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантириш имкониятлари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 3(2), 45-56.

4. Холиқов Б. (2021). Бюджет ислоҳотларининг туризм соҳасига таъсири. Молия ва бошқарув, 4(1), 78-89.

5. Ўзбекистон Республикаси экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Туризм қўмитаси маълумотлари

6. Примова Н. Ўзбекистонда натижага йўналтирилган бюджетлаштириш механизмини ривожлантириш. // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” илмий-электрон журнали. 2024 й. №4-сон.

# BARQAROR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MINTAQAVIY IQTISODIYOT POYDEVORI

**Jo’rayeva Nargiza Abduvohidovna**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Annotatsiya**. Barqaror turizm zamonaviy sharoitda nafaqat turizm industriyasining rivojlanish omili, balki mintaqaviy iqtisodiyotni tiklash va mustahkamlashning strategik instrumenti sifatida ko‘rilmoqda. Mazkur maqolada barqaror turizm konsepsiyasining mohiyati, uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi. Hududiy iqtisodiyotga barqaror turizmning ta’siri, xususan, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy aholining daromadini oshirish, infratuzilma rivojlanishi, madaniy meroslarni tiklash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish kabi asosiy yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, maqolada global tajribalar bilan bir qatorda O‘zbekistonning mintaqaviy turizm rivoji misolida barqaror turizmning imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularga yechim sifatida taklif qilinayotgan yangi model va yondashuvlar yoritiladi. Natijada barqaror turizm mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy tayanchi bo‘lishi uchun davlat, biznes va jamoatchilik sektorlarining o‘zaro hamkorligi hamda innovatsion yondashuvlar zarurligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** barqaror turizm, mintaqaviy iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, turizm siyosati, hududiy rivojlanish, infratuzilma, mahalliy hamjamiyat, iqtisodiy samaradorlik, ekoturizm.

## Kirish

Xalqaro turizm bozorida bugungi kunda shiddatli o’zgarishlar kuzatilmoqda. Yashil turizm, barqaror turizm, inklyuziv turizm va boshqa turizmni yangi turlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Barqaror turizmni rivojlantirish bilan bir qatorda barqaror xizmatlar, hududlarning barqaror rivojlantirishga, yashillikni, atrof-muhitni asrashga qaratilgan yangi strategik dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Barchamizga ma’lumki O‘zbekistonda yuqori salohiyatga ega bo‘lgan turizm sohasini ichki va xalqaro darajada rivojlantirishga, turizm infratuzilmasini yaxshilash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan yangi me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda, xalqaro va mahalliy tadbirlar, yangi ta’lim muassasalari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, turistlar oqimining oshishi, yangi turizm mahsulotlari, yangicha yo‘nalishlarni rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirishga oid sa’i-harakatlar, xorijiy investorlarni jalb qilish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoq vakillarining tashrifi hamda O‘zbekistonning ko‘plab xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashi amalga oshirildi va boshqa bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2025 yilning yanvar- sentyabr oylarida mobaynida mamlakatimizga xorijdan 8,6 milliondan ortiq xorijiy sayyohlar tashrif buyurdi. “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!”, ziyorat turizmi va hududlardagi ichi

turizmni yanada rivijlantirishga qaratilgan ommaviy tadbirlar, festevalar doirasidagi dasturi doirasida hududlar bo‘ylab ichki turizm salohiyati 22,5 mil. nafardan ortiq aholi sayohat qilganini ko’rishimiz mumkin.

Shuningdek 2025 yilning yanvar-sentyabr oylarida 3 milliard 500 million dollarlik turizm xizmati eksporti amalga oshirildi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 168 foizga oshgan). Turizm va unga yondosh sohalarda yo‘nalishida 28 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Mamlakatimizda 6691 ta joylashtirish vositalari faoliyat yuritib, mehmon uylari, mehmonxona va 123 ta xostellar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Jami joylashtirish vositalaridagi o’rinlar soni 177, 2ning o’ringa yetkazildi. Turistlar uchun xizmat ko‘rsatuvchi 1097 ta yangi turistik tashkilotlar va turagentlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida ularning soni jami 4334 taga yetkazildi. Bugungi kunda Respublika bo‘ylab 3420 ta gid-ekskursavodlar faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston yetakchisi turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan biri ekanini, O‘zbekistonda ham mamlakatni modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli va ortga qaytmas islohotlar doirasida turizm sohasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilib, keyingi yillarda salkam yuzta mamlakat fuqarolari uchun O‘zbekistonga vizasiz kirish tizimi, yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etilganligini, mamlakatimizdagi mehmonxona o‘rinlari soni 140 mingtaga yetkazilib, 70 ta yangi sayyohlik marshruti ochilganligini, 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshlaganligini alohida ta’kidlab o‘tdi.

O‘zbekiston rahbari Turizmni 2030 yilgacha kompleks rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan strategiyada zamonaviy turizm va transport infratuzilmasini yaratishga, katta shahar va sayyohlar ko‘p boradigan manzillarda 30 ta yirik turizm klasterlari tashkil etilishi, “Ko‘hna tarix durdonalari” milliy dasturi doirasida turistlarni o‘ziga jalb qiladigan madaniy meros obyektlari soni 800 tadan 2,5 mingtaga yetkazilib, 745 ta madaniy meros obyekti restavratsiya qilinishi, 20 ta me’moriy yodgorlikda “ochiq osmon ostidagi muzey”lar tashkil etilishini qayd etib o‘tdi.

BBC TRAVEL portali tomonidan 2025 yilda sayoxat qilish uchun eng yaxshi 25 ta yo’nalishlardan biri sifatida qayd etildi. The new tork times ma’limotlari asosida Buxoro shaxri 2025 yilda tashrif buyurishga arziydigan 52 ta ta eng yaxshi joy ro’yxatiga kiritildi. Buxoro shaxrida 1 oy davomida tashkil etilgan Buhara Biennial festevali 5 sentyabrdan -20 noyabrgacha davom etib ko’plab xorijiy va mahalliy turistlarni jalb qildi undan tashqari Toshkent viloyatida tashil etilgan “Umuz sayli”, Xivada tashkil etilgan “Qovun sayli” festevali, Namangan viloyatida har yili tashkil etiladigan “Gullar festevali” hududlarning turizm salohiyatini oshirish bilan bir qatorda barqaror turizmni ribojlantirishga qaratilgan muhim reforma sifatida qayd etishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbari tomonidan xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida BMT doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish taklif etildi. Shu ma’noda aytish joizki, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda “yashil” turizmni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish har qachongidan ham dolzarbdir. Bu boradagi

amaliy qadamlar sifatida Xalqaro turizm tashkiloti doirasida “Yashil” turizmni joriy etish bo‘yicha “Eng yaxshi shahar” nominatsiyasini ta’sis etish, shuningdek, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti hamda Samarqanddagi “Ipak yo‘li” xalqaro universiteti hamkorligida Global “yashil” turizm startaplari laboratoriyasi yaratish ko‘zda tutilmoqda.

Imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun qulay sharoitlarni yanada kuchaytirish va inklyuziv turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti 2025 yilni “Butunjahon inklyuziv turizm yili” deb e’lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish tashabbusini ilgari surdi. Yaqinda Samarqandda ochilgan turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha dunyoda o‘xshashi yo‘q YUNVTO Xalqaro turizm akademiyasida mutaxassislarni o‘qitish uchun maxsus grantlar ajratiladigan bo‘ldi. Shuningdek, yoshlar uchun sayyohlikni rivojlantirish loyihalari hamda yangi g‘oyalarni yaratishda muhim va foydali maydonga aylanadigan Jahon yoshlar turizmi sammitining navbatdagisini Toshkent shahrida o‘tkazish taklif etildi.

Barqaror turizmni rivojlantirish bunda tabiat, tabiiy ekotizmini asrash suv resurslarini homoya qilish va ularni tejash bilan bog’liq harakatlar majmuasini tushunishimiz juda muhim. Aynaqsa madaniy merosni moddiy va nomodiiy resurslarni saqlab qolish hususan tarixiy obidalarni asrash, lapar, askiya , lazgi kabi nomodiy resurslarimizni keljak avlodga ham yetkazish ularni yanada rivojlantirishga qaratilgan. Barqaror rivojlanish omillaridan biri sifatida mahalliy aholining farovonligini oshirishga qaratilgan ularning yashash sifatini yaxshilash, kambag’al aholi sonini kamaytirish, aholini sifatli ta’lim tizmi bilan taminlash chora tadbirlarini ko’rish hamda uzoq muddatli va muvozanatli rivojlanishni ta’minlovchi turizm shakli tushuniladi. Bu jarayon ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligini talab etiladi.

Barqaror rivojlanishning asosiy 17 ta maqsadi mavjud bo’lib bu iqtisodiy - ijtimoiy , atrof muhit , infrastruktirani yaxshilash, innovatsiyon texnologiyalarni joriy etish , toza eko tizimni saqlash hamda suv osti resurslarini ham saqlashga alohida etibor qaratilgan. Har bir soxada amnlga oshirilayotgan ishlar tabbiyki mavjud resurslar zahirasini kamayishiga yoki ularga zara berish bilan bog’liq jarayonlarni o’z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish esa barcha hududlarni ijtimoiy , iqtisodiy, rivojlanishiga qaramasdan bu zahiralarni asrash bilan bog’liq chora tadbirlarga alohid ae’tibor qaratishimizga misoll tariqasida eko mehmonxonalarnin tashkil etish , elektro energiya resurslaridan oqilona foydalanish, sur resurslarini tejash aqlli mexmonxona konsepsiyasini tashkil etishga qaratilgan chora tadbirlarni oz’ ichiga oladi bunda quyish ponellari, led lampalardan foydalanish va boshqalarni misol tariqasida kiritish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizni har bir hududini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda hudularning Turizm salohiyatidan kelib chiqqan holda ziyorat turizmi, qishloq turizmi, eno turizm , agroturizm, kriativ turizm, MICE turizm, inlyuziv turizm yo’nalishlarini rivojlntirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Hududlarni iqtisodiy rivojlanishida turizmning o‘rni beqiyosdir. Chunki turizm sohasi kichik biznesni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, infratuzilmani

yaxshilash va hududning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, tog‘li va tarixiy hududlarda barqaror turizmni yo‘lga qo‘yish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi daromadini oshirish va ekologik muvozanatni saqlash mumkin.

Barqaror turizm konsepsiyasi borasida hudhlarda qator ishlar amalaga oshirilmoqda hususan har bir hudud Oliy ta’lim muassasalariga ajratib berilishi misol tariqasida korishimiz mumkin. Toshkent davlat iqtisodiyot u So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik turizm, agro- va etno-turizm kabi barqaror yo‘nalishlar rivojlanmoqda. Bu yo‘nalishlar mintaqaviy iqtisodiyotning mustahkam poydevorini yaratishda, shuningdek, milliy madaniyatni dunyoga tanitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**BRM 17 ta maqsadlarini amalga oshirish** bo‘yicha muhim ishlar olib borilmoqda. Aholini sog’lom turmush tarziga yo’naltirish, sifatli oziq ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, ta’lim olish tizimini uzluksiz ta’lim sifatini oshirish, ish o’rinlarini tashkil etish biln bog’liq. Barqaror turizm bilan bog’liq bo’lgan BRMning 6, 9, 12, 14 va boshqa masadlari bilan bog’liq bo’lgan ekotizim , infratuzilmani yasxshilashga qaratilgan chora tadbirlar doirasida ham qtor ishlar omalga oshirilmoqda. Miol tariqasida:mavjud suv zahiralarini asrash, ekotizimni tiklash va “Yashil makon” kabi ekologik loyihalar orqali iqlim muvozanatini saqlashga e’tibor kuchaymoqda.




**1-rasm. Barqaror rivojlanish maqsadlari**

Shuningdek, TDIU tashabbusi bilan ekologik va turistik yo‘nalishdagi tadbirlar o‘tkazilmoqda. Masalan,

- “Sahro sadosi” xalqaro yoshlar festivali,
- “Yashil kelajak” umummilliy marafoni,
- Qoraqalpog‘istonda ekoturizm loyihalari – Taxtako‘pir, Ellikqal’a, Amudaryo va Nukus tumanlarida yangi turizm maskanlari tashkil etilmoqda.

Bularning barchasi nafaqat turizmni, balki ekologik barqarorlikni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, “Rally Muynak”, “Aral Sea Eco Marathon”, “Burning Man”, “Orolga tashrif” kabi tadbirlar orqali ekologik muammolarga e’tibor qaratilib, aholining ekologik madaniyati oshirilmoqda.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, barqaror turizmni rivojlantirish — mintaqaviy iqtisodiy o‘sishning muhim manbai, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish garovidir. Shu bois, ushbu yo‘nalishda atrogf muhit, aholini hamda davlat tashkilotlari, xalqaro hamkorlikning uyg‘unlashuviga alohida etibor qaratishimiz zarurdir.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston jahon turizm bozorida eng jozibador mamlakatlardan biriga aylanib bormoqda. Bu bir jihatdan yurtimizda turizm taraqqiyotiga katta e’tibor qaratilayotgani samaralari bo‘lsa, ikkinchidan yurtimizning azaldan tarixiy obidalarga boyligi, xalqimizning bag‘rikeng va mehmondo‘stligi tufaylidir. Albatta bizda turizm sohasida imkoniyatlardan yanada to‘liq foydalanilsa, xorijiy sayyohlarning jonajon diyorimizga intilishini oshishiga, barpo etilayotgan Yangi O‘zbekistoning istiqboli yanada yorqin bo‘lishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-232-son Qarori.

3. Egamnazarov, K. (2025). THE SUSTAINABLE TOURIST AS AN AGENT OF CHANGE: RESPONSIBILITIES, ETHICAL CONDUCT, AND IMPACT IN UZBEKISTAN’S TOURISM DEVELOPMENT. Modern American Journal of Social Sciences and Humanities, 1(3), 1-17.

4. Sodikov M. (2025). SUSTAINABLE TOURISM AND GREEN HOTEL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: ADOPTING INTERNATIONAL BEST PRACTICES. Management, marketing and finance international scientific journal volume 2 issue 3, https://doi.org/10.5281/zenodo.15269200

5. Махзуна Х. Г. Strategy for Increasing the Attractiveness of National Tourism Products (In A Basis Of Craftsmanship)[Стратегия повышения привлекательности национальных туристических продуктов (на основе ремесленничества)] //Молодой специалист. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 24-27.

# EKOTURIZM HUDUDLARIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHNING INNOVATSION MODELLARI

**Umirova Dilnoza Safarovna,**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*Turizm va mehmonxona biznesi*
*kafedrasi dotsenti, PhD*

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada O‘zbekiston va jahon tajribasi misolida ekoturizm hududlarida chiqindilarni boshqarishning innovatsion yondashuvlari va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik turizmning barqaror rivojlanishi uchun chiqindi hosil bo‘lishining oldini olish, qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish hamda raqamli monitoring tizimlaridan foydalanishning ahamiyati ilmiy asoslangan. Xususan, “nol chiqindi” (Zero Waste), “aqlli chiqindi boshqaruvi” (Smart Waste Management), biotexnologiyalar asosidagi parchalanadigan materiallar, vertikal qayta ishlash stansiyalari va sun’iy intellektga asoslangan saralash texnologiyalarining qo‘llanishi ekoturizm hududlarida ekologik yuklamani kamaytirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, mahalliy aholining ishtirokini faollashtirish, ekoturistlar uchun ekologik xulq-atvor standartlarini joriy etish hamda chiqindi boshqaruvi bo‘yicha davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarining afzalliklari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ekoturizm zonalarida chiqindilarni boshqarishning innovatsion modellarini joriy etish barqaror turizmni rivojlantirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Ekoturizm, chiqindilarni boshqarish, barqaror turizm, innovatsion texnologiyalar, zero waste, smart waste management, qayta ishlash, tabiiy resurslar, turistlarning ekologik xulq-atvori

## Kirish

So‘nggi yillarda ekologik turizm (ekoturizm) global miqyosda jadal rivojlanib, barqaror turizmning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, ekoturizm bozori yiliga o‘rtacha 10–12 foizga o‘sib, dunyo turizm industriyasining eng tez kengayayotgan segmentlaridan biri sifatida qayd etilgan (UNWTO, 2023). Ekoturizmning o‘sishi bilan birga tabiiy hududlarda chiqindilar miqdorining ortishi, ayniqsa, himoyalangan tabiiy hududlar va milliy bog‘larga kelayotgan turistlar oqimi kuchayishi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turistik hududlarda chiqindilar 30–40 foizga ko‘proq to‘planadi va ular tabiiy ekotizimlarga bevosita zarar yetkazishi mumkin (Eagles et al., 2020).

Chiqindilarni samarali boshqarish ekoturizm hududlarining barqarorligini ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xalqaro tajribada chiqindi ishlab chiqarishni kamaytirish, qayta foydalanish va qayta ishlash (3R modeli), shuningdek, “nol chiqindi” (Zero Waste) konsepsiyasini joriy etish orqali ekoturistik hududlarning ekologik yuklamasini kamaytirish bo‘yicha bir qator innovatsion yondashuvlar tatbiq qilinmoqda (Zaman, 2015). Masalan, Yaponiyada aqlli sensorlar asosida ishlaydigan chiqindilarni monitoring qilish tizimlari, Yevropa Ittifoqida sun’iy intellekt

yordamida chiqindilarni avtomatik saralash texnologiyalari joriy etilmoqda (European Commission, 2022). Bu texnologiyalar chiqindilarni boshqarish samaradorligini oshirish bilan birga, ekoturizm hududlarida ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ham ekoturizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Xususan, “2023–2030 yillarga mo‘ljallangan turizmni rivojlantirish strategiyasi”da ekologik toza turizm yetakchi yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, tabiiy hududlarda chiqindi boshqaruvini raqamlashtirish, qayta ishlash infratuzilmasini kengaytirish va mahalliy aholini jarayonga jalb qilish zarurligi ta’kidlangan. Shu bilan birga, milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar va ekoturizm zonalarida chiqindilarni boshqarish sohasida innovatsion modellar yetarlicha shakllanmagan bo‘lib, mavjud tizimni optimallashtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ekoturizm hududlarida chiqindilarni boshqarishning innovatsion modellarini o‘rganish, ularning samaradorligini baholash va ular asosida amaliy takliflar ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot ushbu yo‘nalishdagi xalqaro tajribalar, innovatsion texnologiyalar va O‘zbekiston sharoitidagi mavjud imkoniyatlar asosida ilmiy tahlil olib borishni maqsad qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot ekoturizm hududlarida chiqindilarni boshqarishning innovatsion modellarini aniqlash, ularning samaradorligini baholash va milliy sharoitga mos takliflar ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, kompleks aralash metodlardan (mixed methods) foydalanilgan. Tadqiqot uch asosiy metodologik bosqichda amalga oshirildi: (1) nazariy tahlil, (2) empirik ma’lumotlarni yig‘ish, (3) taqqoslama va baholash metodlari.

1. Nazariy-metodik tahlil. Birinchi bosqichda ekologik turizm, chiqindilarni boshqarish va innovatsion atrof-muhit texnologiyalari bo‘yicha ilg‘or xalqaro adabiyotlar o‘rganildi. UNWTO, UNEP, OECD, European Environment Agency tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy hujjatlar, shuningdek Zaman (2015), Eagles et al. (2020), Gössling (2021) kabi tadqiqotchilarning ishlaridan foydalanildi. Bibliometrik tahlil orqali ekologik chiqindi boshqaruvi bo‘yicha asosiy ilmiy yo‘nalishlar va global tendensiyalar aniqlangan.

2. Empirik tahlil. Ikkinchi bosqichda O‘zbekistonning ekoturizm hududlari (milliy bog‘lar, ekomarkazlar, qo‘riqxonalar) bo‘yicha birlamchi ma’lumotlar to‘plandi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

- Chiqindilar tarkibi va hajmi bo‘yicha kuzatuvlar (plastik, organik, qog‘oz, shisha, aralash chiqindi).
- So‘rovnoma – turistlar, mahalliy aholi va turizm obyektlari xodimlari o‘rtasida ekologik xulq-atvor va chiqindi boshqaruviga munosabatni o‘rganish.
- Ekspert intervyulari – “Ekopark”, “Hisor davlat qo‘riqxonasi”, “Zomin milliy bog‘i” hamda chiqindi boshqaruvi kompaniyalari mutaxassislari bilan yarim strukturaviy suhbatlar tashkil etildi. To‘plangan empirik ma’lumotlar NVivo

yordamida sifat tahlili qilish uchun kodlandi; statistik ma’lumotlar esa Excel hamda SPSS orqali qayta ishlangan.

3. Taqqoslama (komparativ) metod. Xalqaro tajriba – Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Kanada va Avstraliya ekoturizm zonalarining chiqindi boshqaruvi modellari – O‘zbekiston amaliyoti bilan taqqoslandi. Taqqoslashda quyidagi mezonlardan foydalanildi:

- chiqindilarni saralash texnologiyalarining rivojlanish darajasi;
- aqlli monitoring tizimlaridan foydalanish;
- Zero Waste va 3R modellarining joriy etilganlik darajasi;
- turistlar uchun ekologik standartlar mavjudligi.

4. Innovatsion modellarni baholash

Baholash jarayonida ko‘p mezonli tahlil (MCDM) qo‘llanildi. Har bir innovatsion model ekologik, iqtisodiy va boshqaruv samaradorligi bo‘yicha 1–5 ballik shkalada baholandi. Modelning barqarorlik darajasi quyidagi indikatorlar orqali tahlil qilindi:

- chiqindi hajmining qisqarishi (%);
- qayta ishlash ulushining o‘sishi (%);
- xarajatlarning kamayishi;
- turistlar tomonidan qabul qilinish darajasi.

5. Raqamli tahlil va GIS yondashuvi

Ekoturizm hududlarida chiqindilar to‘planadigan “issiq nuqtalar”ni aniqlash uchun geoxaritalash (ArcGIS) vositalaridan foydalanildi. Bu metod ekologik yuklamaning qaysi zonalarda yuqori ekanini aniqlash va ular uchun maxsus boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishga imkon berdi.

## Natijalar

Tadqiqot ekoturizm hududlarida chiqindilarni boshqarishning mavjud holati, muammolari va innovatsion modellarni joriy etish imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qilishga imkon berdi. Quyida asosiy natijalar keltirilgan.

1. Ekoturizm hududlarida chiqindilar hajmi va tarkibi bo‘yicha aniqlangan natijalar

Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, ekoturistik zonalarda chiqindi tarkibining 47% organik**,** 29% plastik**,** 11% qog‘oz**,** 6% shisha**,** 7% aralash chiqindidan iborat. Turistlar oqimi ko‘payadigan mavsumlarda chiqindilar hajmi o‘rtacha 32–35% ga oshishi aniqlandi.

Ma’lumotlar xalqaro tendensiyalarga yaqin bo‘lib, ko‘plab ekoturizm obyektlarida plastik chiqindining yuqori ulushi global o‘rtacha ko‘rsatkichlardan (UNEP 2022, 30–35%) ham yuqoriligi bilan ajralib turdi.

**1-jadval.**

**Barqaror turizm va raqamli turizm bo‘yicha tahliliy jadval**

| **Yo‘nalish** | **Mazmuni** | **O‘zbekistondagi amaliy misollar** |
|---|---|---|
| **Ekologik ta’sirni kamaytirish** | Turizmning atrof-muhitga salbiy ta’sirini qisqartirish, tabiiy | Himoyalangan hududlarda turizm |

| | | |
|---|---|---|
| | hududlarni muhofaza qilish | faoliyatini tartibga solish, ekologik monitoring |
| **Barqaror turizm tamoyillari** | Tabiatni asrash, mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish, resurslardan oqilona foydalanish | Mahalliy aholining ekoturizm loyihalariga jalb qilinishi, qo‘shimcha daromad manbalari yaratilishi |
| **Ekoturizm** | Tabiatga zarar yetkazmagan holda sayohat qilish, ekologik madaniyatni oshirish | Ustyurt platosi, Orolbo‘yi, Qizilqum hududlaridagi ekologik marshrutlar |
| **Etnoturizm** | Mahalliy urf-odatlar, an’anaviy hunarmandchilik va turmush tarzini o‘rganishga yo‘naltirilgan turizm | Qoraqalpoq madaniyati, Surxondaryo va Farg‘ona vodiysidagi etno-qishloqlar |
| **Agroturizm** | Qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan tanishish, fermer xo‘jaliklarida dam olish | Meva-sabzavot bog‘lari, qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklarida turistik tajribalar |
| **Raqamli texnologiyalar (Smart Tourism)** | Turizmda raqamli xizmatlar: onlayn bronlash, sun’iy intellekt, virtual gidlar | Onlayn bron tizimlari, raqamli xaritalar, virtual ekskursiyalar, AI-gidlar |
| **Innovatsion platformalar ta’siri** | Xizmat sifatini oshirish, turistlar uchun qulaylik yaratish, turistik oqimni boshqarish | Uzbekistan Travel portali, mobil ilovalar, elektron vizalar |

1-jadvalda barqaror va raqamli turizm yo‘nalishlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda O‘zbekistonda ularning amaliy qo‘llanilishi ko‘rsatilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda barqaror turizm tamoyillari tobora keng qo‘llanilib, ekologik va raqamli yondashuvlar o‘zaro integratsiyalashmoqda. Ekologik ta’sirni kamaytirish yo‘nalishida himoyalangan hududlarda turizm faoliyatini cheklash, chiqindilarni kamaytirish va ekologik monitoring tizimlarini joriy etish barqaror rivojlanishga xizmat qilmoqda. Barqaror turizm tamoyillari esa mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish va ularni turizm loyihalariga jalb etish orqali iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Ekoturizm, etnoturizm va agroturizm yo‘nalishlari O‘zbekistonning tabiiy va madaniy boyliklarini targ‘ib etish bilan birga, ekologik madaniyatni oshirish va mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, Ustyurt platosi va Orolbo‘yi hududlarida ekoturizm yo‘nalishlari barqaror turizmning muvaffaqiyatli namunalaridir. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va innovatsion platformalar turizm xizmatlarini samarali boshqarish, turistlar uchun qulaylik yaratish hamda xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omilga aylangan. Uzbekistan Travel portali, elektron viza tizimi, AI-gidlar va virtual ekskursiyalar raqamli turizmning amaliy ko‘rinishlari sifatida xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, O‘zbekiston turizm sohasida barqarorlik tamoyillarini raqamli innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish yo‘lida izchil rivojlanmoqda.

2. Ekoturistlar va mahalliy aholining ekologik xulq-atvori. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra:

- Turistlarning 62% chiqindilarni saralash qoidalarini bilmaydi.
- 71% ekoturizm hududlarida yetarli axborot belgilari yo‘qligini ta’kidladi.
- Mahalliy aholi vakillarining 54% innovatsion chiqindi boshqaruvi texnologiyalari haqida ma’lumotga ega emas.
- Turistlarning 78% ekologik jarayonlarda ishtirok etishga tayyor, ammo amaliy mexanizm taqdim etilmagan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kommunikatsiya va ekologik savodxonlik yetarli darajada shakllanmagan.

3. Ekoturizm obyektlarida amaldagi chiqindi boshqaruvi tizimining holati

Tahlillar quyidagi muammolarni aniqladi:

- Chiqindilarni manbada saralash tizimi aksariyat hududlarda joriy etilmagan.
- Qayta ishlash infratuzilmasi ekoturizm hududlaridan 30–50 km uzoqlikda joylashgan, bu logistik xarajatlarni oshiradi.
- Chiqindi to‘plash konteynerlarining 70% i eskirgan va sensorli nazorat tizimiga ega emas.
- Ko‘pchilik obyektlarda chiqindilar haftasiga 1–2 marta olib chiqiladi, bu “yuqori mavsumlarda” ekologik yuklamani kuchaytiradi.

4. Xalqaro innovatsion modellarni taqqoslash natijalari

Model tahlili shuni ko‘rsatdiki(2-jadval):

**2-jadval**

**Ekoturizm hududlarida chiqindilarni boshqarish bo‘yicha innovatsion modellar samaradorligini taqqoslama baholash**[35]

| **Model** | **Ekologik samaradorlik** | **Iqtisodiy samaradorlik** | **Mosligi** |
|---|---|---|---|
| Zero Waste (Yaponiya, Kanada) | 5/5 | 4/5 | Yuqori |
| Smart Waste Management (AQSH, Koreya) | 5/5 | 5/5 | O‘rtacha-yuqori |
| AI-saralash texnologiyalari (YEI, Singapur) | 5/5 | 3/5 | O‘rtacha |
| Biodegradatsiya texnologiyalari (Germaniya, Shvetsiya) | 4/5 | 4/5 | Yuqori |
| Vertikal qayta ishlash stansiyalari | 4/5 | 5/5 | O‘rtacha |

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar ekoturizm hududlarida chiqindilarni boshqarish bo‘yicha qo‘llanilayotgan ilg‘or innovatsion modellarni ekologik va iqtisodiy samaradorlik, shuningdek, O‘zbekiston sharoitiga moslik darajasi nuqtayi nazaridan baholashni ifodalaydi. Zero Waste modeli (Yaponiya, Kanada tajribasi) eng yuqori ekologik samaradorlikni (5/5) ko‘rsatgan bo‘lib, chiqindi hajmini keskin kamaytirish va qayta ishlash ulushini oshirish imkonini beradi. Iqtisodiy jihatdan ham

[35] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

u nisbatan tejamkor (4/5) hisoblanadi, shu bois milliy sharoitda joriy etish uchun eng maqbul modellar sirasiga kiradi. Smart Waste Management tizimi (AQSH, Koreya) yuqori texnologik asosda qurilgan bo‘lib, ekologik va iqtisodiy samaradorlik jihatidan maksimal natijalarni (5/5) namoyish etgan. Biroq uning texnik murakkabligi va katta dastlabki sarmoyalarni talab qilishi sababli moslik darajasi o‘rtacha-yuqori deb baholangan.

AI-saralash texnologiyalari (YEI, Singapur) chiqindilarni avtomatik aniqlash va ajratish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Ammo yuqori xarajatlar va texnik xizmat ko‘rsatish murakkabligi sababli iqtisodiy samaradorlik nisbatan past (3/5) bo‘lib, bu model O‘zbekiston sharoitida o‘rtacha mos deb hisoblanadi. Biodegradatsiya texnologiyalari (Germaniya, Shvetsiya) chiqindilarning tabiiy parchalanishini tezlashtirib, ekologik yuklamani kamaytiradi. Ushbu model ekologik (4/5) va iqtisodiy (4/5) jihatdan barqaror natijalar beradi hamda yuqori darajada mos hisoblanadi.

Vertikal qayta ishlash stansiyalari esa joy va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlab, iqtisodiy samaradorlikda yuqori ko‘rsatkich (5/5) beradi. Shu bilan birga, ekologik samaradorligi biroz pastroq (4/5) bo‘lib, u o‘rtacha darajada mos model sifatida baholangan.

Umuman olganda, tahlil natijalari Zero Waste va Biodegradatsiya texnologiyalari modellarining O‘zbekiston ekoturizm hududlari uchun eng maqbul va barqaror variantlar ekanini ko‘rsatadi.

Eng maqbul istiqbolli yo‘nalish sifatida “Zero Waste + Smart Waste” kombinatsiyasi tanlandi.

5. Raqamli (GIS) tahlil natijalari

GIS xaritalash jarayonida chiqindilar tez to‘planadigan “issiq nuqtalar” aniqlanib, ular quyidagi zonalarda to‘plangan:

- Piyoda yo‘laklar boshlanish qismi
- O‘rmon-piknik zonalari
- Mashina to‘xtash joylari
- Kichik restoran va kafe oldi maydonlari

Bu hududlarda chiqindilar o‘rtacha 2,3 baravar tez to‘planishi aniqlangan.

6. Innovatsion modellarni baholash (MCDM) natijalari

Ko‘p mezonli baholash quyidagilarni ko‘rsatdi:

- Eng yuqori umumiy ball (92%) — aqlli sensorlar asosida ishlaydigan Smart Waste sistemi.
- Eng kam xarajat talab qiladigan model — biodegradatsiya va kompostlash (o‘rtacha 74%).
- Turistlar tomonidan eng yaxshi qabul qilingan model — Zero Waste kampaniyalari (82%).

7. O‘zbekiston uchun moslashtirilgan innovatsion tizim modeli

Tahlillar asosida quyidagi kombinasiyalashgan model eng maqbul deb topildi:

“Hybrid Eco-Waste Model”, ya’ni:

- manbada saralash +
- smart-sensorli nazorat +
- kompostlash texnologiyasi +

- mobil ekologik axborot tizimi (EcoApp) +
- davlat–xususiy sheriklik asosida qayta ishlash logistikasi.

Mazkur model joriy etilganda chiqindilar hajmi ilk ikki yilda 35–40% gacha kamayishi prognoz qilindi.

**Xulosa**

Mazkur tadqiqot natijalari ekoturizm hududlarida chiqindilarni boshqarishning samaradorligi va innovatsion modellarning istiqbollari haqida quyidagi asosiy xulosalarni beradi:

1. Ekoturizm hududlarida chiqindilar hajmi va tarkibi sezilarli darajada turistik mavsumga bog‘liq bo‘lib, organik va plastik chiqindilarning asosiy ulushga ega ekanligi aniqlangan. Bu tabiiy ekotizimlarga bo‘lgan yuklamaning yuqoriligi va mavjud boshqaruv tizimining yetarli emasligini ko‘rsatadi.
2. Mahalliy aholi va turistlarning ekologik xulq-atvori yetarli darajada shakllanmagan. Turistlar ekologik qoidalarni bilishga va ishtirok etishga tayyor bo‘lsa-da, amaliy mexanizmlarning yetishmasligi ularning faolligini cheklamoqda.
3. Amaldagi chiqindi boshqaruvi tizimi ko‘plab hududlarda eskirgan, infratuzilma uzoq masofada joylashgan va raqamli monitoring tizimlari mavjud emas. Bu hududlarda chiqindilarni samarali boshqarishning asosiy to‘sqinligi hisoblanadi.
4. Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, “Zero Waste”, “Smart Waste Management” va sun’iy intellektga asoslangan saralash texnologiyalari eng yuqori ekologik samaradorlikka ega. Ularning kombinatsiyasi O‘zbekiston sharoitida ham muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin.
5. GIS va MCDM tahlillari asosida aniqlangan “issiq nuqtalar” va ko‘p mezonli baholash natijalari innovatsion modellarning samaradorligini aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Takliflar

- Ekoturizm hududlarida manbada chiqindilarni saralash tizimini joriy etish.
- Smart-sensorli monitoring va mobil ekologik axborot tizimlari (EcoApp) orqali chiqindilarni real vaqtda kuzatish.
- Kompostlash va biodegradatsiya texnologiyalarini hududlarda keng joriy etish, ayniqsa organik chiqindilarni qayta ishlash.
- Turistlar va mahalliy aholini ekologik savodxonlik bo‘yicha o‘quv dasturlari va aksiyalar orqali faol jalb qilish.
- Davlat–xususiy sheriklik asosida chiqindilarni qayta ishlash logistikasi va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash.
- Xalqaro tajribani inobatga olgan holda, “Hybrid Eco-Waste Model”ni pilot loyihalar orqali amaliyotga joriy etish va samaradorligini baholash.

Shu tarzda, tadqiqot natijalari ekoturizm hududlarida chiqindilarni boshqarishning innovatsion yondashuvlari barqaror turizmni rivojlantirishda muhim omil ekanligini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Mazkur tavsiyalar amalga oshirilsa, ekoturizm hududlarida ekologik yuklamani kamaytirish va turizm xizmatlarining sifatini oshirishga imkon yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Eagles, P. F. J., McCool, S. F., & Haynes, C. D. (2020). *Sustainable tourism in protected areas: Guidelines for planning and management*. IUCN. https://www.iucn.org/resources/publications
2. European Commission. (2022). *Circular economy and waste management in the EU*. https://ec.europa.eu/environment/topics/circular-economy_en
3. Gössling, S. (2021). *Tourism, climate change and sustainability: Principles and practice*. Routledge. https://www.routledge.com
4. UNWTO. (2023). *International tourism highlights: 2023 edition*. United Nations World Tourism Organization. https://www.unwto.org/publications
5. UNEP. (2022). *Global environment outlook 6: Healthy planet, healthy people*. United Nations Environment Programme. https://www.unep.org/resources/global-environment-outlook-6
6. Zaman, A. U. (2015). *A comprehensive review of the development of zero waste management: Lessons from global practices*. *Journal of Cleaner Production*, 91, 12–25. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2014.12.068

## O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**M.Z. Nurfayziyeva,**
*TDIU, Turizm va mehmonxona kafedrasi dotsenti*
**V.O. Azimova,**
*“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishning hozirgi holati, dolzarb muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Yashil turizm ekologik barqarorlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda mahalliy jamoalar manfaatini himoya qilishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi asosida ushbu yo‘nalishni yanada samarali rivojlantirish bo‘yicha takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** yashil turizm, ekologik barqarorlik, xalqaro tajriba, tabiiy resurslar, ekologik siyosat, barqaror rivojlanish.

### Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizmni barqaror rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xususan, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmon bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ekologik turizmni rivojlantirish, tabiiy hududlarda ekologik muhofaza choralarini kuchaytirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini turizm sohasiga tatbiq etish vazifalari belgilangan. Yashil turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik foyda keltiruvchi, tabiiy resurslarni muhofaza qilishga qaratilgan turizm shakli hisoblanadi.

O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Mamlakat hududining 21 foizi tog‘li ekotizimlardan iborat bo‘lib, Surxondaryo, Namangan, Jizzax, Qashqadaryo, Qoraqalpog‘iston kabi hududlarda ekoturizm loyihalari uchun qulay imkoniyatlar mavjud. 2023-yilda O‘zbekistonda 6,6 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lib, shundan 10 foizdan ortig‘i ekologik va etnoturizm yo‘nalishlariga qiziqqan[36] .

Biroq, yashil turizmni rivojlantirishda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- ekologik infratuzilmaning yetarli emasligi (atmosfera chiqindilarining 60% dan ortig‘i transportdan kelib chiqadi);
- ekologik standartlar va sertifikatlash tizimining sust rivojlanishi;
- mahalliy aholining ekologik savodxonligi pastligi;
- ekologik turizm loyihalariga sarmoya jalb qilishdagi cheklovlar.

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida kuchli hamkorlik zarur.

- Kosta-Rika — dunyoda yashil turizm bo‘yicha ilg‘or mamlakatlardan biri bo‘lib, turizm daromadining 27% ekologik xizmatlardan olinadi. Mamlakatda “Certification for Sustainable Tourism (CST)” tizimi joriy qilingan.
- Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida “EU Ecolabel” tizimi asosida 600 dan ortiq yashil mehmonxonalar faoliyat yuritadi.
- Malayziya va Tailand esa ekoturizmni qishloq xo‘jaligi, milliy parklar va jamoa turizmi bilan integratsiya qilgan holda rivojlantirgan.

O‘zbekiston uchun ushbu tajribalar asosida Green Key va Eco-Cert kabi xalqaro ekologik sertifikatlarni joriy etish, turistik obyektlar uchun ekologik reyting tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil turizm O‘zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlash, mahalliy iqtisodiyotga yangi investitsiyalar jalb etish va tabiiy merosni asrashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli:

- ekologik standartlar va sertifikatlash tizimini joriy etish;
- ekologik infratuzilmani rivojlantirishga davlat-xususiy sheriklik asosida sarmoya kiritish;
- ta’lim tizimida ekologik madaniyat va yashil turizm kompetensiyalarini rivojlantirish;
- xalqaro hamkorlik doirasida ekoturizm loyihalarini amalga oshirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni – “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

2. Sodikov M. (2025). SUSTAINABLE TOURISM AND GREEN HOTEL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: ADOPTING INTERNATIONAL BEST PRACTICES. Management, marketing and finance international scientific journal volume 2 issue 3, https://doi.org/10.5281/zenodo.15269200.

[36] **Stat.uz, 2024**

3. Khushnazarova M. et al. Cognitive Radio Network Applications in Mountain Tourism: A Case Study of Uzbekistan's Mountainous Regions //Proceedings of the 8th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2024. – С. 356-363.
4. Xalimova F. Qoraqalpog ‘iston respublikasi turizmini rivojlantirish va hududning turistik jozibadorligini oshirishda raqamli marketing strategiyasi //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – Т. 2. –.
5. Safaeva Sayyora Rikhsibaevna. ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY IN TOURISM: PERSPECTIVES FOR UZBEKISTAN. Labor economics and human capital. 2025/9/30. Том 4, Номер 3
6. UNWTO (2023). *Tourism and Green Transformation.* Madrid: World Tourism Organization.
7. Costa Rica Tourism Institute (ICT). *Sustainable Tourism Certification Program (CST),* 2022.
8. European Commission (2023). *EU Ecolabel for Tourist Accommodation.*
www.uzbektourism.uz
https://www.untourism.int/

# ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБА ВА GSTC СТАНДАРТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИРИ

**Шорахимов Шомансур Шомахмудович,**
*Тошкент давлат иқтисодиёт Университети*
*E-mail: sh_mansur@yahoo.com*
*тел: +998 33 392 00 01*

**Аннотация**. Ушбу мақолада Ўзбекистонда 2025 йил яшил иқтисодиёт йили деб эълон қилиниши мунасабати ҳамда туризм соҳаси иқтисодиётнинг асосий драйверларидан бири деб тан олиниши сабабли давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида шаклланаётган ҳамда бу йўналишда қабул қилинган “Туризм тўғрисида”ги Қонун миллий туризм сиёсатининг асосий ҳуқуқий базаси сифатида барқарор туризм тамойилларини жорий этишда муҳим аҳамият касб этувчи стандартларни тадбиқ этиш масаласи кўриб чиқилади.

Унда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, маданий меросни асраб-авайлаш ва маҳаллий аҳолини учун қўшимча даромад манбаини яратиш мақсадида уларни туризм жараёнига жалб этиш масалалари кўриб чиқилган.

Ушбу йўналишларнинг ҳуқуқий асослар билан халқаро барқарорлик мезонлари, хусусан Жаҳон Туризм Барқарорлик Кенгаши (Global Sustainable Tourism Council – GSTC) томонидан ишлаб чиқилган стандартлар билан уйғунликда намоён қилишнинг афзалликлари кўрсатиб берилган. Қорақалпоғистон мисолида бу масала алоҳида аҳамиятга эга, чунки Орол

денгизининг қуриши туфайли юзага келган экологик инқироз минтақада экотуризм орқали атроф-муҳитга бўлган муносабатни ўзгартириш ва уни муҳофаза қилиш, янги иш ўринлари яратиш ва аҳоли даромадларини диверсификация қилиш заруратини кўрсатади. Шу нуқтаи назардан, GSTC стандартларини жорий қилиш Ўзбекистон туризм соҳасини халқаро даражада рақобатбардош қилиш ва минтақавий барқарор ривожланишга хизмат қилиши асослаб берилган.

**Кириш**

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда туризм соҳаси давлат сиёсати даражасида алоҳида эътибор қаратилмоқда. Туризм соҳасини тартибга солиш ва унинг барқарорлик йўналишларини белгилаш мақсадида 2019 йилда "Туризм тўғрисида"ги Қонун қабул қилинди. Ушбу қонун миллий туризм сиёсатининг асосий меъёрий ҳужжати ҳисобланиб, барқарор туризм тамойилларини амалда жорий этишда муҳим ҳуқуқий база вазифасини бажаради. Жумладан, қонунда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, маданий мерос объектларини асраб-авайлаш, маҳаллий аҳоли манфаатларини ҳимоя қилиш ва уларни туризм жараёнига кенг жалб этиш каби қоидалар мустаҳкамлаб қўйилган.

Қонунда белгиланган ушбу нормаларнинг амалий ижроси давлат органлари, туризм субъектлари ва маҳаллий ҳамжамиятлар ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик механизмлари орқали таъминланади. Хусусан, туризм объектларини лицензиялаш, сертификатлаш ва стандартлаш жараёнларига экологик талабларни киритиш амалиёти йўлга қўйилмоқда. Бу эса барқарор туризмни ривожлантиришда давлат ва хусусий сектор шериклиги (PPP) ҳамда маҳаллий аҳоли иштирокини кучайтириш имконини беради.

Ушбу ҳуқуқий асослар аллақачон Жаҳон туризм барқарорлик кенгаши (Global Sustainable Tourism Council – GSTC) томонидан ишлаб чиқилган халқаро мезонлар билан уйғунликда намоён бўлади. Масалан, қонунда белгиланган маҳаллий аҳолининг манфаатларини ҳимоя қилиш тамойили GSTC мезонларидаги маҳаллий жамоаларнинг иқтисодий иштирокини таъминлаш талабига тўлиқ мос келади. Шунингдек, маданий меросдан оқилона фойдаланиш ва уни асраб-авайлашга қаратилган нормалар ҳам GSTC стандартларида белгилаб қўйилган маданий ҳурмат ва меросни муҳофаза қилиш талабларига уйғун ҳолда намоён бўлади.

Демак, Ўзбекистондаги туризм соҳаси қонунчилик жиҳатидан халқаро барқарорлик мезонларига зиддиятсиз мос келади. Бу эса GSTC мезонларини амалиётга татбиқ этишда ҳеч қандай ҳуқуқий тўсиқлар мавжуд эмаслигини кўрсатади. Аксинча, миллий қонунчилик ушбу халқаро стандартларни жорий этиш ва туризмни глобал "яшил стандартлар" асосида ривожлантириш учун мустаҳкам пойдевор вазифасини бажаради. Хўш, бу пойдеворнинг асоси қачон ва каерда яратилишига тўхталадиган бўлсак у 2002 йил БМТнинг Туризм бўйича Жаҳон Ташкилоти (UNWTO) ва БМТнинг Атроф-муҳит дастури (UNEP) томонидан Халқаро экотуризм йили деб эълон қилинишдан бошланган.

Шу йили Канаданинг Квебек шаҳрида Жаҳон Экотуризм Саммити бўлиб

ўтди. Саммит якунида қабул қилинган декларация экотуризмни ривожлантиришда йўл-йўриқ сифатида катта аҳамиятга эга бўлди. Декларацияга кўра:

Экотуризмдан тушган даромад маҳаллий даражада адолатли тақсимланиши;

Атроф-муҳит муҳофазасига инвестиция киритилиши;

Маҳаллий аҳоли иштирокини таъминлаш ва улар учун қўшимча даромад манбаларини яратиш;

Маданий меросни асраб-авайлаш;

Туристларда экологик масъулият ҳиссини кучайтириш каби тамойиллар белгиланди.

2007 йилда UNWTO, UNEP, United Nations Foundation ҳамда туризм соҳасидаги йирик хусусий ва нодавлат ташкилотлар ташаббуси билан Жаҳон Туризм Барқарорлик Кенгаши (Global Sustainable Tourism Council – GSTC) ташкил этилди. Унинг асосий мақсади – туризм соҳасида ягона барқарорлик стандартлари ва мезонларини жорий этиш эди. Чунки туризмнинг жадал ўсиши бир вақтнинг ўзида атроф муҳитга, маҳаллий аҳоли яшаши учун ҳалақит бериши ва маданий мерос учун жиддий хавф туғдираётган эди.

GSTC томонидан ишлаб чиқилган мезонлар туроператорлар, меҳмонхоналар ва туристик дестинациялар учун халқаро барқарорлик стандартлари сифатида белгилаб қўйилди. Улар қуйидаги тўрт асосий йўналишдан иборат:

Бошқарув мезонлари;

Ижтимоий-иқтисодий таъсирлар;

Маданий меросни муҳофаза қилиш;

Атроф-муҳитни асраб-авайлаш.

«Қорақалпогистондаги орол денгизини қуриб бориши сайин у ердаги балиқчилик ва у билан турмуш тарзи боғлиқ бўлган бутун аҳолини ўз инқирозини топа бошлади. Сув борган сари шўрланиб экинлар учун қўлланилган кимёвий моддалар билан ифлослана бошлади. Қуриб бораётган Орол денгизи сатҳидан кўтарилган чанглар эса ўша кимёвий моддаларни шамол билан бирга осмонга кўтариб жамият соғлиғи учун ҳавф сола бошлади. Шўрланган қум кучли шамол орқали яқин атрофдаги далаларга сочилиб у ердаги ерларни шурлантира бошлади. Далаларни бу шўрликлардан ювиш учун яна ҳам кўпроқ сув ишлатила бошланди. Ушбу сабаблар туфайли бой берилган шундай катта ҳажмдаги денгиз сабабли қиш кунлари совуқ, ёз кунлари эса иссиқ бўла бошлади».

Юқорида келтирилган ушбу мисралар NASA ер кузатув марказининг Қорақалпоғистон Республикаси худудидаги Орол денгизига хозирги кунда берган таърифи шундай. Ушбу берилган таъриф албатта ушбу худудни яқин орада туристик йўналишлардан бирига айлантиришга мантиқан зид келади. Лекин шунга қарамай ушбу фожеа орқасидан дунё жамоатчилигига инсонлар томонидан яратилган экологик фалокатдан зарар кўрган минтақани намоиш қилиш ва у ерда экологик туризмни ривожлантириш, саёҳатга келганларга табиатни асрашга ва уни қайта тикланиши муҳимлигини кўрсатиш ҳамда

туризм орқали атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва бу орқали янги иш ўринлари яратиш имкониятларини очиб беради. Ушбу имкониятдан фойдаланиш учун Ўзбекистон хукумати Қорақалпоғистон Республикасида экотуризмни ривожлантиришга асосий эътиборни қаратди.

Бу эса ўз навбатида Ўзбекистонда, айниқса, Қорақалпоғистонда экотуризмнинг ривожланиши учун GSTC стандартларини жорий қилиш орқали янада самарали бўлиши мумкин. Чунки GSTC — туризм соҳасидаги ягона халқаро даражада эътироф этилган барқарорлик мезонларини белгилайди. Туризмнинг турли соҳалари учун (туроператорлар, меҳмонхоналар, дестинациялар) умумий «стандартлаш талабларини» ни яратади. Хозирги кунда туризм бозоридаги бошқа стандартлар (масалан, EU Ecolabel, Green Globe) кўпроқ минтақавий ёки соҳавий ҳисобланади, GSTC эса бутун дунёда тан олинган ва ягона ҳалқаро даражада тан олинган барқарорлик меъзони ҳисобланади. Шу ўринда яна бир маълумотни айтиш жоизки Европадан ва Шимолий Америкадан келаётганлар сайёхларнинг аксарият қисми, сертификатлаштирилган ва GSTC мезонларига жавоб берувчи хизматларга кўпроқ ишонадилар ва ўз саёҳатлари давомида имкон қадар ушбу хизмат йўналишни танлашга интиладилар ва бундан ташқари хозирги кунда жадал суратлар билан ўсиб бораётган туризм бозоридаги рақобатга ҳамоҳанг равишда бориш учун GSTC энг ишончли платформа деб ҳисоблайдилар.

GSTC нафақат табиат ва атроф-муҳитни, балки ижтимоий, иқтисодий ва маданий соҳаларни ҳам қамраб олади. Масалан, Қорақалпоғистонда экотуризм йўналишларини ташкил этиш нафақат табиатни муҳофаза қилиш, балки маҳаллий аҳолини қўшимча иш билан таъминлаш ва маданий меросни сақлашга ҳам ёрдам беради. Шундай экан, Ўзбекистондаги 2019 йилги “Туризм тўғрисида”ги қонун ҳам барқарор туризм тамойилларига асосланган. GSTC мезонлари ушбу қабул қилинган қонун билан уйғунлашган ҳолда ишлаши учун, яъни қўшимча зиддият ёки мослашиш муаммолари бўлмаслиги ва экологик туризм орқали барқарор иқтисодий ривожланишни учун хуқуқий асос яратади.

**Хулоса**

Хулоса қилиб айтганда, Жаҳон Экотуризм Саммитида белгиланган тамойиллар ва GSTC стандартлари бугунги кунда барқарор туризмнинг асосий йўналишларидан бири сифатида эътироф этилмоқда. Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотлар билан уйғун ҳолда ушбу стандартларни жорий қилиш орқали мамлакатимизда, айниқса Қорақалпоғистонда, экотуризмни ривожлантириш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва аҳоли фаровонлигини ошириш мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. UNWTO (2002). World Ecotourism Summit, Quebec Declaration on Ecotourism.

2. UNWTO & UNEP (2005). *Making Tourism More Sustainable – A Guide for Policy Makers.*

3. GSTC (2007). Global Sustainable Tourism Criteria. www.gstcouncil.org

4. Ўзбекистон Республикаси “Туризм тўғрисида”ги қонуни (янги таҳрир, 2019).
5. Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш стратегияси – 2040.
6. UNEP (2020). Sustainable Tourism and Environment Reports.
7. https://www.earthobservatory.nasa.gov/images/77193/the-aral-sea-before-the-streams-ran-dry?utm_source=chatgpt.com
8. https://lex.uz/.

## O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasini qo‘llash istiqbollari

**Raximova Dilfuza Mirzakasimovna,**
*TDIU “Turizm va mehmonxona biznesi” kafedra katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Costa Rica, Sloveniya, Bhutan, Yangi Zelandiya va Germaniya kabi mamlakatlarning barqaror turizmni rivojlantirishga doir yondashuvlari o‘rganilgan. Ayniqsa, milliy “green brand” tizimlari, sertifikatlash mexanizmlari, atrof-muhitni muhofaza qilish jamg‘armalari va jamoaviy ishtirok modeli tahlil qilinadi. Maqolada adabiyotlar tahlili (literature review) usuli qo‘llanib, xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish istiqbollari aniqlangan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish uchun milliy “O‘zbekiston Green” brendi, ekologik sertifikatlash tizimi, axloqiy sayyohlik kampaniyasi va mahalliy jamoalarni iqtisodiy jarayonga jalb etish bo‘yicha takliflarni ilgari suradi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekistonda yashil turizm, barqaror turizm, xorijiy tajriba, ekoturizm, sertifikatlash tizimi, mahalliy jamoa ishtiroki, ekologik siyosat, turizm infratuzilmasi, “O‘zbekiston Green” strategiyasi, barqaror rivojlanish.

### Kirish

So‘nggi yillarda turizmning iqtisodiy ahamiyati bilan bir vaqtda uning atrof-muhit, ijtimoiy va madaniy ta’siri haqida ham jahon miqyosida katta e’tibor paydo bo‘ldi. “Yashil turizm” (green tourism / sustainable tourism) tushunchasi tabiatni saqlash, mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan. O‘zbekistonning boy tarixiy merosi, tabiiy zonalari va yangi ochilayotgan turistik marşrutlari yashil turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatda yashil turizmni keng joriy etish uchun davlat siyosati, mahalliy resurslar, kafolatli ekologik standartlar va xususiy sektor motivatsiyasi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” mamlakatning barqaror rivojlanish va yashil turizmni rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjati sifatida qabul qilingan[37].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish O’zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirishga xizmat qiladi[38].

Ushbu maqola maqsadi — xorijiy davlatlarning yashil/samarali turizm bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribalarini tahlil qilib, ularni O‘zbekistonda qo‘llash istiqbollarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Maqolada Costa Rica, Sloveniya, Bhutan, Yangi Zelandiya va Germaniya kabi davlatlarning konkret dasturlari va mexanizmlari o‘rganildi va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘llari taklif qilindi. Muayyan hujjat va tadqiqotlar asosida mamlakat ichidagi holat va imkoniyatlar ham қысқacha taqdim etildi (masalan, so‘nggi tadqiqotlar va tahlillar O‘zbekiston turizmida barqarorlikka oid muammolarni ko‘rsatmoqda)[39].

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Yashil turizmni rivojlantirishning nazariy jiharlarini qator olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida keltirib o‘tganlar.

Yashil turizm — bu turizm faoliyatini tabiat va ekologik tizimlarga zarar yetkazmay, mahalliy jamiyat va iqtisodiyot uchun ijobiy natijalar yaratadigan turizm shaklidir. U suv, energiya va boshqa resurslardan oqilona foydalanishni talab qiladi[40].

“Barqaror turizm konsepsiyasi shuni anglatadiki, turizm rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan muvozanatli bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, kelajak avlodlar uchun tabiiy va madaniy resurslarni saqlab qolish muhimdir[41].

“Yashil turizmni rivojlantirishning asosiy omili — hukumat va mahalliy jamoalarning turizmni boshqarishdagi hamkorligi, shuningdek ekologik me’yorlarni qat’iy amalga oshirishdir[42]”.

“Barqaror turizmni rivojlantirish, xususan yashil turizm, nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilish, balki mahalliy aholining ijtimoiy va iqtisodiy farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi[43]”.

---

[37] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4477-son Farmoni. 2019 yil

[38] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.

[39] https://www.visitcostarica.com/sustainability

[40] Gössling, S., Scott, D., Hall, C.M. Tourism and Water: Interactions, Impacts and Challenges. – Bristol: Channel View Publications, 2015.

[41] Weaver, D. *Sustainable Tourism: Theory and Practice*. – Oxford: Elsevier Butterworth-Heinemann, 2006.

[42] Bramwell, B., Lane, B. Critical research on the governance of tourism and sustainability // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5.

[43] United Nations World Tourism Organization (UNWTO). Sustainable Tourism for Development Guidebook. – Madrid: UNWTO, 2021

“Yashil turizmni rivojlantirish innovatsion texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Bu nafaqat ekologik barqarorlik, balki turizm sohasining raqobatbardoshligini oshiradi[44]”.

“Yashil turizm va barqaror turizmning asosiy tamoyili: tabiiy va madaniy merosni saqlab qolish, turizm xizmatlarining ekologik ta’sirini kamaytirish va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy hissa qo‘shish[45]”.

Olimlar va tadqiqotchilarning fikrlariga asoslanib, quyidagi kelish mumkin:

– Yashil turizm barqaror rivojlanishning muhim vositasi bo‘lib, u ekologik tizimlarni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni talab qiladi.

– Barqaror turizm konsepsiyasi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik mezonlarni birlashtiradi, shu bilan kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlashga xizmat qiladi.

– Yashil turizmning samarali rivojlanishi mahalliy jamoalar va hukumatning hamkorligi, ekologik me’yorlarni qat’iy amalga oshirish, shuningdek innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta’minlanadi.

– Barqaror turizmning iqtisodiy foydasi ham muhim: u mahalliy iqtisodiyotga ijobiy hissa qo‘shadi, turizm sohasining raqobatbardoshligini oshiradi.

– Shu bilan birga, yashil turizmning asosiy tamoyillari — tabiiy va madaniy merosni saqlash, turizm xizmatlarining ekologik ta’sirini kamaytirish va mahalliy jamiyat manfaatlarini himoya qilish — uni kelajakda turizm siyosatining strategik yo‘nalishiga aylantiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqola adabiyot-tahlil (literature review) usulida yozildi. Ishda quyidagi manbalar va ish tartibi qo‘llandi:

– Tanlangan mamlakatlar - Costa Rica rasmiy turizm va konservatsiya siyosatlari, Sloveniya milliy “Slovenia Green” dasturi va Green Scheme, Bhutan’ning “High value, low volume” yondashuvi, Yangi Zelandiya “Tiaki Promise” va Germaniyada mehmonxona sertifikatlari (GreenSign) kabi rasmiy resurslar tahlil qilindi;

– Har bir xorijiy tajriba uchun siyosat, moliyalashtirish, sertifikatlash, jamoatchilik ishtiroki, marketing va infratuzilma elementlari o‘rganildi va O‘zbekiston sharoitiga mosligi baholandi;

– Xorijiy davlatlar tajribasini qo‘llashdagi tavsiyalar umumlashtirildi: qaysi mexanizmlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilishi mumkin, qaysilari moslashtirilishi kerak va qaysi bari O‘zbek sharoitida sezilarli darajada o‘zgarish talab qiladi.

**Tahlil va natijalar**

Quyida tanlangan xorijiy tajribalar va ularning asosiy elementlari hamda O‘zbekiston uchun aniqlangan moslashuv yo‘nalishlari keltiriladi.

---

[44] Mamatqulova, D. Yashil turizm infratuzilmasini yaratishning innovatsion yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va Innovatsiyalar. – 2022. – №4. – B. 72–78.

[45] United Nations Environment Programme & UNWTO. Making Tourism More Sustainable: A Guide [illegible] Makers. – Madrid: UNWTO, 2018.

Costa Rica — milliy darajada biologik rang-baranglik va tabiiy muhofazaga asoslangan ekoturizm

Costa Rica tabiatni muhofaza qilish va milliy parklar tizimi (masalan, Milliy Konservatsiya Tizimi) orqali turizmni rivojlantirdi. Davlat darajasida muhofaza qilinadigan hududlar miqdori katta bo‘lib, turizm daromadi muhofaza ishlariga yo‘naltiriladi; jamoaviy loyiha va ekologik turizm bizneslariga rag‘batlar mavjud[46].

O‘zbekistonda xalqaro miqyosda e’tiborga molik tabiiy parklarga (Chorvoq, Buxoro va Qoraqalpog‘iston hududlari, Zarafshon tizmalari va boshqalar) ega bo‘lishi mumkin. Costa Rica tajribasidan o‘rganish: milliy parklar va turtistik zonalar boshqaruvini kuchaytirish, tabiatni muhofaza qilish uchun turizm daromadining bir qismini maxsus jamg‘armaga yo‘naltirish va mahalliy hamjamiyatlarni daromadga jalb etish.

Sloveniya — milliy “Green Scheme” brendi va keng qamrovli sertifikatlash joriy qilingan. Sloveniya butun mamlakat miqyosida “Slovenia Green” brendini ishlab chiqib, hudud va xizmat ko‘rsatuvchi provayderlarni milliy yashil yo‘nalishga moslashga undadi. Ko‘plab turistik yo‘nalishlar va xizmat ko‘rsatuvchilar Slovenia Green sertifikatini olgan. Bu milliy darajada markazlashtirilgan va o‘zaro bog‘langan strategiya yaratishga yordam berdi[47].

Sloveniya modeli O‘zbekistonda “O‘zbekiston Green” kabi milliy markazlashgan sertifikatlash va brend strategiyasini joriy etish uchun asos bo‘la oladi. Bunda mahalliy turistik hududlar (masalan, Samarqand — qadimiy shaharlar, Farg‘ona vodiysi — tog‘-qishloq ekoturizmi) turistik brend sifatida tasniflanadi va ular uchun barqarorlik standartlari ishlab chiqiladi.

Bhutan — “High value, low volume” (yuqori qiymat, kam hajm) siyosatini yuritadi. Bhutan turizmni maqsadli va nazorat ostida rivojlantirib, “high value, low volume” tamoyili bilan yuqori to‘lov (kundalik soliq/haftalik tarif) orqali sayyohlarni tanlab kelishi va atrof-muhit hamda madaniyatni himoya qilishini ta’minlashga harakat qiladi. Bu yondashuv sayyohlar oqimini cheklab, turizmdan olinadigan daromadni yanada samarali qilishga xizmat qiladi[48].

O‘zbekiston hozirda ko‘plab turistik hududlarga jadal kirish qulayligi va narx jihatidan raqobatbardosh. Bhutan modeli o‘zbek sharoitida to‘liq ko‘chirilmasligi mumkin (geosiyosiy joylashuv, masofa, infratuzilma farqi), lekin “maqsadli segmentlash” (premium turizm paketlari, madaniy-sayohat paketlari, ekologik marşrutlar orqali yuqori qiymatli turistlarni jalb etish) o‘rganilishi kerak. Ko‘rsatkich sifatida ayrim sayyohlik yo‘nalishlarida boshqaruv va limitlar, hamda qo‘shimcha xizmatlar uchun premium yig‘imlarni joriy etish mumkin.

Yangi Zelandiya New Zealand — “Tiaki Promise” va milliy mas’uliyat kampaniyasini ko‘rib chiqsak, Yangi Zelandiya “Tiaki Promise” tashabbusi orqali tashrif buyuruvchilarni tabiat va mahalliy madaniyatga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga chaqiradi. Ushbu yondashuv kommunikatsiya va xabardorlikni oshirishga, shuningdek, tur operatsiyalarida mas’uliyatli xatti-harakatlarni targ‘ib qilishga xizmat

[46] https://www.visitcostarica.com/sustainability

[47] https://www.slovenia.info/en/business/green-scheme-of-slovenian-tourism

[48] https://www.bhutanmajestictravel.com/travel-information/tourism-policy

qiladi. Bundan tashqari, Yangi Zelandiyada milliy strategiyalar sayyohlikning atrof-muhit va jamiyatga ta’sirini kamaytirishni maqsad qilgan[49].

“Tiaki Promise” uslubidagi milliy etika va kampaniyani O‘zbekistonda milliy yoki hududiy darajada joriy etish mumkin — masalan, “O‘zbek sayyohi va mehmoni: tabiatga va madaniyatga hurmat” shtampi orqali. Bu sayyohlarni atrof-muhitni asrash, chiqindilarni kamaytirish va madaniy qoidalarni hurmat qilishga o‘rgatadi.

Germaniya (va Yevropa) — sertifikatlash va mehmonxona sanoatida GreenSign kabi tizimlarini mosol qilsak, Germaniyada va Yevropada mehmonxona va turistik ob’ektlar uchun turli sertifikatlash dasturlari mavjud: GreenSign, EU Ecolabel, Global Sustainable Tourism Council (GSTC) mezonlariga moslashgan dasturlar. Sertifikatlash orqali xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlar ekologik samaradorlik, energiya va suvni tejash, chiqindilarni boshqarish va mahalliy jamoa bilan hamkorlikni namoyon qiladi[50]. O‘zbek mehmonxona va turizm xizmatlari uchun milliy yoki mintaqaviy sertifikatlash tizimini joriy etish — bu yashil amaliyotlarni rag‘batlantirish va xalqaro talablarga javob berish uchun muhim qadam bo‘lishi mumkin. Sertifikatlash mehmonxonalarga qo‘shimcha marketing imkoniyatlari yaratadi va investorlar uchun ishonch omili bo‘ladi.

O‘zbekistondagi holat va asosiy muammolarni ko‘rib chiqsak, so‘nggi tadqiqotlar O‘zbekistonda barqaror turizmning joriy etilishi bilan bog‘liq bir qator muammolarni ko‘rsatmoqda: milliy standartlarning va “eko-sertifikat” tizimining yetishmasligi, infratuzilma va ekologik boshqaruvdagi kamchiliklar, mahalliy jamoalarni iqtisodiy jihatdan jalb etish darajasining pastligi, va atrof-muhitni himoya qilish uchun turizm daromadidan yetarlicha mablag‘ ajratilmasligi. Bu masalalar O‘zbekiston profilidagi ilmiy maqolalarda qayd etilgan[51].

**Tahlil va natijalar**

Yuqoridagi natijalar asosida O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish uchun quyidagi xulosalar va tavsiyalar taklif etiladi.

1. Milliy yashil brend va sertifikatlash tizimini yaratish

Sloveniya misolidagi milliy brend (Slovenia Green) mamlakat ichida yagona va tan olinadigan barqarorlik markazini yaratishni osonlashtiradi. O‘zbekistonda shu kabi “O‘zbekiston Green” modeli ishlab chiqilishi mumkin: milliy me’yorlar, standartlar, va hududlar ro‘yxati (green destinations), shuningdek, sertifikat berish mexanizmi. Bu turistlar va operatorlar uchun ishonch belgisi bo‘ladi va marketingda foydalanish mumkin[52]. Amaliy qadamlar:

– Turizm vazirligi yoki maxsus agentlik tomonidan milliy yashil standartlarni ishlab chiqish.

– Sertifikatlashtirish organi tashkil etish yoki xalqaro standardlarga (GSTC) mos keladigan milliy tizimni ishlab chiqish.

---

[49] https://www.tourismnewzealand.com/partner-with-us/tiaki

[50] https://germany.controlunion.com/en/certification-program/greensign-certification/

[51] Karimov M, Okmullaev R, Marty P, Saidmamatov O. Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road. Economies. 2025; 13(9):250. https://doi.org/10.3390/economies13090250

[52] https://www.slovenia.info/en/business/green-scheme-of-slovenian-tourism

– Pilot hududlar tanlab olib, tajriba o‘tkazish (masalan, Samarqand hududi: madaniy meros + yashil boshqaruv).

2. Tabiatni himoya qilish va daromadni jamg‘arma qilish modeli

Costa Rica tajribasida tabiatni himoya qilish uchun ajratilgan hududlar va konservatsiya tizimi, shuningdek, turizm daromadlarining bir qismi muhofaza ishlarga yo‘naltiriladi. O‘zbekistonda yirik tabiiy hududlar (milliy parklar, biosfera rezervatlari) uchun shunga o‘xshash “ekojamg‘arma” tizimi joriy etilishi mumkin. Bu jamg‘arma atrof-muhitni tiklash, yo‘laklar va infrastruktura ta’mirlash, mahalliy hamjamiyat loyihalarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Amaliy qadamlar:

- Park va rezervatlarga kirish uchun maxsus yig‘im(lar) joriy etish va ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri muhofaza jamg‘armasiga yo‘naltirish.
- Mahalliy jamoalarga daromad taqsimoti va ularga ijtimoiy-iqtisodiy manfaat ta’minlash mexanizmini ishlab chiqish.

3. Maqsadli segmentlash — yuqori qiymatli turizmni jalb etish

Bhutan modeli hamma joyda to‘liq mos bo‘lmasligi mumkin, lekin uning g‘oyasi — sifatli, kam sonli va yuqori xarajatli sayyohlarni jalb qilish — O‘zbekistonga mos kelishi mumkin, ayniqsa tarixiy shaharlar va eksklyuziv madaniy paketlar uchun. O‘zbekiston qila oladiki: premium tajriba (madaniy festivallar, shaxsiy kuratorlik, maxsus gastronomik tadbirlar) orqali har bir sayyohdan olinadigan qiymatni oshirsin, shunda atrof-muhit tiqilinchiga tushmasdan daromad oshadi. Amaliy qadamlar:

- Premium paketlar va “slow tourism” (sekin sayyohlik) marshrutlarini ishlab chiqish.
- Xarajatlarni to‘lov qobiliyatiga qarab boshqarish (masalan, maxsus yig‘imlar yoki xizmat to‘plamlari).

4. Milliy axloqiy kampaniya va ta’lim (Tiaki uslubi)

Yangi Zelandiya misolida milliy kampaniyalar sayyohlarni mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatadi. O‘zbekiston sharoitida ham milliy axloqiy kodeks (masalan, tarixiy binolarga hurmat, chiqindilarni kamaytirish, madaniy normalarga hurmat) bilan birga keng axborot-kommunikatsiya kampaniyasi olib borish muhim. Amaliy qadamlar:

- Sayyohlarga mo‘ljallangan qisqacha “Qoidalar va tavsiyalar” (kiritish kartalari, veb-saytlar, aeroportlar va stansiyalarda axborot).
- Yetakchi operatorlar va gidlar uchun trening dasturlari.

5. Sertifikatlashtirish va mehmonxona infratuzilmasi uchun moliyaviy rag‘batlar

Germaniya va Evropa misolida sertifikatlar mehmonxona va turoperatorlarni yashil amaliyotlarni qabul qilishga undaydi. O‘zbekiston ham soliq imtiyozlari, grantlar yoki kreditlar orqali xususiy sektorni energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va yashil infratuzilma o‘rnatish bo‘yicha rag‘batlantirishi mumkin[53]. Amaliy qadamlar:

- Yashil kreditlar va subsidiya sxemalari (masalan, quyosh panellari o‘rnatish, energiya tejovchi yoritish uchun kreditlar).

[53] https://germany.controlunion.com/en/certification-program/greensign-certification

– Sertifikatlashtirish olgan sub’ektlarga marketing qo‘llab-quvvat va xalqaro tadbirlarda qatnashish imkoniyati.

6. Mahalliy jamoalarning ishtirokini ta’minlash

Costa Rica va boshqa davlatlarda mahalliy jamoalar turizmning muhim ijtimoiy va iqtisodiy manfaatdor tomonlari hisoblanadi. O‘zbekistonda mahalliy hunarmandchilik, agro-turizm, homestay (uy-joy xizmatlari) kabi yo‘nalishlarda jamoalarni iqtisodiy jalb qilish orqali barqarorlikni oshirish mumkin. Amaliy qadamlar:

– Mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash (mikrokreditlar, ta’lim, marketing).

– Mahalliy jamoalarni boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonlariga kiritish.

**Xulosa va takliflar**

Yashil turizm — bu turizmning barqaror shakli bo‘lib, u tabiat va ekologik tizimlarga zarar yetkazmasdan, mahalliy jamiyat va iqtisodiyot uchun ijobiy natijalar yaratishga qaratilgan. Yashil turizmning asosiy tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– suv, energiya va boshqa resurslardan oqilona foydalanish;

– ekologik va iqtisodiy barqarorlikni saqlash;

– kelajak avlodlar uchun tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish;

– mahalliy jamoalar va hukumatning turizmni boshqarishda hamkorligini ta’minlash;

• innovatsion texnologiyalarni joriy etish va chiqindilarni kamaytirish.

Shunday qilib, yashil turizm nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradigan integral turizm konsepsiyasi sifatida qaraladi.

Xorijiy tajribalar ko‘rsatadiki, yashil turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun bir nechta muhim element birlashishi lozim: milliy strategiya va brend, aniq sertifikatlash mexanizmi, ekologik boshqaruvga yo‘naltirilgan moliyaviy instrumentlar, mahalliy jamoalarni jalb etish va sayyohlar uchun mas’uliyatli xulq-atvorni targ‘ib qilish. O‘zbekiston uchun asosiy tavsiyalar:

1. Milliy “O‘zbekiston Green” strategiyasini ishlab chiqish — sertifikatlash, brend va hududiy rollarni aniqlash.

2. Tabiatni muhofaza qilish jamg‘armasini yaratish — milliy parklar va muhofaza hududlari uchun kirish yig‘imlari va ularning aniq taqsimoti.

3. Maqsadli segmentlash — premium va tematik (madaniy, agro-, ekoturizm) paketlarni ishlab chiqish orqali yuqori qiymatli sayyohlarni jalb etish.

4. Milliy axloqiy kampaniya — sayyohlarni va provayderlarni atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish.

5. Sertifikatlash va moliyaviy rag‘batlar — xususiy sektorni yashil infratuzilmaga investitsiya qilishga rag‘batlantirish.

6. Mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash — daromadlarni mahalliy darajaga yetkazish va ularni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish.

Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun davlat, xususiy sektor va jamoatchilik o‘rtasida samarali hamkorlik zarur. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki,

bir tomonlama siyosat emas, balki tizimli yondashuv — strategiya, moliyalashtirish, ta’lim va marketingni birlashtirish — eng yaxshi natijani beradi.

Kelgusida quyidagilarni bajarish tavsiya etiladi:

- O‘zbekistonning bir qancha pilot hududlarida eksperimental sertifikatlash va moliyalashtirish modellarini sinash.
- Sayyohlar va mahalliy jamoalar o‘rtasida so‘rovlar orqali ijtimoiy ta’sirlarni baholash.
- Turizm daromadlarini atrof-muhitni himoya qilish uchun qanchalik samarali jalb qilinishini iqtisodiy tahlil qilish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4477-son Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.
3. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). *Sustainable Tourism for Development Guidebook.* – Madrid: UNWTO, 2021. – 145 p.
4. European Commission. *Green Deal: Sustainable Tourism and Environmental Responsibility in Europe.* – Brussels: EC Publications, 2020. – 98 p.
5. Gössling, S., Scott, D., Hall, C. M. *Tourism and Water: Interactions, Impacts and Challenges.* – Bristol: Channel View Publications, 2015. – 341 p.
6. Weaver, D. Sustainable Tourism: Theory and Practice. – Oxford: Elsevier Butterworth-Heinemann, 2006.
7. Bramwell, B., Lane, B. Critical research on the governance of tourism and sustainability // *Journal of Sustainable Tourism.* – 2011. – Vol. 19, No. 4–5.
8. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). Sustainable Tourism for Development Guidebook. – Madrid: UNWTO, 2021
9. United Nations Environment Programme (UNEP). *Green Economy and Sustainable Tourism Report.* – Geneva: UNEP, 2019. – 120 p.
10. Sharipov, A. O‘zbekiston hududlarida ekologik turizmni rivojlantirish omillari // *Turizm va Servis jurnali.* – 2023. – №2. – B. 35–41.
11. Mamatqulova, D. Yashil turizm infratuzilmasini yaratishning innovatsion yo‘nalishlari // *Iqtisodiyot va Innovatsiyalar.* – 2022. – №4. – B. 72–78.
12. Ministry of Environment and Tourism of Japan. *Sustainable Tourism in Japan: Practices and Lessons.* – Tokyo: METJ, 2020. – 102 p.
11. Karimov M, Okmullaev R, Marty P, Saidmamatov O. Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road. Economies. 2025; 13(9):250. https://doi.org/10.3390/economies13090250
12. https://www.visitcostarica.com/sustainability
https://www.slovenia.info/en/business/green-scheme-of-slovenian-tourism
https://www.bhutanmajestictravel.com/travel-information/tourism-policy
https://www.tourismnewzealand.com/partner-with-us/tiaki

https://germany.controlunion.com/en/certification-program/greensign-certification/

# TURIZMDA INNOVATSIYALARNI QO‘LLASH JARAYONLARI VA BOSQICHLARI

**Po‘latov Ma’murjon Murodjon o‘g‘li,**
*TDIU “Turizm va mehmonxona biznesi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda qaysi bir sohani olmaylik uning rivojlanishi uchun davlat tomonidan yetarlicha e’tibor qaratilmasa, uning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmasa rivojlanish kuzatilmaydi. Mamlakatimizda 2016 yildan boshlab turizmni rivojlantirishga uning infratuzilmasini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Turizmni iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo‘lgan sohasi sifatida rivojlantirishga kirishildi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish doimiy nazoratga olindi.

**Kalit so‘zlar.** Turizm, Iqtisodiyot, madaniy me’ros ob’yektlari, innovatsiya, faol aholi oqimi, sayyohlik xarajatlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar.

## Kirish

Islab chiqarishning rivojlanishi global bozorda mahsulotlar va xizmatlar mijozlarning talabiga qarab taklif etilayotganiga qaramay, bu jarayon turizmda boshlanish nuqta sifatida doim turmahsulotlarni va xizmatlarni ko‘rsatish imkoniyatlaridan kelib chiqib yondoshiladi. Lekin, mahsulotlar va xizmatlarni takomillashtirishda innovatsiyalardan keng foydalanish maqsad qilinadi. Innovatsiya degan tushuncha bo‘yicha fikr yuritganimizda birinchi holatda xayolimizga yangi ishlanmalar, g‘oyalar, texnologiyalar, ishlab chiqarishga joriy qilingan kashfiyotlar, infratuzilma, barqaror rivojlanish, mehnat samaradorligini oshirish, ilm-fan erishgan yutuqlari, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, yangicha shakldagi dizaynlari, servis xizmati ko‘rsatishni yangilash, dunyoga yangicha nazar solish kabilar keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, turizm asosan xizmat ko‘rsatish jarayonlaridan iboratligini nazarda tutsak, bu soha ma’muriy va moliyaviy ta’sirga ega bo‘lishiga qaramasdan, texnologik o‘zgarishlarni amalga oshirish juda qiyin bo‘ladi. Turizmga zarur bo‘lgan texnologiyalarni va yetakchi mutaxassislarni jalb qilish doim ravishda qiyin amalga oshirilgan. Turizmning qaysi tarmoqlarida innovatsiyalarni amalga oshirish mumkin, amalga oshirishda asosan nimalarga e’tibor qaratilishi kerak degan tushunchalar yuzaga keladi. Turizmda quyidagi tamoyillar asosida innovatsiyalarni amalga oshirish mumkin:

-*qamrab olish jarayoni.* Innovatsiya turizm infratuzolmasining barcha tarmoqlari, xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalar, tuman, hudud, shahar, mintaqa, mamlakat, yangi turistik mahsuloti ishlab chiqish yoki hozirda mavjudlarini doimiy ravishda yangilab turish, ma’lum bir turistik ob’ekt miqyosida joriy etilishi mumkin;

-j*oriy etish.* Turistlarga ma’lumotlar berish platformalarida, xodimlarni boshqarishda, yangi ish o‘rinlarini ochishda, mehmonxonalarni bron qilishda, xususiy mehmon uylarni ochishda mikrokreditlashni amalga oshirish, servis sohasini texnik jihatdan qo‘llab-quvatlash, aeroportda onlayn-ro‘yxatga olishlar kiradi.

-*tadbiq etish tezligi. Har bir mamlakat maqsaddan kelib chiqqan holda* strategik innovatsiyalar bosqichma-bosqich, havsizlik nuqtai-nazaridan asta sekinlik bilan tatbiq etiladi (transport, kommunikatsiya), reaktiv innovatsiyalarni joriy etish qisqa muddatda tezkor amalga oshirish talab etiladi. Bunda asosan siyosiy voqeyliklar va bozordagi raqobatchilar (viza siyosati) xarakati hisobga olinadi.

Innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilishda turizm infratuzilmasining holatidan kelib chiqqan holda birinchi navbatda tarixiy-madaniy meros, tabiiy geografik omillar va ob-havo sharoitlaridan kelib chiqib yondoshishni talab etadi. Ularni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, sohani rivojlanishining salohiyatini oshiradi.

Turizm infratuzilmasini takomillashtirishda yirik loyihalarni va murakkab texnologiyalarni joriy qilishda maxsus innovatsiyalarni amalga oshirish talab etiladigan jarayonlar ham kuzatilgan bo‘lib, uni BAAning Dubay shahridagi “Emirates Mall”da barpo etilgan tog‘ chang‘i trassasini misol tariqasida olishimiz mumkin. Bu yirik loyiha izchillik bilan amalga oshirilgan bo‘lib, turistlarni va mahalliy aholini kayfiyatini ko‘tarish uchun amalga oshirilgandir. Bu kabi ba’zi bir yirik infratuzilmaviy loyihalarni hisobga olmaganda, turizm asosan kichik biznesga tayanadi.

Masalan, O‘zbekiston joylashuv o‘rniga ko‘ra ajoyib iqlim, go‘zal tabiatga, boy tarixga ega mamlakat hisoblanadi. Shu bilan birga “Buyuk Ipak Yo‘li”ning chorahasida joylashgandir. Bu kabi imkoniyatlar turizmda innovatsion texnologiyalarni joriy etmasa ham, raqobatbardoshlikni saqlab qoladi degan tushunchani paydo qiladi. Misol qilib oladigan bo‘lsak Misr Arab Respublikasidagi ehromlar shu kungacha o‘zgarishsiz holida butun dunyodan millionlab sayyohlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Misr qirg‘oqlarini Qizil va O‘rtayer dengizi suvlari yuvib turadi bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalangan holda tashrif buyurayotgan turistlar ta’tilni ikki qismga bo‘ladi. Bular tarixiy-sarguzashtli sayohat va plyajdagi hordiq chiqarishdir. Bu kabi sayohatlarni tashkillashtirish Gretsiya, Turkiya, Hindiston, Tailand, Ispaniya, Vetnam, Isroilda ham keng joriy qilinishi katta samara bermoqda.

Dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati bo‘lmagan, ya’ni republikamizga o‘xshash bo‘lgan mamlakatlarda, turistlarni kengroq jalb qilish va xizmatlarni tashkil qilish uchun innovatsiyalarni keng qo‘llash orqali nisbatan imkoniyatlari yuqori bo‘lgan davlatlar bilan raqobatga kirishishda turizm infratuzilmasini takomillashtirishni talab qiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda innovatsiyalarni qo‘llash va uni amalga oshirish bosqichlari ketma-ketligini bilishimiz kerak bo‘ladi. Bularni amalga oshurish uchun quyidagilarni samarali egallash lozim bo‘ladi:

- innovatsiyalar butun tarmoqni ko‘lami jihatidan qamrab olishi, alohida tashilotni, korxonani, tuman, shahar, mamlakat, yangi turistik mahsulotlarni ishlab chiqish yoki hozirda mavjudlarini yanada takomillashtirish, turistik ob’ektlar ko‘lamida joriy etishni;

• turistlarning ob’ektlarni qidiruvida yordam beruvchi maxsus platformalarda, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni boshqarish va ularni ish bilan band qikishda birinchi navbatda innovatsiyalarni keng qo‘llash kerak. Shu singari, davlat-xususiy sheriklik shakli va mikrokreditlar, subsidiyalar bilan qo‘llab-quvvatlanuvchi mexanizmlar orqali mehmon uylarni ochish, mehmonxonalar, ovqatlantirish shoxabchalari, transport uyushmalari, texnik xizmatlar ko‘rsatishni (masalan, aeroportda onlayn-ro‘yxatga olish);

• innovatsiyalarni tezlikda joriy qilish. Bunda strategik innovatsiyalar har bir sohada asta-sekin tatbiq (transport kommunikatsiyalari) etiladi. Buning aksi sifatida reaktiv innovatsiyalar joriy qilish (turistlarni ko‘proq jalb qilishni istagan mamlakat uchun vizaning bekor qilinishi) jadal kechadi.

**Adabiyotlar sharhi**

Turizm infratuzilmasini takomillashtirishning nazariy va metodologik masalalari bilan xorijlik olimlardan J.Bowen, D.Lundberg, J.Makens, Chris Ryan, P.Kotler, Ch.Y.Gee, M.Krishnamurthy, D.Chey, J.C.Makens singari olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi . Ushbu olimlarning tadqiqotlarida turizm infratuzilmasini takomillashtirishning nazariy jihatlari, sohaning rivojlanish bosqichlari, rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar, rivojlanish tamoyillari hamda hozirgi sharoitda turizm orqali tashqi savdo balansini yaxshilash hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga katta e’tibor qaratilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida turizm infratuzilmasini takomillashtirish muammolariga A.Yu.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.B.Birjakov, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, M.N.Dmitriyev, L.V.Baumgarten, A.M.Vetitnev, L.B.Juravleva, A.V.Borisova, D.S.Ushakov, M.A.Jukova singari olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar . Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar o‘zlarining tadqiqotlarida asosan mintaqalarda turizm infratuzilmasini yaxshilash orqali xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish va rivojlantirish jihatlarini tadqiq etgan.

Mamlakatimizdagi turizm sohasida tadqiqot olib borayotgan iqtisodchi olimlardan S.S.G‘ulomov, Q.X.Abdurahmanov, N.T.To‘xliyev, M.Q.Pardayev, A.A. Eshtayev, A.M.Abduvohidov, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, D.X.Aslanova, B.N.Navro‘z-zoda, O.M.Pardayev, B.H.To‘rayev, O.H.Xamidov, B.Sh.Safarov, N.S.Ibragimov, S.S.Ro‘ziyev singari olimlarning ilmiy ishlarida turizm infratuzilmasi rivojlanishini samarali boshqarish, turistik resurslardan oqilona foydalanish, sohani rivojlantirishdagi muammolar va hududiy turizmni rivojlantirish masalalariga keng e’tibor qaratilgan.

**Tahlil va natijalar**

Shu bilan birgalikda innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonlari bosqichma-bosqich bo‘lib, juda ham ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki, innovatsiyalarga sarflangan mablag‘lar biron bosqichda noto‘g‘ri amalga oshirilsa, barcha qilingan xarakatlar bekor ketishi mumkin.

Birinchi bosqichda g‘oyalarni bir tizimga keltirib olish talab qilinadi. Bunda yuzaga kelgan yangi g‘oyalarni amalda qo‘llash uchun ichki imkoniyatlar aniqlanadi. Yangi g‘oyalarning bir qancha muqobillari ham yuzaga chiqishi mumkin bo‘lib,

ularning ichida kelajagi bor deb qaralgani tanlab olinadi. Turistik kompaniyaning rivojlanish strategiyasiga va bozordagi imijiga mos kelishida tanlab olingan g‘oyalar aniqlanadi va yangi xizmatni kelajakda amalga oshirish belgilab olinadi.

Ikkinchi bosqichda aniqlangan g‘oyani amalga oshirish uchun bozordagi o‘zgarishlar bo‘yicha axborotlar yig‘ila boshlanadi. Yig‘ilgan axborotlar tahlil qilinib, bozorga taklif etilishi kutilayotgan xizmatni amalga oshirish uchun turistik kompaniyaning salohiyati, imkoniyatlari va tavakkalchilik darajasi va uning me’yorlari belgilanadi.

Uchinchi bosqichda yangi xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinib, uning marketing xarajatlari va dasturlari ishlab chiqiladi. Shu bilan birgalikda g‘oya aniq loyiha ko‘rinishiga o‘tganda turistik bozorning mavqeyi, talab va taklif, is’temol hususiyatlari juda katta ahamiyatga ega. Yangi xizmatlarni joriy qilish va ularni o‘zlashtirishdagi xarajatlarni baholash, mavjud resurslarga ishonch hosil qilish, moliyaviy manbalarni aniqlash, xodimlar salohiyatini baholashni amalga oshirish lozim. Shundan so‘ng yangi xizmatlarni ishlab chiqish muddatlari, uning rentabelligini baholash va uni bozorga taqdim etish amalga oshiriladi.

To‘rtinchi bosqichda oldingi uchta bosqich amalga oshiriladi. Bundan ko‘rinib turibdiki turistik kompaniyalarda innovatsiyalarni amalga oshirish naqadar murakkab jarayon ekanligi ayon bo‘ladi. To‘rtinchi bosqichda asosan yuqoridagilar bilan birga quyidagilar amaga oshiriladi:

-yangi xizmatlarni ishlab chiqishda kompaniyaning bo‘limlari o‘rtasida amalga oshiriladgan vazifalarni taqsimlash orqali aniq dasturi ishlab chiqiladi;

-xavsizlik, ekologik va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishlab chiqilgan xizmat turi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish;

-ishlab chiqilgan xizmat turining nomlanishi, mahsulot belgisini aniqlash va yangicha yondoshuvlar amalga oshiriladi.

Beshinchi bosqichda bozorda bevosita test o‘tkaziladi. Bunda kamida uch oy maboynida narx va narxlarga chegirmalar taqdim etish, kreditlar berish bo‘yicha sinovlar olib boriladi. Shu bilan birgalikda reklama turlari va amalga oshirish usullarini tanlash, kutilmagan vaziyatlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish tekshiriladi.

Oltinchi bosqichda yaratilgan xizmat turini bozorga kiritish bo‘yicha qaror qabul qilinadi va yangi xizmat turini ko‘rsatish boshlanadi. Bunda doimiy ravishda ko‘rastilgan xizmatlar xajmi, rentabelligi, talab va ehtiyojlarni qondirish darajasi, xizmat ko‘rsatish usullari nazorat qilib boriladi. Shu bilan birgalikda:

- turistik kompaniyaning xalqaro darajadagi obro‘si, mijozlar bilan doimiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish orqali bozorni egallash;

-tajribali soha xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish, yaratilgan mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish;

-moliyaviy manbalarni topish orqali yangi xizmat turlarini keng ko‘lamda ishlab chiqish uchun xorijiv va mahalliy tadbirkorlaning sarmoyalarini jalb qilish;

-xalqaro standartlarga yangi ishlab chiqilgan xizmat turlarini moslashtirish, patentlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ko‘rib o‘tilgan omillarning barchasi muvoffaqiyatli amalga oshirilsa har qanday turistik kompaniya faoliyatida innovatsiyalarni joriy qilsa bozorni

egallashi va maksimal darajada foyda olishga erishadi. Natijada turistik kompaniya bozorda monopol mavqeyga ega bo‘lib olishi ham mumkin.




**1-rasm. Innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni bosqichlari [54].**

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha innovatsiyalarni qanday va qaerda qo‘llashni bilish ham kerakligini o‘rganishni taqoza etmoqda. Xar doim xar joyda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda yangiliklar mavjud bo‘lishi lozim. Turistik xizmatlarga talab taklifni yuzaga chiqaradi. Turistlar yangi xizmatlarni yaratishda qatnashib qolmasdan bevosita is’temolchi ham bo‘ladi. Turizmda innovatsiyalarni qo‘llashda marketologlar turistlar sigmentini va nimalarga qiziqishlarini doimiy ravishda o‘rganib borishi bilan birga ular nimalarni istashlarini aniqlaydi. Aynan shu kabi ma’lumotlar turistik bozorda qaysi xizmatlarga talab yuqori va talabni qondirishda qanday innovatsion yechim topishga xizmat qiladi. Masalan, Shimoliy Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiyo, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ekoturizm rivojlangan ularda turistlarga xizmatlar taklif etishda qishloqlardagi mehmon uylarda, tabiat qo‘ynida bo‘lgan vaqtlarida maksimal sharoitlar yaratish uchun innovatsiyalardan keng foydalanilmoqda. Shu singari, mehmon uylar egalari turistlarni qabul qilish uchun barcha sharoitlarni yaratmoqda.

Turizmda innovatsiyalar keng qo‘llanilayotgan yana bir yo‘nalish muzeylardir. Muzeylarda virtual xizmatlar keng joriy qilinmoqda. Turistlar mashhur muzeylarga sayohat qilishda internet imkoniyatlari orqali muzey bo‘ylab aylanishva noyob eksponatlarni ko‘rishi mumkin bo‘ladi. Bunda turistlar yilarida turgan holda muzeylar bo‘ylab sayr qilishi, eksponatlarni tomosha qilishi, zaruriy ma’lumotlar olishi, ma’lum holarda ilmiy tadqiqotlar olib borishi mumkin. Bu sohaga innovatsiyalarning keng joriy qilinishiga sabab, hozirda turistlar orasida muzeylarga tashrif buyurish tez ommolashmoqda. Masalan, dunyoga mashhur Fransiyadagi 1793 yil 8 noyabrda ilk marotaba Luvr milliy san’at muzeyi ommaga o‘z eshiklarini ochgan bo‘lsa, yillar davomida faoliyati natijasida hozirda yiliga 10 mln.dan ortiq

[54] Muallif tomonidan tavsiya etilayotgan turizmda innovatsiyalarni amalga oshirish bosqichlari.

turistlarni o‘zida qabul qilmoqda. “The Art Newspaper” nashri har yili dunyoda eng ko‘p tashrif buyurilgan muzeylar ro‘yxatini e’lon qilib boradi. Hozirda dunyoda 60-80 tagacha ana shunday millioner muzeylar faoliyat olib bormoqda. “The Art Newspaper” jurnali tomonidan tuzilgan ro‘yhatga ko‘ra Xitoy Milliy muzeyiga (Pekin) 7390000ta, Vatikan muzeyiga (Vatikan) 6882931ta, Metropoliten San’at muzeyiga (Nyu York) 6479548ta, Britaniya muzeyi (London) 6239983ta, Tate Modern muzeyi (London) 6098340ta, Milliy Galereya (London) 6011007ta, Ermitaj davlat muzeyi (Sankt-Peterburg) 4956529ta, Museo Reina Sofía muzeyi (Madrid) 4425699ta, Milliy san’at galereyasi (Vashington) 4074403ta tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatgan. Bu muzeylar o‘rtasidagi raqobatdan engib chiqishda innovatsion texnologiyalarga talab ortib bormoqda.

Turizm infratuzilmasining tarixiy rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak innovatsiyalarni joriy qilina boshlangandan keyin (o‘tgan asrning 70 yillaridan keyin) misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishilmoqda. Texnologiyalarning o‘zgarishlariga qaramasdan turizm infratuzilmasi innovatsiyaga asoslangan holda rivojlanish yo‘nalishidan bormoqda. Avvalgi texnologik o‘zgarishlarga qaraganda turizmda hozirda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda boshqa tarmoqlardan oldinga o‘tib ketmoqsa. Innovatsiyalarni turizmga infratuzilmasiga keng joriy qilish xizmatlarning samaradorligini oshirishi bilan birgalikda texnologik xarajatlarni ham kamaytirishga olib kelmoqda (1.2.1-jadval).

2010 yildan keyin turizmda ilmiy va texnologik innovatsiyalarga talab ko‘lami keskin ortib borishi kuzatilmoqda. Bu o‘z navbatida turistlarning o‘sib borayotgan talablarini va xizmat ko‘rsatishdagi cheklovlarni olib tashlashga imkoniyatlar bermoqda.

Birinchidan, ilmiy-texnologik innovatsiyalar asosiy omil sifatida olinganda odamlarning yashash sharoitini, ishlab chiqarishning xususiyatini o‘zgartirdi. Shuningdek, innovatsiyalar ishlab chiqarishni qayta shakllantirdi va uni xarakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylandi. Ilm-fan va texnologiyalarga innovatsion yondoshuv natijasida aholining ijtimoiy muhofazasi yaxshilandi va ularning mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshdi, bu esa aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarni sezilarli darajada o‘sishiga olib kelishi bilan birgalikda turizmning yangicha ko‘rinishlarini vujudga keltirdi.

Ikkinchidan, ko‘proq bo‘sh vaqtining bo‘lishi ilmiy-texnologik yangilikni joriy qilishga olib keladi. Rekreatsion turizmning muhim shartlaridan biri ko‘proq bo‘sh vaqt bo‘lishidir. Boshqaruv va ishlab chiqarishga avtomatlashtirilgan texnologiyalarning kirib kelishi, ilm-fan va texnika taraqqiyoti yuzaga chiqishi natijasida mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirdi. Natijada, odamlarning o‘rtacha ish vaqti sezilarli darajada kamayishi natijasida ularning bo‘sh vaqtlarida dam olishi va ta’tillarida sayohatlarga chiqishga bo‘lgan talabi ortib bordi.

Uchinchidan, ilmiy va texnologik innovatsiyalar turizm faoliyatini ham mustahkamlamoqda. So‘nggi 20 yillikda insonlarning ta’lim darajasi, savodxonligi va hayot faoliyati yaxshilanib borayotganligi sababli, ba’zi turistlarda ilmiy texnologik innovatsiyalarni o‘zlashtirish ham sayyohatlardan zavqlanish bilan birgalikda sayyohat davomida ortib bormoqda.

**Xulosa**

Zamonaviy turizmni amalga oshirishda ilmiy-texnologik innovatsiyalarning joriy qilinishi yuqori talablarni keltirib chiqardi. Bu kabi omillar ilmiy yo‘nalishda tashrif buyurgan turistlarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish, axborotlarni qayta ishlash, shuningdek, an’anaviy turizmdan farqli o‘laroq yangi texnologiyalarni qo‘llanilish orqali turizmning yangi turlarini izlashga majbur qiladi.

Turistik xizmatlarning sifatini oshirishda ilmiy va texnologik innovatsiyalarni qo‘llash quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

Ilmiy va texnologik innovatsiyalar, birinchi navbatda, turmahsulotlarning turlarini kengaytiradi va ularning bozordagi hayotiylik siklini uzaytiradi. Turistik mahsulotlarni turistlarga qisqa mudatlarda yetkazib berishni yaxshilash va doimiy ravishda ko‘rsatilayotgan xizmatlarni yangilashda turizm sanoati innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Kiritilayotgan investitsiyalar innovatsion texnologiyalarni joriy qilishga ham turistik mahsulotlarning bozordagi hayotiylik siklini uzaytirishga yordam beradi. Bunga misol qilib “Disneylend”ni oladigan bo‘lsak, ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirgan holda yangi texnologiyalarni qo‘llashga investitsiya kiritishi natijasida barpo qilgan ko‘ngil ochish markazlari butun dunyodan turistlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Turizm infratuzilmasi rivojlanishiga lmiy va texnologik innovatsiyalarning ta’sirini ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, birinchidan, transport infratuzilmasida ilmiy va texnologik innovatsiyalar katta ahamiyatga egadir.

Yirik avtomagistrallar, maxalliy avtomabil yo‘llari, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poezdlar, fuqarolik aviatsiyasining jadal rivojlanishi turistlarning harakatlanishini bir necha bor tezlashtirishi bilan birga xarakatlanish xavsizligini oshirdi. Shu bilan birgalikda, yangi texnologiyalarning qo‘llanishi turistlarga transport xizmatlarining takomillashib borishi va ko‘rsatishni sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keldi.Turizm infratuzilmasi rivojlanishiga lmiy va texnologik innovatsiyalarning ta’sirini ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, birinchidan, transport infratuzilmasida ilmiy va texnologik innovatsiyalar katta ahamiyatga egadir. Yirik avtomagistrallar, maxalliy avtomabil yo‘llari, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poezdlar, fuqarolik aviatsiyasining jadal rivojlanishi turistlarning harakatlanishini bir necha bor tezlashtirishi bilan birga xarakatlanish xavsizligini oshirdi. Shu bilan birgalikda, yangi texnologiyalarning qo‘llanishi turistlarga transport xizmatlarining takomillashib borishi va ko‘rsatishni sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keldi. Xususiy avtomobillarning soni ortib borishi, avtomabillarni ijaraga berish imkoniyatlarining yaratilishi turistlar uchun yana bir qulaylikdir. Masalan, Alipay va UnionPay to‘lov tizimi tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, shaxsiy avtomabilni avtoturargohga qo‘yganligi uchun to‘lovni elektron amalga oshirish orqali turistlar vaqtini tejash bilan birgalikda navbatlar va tirbandliklarni bartaraf etishga katta yordam beradi.

Ikkinchidan, innovatsiyalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi rivojlanishiga ham ta’sir o‘tkazdi. Zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari takomillashuvi natijasida turistlar butun sayohat davomida sifatli aloqa bilan ta’minlanishiga erishildi. IoT dasturlari orqali turistlar hohlagan vaqtda uyali telefonlar, shaxsiy kompyuterlar va boshqa platforma qurilmalaridan

foydalangan holda turistik ob’ektlar manzili, marshrutlar sxemasi haqidagi barcha turdagi ma’lumotlari olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Masalan, “Virgin” mehmonxonasi innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol qo‘llagani uchun mehmonxonaning buyurtmalarini 266 foizgacha oshirishga erishgan.

Uchinchidan, turizm infratuzilmasi boshqaruvini innovatsion, ilmiy-texnologik yangiliklar yaxshilamoqda. Bunda, birinchidan, innovatsiyalar, ilmiy-texnologik ishlanmalar turistik resurslarni saqlashva muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega. Istiqbolli turistik resurslarni (madaniy-tarixiy, rekreatsion, ekologik) aniqlash, tasniflash va sotib olish, mahsulotlar iste’molini boshqarishni raqamlashtirish jadal olib borilmoqda. Yangi texnologiyalarga asoslangan holda turizm haqidagi turli xil ma’lumotlarni saqlash, resurslarni saralash, boshqarish va hisobotlarni samarali tahlil qilishga yordam beradi. Misol uchun, Xitoy davlati turizmi oxirgi yillarda tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri bo‘lib, uning “Dunhuang Academy” nomli akademiyasi virtual sayohat, multimedia displeyi, raqamli video, uch o‘lchovli texnologiyalar orqali har bir tarixiy ob’ektlarning fotografik tasvirni olish va qayta ishlash, muzeylardagi eksponatlarning noyob raqamli fayllarini yaratish orqali turistlarning doimiy foydalanish imkoniyatlarini yaratdi.

Ikkinchidan, ilmiy va texnologik innovatsiyalar turizmda favqulodda yoki kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelganda uni boshqarishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash turistik marshrutlarda xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda boshqarishni osonlashtiradi va tezlikda bartaraf etishni ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mamatqulov, X. M., et al. "Xalqaro turizm." Darslik. Samarqand (2008).

2. Норчаев, А. Н. "Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари." Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферати. Тошкент (2021): 24-32.

3. Mamatkulov, X. M., Bektemirov, A. B., Tuxliev, I. S., & Norchaev, A. N. (2009). International tourism. T.: Publishing House" National Society of philosophers of Uzbekistan, 192.

4. Dehqonov Burxon Rustamovich. “Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o‘rni” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (ISSN: 2992-8982) 2023-yil, oktyabr. № 10-son.

5. https://uzbektourism.uz/research/statistics

## Theoretical and Practical Issues in Establishing a Green Tourist Zone: Opportunities and Strategic Development

**Maftuna Kobilova**,
*Independent Researcher at "Silk Road"*
*International University of Tourism and Cultural Heritage*

**Abstract.** The development of tourist zones is a key driver for determining the competitiveness and sustainability of a country's tourism activity. In this paper, the theoretical and practical issues in establishing and administering tourist zones are

examined, with an emphasis on opportunities and strategic development to ensure long-term success. The study is based on comparative analysis of international models and applies strategic management concepts to describe how infrastructure, governance, and innovation propel tourist zone performance. Conclusions emphasize that collaborative planning, stakeholder engagement, and digitalization are paramount to sustainable development. The study concludes with strategic propositions on enhancing competitiveness, resilience, and cultural authenticity in tourist zone management.

**Keywords:** tourist zone, strategic development, tourism planning, infrastructure, sustainability, management.

## Introduction

Tourist areas are geographically and administratively defined areas that aim to spur tourism through focused infrastructure, services, and policies. Their formation is the region's development trigger, creation of jobs, and cultural exchange [3]. Against the background of globalization and increasing tourist ambitions, strategic planning of tourist areas has become a critical part of national tourism policy [2]. But the process is often hindered by land use planning, environmental, and coordination with stakeholders' issues.

## Literature Review

Destinations, according to Butler's (1980) Tourism Area Life Cycle (TALC) model, evolve from discovery, via development, consolidation, stagnation, possible rejuvenation or decline [1]. Understanding this theoretical framework is crucial for the creation of long-term tourist area development plans. Practically, destinations like Spain (Costa del Sol), the United Arab Emirates (Dubai Marina), and Uzbekistan (Samarkand Tourist Zone) illustrate how strategic planning, investment, and innovation can transform areas into competitive global destinations. The aim of this paper is to critically analyze the theoretical and practical issues of tourist zone development and suggest strategic measures for sustainable and competitive development.

## Methods

This research employs a qualitative comparative analysis method, including secondary evidence from international case studies, tourism development plans, and academic literature. Data Collection: Sources are tourism master plans by the World Tourism Organization (UNWTO), national strategic plans, and research articles from 2010–2024. Analytical Framework: The analysis employs SWOT analysis and Porter's Diamond Model to ascertain opportunities and limitations in the development of tourist regions.

Comparative Cases: The essay examines successful tourist regions in Spain, Singapore, and Uzbekistan to illustrate how theoretical principles are implemented. This hybrid interpretive strategy enables the connection of theoretical models with experiences to infer applicable strategic lessons for developing nations.

**Result and discussion**

There are theoretical concerns since tourism is a phenomenon with many dimensions. Tourist development involves balancing economic, environmental, and socio-cultural goals [7]. Sustainable Tourism Development (STD) theory concentrates on the equilibrium between resource consumption and preservation. Furthermore, Destination Management Theory advocates coordinated governance involving public and private sector agendas [6].

There are however theoretical ambiguities on:

- The optimal size and depth of tourist areas.
- The involvement of local communities in decision-making.
- The application of digital and intelligent technologies in managing destinations.

In the Uzbekistan Samarkand Tourist Zone, for example, the government's holistic tourist policy under Presidential Decree No. PQ-455 (2022) has improved hospitality infrastructure and visitor facilities but still trails behind in sustainability initiatives and electronic visitor management.

Tourist zones offer tremendous opportunities for:

- Economic Growth: Local industries and employment are fostered through tourism clusters.
- Innovation: Intelligent solutions such as digital tourist tracking and AI marketing are practiced.
- Cultural Preservation: Preservation is strengthened through heritage-based tourism development, increasing identity and authenticity.
- Regional Integration: Cross-border Silk Road initiatives enhance connectivity and shared branding.

The movement towards smart and green tourist regions aligns with international trends in sustainability and climate responsibility [8].

Strategies engaged are:

- Integrated Master Planning: Coordinating infrastructure, land use, and environmental planning.
- Public-Private Partnerships (PPP): Attracting private capital to finance infrastructure and innovation.
- Community Engagement: Involving residents in planning for ensuring equal benefits.
- Digital Transformation: Developing digital platforms for promotion, reservation, and tourist data analysis.
- Sustainability Certification: Implementing eco-standards (e.g., Green Globe, GSTC).

Empirical evidence in Singapore's Sentosa Island verifies that long-term success derives from strategic planning based on diversification, environmental protection, and innovation.

The findings are that while theoretical models provide the foundation for understanding destination evolution, operational application comprises adaptive management. Tourist area sustainability depends on stakeholders' strategic coordination, sustainable resource utilization, and technological adaptation.

Strategic growth for developing countries, specifically those along the Silk Road like Uzbekistan and Kazakhstan, should focus on:

- Regional cooperation enhancement.
- Foreign direct investment attraction.
- Human capital development through tourism training.
- Digital storytelling and heritage branding.

Lastly, the development of tourist regions must move beyond the building of facilities to experiential and knowledge-based tourist economies that can adapt with post-pandemic tourist trends and international sustainability requirements.

**Conclusion**

Tourist zone development is opportunity and challenge. Theoretically, it adopts concepts in sustainable development, destination competitiveness, and strategic planning. Practically, it is faced with governance, financing, and community participation challenges. Strategic development, with the foundation of innovation, sustainability, and inclusive growth, offers a blueprint for future success. Through aligning global best practices with local conditions, countries can build strong and attractive tourist zones that provide for economic growth as well as cultural preservation.

**References**


1. Butler, R. W. (1980). The concept of a tourist area cycle of evolution: Implications for management of resources. *Canadian Geographer, 24*(1), 5–12.
2. Hall, C. M., & Page, S. J. (2014). *The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space* (4th ed.). Routledge.
3. Inskeep, E. (1991). *Tourism Planning: An Integrated and Sustainable Development Approach*. Van Nostrand Reinhold.
4. Ritchie, J. R. B., & Crouch, G. I. (2003). *The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective*. CABI Publishing.
5. Sharpley, R. (2000). Tourism and sustainable development: Exploring the theoretical divide. *Journal of Sustainable Tourism, 8*(1), 1–19.
6. UNWTO. (2023). *Tourism for Sustainable Development Goals – 2023 Report*. World Tourism Organization.
7. World Bank. (2022). *Tourism Competitiveness and Investment Report for Emerging Markets*. Washington, DC.
8. Uzbekistan Presidential Decree No. PQ-455 (2022). *On the measures for the integrated development of the Samarkand tourist zone*. Tashkent.

# O‘zbekistonda yashil turizmni zamonaviy prinsiplari asosida rivojlantirish va bunda xorij tajribasidan foydalanish orqali muzeylar va madaniy meros obyektlarining mavjud holatini yaxshilash

**Asadova Nigora Mehridin qizi,**
*“Ipak Yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tayanch doktaranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan muzeyshunoslikda madaniy meros obyektlarining holati va xorij tajribasi hamda mamlakatimiz prezidenti qarorlari asosida yangi islohat va tahlillar natijalarini kelib chiqqan yangiliklarni ahamiyati yoritilib, raqamli texnologiyalar, jumladan turli xil muzeyshunoslik tushunchalari, turlari, kelib chiqishi, va bugungi kunda mamlakatimizga kerak bo‘lgan muzeylarga tashrif buyurish imkoniyatlari orqali turistlar qiziqishini hamda turizm xizmatlarini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Muzey, madaniy meros, muzeyshunoslik,xorij tajribasi, ma’daniy meros obyektalari.

## Kirish

O‘zbekiston milliy madaniy merosi arxeologik yodgorliklar, tarixiy shahar markazlari, muzey kolleksiyalari va xalq ijodiyoti ob’ektlaridan iborat boy resursdir. So‘nggi yillarda mamlakatning tarixiy- madaniy ob’ektlarini saqlash va ularni jahon turizmiii infratuzilmasiga integratsiyalash siyosati kuchaymoqda [4]. Bu esa muzeylarning turizm, madaniy ta’lim, iqtisodiy rivojlanish va xalqaro brend sifatidagi rolini orttirdi. Shu bois, mazkur bobda muzeylar va madaniy merosning huquqiy-asoslari, statistik holati, infratuzilma va boshqaruvdagi yangilanishlar, hamda joriy muammolar va istiqbolli tavsiyalar tahlil qilinadi.

## Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish va muhofaza qilish bo‘yicha 2021–2022 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi qabul qilingan PF-5953 va unga o‘xshash hujjatlar bu dasturning maqsadi moddiy madaniy merosni ro‘yxatga olish, ilmiy tadqiqot va restavratsiya ishlarini kuchaytirishdir ya’ni “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son qaroriga muvofiq, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishni kuchaytirish maqsadida so‘nggi yillarda qonunchilik hujjatlari bilan, jumladan, quyidagilar belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin”[1].

## Materiallar va metodlar

Ushbu tadqiqot ishi mobaynida qiyosiy tahlil va tizimli qiyoslash, ilmiy abstrakt fikrlash, mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar**

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi madaniy meros obyektlari va muzeylariga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Bu jarayon mamlakatda turizm sohasining milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanishi bilan chambarchas bog‘liqdir.




**1-rasm. Muzeylarning amaliy rollari ta’lim, turizm, iqtisod sohasida**

O‘zbekistonda muzeylar va madaniy meros obyektlarining roli so‘nggi yillarda keskin oshdi yani huquqiy bazaning yangilanishi, Turizm va Madaniy Meros vazirligining tashkil etilishi, UNESCO bilan hamkorlik va modernizatsiya tashabbuslari bular mamlakat madaniy merosini saqlash va global maydonda targ‘ib etishda muhim omillardir [6]. Biroq, moliyalashtirish, professional kadrlar, restavratsiya metodologiyasi va urbanizatsiya bosimi kabi muammolar saqlanmoqda. Dissertatsiya uchun yuqoridagi statistik ma’lumotlar, hujjatlar va xalqaro maqolalardan foydalangan holda aniq misollar, kvant va sifat tahlillarini kiritish tavsiya etiladi.

Xususan, 2017-yildan boshlab turizm sohasining strategik rivojlanish konsepsiyasi, 2019-yilda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish” bo‘yicha huquqiy hujjatlar bu boradagi ijobiy siljishlarga sabab bo‘ldi[2]. Statistik ma’lumotlarni chuqur tahlil qilganimizda, tashriflar soni yillik kesimda barqaror o‘sishdan tashqari, keskin o‘zgarishlar, ayrim hududlarda pasayish va tiklanish jarayonlarini kuzatish mumkin. Ayniqsa, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi oqibatida keskin pasayish kuzatilgani ilmiy adabiyotlarda turizmning global inqirozi sifatida keng yoritilgan [5]. Shu bois, bu tahlil nafaqat statistik ko‘rsatkichlarni sanab o‘tish, balki ularning ortida turgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni ilmiy asosda tushuntirishni ham maqsad qiladi.

**Xulosa va takliflar**

O‘zbekistonda yashil turizm konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish — bu nafaqat madaniy meros obyektlarini saqlash, balki ularni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan barqaror turizm tizimining ajralmas qismiga aylantirishdir. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

1. Muzey va madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish hamda interaktiv turlarni joriy etish;
2. Xorijiy tajriba asosida muzey menejmenti va restavratsiya bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash;
3. Yashil turizm infratuzilmasini rivojlantirish va ekologik standartlarni qo‘llash;
4. Mahalliy hamjamiyatlarni turizm faoliyatiga jalb qilish hamda ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish;
5. Xalqaro grantlar va investitsiyalarni jalb etish orqali muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

Mazkur yondashuvlar O‘zbekistonning madaniy merosini saqlash, turizm xizmatlarini modernizatsiya qilish va xalqaro maydonda mamlakat imijini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PQ–4730-son qarori — “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-dekabrdagi PF–5953-son farmoni — “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 29-dekabr.
4. Jalolov. The American Journal of Economics and Business Management jurnalida chop etilgan (2022)// Barqaror turizm va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalarini muhokama qiladi.
5. UNWTO (2021). Tourism and COVID-19: Global Impact and Recovery Pathways. Madrid: United Nations World Tourism Organization.

6. UNESCO (2022). Museums, Heritage, and Sustainable Development: Global Report. Paris: UNESCO Publishing.

## YASHIL TURIZM ICHKI TURIZMNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

**Isomiddinov Inomjon Qurvonali o‘g‘li,**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston misolida yashil turizmning ichki turizm barqaror rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda yashil turizmning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy afzalliklari ko‘rib chiqilib, milliy turizm siyosatida ekologik yondashuvni kuchaytirish zarurligi asoslab beriladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yashil turizm infratuzilmasini rivojlantirish ichki turizm oqimini ko‘paytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy jamoalar daromadini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, ichki turizm, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, O‘zbekiston, turizm iqtisodiyoti.

### Kirish

Bugungi kunda turizm global iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10 foizdan oshgan (UNWTO, 2024). Shu bilan birga, ekologik barqarorlik masalalari turizm rivojining ajralmas qismiga aylanmoqda. Xususan, yashil turizm (green tourism) konsepsiyasi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, mahalliy iqtisodiyot va ijtimoiy manfaatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

O‘zbekiston sharoitida yashil turizmning ahamiyati ortib bormoqda, chunki mamlakat ichki turizm salohiyati — tabiiy bog‘lar, tog‘-qo‘riqxonalar, tarixiy-madaniy meros va ekologik hududlar bilan chambarchas bog‘liq. Ichki turizm oqimining 2024-yilda 12 million kishiga yetgani (O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, 2024) yashil turizmni strategik yo‘nalish sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

### Tahlil va muhokamalar

Yashil turizm — bu iqtisodiy foyda va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtiruvchi turizm turi bo‘lib, u ichki turizmni rivojlantirishning muhim omilidir. O‘zbekistonning tabiiy-geografik sharoiti, xususan, Zarafshon va Hisor tizmalari, Chatqol biosfera qo‘riqxonasi, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi, Qizilqum sahrosi va milliy bog‘lar yashil turizm uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2018–2024-yillar davomida 2,1 baravarga oshgan, ekologik yo‘nalishdagi ichki sayyohlar soni esa 2024-yilda 3,2 million nafarni tashkil etgan. Bu o‘sish mamlakat ichida ekologik madaniyatning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ekonometrik modellashtirish natijalariga ko‘ra, yashil turizm infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalarning 1 foizlik o‘sishi ichki turizm oqimini o‘rtacha 0,37 foizga oshirgan. Bu esa yashil infratuzilmaning iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yashil turizm loyihalari mahalliy iqtisodiyotga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda — xususan, tog‘li hududlarda mehmonxona, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Yashil turizmning ijtimoiy foydasi ham yuqori — u mahalliy aholining turizm faoliyatida ishtirokini kuchaytiradi, ekologik mas’uliyatni oshiradi hamda madaniy merosni asrashga hissa qo‘shadi. Shu bois, yashil turizm ichki turizmni rivojlantirishning barqaror mexanizmlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Yashil turizm O‘zbekiston ichki turizm tizimida iqtisodiy barqarorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlovchi muhim omil sifatida shakllanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni oshirish, ekologik standartlarni joriy etish va aholining ekologik savodxonligini rivojlantirish ichki turizmni yangi bosqichga olib chiqadi.

Takliflar:

1. Yashil turizm infratuzilmasini rivojlantirish. Ichki turizm obyektlarida ekologik standartlarga javob beradigan infratuzilma (energiya tejamkor mehmonxonalar, chiqindi qayta ishlash tizimi, ekologik transport vositalari)ni bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Bu yo‘nalishda davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosidagi investitsiya mexanizmlari kengaytirilishi lozim.

2. Hududiy “yashil turizm klasterlari”ni tashkil etish. Tabiiy va madaniy resurslarga boy viloyatlarda (masalan, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlari) ekologik turizm zonalarini shakllantirish, ularni yagona raqamli platforma orqali targ‘ib qilish maqsadga muvofiq.

3. Mahalliy jamoalar ishtirokini kuchaytirish. Mahalliy aholining yashil turizm loyihalarida faol ishtirokini ta’minlash uchun mikrokreditlar, subsidiyalar va grantlar tizimini joriy etish zarur. Ayniqsa, ayollar va yoshlar o‘rtasida ekoturizm tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ichki turizmning ijtimoiy bazasini mustahkamlaydi.

4. Yashil sertifikatlash tizimini joriy etish. Mehmonxonalar, restoranlar va transport xizmatlarini ekologik mezonlar asosida baholash va “Green Uzbekistan” nomli milliy sertifikat tizimini yo‘lga qo‘yish yashil turizmni rivojlantirishda muhim rag‘bat bo‘la oladi.

5. Ekologik ta’lim va targ‘ibot dasturlarini kengaytirish. Ichki turizm bilan bog‘liq o‘quv dasturlarida ekologik madaniyat va yashil turizm prinsiplari alohida yo‘nalish sifatida o‘qitilishi kerak. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali ekologik mas’uliyatli sayohatni targ‘ib qilish lozim.

6. Raqamli texnologiyalarni joriy etish. “Yashil turizm xaritasi” (eco-map) raqamli platformasini yaratish orqali sayyohlar ekologik toza yo‘nalishlarni tanlash, onlayn bron qilish va chiqindi izini (carbon footprint) nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin.

7. Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash. Ekoturizm va yashil turizmni tartibga soluvchi alohida qonun yoki hukumat qarorini qabul qilish zarur. Bu turizm

sohasida ekologik me’yorlarning majburiy ijrosini ta’minlaydi va ekologik loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga huquqiy asos yaratadi.

8. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. BMTning Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO), UNEP va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda “Green Tourism Uzbekistan” dasturini ishlab chiqish mamlakatning yashil turizmda ilg‘or tajribalarni joriy etishiga yordam beradi.

Shunday qilib, yashil turizm O‘zbekiston ichki turizmini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega omil bo‘lib, u barqaror iqtisodiy o‘sishni, ekologik muvozanatni va ijtimoiy farovonlikni birlashtiruvchi kompleks tizimdir. Agar yashil turizm siyosati milliy turizm dasturlariga chuqur integratsiya qilinsa, O‘zbekiston yaqin yillarda Markaziy Osiyoda ekologik barqaror turizm markaziga aylanishi mumkin.

**Xulosa**

O‘zbekiston Respublikasida ichki turizmning jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda. Bu jarayonda yashil turizm konsepsiyasi — ya’ni ekologik barqaror, ijtimoiy mas’uliyatli va iqtisodiy foydali turizm modeli — ichki turizmni rivojlantirishning barqaror omili sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil turizm nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi, balki mahalliy jamoalar hayot darajasini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ekologik madaniyatni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O‘zbekistonning boy tabiiy salohiyati — milliy bog‘lar, tog‘ tizmalari, daryo vodiysi va cho‘l landshaftlari — yashil turizm uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, ekologik me’yorlarni turizm siyosatiga chuqur integratsiya qilish, shuningdek, mahalliy aholining turizm faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish zarur.

Yashil turizm iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yashil turizmga yo‘naltirilgan investitsiyalar ichki turizm oqimining o‘sishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, yashil turizm infratuzilmasiga yo‘naltirilgan har bir 1 foizlik investitsiya o‘rtacha 0,37 foizlik turizm daromadining o‘sishiga sabab bo‘lgan. Bu esa yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan turizm siyosati mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’atlarini ham qo‘llab-quvvatlashini isbotlaydi.

Yashil turizmning ijtimoiy ahamiyati ham yuksak — u aholining ekologik madaniyatini oshiradi, ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi va barqaror turmush tarzini shakllantiradi. Shu jihatdan, yashil turizm O‘zbekistonning milliy rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin tutishi, ichki turizm siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida mustahkamlanishi lozim.

Bundan tashqari, yashil turizm konsepsiyasi mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash, xorijiy investorlarni jalb etish va ekologik diplomatiya yo‘nalishida ham katta imkoniyatlar yaratadi. Zero, ekologik barqaror turizm modeli — bu faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotning ham ifodasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO). (2024). *World Tourism Barometer: Green and sustainable tourism trends*. Madrid: UNWTO Publications.

1. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. (2024). *Ichki turizm va ekologik yo‘nalishdagi sayyohlik faoliyati statistik to‘plami*. Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti.

2. United Nations Environment Programme (UNEP). (2023). *Green economy and sustainable tourism: Global report*. Nairobi: UNEP.

3. World Bank. (2023). *Sustainable tourism for inclusive growth*. Washington, DC: World Bank Group.

4. Karimova, D., & Nasirov, B. (2022). Green tourism and regional development in Central Asia: Evidence from Uzbekistan. *Central Asian Economic Review, 5*(4), 45–62.

# РАСЧЕТ ВЫБРОСОВ УГЛЕРОДА НА ЭТАПАХ ПУТЕШЕСТВИЯ ДЛЯ РАЗРАБОТКИ СИСТЕМЫ «CARBON PASS» В УЗБЕКИСТАНЕ

**Исакулов Шухрат Наркулович,**
*Начальник Управления*
*Комитет туризма Республики Узбекистан*
*доктор экономических наук*
*Shukhrat.is@yandex.ru*

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы и перспективы внедрения внедрение системы “Carbon Pass” в Узбекистане для иностранных туристов. дан анализ возможностей и механизмов внедрения, представлены расчеты карбонового следа и компенсационных выплат.

**Ключевые слова:** “Carbon Pass”, углеродный след, расчеты следа, механизмы компенсаций нанесённого вреда в сфере туризма.

## Введение

Создание и внедрение системы “Carbon Pass” в Узбекистане для иностранных туристов может стать важным и поэтапным шагом в направлении устойчивого туризма и борьбы с изменением климата. В странах СНГ опыта внедрения такой полноценной системы не имеется. В рамках европейской системы торговли выбросами (EU ETS) цена на углерод постоянно меняется, но в начале 2024 года она составляла около 60 евро за тонну. В зависимости от секторов экономики страны берут обязательство на частичную компенсацию и оплаты определённой доли от объема выбросов. К примеру, Китай в энергетическом секторе компенсирует углеродный след в размере 6 долл за тонну.

## Анализ литературы по теме

На международной арене внедрение системы “Carbon Pass” еще на стадии становления, при этом прогнозируется что только к 2040 году возможно будут внедрены углеродные паспорта. В некоторых европейских странах существуют некоторые законы по внедрению некоторых элементов компенсаций за «углеродный след» в процессе путешествий туристов. В основном это касается в сфере авиации, связанных с углекислым газом выбрасываемого коммерческими самолетами. По оценкам экспертов для значительного сокращения выбросов стоимость билетов должна будет повышаться на 1,4% каждый год, что отпугнет людей от полетов. Отмечается что внедрение системы “Carbon Pass” негативно отразится на потоках туристов в связи с тем, что эта стоимость ложится бременем на самих туристов, накладываемых на стоимость расходов по перелету, железнодорожному и автомобильному обслуживанию, проживанию, питанию

и др. Так как на каждом этапе путешествий туристов образуется углеродный след и соответственно компенсация за счет туристов.

**Методы исследования**

Тематика проблемы, исследуемая в данной статье недостаточно разработана в мировой практике, отсутствуют единые стандарты и механизмов расчета углеродного следа. В связи с этим автор провёл анализ позитивного опыта и разработал в условиях Узбекистан механизмы расчета выбросов углеродного следа.

В Узбекистане имеется недостаток транспортной инфраструктуры, нехватки авиабортов и ЖД поездов, а главное системы учета и отслеживания «углеродного следа» формируемых со стороны туристов в период путешествий, полноценное внедрение системы “Carbon Pass” с учётом всех этапов туристической поездки, видов транспорта, проживания, питания и посещения туристических достопримечательностей в течении 2025- 2027 гг. не целесообразно.

Для внедрения данной системы в условиях Узбекистана требуется создание цифровой системы «Carbon Pass» для отслеживания и компенсации углеродного следа со стороны иностранных туристов, путешествующих по Узбекистану в зависимости от дней пребывания, расстояния, видов транспорта, средств размещения туристических достопримечательностей и др.

**Анализ и результаты**

По предварительным оценкам внедрение системы "Карбон Пасс" приведёт к значительному увеличению стоимости туристического пакета/туристической поездки в Узбекистан. При принятии обязательства Узбекистана по покрытию компенсации стоимости «углеродного следа» за 1 тонн эквивалента углекислого газа CO2 в размере 5 долл США, составлены предварительные расчеты для туристической индустрии Узбекистана исходя из географии прибытий, количества дней пребывания, и условий проживания и путешествий по стране. Ориентировочные расчеты потенциально формируемого туристами «углеродного следа» на этапах путешествий и суммы компенсаций за каждый этап использования объектов индустрии туризма представлены в таблице 1.

К примеру:

- «Углеродный след» за один авиа-полёт по направлению Стамбул-Ташкент составляет около - 0.79 тонн CO2 или в эквиваленте подлежит компенсации в размере 7.56 евро, (в два конца 15 евро). В период путешествия в Узбекистане и осуществления авиа-полётов по маршруту Ташкент-Самарканд- Бухара - Ургенч - Ташкент (эконом классом) компенсационные выплаты составляют 19.7 долл США;

- при использовании ЖД транспорта на 1300 км. выплаты составят около 0,23 долл США;

- использование общественного автомобильного транспорта (автобусы, микроавтобусы, легковые автомобили) в период путешествий в Узбекистане

на 110 км и компенсационные выплаты могут составить около 0,3 долл США;

- компенсационные выплаты «углеродного следа» за сутки проживания могут составить около 0,6-0,9 долл, при условии среднего срока путешествий в Узбекистане в 7 дней;

При использовании 100 квт час электроэнергии одним иностранным туристом за одну поездку выбросы оставят 0,00006 тонн, что подлежит компенсации на сумму 3 цента, или 4 сум за одну поездку.

- использование объектов общественного питания и формируемых за счет этого карбоновых выбросов, компенсационные платежи могут составить до 0,35 долл США;

- за использование объектов развлечения и туристических достопримечательностей внутри страны около 0,35 долл США;

В целом одна туристическая поездка иностранных туристов за период путешествий формирует «углеродный след» на 5,12 тонн на 1 туриста может вырасти до 28,86 долл (365 тыс сум) за одно посещение страны или при расчёте на 7 дней путешествий в размере 4,12 долл/сутки или 50 тыс сум/сутки.

В масштабах страны из 10 млн пребывающих иностранных туристов более 80% составляют граждане соседних стран, и применение таких ставок может существенно сократить потоки въездного туризма в стране.

В условиях относительно высокой стоимости туристических пакетов в Узбекистане, дополнительные расходы по платежам “Carbon pass” может негативно отразиться на междуанроной туристической конкурентоспособности Узбекистана и потенциально снизит поток туристов в страну, в том числе из стран СНГ и Центральной Азии.

В целом, в текущих условиях на период до 1 января 2027 года представляется целесообразным внедрить упрощённый механизм и систему “Carbon pass” в котором каждый въезжающий иностранный турист мог бы оплачивать условную стоимость от 2 долл и выше без ограничений как платеж за углеродный след. В масштабах страны позволит осуществить сбор средств в сумме более 20 млн долл США в год, которые можно будет направить на посадку деревьев для снижения углеродного следа.

При стоимости в 2 долл на посадку одного дерева, это позволит ежегодно осуществлять посадку более 10 млн саженцев (одно дерево в среднем поглощает от 10 до 40 кг углекислого газа в год - в среднем 25 кг), что снизит углеродную нагрузку от въездного туризма на объем 2,5 млн тонн в год, а за период средней продолжительности жизни деревьев в 40 лет можно компенсировать углеродный след на 100 млн тонн углекислого газа. В течении ближайших 10 лет реализации программы “Carbon Pass” и ежегодной посадки высокоэффективных деревьев по поглащению углекислога газа позволит компенсировать выбросы углекислого газа на 1 млрд. тонн.

**Таблица 1.**

**Ориентировочные расчеты потенциального углеродного следа и суммы компенсаций одного иностранного туриста в период стандартного путешествия в Узбекистане в течении 7 дней**

| № | Наименование источников | колл. Тонн CO2 – экв. /км | км расстояние | Общий колл. тонн CO2 – экв. /км | общая сумма в долл | общая сумма в сум |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | От поездок на поезде | 0,000035463 | 1300 | 0,0461019 | 0,23 | 2 916 |
| 2 | Поездки на автомобиле – бензин | 0,000229474 | 200 | 0,0458948 | 0,23 | 2 903 |
| 3 | Поездки на автомобиле – дизель | 0,000237762 | 300 | 0,0713286 | 0,36 | 4 512 |
| 4 | Поездки на автобусе | 0,000118363 | 50 | 0,00591815 | 0,03 | 374 |
| 5 | Поездка на такси | 0,000148616 | 60 | 0,00891696 | 0,04 | 564 |
| 6 | Средние показатели выбросов за один авиа- полёт из стран Северной Америки и обратно составляют | 1,798 эконом | | 0 | 0,00 | 0 |
| | | 3,515 бизнес | | 0 | 0,00 | 0 |
| 7 | Средние показатели выбросов на авиа- полёты из стран Европы и обратно составляют | 0,76 эконом | | 0 | 0,00 | 0 |
| | | 1,098 бизнес | | 0 | 0,00 | 0 |
| 8 | Средние показатели выбросов на авиа- полёты из стран Юго-Восточной Азии и обратно составляют | 0,874 эконом | | 0 | 0,00 | 0 |
| | | 1,56 бизнес | | 0 | 0,00 | 0 |
| 9 | Средние показатели выбросов на авиа- полёты из стран Центральной Азии и обратно составляют | 0,369 эконом | | 0 | 0,00 | 0 |
| | | 0,436 бизнес | | 0 | 0,00 | 0 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 10 | Авиа-полет за одну поездку Париж- Самарканд- Париж (эконом классом) | 0,6538 эконом | 1 | 0,6538 | 3,27 | 41 353 |
| 11 | Авиа полет за одну поездку Париж- Самарканд- Париж (бизнес классом) | 0,9699 | | 0 | 0,00 | 0 |
| 12 | Авиа полет за одну поездку Ташкент- Самарканд- Бухара - Ургенч - Ташкент (эконом классом) | 1,9699 | 2 | 3,9398 | 23,64 | 299 031 |
| 13 | Использование 1 квт час электроэнергии *(Узбекистан - 3,4 тонн на душу человека в год.)* | 0,000447927 | 100 | 0,0447927 | 0,22 | 2 833 |
| 14 | Проживание в отеле 2 звезды за одни сутки | 0,0114 | | | | |
| 15 | Проживание в отеле 3 звезды за одни сутки | 0,0149 | | | | |
| 16 | Проживание в отеле 4 звезды за одни сутки | 0,0238 | 7 | 0,1666 | 0,83 | 10 537 |
| 17 | Питание | 0,01 | 7 | 0,07 | 0,35 | 4 428 |
| 18 | Туристические достопримечательности | 0,01 | 7 | 0,07 | 0,35 | 4 428 |
| | **Средняя сумма за одну поездку** | | | **5,12 тн** | **28,86 долл** | **365 023 сум** |

*Примечание: расчётные данные являются ориентированными и подлежит уточнению и корректировке включающие в себя всевозможных маршруты движения, ЖД и автомобильного транспорта, средств размещения туристических достопримечательностей и др. с привлечением международных экспертов.*

**Выводы и предложения**

Учитывая недостаточную готовность в настоящее время объектов инфраструктуры туризма (транспорта, гостиниц, ресторанов, туристических достопримечательностей и др.), а главное системы учета и взимания платежей с туристов к внедрению системы “Carbon Pass” предлагается на начальном этапе на период до 1 января 2027 года, внедрить и осуществлять сбор на добровольной основе с иностранных туристов на приграничных контрольно-пропускных пунктах или в период путешествия туриста на территории Республики Узбекистан, в размере 2 долл или 25 тыс сум. за одну поездку, в том числе через платежные терминалы и мобильные приложения.

Для учета и внедрения системы «Carbon Pass» необходима создание цифровой платформы, включающие в себя разработку специализированного мобильного приложения и/или веб-сайта «Carbon Pass» в Узбекистане. Создание системы регистрации иностранных туристов (возможно, интеграция E-Mexmon, пограничного контроля и др.). требуется разработка механизма отслеживания маршрутов и видов используемого транспорта, гостиниц и видов активности.

Наиболее важным и первым этапом работы является разработка калькулятора углеродного следа в условиях Узбекистана:

- разработка системы автоматического расчёта углеродного следа в условиях Узбекистана (авиа, ЖД, автотранспорт, гостиницы, точки питания, объекты развлечений и др.) туристов (однако учитывая разные маршруты (более 10 млн иностранных туристов) и видов активностей, а также длительности пребывания индивидуальных туристов, это представляется достаточно сложным;

- рекомендуется использование международных стандартов расчетов (например, DEFRA, ICAO);

- необходима интеграция с GPS/транспортными API для оценки маршрутов следования иностранных туристов в Узбекистане;

- требуется учёт различных видов транспорта, видов средств размещения (отели, гостиницы, хостелы, гостевые дома, учитывая, что 80% целей поездки посещение родственников и проживание в их домах вызывает трудности), питания и активностей в период путешествия иностранных туристов.

Разработка механизмов компенсации «углеродного следа»

- разработка механизмов и систем онлайн платежей через мобильные устройства, а также различных вариантов компенсаций (оплата онлайн требует интеграции различных платежных систем, в том числе международных банковских карт туристов). Это создает сложности в вопросах сохранения персональных данных и вопросов безопасности;

- сбор и аккумуляция средств в Фонд экологии, охраны окружающей среды и обращения с отходами за счет сбора средств от иностранных туристов путешествующих по Узбекистану;

- рассмотреть возможность в интеграции системы «Carbon Pass» по взиманию с электронной системой "EcoFund» в которой частично действует система для граждан Узбекистана;

- для иностранных туристов необходимо предоставить возможность выбрать конкретный проект, в которых бы желал плательщик направить суммы компенсационных платежей за созданный ими «углеродный след», такие как посадка деревьев, возобновляемая энергетика, экологическое образование, восстановление экосистем и др.

## Экологические практики и поведение потребителей в гостиничном секторе Узбекистана

**Сафаева Сайёра Рихсибаевна**
*профессор ТГЭУ, кафедра «Туризм и гостиничный бизнес»*

**Аннотация.** Современные тенденции в сфере туризма подчеркивают важность экологической устойчивости гостиничного бизнеса. В Узбекистане, где туризм становится одной из ключевых отраслей национальной экономики, растет внимание к экологически ответственным практикам: энергосбережению, сокращению отходов, использованию органических продуктов и возобновляемых источников энергии. Проведенный анализ показывает, что внедрение «зеленых инициатив» в отелях Ташкента, Самарканда, Бухары и Каракалпакстана повышает конкурентоспособность национального туристского продукта, способствует сохранению природных ресурсов и формирует положительный имидж страны на международной арене. Вместе с тем сохраняются вызовы: высокая стоимость экологических технологий, недостаточная осведомленность гостей и отсутствие национальной системы сертификации «зеленых гостиниц». Для их преодоления необходима интеграция экологических стандартов в государственные стратегии развития туризма, подготовка персонала и продвижение имиджа Узбекистана как устойчивого туристского направления.

**Ключевые слова:** экологическая устойчивость, зеленые отели, гостиничный бизнес Узбекистана, туризм, энергосбережение, экотуризм, устойчивое развитие

### Введение

В условиях глобальных экологических вызовов гостиничный сектор сталкивается с необходимостью внедрения устойчивых практик. Согласно отчетам Всемирной туристской организации (UNWTO, 2022), более 70% путешественников учитывают экологический аспект при выборе гостиницы, что превращает устойчивые практики в элемент конкурентоспособности.

Для Узбекистана этот тренд особенно актуален. Туризм входит в число стратегических отраслей экономики: в 2023 году страну посетили более 6 миллионов иностранных туристов (State Committee for Tourism, 2023). Туристические центры — Ташкент, Самарканд, Бухара и Хива — привлекают всё больше международных гостей, и вместе с этим возрастает значение

экологически ответственного сервиса. Важным шагом стала национальная инициатива «Yashil Makon», направленная на расширение зеленых зон и сохранение природных ресурсов.

Гостиницы, применяющие экологически устойчивые технологии, способны не только сократить расходы, но и увеличить доверие клиентов, что подтверждают международные исследования (Bader, 2005; Bohdanowicz, 2006). Таким образом, формирование «зеленого гостиничного сектора» в Узбекистане является необходимым условием для успешного позиционирования страны на мировом туристском рынке.

**Методы**

Для анализа экологической устойчивости гостиничного бизнеса в Узбекистане используется описательный кросс-секционный подход, включающий:

1. Анкетирование гостей и сотрудников отелей в ключевых туристских регионах (Ташкент, Самарканд, Бухара, Каракалпакстан).

2. Выборку гостиниц разных категорий — от международных сетевых брендов (Hyatt Regency, Hilton) до семейных бутик-отелей в исторических городах.

3. Инструментарий исследования основан на шкале Лайкерта (от 1 до 5), оценивающей восприятие таких зеленых практик, как:

- энергосбережение (LED-освещение, системы управления энергопотреблением),
- сокращение отходов (раздельный сбор, переработка),
- использование органических и локальных продуктов,
- применение возобновляемых источников энергии (солнечные панели, геотермия).

Также проводится анализ вторичных данных: статистических отчетов Государственного комитета по туризму Узбекистана, нормативных документов, публикаций международных организаций (UNWTO, WTTC).

**Результаты**

Результаты исследования показывают, что большинство гостей в целом положительно воспринимают внедрение экологических практик. Более 65% респондентов заявили, что готовы переплатить 5–10% за проживание в отеле, который активно внедряет «зеленые инициативы».

Региональные особенности:

- Ташкент. Здесь акцент делается на внедрение энергосберегающих технологий, включая «умные» системы кондиционирования и отопления. Некоторые сетевые отели начали использовать солнечные панели и вод сберегающие устройства.
- Самарканд и Бухара. В этих городах практики зеленого туризма сочетаются с сохранением культурного наследия. Применение биоразлагаемых упаковок и локальных органических продуктов питания в гостиницах повышает интерес иностранных туристов, стремящихся к

аутентичному опыту.

• Каракалпакстан (Приаралье). Здесь экологические инициативы напрямую связаны с природоохранными проектами. Отели и гостевые дома сотрудничают с местными НПО, продвигающими программы по восстановлению экосистемы Аральского моря.

Основные барьеры:

• высокая стоимость внедрения экологических технологий,

• низкая информированность гостей о значении устойчивого сервиса,

• отсутствие национальной системы сертификации «зеленых гостиниц», аналогичной международным программам (Green Key, LEED).

**Обсуждение**

Результаты подтверждают, что зеленые инициативы становятся ключевым фактором повышения привлекательности Узбекистана как международного туристского направления. Однако на пути их реализации существует ряд барьеров. Внедрение экологических технологий требует крупных инвестиций. Для малых гостиниц это непосильная нагрузка. Необходимы государственные субсидии и налоговые льготы для поддержки бизнеса (Aliyeva, 2023).

Туристы и персонал гостиниц часто имеют низкий уровень экологической культуры. Информационные кампании и обучение сотрудников могут повысить эффективность внедряемых инициатив. Отсутствие единой системы сертификации «зеленых гостиниц» снижает прозрачность и доверие к инициативам. Введение национального стандарта в соответствии с международными практиками позволит повысить конкурентоспособность страны. Таким образом, для устойчивого развития гостиничного бизнеса в Узбекистане необходимо сочетание частных инициатив и государственной политики.

**Выводы**

Внедрение «зеленых практик» в гостиничном секторе Узбекистана играет ключевую роль не только в снижении негативного воздействия на окружающую среду, но и в формировании долгосрочных конкурентных преимуществ на мировом туристском рынке. Экологически ориентированные инициативы позволяют гостиницам оптимизировать расход ресурсов, внедрять современные энергосберегающие технологии, развивать систему управления отходами и тем самым способствовать охране природных экосистем страны.

Устойчивый гостиничный бизнес выполняет сразу несколько стратегических функций. Во-первых, он укрепляет международный имидж Узбекистана как страны, которая не только сохраняет свое богатое историко-культурное наследие, но и демонстрирует приверженность принципам устойчивого развития. Это особенно важно в условиях растущего внимания со стороны глобального туристского сообщества к экологическим стандартам и сертификациям.

Во-вторых, «зеленые отели» напрямую поддерживают государственные инициативы по охране природы и развитию туризма, включая национальную программу «Yashil Makon». Их деятельность служит примером для других отраслей экономики и создает мультипликативный эффект, вовлекая в процесс экологизации местные предприятия, сельские хозяйства и производителей органических продуктов.

В-третьих, экологически ответственный сервис отвечает запросам новой категории туристов — так называемых «экологически сознательных путешественников». Эти туристы ориентируются не только на качество обслуживания, но и на устойчивость гостиницы, что напрямую влияет на их выбор места проживания. Таким образом, повышение уровня экологической ответственности становится важным фактором конкурентоспособности гостиничного бизнеса на международном рынке.

Наконец, внедрение «зеленых практик» стимулирует развитие экотуризма и вовлекает в туристскую индустрию локальные сообщества. Сотрудничество с местными производителями, развитие органического земледелия, продвижение традиционного ремесла и экологических туров усиливает социально-экономическое значение гостиничного бизнеса и способствует росту благосостояния регионов.

Развитие «зеленых гостиниц» должно стать неотъемлемой частью национальной стратегии устойчивого туризма Узбекистана. Системное внедрение экологических стандартов, создание национальной системы сертификации «зеленых отелей», предоставление налоговых льгот и программ государственной поддержки позволит ускорить этот процесс. В долгосрочной перспективе это обеспечит не только рост туристического потока и повышение уровня сервиса, но и формирование положительного имиджа Узбекистана как ответственного участника глобального туристского рынка, способного сочетать богатое культурное наследие с современными экологическими и инновационными решениями.

**Список литературы**


1. Bader, E. E. (2005). Sustainable hotel business practices. *Journal of Retail & Leisure Property, 5*(1), 70–77. https://doi.org/10.1057/palgrave.rlp.5090008
2. Bohdanowicz, P. (2006). Environmental awareness and initiatives in the Swedish and Polish hotel industries—survey results. *International Journal of Hospitality Management, 25*(4), 662–682. https://doi.org/10.1016/j.ijhm.2005.06.006
3. State Committee for Tourism Development of Uzbekistan. (2023). *Tourism statistics of Uzbekistan 2023*. Tashkent: Goskomturizm.
4. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2022). *Tourism in the green economy: Policy guidelines for sustainable practices*. Madrid: UNWTO.
5. World Travel & Tourism Council (WTTC). (2021). *Sustainability in travel and tourism: A global report*. London: WTTC.

## Ekologik mehmonxonalarda qo‘llaniladigan innovatsiyalar samaradorligi

**Abidova Dilfuza Igamberdievna**
*TDIU “Turizm va mehmonhona biznesi” kafedrasi professori, i.f.n.*

**Annotatsiya.** Dunyoda iqtisodiy faoliyatga antiecologik, destruktiv yondashuvlarni innovatsion texnologiyalar va ecologik innovatsiyalar bilan almashtirish tendensiyasi mavjud. Ecologiyada innovatsiyalar bu - atrof-muhitni salbiy ecologik omillar ta’siridan himoya qilishga qaratilgan loyihalardan iboratdir.Yangi ming yillik boshlanishi bilan insoniyat yangi tahdidlarga duch keldi. Bunga iqlim o‘zgarishi, havoning ifloslanishi, tuproqning degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kakmayishi va boshqalar kiradi. Bunday sharoitda odamlar o‘zlarining ecologik xavfsizligi to‘g‘risida tobora ko‘proq o‘ylashni boshladilar.

**Kalit so‘zlar:** yashil texnologiyalar, mehmondo‘stlik sohasi, atrof-muhitni himoya qilish, ijtimoiy javobgarlik, ecologik toza, qayta ishlash tizimlari, barqaror turizm, atrof-muhitni boshqarish

### Kirish

XXI asrda mamlakatimizda turizm va mehmondo‘stlik sohasida “yashil texnologiyalar”ni keng qo‘llash dolzarb vazifaga aylandi. “Yashil” qurilishning bosh maqsadi energiya va resurslar sarfini kamaytirishdan iborat. Shu bilan birga, mehmonxonalarning barcha jarayonlarida – muhandislik izlanishlari, loyiha ishlab chiqish, qurilish, ekspluatatsiya, katta ta’mir, qayta qurish va hatto demontaj qilishda mehmonlar uchun qulay muhit ta’minlash muhim hisoblanadi. Oxirgi vaqtlarda “yashil” texnologiyalarni qo‘llash orqali samaradorlikni oshirishga yo‘naltirilgan bir nechta loyihalar boshlandi.

Xalqaro Mehmonxonalar Atrof-Muhit Tashabbusi (IHEI) sohada ecologik va ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlash uchun dunyoning yetakchi mehmonxona kompaniyalarini birlashtiradi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi ecologik va ijtimoiy javobgarlikning biznes uchun ahamiyatini amalda ko‘rsatishdir. Bu maqsadda IHEI mehmonxonalarga ecologik rivojlanishga oid bir qator amaliy mahsulotlar va dasturlarni taklif qiladi hamda qo‘shma ishchi guruhlar doirasida yuzaga keladigan muammolarni hal etadi. Energy Star for Hospitality (http://www.energystar.gov) notijorat tashkiloti AQShda atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi sifatida faoliyat yuritib, korxonalar va shaxslarga innovatsion texnologiyalar orqali xarajatlarni tejash va iqlimni asrashda yordam beradi. Yevropa Ittifoqining Ecolabel tizimi dunyoning 199 davlati va 25 turli sanoat sohasida mavjud bo‘lgan 463 xil ecologik markirovka turlariga oid ma’lumotlarni jamlagan o‘ziga xos va keng ko‘lamli axborot platformasi hisoblanadi. Ushbu tizim atrof-muhitga do‘stona mahsulot va xizmatlarni aniqlashga yordam beradi, iste’molchilarga ecologik jihatdan mas’uliyatli tanlov qilish imkonini beradi hamda bizneslar uchun barqaror rivojlanishni rag‘batlantiradi. [55]Platforma nafaqat ma’lumotlarni taqdim etadi, balki global miqyosda ecologik standartlarni

[55] http://www.ecolabelindex.com/ecolabels/

birlashtirish va ularni qo‘llashni osonlashtirishga xizmat qiladi. Green Globe 21 (http://greenglobe.com) esa xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi tashkilot bo‘lib, dunyoning 83 mamlakatida, jumladan Rossiyada, ecologik sertifikatlash, ta’lim, maslahat xizmatlari va marketing yordamini taklif etadi. Ushbu kompaniya atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror turizmni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshiradi. U mehmonxonalar, turistik ob’ektlar va boshqa bizneslarni ecologik jihatdan mas’uliyatli faoliyat yuritishga undaydi, ularga xalqaro standartlarga mos keluvchi sertifikatlar olishda ko‘maklashadi va ecologik ongli mijozlarni jalb qilish uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

**Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili**

Ekologik innovatsiyalarning maqsadi ecotizimga antropogen ta’sirini kamaytirishdir. Bugungi kunga kelib ecologik muammoni hal qilishning ikkita asosiy yondashuvi shakllantirildi. Birinchi yondashuv ecologik yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish orqali ecologik muammolarni hal qilish mumkinligiga asoslanadi Y. Yakovets bu fikrni quyidagicha asoslab berdi: "Insoniyat uning mavjudligi va rivojlanishining tabiiy shart-sharoitlari juda oz darajada o‘zgarishi mumkinligini hisobga olib, demografik dinamikaning tendensiyalari sekin o‘zgarib boradi, bu inson aql-idrokiga, irodasiga va mehnatiga bo‘ysunadigan asosiy resursdir. Bu texnologik yutuq, ishlab chiqarishning ekologiyalashtirilgan postindustrial texnologik uslubiga o‘tish. Innovatsiyalarni tasniflash muammosi bilan juda ko‘p olimlar shug‘ullangan, ularning eng mashhurlari: Y.V. Yakovets, Pavit va Uoker, A.I. Prigojin, G. Mensh, A. Klaynknxt, K. Friman va boshqalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalar eng umumiy ko‘rinishida iqtisodiy xususiyatlariga, qo‘llanilish doirasiga, muddatlariga, samaradorligiga, kelib chiqish manbalariga, yangilik turlariga va boshqalarga qarab tasniflanishi mumkin.[56]

**Ilmiy tadqiqot metodologiyasi**

Yashil kalit mukofoti korxonaning yetakchi ecologik standartlarga muvofiqligini tasdiqlaydi. Hotel energysolutions (http://www.hes-unwto.org) BMT va Yevropa Ittifoqining turizm va energetika bo'yicha yetakchi agentliklari jamoasi bilan UNWTO tomonidan boshlangan hamkorlik loyihasidir. “Ushbu loyiha doirasida Yevropa Ittifoqidagi mehmondo'stlik va turizm sohasidagi kichik va o'rta korxonalarga binolarning energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish bo'yicha maslahat, texnik yordam va treninglar taqdim etiladi. Hozirgi vaqtda ushbu loyihada Yevropa Ittifoqining 10 ta turli mamlakatlaridan 110 ta mehmonxona ishtirok etmoqda. Loyiha doirasida, xususan, binolarning energiya samaradorligi auditi, qayta tiklanadigan energiya manbalari uchun texnik-iqtisodiy asoslar bajarildi, yuzlab sayyohlik kompaniyalari menejerlari o‘qitildi”- deb izoh beradi ecolabelindex.com.[57]

[56] ~~Ecologik ta’lim va tarbiya” moduli~~ bo‘yicha o‘guv –uslubiy majmua. Toshkent-2024.
[57] http://www.green-key.org)

**Tahlil va natijalar**

Energiyani tejovchi “yashil” texnologiyalarning eng muhim va diqqatga sazovor namunalaridan biri Singapurdagi JW Marriott mehmonxonasidir. Mehmonxonaga ulashgan holda joylashgan, taxminan 3 gektar maydonni egallagan maxsus soyabon tuzilmasi okean to‘lqinlarining egri chiziqlarini taqlid qiladi. Ushbu alyuminiy konstruktsiyaning egilish burchaklari shunday sinchkovlik bilan loyihalashtirilganki, u tabiiy havo oqimi yordamida hududni 1-2 daraja sovutadi, bu esa konditsioner tizimlariga ehtiyojni yo‘qotadi. “Bundan tashqari, bu tuzilma yomg‘ir suvini yig‘ish uchun maxsus ishlab chiqilgan bo‘lib, binoning tashqi ko‘rinishini yoritishga xizmat qiluvchi quyosh panellari bilan jihozlangan. Mehmonxonada qo‘llanilgan spektral shisha infraqizil nurlarni filtrlash orqali issiqlikni kamaytiradi, lekin ayni paytda tabiiy yorug‘likning kirib kelishiga imkon beradi. Natijada, sovutish xarajatlari sezilarli darajada qisqaradi, ichki makonlar esa yanada salqin va qulay bo‘lib qoladi” deb aytib otiladi maqolalarda. [58]

“Yashil” texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llagan boshqa taniqli mehmonxona ob’ektlarini ham ta’kidlash lozim. Masalan, Singapurdagi Marina Bay Sands mehmonxonasi yorug‘lik, isitish va suv ta’minotini aqlli boshqarish tizimi bilan jihozlangan bo‘lib, unda an’anaviy liftlarga nisbatan 40% kam energiya sarflaydigan regenerativ dvigatelli liftlar joriy etilgan. Yana bir muhim misol – Park Royal bog‘ mehmonxonasi, bu yerda yomg‘ir suvi datchiklari, quyosh panellari va tabiiy obodonlashtirish kabi muhandislik yechimlari qo‘llaniladi. Ecologik tizimlarni rivojlantirish prinsiplari nafaqat Rossiyada, balki xorijiy mamlakatlarda ham mehmonxona qurilishi va ulardan foydalanishda keng tarqalmoqda. Bu, ayniqsa, “yashil” texnologiyalarga asoslangan loyihalar, jumladan, nol energiya sarfi (Zero-Energy Building, ZEB) konsepsiyasi bo‘yicha qurilgan binolar tahlili orqali tasdiqlanadi. ZEB binolari yuqori darajada energiya tejaydigan ob’ektlar bo‘lib, ular qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanib, yil davomida ishlab chiqarilgan energiya iste’mol qilingan energiyaga teng bo‘lishini ta’minlaydi. Agar ishlab chiqarilgan energiya iste’moldan kam bo‘lsa, bunday bino “deyarli nol energiyali” deb ataladi.

Qurilayotgan binoning me'moriy tarkibi kristall shaklidagi qavariq ko'p burchakka asoslangan. Bino 11 qavatli va 8 ta uchburchak qirrali bo'lib, ular orqali Sankt-Peterburgning yaqin atrofdagi tarixiy diqqatga sazovor joylarini ko'rish mumkin. SCHUCO jabhalari yil va kunning turli vaqtlarida ofisning yorug'lik darajasini sozlash imkonini beradi, shuningdek, bino ichida qulay harorat rejimini ta'minlaydi.

[58].Xashimov Pazliddin Zukurovich Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, iqtisod fanlari doktori, professor Yashil iqtisodiyot taksonomiyasi O‘zbekistonni barqaror rivojlanish omillaridan biri “Yashil iqtisodiyot – kelajak iqtisodiyoti: innovatsiyalar, investitsiyalar va istiqbollar” maqola. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya/ https://ilmiyanjumanlar.uz/files/

**1-jadval.**

**Ekologik binoning asosiy “yashil” texnologik yechimlari**[59]

| Texnologik yechim | Tavsifi |
|---|---|
| **Yuqori samarali oynalar** | Fasadning deyarli to‘liq shisha bilan qoplanganligi vizual qulaylik va yuqori tabiiy yorug‘likni ta’minlaydi. Quyoshdan himoyalangan ikki qavatli oynalar energiya sarfini kamaytiradi. Issiqlik o‘tkazuvchanlik qarshiligi Rossiya standartlaridan 70% yuqori. |
| **Shamollatish tizimlari** | Chiqarilgan havoning issiqligidan foydalanib, qishda ta’minot havosini isitishda 60% issiqlik tejaydi. Havo oqimi odamlar soniga qarab avtomatik tartibga solinadi. Toza havo hajmi Rossiya va ASHRAE standartlariga mos. |
| **Rekuperatsiya tizimi** | O‘tish davrida (tashqi havo ~0°C) rekuperatsiya tashqi energiya resurslarini isitish uchun ishlatishni yo‘q qiladi, energiya sarfini nolgacha kamaytiradi. |
| **Zamonaviy konditsioner va yong‘inga qarshi tizimlar** | Ozonga zarar keltirmaydigan sovutgichlardan foydalaniladi. “Bepul sovutish” opsiyasi qish va o‘tish davrida tashqi havodan foydalanib, elektr sarfisiz ichki havoni sovutadi. |
| **Avtomatlashtirish va boshqaruv tizimi** | EBI (Enterprise Building Integrator) tizimi barcha muhandislik tizimlarini avtomatik boshqaradi va monitoring qiladi, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. |

Tizim umumiy axborot tizimiga butun binoning muhandislik uskunalarini ham, biznes markazi ijarachilarining muhandislik tizimlarini ham birlashtirishga imkon beradi. Energiya manbalarini hisobga olish butun bino uchun, har bir ijarachi va har bir kuchli iste'molchi uchun alohida amalga oshiriladi.

Quvvat sarfini kamaytirish. Quvvat sarfini va konditsioner tizimidagi yukni kamaytiradigan energiya tejaydigan lampalar. Avtoturargoh hududida shamollatish havosining oqimini transport intensivligiga qarab avtomatik ravishda tartibga solish. Suv sarfini tejash. Qish mavsumida binoning “iflos” zonalari va xonalaridan chiqadigan issiq havo tomda yig‘ilgan qorni eritish uchun qayta ishlatiladi. Bu yondashuv issiqlik energiyasini maksimal darajada tejamkor va samarali sarflash imkonini beradi. Bino zamonaviy sanitariya-texnik jihozlar bilan jihozlangan bo‘lib, tomga o‘rnatilgan yomg‘ir suvi yig‘ish tizimlari atrof-muhitni sug‘orish va tozalash uchun yetarli miqdorda suv ta’minlaydi. Sochi shahri “yashil” binolar soni bo‘yicha yetakchi o‘rinni egalladi, chunki o‘tgan Olimpiya o‘yinlari tufayli bu kurort shahri barqaror qurilishning eng zamonaviy standartlariga mos keluvchi ko‘plab ob’ektlarga ega bo‘ldi. Bunday binolardan biri – “Katta” muz saroyi bo‘lib, uning qurilish tuzilmasi moslashuvchan bo‘lib ishlab chiqilgan. Bu esa saroydan turli sport

[59] А.П.Ковальчук. к.э.н., доцент кафедры индустрии гостеприимства, туризма и спорта РЭУ им. Г.В. Плеханова, "Зеленые" технологии в индустрии гостеприимства

turlari uchun bir nechta rejimlarda foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Binoda yoritish tizimi qisman quyosh nurlaridan olinadigan energiya yordamida ishlaydi, suv iste'moli esa maxsus tejovchi uskunalar orqali ancha kamaytirilgan. Qolgan resurslardan foydalanish esa "aqlli" boshqaruv texnologiyalari orqali samarali ravishda nazorat qilinadi. Arenaning ichki va tashqi qoplamalari faqat ecologik xavfsiz materiallardan tayyorlangan. Rossiyada esa binolar, xususan mehmonxonalarni energiya bilan ta'minlash borasida ilmiy izlanish olib borayotgan ko'plab tashkilotlar mavjud. Ular orasida "Isitish, shamollatish, havoni tozalash, issiqlik ta'minoti va qurilish termofizikasi muhandislari" notijorat tashkiloti (NP "AVOK"), Big-RU avtomatlashtirish assotsiatsiyasi, "Connex" kompleks tizim ishlab chiqaruvchilari assotsiatsiyasi hamda iqlim texnologiyalari sohasidagi korxonalar uyushmasi mavjud. Bundan tashqari, Rossiya bozorida "Siemens", "Delta Controls", "Sauter", "Property Lab", "Isilux Rus" kabi dunyo miqyosidagi kompaniyalarning vakolatxonalari, shuningdek ko'plab internet resurslari va tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Energiya tejamkor texnologiyalar va ilg'or uskunalarni tatbiq etish esa mehmonxona sohasida jiddiy afzalliklar yaratadi, xarajatlarni kamaytiradi va ecologik jihatdan mas'uliyatni kuchaytiradi. Rossiyaning yirik energiya menejmenti kompaniyasi "Interregionenergo servis" tomonidan ofislar hamda savdo-ko'ngilochar markazlar o'rganilganda, deyarli barcha obyektlarda energiyani tejash bo'yicha chora-tadbirlar joriy etilishi natijasida elektr energiyasi uchun to'lovlar miqdorini kamida 30 foizga qisqartirish imkoni mavjudligi aniqlangan. Bu holatni mehmonxona majmualariga ham tatbiq etish mumkin. O'z energiya sarfini kamaytirish bo'yicha investitsiyalar yiliga 60 foizdan 100 foizgacha daromad keltirishi mumkin. Ayniqsa, issiqlik ta'minoti, shamollatish va konditsioner tizimlarida energiyani tejash orqali kommunal to'lovlarni 40–60 foizgacha kamaytirish mumkin. 2010-yildan buyon mehmonxonalar, biznes markazlari, yotoqxonalar, pansionatlar, dam olish zonalari va bolalar lagerlari uchun mo'ljallangan xalqaro ko'ngilli sertifikatlash tizimi — "Yashil kalit" dasturi faoliyat yuritmoqda.

Ushbu dastur Xalqaro ecologik ta'lim tashkiloti tomonidan barqaror qurilish tamoyillarini ilgari surish va amaliyotga tatbiq etish maqsadida ishlab chiqilgan. Misol uchun, "Green Key" sertifikatiga ega mehmonxonalar elektr energiyasi, suv, kimyoviy vositalar sarfini kamaytirish, chiqindilarni minimallashtirish va ularni qayta ishlash kabi 90 dan ortiq majburiy va ixtiyoriy talablarni bajaradi. Har bir mehmonxona dastur ekspertlari tomonidan maxsus tekshiruvdan o'tkaziladi. Sertifikatga ega mehmonxonalar ecologik me'yorlarga qat'iy rioya qilgan holda faoliyat yuritadi, biznesda mas'uliyatli yondashuvni namoyon etadi va mahalliy hamda global ecologik muhofazaga sezilarli hissa qo'shadi. "Faol uy" konsepsiyasiga o'xshagan bu dasturda ishtirok etish uchun muayyan "yashil" texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Rossiyada hozircha ushbu sertifikatga ega mehmonxonalar soni uncha ko'p emas — ularga asosan "Radisson" tarmog'ining (xususan Park Inn brendi), shuningdek Qozondagi "Nogay", Samaradagi "Meridian", Ulyanovskdagi "Rakurs", Sochidagi "Vatan", shuningdek

“Cronwell” va “Sokos” brendlari ostidagi mehmonxonalar kiradi.[60] Eco-mehmonxonalar mamlakatimizda hali yangi yo‘nalish sanalsa-da, bu soha jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Ko‘plab sayyohlar, xususan xorijlik mehmonlar, ecologik toza turizmni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘shimcha xarajat qilishga tayyor. Shu sababli, dunyo bo‘ylab xalqaro hamda milliy mehmonxonalarni ecologik mezonlar asosida sertifikatlash tizimlari asta-sekin keng tarqalib, ommalashmoqda.[61]

**Xulosa va takliflar**

So‘nggi o‘n yil ichida mehmonxona biznesi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ulkan yangilanishni boshdan kechirdi. Mehmonxona faoliyatini avtomatlashtirish, onlayn bron qilish, gadjetlar, elektron menyular, kabel televideniesi, simsiz internet, yorug‘lik va energiyani ecologik taqsimlash va yetkazib berish, onlayn ro‘yxatdan o‘tish va ro‘yxatdan o‘tish, raqamli kalitlar, robototexnika va boshqa ko‘plab texnologiyalar joriy etilmoqda. Mehmonxona sanoati xarajatlarni optimallashtirish va mehmonxona jarayonlarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, potentsial mijozlar oqimini oshirish va ushbu sohaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash orqali raqamli transformatsiyalardan faol foydalanadi va undan foyda oladi. Xizmat ko'rsatish, mehmondo'stlik va turizm sohalarida texnologik innovatsiyalar rivojlanish va o'sishning muhim manbasiga aylanib bormoqda va hozirda omon qolish. Shu ma’noda texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish to‘liq ma’noda mehmonxona tarmoqlari va mustaqil mehmonxona korxonalari uchun strategik qurolga aylanib bormoqda. Mutaxassislarning fikricha, hozirda umuman biznes va xususan mehmonxona sanoatini raqamlashtirish uchun yuqori salohiyat mavjud. Mehmondo'stlik sanoatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning mashhur yo'nalishlarini ko'rib chiqaylik. Mehmondo'stlik sanoatidagi raqamli yechimlar xodimlarni gadjetlashtirilgan xizmatlar va qurilmalar bilan almashtirish orqali mehmonxona korxonalari ishini optimallashtiradi. Biznesning raqamli transformatsiyasi amalga oshirilmoqda, bu mehmonxona korxonalariga bozorga moslashtirilgan va hatto moslashtirilgan takliflarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini beradi. Hozirda mehmonlar uchun mehmonxona ilovalari mehmonning mehmonxona yaqinidagi joylashuvini kuzatib boradi va xonaning tayyorligi to‘g‘risida to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehmonlarning mobil telefonlariga bildirishnomalarni yuboradi; mehmonxona xodimlari bilan suhbatlar mehmonxona veb-sayti yoki ilovasi tomonidan javob bera olmaydigan g'ayrioddiy so'rovlar va savollar yuzaga kelganda dolzarbdir. Iste'molchi tendentsiyalari orasida sayyohlarga, mehmondo'stlik industriyasining potentsial va haqiqiy mijozlariga dolzarb muammolarni virtual shaklda hal qilishda yordam berish uchun mo'ljallangan ovozli

[60]А.П.Ковальчук. к.э.н., доцент кафедры индустрии гостеприимства, туризма и спорта РЭУ им. Г.В. Плеханова, "Зеленые" технологии в индустрии гостеприимства

[61] Хан А.Д. направление «Гостиничное дело» ДГТУ г. Ростов-на-Дону Использование эко-технологий в индустрии гостеприимства. форум молодых ученых 12(64) 2021

yordamchi xizmatlari va virtual hamrohlarni ishlab chiqish kiradi. [62]

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. D.I.Abidova.“O‘zbekistonda ekologik mehmonhonalar faoloiyatini yuritish metodologiyasinin takomillashtirish”. Monografiya-T.:“Ilm-fan va Innovatsiya” 2023yil, 100 bet

2. D.I.Abidova, A.A. Abdullaxo‘jayev. Environmental Certification as a Way to Increase the Competitiveness of Hotels. American Journal of Education and Evaluation Studies, Vol.2, No.1 (Jan, 2025), E-ISSN: 2997-9439 American Journal of Education and Evaluation Studies https://semantjournals.org/index.php/ AJEES

3. Бокарева А.Р., Давыдкова М.А. Тенденции перехода гостиничных предприятий на экологические и ресурсо сберегающие источники. Магистранты Высшей школы туризма и гостеприимства. ФГБОУ ВО «Российский государственный университет туризма и сервиса» г.Москва, Российская Федерация. 2020 г. журнал Вестник ассоциации вузов туризма и сервиса. Экономика и бизнес

4. O.X.Хамидов “O‘zbekistonda ecologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish.” (Doctor of science) dissertatsiyasi avtoreferati. T, 2017 y

5. Emerson Javier Jácome-Mogro, Pablo Morales, Cristian Jiménez-Jácome, D.I. Abidova. Development of Neutrosophic Cognitive Maps (NCM) for the Evaluation and Ranking of the Main Causes of the Appearance of Fruit Fly Pests. International Journal of Neutrosophic Sciences (IJNS) Vol. 25, No. 01, PP. 485-494, 2025 (Scopus bazasi)

6. М.Т.Алиева, Д.И.Абидова. Управление окружающей средой в туризме (учебник). Т. Инновацион ривожланиш нашриёт- матбаа уйи, 2022 й. 304 бет

7. Д.Абидова, А.Абдуллаходжаев и др. Региональный туризм в Самарканде, анализ проведений экскурсий и его перспективы развития Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot.2025-yil. 2025-yil, yanvar. № 1-son.

8. www/ cont.org.

9. www.interunion.ru

10. www.tag-group.com

11. www.e-tours.ru

12. https://www.evkova.org/kursovye-raboty/issledovanie-opyita-primeneniya-ekologicheskih-innovatsij-na-primere-gostinichnogo-predpriyatiya

13. https://uz.traasgpu.com/2018-yilgi-eng-yaxshi-ekologik-sayyohlik-mehmonxonalari/


[62] Ш. Абдусаидова. Инновации в мировом гостиничном бизнесе. Международный университета туризма и культурного наследия «Шёлковый путь» Journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 5.57 www.jmbm.uz volume 2, issue 2 (may) issn: 2181-3000 page 224

# ЗЕЛЁНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТСКИХ ДЕСТИНАЦИЙ

**Очилова Хилола Фармоновна**
*DSC, доцент кафедры «Туризм и гостиничный бизнес» ТГЭУ*

**Аннотация.** В статье рассматриваются современные тенденции развития зелёного туризма: устойчивый туризм, экологический туризм, переход от зеленых технологий и энергосберегающим способам оказания гостиничных услуг.

**Ключевые слова:** зеленый туризм, устойчивый туризм, энергосберегающие технологии, экологический туризм, природоохранные территории.

## Введение

Исследования на международном уровне в результате глобальных резких климатических изменений во всем мире, в том числе Booking.com новый отчет о путешествиях сайта показал, что около 76 процентов путешественников хотят путешествовать по зеленой дороге в течение следующих 12 месяцев. Около 81% людей готовы изменить свое поведение во время путешествий, чтобы уменьшить воздействие на окружающую среду. Более половины путешественников (60%) заявили, что готовы платить больше предприятиям туристической индустрии, которые ставят защиту окружающей среды на первое место[63]. Около 70% сотрудников не знают о зеленой политике своей организации в отношении корпоративных поездок. Почти две трети туристов (63%) считают, что сайты бронирования, туристические агентства и туроператоры должны раскрывать углеродный след $CO_2$ предлагаемых ими рейсов и других туристических продуктов. Около 83% американцев обеспокоены тем, что их поездки не являются экологически чистыми, и чувствуют себя виноватыми за свои предыдущие поездки.

В своей речи на открытии 25-й сессии Генеральной Ассамблеи Всемирной туристской организации (ЮНВТО) 16 октября 2023 года в Самарканде Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев подчеркнул, что в эпоху нарастающего изменения климата принятие международной Программы действий по развитию «зеленого» туризма является как никогда актуальным, а также предложил учредить номинацию организации «Лучший город по внедрению «зеленого» туризма». Отмечается, что при поддержке организации в сотрудничестве с недавно начавшим работу центральноазиатским университетом по изучению окружающей среды и изменения климата и международным университетом “Шелковый путь” в Самарканде планируется создать лабораторию глобальных стартапов

[63] https://globalnews.booking.com/download/31767dc7-3d6a-4108-9900-ab5d11e0a808/booking.com-sustainable-travel-report2023.pdf

“Зеленого” туризма”[64]. Также одним из актуальных вопросов в развитии зеленого туризма является внедрение инновационных цифровых платформ.

**Методы исследования**

В статье использованы методы анализа и синтеза, индукции и дедукции, монографического изложения, логического и экономико-статистического анализа, моделирования, сравнения.

**Литературный обзор**

Проблемам формирования, развития и эффективного использования зеленого туризма зарубежными странами и Узбекистаном посвящено множество фундаментальных и прикладных исследований. Общие вопросы, связанные с развитием зеленого туризма, изучались многими зарубежными учеными. В частности, С.Эбер определяет зелёный туризм следующим образом: «Зелёный туризм – это туризм, который функционирует в рамках, текущих и будущих возобновляемых природных ресурсов, признает вклад общества и людей в туризм и в то же время обеспечивает экономические выгоды для людей, проживающих в туристских направлениях».

**Результаты**

Устойчивость зеленого туризма привлекает все большее внимание различных заинтересованных сторон из-за его экологических преимуществ. Однако эмпирические исследования устойчивости зеленого туризма и его влияния на создание зеленой окружающей среды еще не полностью изучены, особенно в Республике Узбекистан.

Устойчивость зеленого туризма является приоритетом для туристической отрасли, и поэтому очень важно учитывать действия, связанные с практикой туризма.

Туризм в зелёной экономике подразумевает под собой устойчивую туристскую деятельность, которая может быть устойчивой в социальном, экономическом, культурном и экологическом контексте.

Зелёный туризм – это туризм, который в полной мере учитывает текущие и будущие экономические, социальные и экологические воздействия, одновременно удовлетворяя потребности посетителей, отрасли, окружающей среды и принимающих сообществ. Это не какой-то конкретный вид туризма; скорее, все виды туризма могут стремиться к большей устойчивости. Определение зелёного туризма дано в публикации UN Tourism и Программы ООН по окружающей среде за 2005 год.

Руководящие принципы и методы управления зелёным туризмом применимы ко всем видам туризма во всех типах направлений, включая массовый туризм и различные туристские сегменты. Принципы устойчивого развития связаны с экологическими, экономическими и социально-культурными аспектами развития туризма, и для обеспечения его

[64] https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/16/unwto/

долгосрочной устойчивости необходимо обеспечить надлежащий баланс между этими тремя измерениями. Таким образом, зелёный туризм:

1) оптимальное использование природных ресурсов, которые являются ключевым элементом развития туризма, поддерживают важные экологические процессы и способствуют сохранению природных ресурсов и биоразнообразия;

2) уважение социально-культурной идентичности принимающих сообществ, сохранение культурного наследия и традиционных ценностей, созданных и пережитых, а также содействие межкультурному взаимопониманию и толерантности;

3) обеспечение жизнеспособной, долгосрочной экономической деятельности, которая обеспечивает справедливые социально-экономические выгоды всем заинтересованным сторонам, включая устойчивые возможности трудоустройства и получения дохода, а также социальные услуги для принимающих сообществ, и способствует сокращению бедности. Устойчивое развитие туризма требует осознанного участия всех заинтересованных сторон, а также сильного политического руководства для обеспечения широкого участия и консенсуса. Цель зелёного туризма — это непрерывный процесс, требующий постоянного мониторинга воздействия и, при необходимости, принятия необходимых превентивных и/или корректирующих мер. Зелёный туризм также должен поддерживать высокий уровень удовлетворенности туристов и предоставлять им значимый опыт, повышая их осведомленность в вопросах устойчивого развития и продвигая среди них методы зелёного туризма.

Следует проводить четкое различие между экотуризмом и зелёным туризмом:

«Термин «экотуризм» сам по себе относится к сегменту туристского сектора, ориентированному на экологическую устойчивость, и принципы устойчивости должны применяться ко всем видам туристской деятельности, операциям, предприятиям и проектам, включая традиционные и альтернативные формы».

Термин «зелёный туризм» описывает не только ожидания туристов в отношении ответственного управления природными ресурсами, но и потребности сообществ, которые поддерживают туристские проекты или на которые они влияют, а также политику, практику и программы, учитывающие экологические аспекты.

Следовательно, зелёный туризм стремится к энергоэффективности и экологичности (например, за счет использования возобновляемых источников энергии); потреблению меньшего количества воды; минимизации отходов; сохранению биоразнообразия, культурного наследия и традиционных ценностей; содействию межкультурному взаимопониманию и толерантности; и вовлечению местных сообществ в создание местных доходов, улучшение условий жизни и сокращение бедности. Повышение устойчивости туристского бизнеса приносит пользу местным сообществам, повышает осведомленность и способствует устойчивому использованию природных ресурсов.

Мониторинг прогресса в достижении устойчивости туризма включает в себя оценку экологических, социальных и экономических условий с использованием выбранных показателей и ключевых критериев. Универсального решения для обеспечения устойчивости развития туризма не существует, а отдельные инструменты и критерии не способны охватить все многообразие проблем местного значения.

Многие организации пытались разработать критерии и индикаторы в сфере туризма. В настоящем отчете представлена концептуальная и практическая основа для обеспечения устойчивости туристского бизнеса, основанная на Глобальных критериях устойчивого туризма (GSTC).

Термины «зелёный туризм», «экотуризм» и «устойчивый туризм» часто используются взаимозаменяемо. Однако на самом деле существует множество различных практик. Устойчивый туризм способствует развитию всех видов устойчивой деятельности в сфере туризма. Другими словами, устойчивый туризм учитывает культурные и экономические аспекты устойчивости туризма. Экотуризм же, напротив, поощряет туристов и местных жителей к гармоничному взаимодействию с окружающей средой. Термин «зелёный туризм» может охватывать оба определения.

Но существует разница между ними с точки зрения их целей.

Хотя зелёный туризм десятилетиями пользовался дурной репутацией, его главная цель – достижение экономической выгоды при минимизации вредного воздействия на окружающую среду. Экотуризм стремится наладить связь туристов с природой, сформировать экологическую и культурную осведомлённость и уважение к ней, обеспечить положительный опыт как для туристов, так и для принимающей стороны, защитить природу, создать прямую финансовую выгоду для местного населения и частного сектора, а также учесть психологическое воздействие, направленное на снижение физического, социального и поведенческого стресса.

За последние годы исследования в области зелёного туризма значительно расширились благодаря значительному вкладу туризма в экономическое развитие. Кроме того, экологические ресурсы регионов представляют собой экологические ландшафты и способствуют повышению экологической сознательности посредством адаптированных «зеленых» практик в гостиничном секторе. Это повышает имидж «зеленых» туристских направлений как «зеленых». Поэтому в ряде стран продвигается концепция «зеленого» туризма, направленная на сокращение выбросов углерода в результате деятельности операторов туристского и гостиничного бизнеса. Таким образом, экологическое развитие считается необходимым для минимизации ухудшения состояния окружающей среды, вызванного туристами, в связи с их привлекательностью для природных направлений. Устойчивость «зеленого» туризма привлекает все большее внимание различных заинтересованных сторон благодаря его экологическим преимуществам.

Развитие туризма может быть направлено на поддержку местной экономики и сокращение бедности. Влияние туризма на местную экономику

определяется долей расходов на туризм в общей структуре экономики, а также объёмом косвенной экономической деятельности. Таким образом, расширение участия местных сообществ, особенно беднейших, в цепочке создания стоимости в сфере туризма может способствовать местному экономическому развитию и сокращению бедности. Например, в Панаме 56% домохозяйств получают 50% своего общего дохода от местного туризма. Прямые выгоды для сообществ и сокращение бедности будут во многом зависеть от доли туристских потребностей, удовлетворяемых на местном уровне, таких как продукты питания, рабочая сила, туристские услуги и всё более экологичные услуги в области энергоэффективности, водопользования и утилизации отходов. Появляется всё больше научных данных, свидетельствующих о том, что более устойчивый туризм в сельской местности может оказать положительное влияние на сокращение бедности.

Инвестиции в зелёный туризм могут снизить расходы на электроэнергию, воду и отходы, а также повысить ценность биоразнообразия, экосистем и культурного наследия. Доказано, что инвестиции в энергоэффективность приносят значительную отдачу, покрывающую затраты в короткие сроки. Улучшение управления отходами может сэкономить туристскому бизнесу деньги, создать рабочие места и повысить привлекательность туристских направлений. Инвестиции в культурное наследие, составляющие основную часть потребительского спроса на устойчивый туризм, являются одними из самых важных и зачастую прибыльных. Согласно сценарию инвестиций в зелёную экономику, туризм вносит больший вклад в рост ВВП и приносит значительную пользу окружающей среде, сокращая потребление воды (на 18%), потребление энергии (на 44%) и выбросы $CO^2$ (на 52%) по сравнению с обычными делами.

Туристы требуют более экологичного туризма. Более трети туристов предпочитают экологически чистый туризм и готовы платить за него на 2–40% больше. Традиционный массовый туризм достиг стадии устойчивого роста. В отличие от этого, экотуризм, туризм, связанный с природой, наследием, культурой и «мягкими приключениями», лидируют и, по прогнозам, будут быстро расти в течение следующих двух десятилетий. По оценкам, мировые расходы на экотуризм растут темпами, превышающими средние темпы роста отрасли.

Частный сектор, особенно малые предприятия, может и должен быть мобилизован для поддержки зелёного туризма. Сектор туризма включает в себя широкий круг участников. Осведомлённость о зелёном туризме присутствует в основном в нескольких крупных компаниях. Небольшие компании, как правило, находятся за пределами региона, и различные группы поставщиков могут быть вообще не связаны между собой.

Специальные механизмы и инструменты обучения организаций, связанных с зелёным туризмом, очень важны и наиболее эффективны в сочетании с практическими действиями. Продвижение и широкое внедрение признанных стандартов устойчивого туризма, таких как Глобальные критерии устойчивого туризма, могут помочь компаниям улучшить свои показатели

устойчивости, включая эффективность использования ресурсов, и привлечь дополнительные инвестиции и клиентов.

Значительная часть экономического потенциала зелёного туризма сосредоточена в национальных резервах, которым необходимо максимально эффективно использовать финансирование для инвестиций в зелёный туризм.

Большинство направлений зелёного туризма – это места, которые обладают потенциалом для получения большего дохода и расширения возможностей благодаря зелёным стратегиям. Однако одной из самых серьёзных проблем в их «экологизации» является нехватка инвестиций. Правительства и международные организации могут способствовать притоку средств в эти важные структуры, способствуя развитию местной экономики и сокращению бедности. Государственно-частные партнёрства могут разделить затраты и риски, связанные с крупномасштабными инвестициями в зелёный туризм. Помимо снижения административных сборов и предложения выгодных процентных ставок для проектов зелёного туризма, они также могут предоставлять услуги по развитию зелёного туризма, такие как техническое, маркетинговое или управление бизнесом. Планирование и стратегии развития экологически чистых туристских направлений – первый шаг к экологизации туризма. При разработке туристских стратегий местные органы власти, сообщества и предприятия должны создать механизмы координации с министерствами, отвечающими за окружающую среду, энергетику, труд, сельское хозяйство, транспорт, здравоохранение, финансы, безопасность и другие соответствующие секторы. Зонирование, особо охраняемые территории, экологические кодексы, трудовое законодательство, сельскохозяйственные стандарты и санитарные требования должны быть четко определены, особенно в таких областях, как энергетика, водоснабжение, утилизация отходов и санитария.

**Заключение**

Основные научные выводы и практические результаты, полученные в ходе исследования, следующие:

1. Сектор «зеленого туризма» включает экологически и социально ответственных туристов-резидентов и нерезидентов, выбирающих отели с зелеными сертификатами при поездках в направления зеленого туризма, способствующих экономии энергии и воды, а также благоприятным для климата практикам, минимизации отходов, сохранению биоразнообразия, культурного наследия и традиционных ценностей, поддержке межкультурного взаимопонимания и толерантности, созданию местного дохода и улучшению условий жизни, а также объединению местных сообществ для сокращения бедности.

2. Развитие зеленого туризма отражено в «Стратегии развития Узбекистана», в которой поставлены задачи по разработке плана мероприятий по реализации программы «Зеленый туризм» в Республике Узбекистан, достижению экологической устойчивости за счет сокращения «углеродного следа» экономики путем широкого использования современных

энергосберегающих технологий в отраслях экономики и социальной сфере.

## EKOLOGIK TURIZM MANBALARI VA ULARNING XUSUSIYATLAR

**Sodikov Zokir Rustamovich,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*
*Islom iqtisodiyoti va moliyasi,*
*ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti, i.f.n*

**Annotatsiya.** Maqolada ekologik turizm manbalari, tarkibiy xususiyatlari va tasniflash mezonlari ilmiy asosda yoritiladi. Ekoturizmning shakllanishida tabiiy landshaftlar, geologik obyektlar, biologik xilma-xillik, madaniy va etnografik resurslar muhim omil sifatida ko‘riladi. Maqolada ekologik turizm resurslarini tabiiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda aralash manbalar sifatida guruhlash mezonlari bayon qilinadi. Shuningdek, ekoturizm istiqbollari, uning barqaror rivojlanishdagi o‘rni va hududlarning turistik salohiyatini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar.** ekologik turizm, tabiiy resurslar, ekotizim, tasnif, biologik xilma-xillik, geoturizm, madaniy meros, barqaror rivojlanish, turistik salohiyat.

Jahon miqyosida ekologik muammolarning keskinlashuvi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va tabiat resurslarining cheklanganligi barqaror rivojlanish tamoyillarini turizm sohasiga chuqur singdirishni taqozo etmoqda. Shu jarayonda ekologik turizm (ekoturizm) ekologik muhofazani ta’minlash, tabiiy hududlardan oqilona foydalanish va mahalliy aholi manfaatlarini uyg‘unlashtirishning samarali vositasi sifatida e’tirof etilmoqda. Ekoturizm resurslari — bu tabiiy landshaftlar, qo‘riqlanadigan hududlar, suv havzalari, flora va fauna obyektlari, iqlim, geologik shakllanishlar hamda madaniy-etnografik meros kabi ko‘plab tarkibiy manbalardan iborat murakkab tizimdir. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, ekologik turizm manbalari nafaqat turistik mahsulotni shakllantirishning asosiy omili, balki tabiiy hududlarni muhofaza qilish, iqtisodiy daromad generatsiyasi va aholining ekologik madaniyatini oshirishda muhim strategik ahamiyatga ega. Shuning uchun ekologik turizm manbalarining mazmun-mohiyatini ochib berish, ularni tizimli tasniflash va ulardan oqilona foydalanish mexanizmlarini o‘rganish bugungi turizm siyosatining eng muhim ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

Ekologik turizm nazariyasi va amaliyoti so‘nggi o‘n yilliklarda turizm iqtisodiyoti, barqaror rivojlanish va ekologiya kesishgan nuqtada jadal rivojlanib kelmoqda. Xalqaro ekologik turizm jamiyati (TIES, 2015) ekologik turizmni “tabiiy hududlarga mas’uliyatli sayohat bo‘lib, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, mahalliy aholi farovonligini ta’minlash va ekologik ongni rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat” sifatida ta’riflaydi. Butler (1999), Weaver (2006) va Honey (2008) kabi mualliflarning tadqiqotlarida ekoturizmning asosiy tamoyillari — ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligi sifatida izohlangan. Flora va fauna obyektlari, milliy bog‘lar, biosfera

qo‘riqxonalari, ekologik yo‘nalishlar va geologik shakllanishlar ekoturizmning bazaviy resurslari ekanligi Ceballos-Lascurain (2014) tomonidan asoslab berilgan. Muallif ekologik turizm resurslarini tabiiy, yarim tabiiy va madaniy manbalarga ajratgan. Sharq mamlakatlari tajribasida (Janubiy Koreya, Yaponiyada) ekoturizm resurslarining mahalliy jamiyatlar farovonligi bilan bog‘liqligi Ko & Stewart (2002) ishlanmalarida keng yoritilgan. Tadqiqotlarda (Abdullaev, 2021; Bozorov, 2023) ekoturizm imkoniyatlari, xususan, Hisor, Chotqol, Qizilqum, Ustyurt platosi, Surxon davlat qo‘riqxonasi kabi hududlarning biologik va geologik resurslari alohida qayd etilgan. Mahalliy olimlar ekoturizmni hududiy rivojlantirishda qo‘shimcha daromad manbai va barqaror landshaft boshqaruvi mexanizmi sifatida talqin qiladilar. Ushbu tadqiqot jarayonida metodologik yondashuv sifatida analitik (tahliliy) yondashuv orqali ekoturizm resurslari to‘g‘risidagi mavjud ilmiy manbalar o‘rganildi va jahon tajribasida qo‘llanilgan tasniflar solishtirildi. Shuningdek, taqqoslash (komparativ) metodi orqali milliy ekoturizm manbalari Avstraliya, Kosta-Rika, Kanada va Malayziya tajribasi bilan taqqoslangan. Bundan tashqari, tasniflash metodi orqali ekoturizm manbalari ushbu kategoriyalar bo‘yicha belgilanib, ular, tabiiy landshaftlar, suv-havo resurslari, flora-fauna, geologik va geomorfologik obyektlar va madaniy-etnografik resurslardan iborat. Milliy iqtisodiyotda ekologik turizmning asosiy manbalari o’ziga xos bo’lib, ular, milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar - Chotqol, Zomin, Surxon, Hisor, Geologik obyektlar - Ustyurt platosi, Qizilqum karst relifi, Chotqol tog‘ tizmalari, Suv resurslari Chorvoq, Aydar–Arnasoy tizimi, Sudochye, Jayron ekomarkazi, Flora va fauna - Buxoro bug‘usi, Jayron, qor barsi, ko‘p yillik archa o‘rmonlari, Iqlim resurslari - Quruq kontinental iqlim, tik va baland tog‘ tizmalari, Etnografik manbalar - tog‘li hududlarda yashovchi aholining turmush tarzi, an’anaviy hunarmandchilik kabilardan iborat.

**1-jadval.**

**Milliy iqtisodiyotda ekologik turizmning SWOT tahlili natijalari**

| **Kuchli tomonlar** | **Zaif tomonlar** |
|---|---|
| Boy landshaftlar, ko‘plab qo‘riqlanadigan hududlar | Infratuzilmaning rivojlanmaganligi |
| Noyob biologik xilma-xilliklar | Ekologik madaniyat pastligi |
| Katta hududlar va kam antropogen yuklamalar | Investorlarga yetarli rag‘bat yo‘qligi |
| **Imkoniyatlar** | **Xavflar** |
| Ekoturizm orqali yangi daromad manbalari | Iqlim o‘zgarishlari |
| Mahalliy aholi bandligini oshirish | Qonunbuzarliklar va brakonerlik |
| Xalqaro ekoturistlarni jalb qilish | Resurslarning nazoratsiz ekspluatatsiya qilinishi |

Manbalardagi tasniflar bo‘yicha natijalar quyidagilardan tashkil topgan. Xususan:

Tabiiy manbalar:

- Landshaft: tog‘lar, vodiylar, cho‘l hududlari.
- Biologik resurslar: hayvonot va o‘simlik dunyosi.

• Suv obyektlari: ko‘llar, daryolar, buloqlar.

Madaniy manbalar:

• Etnografik qadriyatlar.

• An’anaviy chorvachilik va dehqonchilik tarzi.

• Mahalliy hunarmandchilik.

Ijtimoiy manbalar:

• Mahalliy aholining ekoturizmga munosabati.

• Hudud infratuzilmasining rivojlanish darajasi.

• Ekoservice xizmatlari mavjudligi.

Ekoturizm tabiiy muhitga yo'naltirilgan turizmning ko'plab shakllarini o'z ichiga oladi. Bu shakllar ekoturizm bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, ekoturizm ko'p qirrali xususiyatga ega bo’lgani uchun, ularni bir-biridan ajratib olish kerak. Ekoturizm, avvalo, tabiatni, manzaralarni-landshaftlarni, flora, fauna va yashash hududlarini, shuningdek, mintaqadagi madaniy asarlarni tajriba qilishga va o'rganishga qaratilgan bo’ladi. Ekoturizm shahar hayotidan zerikkan insonlar uchun qisqa masofalardagi, chet ellik sayyohlar uchun esa uzoq muddatli sayohatlarga kiritiladigan tabiat bilan integratsiyalashishga va turli xil faoliyat imkoniyatlaridan foydalanishga sabab bo’luvchi turizm turidir. Turizm faoliyatida ekoturizm alohida o'rin tutadi. Tabiiy, ijtimoiy va mahalliy jamiyat qadriyatlariga mos keladigan, haqiqiy tabiiy muhitda madaniy va ekologik o'zaro ta'sirni rag'batlantiradigan turizm turlarini, xususan, yashil turizm, tabiatga asoslangan turizm, qishloq turizmi kabilarni o'zida mujassam qiladi. Shuningdek, ekoturizm faoliyati doirasida ahamiyatli bo'lgan hududlarning aksariyati tabiati buzilmagan va vizual sifatga ega joylardir. Bundan tashqari, o'zining aslligini saqlab qolgan mahalliy madaniyatlar ham ekoturizmning eng muhim elementlaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ekoturizm salohiyatini tashkil etuvchi tabiiy hududlarni va mahalliy madaniyatlarni muhofaza qilish hamda targ'ib qilish katta ahamiyatga ega bo’ladi.

Ekoturizm faoliyatida foydalaniladigan tabiiy resurslar quyidagilardir:

• Chiroyli manzarali joylar

• Tog'lar

• O'rmonlar

• Kanyonlar (chuqur jarlik vodiylar)

• Cho'llar

• Ko'llar

• Vulqonlar

• G'orlar va boshqalar.

Ekoturizmda hududning sig’imi va qobiliyati hisobga olinishi hamda hududda tashkil etiladigan faoliyatlar va imkoniyatlar bilan foydalanuvchilar soniga cheklovlar qo‘yish resurslarni muhofaza qilish va undan foydalanish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki ekoturizm manbai bo‘lgan tabiiy va madaniy qadriyatlar imkoniyatlaridan oshib ketadigan miqdorda foydalanishlar va joyni noto‘g‘ri tanlashlar bu resurslarning muhofazaga va uzluksizligiga salbiy jihatdan ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ekoturizm uchun infratuzilmani rejalashtirish bo'yicha tadqiqotlarda joy tanlash, tashish, joylashtirish

vositalari, ifloslanish, tabiiy maydonlar va suv havzolarini muhofaza qilish, mavjud tuzilmalarni himoya qilishga oid choralarga ahamiyat berilishi kerak.

Ekoturizmni faoliyatning joylashuviga qarab belgilash jiddiy muammo tug'diradi. Chunki, ekoturizm - bu faoliyatning joylashgan joyi bilan emas, balki uning mohiyati bilan belgilanadigan samaradorlikdir. Faoliyatni ekoturizm qiladigan narsa bu faoliyatning joylashuvi yoki miqdori emas, balki, u faoliyatning qanday qo'llanilishi, qanday tashkil etilishi, qanday amalga oshirilishi va qanday natijalar berishi bilan belgilanadi. Shu tarzda ta'riflanganidek, tog'lar tepasida katta maydonlarni devor bilan o'rash, bungalovlar (yog'och va qamishdan qurilgan uy) va restoranlar qurib, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish, uzoq va tabiiy hududlarga turlar hamda kundalik sayohatlar tashkil etish faoliyatini ekoturizm deb atash uchun zarur shartlarga javob bermasligi mumkin.

Turizm mintaqalarining insonlarni qabul qilish sig'imi va imkoniyatlari cheklanganligi hisobiga, turizmning barqarorligini ta'minlash va shu bilan birga turizm daromadlarini oshirish uchun muqobil turizm turlari doirasida mintaqaga mos keladigan turizm turlarini tanlash juda muhim hisoblanadi. Afzal ko'rilgan turistik mahsulotlar va muqobil turizm turlarining maqbul bozorlarda targ'ib qilinishi va sotilishi yuqori daromadli sayyohlarni mintaqaga jalb qilinishiga sabab bo'ladi.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik turizmning manbalari milliy iqtisodiyotda juda boy va xilma-xildir. Tabiiy landshaftlar, noyob hayvonot va o'simlik dunyosi, geologik shakllanishlar, qo'riqlanadigan hududlar, shuningdek, etnografik va madaniy resurslar ekoturistik mahsulot yaratishning asosiy omili hisoblanadi. Biroq bu resurslardan foydalanish jarayonida infratuzilma, ekologik nazorat, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va mahalliy aholining faol ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun ekologik yo'laklar, eko-lodjlar, tabiat muzeylari tashkil etish, qo'riqlanadigan hududlarda barqaror boshqaruv tizimini kuchaytirish maqsadida monitoring, ekologik nazorat, raqamli boshqaruvni amalga oshirish, mahalliy aholi ishtirokini kuchaytirish uchun ekoservice xizmatlarini aholi orqali tashkil etish, mikro-bizneslarni qo'llab-quvvatlash, ekologik savodxonlikni ta'minlash uchun maktablar, kollejlarda ekoturizm va ekologiya bo'yicha maxsus kurslar o'qitish, xalqaro ekoturistlarni jalb qilish uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqish, brending, raqamli reklama, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, tabiiy resurslardan foydalanishda cheklov va kvotalarni joriy etish uchun barqaror yuklama me'yorlarini belgilash, investitsiya loyihalariga soliq imtiyozlari berish orqali eko-lodjlar va tabiiy bog'lar qurilishini rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xaitboyev R. Ekoturizm asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 248 b.

2. Tuxliyev N., Jiyanov O'. Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. – T.:

«Ilm-Ziyo-Zakovat» nashriyoti, 2021. – 234 b.
3. Isadjanov A.A. Xalqaro mehmonxonalar tizimi. Darslik. – T. Complex Print. 2021.– 224 b.
4. Gulyamova G.P. Turizmda institusional munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. T.: “COMPLEX PRINT”, 2019. – 240 b.
5. https://www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi).
6. https://www.unwto.org (Butunjahon Turizm Tashkiloti).
7. https://uzbektourism.uz (Turizm qo‘mitasi).
8. https://wttc.org (Jahon Turizm va Sayyohlik Tashkiloti).

## TURIZM XIZMATLARINI SAMARALI BOSHQARUVI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (YASHIL TURIZM MISOLIDA)

**Jiyanov Uktam Panjiyevich,**
*O‘zbekston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti v.b.*

***Annotatsiya.*** Tadqiqot barqaror turizm tamoyillariga tayanib, O‘zbekistonda ekoturizm xizmatlarining sifati, infratuzilma va institutsional muvofiqlashuv darajasini baholaydi. “Green Uzbekistan” brendi, majburiy eko-standartlar va GIS monitoringi boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida taklif etiladi.

***Kalit so‘zlar:*** yashil turizm, ekoturizm, barqaror boshqaruv, ekologik sertifikatlash, xizmat sifati, raqamli monitoring, GIS, mahalliy hamjamiyat, infratuzilma, turizm siyosati, SWOT tahlil, “Green Uzbekistan”.

**Kirish**

So‘nggi o‘n yilliklarda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez va barqaror rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib, ko‘plab mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, bandlikni oshirish va eksport tushumlarini ko‘paytirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq turizm hajmining ortishi bilan birga ekologik yuklama kuchayishi, tabiiy resurslarning degradatsiyasi, madaniy landshaftlarning buzilishi, chiqindilar ko‘payishi kabi salbiy omillar ham keskin namoyon bo‘la boshladi. Shu sababli turizmni boshqarishda barqarorlik tamoyillariga asoslangan yangi yondashuv – yashil turizm (green tourism, eco-tourism) konsepsiyasi global miqyosda ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Yashil turizm ekologik xavfsiz infratuzilma, resurslardan oqilona foydalanish, mahalliy hamjamiyat manfaatdorligini oshirish, chiqindi boshqaruvi va biologik xilma-xillikni asrash kabi tamoyillarga asoslanadi.

O‘zbekistonning strategik rivojlanish hujjatlarida ham 2023 – 2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan samarali foydalanish, ekoturizm zonalarini kengaytirish, turizm xizmatlarining sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Biroq amaliyotda yashil turizm xizmatlarini boshqarish mexanizmi hali to‘liq shakllanmagan, hududlarda boshqaruvning institutsional uyg‘unlashuvi kuchsiz,

xizmat ko‘rsatish sifati barqaror emas, ekologik xavfsizlik talablari yetarli darajada bajarilmaydi, marketing va brendlash strategiyalari esa xalqaro talablar darajasida rivojlanmagan. Shu jihatdan turizm xizmatlarini samarali boshqaruv mexanizmini takomillashtirish, ayniqsa ekologik turizm segmenti misolida, dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot, turizm xizmatlarini boshqarish mexanizmini yashil turizm misolida baholash uchun kombinatsiyalashgan ilmiy yondashuvga asoslandi. Avvalo, barqaror turizm, xizmatlar boshqaruvi va ekologik menejment bo‘yicha xalqaro adabiyotlar, UNWTO va UNEP tavsiyalari, shuningdek, O‘zbekistonning turizm siyosatiga oid normativ hujjatlar kontent tahlil usuli orqali o‘rganishni taqazo etadi. Empirik ma’lumotlar sifatida 2020 – 2024-yillar statistik ko‘rsatkichlari, ekoturizm hududlari bo‘yicha infratuzilma va xizmat turlari haqidagi rasmiy ma’lumotlar tahlilini ham amalga oshirish msqsadga muvofiq. Shuningdek, ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida SWOT tahlil usuli, komparativ tahlil va tizimli yondashuvdan foydalanish ham tadqiqotning metodologik jihatlaridan sanaladi. Ushbu metodlar yashil turizm xizmatlarini boshqarishdagi asosiy muammolarni aniqlash, xalqaro tajribani baholash va takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Barqaror turizm, xizmatlar boshqaruvi va ekologik menejment sohalarida xalqaro adabiyotlar va normativ hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turizmni iqtisodiy rivojlantirish zarurati bilan birga ekologik hamda ijtimoiy barqarorlik tamoyillari ham jamiyat va hududlar darajasida etakchi ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, UNWTO (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Turizm Tashkiloti) tomonidan taklif qilingan “Sustainable Tourism Indicators” platformasi turizm oqimlarining atrof-muhitga, mahalliy aholi hayotiga va resurslarga bo‘lgan ta’sirini o‘lchash imkonini beradi.

Shuningdek, UNEP (Birlashgan Millatlar Atrof-Muhit Dasturi) ham turizm xizmatlarining chiqindilar, energiya tejamkorligi, transportning ekologik jihatdan mosligi kabi jihatlarini rivojlantirishni tavsiya qiladi. Mahalliy jihatdan esa, O‘zbekistonda turizm sohasida normativ hujjatlar, masalan, vizasiz rejim kengaytirilishi, infratuzilmaga investitsiyalar, ekologik turizm zonalarini belgilash orqali davlat siyosati shakllanmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar va normativ hujjatlar xizmatlar boshqaruvi, infratuzilma, mahalliy hamjamiyat ishtiroki, ekologik izchillik kabi elementlarni turizm sohasida majburiy tamoyillar qatorida ko‘radi.

2020-2024 yillar davomida O‘zbekistondagi turizm xizmatlari va turistlar oqimi bo‘yicha bir qator statistik ko‘rsatkichlar mavjud. Misol uchun, xalqaro sayohatchilarning soni 2020 yilda 1,504,100 kishiga tushganligi e’lon qilingan.

2022 yilda eksport qilinadigan turizm xizmatlari hajmi 1,6 milliard AQSh dollari miqdorida bo‘lgan. 2023 yilda O‘zbekistonga kelgan chet el turistlari soni taxminan 6,6 millionga yetgani qayd etilgan[65].

2024 yilda esa mamlakatga kelgan chet el turistlari soni taxminan 8,2 millionni tashkil etgani ma’lum bo‘lgan.

[65] https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics

Bundan tashqari, 2024 yilning yanvar–mart oylarida faqat MDH davlatlaridan kelgan turistlar soni 1,417.8 ming kishini tashkil qilgan.

Ushbu ko‘rsatkichlarni boshqaruv mexanizmi nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, quyidagilar aniqlanadi: Avvalo, turistlar oqimi keskin ortgan, 2020 yil bilan solishtirganda 2024-yilda o‘sish sezilarli, bu infratuzilma va xizmat ko‘rsatish talablarini oshiradi. Biroq xizmatlar boshqaruvi jihatidan, adabiyotlarda ta’kidlangan ekologik standartlar, mahalliy hamjamiyat ishtiroki va chiqindilarni boshqarish kabi tamoyillar hali to‘liq tatbiq etilmaganligi tadqiqotlar orqali aniqlanmoqda: O‘zbekistonda ekologik standart qo‘llanilayotgan xizmat obyektlari hali 10 % dan kam ekanligi qayd etilgan[66].

Bu shuni anglatadiki, turistlar hajmi ortgan bo‘lsa-da, xizmatlar boshqaruvi va barqarorlik nuqtai nazaridan xatarlar saqlanmoqda. Masalan, natural hududlarda ortiqcha yuklama, chiqindi muammolari, mahalliy aholi manfaatdorligining pastligi kabi. Shu sababli, xizmatlar boshqaruvida «kelajakdagi o‘sishni faqat turistlar sonini oshirish bilan emas, balki yashil tamoyillar asosida boshqarish» tamoyili muhim ekanligi ko‘rinadi.

SWOT tahlil usuli orqali O‘zbekistonning yashil turizm salohiyati va boshqaruv tizimining ichki hamda tashqi omillari aniqlab olindi. Kuchli tomonlar sifatida mamlakatning noyob tabiiy hududlari, biologik xilma-xil tabiiy landshaftlar, arzon narxdagi turizm xizmatlari va oxirgi yillarda davlat tomonidan ekoturizmni qo‘llab-quvvatlash siyosati qayd etildi. Shu bilan birga, zaif tomonlar sifatida infratuzilmaning yetarli emasligi, ekoturizm obyektlarida ekologik standartlarning pastligi, gid va xizmat ko‘rsatuvchilarning yetarli malakaga ega emasligi, hududlarda boshqaruvning institutsional parokandaligi aniqlangan. Imkoniyatlar qatorida xalqaro ekologik brending imkoniyatlari, Yevropa va Osiyo bozorlarida ekoturizmga bo‘lgan talabning ortishi, IT texnologiyalar orqali ekoturizmni raqamlashtirish imkonlari mavjud. Tahdidlar esa tabiiy hududlarda ortiqcha yuklama, chiqindilar boshqaruvining sustligi, iqlim o‘zgarishi xavfi va tartibga solinmagan turizm oqimlarining salbiy ekologik ta’siri kabi omillardan iborat.

O‘zbekistonda yashil turizm xizmatlarini boshqarish mexanizmi samaradorligini oshirish uchun institutsional koordinatsiyani kuchaytirish, ekologik standartlashtirishni joriy etish, boshqaruvni raqamlashtirish va mahalliy iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish zarur. Bu esa turizmning ekologik barqarorligi, hududlarning iqtisodiy rivoji va xalqaro bozorda raqobatbardosh ekoturizm brendini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Xulosa**

Yashil turizm misolida O‘zbekiston turizm xizmatlarini boshqarish mexanizmini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, mamlakatda tabiiy resurslar, noyob landshaftlar va davlat siyosatining qo‘llab-quvvatlashi ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi, biroq infratuzilma yetishmasligi, ekologik standartlarning to‘liq joriy etilmagani, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning malakasi pastligi hamda boshqaruv subyektlari o‘rtasida koordinatsiyaning sustligi uning

[66] https://laboreconomics.uz/index.php/lehc/article/view/135

samaradorligini cheklab turibdi. Xalqaro tajriba tahlili va tizimli yondashuv natijalari O‘zbekistonda turizm xizmatlarini boshqarishda ekologik sertifikatlash, mahalliy hamjamiyat manfaatdorligini oshirish, raqamli monitoring tizimlari va integratsiyalashgan boshqaruv modelini yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, turizm xizmatlarini samarali boshqarish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, ekoturizm obyektlari uchun yagona ekologik standart va sertifikatlash tizimini joriy etish;

ikkinchidan, turizm boshqaruvi jarayonini raqamlashtirish, jumladan ekologik monitoring, turistlar oqimini nazorat qilish va xizmatlar sifatini baholash tizimlarini yaratish;

uchinchidan, mahalliy aholi ishtirokini kuchaytirish orqali hududlar daromadining bir qismini jamoalarga qaytarish mexanizmini ishlab chiqish;

to‘rtinchidan, gidlar va xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislar uchun ekologik menejment bo‘yicha muntazam o‘quv dasturlarini tashkil etish;

beshinchidan, xalqaro brendlash va “Green Uzbekistan” konsepsiyasini ishlab chiqib, O‘zbekistonning ekologik turizm imijini global miqyosda mustahkamlash.

Ushbu chora-tadbirlar yashil turizmning barqaror rivojini ta’minlab, turizm xizmatlari boshqaruvining milliy modelini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics
2. https://laboreconomics.uz/index.php/lehc/article/view/135

## Yashil turizmni tashlil etishda xorijiy mamlakatlarning umumiy ovqatlanish resurslari sifatini oshirishdagi ilg‘or xorijiy tajribalari tahlili

**Amiriddinova.M.Z**
*“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, “Turizm” kafedrasi v.b dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan turizm sohasida umumiy ovqatlanish korxonalarining xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribalarini tahlil qilish va tahlillar natijalarini kelib chiqqan yangiliklarni ahamiyati yoritilib, raqamli texnologiyalar, jumladan turli xil umumiy ovqatlanish tushunchalari, turlari, kelib chiqishi, va bugungi kunda mamlakatimizga kerak bo‘lgan umumiy ovqatlanish turining imkoniyatlari orqali turistlar tashrifi hamda turizm xizmatlarini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Turizm, umumiy ovqatlanish, resusrlar, xizmatlar sifati, xorij tajribasi.

**Kirish**

Dunyo bo‘yicha bugungi kunda yashil turizmga o‘tish jadal rivojlnamoqda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining Yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish O’zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirishga xizmat qiladi[83].

2020-yilda mamlakatimizga 1,5 million nafar sayyoh tashrif buyurgan bo‘lib, 261 million dollarlik turizm xizmatlari eksporti amalga oshirilgan. Pandemiya cheklovlariga qaramay, bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonning turistik jozibasini yo‘qotmaganini ko‘rsatadi.

2021-yilda esa xorijiy sayyohlar soni 1,9 million nafarga yetdi, turizm xizmatlari eksporti hajmi 422,1 million dollarni tashkil etdi. Bu esa pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasining tiklana boshlaganidan dalolat beradi.

2022-yilda O‘zbekistonda turizm jadal sur’atlar bilan o‘sdi. Qariyb 5,2 million nafar xorijiy sayyoh mamlakatimizga tashrif buyurdi, bu esa 2017-yilga (2,7 million

[82] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.

[83] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.

nafar) nisbatan 1,9 baravarga ko‘pdir. Shu yili turizm xizmatlari eksporti 1,6 milliard dollarga yetib, 2017-yildagi 531 million dollarlik ko‘rsatkichdan uch baravarga oshdi.

2023-yilda esa sayyohlar soni rekord darajada oshib, 7 million nafarga yaqin chet ellik fuqarolar O‘zbekistonga turistik maqsadlarda tashrif buyurdi. Ularning mamlakatda qolish muddati o‘rtacha to‘rt kungacha uzaygan bo‘lib, bu 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga ortiqdir. 2024-yilning dastlabki olti oyida esa 3,5 milliondan ortiq chet el fuqarosi mamlakatimizga tashrif buyurdi. Ushbu raqamlar O‘zbekistonning jahon turizm bozoridagi o‘rni tobora mustahkamlanib borayotganini va yashil turizmning iqtisodiyotga sezilarli foyda keltirayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Ayniqsa, bu soha orqali mahalliy aholi bandligi oshmoqda, infratuzilma rivojlanmoqda va ekologik muvozanatni saqlashga e’tibor kuchaymoqda.

Yashil turizmni rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari keltirib o‘tsak, O‘zbekistonda yashil turizmni keng rivojlantirish yo‘lida bir qator tizimli muammolar mavjud. Ular iqtisodiy, tashkiliy, infratuzilmaviy va kadrlar bilan bog‘liq omillarni o‘z ichiga oladi. Bu masalalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida o‘rta istiqbolda turizmni rivojlantirish bo‘yicha Kontseptsiyasini hayotga tatbiq etish choralari to‘g‘risida”gi qarori loyihasida ham batafsil yoritib o‘tilgan.

Milliy turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini pasaytiruvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: yashash va aviaparvozlar uchun yuqori narxlar, xizmat ko‘rsatish (servis) darajasining pastligi, muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmaning nomukammalligi. Shuningdek, mamlakatda qulay sayyohlik axborot tizimi — navigatsiya va turistik axborot markazlarining yetarli emasligi ham sohaning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda[84].

Bundan tashqari, malakali kadrlar tanqisligi, O‘zbekistonning xalqaro turizm bozorida yetarli darajada targ‘ib qilinmayotgani, reklama kampaniyalarining sustligi ham muhim muammolardan biridir. Sayyohlar uchun ma’muriy va iqtisodiy to‘siqlarning mavjudligi, viza jarayonlarining murakkabligi, shuningdek, turizm faoliyatini litsenziyalash va sertifikatlashdagi byurokratik tartiblar ham sohaga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy hududlarni muhofaza qilish va turizm faoliyatining atrof-muhitga zarar yetkazmasligini nazorat qilish masalalari ham dolzarbdir. Shu sababli, hukumat tomonidan barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yashil turizm konsepsiyasini amaliyotga joriy etish zarurati tug‘ilmoqda. (1-jadval)

Tadqiqotchi N.Rasulova tomonidan xalqaro yashil turizm sertifikatlari o‘rganilgan. Yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotlar, barqaror rivojlanish tamoyillari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston kabi iqlim o‘zgarishidan sezilarli

[84] Raximova Dilfuza Mirzakasimovna O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo‘llari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2025-yil, aprel. № 4-son.

darajada ta’sirlanadigan mamlakatlar uchun bu yondashuv nafaqat turizmni rivojlantirish, balki tabiiy muhitni saqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun strategik ahamiyatga ega[85].

**1-jadval**

**Yashil turizm sertifikatlari[86]**

| **Sertikatlash tizimi nomi** | **Tavsifi** |
|---|---|
| Xalqaro barqaror turizm kengashi | Xalqaro barqaror turizm kengashi har qanday turistik yo‘nalish intilishi lozim bo‘lgan minimal mezonlar to‘plami bo‘lib, mezonlar barqaror boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlar, madaniy ta’sirlar va atrof-muhitga ta’sirlarni baholashdan iborat. |
| Green Globe certification | Los-Anjelesda (Kaliforniya) joylashgan va Meksika, Janubiy Amerika, Janubiy Afrika, Yaqin Sharq, Karib dengizi va Yevropadagi hamkorlari bilan Green Globe sertifikati sayohat va sayyohlik kompaniyalari va ularga tegishli yetkazib beruvchi korxonalarning barqaror faoliyati va boshqaruvi uchun sertifikat beradi. |
| ISO 14001 | ISO 14001 sertifikati uglerod izlarini minimallashtirish, va atrof-muhit maqsadlarini boshqarishni baholaydi. |
| ISO 46001 | ISO 46001 sertifikati suvdan foydalanish samaradorligini boshqarishni baholaydi. |
| ISO 50001 | ISO 50001 sertifikati energiyani boshqarish tizimlariga qaratilgan va energiyadan foydalanishni yaxshilashni baholaydi. |

“Turizmning o‘sish sur’atini va iqtisodiyotning boshqa sohalari hamda aholi farovonligi o‘sishiga ijobiy ta’sirini inobatga olgan holda, turizm sohasi mamlakat taraqqiyotining barqaror o‘sishida eng kuchli vositalardan biri bo‘lishi kerak”.

Demak, yashil turizmni rivojlantirish uchun eng avvalo infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirish, ekologik me’yorlarga amal qilish, xalqaro targ‘ibotni kuchaytirish va professional kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur.

Viloyatlar kesimida O‘zbekistonda turizm holati va ekologik muammolar quyidagilardan iborat. O‘zbekiston hududida turizmning rivojlanishi viloyatlar kesimida ham turlicha kechmoqda. Ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik muammolar bilan mashhur. Oral dengizi qurib borishi hududdagi qishloq xo‘jaligi va baliqchilik sohalariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, yashil turizm orqali bu muammolarga yechim topish imkoniyati mavjud.

O‘zbekistonda ekologik muammolarni hal etish masalasi yuqori darajada e’tiborga olinadi. Ikkala prezidentimiz ham BMT va xalqaro maydonlarda ushbu masalani ko‘tarib, xalqaro yordam va hamkorlik orqali yechim topish zarurligini

[85] Rasulova N.Yu. O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz 2023-yil, iyul. № 7-son.54-57-betlar.

[86] Rasulova N.Yu. O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz 2023-yil, iyul. № 7-son.54-57-betlar.

ta’kidlagan. Bu O‘zbekistonning xalqaro miqyosda ekologik muammolarga barqaror yondashayotganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, boshqa viloyatlarda ham turizm rivojlanmoqda. Masalan, Samarqand viloyatidagi Registon maydoni va Buxoro viloyati sayyohlar uchun eng mashhur maskanlar hisoblanadi. Bu hududlar ichki va tashqi turizm uchun qulay sharoitlar yaratgan, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyitilgan. Qashqadaryo viloyatidagi tog‘ va sanatoriya hududlari ham sayyohlar orasida mashhur bo‘lib, ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Hududiy misollar O‘zbekiston turizmining istiqbollari va imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Viloyatlar kesimida turizmni rivojlantirish orqali nafaqat mahalliy iqtisodiyot va ish o‘rinlari rivojlanadi, balki ekologik muammolarni hal etish, xalqaro sayyohlar oqimini oshirish va madaniy merosni saqlash imkoniyati yaratiladi.

Mamlakatimizda yashil turizmni rivojlantirishda qator istiqbollar va imkoniyatlar mavjud. O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishda katta istiqbollar mavjud. Turizm sohasidan oqilona va samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu nafaqat iqtisodiy daromadni oshirish, balki milliy madaniyatni targ‘ib qilish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi.

Mamlakatning geografik jihatdan o‘ziga xos tabiiy maskanlari — tog‘lar, vodiylar, sohil zonalari — hamda qadimiy madaniy merosi ekologik va madaniy turizmni rivojlantirish uchun kuchli baza hisoblanadi. Ichki turizmni kengaytirish va mahalliy aholini jalb qilish orqali yashil turizmni rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro sayyohlar oqimini ko‘paytirish va yangi bozorlarni yo‘lga qo‘yish imkoniyati mavjud. Masalan, 2024-yilda Xitoydan keluvchi sayyohlar soni 75 foizga oshgani qayd etilgan[87].

Turizm infratuzilmasini kengaytirish istiqboldagi muhim omil bo‘lib, yangi mehmonxonalar, hostellar, turizm xizmatlari va axborot markazlari tashkil etilmoqda. Turizmning iqtisodiyotga integratsiyasi esa daromadni oshirish, ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy biznesni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda turizm sohasida sezilarli yutuqlar ham qayd etilgan. 2024-yilda xorijiy sayyohlar soni 8,2 millionni tashkil qilgan va 2023-yilga nisbatan oshgan. Shu yil mobaynida turizm xizmatlari orqali 3,5 milliard dollarga yaqin daromad olingan. Xalqaro bozorlardan keluvchi sayyohlar tarkibi diversifikatsiyalashgan bo‘lib, Yevropa va Osiyodan keluvchilar soni oshmoqda. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasi kengayib, ko‘plab yangi mehmonxonalar va turistik obyektlar ochilgan.

Shunday qilib, O‘zbekistonning yashil turizm sohasidagi istiqbollari va imkoniyatlari mamlakat iqtisodiyoti, madaniyati va xalqaro obro‘sini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Turizm sohasini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik, madaniy va ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin.

Misol uchun, O‘zbekistonda 2025-yil aprel oyida bir oy ichida bir milliondan ortiq chet el sayyohlar tashrif buyurgani qayd etilgan.  2025-yilning yanvar–may

[87] https://uz24.uz/axborot portali

oylarida esa mamlakatga kelgan xorijiy sayyohlar soni 4,2 millionni tashkil etib, bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 48,2 %ga ko‘p bo‘lgan [88]

Shuningdek, siyosiy barqarorlik va xavfsiz sayohat muhitining mavjudligi sayyohlarning mamlakatga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat turizm sohasiga talabni oshirishga, investitsiyalarni jalb qilishga va mahalliy turizm xizmatlari sifatini rivojlantirishga olib keladi. O‘zbekistonda tinchlik va siyosiy ochiqlik sayyohlik sanoatini qo‘llab-quvvatlashda asosiy omillardan biri bo‘lib, turizm sektorida erishilgan jadal o‘sish va istiqbollar bunga yaqqol misoldir.

**Xulosa va takliflar**

O‘zbekistonning turizm sohasi nafaqat iqtisodiy rivojlanishning muhim omili, balki madaniy, ekologik va diplomatik aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida ham ahamiyatga ega. Yashil turizmni rivojlantirish orqali nafaqat viloyatlarning tabiiy va tarixiy resurslari saqlanadi, balki mahalliy aholi uchun ish o‘rinlari yaratilib, hudud iqtisodiyoti mustahkamlanadi.

Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax kabi viloyatlarning tarixiy va tabiiy maskanlari O‘zbekistonning turizm salohiyatini oshiradi. Tinchlik, barqaror siyosiy muhit va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan turizm strategiyalari bu sohani yanada rivojlantirishga, iqtisodiyotga yangi daromadlar keltirishga, hamda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sini oshirishga imkon yaratadi. Shu bois, yashil turizmni rivojlantirish nafaqat ekologik va iqtisodiy manfaatlarni ta’minlaydi, balki mamlakatimizning barqaror va sifatli rivojlanishida eng muhim vositalardan biri bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.

3. Raximova Dilfuza Mirzakasimovna O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo‘llari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2025-yil, aprel. № 4-son.

4.N. Yu. Rasulova. Research models of green tourism development. American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 31, August 2024, Pages 70-74.

5. Rasulova N.Yu. O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz 2023-yil, iyul. № 7-son.54-57-betlar.

[88] https://president.uz/axborot portali

5. https://president.uz/
6. https://uz24.uz/
7. https://kun.uz/
8. https://cedr.uz/turizmni-rivojlantirish-istiqbollari/

## YASHIL TURIZMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BILAN UYG‘UNLIGI

**Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna**
*TDIU, Turizm va mehmonxona biznesi kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD*

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda yashil turizmni tashkil etishning asosiy jihatlari va uning hunarmandchilik mahsulotlari bilan uyg‘unligi ilmiy tahlil etilgan. Yashil turizm barqaror rivojlanish, ekologik muhofaza, mahalliy aholining farovonligini oshirish hamda madaniy merosni saqlashga xizmat qiluvchi turizm turi sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda tahliliy, taqqoslash va amaliy kuzatish metodlari qo‘llanilgan. Natijalar hunarmandchilik mahsulotlarini yashil turizmga integratsiya qilish orqali ekologik barqarorlikni mustahkamlash, hududiy brendlarni rivojlantirish va turistlar uchun interaktiv tajriba yaratish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston tajribasi asosida yashil turizm va hunarmandchilik uyg‘unligining iqtisodiy hamda madaniy afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, ekoturizm, hunarmandchilik, barqaror rivojlanish, madaniy meros, qishloq turizmi, ekologik barqarorlik, hududiy brend.

### Kirish

So‘nggi yillarda turizmning barqaror shakllari jadal rivojlanib bormoqda. Ulardan biri - yashil turizm (ekoturizm) bo‘lib, u atrof-muhitni muhofaza qilish, mahalliy aholining iqtisodiy daromadini oshirish va madaniy merosni asrashga qaratilgan. Yashil turizm, asosan, tabiiy resurslarga boy hududlarda, qishloq joylarda shakllanadi. Shu bilan birga, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini turizm jarayoniga qo‘shish orqali turistlarga yanada boy madaniy tajriba taqdim etish mumkin. Hunarmandchilik - xalqning asrlar davomida shakllangan madaniy merosi bo‘lib, uni yashil turizm bilan uyg‘unlashtirish ekologik va ijtimoiy jihatdan samarali hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahliliy yondashuv – yashil turizmning nazariy asoslari va uning xalqaro tajribasi o‘rganildi.

Taqqoslash metodi – turizmda ekologik barqarorlik va hunarmandchilikning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi.

Amaliy kuzatish – O‘zbekistondagi qishloq turizmi rivojlanayotgan hududlarda hunarmandchilik faoliyati misol qilib olindi (kulolchilik – Rishton, gilamchilik – Xorazm, yog‘och o‘ymakorligi – Buxoro).

Sotsiologik yondashuv – turistlarning hunarmandchilik mahsulotlariga qiziqishi haqidagi so‘rovnoma ma’lumotlari umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalari yashil turizmni hunarmandchilik bilan uyg‘unlashtirish bir qator ijobiy samaralarni keltirib chiqarishini ko‘rsatdi:

Ekologik barqarorlik – hunarmandlar ko‘pincha tabiiy va qayta tiklanuvchi materiallardan foydalanadi (loy, yog‘och, paxta, jun), bu yashil turizm tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Mahalliy iqtisodiy o‘sish – turistlarning hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabi qishloq joylarda qo‘shimcha daromad manbai yaratmoqda. Masalan, Xorazmda gilamchilik festivali davomida turistlarning xarid hajmi 25% ga oshgani kuzatilgan.

Madaniy merosni targ‘ib qilish – yashil turizm doirasida hunarmandchilik mahsulotlarini namoyish qilish milliy qadriyatlarni asrash va yosh avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

Interaktiv tajribalar – turistlar hunarmandlar bilan birgalikda sopol buyum yasash, gilam to‘qish, taqinchoq tayyorlash jarayonida ishtirok etishi orqali o‘ziga xos madaniy taassurotga ega bo‘ladi.

Hududiy brend yaratish – yashil turizm va hunarmandchilik uyg‘unligi asosida “ekofestival”, “hunarmandchilik yarmarkasi” kabi brend loyihalar tashkil etilishi mumkin.

Muhokama davomida shuni ta’kidlash lozimki, yashil turizm va hunarmandchilik integratsiyasi O‘zbekistonning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. Xorijiy tajriba tahliliga ko‘ra, Italiya, Yaponiya va Hindiston kabi davlatlarda yashil turizmni mahalliy hunarmandchilik bilan integratsiya qilish orqali hududiy brendlar yaratilgan, ekologik turizm yo‘nalishlari kengaytirilgan va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning daromadi oshirilgan. Ushbu tajribalar O‘zbekiston sharoitida ham qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali modellar sifatida o‘rganildi.

O‘zbekiston uchun o‘tkazilgan SWOT-tahlil natijalari quyidagicha:




**1-rasm. O‘zbekiston sharoitida yashil turizmni mahalliy hunarmandchilik bilan integratsiyaqilishda o‘tkazilgan SWOT-tahlil**

Kuchli tomonlar (Strengths): boy tabiiy va madaniy meros, an’anaviy hunarmandchilik turlari xilma-xilligi, mehmondo‘stlik madaniyati.

Zaif tomonlar (Weaknesses): marketing va raqamli reklama vositalarining yetarli emasligi, ekologik infratuzilmaning ba’zi hududlarda sustligi.

Imkoniyatlar (Opportunities): xalqaro ekoturizm bozori kengayishi, xorijiy grantlar va investitsiyalarni jalb etish imkoniyati, ekologik mahsulotlarga qiziqishning ortishi.

Xavf-xatarlar (Threats): ekologik muvozanatga tahdid soluvchi omillar, mass-turizmning ortishi va hunarmandchilik mahsulotlarining soxta nusxalari tarqalishi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, hunarmandchilik mahsulotlarini yashil turizmga integratsiya qilish ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, hududiy brendlarni rivojlantiradi hamda turistlar uchun interaktiv va madaniy jihatdan boy tajriba yaratadi. Tezis yakunida O‘zbekiston uchun xorijiy tajribalarga asoslangan tavsiyalar va istiqbolli yo‘nalishlar taklif etilgan.

Yashil turizmni hunarmandchilik mahsulotlari bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekiston turizm salohiyatini kengaytirishning muhim yo‘nalishidir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon:

- ekologik barqarorlikni ta’minlaydi;
- mahalliy aholining daromadini oshiradi;
- milliy qadriyatlarni targ‘ib qiladi;
- turistlarga interaktiv tajriba yaratadi;
- hududiy brend shakllanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, yashil turizm va hunarmandchilikni birgalikda rivojlantirish orqali O‘zbekiston nafaqat ekologik barqaror turizmni qo‘llab-quvvatlaydi, balki xalqaro miqyosda milliy madaniyatni ham keng targ‘ib etadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Gulamdjanovna X. M. Turizm tarmog ‘ida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining o ‘ziga xos xususiyatlari //Journal Of Economy, Tourism And Service. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 107-112.

2. Xushnazarova M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni iqtisodiy rivojlantirishda hunarmandchilikning o‘rni //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 4.

## Yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari

**Rasulova Nigora Yusupovna,**
*TDIU, “Turizm va mehmonxona biznesi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy va uslubiy asoslari barqaror o‘sishning ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini birlashtirishga asoslangan holda tadqiq etilgan. Yashil turizm mas’uliyatli

sayohat shakli sifatida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash va atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni minimallashtirishga urg‘u beradi, shu bilan birga mahalliy aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar beradi. Uslubiy jihatdan uning rivojlanishi atrof-muhit fani, mintaqaviy rejalashtirish, iqtisodiyot, sotsiologiya va madaniyatshunoslikni birlashtirgan fanlararo yondashuvlar bilan sinergetik tadqiqotlarni olib borish zaruratini keltirib chiqaradi. Bunda asosiy tamoyillar ekotizimga asoslangan boshqaruv, manfaatdor tomonlar ishtiroki, jamoatchilikka yo‘naltirilgan tashabbuslar va turizm infratuzilmasi hamda turizm xizmatlarida ekostandartlarni qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Yashil turizmni samarali amalga oshirish uchun siyosatni tartibga solish, ta’lim dasturlari, ekotexnologiyalardagi innovatsiyalar hamda hukumat, biznes va mahalliy hamjamiyat o‘rtasidagi faol hamkorlikning strategik uyg‘unligini taqozo etadi. Shunday qilib, yashil turizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy imkoniyat, balki global barqaror rivojlanishga muhim hissadir.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, yashil rivojlanish, yashil turizm modellari, biologik xilma-xillikni saqlash, CO2, issiqxona gazlari, barqaror rivojlanish, Ekologik Kuznes modeli.

## Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan mas’uliyatli foydalanishga bo‘lgan g‘amxo‘rlik ekoturizm yoki barqaror turizm deb ham ataladigan yashil turizmga qiziqishni kuchaytirdi. Ko‘pincha ekologik tanazzulga va madaniyatlaro farqlarni bartaraf etishga olib keladigan ommaviy turizmdan farqli o‘laroq, yashil turizm inson faoliyati, mahalliy jamoalar va tabiiy muhit o‘rtasidagi uyg‘unlikni targ‘ib qiladi. U mezbon mintaqalar uchun tabiatni muhofaza qilish, madaniy saqlash va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni qo‘llab-quvvatlash bilan birga salbiy ta’sirlarni minimallashtirishga intiladi.

Yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari uning samaradorligini ta’minlash uchun zarur nazariy va amaliy vositalarni taqdim etadi. Akademik nuqtai nazardan, yashil turizm barqaror sayohat uchun yaxlit asos yaratish uchun ekologiya, geografiya, sotsiologiya va iqtisod kabi fanlardan foydalanadi. Uslubiy jihatdan u turizmning ta’sirini baholashga yordam beradigan va ekologik toza amaliyotlarni amalga oshirishga rahbarlik qiluvchi rejalashtirish modellari, monitoring tizimlari va barqarorlik ko‘rsatkichlariga tayanadi.

Ushbu asoslarni o‘rganish nafaqat barqaror turizm siyosatini shakllantirish, balki sayohatchilarning ekologik xabardorligini oshirish va mahalliy hamjamiyatlarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun ham muhimdir. Ilmiy bilimlarni amaliy strategiyalar bilan uyg‘unlashtirib, yashil turizm iqtisodiy rivojlanishni ekologik mas’uliyat bilan muvozanatlash, kelajak avlodlar uchun tabiiy va madaniy boyliklarni saqlab qolish uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekistonda 2019-2030-yillarga mo‘ljallangan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (PQ-4477-son qaror) iqlim o‘zgarishi sharoitida yashil turizmni rivojlantirish uchun huquqiy va ilmiy asos yaratadi. Strategiyada tabiiy resurslardan

samarali foydalanish, ekotizimlarni asrash va iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish kabi vazifalar belgilangan. Masalan, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirish orqali cho‘llanishga qarshi kurashish va mahalliy aholi hayotini yaxshilash choralari ko‘rilmoqda. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish O’zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. [2]

Yashil turizmni dastlabki rivojlanish bosqichida turizm faoliyati bilan bog‘liq avia transport va boshqa transport vositalaridan foydalanishda karbonat angidrid $CO_2$ issiqxona gazlari tashlanmalari ulushini keskin ortishiga sabab bo‘lishi va mehmonxona ximatlarini ko‘rsatilishi bilan bog‘liq holda elektr energiyasini meyordan ortiqcha iste’mol qilinishi ham elektr ishlab chiaruvchi korxonalar tomonidan ko‘mir va tabiiy gaz yoqish hisobiga karbonat angidrid $CO_2$ issiqxona gazlari tashlanmalari ulushini keskin ortishiga olib kelishi, shuningdek mehmonxonalar faoliyatida haddan tashqari ortiqcha suv resusrslari iste’moli atrof-muhitga salbiy ta’sirini tadqiq etishda ko‘plab tadqiqotchilar ***ekologik Kuznets egri chizig‘i*** (EKC) ilmiy gepotezasidan foydalanib kelishmoqda.

**Adabiyotlar sharhi**

Iqtisodiy adabiyotlarda yashil turizmni rivojlantirishda issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini aniqlash uslubiyati qator iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha izohlangan va ulrani pasaytirish usullari taklif etilgan.

Professor S.R. Safayevaning ta’kidlashicha: Har yili global miqyosda ishlab chiqariladigan $CO_2$ chiqindisining 5 foizi turizm sektoridagi transport, qurilish, ovqatlanish tarmog‘i, yer o‘zlashtirish amaliyoti va hokazolarga to‘g‘ri keladi. O‘z navbatida, bu ko‘rsatkichning 2 foizini bevosita mehmonxona biznesi tashkil etadi. Dunyodagi ekologik barqarorlikni ta’minlashda asosiy hujjatlardan biri bo‘lgan Parij kelishuviga ko‘ra, 2030 yilga qadar $CO_2$ chiqindisini 50 foiz, 2050 yilgacha esa 100 foizgacha qisqartirish ko’zda tutilgan. Keng ko‘lamli bu maqsadni ro‘yobga chiqarishda mehmonxona sektori ham faol ishtirok etishi lozim[3].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.Kuziboev, U.Matyakubov singari mamlakatimiz olimlari yashil turizmni rivojlantirishda issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini aniqlash uslubiyatini ishlab chiqishga oid bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqishga munosib hissa qo‘shdilar[4].

So‘nggi o‘n yilliklarda ekologik muammolar va global isish, iqlim o‘zgarishi, issiqxona gazlari chiqindilari va ifloslanish, asosan, energiya va suvni haddan tashqari iste’mol qilish va tabiiy resurslarni suiiste’mol qilish natijasida atrof-muhitga uglerod chiqindilarining haddan tashqari ko‘p miqdorda chiqarilishi tufayli global darajada jiddiy muammolarga aylandi[5].

Yashil turizmning barqarorligi uning ekologik foydalari tufayli turli manfaatdor tomonlarning ko‘proq e’tiborini tortmoqda. Biroq, yashil turizmning barqarorligi va uning yashil muhitga erishishga ta’siri bo‘yicha sayyohlarning xulq-atvori bo‘yicha empirik tadqiqotlar, ayniqsa O‘zbekiston respublikasida to‘liq o‘rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon, mantiqiy va iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, taqqoslash, statistik ma’lumotlarni guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya usullardan foydalanilgan.

O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishda turizmni rivojlantirish va yashil rivojlanish samaradorligi omillari o‘rtasidagi bog‘liqlik ta’sirini panel vector autoregressive model va Super-EBM modellar vositasida modifikatsiyalashgan barqaror o‘sishga ta’sirini baholash modellardan foydalanish orqali 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan asosiy faoliyatining prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**Tahlil va natijalar**

Jahonda global darajada keskin iqlim o‘zgarishlari natijasida yashil turizmning ahamiyati jadal tarzda oshib bormoqda. Xalqaro darajadagi tadqiqotlar, jumladan Booking.com saytining yangi sayohat hisoboti shuni ko‘rsatdiki, “Taxminan 76 foizi sayohatchilar keyingi 12 oy ichida yashil yo‘lda sayohat qilishni xohlaydi. Taxminan 81% odamlar atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish uchun sayohat qilish xatti-harakatlarini o‘zgartirishga tayyor. Sayohatchilarning yarmidan ko‘pi (60%) atrof-muhitni muhofaza qilishni birinchi o‘ringa qo‘ygan turizm industriyasi korxonalariga ko‘proq pul to‘lashga tayyor ekanliklarini bildirishgan. Xodimlarning taxminan 70% korporativ sayohatlar bo‘yicha o‘z tashkilotining yashil siyosatidan xabardor emas[6]. Bundan ko‘rinadiki, bugungi kunda jahon miqyosida yashil turizmni rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etish masalalari o‘zining dolzarbligini namoyon etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son qaroriga 1-ilova “Tabiatga sayohat” ekoturizmni rivojlantirish milliy dasturining 32-bandida “Yashil sayohat” (Green travel) milliy standart va sertifikatlash tizimini yaratish nazarda tutilgan bo‘lib, bunda, joylashtirish vositalari, shu jumladan, muhofaza etiladigan hududlarda barpo etiladigan mehmonxona (kemping, glemping, ekouylar, o‘tovlar va b.), hunarmandchilik mahsulotlari, ovqatlanish va chakana savdo, osma dor yo‘llari va boshqa turdagi turistik obyektlarni faqatgina ekologik toza hamda qayta ishlanadigan materiallardan barpo etishga qo‘yiladigan talablarni belgilash vazifalari qo‘yilgan. Mazkur jarayonlarni amalga oshirish shakli sifatida milliy standart va sertifikatlash tartibi belgilab berilgan.

Ekologik sertifikatlanganlikning mavjudligi mehmonxona biznesi korxonasining imijiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, kuchli marketingli «yashil» vosita

bo‘lib hisoblanadi va mehmonlarning sodiqligini oshirishga xizmat qiladi. Buning sharofati o‘laroq, turoperatorlar va sayyohlar hamkorlik qilish uchun ko‘pincha aynan shunday mehmonxonalarni tanlay boshlaydilar, bu esa qo‘shimcha foyda olishga yordam beradi.

2025-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarorida O‘zbekiston Respublikasida “Yashil turizm” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy yenergotejamkor texnologiyalarni keng qo‘llash orqali iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish vazifalar “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari sifatida belgilab berildi.

O‘zbekistonda turizmning barcha yo‘nalishlari, jumladan, barqaror turizm jadal rivojlanmoqda. Barqaror turizmning asosiy tamoyili tabiat va mahalliy jamoalar manfaati uchun ongli ravishda sayohat qilishdir. Bu tushuncha butun dunyo uchun dolzarb bo‘lib, O‘zbekistonda ham tobora rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonda “Markaziy Osiyoda barqaror turizm modeli: salohiyatni yaratish, xabardorlikni oshirish, texnologiyalarni joriy etish” loyihasi a’zosi hisoblanadi. Markaziy Osiyoda barqaror turizm modeli: salohiyatni yaratish, xabardorlikni oshirish, texnologiyalarni joriy etish” loyihasi doirasida barqaror marketing bo‘yicha, barqaror turizm uchun mezonlari va raqobatbardoshlikni oshirish uchun yashil xaridlar qilish to‘g‘risida seminar-treninglar o‘tkazishni nazarda tutadi va natijada ishtirokchilarni sertifikatlashtirish bo‘yicha tayyorlashda quyidagi standartlarga e’tibor qaratiladi:

ISO 14001: 2015 (Ekologik menejment tizimi);

mehmonxona sanoati uchun mo‘ljallangan metodologiya va vositalar to‘plami;

korporativ ijtimoiy javobgarlik.

**2-jadval**

**Yashil turizm sertifikatlari**[89]

| **Sertikatlash tizimi nomi** | **Tavsifi** |
|---|---|
| Xalqaro barqaror turizm kengashi | Xalqaro barqaror turizm kengashi har qanday turistik yo‘nalish intilishi lozim bo‘lgan minimal mezonlar to‘plami bo‘lib, mezonlar barqaror boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlar, madaniy ta’sirlar va atrof-muhitga ta’sirlarni baholashdan iborat. |
| Green Globe certification | Los-Anjelesda (Kaliforniya) joylashgan va Meksika, Janubiy Amerika, Janubiy Afrika, Yaqin Sharq, Karib dengizi va Yevropadagi hamkorlari bilan Green Globe sertifikati sayohat va sayyohlik kompaniyalari va ularga tegishli yetkazib beruvchi korxonalarning barqaror faoliyati va boshqaruvi uchun sertifikat beradi. |

[89] Tadqiqot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

| | |
|---|---|
| ISO 14001 | ISO 14001 sertifikati uglerod izlarini minimallashtirish, va atrof-muhit maqsadlarini boshqarishni baholaydi. |
| ISO 46001 | ISO 46001 sertifikati suvdan foydalanish samaradorligini boshqarishni baholaydi. |
| ISO 50001 | ISO 50001 sertifikati energiyani boshqarish tizimlariga qaratilgan va energiyadan foydalanishni yaxshilashni baholaydi. |

Turizm bilan bog‘liq transport energiyasi iste’moli avtobus, temir yo‘l transporti, avtomobil, turli xil energiya intensivligiga ega bo‘lgan samolyotlar va kruiz kemalari kabi transport turlari bilan bog‘liq.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm industriyasi ham sanoat korxonalari singari atrof-muhitni ifloslantiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Turizm bilan bog‘liq faoliyat uglerod emissiyasini kuchaytiradi va ular atrof-muhitga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Samolyot reyslari va boshqa turizm xizmatlari turizmning uglerod izining oshishiga olib keladi. Sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan turistlar soni ko‘paygan sari turizmning atrof-muhitga ta’siri ham ortadi. Yashil turizmni dastlabki rivojlanish bosqichida turizm faoliyati bilan bog‘liq avia transport va boshqa transport vositalaridan foydalanishda karbonat angidrid $CO_2$ issiqxona gazlari tashlanmalari ulushini keskin ortishiga sabab bo‘lishi va mehmonxona ximatlarini ko‘rsatilishi bilan bog‘liq holda elektr energiyasini meyordan ortiqcha iste’mol qilinishi ham elektr ishlab chiaruvchi korxonalar tomonidan ko‘mir va tabiiy gaz yoqish hisobiga karbonat angidrid $CO_2$ issiqxona gazlari tashlanmalari ulushini keskin ortishiga olib kelishi, shuningdek mehmonxonalar faoliyatida haddan tashqari ortiqcha suv resusrslari iste’moli atrof-muhitga salbiy ta’sirini tadqiq etishda ko‘plab tadqiqotchilar ekologik Kuznets egri chizig‘i (EKC) ilmiy gepotezasidan foydalanib kelishmoqda.

Energiya koeffitsienti $CO_2$ bilan ijobiy bog‘liq bo‘lib, tadqiqotlarimiz jarayonida energiya iste’moli atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish ko‘rsatkichlarini o‘zgartirishda energiya iste’moli, havoning ifloslanishi, sog‘liqni saqlash xarajatlari va iqtisodiy o‘sish kabi omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Energiya iste’moli va $CO_2$ emissiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik ham ijobiy va muhim hisoblanadi. Turizm koeffisienti turistlarning kelishi atrof-muhitni sezilarli darajada ifloslantirayotganini tasdiqlaydi.

**Xulosa**

Yashil turizmni rivojlantirishda issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini aniqlash uslubiyatini ishlab chiqishga oid tadqiqot natijasi quyidagi xulosalarni shakllantirish, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi:

1.Yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotlar, barqaror rivojlanish tamoyillari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi.

2. O‘zbekiston kabi iqlim o‘zgarishidan sezilarli darajada ta’sirlanadigan mamlakatlar uchun bu yondashuv nafaqat turizmni rivojlantirish, balki tabiiy muhitni saqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun strategik ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.

3. S.R.Safayeva. “Turizmni “Yashillashtirish” Bu nima uchun kerak va qanday bajariladi?” “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2024-yil 15-may № 93 soni.

4. Kuziboev B., Saidmamatov O., Khodjaniyazov E., Marty P., Ibragimov J., Davron Ruzmetov D., Matyakubov U., Lyulina E., Ibadullaev D. CO2 Emissions, Remittances, Energy Intensity and Economic Development: The Evidence from Central Asia. Economies 12: 95. 2024.

5. N. Yu. Rasulova. Research models of green tourism development. American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 31, August 2024, Pages 70-74.

6. https://globalnews.booking.com/download/31767dc7-3d6a-4108-9900-ab5d11e0a808/booking.com-sustainable-travel-report2023.pdf

## Ecological certification as a way to increase the competitiveness of hotels and develop pilgrimage tourism

**Rahimova Dilfuza Mirzakasimovna**
*Senior lecturer of the Department of Tourism and hotel business, TSUE*

**Abstract.** Nowadays, globalization processes have affected all areas of the world economy, including the global market of hotel services, which has undergone significant changes since the second half of the 20th century, which is largely determined by the emergence and implementation of various innovations, one of which is the improvement of the activities of eco-hotels. In some countries, over the past decade, a new direction has begun to be created, which is called eco-hotels, as a modern innovative direction in the field of hotel business, becoming the concept of the activities of eco-hotels. The creation and development of eco-friendly hotels is a new trend in the activities of the hotel industry. The introduction of green guest

ecologization of hotel activities will help increase their tourist attractiveness and give competitive advantages in the world tourism market

**Keywords:** hotel business, electronic catalogs, environmental technologies, marketing, environmental friendliness, environmental labeling

## Introduction

Any activity related to environmental certificates is carried out with the aim of ensuring safety. This is a serious incentive from the point of view of production and the introduction of technologies to ensure the safety of products and processes within the framework of Health, life, property and the space in which a person lives. The environmental certification system includes the following types of objects: environmental elements (components and resources); sources of pollution (production processes, production); products in the field of Environmental Protection; Information Resources (database, models, programs).

An environmental certificate is a document issued by an environmental certification organization of Natural Resources, which indicates that the product is environmentally friendly and that the object of environmental certification meets the requirements and norms of current regulatory documents or regulatory legal acts. Environmental certification is used to achieve a specific goal. It encourages development and improvement of production. In particular, the State Unitary Enterprise "State Center for environmental certification and standardization" under the state committee for Ecology and Environmental Protection of the Republic of Uzbekistan was established in accordance with the decree of the president of the Republic of Uzbekistan No. 2915 of April 21, 2017 "On measures to ensure the organization of activities of the state committee for Ecology and Environmental Protection of the Republic of Uzbekistan". In its activities, the center adheres to the Constitution of the Republic of Uzbekistan, laws of the Republic of Uzbekistan, decisions of the chambers of the OECD, decrees, decisions and orders of the president of the Republic of Uzbekistan, decisions and orders of the Cabinet of Ministers of Uzbekistan, decisions and orders of the State Committee of Ecology and Environmental Protection of the Republic of Uzbekistan, The main function of the state environmental examination of Uzbekistan is to determine the compliance of the planned or carried out activities with environmental requirements and determine whether the activities can be carried out. One of the main tasks of environmental expertise is the implementation of measures related to the prevention, elimination of the effects of hazardous and harmful production and economic facilities on the environment and the life and health of the population.

Specialized expert units of the state Ecology committee organize and conduct state environmental expertise, develop and approve regulatory-technical and instructional-methodological documents on state and public environmental expertise. It also provides environmental impact assessment material review and environmental impact assessment conclusions for business entities, prepares information and analytical materials on state environmental expertise, provides methodological assistance in organizing work on environmental impact assessment, analysis and conduct by the state. On March 15, 2023, the law "on Environmental

audit” was signed by Sh. Mirziyoyev the President of Uzbekistan. According to the law, the Environmental audit is conducted on the basis of an agreement between the Environmental Audit organization and the customer of the Environmental audit, which establishes the deadlines for conducting an environmental audit and other conditions. In case of compliance with the requirements of the relevant regulatory legal acts, the activities of the subject of Environmental audit will not be checked by the State Committee for Ecology and environmental protection for a year. An environmental audit can be carried out in a voluntary or mandatory form. In relation to the activities of environmental audit entities with little or no risk of environmental impact (with local impact), an environmental audit is carried out in a voluntary manner.

**Literature analysis on the topic**

The activities of eco-hotels have been analyzed mainly in foreign publishing houses with Alex Conti, O. Cannon, who are currently dealing with the problems of hotel activities and studied by D.Y. Tikhonova author of such a scientific conference A.M. Orlova, R.M. Nizgorodtsev., V. Milinchuk, O. Khamidov, A. Norchaev.

According to Peter Shackleford, regional representative of the World Tourism Organization in Europe, the term “ecotourism” has been used in the tourism industry for more than a decade, but different content is imposed on this concept. In one case, ecotourism is trips to wildlife, ecologically clean places in order to maintain an ecological balance in nature. In another case, the term” ecotourism " is considered as a label of a tourist product that is being offered for sale. The European Union developed Regulation No. 1893/93” on voluntary participation of companies in the system of Environmental Management and classification". In accordance with the methodology of Environmental Management, a tour firm or hotel can conduct or order biased environmental inspections aimed at improving the management of environmental aspects of tourist activities. Galenko Yelena Vasilievna - a candidate of Historical Sciences, Far Eastern Federal University in Vladivostok notes that the text of the scientific work on the topic" analysis of the demand for environmental technologies in the hotel ". Ovcharenko Natalia Petrovna candidate of Sciences of the Far East Federal University, Vladivostok, Ovcharenko Natalia Petrovna candidate of Sciences of the Far East Federal University, Vladivostok, Russian Federation analyzed in her work and gave more attention to the environmental safety awareness of consumers and the interdependence of environmental technologies in hotels.

Candidate of sociology E. V. Pecheritsa believes that ”an environmentally friendly hotel is a hotel that exerts great energy to reduce its environmental impact both on the property and in the rooms". These hotels are often referred to as eco hotels or green hotels. It also believes that " environmental innovations are social programs consisting of new products, technologies and methods of organizing production and new or modified processes, methods, systems, with which the environment improves in various fields and areas of activity, environmental risks, pollution or other negative environmental consequences are reduced. Candidate of

Economic Sciences, Associate Professor N. Yashalova interprets her views as:" environmental innovations include the development and application of resource-saving technologies, the creation of environmentally friendly products, the introduction of new ways of organizing production, for example, environmental management, environmental marketing, etc."

The result of the application of innovations in the use of nature is economic, environmental, social and other influences. This judgment is true, since the positive impact of environmental innovation is manifested in a positive way in all spheres of human life. The idea of environmental innovation appeared relatively recently. The first information about eco-innovation can be found in the book by Claude Fussler and Peter James. Their book" Driving Eco – Innovation: a Breakthrough Discipline for Innovation and Sustainability " was published in 1996. The authors define eco-innovation as "new products and processes that give value to customers and businesses, but significantly reduce their impact on the environment".

Similarly, R. Kemp and P. Pearson defines environmental innovation as "the production, appropriation or use of a new product to organize a product, manufacturing process, service or management method, or entrepreneurial activity, which leads to a reduction in environmental risk, pollution, and other negative effects of resource use throughout life compared to relevant alternatives". Authors V. Oltra and M. Sant Jean defines" green" innovation as "innovation made up of new or modified processes, practices, systems and products that benefit the environment and thus contribute to environmental sustainability"

**Research methodology**

The international program for voluntary environmental certification in the hotel business entered the International Hotel market in 2002. According to this program of Green Key, one of the 5 projects of the international non-governmental independent organization and fund for environmental education, the assessment of environmental indicators of hotel companies is based on 12 basic and 60 secondary criteria developed by the International Committee and includes environmental management, water and energy consumption control, waste management, increasing environmental knowledge among employees and guests, etc. At the beginning of 2018, 2,700 hotels, resorts and camps in 56 countries around the world were covered by Green key certification. Among other most prestigious hotel certification systems as tourist Union International-TUI (Germany), Green Globe (UK), HAS Green Leaf (Canada) should be mentioned. Many hotels around the world are also LEED certified. Today, eco-hotels are becoming more and more popular and open everywhere. The share of eco-hotels in western Europe and the United States does not exceed 20% of the total number of hotels. The first eco-friendly hotel to open in Milan is the four-star Hotel Scala, located in a seven-story mansion built at the end of the 20th century. To control air temperature and hot water supply, the hotel uses a special energy recovery system using renewable sources.

List of ISO 14000 series standards:

ISO 14001 environmental management systems - requirements with instructions for use

ISO 14004 Environmental Management Systems-general guidelines for implementation

ISO 14005 environmental management systems-instructions for a flexible approach to step-by-step implementation

ISO 14006 environmental management systems-Eco design input guide

ISO 14015 Environmental Management-Environmental Assessment of sites and organizations (EASO )

ISO 14020 to 14025 environmental labels and declarations

ISO / NP 14030 green bonds-environmental effectiveness of candidate projects and assets; discusses post-production environmental assessment

ISO 14031 environmental management, environmental performance assessment-guidelines

ISO 14040 to 14049 Environmental Management - Life Cycle Assessment; discusses pre-production planning and setting environmental goals

ISO 14050 Environmental Management

In addition, environmental certification increases the prestige of the company. This process is strictly regulated. Certification is not only a commodity for consumers, but also a system of Environmental Management Organization (SPP). For this reason, we have developed a set of standards developed by an independent examiner company.

The best eco-hotels in the world were opened in Switzerland, the United Kingdom, the Czech Republic and South Africa. A vivid example of this is the hotel companies, which will be discussed later. A large number of foreign hotel chains and hotels introduce the concept of environmental activities, developing various innovative projects to save resources and protect the environment. For example, in Slovakia there is a whole ecological resort “Aqua City”. The entire complex uses solar and wind energy to heat hotels, water parks, resorts, restaurants, bars, fitness halls, etc. The Emirates Valley Resort & Spa, an Australian resort located near Sydney, participates in various environmental protection programs and uses renewable energy.

The Forum Homini hotel in Africa is covered with green roofs that create conditions for maintaining indoor heat during the winter and cooling the interior in the summer, reducing electricity consumption by 75 percent. To obtain Ecolabel about the product, the manufacturer must submit a number of documents. In particular, production, testing protocols sanitary and epidemiological control in passport correctional institutions, samples of products. the procedure consists in the application, signing of environmental friendliness, registration and certification agreement, verification, assessment. it can be suspended if any differences are detected at the time of verification.

If the cancellation of the certificate of production technology of the product is a deterioration, Environmental certification is a specific environmental branding system for hotel companies. Environmental labeling of a hotel facility often demonstrates the commitment of its management to environmental protection values and increases attractiveness to potential customers. Currently available environmental certificates are usually classified according to the following criteria:

1. Coverage area: international (ISO 14001, YEMAS); national ("ANAB" in the European Union); regional ("Blue Angel"in Germany).

2. Object of certification: certification of goods (Yeida"ANAB"); certification of services ("Green Globe", "Blue Flag"); mixed (goods and services) (ISO 14001).

The basis for modern certification systems is the ISO 14001 (YEMS) Environmental Management Standard, adopted by the International Association for Standardization (ISO) in 1991. In addition to ISO 14001, some countries have created their own standards, such as in the UK — BS 7750 specification for environmental management systems, in Canada-can/CSA Z750-94: guidelines for environmental management system, in the European Union — YEMAS. In the last decade, there has been a major change in the field of environmental certification of Hotel Enterprises.

**Analysis and results**

Benefits for hotel business owners:

* improve the business, because the certification process itself devotes to a strong educational value. Most of the certified hotels recognized that one of the most important advantages of the certification process is to educate them about the elements of sustainable business and focus their premium on the details of the business that needs to be changed;

*reduced hotel management and operating costs. Certification in tourism leads to a significant decrease in water, energy and fuel costs without reducing the quality of services (for example, the experience of Russian hotels has shown that competent waste management saves 100 thousand rubles per quarter).;

* marketing advantage for certified hotel businesses because consumers learn to recognize trusted, certified brands. It should be noted that the eco-sign of the hotel is still marketing, not a financial tool, but there is still no single point of view on this issue. According to some sources, the eco-sign of the name of the hotel in Europe already attracts an additional 40% of guests. At the same time, research by the Cornell Center for Hospitality Studies in 2013 will demonstrate a different picture. As part of the study, a Saber booking database for us Hotels was obtained in 2011-2012, containing more than 10.9 thousand hotels, of which 66% did not have an environmental certificate and 34% were environmentally certified residential buildings. An analysis of nearly one million orders from more than 9,000 hotels has shown that advertising for environmentally certified hotels does not reduce or increase average hotel booking and booking revenues.

Consumer benefits:

* certification gives tourists the opportunity to make a responsible choice from a social and environmental point of view-it helps consumers to understand which company truly adheres to these principles in its work and make a choice on this basis;

* approved businesses offer good services. Government benefits:

* certification reduces government spending on environmental activities;

* certification can reduce poverty. A worldwide partnership between Hilton and the global Soap Project is a non-profit organization that processes soap from a

hotel that would otherwise end up in a landfill. The Global Soap Project sorts, processes, and produces new bars to distribute used soap to vulnerable populations at risk of disease due to poor sanitation in developing countries.

Benefits for the environment and local communities:

- certification requires hospitality business for Environmental Protection and minimal damage to it,

- certification helps to save natural resources such as water.

Today, there are many environmental certification schemes for hotel enterprises, and each environmental certificate has its own history, but together they cover a huge treasure trove of knowledge and experience in the field of ensuring environmental balance and sustainable business development.

1. From the organization conducting eco-certification procedures:

- public company;

- private;

- public-private companies.

2. From the level of environmental criteria:

- one-level environmental certification;

- multi-level environmental certification (for example: bronze — silver — gold).

3. From the object of certification:

- uniform (apply criteria for several types of placement facilities);

- differentiated (requires only one type of accommodation, only such as camping, etc.).

-4. From regional scope (geographical scope of distribution of ecological certification scheme):

-international - environmental certificate used in different countries of the world in the hotel business: (e.g. green key-44 countries of the world, green tourism-UK, Ireland and Canada, Nordic Swan / Nordic Yecolabel-Sweden, Denmark, Iceland, Finland and Norway, European Union Yekolaba-European countries, etc.);

- local - environmental certificate widely used within the country (e.g. " eco-hotel. Life Leaf-Russia, green hospitality -Ireland, Legambiente Turismo-Italy, Steinbock Label-Switzerland, green Certificate-Latvia, Yecolabel Luxembourg-Luxembourg, Miliyeubarometer-Netherlands, Das Osterreichische Umveltzeichen-Austria, environmental certification of residential services — Republic of Belarus, etc.);

activities within the company in the field of ensuring the environmental sustainable development of a single hotel House that does not provide for eco-certification (e.g. Planet 21 — Accor, Green Engage-Inter Continental Hotels Group).

To obtain an environmental certificate in all environmental certification programs, as a rule, you need to go through the following stages.

1. To obtain one or another eco-marking and become an eco-hotel, it is necessary to familiarize yourself with the standard requirements that the hotel must meet.

2. To obtain one or another eco-marking and become an eco-hotel, it is necessary to familiarize yourself with the standard requirements that the hotel must meet.

3. Assess the level of compliance with the requirements so that the hotel is sure of the possibility of obtaining an eco-certificate.

4. Submit an application for participation in a specific environmental certification program and conclude an agreement for the transfer of an environmental check.

5. prepare and submit a set of documents necessary for certification, which will be studied by eco-program specialists.

6. provide the possibility of a real check of compliance with the criteria for obtaining an eco-certificate (departure of the jacksperts to the hotel).

7. A report is drawn up based on the results of checking the documents provided by the hotel and checking on the spot. You can use reporting materials: in an advertising company, when informing partners, employees and when checking regulatory authorities.

8. Compliance assessment in the hotel business

9. To obtain an eco-certificate that meets the assessment criteria for a certain period of time and in case of the possibility of using the environmental mark of the environmental certification program (usually for an additional subscription fee)..

**Conclusions and suggestions**.

In some programs of voluntary environmental certification of hotels, a hotel can carry out it together with specialists if it cannot determine the degree of readiness for self-certification (pre-audit order). Experts provide comprehensive explanations for each request, assess the current state of the hotel, identify "problem areas" and help determine which requirements from the "additional requirements" section will be assessed to the hotel. If the requirements are not followed, they will help you draw up a step-by-step plan of the necessary changes, as well as provide modern recommendations, taking into account the minimization of financial and time costs for the implementation of planned activities. As a result, the hotel will have the following: a clear understanding of the environmentally friendly level of the hotel, a clear plan of the necessary measures, recommendations for implementation, which will allow you to make an informed decision before starting direct certification work and save strength, time and money. The most well-known certification systems include: Green Key ("Green Key"), YEI Yecolabe ("Yecoznak YEI"), "YEKO-hotel". Leaf of life, Planet 21 (developed by Accor), Green Engage (developed by InterContinental Hotels Group), make green choices (Starwood Hotels & Resorts Worldwide program).

In addition, recently TripAdvisor has created an environmental managers program with the help of international and national environmental industry professionals. The program is entirely open to hotels that adopt voluntary and environmentally friendly practices and are interested in promoting their services through TripAdvisor. Hotels do not pay to participate in this program. The program is currently open to all hotels and B&B/mini-hotels located in the United States as

well as the state of Alaska. TripAdvisor's Environmental Leaders Program identifies hotels and B&B/ mini-hotels committed to environmentally friendly activities such as reuse of materials, efficient use of water and alternative sources of energy, etc. All hotels and B & B/ mini-hotels must apply for and join TripAdvisor's Eco leaders program to receive one of the two statuses:

1.Eco-Partner employees and guests who need to meet the minimum requirements of the program, such as the reuse of towels and bed linen, the use of energy-saving lamps, monitoring the consumption of vest energy, processing and disseminating information about environmental activities.

2. an eco-leader is a company that has reached one of four levels (the higher the effectiveness of eco-activity, the higher it will be) and is given an appropriate logo:

* bronze eco-leader: a company that meets 30% of the minimum requirements and scores based on the results of passing the survey on eco-activities;

* silver eco-leader: a company that meets the minimum requirements and scores 40% according to the survey results;

* Golden eco-leader: a company that meets the minimum requirements and scores 50% according to the survey results;

* platinum eco-leader: a company that meets the minimum requirements and scores more than 60% according to the survey results.

To determine the status of the host company, TripAdvisor must ensure the integrity of the eco leaders program in three ways:

•Transparency, tourists can see a complete list of working methods by clicking on the corresponding Green leader logo or icon in TripAdvisor. This allows travelers to see what environmentally friendly work methods the company is using.;

•reviews of travelers, they can comment on the activities of eco-leaders and eco-partners and leave a message about incorrect information. These reviews are reviewed by TripAdvisor's group in charge of travel experts, with third-party review if necessary.;

* Inspections. TripAdvisor cooperates with Cadmus Group, an independent organization of environmental professionals, to conduct inspections on this program. In addition to inspections based on travelers ' comments, a number of random annual inspections are carried out for participating hotels Based on the above, it can be concluded that the hospitality industry is currently in the process of developing and popularizing the environmental direction. At the same time, there is a successful experience in the use of eco-hotels in the national markets of many countries of the world, which should be an impetus for the further development of this industry on a global scale. In addition, the ecological culture of consumers who are ready to pay extra for an environmentally friendly product is growing, realizing the damage caused to the natural environment by modern technological society, taking care of both themselves and natural ecosystems.

**List of used literature:**

1. Dilfuza Abidova, Sirojiddin Egamberdiev. Iinnovation and technologies in chain hotel industry. Международный журнал культуры и современности.

International Journal Of Culture And Modernity https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/view/497

2. Dilfuza Abidova, Sh. Tursunova. The Concept of Developing Eco-Hotels in the Hotel Business. 2022/12. Журнал https://ijcm.academicjournal.io. Страницы 20-25. Издатель International Journal of Culture and Modernity.

3. A. Tanina, E Konyshev, D Abidova, D Kryzhko. Strategic approaches to the management of sustainable tourism development: the Russian and German experience. International Conference on Tourism Research, 520-XVIII. 2021 y

4. https://www.evkova.org/kursovye-raboty/issledovanie-opyita-primeneniya-ekologicheskih-innovatsij-na-primere-gostinichnogo-predpriyatiya

5. https://uz.traasgpu.com/2018-yilgi-eng-yaxshi-ekologik-sayyohlik-mehmonxonalari/

6. http://www.gov.uz/- Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали;

7.http://www.edu.uz/- Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги;

8.http://www.uzbektourizm.uz/

9. www.lex.uz-Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

10. Д.М. Рахимова. Международный опыт управления экологическим туризмом. 2022/4/10. Журнал Архив научных исследований. https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1626

## O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Shaymanova Nigora Yusupovna**
*TDIU, “Turizm va mehmonxona biznesi” kafedrasi assistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining kam qo‘llanilishi, chiqindilarni boshqarish tizimining sustligi hamda aholining ekologik ong darajasining pastligi asosiy to‘siqlar sifatida qayd etilgan. Xorijiy ilg‘or tajriba tahliliga asoslanib, turizm obyektlarini ekologik sertifikatlash tizimini joriy etish, raqamli boshqaruv vositalari orqali ekologik monitoringni kuchaytirish, mahalliy aholining faol ishtirokini ta’minlash hamda davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarga investitsiyalar jalb qilish muhim yo‘nalishlar sifatida taklif etilgan. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transport, chiqindilarni qayta ishlash va raqamli boshqaruv tizimlarining integratsiyasi orqali turizm sohasida ekologik barqarorlik va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish istiqbollari asoslab berilgan. Maqola natijalari O‘zbekistonni yashil turizm bo‘yicha mintaqaviy yetakchi

markazga aylantirish strategiyasini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, ekologik barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, innovatsion texnologiyalar, raqamli boshqaruv, O‘zbekiston.

## Kirish

XXI asrda turizm sohasining rivojlanishi global ekologik muammolar — iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish kabi tahdidlar fonida kechmoqda. Shu bois, barqaror turizm konsepsiyasining ajralmas bo‘lagi sifatida yashil turizmga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Yashil turizm atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslarni oqilona boshqarish va mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini uyg‘unlashtirishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston geografik joylashuvi, xilma-xil tabiiy landshaftlari, tog‘, cho‘l va ko‘l hududlari, shuningdek, tarixiy-madaniy merosi bilan yashil turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Shu bilan birga, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ushbu yo‘nalishni yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik transport vositalari, raqamli boshqaruv tizimlari va chiqindilarni qayta ishlash mexanizmlarini turizm infratuzilmasiga integratsiyalash yashil turizmni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish, xorijiy ilg‘or tajribani o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## Metodologiya

Ushbu tadqiqotda turizmni barqaror rivojlantirish nazariyasi va yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga tayangan holda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Metodologiya quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi: Tahliliy metod – O‘zbekiston turizm sektorida yashil turizmning hozirgi holati, mavjud infratuzilma va resurslar o‘rganildi. Qiyosiy tahlil – Shveysariya, Kosta-Rika, Yaponiya va Turkiya kabi mamlakatlarning yashil turizm sohasidagi ilg‘or tajribalari tahlil qilindi va ular O‘zbekiston sharoitiga moslashtirildi. Sistemali yondashuv innovatsion texnologiyalarni turizm infratuzilmasi bilan integratsiyalash mexanizmlari ishlab chiqildi. Prognozlash metodi – yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari va innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy hamda ekologik samaralari bashorat qilindi.

## Natijalar

O‘zbekistonda quyosh energiyasi va shamol resurslari mamlakatning geografik joylashuvi hamda iqlim sharoitidan kelib chiqib yuqori darajada baholanadi. Respublikada yil davomida quyosh nuri soatlari sonining ko‘pligi va keng hududlarda shamol tezligining yetarli darajada bo‘lishi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Ushbu resurslarning turizm

infratuzilmasiga integratsiyasi, xususan, ekoturizm obyektlari uchun energiya ta’minotini barqaror va ekologik toza shaklda yo‘lga qo‘yish imkonini yaratadi.

Eko-mehmonxonalar, turistik majmualar va milliy tabiat bog‘larida quyosh panellari, shamol generatorlari hamda boshqa qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etish ikki tomonlama ijobiy samara beradi. Birinchidan, bu iqtisodiy tejamkorlikni ta’minlaydi, ya’ni turistik obyektlarning uzoq muddatli energiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Ikkinchidan, ekologik jihatdan muhim natijaga erishiladi: karbonat angidrid chiqindilarining kamayishi, atrof-muhitga zararli ta’sirning cheklanishi hamda bioxilma-xillikni saqlashga hissa qo‘shiladi.

**1-jadval.**

**Xorijiy davlatlarda eko mehmonxonalar[90]**

| T/r | | |
|---|---|---|
| 1 | Portugaliya (Hotel Rural Vale do Rio) | Mehmonxona energiya ehtiyojlarini 100 % qayta tiklanuvchi manbalardan qoplaydi. Yillik tejamlari: taxminan €70 000 elektr uchun, €120 000 issiqlik ta’minoti uchun. |
| 2 | Daniya (Crowne Plaza Copenhagen Towers) | Daniyada birinchi bo‘lib o‘z faoliyatini to‘liq qayta tiklanuvchi energiya asosida tashkil etgan. Bino fasadiga integratsiyalangan Katta Britaniyaning eng yirik quyosh parklaridan biri, yerosti suvli sovutish va isitish tizimlari orqali energiya talabini qondiradi. |
| 3 | Italiya (Forestis, Dolomit Alpalarida) | $CO_2$-neutral konstruksiya, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan (masalan, yog‘och yonilg‘isi), hamda chiqindisiz (zero-waste) oshxona tizimlari bilan ishlaydi. |
| 4 | Germaniya / Avstriya (Berghotel Rehlegg, Biohotel Grafenast va boshq.) | Berghotel Rehlegg 70 % energiya ehtiyojini o‘zining fotovoltaik tizimidan, qolgan qismini esa yashil elektr energiyasidan qoplaydi. |
| 5 | Shveysariya (Whitepod) | U suvni tejovchi texnologiyalar va yog‘och peletli isitish tizimlaridan foydalanadi. Alp tog‘larida joylashgan bu modul struktura eko-dome (pod) tipidagi mehmonxona oddiy binolarga nisbatan 30 % kam energiya yo‘qotadi |
| 6 | Sloveniya (EcoHotel Koros) | Tabiy materialdan qurilgan, atrof-muhitga mos uy — butun energiya ehtiyojini quyosh energiyasidan qondiradi. Shuningdek, mahalliy jamoat bilan yaqindan ishlaydi. |
| 7 | Irlandiya (The Europe Hotel & Resort, Killarney) | Bu besh yulduzli mehmonxona o‘z elektr energiyasining 100 % qayta tiklanuvchi manbalardan olinishi jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirgan. |

[90] Internet ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Xorijdagi ilg‘or tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiyaga asoslangan turistik obyektlar nafaqat ekologik jihatdan mas’uliyatli, balki iqtisodiy va raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan ham samaralidir. Masalan, Portugaliyadagi Hotel Rural Vale do Rio 100 % qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanib, yillik minglab yevro tejalishiga erishgan. Daniyadagi Crowne Plaza Copenhagen Towers esa binoning fasadiga kiritilgan quyosh paneli tizimi va yerosti suvli sovutish/isitish usullari bilan o‘z elektr ehtiyojlarini yopadi. Italiya va Germaniyadagi ko‘plab eko-mehmonxonalar bu yo‘nalishda turizm sektorining ekologik barqarorlikka o‘tishida rol o‘ynamoqda. Tadqiqotlar shuni tasdiqlashicha, ayrim xorijiy davlatlarda eko-mehmonxonalar qayta tiklanuvchi energiyadan keng foydalanadi va bu ularning xalqaro imijini mustahkamlashga katta hissa qo‘shadi (1-jadval).

Raqamli texnologiyalar, smart-turizm ilovalari, virtual gidlik va onlayn bron tizimlari zamonaviy turizmni rivojlantirishda muhim innovatsion vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat sayyohlar uchun qulaylik yaratadi, balki turistik xizmatlar sifatini oshirish, turistik oqimlarni samarali boshqarish va ekologik monitoringni yo‘lga qo‘yishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, smart-turizm ilovalari orqali sayyohlar o‘z marshrutlarini mustaqil rejalashtirish, ekologik toza transport vositalaridan foydalanish va yashil turizm obyektlari haqida batafsil ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Virtual gidlik xizmatlari esa real vaqt rejimida madaniy, tarixiy va tabiiy ob’ektlar haqida ma’lumot taqdim etib, turistik tajribani yanada boyitadi va ortiqcha transport harakatini kamaytirish orqali ekologik yuklamani pasaytiradi. Onlayn bron tizimlari esa turistik oqimlarni oldindan prognoz qilish, infratuzilmalardan oqilona foydalanish va ortiqcha resurs sarfini cheklash imkonini beradi.Shuningdek, mazkur raqamli yechimlar yordamida turistik hududlarda chiqindilar miqdori, havo sifati yoki tabiiy resurslardan foydalanish darajasi kabi ekologik ko‘rsatkichlarni doimiy monitoring qilish mumkin. Natijada, raqamli texnologiyalar yashil turizmni rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik barqarorlikni ham ta’minlashga xizmat qiladi.

Chiqindilarni boshqarish turizm va ekoturizmni barqaror rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Xususan, turistik obyektlarda chiqindilarni qayta ishlash tizimini joriy etish, plastmassadan foydalanishni keskin kamaytirish hamda “zero waste” modeli asosida xizmat ko‘rsatishni tashkil etish ekologik xavfsizlikni ta’minlash bilan birga, turistik hududlarning jozibadorligini oshiradi. Zero waste konsepsiyasi chiqindilarni kamaytirish, ularni to‘liq qayta ishlash va qayta foydalanishga yo‘naltirish orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv, bir tomondan, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirsa, ikkinchi tomondan, turistlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va ularni mas’uliyatli iste’molga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, chiqindilarni qayta ishlash tizimi joriy etilgan kurort va dam olish maskanlari uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy jihatdan ham samarali bo‘lmoqda. Chunki resurslarni qayta foydalanish orqali xizmat ko‘rsatish xarajatlari qisqaradi, shuningdek, “yashil” brend imijining shakllanishi natijasida turistlar oqimi ortadi. Chiqindilarni samarali boshqarish va “zero waste” modelini

qo‘llash ekoturizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki turizm sohasining global talab va tendensiyalariga mos ravishda modernizatsiya qilinishiga zamin yaratadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasida barqarorlik tamoyillarini joriy etish ham iqtisodiy samaradorlik, ham ekologik muhofaza nuqtayi nazaridan yuqori natijalar beradi. Masalan, Shveysariya tog‘li hududlarda elektr transport vositalarini keng tatbiq etish orqali turizm oqimlarini boshqarishda uglerod izini kamaytirishga erishgan. Elektr avtobuslar va kabel yo‘llarining joriy etilishi nafaqat transport tizimining ekologik barqarorligini ta’minlamoqda, balki turistlarga qulay va xavfsiz xizmat ko‘rsatish imkonini bermoqda.

Kosta-Rika esa ekoturizm sertifikatlash tizimini muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘ygan davlatlardan biridir. “Certification for Sustainable Tourism” (CST) dasturi orqali mehmonxonalar, turistik majmualar va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar ekologik standartlarga rioya qilishi baholanadi. Bu tizim mamlakatni barqaror ekoturizm bo‘yicha dunyodagi yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylantirgan.

Yaponiyada esa “eko-derevnya” konsepsiyasi keng qo‘llanilib, u raqamli boshqaruv tizimlari bilan uyg‘unlashtirilgan. Bunday qishloqlarda qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini tejash kabi amaliyotlar bilan bir qatorda, raqamli monitoring vositalari yordamida turistik oqimlar va ekologik yuklama nazorat qilinadi. Natijada, ekologik barqarorlik va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligi mamlakatning turistik jozibasini yanada oshirgan.

Turkiyada esa agro-turizm sohasida raqamli platformalardan faol foydalanilmoqda. Maxsus onlayn tizimlar orqali turistlar mahalliy fermer xo‘jaliklari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, agro-turizm tajribalarida ishtirok etish va mahalliy mahsulotlarni xarid qilish imkoniyatiga ega. Bu jarayon bir tomondan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini turizm tizimiga integratsiyalash imkonini bersa, boshqa tomondan mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda.

**Muhokama**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishda bir qator tizimli to‘siqlar mavjud. Avvalo, mavjud turistik infratuzilma ekologik standartlarga to‘liq javob bermaydi, bu esa xalqaro talablar nuqtayi nazaridan salbiy omil hisoblanadi. Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish amaliyoti cheklangan bo‘lib, quyosh va shamol resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada ishga solinmagan. Uchinchidan, chiqindilarni boshqarish tizimi yetarlicha rivojlanmagan: turistik obyektlarda chiqindilarni ajratib yig‘ish, qayta ishlash va “zero waste” tamoyillarini joriy etish amaliyoti sust kechmoqda. To‘rtinchidan, mahalliy aholi o‘rtasida ekologik ong va madaniyat darajasi nisbatan past bo‘lib, yashil turizmning afzalliklarini keng ommaga tushuntirish va targ‘ib qilish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Boshqa davlatlar tajribasi ushbu muammolarni hal qilishda samarali yo‘llarni ko‘rsatib beradi. Masalan, Shveysariya tog‘li hududlarda ekologik talablarga javob beruvchi elektr transport tarmoqlarini keng joriy etib, infratuzilma barqarorligini

ta’minlagan. Kosta-Rika ekoturizm sertifikatlash tizimini ishlab chiqib, turistik obyektlarni ekologik mezonlarga qat’iy rioya qilishga undagan. Yaponiya “eko-derevnya”lar konsepsiyasini raqamli boshqaruv bilan uyg‘unlashtirib, qayta tiklanuvchi energiya va aqlli boshqaruv texnologiyalarini turizm amaliyotiga tatbiq etgan. Turkiya esa agro-turizmni raqamli platformalar orqali rivojlantirib, chiqindilarni kamaytirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni turizm jarayoniga integratsiyalash orqali iqtisodiy va ekologik muvozanatni ta’minlagan.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish uchun xorijiy tajribadan kelib chiqib ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, chiqindilarni boshqarish tizimini joriy etish hamda aholining ekologik ongini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim (1-rasm).




**1-rasm. O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari** [91]

Xorijiy ilg‘or tajribani inobatga olgan holda O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari bir qator ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishni talab etadi. Birinchidan, ekologik sertifikatlash tizimini joriy etish turistik obyektlarning ekologik standartlarga muvofiqligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu nafaqat xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, balki xalqaro bozorda O‘zbekiston turistik brendining raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Ikkinchidan, raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish turistik oqimlarni tartibga solish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik monitoringni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, mobil ilovalar va “smart-tourism” platformalari orqali sayyohlarning ekologik jihatdan xavfsiz yo‘nalishlarga yo‘naltirilishi atrof-muhitga bosimni kamaytirishga yordam beradi. Uchinchidan, mahalliy aholining faol ishtirokini oshirish yashil turizmni barqaror rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Bu jarayonda aholini ekologik madaniyat va xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalariga o‘rgatish, ularni yashil iqtisodiyot loyihalariga jalb qilish orqali nafaqat ekologik barqarorlik, balki mahalliy daromad manbalarining ko‘payishi ham ta’minlanadi. Nihoyat, davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik innovatsiyalarga investitsiyalarni jalb qilish yashil turizmning

[91] Muallif ishlanmasi

moliyaviy asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini turizm infratuzilmasiga integratsiya qilish, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini keng joriy etish va energiya tejamkor qurilish usullarini qo‘llash bu borada dolzarb vazifalardan sanaladi.

Shunday qilib, xorijiy tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish orqali O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish ekologik barqarorlikni ta’minlash, mahalliy aholini manfaatdor qilish va xalqaro turistik bozorda mamlakatning ijobiy imidjini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa**

O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish ekologik barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni mustahkamlashda muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda global miqyosda ekoturizm konsepsiyasini ilgari suruvchi asosiy yo‘nalishlar — qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish, ekologik transport turlarini joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va “nol chiqindi” (zero waste) modelini amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish hisoblanadi. Ushbu elementlarning O‘zbekiston turizm sohasiga integratsiyasi nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki turizm infratuzilmasining samarali faoliyat yuritishiga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xorijiy ilg‘or tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, turizm siyosatini ilmiy asoslangan tarzda yuritish hamda innovatsion yechimlarni keng joriy etish orqali O‘zbekistonning yashil turizm sohasida mintaqaviy yetakchi markaz sifatida shakllanish istiqbollari mavjud. Masalan, Yevropa davlatlarida keng qo‘llanilayotgan “yashil sertifikatlash” tizimini mahalliy sanatoriy va mehmonxonalarda tatbiq etish, Xitoy va Yaponiya tajribasidan kelib chiqib “aqlli turizm” boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, mahalliy tabiiy resurslardan samarali foydalanishga asoslangan ekoturizm klasterlarini shakllantirish O‘zbekiston uchun dolzarb yo‘nalishlar hisoblanadi.

Umuman olganda, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat turizm infratuzilmasining ekologik xavfsizligini oshiradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xalqaro investitsiyalarni jalb etish va mamlakat brendini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yashil turizmni rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasida strategik ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilishi va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviy uyg‘unlikda amalga oshirilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yusupovna, Shaymanova Nigora. "IMPROVING THE QUALITY OF RECREATIONAL SERVICES IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR* 1.7 (2025): 115-118.

2. Shaymanova, Nigora. "Rekreatsiya turizmini rivojlantirishda Smart

texnologiyalardan foydalanish." *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT* 1.maxsus son (2023).

3. Buckley, R. (2012). *Sustainable tourism: Research and reality*. Annals of Tourism Research, 39(2), 528–546.

4. Gössling, S., Scott, D., & Hall, C. M. (2015). *Tourism and water: Interactions, impacts and challenges*. Channel View Publications.

5. Honey, M. (2008). *Ecotourism and sustainable development: Who owns paradise?* (2nd ed.). Island Press.

6. UNWTO (2018). *Tourism and the Sustainable Development Goals – Journey to 2030*. Madrid: World Tourism Organization.

7. World Bank (2021). *Uzbekistan: Towards a Green and Resilient Development*. Washington, DC: The World Bank.

8. Sharpley, R. (2020). *Tourism, sustainable development and the theoretical divide: 20 years on*. Journal of Sustainable Tourism, 28(11), 1932–1946.

9. United Nations Environment Programme (UNEP) (2019). *Waste Management in Tourism Destinations: A Sustainable Approach*. Nairobi: UNEP.

10. Sadullayev, A. S., Avezov, S., & Matchanova, A. (2019). *Turizm va rekreatsiya geografiyasi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma*. Xiva: Xorazm Ma’mun Akademiyasi.

11. Usmanova, Z. I. (2020). *O‘zbekistonda turizm-rekreatsiya resurslaridan foydalanish va ularni rivojlantirish istiqbollari*. Toshkent: Fan va texnologiya.

12. UNDP Uzbekistan (2022). *Green Economy Transition in Uzbekistan: Opportunities and Challenges*. Tashkent: UNDP.

13. https://www.metro-magazine.com/10152785/case-study-public-transport-in-geneva-switzerland

14. https://www.japan.go.jp/kizuna/2021/01/digital_transformation_propels_tourism.

## TURIZMNI BOSHQARISHDA IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (O‘ZBEKISTON MISOLIDA)

**Dehqonov Burxon Rustamovich**
*TDIU, “Turizm va mehmonxona biznesi” kafedrasi doktoranti,*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ekonometrik modellashtirish usullari yordamida tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm daromadlari,

xorijiy sayyohlar soni, yalpi ichki mahsulot (YaIM), investitsiyalar hajmi va bandlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, turizm daromadlari va YaIM o‘rtasida bevosita ijobiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, turizm sektori iqtisodiy o‘sishning barqaror drayverlaridan biri hisoblanadi. Ekonometrik model asosida turizm sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 1 foizga oshirilganda, YaIM o‘sishi o‘rtacha 0,3–0,4 foizga ortishini aniqlash mumkin bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** turizm iqtisodiyoti, ekonometrik model, regressiya tahlili, YaIM, investitsiya, iqtisodiy o‘sish, O‘zbekiston.

## Kirish

So‘nggi yillarda turizm global iqtisodiyotning eng tez o‘sayotgan tarmoqlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizini tashkil etadi va har o‘ninchi ish o‘rni aynan ushbu soha bilan bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, milliy iqtisodiyotda turizmni boshqarish va uni rivojlantirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida turizm so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. “2025-yilgacha turizmni rivojlantirish strategiyasi”, “Turizmni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qonun va boshqa normativ hujjatlar sohani modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan. Shu bilan birga, turizm sohasining iqtisodiy ta’sirini chuqur tahlil qilish va uni ilmiy modellashtirish zarurati ortib bormoqda.

Turizmning iqtisodiyotga ta’sirini o‘lchash uchun ekonometrik yondashuvlar — regressiya, panel tahlili, sabablilik (Granger causality) modellari — asosiy ilmiy vosita sifatida qo‘llanadi. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston sharoitida turizm bilan bog‘liq makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish orqali aniqlashga alohida e’tibor qaratiladi.

## Tadqiqot metodologiyasi

Tahlil jarayonida 2010–2024-yillar oralig‘idagi statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Asosiy o‘zgaruvchilar quyidagilardan iborat:

- YIM (GDP**)** – O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti (mlrd. so‘mda);
- TR – turizm daromadlari (mlrd. so‘mda);
- INV – turizm sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (mlrd. so‘mda);
- EMP – turizm sektorida band bo‘lganlar soni (ming kishi).

Model quyidagi shaklda qurildi:

$$GDP_t=\alpha+\beta_1 TR_t+\beta_2 INV_t+\beta_3 EMP_t+\varepsilon_t$$

Bu yerda βi\beta_iβi — har bir iqtisodiy ko‘rsatkichning ta’sir kuchini ifodalaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, barcha koeffitsientlar statistik ahamiyatga ega ($p < 0.05$). Quyidagi bog‘liqliklar aniqlangan:

- Turizm daromadlari (TR) 1 foizga oshganda, YaIM o‘rtacha 0,32 foizga oshadi.
- Investitsiyalar hajmi (INV) 1 foizga oshganda, YaIM 0,27 foizga ortadi.
- Bandlik (EMP) 1 foizga oshganda, YaIM 0,15 foizga ko‘tariladi.

Shuningdek, Granger sabablilik testi natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm daromadlari o‘zgarishlari YaIM o‘sishiga sababchi bo‘lishi mumkin, ya’ni iqtisodiy rivojlanish jarayonida turizmning yetakchi omil sifatidagi roli tasdiqlandi.

Turizm iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi tarmoq sifatida faoliyat yuritmoqda. Ammo sohada hali ham investitsiya oqimlari va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi past darajada. Shu sababli, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va marketing strategiyalarini kuchaytirish orqali iqtisodiy ta’sirni yanada kengaytirish mumkin.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda turizm mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 6,8 million nafarni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 2,3 baravar oshgan. Turizm xizmatlaridan tushgan umumiy daromad hajmi esa 2,5 milliard AQSh dollaridan oshib, YAIMning 3,7 foizini tashkil etdi. Bu esa turizmning iqtisodiy o‘sishga bevosita va bilvosita ta’sir kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, mavjud investitsiya oqimlarining samaradorligi yetarli darajada yuqori emas. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turizm infratuzilmasiga jalb qilingan umumiy investitsiyalarning atigi 42 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish quvvatlari va xizmat ko‘rsatish sifati oshirishga yo‘naltirilgan, qolgan qismi esa ma’muriy xarajatlar va yordamchi yo‘nalishlarga sarflangan. Bu esa turizm sohasida yuqori rentabellik ko‘rsatkichlariga erishishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ekonometrik tahlillar orqali turizm sohasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sir darajasi ham aniqlanmoqda. Masalan, 2010–2024-yillar kesimida qurilgan ko‘p regressiyali model natijalari shuni ko‘rsatdiki, turistlar oqimidagi 1 foizlik o‘sish O‘zbekiston YAIM o‘sish sur’atiga o‘rtacha 0,24 foizli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, investitsiyalar hajmidagi 1 foizlik ko‘payish esa turizm daromadlarini 0,41 foizga oshirgan. Bu ko‘rsatkichlar investitsion muhitni yaxshilash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirish orqali iqtisodiy samara ko‘payishini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, hududlar kesimida turizm ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Masalan, Samarqand viloyati va Buxoro viloyati respublika bo‘yicha xorijiy turistlarning 36 foizini qabul qilgan bo‘lsa, turizm infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalarning 45 foizi aynan shu hududlarga to‘g‘ri kelmoqda. Aksincha, ayrim tog‘li yoki chekka hududlarda turizm salohiyati mavjud bo‘lishiga qaramay, investitsiya oqimi past va xizmatlar ko‘lami cheklangan.

Marketing strategiyalarining yetarli darajada kuchli emasligi ham iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘rovlar shuni ko‘rsatdiki, turistlarning 64 foizi O‘zbekiston haqida ma’lumotni faqat onlayn platformalar orqali olmoqda, bu esa milliy marketing kampaniyalarini tizimli ravishda kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda turizmning iqtisodiy rivojlanishga kuchli turtki berayotganini, ammo bu ta’sirni maksimal darajada oshirish uchun investitsion oqimlarni samarali boshqarish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va raqamli marketing strategiyalarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ekonometrik modellashtirish turizm siyosatini shakllantirishda ilmiy asoslangan yondashuvni ta’minlashga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar**

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turizm mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda va milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasida muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda bu sohada amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, turizmni strategik tarmoq sifatida rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar ijobiy natijalar bermoqda. Shunga qaramay, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasida investitsiya oqimlarining yetarli darajada samarali yo‘naltirilmasligi, xizmatlar sifatining notekisligi va marketing mexanizmlarining sustligi iqtisodiy samaraning to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qilmoqda.

**1-Jadval.**

**Ilmiy tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy takliflar va vazifalarni ilgari surish mumkin:**

| **Taklif** | **Vazifalar** |
|---|---|
| Turizm investitsiyalarining samaradorligini oshirish | Maqsadida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, xususan, mehmonxona, transport va infratuzilma loyihalariga xorijiy kapitalni jalb etishni rag‘batlantirish zarur. |

| | |
|---|---|
| Hududiy turizm rivojlanish dasturlarini | Qayta ko‘rib chiqish va ularni iqtisodiy potentsialga mos tarzda differensiallashtirish muhim. Bu, ayniqsa, samarqand, buxoro, xiva kabi markazlardan tashqari tog‘li va ekologik hududlarni rivojlantirish uchun zarurdir. |
| Raqamli marketing va xalqaro brendlash siyosatini | Kuchaytirish orqali O‘zbekistonning turistik imidjini global miqyosda targ‘ib qilish lozim. Bu sohada ijtimoiy tarmoqlar, onlayn reklama platformalari va xalqaro ko‘rgazmalar orqali marketing faolligini oshirish iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi. |
| Turizm xizmatlari sifatini oshirish | Uchun kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va xalqaro tajribalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy markazlar faoliyatini kengaytirish zarur. |
| Ekonometrik tahlil natijalaridan | Turizm siyosatini shakllantirishda foydalanish tavsiya etiladi. Bu yondashuv strategik qarorlarni qabul qilishda ilmiy asosli prognozlar tayyorlashga imkon beradi. |

Ekonometrik modellashtirish natijalari turizm sohasidagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar — turistlar soni, investitsiyalar hajmi va xizmatlar daromadlari o‘rtasida yuqori ijobiy korrelyatsiya mavjudligini ko‘rsatdi. Bu esa shuni anglatadiki, mazkur omillarni muvofiqlashtirilgan tarzda boshqarish mamlakat yalpi ichki mahsuloti o‘sish sur’atlarini sezilarli oshiradi. Ayniqsa, turizmga yo‘naltirilgan investitsiyalarning 1 foizlik o‘sishi o‘rtacha 0,4 foizlik turizm daromadlarini oshirishi ilmiy jihatdan isbotlandi. Bu holat O‘zbekiston uchun turizmni iqtisodiy siyosatning barqaror o‘sish ustunlaridan biriga aylantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, O‘zbekiston turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun iqtisodiy mexanizmlarni modernizatsiya qilish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va statistika asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini mustahkamlashi zarur. Shundagina turizm sektori nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki xalqaro raqobatbardoshlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlovchi strategik yo‘nalishga aylanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO). (2024). *World Tourism Barometer: Global tourism trends and economic impact report*. Madrid: UNWTO Publications.
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. (2024). *O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish statistik to‘plami 2019–2024-yillar*. Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2019). *O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish to‘g‘risida* (PF–5611-son). Toshkent: Lex.uz.
4. World Bank. (2023). *Tourism for Development: Unlocking inclusive and sustainable growth*. Washington, DC: World Bank Group.
5. Sharipov, A., & Rakhimova, D. (2022). Econometric analysis of tourism sector development in Central Asia. *Journal of Applied Economics and Business Research*, *12*(3), 45–59.
6. Karimov, S. (2021). The impact of investment on tourism revenue: Evidence from Uzbekistan. *Central Asian Economic Review*, *5*(2), 78–91.
7. Dehqonov Burxon Rustamovich. “ICHKI TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI” YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT (ISSN: 2992-8982) 2023-yil, oktyabr. № 10-son.
8. Rustamovich D. B. Quality And Safety Of Public Catering Services In Uzbekistan //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23). – С. 19-23.
9. Б. Р. Деҳқонов. “Ички туризмни таърифлашда бўлган қарашлар ва туризм шаклларини ўз ичига олган боғлиқликлар” Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. - №4-1 (88), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 81 б.
10. Rustamovich, Dehkonov Burhon. "Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan." Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28-33.
11. Rustamovich, Dehganov Burkhan. "Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services." FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION 2.3 (2023): 35-37.

## MAMALAKATIMIZDA GEOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**A.P.Maxmudova**
*SamISI, “Turizm” kafedrasi dotsenti,*
*“Ipak Yo‘li” turizm va madaniy meros*
*xalqaro universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada geoturizmning mamlakatimiz turizm tizimidagi o‘rni va uning istiqbollari tahlil qilingan bo‘lib, unda geoturizmning iqtisodiy va ekologik afzalliklari, xususan, yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy aholi daromadlarini oshirish va tabiatni muhofaza qilish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, maqolada mamlakatimizdagi mavjud geoturistik resurslar o‘rganilib, ularni zamonaviy infratuzilma va raqamli texnologiyalar yordamida ommalashtirish zarurligi ta’kidlangan. Maqolada keltirilgan xulosalar geoturizm sohasini barqaror va samarali rivojlantirishga qaratilgan ilmiy hamda amaliy tavsiyalardan iborat.

**Kalit so‘zlar.** Geoturizm, geoturistik ob’ektlar, diversifikatsiya, YUNESKO, geoparklar, alohida muhofaza qilinadigan hududlar.

## Kirish

Yashil iqtisodiyot va yashil turizmni rivojlantirish sharoitida turizmning innovatsion turlarining rivojlanishi nafaqat uni ma’lum bir hududda diversifikatsiyalashga, balki turistlar uchun ushbu xududning jozibadorligini oshirishga ham qaratilgan. Bu kabi innovatsion turlarga geoturizm kiradi, bu umumiy ma’noda noyob geologik ob’ektlar (yodgorliklar) ga asoslangan ta’lim turizmining yo‘nalishi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda geoturizm dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘sishni boshdan kechirmoqda va turizm sohasining mustaqil sektorini shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Geoturizmning tarkibiy qismi bo‘lgan geoparklar mintaqaning geologik merosining bugungi kunda tarix va jamiyatdagi ahamiyati haqida xabardorlikni oshirish orqali mahalliy aholiga o‘z mintaqasi bilan faxrlanish tuyg‘usini beradi va ularning hudud bilan hamnafasligini kuchaytiradi. Xududlarda global geoparklarni tashkil qilish va rivojlantirish mahalliy aholining geoturizm orqali yangi ish joylari orqali daromad manbalarini yaratishda, ekologik va ma’naviy madaniyatini yuksaltirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

## Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Geoparklarning o‘rganilganlik darajasi bo‘yicha huquqiy rejimining ayrim muammolari M.S.Arutyunyan, O.Yu. Hismatullina maqolalari geoparklar tushunchasini va ularning huquqiy rejimini alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning bir turi sifatida belgilashga bag‘ishlangan. O‘zbekistonlik olimlardan I.S.Tuxliyev, A.P.Maxmudovalarning 2023 yil xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyadagi “Navoiy viloyatida geoturizmni rivojlantirishning geoparklarini shakllantirish xususiyatlari” maqolasida YUNESKO Global geoparklari tajribasiga asoslangan holda hududlarda geoturizm geoparklarini shakllantirish yo‘nalishlari tahlil qilingan va uni joriy etish mexanizmlari taklif etilgan.

## Materiallar va metodlar

Geoturizm ekologik turizmning boshqa turlari bilan birgalikda rivojlanishi mahalliy aholiga yangi asosiy yoki qo‘shimcha daromad manbalarini topish imkonini beradi, bu esa ish o‘rinlari sonining ko‘payishiga va aholi turmush darajasini bosqichma-bosqich oshirishga olib keladi.

Hududlarga geoturistik qiziqishlarning ortishini turistik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va taqdim etuvchi korxonalar (umumiy ovqatlanish korxonalari, axborot markazlari, ekskursiya byurolari, mehmonxonalar, turistik bazalar, sovg‘alar bozori va shu kabilar) sonining ortishi bilan ham izohlashimiz mumkin.

Xalqaro darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Taraqqiyot konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish uchun ko‘plab nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ulardan eng jozibalisi YUNESKO global geoparklariga o‘xshash geoparklar tizimidir. U ekotizimlarni saqlash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini zamonaviy integratsiyalashgan atrof-muhitni boshqarish asosida hal qiladi.Bunday geoparklar mahalliy aholi, davlat organlari, fan, ta’lim, tadbirkorlik va jamoatchilik ishtirokida turizm, dam olish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bilan tavsiflanadi.

Xalqaro dasturga muvofiq, geofan va geoparklar bo‘yicha YUNESKOning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- 203eologic va madaniy meroslarni saqlab qolish;
- ta’limiy (ma’rifiy) vazifa;
- mintaqani iqtisodiy-ijtimiy rivojlantirish;
- mahalliy aholini geoparklarni tashkil qilish va boshqarishga jalb qilish.

Hozirda jahonning 48 ta mamlakatida 195 ta YUNESKO global geoparklari mavjud. Shundan Avstriyada- 3ta, Belgiyada- 1ta, Braziliyada- 5ta, Kanada – 5 ta, Xitoyda- 40, Finlyandiyada- 4 ta, Fransiyada- 7 ta, Germaniyada- 8 ta, Indoneziya- 10 ta, Eron (Islom Respublikasida) – 3 ta, Italiyada- 11 ta, Yaponiya- 10 ta, Koreya Respublikasida- 5 ta, Rossiya Federatsiyasi – 3 ta, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi – 9 ta qolgan mamla-katlarda 1ta va 2 tadan tashkil qilingan[92].

Jahon amaliyotida “geopark” atamasi – xalqaro yoki mintaqaviy ahamiyatga ega geologik meroslarga ega bo‘lgan hamda mahalliy urf-odatlarni saqlab qolgan holda hududning innovatsion, majmuaviy va barqaror rivojlanishi-da geologik va madaniy meros ob’ektlari strategik boshqarish amalga oshi-riladigan hududlar sifatida tushuniladi. Hozirgi paytda geoparklarning ikki turi: mintaqaviy va YUNESKOning global geopark maqomiga ega bo‘lgan geoparklar mavjud.

Geoparklar- alohida qo‘riqlanadigan hudud hisoblanmasada, uning doirasida mahalliy tub aholining tabiiy turmush tarzini buzish ta’qiqlangan hamda xo‘jalik va rekreatsion faoliyat bilan shug‘ullanishga cheklovlar qo‘yilmaydi[93]. Geoparklarning afzalliklari va O‘zbekistonning alohida muhofaza qilinadigan hududlar tarkibidagi milliy bog‘larning taqqoslama tahlili 4.1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Xozirgi paytda O‘zbekistonning ulkan turizm salohiyati avvalo, qadimiy sivilizatsiya va madaniyatlar, qoyalardagi bitik va petrogliflar, betakror tarixiy obidalar, moddiy va nomoddiy madaniy yodgorliklar hamda me’morchilikning ajoyib va betakror namunalari bo‘lgan qadriyatlar bilan belgilanadi.

[92] Сафарян А.А., Фирсова А.В. Кунгурский Геопарк: условия создания и их соответствие требованиям ЮНЕСКО / Туризм в глубине России. Сборник трудов III Международного научного семинара, 2014. С. 153–159.

[93] Корф Е. Д. Геопарки и геотуризм как инструмент устойчивого развития сельской местности // Материалы XI Международной конференции ≪Инновации на основе информационных и коммуникационных техноло-гий≫ : Сб. тр. науч.-практ. конф. — Сочи, 2014. — С. 579–581.

**1-jadval.**

**Geoparklar va milliy bog‘larning taqqoslama tahlili**

| **Taqqoslanadigan belgilar** | **Geoparklar** | **Milliy bog‘lar** |
|---|---|---|
| Huquqiy shakli | Ixtiyoriy uyushma (huquqiy shaklga ega emas) | Yuridik shaxs |
| Tashkilot hududida mulkchilik shakli | Xususiy va davlat mulki | Davlat mulki |
| Tashkil bo‘lish tartibi | Ixtiyoriy uyushma (volonterlik harakati) | O‘zbekiston Respubli-kasi xukumatining qarori |
| Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish | Amalga oshiradi | Qisman amalga oshiradi |
| Turistik-rekreatsion faoliyat olib borish | Olib boradi | Ekoturistik faoliyat olib boradi |
| Himoya ob’ektlari | Geologik tabiat yodgorliklari va har xil turdagi geologik meros ob’ektlari | O‘simlik va hayvonot dunyosi, ekotizimlar, o‘simlik va hayvonot dunyosining genetik fondi saqlanadigan joylar |
| Asosiy funksiyalari | Ilmiy, ta’lim, ekologik va ma’naviy madaniyatini yuksalti-rish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy va xalqaro mnosabat-larni rivojlantirish | Ilmiy, ta’lim, ekolo-gik va ma’naviy mada-niyatini yuksaltirish, tabiatni muxofaza qilish. |

O‘zbekiston shunday ulkan turizm salohiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan hududlarida bu kabi YUNESKO global geoparklari mavjud emas. Ammo O‘zbekiston hududlarida joylashgan geoturistik ob’eklar negizida yangi geoparklar tashkil qilish imkoniyatlari mavjud. Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi qoshidagi Mineral resurslar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqqan xulosasi bo‘yicha O‘zbekistonda geoturizmni quyidagi hududlarda rivojlantirish mumkin (2-jadval).

**2-jadval.**

**O‘zbekiston hududlarida geoparklar tashkil qilish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan geoturistik ob’ektlar[94]**

| **T/r** | **Geoturistik ob’ektlar** | **Joylashuvi va mazmuni** |
|---|---|---|
| 1. | Beshtepa xududi | Bu yerda paleogen davridagi (50 mli. yil oldin) o‘simliklarning asl holida toshga aylangan qoldiqlari mavjud |

[94] Тадқиқот натижасида ушбу жадвал муаллиф томонидан такомиллаштирилди.

| | | |
|---|---|---|
| 2. | Ayoz-kal’a | Qorakalpogiston Respublikasida joylashgan ob’ektda «tosh o‘rmonlari»ning terilgan qoldiqlari, kuyi mel davri o‘simliklarining toshga aylangan tashqi ko‘rinishlari (100 mln. yil oldin) mavjud. |
| 3. | Ust yurt platosi | Bu yerda katga suv havzalarining qurishi natijasida haykallar ko‘rinishini olgan shakllar mavjud. Ushbu ob’ekt kaynozoy davrida (21 mln.yil oldin) kurigan dengizning tagi hisoblanadi. |
| 4. | Hisor tizma tog‘lari | Janubiy-G‘arbiy tizmasida joylashgan bo‘lib yura, bo‘r, paleogen va neogen davrlaridagi (1,8-19,9 mln. yil oldin) qoldiqlarni ko‘rsatuvchi noyob geologik kesim. Bu davrlarning qoldiklari ketma-ket xuddi galereya holida joylashgan, betakror ko‘rinishga ega. |
| 5. | Kitob geologik davlat qo‘riqxonasi | 1996y.da Geologiya fanlari Xalqaro uyushmasi tomonidan Kitob davlat geologiya qo‘riqxonasi jahon stratigrafiya etaloni quyi devon ems yarusi quyi chegarasi standarti yoki- «Global Stratotipe and Point» global stratotip chegarasi nuqtasining sohibi va saqlovchisi sifatida tan olindi. Uning kesimlari qo‘riqxonaga xalqaro maqom berilishiga asos bo‘ldi. Zanzilban soyining kesma si Quyn Devon davri Em yarusi quyi chegarasining dunyo bo‘yicha stratigrafik etalon-standarti hisoblanadi. |
| 6. | Sangijumondagi tebranuvchi tosh | Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi olimlarning xulosalari bo‘yicha toshning og‘irligi 300 tonna. Mo‘’jizaligi shundaki,-uni yosh bola ham qimirlatishi mumkin. |
| 7 | Sarmishsoy arxeologik majmuasi muzey-qo‘riqxonasidagi petrogliflar | Qoratog‘ tog‘ining janubiy yonbag‘ridagi Nurota tog‘larida joylashgan ushbu dara Navoiy shahridan 40 kilometrcha uzoqlikda joylashgan. Sarmishsoy O‘zbekistonning tarixiy va landshaft sensatsiyasi deb nomlanish huquqini olgan petrogliflar — ochiq tosh yuzalarida o‘yilgan qadimiy tasvirlar tufayli olgan. Olimlar Sarmishsoy darasining 20 kilometr kvadrat maydonida 10 mingga yaqin petrogliflarni topgan.Olimlarning ta’kidlashicha, qadimgi odamlarning ilk manzilgohlari paleolit davrida aynan Sarmishsoy darasida paydo bo‘lgan. |

Jadval ma’lumotlaridan O‘zbekiston hududlarida bu kabi geologik ob’ektlar Navoiy viloyatining Nurota va Xatirchi tumanlarda joylashgan Sarmishsoy arxeologik majmuasi muzey-qo‘riqxonasidagi petrogliflar va Sangijumondagi tebranuvchi tosh negizida geoturizm samaradorligini oshirishda yangi yo‘nalish bo‘lgan geoparklarni tashkil qilish va rivoj-lantirish uchun barcha asos borligidan dalolat bermoqda.

**Xulosa va takliflar**

O‘zbekistonda katta maydonni egallagan alohida muhofaza qilinadigan hududlar mavjud bo‘lib, uning tarkibiga 13 ta qo‘riqxona, 14 ta davlat landshaft zakazniklari, 4 ta davlat milliy parklari, 2 ta biosfera rezervati, o‘nlab tabiat yodgorliklari, qator o‘rmon xo‘jaliklari, ovchilik xo‘jaliklari va boshqa toifadagi

muhofaza qilinadigan hududlar kiradi. Biroq, ushbu hududlarda geoturizmni rivojlantirish maqsadida mavjud 4 ta davlat milliy parklar negizida milliy geoparklar tashkil qilishning YUNESKO Geoparklari ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha tizimli ishlar boshlang‘ich darajada hisoblanadi.

Bugungi kunda Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi Vazirlar Mahkamasiga Kitob geologik qo‘riqxonasini geoparkka aylantirish loyihasi taqdim etilgan. Agar u tasdiqlansa, kelgusida qolgan O‘zbekiston xudud-larida joylashgan geoturistik ob’ektlar negizida ham geoparklar tashkil qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Buning uchun geoturizm va geoparklarni ilmiy nuqtai nazardan asoslash va tegishli mutaxassislarni tayyorlash amaliyotini yo‘lga qo‘yish hamda O‘zbekiston xududida joylashgan geoturistik ob’ektlarni YUNESKOning Global Geoparklari ro‘yxatiga kiritish uchun uning tegishli talablarini amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Tog‘li hududlarda geoparklarni tashkil qilish ushbu hududlarda geologik va geologik bo‘lmagan tabiiy yodgorliklarning ahamiyatlilik darajasini baholashdan boshlanadi. Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi va Turizm qo‘mitasi tomonidan bu kabi hududlarning xalqaro, respublika, hududiy va mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan geologik va nogeologik jihatlari ro‘yxatga olinadi, ularning turistik jozibadorligi, ilmiy va ta’limiy ahamiyati baholanadi.

Barcha ma’lumotlarni ularning geologik, madaniy, hududning tabiiy yodgorliklari nuqtai nazaridan aholining ilmiy doiradagi qatlamlari, shuningdek turistlar ham foydalanishi mumkin bo‘lgan yagona ma’lumotlar bazasiga kiritish mumkin. Keyingi bosqichda geoparklar faoliyatini ularning kelgusida erishishi ko‘zda tutilgan maqsadidan kelib chiqqan holda rejalashtirish amalga oshiriladi.

Mavjud va rejalashtiriladigan hudud va undagi geologik faoliyat to‘g‘risidagi ma’lumot YUNESKOga taqdim etilishi zarur bo‘lgan ariza shaklida aks ettirilishi kerak[95]. YUNESKOga taqdim etilishi zarur bo‘lgan ariza beshta bo‘limdan iborat bo‘ladi va ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

*Birinchi bo‘limda* hudud haqidagi umumiy axborot, loyihalash-tirilayotgan parkning nomi, geografik joylashuvi, fizik-geografik tavsifi va boshqaruv tuzilmasi aks etadi.

*Ikkinchi bo‘limda* hududning geologik tavsifi, geoparkdagi ob’ektlar va ularning tavsifi, ularning ahamiyatlilik darajasi, nogeologik hudud va ob’ektlar tavsifi keltiriladi.

*Uchinchi bo‘limda* geologik ob’ektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha loyihalashtirilayotgan tadbirlar bayon etiladi.

*To‘rtinchi bo‘limda* hududning iqtisodiy faoliyati yoritilib, uning geoturizmni rivojlantirish darajasi va salohiyati keltiriladi.

*Beshinchi bo‘limda* mazkur hududni geoparkka aylantirish yoki geopark maqomini berishdan ko‘zlanayotgan asosiy sabablar va maqsad yoritib beriladi.

[95] Guidelines and Criteria for National Geoparks seeking UNESCO’s assistance to join the Global Geopark Network: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2014. — P. 2–8.

Bu jarayonda YUNESKO Geoparklari mintaqadagi barcha tegishli mahalliy va mintaqaviy manfaatdor tomonlar va hokimiyatlarni (masalan, yer egalari, jamoat guruhlari, turizm provayderlari, mahalliy aholi va mahalliy tashkilotlar) jalb qilgan holda pastdan yuqoriga qarab tashkil etiladi.

Turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilishda geoturizmni shakllantirish, rag‘batlantirish va amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy-boshqaruv jarayoniga nafaqat tashkilotlar, balki turli mintaqaviy konsepsiyalar, dasturlar, strategik hujjatlar, loyihalarning jalb etilishi talab qilinadi. Bunday keng ko‘lamli muammolarni hal qilish uchun fikrimizcha, xududiy geoturizm faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo‘g‘in Turizm qo‘mitasi tarkibida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 13 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni**.**
3. Tuxliyev I.S., Po‘latov M.E., Berdimurodov A.Sh. “Turizm sohasining zamonaviy atamalari izohli luhati”. S.: 2019 y.
4. Tuxliyev I.S., Raximova R.M. (2023). Guidelines for the effective use of the —travel around Uzbekistan‖ program in the development of local tourism. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 impact factor: 8.036, 12(07), 11-15.


## ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОМЕҲМОН УЙЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБАДАН ФОЙДАЛАНИШ


**Икрамов Акбар Фарҳод ўғли**
*ТДИУ Туризм ва меҳмонхона бизнеси кафедраси тадқиқотчиси*



**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистонда меҳмонхона хўжалигини ривожлантириш, экомеҳмон уйларини ташкил этиш бўйича тадбиркорлик фаолиятини такомиллаштириш, уларни ташкил этиш тартиблари ва талаблари баён этилган, шунингдек бу соҳасда хорижда амалга оширилаётган ишларни таҳлил қилган ҳолда мамлакатимизда экомеҳмон уйларини ривожланиш йўналишларини белгилаб олиш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.



**Калит сўзлар:** туризм, саёҳатчи, меҳмонхона, экомеҳмон уйлари, туризмда тадбиркорлик, жойлаштириш воситалари, меҳмонхона бизнеси, меҳмонхона номерлари, туризм хизматлари, иқтисодиёт.

**Кириш**

Туризм - иқтисодиётни жадал ривожланишини таъминловчи асосий иқтисодий омил бўлиб, иқтисодий ва ижтимоий муаммоларни ҳал этишда муҳим ўрин тутади. Қўшимча иш ўринларини яратиш, аҳолининг бандлигини таъминлаш, ватан равнақини юксалтиришда унинг ўрни беқиёсдир. Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг туризм соҳасини тартибга солиш бўйича зарур ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларни ишлаб чиқишга, унинг инфратузилмасини ривожлантиришга, миллий қадриятларни асрашга, маданий мерос объектларини тиклаш ва таъмирлашга алоҳида эътибор билан қарамоқда. Мамлакатимизда ҳукм сураётган тинчлик ва осойишталик, меҳмондўстлик ҳамда туризм соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасида хориж мамалакатлардан ташриф буюраётган сайёҳлар оқими кўпаймоқда.

Ўзбекистон бой тарих ва ноёб маданий мерос объектларига эга. Бу эса мамлакатимизда ҳали улкан салоҳияти тўлиқ ишга солинмаган туризм индустриясини ривожлантириш, юртимизни жаҳон туризм марказларидан бирига айлантириш имконини беради.

Туризм соҳаси ривожланган кўплаб мамлакатлардан келган хорижий туристлар дам олиши ва хизмат кўрсатиши учун қулай шарт-шароитлар яратилмоқда, ўзига миллионлаб туристларни жалб қилмоқда. Шу билан бирга Африка, Австралия, Жанубий Америка, Антарктида, Мексика ва бошқа минтақаларнинг хорижий туристларига хизмат кўрсатишдаги улуши йилдан-йилга ортиб борамоқда.

Бугунги кунда туризм, на фақат давлатларни ўзаро яқинлаштирибгина қолмай, балки халқаро муносабатларни ривожлантиришда ҳам муҳим омил бўлмоқда. Шунинг учун, халқаро туризм индустриясини тўғри ташкил этиш ва ривожлантиришда, жойлаштириш воситалари турларини кўпайтириш ва такомиллаштиришда жаҳон тажрибасини қўллаш зарурати сезилмоқда.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили**

Ўзбекистонда туризм фаолияти билан шуғулланувчи тадбиркорлик субъектларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг самарали фаолият юритиши учун тақдим этилаётган имконият ва имтиёзлар туризм инфратузилмасини яхшилашга хизмат қилмоқда. Жумладан, соҳада бир қадар янги йўналиш - оилавий меҳмон уйлари тармоғини қўллаб-қувватлашга қаратилаётган эътибор туфайли туризмнинг мазкур йўналиши жадал ривожланишига туртки бермоқда. Биз ушбу йўналишда тадқиқот олиб бораётган айрим муаллифларнинг фикри ва мулоҳазаларини таҳлил қилиб, уларнинг натижаларини умумлаштириб, Ўзбекистонда меҳмонхона турларини ривожлантириш ва такомиллаштириш тўғрисидаги мулоҳазаларимизни қисқача баён қиламиз.

А.С. Кусковнинг “Меҳмонхона иши” номли ўқув қўлланмасида меҳмондўстлик саноатининг ҳозирги ҳолати ва хусусиятлари баён қилинган, сайёҳлик хизматлари таркибида меҳмонхона корхоналарининг ўрни берилган, меҳмонхона корхоналарининг асосий турлари билан бир қаторда

меҳмонхона хўжалиги фаолиятининг меъёрий асослари таҳлил этилган. Шунингдек, ўқув қўлланмада меҳмонхона хизматлари хусусиятлари, бошқарув ва меҳмонхона ҳодимлари, мижозлар ва сайёҳлик агентликлари билан ўзаро алоқаларига, қўшимча хизматларни тақдим этиш хусусиятларига алоҳида эътибор қаратилган

А.Д. Чудновскийнинг “Туризм и гостиничное хозяйство” номли дарслиги меҳмонхона ва сайёҳлик бизнесини ташкил қилиш назарияси ва амалиётининг асосий тушунчаларини ўз ичига олади. Меҳмонхона ва сайёҳлик мажмуасини бошқаришни ташкил этиш масалалари, шу жумладан туризм соҳасида реклама ва маркетинг коммуникациялари, дам олиш соҳасида туризмни ташкил этиш, меҳмонхона бошқарувини ташкил этиш, иш фаолиятини баҳолаш кабилар баён этилган. Меҳмонхоналардаги автоматлаштирилган маълумотларни қайта ишлаш тизимларидан фойдаланиш масалалари, шунингдек, меҳмонхона ва сайёҳлик бизнесида иқтисодий фаолиятни тартибга солувчи меъёрий ҳужжатлар кўриб чиқилган.

Р.С. Амриддинова “Меҳмонхона сервиси хизматини ташкил қилиш” номли ўқув қўлланмасида ҳозирги бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида меҳмонхона хизмати соҳасида энг яхши бошқарув қарорларини қабул қилиш, бошқарувни такомиллаштириш зарурати билан боғлиқлиги баён этилган. Хизматчилар меҳмонлар томонидан замонавий хизмат даражасига қандай талаб қўйилиши, меҳмонхона хизматлари сифатига таъсир кўрсатувчи иқтисодий омиллар ҳамда меҳмонхона раҳбарларининг доимий равишда хизмат кўрсатиш сифатини бошқаришни яхшилашга, уни кенгайтиришга эътиборни қаратишга аҳамият берилган. Шунингдек, ўқув қўлланмада жойлаштириш воситаларининг ривожланиш тарихи, замонавий меҳмонхоналарнинг турлари, меҳмонхоналарни таснифлаш изими, меҳмонхоналарнинг меъморчилик ва техник ечимлари, меҳмонхоналардан фойдаланиш асослари, меҳмонхоналарнинг ташкилий-бошқариш тузилмаси, меҳмонхоналарда қабул қилиш ва жойлаштиришни ташкил этиш каби масалалар ёритилган.

Умуман олганда ушбу адабиётларда меҳмон уйларини ривожлантиришнинг ўзига хос жиҳатлари, уларни ташкил этишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари, мамлакат учун меҳмон уйларининг зарурлиги, шунингдек, меҳмон уйларини шакллантириш бўйича яҳлит тузилмани яратиш борасида тўхталиб ўтилмаган.

**Тадқиқот методологияси**

Тадқиқотда меҳмонхона хўжалиги ривожланишини белгилашда яқин йилларда кутилаётган инновацион ўзгаришларни ҳисобга олиш ва шу орқали туризм соҳасини ривожланишида меҳмонхона хўжалигини туризм соҳасининг алоҳида тармоғи сифатида ўрганиш методологияси қўлланилиб, бу борада мутахассислар фикрини ўрганган ҳолда, кузатиш, қиёслаш, эмперик тадқиқот, тизимли ва қиёсий таҳлил ҳамда эксперт баҳолаш каби усуллари орқали инфратузилманинг таркибий қисмлари ривожланиши йўналишларини белгилаб бериш усули таклиф этилгандир. Шунингдек, 2025 йилгача республикамиз туризми ривожланиши йўналишларининг устувор

вазифаларига оид хулосалар қилинган ва туризм соҳасини такомиллаштиришга оид аниқ тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Таҳлил ва натижалар**

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасида туризмнинг замонавий моделини шакллантириш жараёни амалга оширилмоқда. Ушбу моделда таъкидланишича, мамлакатда ривожлантирилаётган туризм бозори бошқа ҳар қандай бозорлар каби мамлакатнинг ижтимоий - сиёсий ва иқтисодий вазиятига таъсир кўрсатади. Маълумки, бозор иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда, асосан, хусусий ва тижорат компаниялари туристларга хизмат кўрсатади. Бироқ, ҳар қандай шароитда ҳам давлат оптимал иқтисодий ва ҳуқуқий заминни яратган тақдирдагина туризм ривожланиши мумкин.

Агарда давлат касбий тайёгарлик масалалари, табиий ва маданий муҳитни муҳофаза этиш, ахборот-реклама ишлари ва расмиятчиликни соддалаштириш кабилар билан шуғулланмаса, у ҳолда туризм кутилганидек ривожланиш даражасига эриша олмайди. Бунда давлат томонидан туризмни ривожлантириш, туризм хизматлари бозорини шакллантириш, иқтисодий тартибга солиш усуллари ва мезонларини қайта ислоҳ этиш, туризмни ташкилий бошқарув тузилмаларини такомиллаштириш, унинг экспорт салоҳиятини ошириш ва энг асосийси, хорижий инвестицияларни жалб қилиш кабиларга тегишли услубий ва амалий ёндашувларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилмоқда, жумладан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида ҳам бу соҳа ривожига эътибор бериб, “Ҳозирги кунда миллий иқтисодиётга юқори даромад келтирадиган истиқболли тармоқлардан бири – бу туризмдир. Бу соҳага жаҳон брендларини фаол жалб этган ҳолда, зиёрат туризми, экологик, маърифий, этнографик, гастрономик туризм ва бу соҳанинг бошқа тармоқларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилади”[1] деб таъкидлаганлар.

Бугунги кунда меҳмонхона хўжалиги туризм соҳасининг ажралмас қисми бўлиб, туризм индустрияси таркибига киради. Туризм индустрияси ўзида меҳмонхоналар мажмуаси ва бошқа жойлаштириш воситалари, транспорт воситалари, санатория-курорт даволаш ва дам олиш объектлари, умумий овқатланиш объектлари, кўнгил очиш воситалари ва объектлари, билиш, ишбилармонлик объектлари, физкультура-спорт ва бошқа мақсадлардаги туроператорлик ва турагентлик фаолиятини амалга оширувчи, туризм ахборот операторлари тизими, шунингдек экскурсовод (гидлар), гид-таржимонлар ва кузатувчи-йўриқчилар хизматлари кўрсатувчи каби ташкилотларини мужассамлаган.

Бунда меҳмонхона хўжалиги ўзида иқтисодий фаолият кўринишини намоён қилган ҳолда, меҳмонхона хизматлари тақдим этиш кемпинглар, мотеллар, мактаб ва талабалар ётоқхоналарида, келувчилар учун меҳмон

уйлари ва ҳ.к. қисқа муддатли яшашни ташкил қилишни ўз ичига олади. Меҳмонхона фаолияти ҳуқуқий шахс ва индивидуал тадбиркорларнинг фаолияти сифатида белгиланади. Яъни улар бевосита ўзлари ихтиёри ва бошқарувида бўлган бирор-бир жамоавий жойлаштириш воситасига эга бўладилар. Меҳмонхоналар фуқароларга жойлаштириш ва хизматлар кўрсатишдан иборат бўлиб, хозирги кунда меҳмонхоналар меҳмонхона хизматларидан бошқа хизмат турларини ҳам ташкил этмоқда.

Сўнгги йилларда меҳмондўстлик саноати корхоналарининг ривожланишида кўзга ташланган тенденциялар қаторига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- меҳмонхона ва ресторан хизматлари ихтисослашувининг чуқурлашиши;
- халқаро меҳмонхона ва ресторан тармоқларининг ташкил топиши;
- кичик корхоналар тармоғининг ривожланиши;
- меҳмондўстлик саноатига янги компьютер технологияларининг жорий этилиши.

Бугунги кунда Ўзбекистонда меҳмонхона хўжалигини такомиллаштириш ва меҳмонхона турларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилиб, меҳмонхоналарнинг турларига қараб ҳам алоҳида соддалаштирилган ҳолда лицензия бериш тартиблари ишлаб чиқилди ва йўлга қўйилда. Туризм соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасида мамлакатимизга келаётган туристлар сони кўпаймоқда ва шунга мос равишда меҳмонхоналар сони ҳам ортиб бормоқда.

Бугунги кунда мамлакатимиздаги ушбу меҳмонхоналар алоҳида категориялар бўйича яъни, 1 юлдуздан бошлаб 5 юлдузгача бўлган категорияларга ажратилган, шунигдек хеч қайси категорияга эга бўлмаган меҳмонхоналар сони ҳам катта улушга эга. 1-расмда меҳмонхоналар категорияларининг Ўзбекистон туризм бозоридаги улуши бўйича маълумотлар берилган.




**1-расм. Меҳмонхоналарнинг категориялари бўйича туризм бозоридаги улуши (%)**

Статистик маълумотлар шундан далолат берадики, 55% улуш категориясиз меҳмонхоналарга тўғри келади. Ҳозирги кунда малакатимизда юлдузга эга бўлмаган меҳмонхоналарнинг деярли барчаси категориясиз меҳмонхоналар таркибига киради, мотел, хостел, флотел, меҳмон уйлари, кемпинг каби меҳмонхона турлари шулар жумласидандир. Лекин, кўпгина мамлакатларда барча меҳмонхона турлари бўйича алоҳида статистик маълумотлар йиғиб борилади. Шу жумладан, меҳмонхоналарнинг турлари бўйича алоҳида лецинзия бериш тартиблари ўрнатилган. Мамлакатимизда эса ҳозирги кунда меҳмон уйларига соддалаштирилган ҳолда лицензия бериш тартиби йўлга қўйилган, юқорида келтирилган меҳмонхона турларини ташкил этиш бўйича эса алоҳида меъёрий-хуқуқий асослар ханузгача ишлаб чиқилмаган.

Туризм бозорида 1 юлдузли меҳмонхоналар 21% улушни, 2 юлдузли меҳмонхоналар 3% улушни, 3 юлдузли меҳмонхоналар 14%ни, 4 юлдузли меҳмонхоналар 6% улушни, 5 юлдузли меҳмонхоналар эса 1% ташкил этмоқда. Мамлакатимизда 5 юлдузли меҳмонхона энг кам улушга, булар асосан жаҳон бренди ҳисобланган меҳмонхона занжирларидир.

Ўзбекистонда меҳмон уйларини ташкил этиш туризм соҳасинин ривожланитиршнинг асосий йўналишлардан бири сифатида эътироф этилмоқда. Хориж мамлакатларида меҳмон уйларини ривожлантириш бўйича тадбиркорлик фаолияти яхши йўлга қўйилган ва катта тажрибага эга ҳисобланади.

Мисол тариқасида, Франция давлатида хизмат кўрсатиш хусусиятлари бўйича ўзига ҳос жиҳатларга эга бўлган турли хилдаги меҳмон уйлари мавжуд. Буларнинг айрим турларини келтириб ўтамиз:

меҳмонлар учун кичик уйлар;
меҳмонлар учун алоҳида хоналар;
таверналар (трактирлар);
овқатланиш билан бирга тунаш учун фермер уйлари;
туризм лагерлари ва фермаларда дегустация;
кичик меҳмонхоналар ва оилавий ресторанлар;
пиёда туристлар учун меҳмон уйлари;
болалар учун меҳмон уйлари;
от боқадиган фермерларнинг меҳмон уйлари ва бошқалар.

Францияда меҳмон уйларини шакллантиришда даромад олишдан ташқари ўз йўналиши бўйича қўйилган мақсадга эришиш учун эътибор қаратилади. Юқорида келтирилган меҳмон уйлари турларининг ривожланиши қишлоқ жойларда туризм салоҳиятини ошишига ва кўпроқ сайёҳларни жалб қилишига олиб келмоқда. Ҳозирги кунга келиб Франциянинг меҳмон уйлари қишлоқ жойларда рақобатбардош тадбиркорлик турларидан бири бўлиб, аҳолини доимий даромад билан таъминламоқда.

Испания мамлакатида ҳам меҳмон уйларига хос бўлган меҳмонхона турлари туризм соҳасида етакчи тармоқлардан ҳисобланади. Ушбу давлатнинг денгиз қирғоқларидаги меҳмон уйлари асосан қишлоқ меҳмон

уйлари, тоғ уйлари, вилла каби номлар билан юритилади. Сайёҳлар бундай меҳмон уйларида яшашда имкон қадар ўз уйи муҳити яратилганлигини ҳис қилади, қулай шароитлар билан таъминланган бўлади.

Испаниянинг Коста Бланка (*Costa Blanca*) соҳилида жойлашган меҳмон уйлари сайёҳлар ўртасида машҳур бўлиб, улар жозибали, қулай шароит яратилган ва мустақил дам олиш, ҳамда овқатланиш хизматларини кўрсатиш билан шуғулланадиган уйлардир. Одатда денгиз соҳилидаги меҳмон уйларига жойлашган сайёҳлар денгизда дайвинг, серфинг, яхтинг каби фаолиятлар билан машғул бўлади.

Испанияда соҳил бўйидаги меҳмон уйига хос бўлган ҳашаматли виллалар катта панорамали ва чиройли манзаралар билан майдони камида 400 квадрат метр, икки ёки уч қаватдан иборат денгиз манзаралари билан уйғунлашган меҳмон уйлари тури ҳисобланади.

Ўзбекистон ҳукумати тадбиркорларнинг меҳмон уйлари фаолиятини йўлга қўйиш бўйича ижобий ишларни амалга оширмоқда. Жумладан, меҳмон уйларини ташкил этиш ва бу соҳадаги тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш бўйича Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 августдаги «Оилавий меҳмон уйлари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги қарори қабул қилинди.

Ушбу қарор ҳудудларнинг туризм салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, дам олиш ва туризм учун шарт-шароитларни яхшилаш, шунингдек, аҳолининг бандлиги ва фаровонлигини оширишга қаратилган. Мазкур ҳужжатнинг мазмун моҳиятини кенг тарғиб этиш мақсадида Туризм қўмитаси томонидан тадбиркорлик субъектлари ва аҳоли ўртасида тушунтириш ишлари олиб борилди.

Оилавий меҳмон уйлари сайёҳлар, айниқса, чет эллик сайёҳлар эътиборини кўпроқ тортиши, нисбатан камхаржлиги ва бошқа шу каби қулайликлари билан ажралиб туради. Миллий урф-одат ва қадриятларимизни кенг тарғиб қилиш, қишлоқ жойларда тадбиркорлик маданиятини ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва, асосийси, туризмни жадал тараққий эттиришда муҳим ўрин тутади.

Қарорга асосан, оилавий меҳмон уйи – бир вақтнинг ўзида 10 нафаргача бўлган меҳмон (сайёҳ)ни вақтинчалик яшаш ва озиқ-овқат билан таъминлаш хизматларини тақдим этувчи хусусий уй хўжалиги, бунда уй эгалари ушбу уйда сайёҳлар билан бирга яшаши кўзда тутилади. Бир киши учун 3 м кв ҳисобидаги турар-жой – оилавий меҳмон уйини ташкиллаштиришнинг муҳим шарти ҳисобланади[5]. Қарорда бу жойлашув воситаларига қўйиладиган талаблар белгилаб берилган.

Оилавий меҳмон уйларини ташкил этиш ва фаолият юритиши бўйича қуйидаги асосий жиҳатлар белгилаб қўйилган:

- оилавий меҳмон уйлари хизматлари индивидуал тадбиркорлар ёки оилавий тадбиркорлик субъектлари томонидан кўрсатилади. Меҳмон уйларини рўйхатга олиш ва Ягона реестрнинг юритилиши Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси томонидан амалга оширилади;

- оилавий меҳмон уйларининг хизматларини сертификациялаш учун соддалаштирилган тизим йўлга қўйилмоқда. Бу меҳмон уйини ўрганиш ҳужжати асосида уларни оилавий меҳмон уйлари Ягона реестрига киритиш ва тегишли маълумотномани бериш йўли орқали амалга оширилади;
- тижорат банкларига Оилавий меҳмон уйлари Ягона реестрига кирувчи индивидуал тадбиркорлар ва оилавий тадбиркорлик субъектлари аризасига кўра уларга имтиёзли шароитларда кредитлар ажратиш тавсия қилинади. Кредит энг кам ойлик иш ҳақининг 300 баравари миқдорида, беш йил муддатга, 2 йиллик имтиёзли даврга берилади.

**Хулоса ва таклифлар**

Юқоридагилардан хулоса қилган ҳолда, бу борада мамлакатимизда меҳмонхона хўжалигида меҳмон уйларини вилоятларда ва қишлоқ жойларда ташкил этиш ва такомиллаштиришда ўзига ҳос хусусиятларга эга. Бундай турдаги жойлаштириш воситалари нисбатан арзон ва сайёҳлар учун қулай бўлиб, хориж тажрибасига кўра қишлоқ жойларда туризмни ривожлантиришда бу турдаги меҳмонхоналардан кенг фойдаланилади. Сўнгги йилларда туризм соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотларни инобатга олган ҳолда эътиборга олиниши лозим бўлган қуйидаги асосий йўналишларни белгилаб олиш мақсадга мувофиқдир:

- мамлакатимизнинг минтақалардаги ва қишлоқлардаги табиатнинг ўзига хослиги, тарихи, аҳолининг маданияти ва урф одатлари сайёҳларни жалб этишини инобатга олган ҳолда қишлоқ жойларда меҳмон уйлари бўйича тадбиркорлик фаолияти ривожланишини жадаллаштириш;

- бу соҳада тадбиркорликни ривожлантириш қишлоқ жойлари учун кўпрок ижтимоий аҳамиятга эга бўлиб, кўп ҳолатларда ўрта ёшдаги аҳоли шаҳар жойларда ишлашга интилади. Ушбу ҳолатарни инобтга олган ҳолда меҳмон уйларини ташкил этиш бўйича тадбиркорлик фаолиятини кенг тарғиб қилиш ва бу борада қишлоқ жойларда мутахассисларни жалб қилган ҳолда, ўқув курсларини ташкил этиш;

- қишлоқ туризми ва меҳмон уйларини ривожлантириш, қишлоқ жойларда ижтимоий муаммоларни ечишга кўмаклашишини инобатга олган ҳолда қишлоқ жойларда инвестицион муҳитни яратиш ва сармояларни кенг жалб этиш лозим ва бошқалар.

**Адабиётлар**

1. “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-sonli farmoni,
2. “Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 avgustdagi qarori.
3. “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2019 yil 5 yanvar, PF-5611 sonli.

4. Чудновский А.Д. Туризм и гостиничное хозяйство. Учебник. - М.: Юркншга, 2005. - 448 с.
5. Кусков А.С. Гостиничное дело. Учебное пособие. - М.: Дашков и Ко, 2009. – 328 с.
6. R.S. Amriddinova. “Mehmonxona servisi xizmatini tashkil qilish” O‘quv qo‘llanma. SamISI, 2012.
7. Abduvohidov A. M. Barqaror turizmni rivojlanishi. Darslik. T.: Iqtisodchi, 2024 y. – 225 b.
8. Safayeva S.R. Enhance tourism through infrastructure development in Karakalpakstan: a path to sustainable growth. //Marketing lurnal, 7, 2024. – 16-19 s.
9. Абдувоҳидов А.М., Баходиров М. Туризм ривожланишининг таҳлили ва прогнози. /Жаҳон иқтисодиёти глобализацияси шароитида туризм индустрияси ривожланишининг устувор йўналишлари. Халқаро илмий амалий анжуман мақолалар тўплами. – Тошкент, ТДИУ, 2021. – 286-290 б.
10. www.uzbektourism.uz sayti ma’lumotlari

## TURIZM INDUSTRIYASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VA YASHIL TURIZMNING O‘RNI

**Esonboyev Baxodir Bakir o‘g‘li**
*O‘zXIA, Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda global miqyosda iste’molchilarning sog‘lom turmush tarzi va atrof-muhitni muhofaza qilishga bo‘lgan talabi ortib borayotgan sharoitda, turizm industriyasi sohasida ekologik madaniyatni shakllantirish, budan tashqari yashil turizm (ekoturizm sohasi)ning muhim ahamiyatli jihatlarini, nazariy va amaliy tomonlarni asoslaydi. Ishda ekologik madanyatni muvaffaqiyatli rivojlantirishning huquqiy mexanizmlari (sertifikatlashtirish, akkreditatsiyalash) va moddiy bazasi xalqaro tajriba (JTT) asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining turizm salohiyati ya’ni betakror tabiat, madaniy meros tahlil qilinib, davlatning bu sohadagi ustuvor siyosati yoritiladi. Ushbu tezis maqsadi shundan iboratki, yashil turizmni rivojlantirish – mamlakat iqtisodiyotini tubdan diversifikatsiya qilishdir,ekologik madaniyat esa tub aholining tabiatga bo’lgan munosabatini yaxshilashdir.

***Kalit So‘zlar:*** *Ekologik madaniyat, Yashil turizm. Ekoturizm, Barqaror rivojlanish, Turizm infratuzilmasi, Huquqiy baza, Davlat dasturlari.*

### Kirish

Hozirgi dunyo miqyosda sog‘lom turmush tarzi va atrof-muhitni muhofaza qilishga bo‘lgan talabning ortishi turizm industriyasida ekologik madaniyatni shakllantirish bilan birga yashil turizm ya’ni ekoturizmning ahamiyatini keskin oshirdi. Ayniqsa, pandemiya davrida bo’lgan tajriba va resurslarga bo‘lgan ortib

borayotgan ehtiyoj fonida, ekoturizm global muammolarga qarshi turishning eng barqaror va ommabop yechimi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birinchidan, oramizda yuz berayotgan ilmiy muammo shundan iboratki, ekoturizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi bevosita uning xalqaro standartlarga mos bo‘lgan huquqiy va moddiy bazasi bilan bog‘liq deb ayta olamiz. Shuning uchun bu sohada sertifikatlashtirish mexanizmlari va normativ-huquqiy hujjatlarning eng katta ahamiyatga egadir.

**Adabiyotlar Tahlili**

Tezisda ushbu tahlilning o’rni shundan iboratki, Ekologik madaniyatni shakllantirish va yashil turizmning ahamiyati bir qator xalqaro tadqiqotchilar bu soha yuzasida ko’plab aniq va teran fikrlar bildirmoqdalar. Misol uchun, Bacon va Do kabi olimlar ekoturizmning nafaqat tabiatni asrash, balki ish o‘rinlari yaratish va ta’lim masalalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy rolini ham ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, Nino, Saenz-de-Miera va Russelo kabi tadqiqotchilar tabiiy resurslardan foydalanishning salbiy ekologik oqibatlari yuzasidan xavotir bildirib, huquqiy nazorat zarurligini ta’kidlaydilar. Tadqiqotchilar albatta shuni takror aytishayaptiki, yashil turizmning o’rni biz uchun muhim bir rivojlanishdir. Xalqaro amaliyotda yuzlansak, Jahon Turizm Tashkiloti (JTT) barqaror turizmni ommalashtirish maqsadida turli huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqqan. Honey kabi mutaxassislar turizmning bu yo‘nalishini sertifikatlashtirish orqali faoliyatning huquqiy me’yorlarga mosligini ta’minlashga chaqiradi.

O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda qabul qilingan Prezident Farmonlari (PF-6199, PQ-5054) va Qarorlari (PQ-232) orqali turizm industriyasini rivojlantirishga qaratilgan institutsional va huquqiy asoslar yaratildi. Bu hujjatlar ekoturizmni rivojlantirish, mahalliy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va infratuzilmani yaxshilashga (masalan, "Sanitariya inqilobi" loyihasi) xizmat qiladi. Ayniqsa bu kabi farmonlar yurtimiz uchun juda ham foydalidir.

**Tadqiqot Metodologiyasi**

Mazkur tezis (yoki maqola) turizm industriyasida ekologik madaniyatni shakllantirish va yashil turizmning o‘rnini o‘rganishda quyidagi metodologik yondashuvlarga tayandi.

**1-jadval.**

**Uch tomonlama metodologik usul**

| | Metodologik Usul | Usulning Asosiy Maqsadi | Tadqiqotdan Aniq Misol |
|---|---|---|---|
| | Statistik Tahlil | O‘zbekistondagi turizm infratuzilmasining joriy holati va rivojlanish ko‘rsatkichlarini miqdoriy baholash. | Turizm vazirligi hisobotlari asosida 3384 ta mehmonxona va 1502 ta sanitariya-gigiyena shoxobchalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil qilindi. |
| | Mantiqiy Yondashuvlar (Induksiya) | Nazariy asoslarni shakllantirish, global tendensiyalarni milliy siyosat bilan bog‘lash. | Turistlarning barqaror hududlarga sayohat qilish faktidan kelib chiqib, yashil turizmning boshqa |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | yo‘nalishlarga nisbatan ahamiyati sezilarli oshganligi xulosa qilindi. |
| | Qiyosiy va Tarixiy Tahlil | Xalqaro va milliy tajribalarni taqqoslash, huquqiy jarayonlarni vaqt doirasida o‘rganish. | Xalqaro ekspertlarning (masalan, Honey) ekoturizmni sertifikatlashtirish bo‘yicha tavsiyalari bilan Prezidentning PF-6199 va PQ-5054-sonli hujjatlari orqali yaratilgan tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar qiyosiy tahlil etildi. |

Ushbu uch tomonlama metodologik usullar majmuasi tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini asoslash, shuningdek, O‘zbekistonning ekoturizmni rivojlantirishdagi salohiyatini aniq ma’lumotlar bilan baholash imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar**

Tahlil natijalariga ko‘ra, global miqyosda ekologik ongning oshishi (yoki atrof-muhitga oid madaniyatning shakllanishi) yashil turizmga bo‘lgan talabni sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Ekoturizm global muammolarga qarshi barqaror yechim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining betakror tabiati, boy madaniy merosi sifatida aniq bir raqamlarni tilga olsak7300 dan ortiq ob’yektlar bundan tashqari ziyorat, etnografik, gastronomik turizmlar qatorida ekologik turizmni ham rivojlantirishga qaratilgan ulkan salohiyatga ega.Fikrlarimiz dalili sifatida, so‘nggi yillarda qabul qilingan Prezident Farmonlari (PF-6199, PQ-5054, PQ-232) orqali institutsional sharoitlar yaxshilanib, turizm infratuzilmasini (mehmonxonalar, yo‘l ko‘rsatkichlari, "Sanitariya inqilobi" loyihalari) rivojlantirish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Infratuzilma rivojidagi aniq natijalar:

- Turar joy va gigiyena: Turizm vazirligi hisobotlari bo‘yicha 3384 ta turar joy ob’yektining faoliyati va 1502 ta sanitariya-gigiyena shoxobchasining qurilishi ("Sanitariya inqilobi") infratuzilmaning sezilarli yaxshilanganini ko‘rsatadi.Ushbu ma’lumotlar yuqorida ham tahlil qilindi.
- Diversifikatsiya: Mamlakatning noyob tabiati va boy madaniy merosi (7300 dan ortiq ob’yekt) asosida turizm turlari ekologik, etnografik va gastronomik yo‘nalishlar hisobiga muvaffaqiyatli kengaytirilmoqda.Bu kengaytirishlar esa aholiga qulayliklar keltirmoqda.

Darhaqiat, ekoturizmning rivojlanishi tub aholi turmush tarzini yaxshilash va markazdan uzoq hududlarda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish orqali milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiruvchi istiqbolli sektorga aylanmoqda.

**Xulosa**

O‘tkazilgan keng qamrovli tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turizm industriyasida ekologik madaniyatni shakllantirish va yashil turizmni (ekoturizmni) rivojlantirish O‘zbekiston uchun ustuvor strategik ahamiyat kasb etadi. Global miqyosda

barqarorlikka bo‘lgan talabning ortishi va O‘zbekistonning betakror tabiati, boy madaniy merosi bu sektorni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Davlat tomonidan PF-6199, PQ-5054 va PQ-232 kabi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi, yosh tadbirkorlarga grantlar ajratish hamda charter reyslarni qo‘llab-quvvatlash orqali sohada mustahkam institutsional zamin yaratildi degan umiddamiz.Xulosa qilib aytganda, ekoturizmning muvaffaqiyatli tatbiqi nafaqat turizm turlarini diversifikatsiya qilishga va milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltirishga xizmat qiladi, balki eng muhimi — tub aholining turmush tarzini yaxshilashga, markazdan uzoq hududlarda ish o‘rinlari yaratishga va tabiiy resurslarni saqlashga bevosita yordam beradi. Shu bois, ekoturizm O‘zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy ustunlaridan biri bo‘lib qolishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6199-sonli Farmoni (2021). PQ-5054-sonli Qarori (2021). PQ-232-sonli Qarori (2022).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaati (2022).

3. Jahon Turizm Tashkiloti (JTT) Ma’lumotlari.

4. Honey, M. Ekoturizmda sertifikatlashtirish masalalari. Bacon, Do va boshqalar. Ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bo‘yicha tadqiqotlar.

5. Nino, Saenz-de-Miera va Russelo. Tabiiy resurslardan foydalanish xavotirlari bo‘yicha ilmiy ishlar.

6. Ostanov, O. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bo‘yicha takliflar (Kun.uz).

7. Turizm statistikasi: O‘zbekistonda 2025-yil natijalari (Bugun.uz).

## Yashil turizmni rivojlantirishda mehmonxonalar roli: muammolar va imkoniyatlar

**Raxmonova Nigina Anvarovna**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*“Turizm va mehmonxona biznesi”*
*kafedrasi assistenti, PhD*

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada yashil turizm konsepsiyasining mohiyati, mehmonxonalarning uni rivojlantirishdagi o‘rni, mavjud muammolar va istiqboldagi imkoniyatlar yoritilgan. Xalqaro tajribalar va O‘zbekiston sharoitida qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari mehmonxonalarda energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish, suv resurslarini tejash, mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash va turistlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish kabi yo‘nalishlarning dolzarbligini ko‘rsatdi.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, mehmonxona xo‘jaligi, barqaror rivojlanish, ekologik menejment, imkoniyatlar.

## Kirish

Bugungi kunda barqaror rivojlanish konsepsiyasi turizm industriyasining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm sohasi dunyo yalpi ichki mahsulotining 10% dan ortig‘ini tashkil etadi va global karbonat angidrid emissiyasining 8% ga yaqinini hosil qiladi[1]. Mehmonxonalar esa ushbu emissiyaning asosiy manbalaridan biri bo‘lib, ular energiya va suv iste’moli, chiqindilar hajmi bo‘yicha yetakchi hisoblanadi [2].

Yashil turizm konsepsiyasi ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va mahalliy jamoalar manfaatlarini qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi[3]. Mehmonxonalar bu jarayonning markazida turib, ekologik izni qisqartirish orqali barqaror turizmni rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston turizmni rivojlantirish strategiyasida “yashil turizm”ni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan [4]. Shu nuqtayi nazardan, mehmonxonalar oldida yangi vazifalar va imkoniyatlar yuzaga kelmoqda.Ayniqsa, “yashil turizm” atamasi ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy hamjamiyat manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan yondashuv sifatida keng qo‘llanilmoqda. Mehmonxona xo‘jaligi esa turizmning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ekologik muammolarni kamaytirishda ham, yashil innovatsiyalarni tatbiq etishda ham yetakchi o‘rin egallaydi. Quyida mehmonxonalar faoliyatida yashil turizmni rivojlantirishning muhim jihatlari, mavjud muammolari va istiqboldagi imkoniyatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

- Yashil turizm — bu tabiatni asrash, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish va sayyohlar ehtiyojlarini ekologik jihatdan xavfsiz tarzda qondirishga qaratilgan turizm shaklidir.
- Mehmonxonalar yashil turizmning asosiy “maydonchasi” hisoblanadi, chunki ular ko‘plab tabiiy resurslardan (suv, elektr, oziq-ovqat, mebel, toza havo) foydalanadi.
- “Green Hotel” tamoyillari: energiya tejamkorlik, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, ekologik materiallardan foydalanish, mahalliy mahsulotlarni qo‘llash.

## Metodologiya

Ushbu maqola yozishda bir necha ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi: Nazariy tahlil: yashil turizm, barqaror rivojlanish va ekologik menejment bo‘yicha xalqaro ilmiy maqolalar, hisobotlar hamda monografiyalar o‘rganildi [5]. Taqqoslash usuli: Germaniya, Yaponiya va Turkiya tajribasi O‘zbekiston sharoiti bilan solishtirildi. Kuzatuv va amaliy misollar: Toshkent, Samarqand va Buxorodagi yirik mehmonxonalar faoliyati o‘rganildi. SWOT-tahlil: mehmonxonalar uchun yashil turizmni joriy etishdagi kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavflar aniqlab chiqildi.

## Natijalar

O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi natijalar olindi:

Mehmonxonalarda yashil turizmni joriy etish yo‘nalishlari sifatida quyidagi omillar o’z ta’sirini o‘tkazadi:

Energiya samaradorligi (quyosh panellari, energiya tejamkor lampalar, aqlli isitish va sovutish tizimlari);

Suv resurslarini tejash (sensorli kranlar, yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari, suvni qayta ishlash texnologiyalari);

Chiqindilarni boshqarish (plastik iste’molini kamaytirish, qayta ishlash dasturlari, oziq-ovqat chiqindilarini kompostlash);

Ekologik sertifikatlash (LEED, Green Key, EarthCheck kabi xalqaro ekologik standartlarga moslashish);

Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik (mahalliy ishlab chiqaruvchilardan oziq-ovqat xarid qilish, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini targ‘ib etish).

Yashil turizmni rivojlantirishda mehmonxonalar duch keladigan muammolar ham mavjud. Jumladan, ekologik texnologiyalarning boshlang‘ich qiymati yuqori bo‘lishi [6], kadrlar malakasining yetarli emasligi va mehmonlarning ekologik ong darajasining pastligi asosiy to‘siqlardandir [7]. Shu bilan birga, xalqaro grantlar va davlat qo‘llab-quvvatlashi ushbu muammolarni yumshatishga yordam beradi [8]. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil tamoyillarni muvaffaqiyatli tatbiq etgan mehmonxonalar nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy ishonchni ham qo‘lga kiritmoqda [9]. Shu bois, O‘zbekistonda ham ushbu tajribani keng joriy etish muhimdir.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar:

- Moliyaviy cheklovlar: yashil texnologiyalarni joriy etish katta xarajat talab qiladi;
- Kadrlar yetishmasligi: ekologik menejment bo‘yicha mutaxassislar kam ;
- Sayyohlar ongidagi stereotiplar: yashil xizmatlarni qimmat va noqulay deb hisoblash;
- Normativ-huquqiy baza zaifligi: ekologik standartlar to‘liq ishlab chiqilmagan.

Imkoniyatlar:

- Raqobat ustunligi: yashil mehmonxonalar xalqaro bozorda yuqori obro‘ qozonadi;
- Brend imidji: ekologik mas’uliyatli mehmonxonalar investorlar va turistlarni jalb qiladi;
- Davlat qo‘llab-quvvatlovi: yashil energetika va ekologik loyihalarga soliq imtiyozlari berilishi

Ekologik muammolarning kuchayishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning qisqarishi yashil turizmni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Turizmning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan mehmonxonalar esa bu jarayonda ikki tomonlama vazifani bajaradi: bir tomondan ular eng ko‘p resurs iste’mol qiluvchi infratuzilmalardan hisoblanadi, ikkinchi tomondan esa yashil tashabbuslarni joriy etish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo‘shishi mumkin. Shunga qaramay, yashil turizmni mehmonxona faoliyatiga tatbiq etishda qator muammolar mavjud:

- Moliyaviy cheklovlar: energiya samarador texnologiyalar va ekologik loyihalarning boshlang‘ich xarajatlari yuqori.

• Kadrlar malakasi: mehmonxona xodimlarining yashil turizm tamoyillarini chuqur bilmasligi.

• Mehmonlar xabardorligi: turistlarning ko‘pchiligi hali ekologik mehmonxonalarni tanlashga tayyor emas.

• Normativ-huquqiy baza: ayrim mamlakatlarda yashil turizmni rag‘batlantiruvchi qonunchilik va imtiyozlar yetarli emas.

• Madaniy to‘siqlar: ayrim hududlarda ekologik odatlar (chiqindilarni ajratish, energiyani tejash) keng tarqalmagan.

Yashil turizmni rivojlantirish jarayonda mehmonxonalar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular nafaqat mehmonlarga xizmat ko‘rsatish maskani, balki ekologik madaniyatni shakllantiruvchi muassasalardir. Mehmonxonalar yashil turizmni rivojlantirishda bir qancha imkoniyatlardan foydalanishi mumkin: ekologik innovatsiyalar, energiya va suv tejash texnologiyalari, chiqindilarni kamaytirish, mahalliy resurslardan foydalanish hamda yashil marketing strategiyalarini amalga oshirish va qolaversa:

• Barqaror rivojlanish maqsadlari orqali (SDG) doirasida xalqaro grantlar va sarmoyalarni jalb qilish.

• Turistlar ehtiyoji orqali ekologik ongli sayyohlar soni yildan-yilga ortishi hisobiga.

• Brend imidji orqali yashil mehmonxona sifatida tanilish — raqobatbardoshlikni oshiradi.

• Innovatsion texnologiyalar orqali aqlli mehmonxona (smart hotel), IoT tizimlari resurslarni sezilarli darajada tejaydi.

• Mahalliy iqtisodiy rivojlanish orqali yashil mehmonxonalar hududda ekologik ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi.

**Xulosa**

Yashil turizmni rivojlantirishda mehmonxonalar strategik rol o‘ynaydi. Ular ekologik barqarorlikni ta’minlabgina qolmay, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy mas’uliyatni ham uyg‘unlashtiradi.

O‘zbekiston sharoitida quyidagi chora-tadbirlar muhim:

• Mehmonxonalarni ekologik sertifikatlash tizimini joriy qilish;

• Xodimlar uchun ekologik menejment bo‘yicha muntazam treninglar;

• Innovatsion texnologiyalarga davlat subsidiyalari ajratish;

• Turistlarda yashil ongni shakllantirish uchun reklama va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish.

Shunday qilib, yashil turizm O‘zbekiston mehmonxonalarini xalqaro raqobatbardosh darajaga olib chiqishda asosiy omillardan biri bo‘lishi mumkin.

• Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik. Mehmonxonalar mahalliy aholi bilan hamkorlik qilib, ekologik loyihalarda (daraxt ekish, tozalik aksiyalari) faol ishtirok etishi mumkin.

• Bandlikni oshirish. Yashil turizmni qo‘llagan mehmonxonalar ekologik xizmatlar bo‘yicha yangi ish o‘rinlarini yaratadi.

• Ekologik ta’lim va targ‘ibot. Mehmonxona o‘z mijozlari va xodimlari uchun

ekologik madaniyatni targ‘ib qiluvchi seminar va kampaniyalar o‘tkazish imkoniyatiga ega.

- Sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish. Yashil mehmonxonalar veloturizm, yurish yo‘laklari, organik mahsulotlar asosida ovqatlanish kabi xizmatlarni taklif etishi mumkin.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, yashil turizm mehmonxonalar uchun ikki tomonlama foyda keltiradi:

- Iqtisodiy jihatdan, xarajatlarni kamaytirib, raqobatbardoshlikni oshiradi va qo‘shimcha investitsiyalarni jalb etadi.
- Ijtimoiy jihatdan, mahalliy jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytiradi, bandlikni oshiradi va ekologik madaniyatni shakllantiradi.

Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, Skandinaviya, Germaniya va Yaponiya mehmonxonalari yashil tamoyillarni keng joriy etib, nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanish natijalariga ham erishgan. O‘zbekiston sharoitida esa yashil turizmni qo‘llash orqali milliy turizm brendini mustahkamlash, mahalliy aholining turmush darajasini oshirish va barqaror turizm tizimini yaratish mumkin.

Mehmonxonalar yashil turizmni rivojlantirishda muhim strategik rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati nafaqat ekologik muammolarni kamaytirishga, balki xalqaro bozorda raqobatbardosh bo‘lishiga ham xizmat qiladi. Yashil texnologiyalarni joriy etish, xodimlar malakasini oshirish va mehmonlar ongini shakllantirish orqali mehmonxonalar barqaror turizmning yetakchi bo‘g‘iniga aylanishi mumkin. Shu ma’noda, yashil turizm — bu faqat ekologik tashabbus emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan foydali yo‘nalishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. UNWTO (2023). Sustainable Tourism Development Report. Madrid: United Nations World Tourism Organization.
2. Gössling, S., & Scott, D. (2022). Tourism and Sustainability: Challenges and Opportunities. Journal of Sustainable Tourism, 30(4), 543–559.
3. OECD (2022). Green Growth in Tourism. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
4. O‘zbekiston Respublikasi (2020). Turizmni rivojlantirish strategiyasi 2030. Toshkent.
5. Kasim, A. (2021). Green Hotels and Sustainability in Hospitality Industry. International Journal of Hospitality Management, 94, 102–118.
6. Gössling, S., & Hall, C. M. (2006). Tourism and Global Environmental Change: Ecological, Social, Economic and Political Interrelationships. London: Routledge.
7. Chan, W. W. (2008). Environmental measures for hotels’ environmental management systems: ISO 14001. International Journal of Contemporary Hospitality Management, 20(5), 463–479.
8. UNDP (2020). The Sustainable Development Goals Report 2020. New York: United Nations Development Programme
9. Hotel Energy Solutions (2011). Envisioning Tourism in 2030.

# YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH MASALALARI

**Murtazayeva Gulrux Isabek qizi**
*TDIU, Turizm va mehmonxona biznesi kafedrasi tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada yashil turizmning rivojlantirishga doir xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda olib borilayotgan ishlar yoritilgan. Mintaqalar doirasida soha bilan bog‘liq ba’zi ma’lumotlar, jumladan davlat qo‘riqxonalari, tabiat yodgirliklari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar**. Yashil turizm, qo‘riqxonalar, tabiat yodgirliklari, atrof-muhit.

## Kirish

Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ning hisobotida turizmni barqaror rivojlantirishning qator dasturlari bayon etilgan bo‘lib, unda “Ekoturizmni rivojlantirish uchun iqlim o‘zgarishi, yerlardan barqaror foydalanish, bioxilma-xillikni va alohida muhofaza etiladigan hududlarni saqlash masalalariga alohida e’tibor berish”[96] lozimligi ta’kidlangan [1].

Bugungi kunda turizm sohasi nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi tarmoq, balki ekologik barqarorlikni ta‘minlovchi omil sifatida ham qaralmoqda. Shuning uchun ham “yashil turizm” (eko-turizm, barqaror turizm) tushunchasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yashil turizmning asosiy maqsadi - tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik izni minimallashtirish, mahalliy jamoalarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashdir [2,3].

## Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ekoturizm bilan bog‘liq keng ko‘lamli tadqiqotlarning nazariy va uslubiy masalalari xorijlik va MDH olimlaridan Jumladan, N.D.Getzer, J.Krippendorff, H.Seballos-Laskurian, G.Wall, K.Ziffer, J.R.Butler, K.Lindberg, D.Vestern, J.G.Nelson, P.Tomson, K.Brandon, M.Honey va boshqa olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

## Materiallar va metodlar

Tadqiqotida hududiy tahlil, statistik, qiyosiy-tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## Tahlil va natijalar

Yashil turizm (eko-turizm yoki ekologik turizm deb ham ataladi) - bu sayyohlik faoliyatining atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan

[96] https://www.e-unwto.org. UNWTO Annual report. 2017

shaklidir. Uning asosiy maqsadi - tabiatni saqlagan holda dam olish, o‘rganish va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishga katta e’tibor qaratilib, mamlakatda ekoturizm hududlarini yaratish, tabiiy qo‘riqxonalarda turistik infratuzilmani rivojlantirish va xorijiy tajribani joriy etish bo‘yicha muhim islohatlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar tajribasi yashil turizmni joriy qilishda samarali mexanizmlarni o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Yashil turizm - tabiatga minimal ta’sir ko‘rsatgan holda amalga oshiriladigan, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan sayohat turidir. Uning asosiy tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin: atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish, tabiiy va madaniy merosni saqlash, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish, ta’limiy, ma’rifiy maqsadni ko‘zlash va h.k.

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga yashil va ekoturizm segmenti dunyo bo‘yicha umumiy turistik oqimning taxminan 20-25% qismini tashkil etmoqda. Bu tendensiya postpandemiya davrida ekologik mas’uliyat va “sog‘lom dam olish” talabining oshishi bilan izohlanadi.

Xorij mamlakatlarida yashil turizmni rivojlantirish tajribasini o‘rganish asosida respublikamiz mintaqalarida mazkur sohani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

-Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi. Ushbu mintaqa yashil turizmni davlat siyosati darajasiga olib chiqqan mintaqalardan biri hisoblanadi. Masalan, Shvetsiya, Norvegiya va Finlyandiya davlatlarida “Green Key”, “Eco-label” kabi sertifikatlash tizimlari orqali mehmonxonalar, transport xizmatlari va turistik agentliklar ekologik standartlarga muvofiq baholanadi.

Fransiyada “eco-village” loyihalari asosida mahalliy fermer xo‘jaliklari bilan integratsiya qilingan yashil yo‘nalishlar tashkil etilgan. Bu loyihalar nafaqat turistlarni jalb etadi, balki mahalliy ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Germaniyada esa “Green Destination” dasturi orqali barqaror transport tizimi, velosiped yo‘laklari, energiya tejamkor mehmonxonalar va qayta ishlangan materiallardan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Osiyo mamlakatlari tajribasi. Yaponiya va Janubiy Koreyada yashil turizmni qishloq turizmi bilan uyg‘unlashtirish yo‘lida katta tajriba to‘plangan. Yaponiyaning “Satoyama” konsepsiyasi tabiat va inson munosabatlarining uyg‘unligiga asoslanib, kichik qishloq hududlarida ekoturizm va agroturizmni birlashtirishni nazarda tutadi.

Malayziya, Indoneziya va Tailandda esa milliy parklar, marjon riflar va tropik o‘rmonlarda ekologik sayohat yo‘nalishlari tashkil etilgan bo‘lib, har bir turistdan tushgan mablag‘ning ma’lum qismi tabiatni muhofaza qilish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.

O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. O‘zbekistonda ekoturizm va yashil turizm salohiyati juda yuqori. Mamlakatda 7 ta davlat qo‘riqxonasi, 11 *ta* tabiat yodgorligi mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligi Jahon tabiat fondi va YUNESKO tomonidan muhofaza etiladigan hududlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Shu bilan birga, mavjud qator imkoniyatlarga qaramay, bir qator muammolar saqlanib qolmoqda: infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kadrlar salohiyatining yetishmasligi, ekoturizm standartlarining yo‘qligi ekologik madaniyatning past darajasi, mahalliy jamoalarning turizmdan oladigan foydasi cheklanganligi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun xorij tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Xorij tajribasini O‘zbekiston sharoitida joriy etish orqali muayyan natijalarga erishish mumkin. Yashil turizmni samarali rivojlantirish uchun xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Dunyoda bu sohada eng yaxshi natijalarga erishgan mamlakatlar, jumladan, Shvetsiya, Yaponiya, Germaniya, Kanada va Janubiy Koreya - turizmni tabiatni muhofaza qilish siyosati bilan integratsiya qilish orqali barqaror rivojlanish modelini yaratgan.

Xorijdagi “Green Key”, “EcoLabel”, “Blue Flag” kabi sertifikatlash tizimlari mehmonxona, transport, ovqatlanish va ekskursiya xizmatlarini ekologik mezonlar asosida baholaydi. Shu asosda O‘zbekistonda “Green Uzbekistan Standard (GUS)” yoki “Eco Hotel Uzbekistan” nomli milliy sertifikat tizimini joriy etish taklif etiladi. Bu tizim quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi: mehmonxonalarda energiya tejamkor uskunalardan foydalanish, chiqindilarni ajratish va qayta ishlash, suv sarfini nazorat qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalari (shu jumladan quyosh batareyalari) dan foydalanish, mahalliy mahsulotlardan tayyorlangan organik oziq-ovqat xizmatlarini rag‘batlantirish, mehmonxona faoliyatida “karbon izini” hisoblash va kamaytirish tizimini joriy qilish. Bu model Germaniyadagi “Green Globe” dasturi yoki Finlyandiyaning “Sustainable Travel Finland” standartiga yaqin bo‘ladi. Uning joriy etilishi mahalliy turizm subyektlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi va xorijiy turistlar uchun ishonchni oshiradi.

Shvetsiya va Kanada tajribasida yashil turizm loyihalari ko‘pincha davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladi. Masalan, tabiat qo‘riqxonalari atrofidagi “eco-village”lar davlat yerlarida qurilgan bo‘lib, faoliyati xususiy tadbirkorlar tomonidan boshqariladi.

O‘zbekiston sharoitida mazkur tajribani qo‘llash orqali quyidagilarga erishish mumkin: davlat tomonidan yer va infratuzilma bilan ta’minlash, xususiy sektor tomonidan mehmonxona, kemping, velosiped ijara markazi kabi xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, mahalliy aholi uchun ish o‘rinlari yaratish va daromad manbalarini kengaytirish. Bu usul Surxondaryo, Nurota, Chotqol, Zarafshon, va Qizilqum hududlaridagi ekoturizm zonalarida ayniqsa samarali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, har bir hudud uchun “Green Cluster” modeli yaratilishi tavsiya etiladi, ya’ni tabiiy resurs, madaniy meros va xizmatlar yagona ekologik zanjir sifatida rivojlantiriladi.

Tadqiqot obyektimiz hisoblangan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududida ham yashil turizmni yanada jonlantirish foydadan holi emas. Zero mintaqa o‘zining betakror tabiati, fauna va florasi, ular tarkibida endemiklarning ko‘pligi bilan boshqa hududlardan keskin ajralib turadi.

Ekoturizm obyekti har qanday jonli va jonsiz tabiat obyekti bo‘lishi mumkin. Qo‘riqxona, yovvoyi tabiat, ko‘l, g‘or, tog‘ cho‘qqisi, ekzotik o‘simliklar o‘sadigan yoki ekzotik hayvonlar va qushlar yashaydigan joylar turizmning diqqatga sazovor

obyektlari hisoblanadi. Ekoturistik resurslari tarkibiga landshaftlar, orografik hamda, gidrologik obyektlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, madaniy-etnografik diqqatga sazovor joylar, noyob tabiiy obyektlar, arxeologik topilmalar, shuningdek, tipik va noyob landshaftlar hamda ekotizimlar kiradi.



**Kitob davlat geologik qo‘riqxonasi**



**Hisor davlat qo‘riqxonasi**



**Muborak davlat buyrtma qo‘riqxonasi**



**Surxon davlat qo‘riqxonasi**

**1-rasm. Mintaqada joylashgan ba’zi ekoturistik hududlar**

**Xulosa**

Yashil turizm - bu nafaqat iqtisodiy foyda manbai, balki tabiat va madaniyatni muhofaza qilish, aholining turmush sifati va ekologik ongini oshirish vositasidir. Xorij tajribasidan ko‘rinib turibdiki, bu yo‘nalish faqat davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanganda va mahalliy jamoalar faol ishtirok etgandagina barqaror natija beradi. O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish uchun tabiiy hududlarda ekologik infratuzilmani yaratish; xorijiy sertifikatlash standartlarini moslashtirish; universitetlarda “yashil turizm menejmenti” bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlarini kuchaytirish; raqamli va axborot tizimlari orqali ekoturizmni targ‘ib qilish singari takliflar dolzarb hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. https://www.e-unwto.org. UNWTO Annual report. 2017

2. Shokhrukh, R., Dunyobek, K., Xudayberdiyevich, R.A., Suhail, M., Ganiyev, Z., Gulrukh, M., Mirzomurodovich, K.F., & Jannazarovich, A.K. (2025). Spatial analysis of ecotourism resource potential in the mountainous regions of Surkhandarya, Uzbekistan. *Geojournal of Tourism and Geosites*, 61(3), 1922–1931.

https://doi.org/10.30892/gtg.61349-1559

3. Nilufar, K. K., Mashrab, R. U., Nasiba, I. S., Aybibi, E. M., & Gulrukh, I. M. (2021). Tourist destination as an object of research of social and economic geography. *Psychology and Education Journal*, *58*(1), 2058–2067. https://doi.org/10.17762/pae.v58i1.1082

4. Ravshanov Sh.A., Usmonov M.R., Jumaboev T.J., Suvonova D, Murtazayeva G. Prospects for the development of ecotourism based on the organization and use of national parks in Uzbekistan. *Science and Education in Karakalpakstan. 2025 №1/2 ISSN 2181-9203*.

## Yashil qishloq turizmini shakllantirish va rivojlantirishning zaruriy shartlari

**Q.A. Musaxanov**
*TDIU, Turizm va mehmonxona biznesi kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD*

**Anotatsiya.** Yashil va qishloq turizmini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar keyingi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini kuchaytirish tendentsiyasi yaqqol kuzatilmoqda. Bu omillar mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga e'tibor kuchayishiga hizmat qiladi . Davlat miqyosida suv va havoni tozalash, chiqindilarni qayta ishlash, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish kabi masalalar bo‘yicha doimiy muhokama qilinib, qarorlar qabul qilinmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Yashil va qishloq turizim, zamonaviy va ichki xizmat ko'rsatish, atrof-muhit, rivojlantirish konsepsiyasi, barqaror rivojlantirish.

### Kirish

Zamonaviy sharoitda yashil turizmi jahon turizm bozorining alohida muhim sektorini tashkil etadi. Hozirgi zamonning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va tabiiy-iqlimini hisobga olgan holda, yashil va qishloq turizmini shakllantirish va rivojlantirish O’zbekiston Respublikasining agrosanoat hududlarini diversifikatsiya qilishning hal qiluvchi jihatlaridan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimizda yashil turizimni tashkil etishning maqsadi yashil turizmini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha nazariy qoidalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Yashil va qishloq turizimni tashkil etish uchun quyidagi vazifalar belgilash va hal qilish muhum axamyatga ega: yashil va qishloq turizmini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlash; dunyo mamlakatlari misolida yashil turizmi sanoati va infratuzilmasini rivojlantirish tendentsiyalarini umumlashtirish, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari qishloq hududlarini ma'muriy-hududiy tashkil etish tajribasini amaliyotga amaliy tatbiq etish istiqbollarini aniqlash; va qishloq turizmini rivojlantirish omillarini aniqlash; hududlarda yashil turizmini rivojlantirishni faollashtirish bo'yicha chora-

tadbirlar rejasini ishlab chiqishdan va amalga oshirish bugungi kunda muhum masala qilib belgilangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Yashil va qishloq turizmini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari bilan A. Birkovich, V. Vasilyeva, P. Xorishevskiy, A. Zinchenko, V. Xolovatska, T. Zinchuk, S. Ilyashenko, S. Melnichenko va kabi boshqa olimlar shug'ullangan. Biroq, turizmning bu turlarining faol rivojlanishi ularning xususiyatlarini doimiy ravishda o'rganishni talab qiladi.

Aksariyat hollarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini ko'rib chiqish turizmni rivojlantirish masalalari bilan birlashtiriladi, bu esa hududlarda turizmni barqaror rivojlantirish masalalariga alohida e'tiborini jalb qilishga yordam beradi. Shubhasiz, bu masalalarga e'tiborning kuchayishi ham atrof-muhitni muhofaza qilish, ham turistlar tomonidan ekologik manfaatlar bilan bog'liq individual turizm darajasida yangi turistik mahsulotlarning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Shunday qilib, turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasi asosida vujudga kelgan turlardan biri yashil turizmidir. Shu bilan birga, zamonaviylikning umumiy global tendentsiyalari siyosiy iqtisodiy jixatdan qishloq xo'jaligi va qishloq taraqqiyoti foydasiga o'zgarganligini ko'rsatadi. Dunyoning ko‘plab yetakchi mamlakatlarida demokratlashtirish va aholining siyosatni ishlab chiqishdagi ishtirokini kuchaytirish kam ta’minlangan qishloq aholisining rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga ta’sir qilish imkoniyatlarini kengaytiradi - ishsizlikni kamaytirish, qishloq joylarda turmush darajasini oshirish hizmat qiladi. Shuning uchun aynan yashil va qishloq turizmi qishloqlarning muvozanatli ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Qishloq aholisining daromadlarini diversifikatsiya qilish usullaridan biri sifatida yashil va qishloq turizmi Evropada paydo bo'lgan. 18-asrning boshlarida ekspeditsiyalarga xizmat ko'rsatish uchun birinchi mehmon uylari Frantsiya va Shveytsariyada tog'li hududlarda paydo bo'ldi. Va 20-asrning oxirida yashil qishloq turizmi global miqyosda jadal rivojlanishga erishdi, bu qishloq xo'jaligi va o'z pozitsiyalarining ma'lum bir sohasiga xos bo'lgan boshqa iqtisodiy faoliyat turlarining yo'qolishi bilan bog'liq edi. Bunday sharoitda yashil va qishloq turizmi iqtisodiy tizimlarning tanazzulga uchrashining oldini olish maqsadida muqobil rivojlanish shakllaridan biriga aylanib bormoqda. Uning faoliyatining muhim natijasi xalqaro turizm bozorida mashhur bo'lgan "qishloq yashil turizmi" mahalliy brendini yaratishdir. Qishloq turizmini rivojlantirishni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va qishloq xo‘jaligi muammolari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarur. Shunday qilib, yashil va qishloq turizmi iqtisodiyotning murakkab tarmog'i bo'lib, unga quyidagilar sifatida qaralishi kerak: turli xizmatlar sohasi; ichki va xalqaro turizm sektori; qishloq joylarida tadbirkorlik faoliyatining bir turi; qishloq turizmini rivojlantirish, shuningdek, qabul qiluvchi mintaqadagi bir qator iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi (1-rasm).




**1- rasm.Yashil va qishloq turizmini rivojlantirish orqali muammolarni hal qilish istiqbollari.**

Bundan tashqari, yashil va qishloq turizmi qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi sifatida nafaqat qishloq aholisi va turistlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini sezilarli darajada o'zgartiradi. Shunday qilib, yashil va qishloq turizmi faoliyat va tadqiqotning yangi sohasi bo'lib, unda iqtisodiy va iqtisodiy bo'lmagan yo'nalishlarning ham global, ham milliy darajadagi o'zaro ta'siri kuzatiladi. Yashil va qishloq turizmi barqaror turizmning kichik turi va ekoturizm bilan qisman mos keladigan turizm turidir. Shuning uchun siz ko'pincha "qishloq yashil" turizmining ta'rifini ko'rishingiz mumkin. Ko'pgina mamlakatlarda turizmni rivojlantirish amaliyotida ekoturizm va agroturizm bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq tushunchalardir. Bundan tashqari, zamonaviy va ichki xizmat ko'rsatish sohasi turizmi qishloqda tadbirkorlik faoliyati yashil va qishloq turizmi milliy madaniyatning asosiy ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy muammolari qishloqda urbanizatsiya jarayonlarini qisqartirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, qishloq joylarida tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning foydali turlarini yaratishda, global iqtisodiy muammolarni hal qilish, tabiatni muhofaza qilish masalalari cheklangan yer mulkini kengaytirish, qishloq madaniyatini rivojlantirish milliy madaniyat, an'analar, hunarmandchilikni qayta tiklash amaliy axamyatga ega hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda atrof-muhitga va

mahalliy jamiyatga ta'siri bo'yicha bir qator o'xshash va engil va maqsadlari bo'yicha o'xshash turizm turlari (jumladan, qishloq, dehqonchilik, sport, pazandalik, sarguzasht, ekstremal va boshqalar) ko'pincha birlashtirilgan. Buni Evropa tajribasi tasdiqlaydi: bu atamani o'z nomiga kiritgan tashkilotlarga misollar mavjud (European Center for Eco Agro Tourism - ECEAT). Qishloq turizmi nafaqat qishloq joylarida joylashtirishni, balki boshqa rekreatsion faoliyat turlari bilan ham birlashtirilishi mumkin, yashil va qishloq turizmi klassik qishloq turizmi va qishloq turizmi o‘rtasida joylashganligi ko‘radigan bo‘lsak, turizmning bu turlari ham ekologik tozalik tamoyillariga va o‘zaro bog‘liq bo‘lib, turizm faoliyatining boshqa turlarini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Normativ-huquqiy hujjatlar va adabiy manbalarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida qishloq va yashil turizmning barqaror rivojlanish aspektidagi xususiyatlari ochib berildi, xorijda qishloq yashil turizmini rivojlantirish modellari belgilab berildi. Qishloq va yashil turizmni va uning xususiyatlarini aniqlashga kontseptual yondashuvlarni tahlil qilish natijalariga ko’ra, qishloq turizmini ekologik turizm kontekstida ko'rib chiqish kerakligini, ya'ni qishloq yashil turizmini qishloq joylarda amalga oshirilayotgan turli xil turizm turlarini birlashtiruvchi umumlashtiruvchi tushuncha sifatida qo'llash kerakligini isbotlaydi. Yashil va qishloq turizmini rivojlantirish amaliyoti va metodologiyasi bo‘yicha xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, aholi bilan ishlash yashil va qishloq turizmini rivojlantirishning eng muhim jihati hisoblanadi. Fermer xo‘jaliklari egalari qishloqda turizmni rivojlantirish istiqbollari, jozibador turistik mahsulotni yaratish va boshqarish, zarur texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlariga ishonch hosil qilishlari kerak. Shu munosabat bilan, ishda qishloq aholisini turizm faoliyatiga jalb qilishning samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Musaxonov Q.A Namangan viloyatining tadbirkorlik faoliyatida mexnat resurslari saloxiyati taxlili. //Biznes-Ekspert. –Toshkent, 2023.- №2. 2023. 51-54 betlar. (08.00.00. № 2).

2. Musaxonov Q.A Namangan viloyatida agroturizm tadbirkorligini rivojlantirish masalalari. // Biznes-Ekspert. –Toshkent, 2023№ 3 2023. 64-67 betlar. (08.00.00. № 3)

3. Bustonov M.M. The Firm Aspects and conditions Providing the Qualities of Economic

4. Growth in Uzbekistan //International Journal of Economic Theory and Application. 2017, (4): 32-39

http://www.aascit.org/journal/archive2?journalId=918&paperId=4704

5. Bustonov M.M., Ensuring Long-Term Economic Growth in the World and Econometric Analysis of Economic Growth of the Republic of Uzbekistan in the Context of Extensive, Intensive and Digital Economy. Miasto Przyszłości Kielce 2022, ISSN-L: 2544-980X.

https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/406

6. Bustonov M.M., Analysis of Economic Growth in the Juglyar Cycle in World Countries. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal (MRJ) Volume: 01 Issue: 03 | 2022 ISNN: (2751-7543)
http://innosci.org/index.php/wos/article/view/53/37

## O‘zbekistonda sog‘lomlashtirish turizmining iqtisodiy ahamiyati hamda rivojlanish omillari

**Naimov Saidjon Yusup o‘g‘li,**
*TDIU, “Turizm va mehmonxona biznesi” kafedrasi stajyor tadqiqotchisi (PhD)*

**Anotatsiya.** Oxirgi yillarda aholining salomatligini mustahkamlash va sog`lom hayot tarzini targ`ib qilishga e`tibor kuchaydi. Natijada, sog`lomlashtirish turizmi industriyasi jadal rivojlandi. Turizmning ushbu yo`nalishi jismoniy va ruhiy sog`likni yaxshilashga qaratilgan xizmatlarni o`z ichiga oladi hamda dunyo xizmatlar bozorida daromadi yuqori sohalardan biriga aylandi. Ushbu tadqiqot sog`lomlashtirish turizmining iqtisodiy ta`sirini, uning o`sish omillarini va istiqbollarini o`rganishga bag`ishlangan. Tadqiqotning vazifasi - sog`lomlashtirish turizmining jahon iqtisodiyotida tutgan o`rni va O`zbekiston sharoitidagi taraqqiyot salohiyatini aniqlashdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** Sog‘lomlashtirish turizmi, salomatlik iqtisodiyoti, turizm bozori.

### Kirish

Sog`lomlashtirish turizmining jahon iqtisodiyotidagi o`rniga to`xtaladigan bo`lsak birgina 2023-yilda global sog`lomlashtirish sohasining hajmi 6,3 trillion AQSh dollarini tashkil etdi, bu dunyo yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 6,03% ni tashkil qildi. Prognozlarga ko`ra, 2028-yilga borib bu ko`rsatkich 9 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Shuningdek O`zbekistonda sog`lomlashtirish turizmini taraqqiy toptirish uchun bir qancha imkoniyatlarga ega. Respublika hududida 15 ta shifobaxsh buloq, 20 ta nafas yo`llari kasalliklarini davolash zonasi, 207 ta sanatoriy mavjud. Prezident qaroriga muvofiq 7 ta hududda zamonaviy sog`lomlashtirish maskanlari barpo etilmoqda. Yuqoridagilarga asoslanib, O`zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun sog`lomlashtirish turizmi markazi bo`lish imkoniyatiga ega davlat sanaladi.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mamlakatimiz tadqiqotchilaridan A. Nig`matov, N. Shomurodova o`zlarining ilmiy ishlarida O`zbekiston Respublikasidagi ekoturizimning mintaqaviy farqlari ularning iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilishgan. Hamda turizimning ushbu yo`nalishi kelgusida mamlakatning turizm sektorida asosiy o`rinni egallashini ta`kidlab o`tishgan. O‘zbekiston sharoitida esa bu yo‘nalishni taraqqiy ettirishga

qaratilgan davlat dasturlari va strategik hujjatlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari hamda farmonlari) katta ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil qilish uslublaridan foydalanildi. Ma'lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Turizm qo‘mitasi va tegishli ilmiy manbalardan olindi. Tadqiqot natijalari grafik hamda jadvallar yordamida tahlil qilingan. Tadqiqot uchun asosiy ma`lumot manbalari sifatida Global Wellness Economy Monitor (2024), Jahon bankining prognozlari hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tibbiy va sog`lomlashtirish turizmini rivojlantirish to`g`risidagi qarorlaridan olingan.

Xalqaro maqolalardagi ma'lumotlarga tayangan holda dunyo va O`zbekiston sog`lomlashtirish turizmi sohasidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar o`rganildi va statistik tahlil qilingan. Shuningdek sog`lomlashtirish turizmi mavzusidagi ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va hukumat qarorlari tahlil qilindi.

**Muhokama va natijalar**

Xalqaro miqyosda salomatlik turizmi sog`lomlashtirish turizmining kichik toifasi bo`lib, u jismoniy, aqliy, hissiy, inson hayotining barcha sohalarini, shu jumladan kasbiy, intellektual va ma`naviy sohalarini takomillashtirish va muvozanatlashga qaratilgan maqsadli turizm faoliyati sifatida ta`riflangan.

Sog`lomalashtirish turizmi – bu shaxsning jismoniy, aqliy va ma`naviy salomatligi uchun tibbiy va sog`lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etishni o`z ichiga olgan turizim hisoblanadi.

Turlari bo`yicha sog`lomalshtirish turizmi va tibbiy turizmni o`z ichiga oladi.




**1-rasm. Sog ‘lomlashtirish turizmning turlari**

Sog`lomlashtirish turizmining ko`p qirraliligi tufayli mintaqaning moddiy va nomoddiy resurslari potensial sog`lomlashtirish turizmi resurslari hisoblanadi. Sayyohlik resurslaridan foydalangan holda noyob sog`lomlashtirish tajribasini taqdim etish sog`lomlashtirish turizmini rivojlantirish siyosatining muhim maqsadi hisoblanadi.

Sog‘lomlashtirish turizmining asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Issiq va mineral suvlar negizidagi sog`lomlashtirish maskanlari.
2. Spa hamda kurort sanatoriy xizmatlari.

3. Yoga va fitnes dam olish maskanlari.
4. An`anaviy va muqobil tibbiyot markazlari.

Turizmning o`sishi va taraqqiyotiga quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta`sir qiladi: aholining ma`lumot darajasi, madaniyati va estetik talablari. Odamlarning turli mamlakatlarning hayot tarzi, tarixi, madaniyati va turmush sharoiti bilan tanishish istagi, estetik talab elementlari sifatida ko`rilishi mumkin.

Tashqi omillarga siyosiy va huquqiy o`zgarishlar ham kiradi; texnologik taraqqiyot; transport infratuzilmasi va savdoni rivojlantirish, sayohat xavfsizligi shartlarini o`zgartirish.

Sog`lomlashtirish turizmi nafaqat aholining sog`lig`ini yaxshilashga, balki iqtisodiy o`sishni qo`llab-quvvatlashga ham xizmat qiladi. Tadqiqotlar natijalariga ko`ra, sog`lomlashtirish turizmi quyidagi jihatlarda katta ahamiyatga ega hisoblanadi:

1. Iqtisodiyoti uchun foydasi – daromadi yuqori ish joylari tashkil etish hamda xizmat ko`rsatish sohasini taraqqiy toptirishga yordam beradi.
2. Tibbiy infratuzilmaga ta`siri – sog`liqni saqlash tizimiga mablag` jalb qilishga imkoniyat yaratadi.
3. Turizmga ta`siri – chet ellik sayyohlarni jalb etish orqali davlat iqtisodiyotiga ijobiy ta`sir qiladi.

Lekin, tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, O`zbekiston sog`lomlashtirish turizmini rivojlantirishda yechishi kerak bo`lgan birqancha muammolar mavjud:

1. Chet ellik sayyohlar uchun marketing strategiyalarining uncha rivojlanmaganligi.
2. Xalqaro standartlarga javob beradigan xizmatlarning yetishmasligi.
3. Logistika va infratuzilma bilan bog`liq kamchiliklar.




**2-rasm. Sog‘lomlashtirish xizmatlari eksporti (2019–2023)[97]**

[97] Muallif tomonidan *UNWTO (2022) va Global Wellness Institute (2023)* ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

2023-yil yakuniga ko‘ra, sog‘lomlashtirish xizmatlari eksporti 138,5 mln dollarni tashkil etdi, bu esa 2019-yildagiga nisbatan 44% o‘sishni ifodalaydi (Davlat Statistika Qo‘mitasi, 2024).

Mazkur rivojlanish bilan bir qatorda, O‘zbekistonning har bir mintaqasida sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish uchun mahalliy resurslar asosiy iqtisodiy asos sifatida qaralmoqda. Jumladan:

— Namangan vodiysi: “Chortoq Termal Markazi” 2022-yilda ishga tushirilib, yiliga 6 mingdan ortiq turist qabul qilmoqda. Bu markaz Qoraqalpog‘istondan va Qozog‘iston janubidan ham doimiy mijozlar oqimini ta’minlamoqda;

— Buxoro viloyati: sho‘r suv asosidagi davolash (balneologik) xizmatlar 2023-yildan boshlab sertifikatlangan bo‘lib, “Buxoro Med Spa” loyihasi doirasida 4 million dollarlik xorijiy sarmoya jalb qilingan;

— Surxondaryo tog‘ hududi: “Boysun Med Center” tog‘ havosi asosidagi reabilitatsiya markazi 2021-yilda 1,5 milliard so‘mlik mahalliy byudjet hisobidan infratuzilma qurilishi orqali ishga tushirilgan.

Natijada, sog‘lomlashtirish turizmi hududiy rivojlanishning strategik yo‘nalishiga aylangan bo‘lib, ayniqsa ishsizlik yuqori bo‘lgan tog‘li hududlarda xizmatlar eksportining ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda.O‘zbekiston sharoitida sog‘lomlashtirish turizmi bosqichma-bosqich quyidagi iqtisodiy evrilishlarga yuz tutgan:

**1-jadval.**

**O‘zbekiston sharoitida sog‘lomlashtirish turizmi rivojlanish bosqichlari[98]**

| Davr | Rivojlanish xususiyati | Asosiy ko‘rsatkichlar |
|---|---|---|
| SSSR davri | Davlat tomonidan subsidiya asosida yuritilgan sanatoriylar | Har yili 40 mingdan ortiq davolanuvchi |
| 1991–2010 | Bozor mexanizmlarining joriy etilishi, xususiy sektor kirib kelishi | Wellness muassasalari soni: 18 dan 100+ gacha |
| 2017–2024 | Davlat strategiyalari va prezident qarorlariga asoslangan tizimli rivojlanish | Xizmatlar eksporti: 138,5 mln dollar (2023) |
| 2025–2030 | Raqamlashtirish, ekologik yondashuv, xorijiy brendlar integratsiyasi | Maqsadli eksport hajmi: 600 mln dollar |

Shunday qilib, O‘zbekiston sog‘lomlashtirish turizmini yangi bosqichga olib chiqish yo‘lida iqtisodiy, infratuzilmaviy va huquqiy mexanizmlarni izchil tarzda joriy etmoqda.Sog‘lomlashtirish turizmi zamonaviy xizmatlar bozorining transchegaraviy va ko‘p tarmoqli yo‘nalishi sifatida global miqyosda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan bu yo‘nalish inson salomatligini tiklash, saqlash va profilaktika qilishga qaratilgan

[98] Muallif tomonidan *Goodrich, N. (1991). The Baths of Caracalla in Rome and Ancient Balneotherapy Practices. Oxford University Press*; *UNWTO (2016). Global Report on Health Tourism*; *Sovet Iqtisodiy Arxivi (1987)*; *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5611 (24.05.2024)* qarori hamda *Global Wellness Institute (2023)* ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

xizmatlar yig‘indisi sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bilan birga, Global Wellness Institute (2023) ta’kidlashicha, wellness turizmi 2022-yilda global turizm daromadining 6,7% ini tashkil qilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich pandemiyadan so‘ng yana tiklanayotgan sektorlar sirasiga kiradi.

**Xulosa**

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sog'lomlashtirish turizmi aholi salomatligini yaxshilash bilan birga, davlat iqtisodiga ham katta ta'sir ko'rsatadigan sohadir. O‘zbekiston tabiiy resurslari va infratuzilmasi sababli bu sohada katta imkoniyatlarga ega.

Kelajakda quyidagi yo'nalishlarda ish yuritish maqsadga muvofiqdir:

• Xalqaro reklama kampaniyalarini kengaytirish va chet ellik sayyohlarni jalb etish.

• Sog'lomlashtirish turizm markazlarini xalqaro talablarga moslashtirish.

• Hukumat tomonidan qo'shimcha rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, sog'lomlashtirish turizmi O'zbekiston uchun muhim iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar yaratadi. To'g'ri strategik rejalashtirish bilan mamlakatni Markaziy Osiyoning sog'lomlashtirish turizm markaziga aylantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentirning “O`zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-335-sonli qarori.

2. A. Nig`matov, N. Shomurodova - Ekoturizm asoslari - T.: << Toshkent-Iqbol>> 2007.10-20-b.

3. Федякин А.А. Теоретико-методические основы оздоровительного туризма: дисс... докт. пед. наук. Майкоп, 2001. 279 с.

4. Muller H, and Lanz Kauffman E. Wellness tourism: market analysis of a special health tourism segment and implications for the hotel industry // Journal of Vacation Marketing, 2001. № 7 (1). P. 5-17.

5. Petroune, I. & Yachina, E. (2009). Heritage of spa and health tourism in Russia. In Smith, M. & Puczkó, L. (eds.) Health and Wellness Tourism. Oxford: Elsevier.

6. Montevago, J. (2018). Wellness Tourism: Four Trends To Expect in the Coming Years. Retrieved July 15, 2019, from https://www.travelmarketreport.com/articles/Wellness-Tourism-Four-Trends-To Expect-in-the-Coming-Years

7. Liu, H., Wu, L., & Li, X. (2019). Social Media Envy: How Experience Sharing on Social Networking Sites Drives Millennials` Aspirational Tourism Consumption. Journal of Travel Research, 58(3), 355-369.

8. World Health Organization (WHO) (2024). World health statistics 2024: monitoring health for the SDGs, sustainable development goals https://www.who.int/publications/i/item/9789240094703.

9. Global Wellness Institute (2024.10.). Global Wellness Economy Monitor. https://globalwellnessinstitute.org/industry-research/2024-global-wellness-economy-monitor/

## ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛЫХ ГОСТИНИЦ В СФЕРЕ ОБСЛУЖИВАНИЯ

**Gapparova Mayramxon Zafar qizi**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*tayanch doktoranti*

**Аннотация.** В статье рассматриваются экономические и организационные механизмы повышения эффективности деятельности малых гостиниц в сфере обслуживания. В условиях активного развития туристического сектора Узбекистана особое значение приобретают вопросы конкурентоспособности, качества услуг и рентабельности малых гостиничных предприятий. В исследовании анализируются инновационные подходы, роль цифровых технологий, маркетинговые стратегии и значение человеческого капитала в повышении эффективности гостиничного бизнеса.

**Ключевые слова:** малые гостиницы, эффективность, качество обслуживания, цифровизация, инновации, маркетинг, туризм, инфраструктура.

### Введение

В современном мире индустрия туризма является одним из наиболее динамично развивающихся секторов экономики, оказывая значительное влияние на занятость, инвестиционную активность и развитие инфраструктуры. Особое место в структуре туристического бизнеса занимают малые гостиницы, которые играют ключевую роль в обеспечении доступности туристических услуг, формировании имиджа страны и удовлетворении разнообразных потребностей туристов.

В условиях растущей конкуренции на рынке туристических услуг эффективность деятельности малых гостиниц становится важнейшим фактором их устойчивого развития. Малые гостиницы, как правило, характеризуются ограниченными финансовыми и кадровыми ресурсами, что требует применения инновационных подходов к управлению, повышению качества обслуживания, внедрению современных цифровых технологий и рациональному использованию имеющихся ресурсов.

На примере Узбекистана можно отметить, что развитие внутреннего и въездного туризма напрямую связано с состоянием гостиничного сектора. В

последние годы в стране реализуются масштабные государственные программы по модернизации туристической инфраструктуры, улучшению инвестиционного климата и созданию благоприятных условий для развития предпринимательства в сфере услуг. Тем не менее, остаются нерешёнными вопросы повышения рентабельности малых гостиниц, оптимизации затрат и внедрения стандартов устойчивого туризма.

В связи с этим исследование вопросов повышения эффективности деятельности малых гостиниц приобретает особую актуальность. Оно направлено на выявление экономических и организационно-управленческих механизмов, способствующих улучшению финансовых результатов, росту конкурентоспособности и повышению качества туристических услуг.

Актуальность темы также обусловлена необходимостью адаптации малых гостиниц к требованиям постпандемийного периода, когда возросла роль внутреннего туризма, цифровизации обслуживания и экологических стандартов. Современные тенденции показывают, что устойчивое развитие гостиничного бизнеса возможно лишь при комплексном подходе, включающем экономический анализ, управление персоналом, использование маркетинговых инструментов и внедрение инноваций.

Цель данного исследования заключается в изучении теоретических и практических аспектов повышения эффективности деятельности малых гостиниц, выявлении факторов, влияющих на их финансовую устойчивость, а также в разработке рекомендаций по оптимизации управления и повышению качества обслуживания клиентов.

Для достижения поставленной цели в работе используются методы сравнительного анализа, экономико-статистические и социологические методы исследования, позволяющие комплексно оценить текущее состояние гостиничного сектора и определить направления его дальнейшего развития.

**Анализ**

Развитие гостиничного бизнеса в Узбекистане в последние годы характеризуется стабильным ростом числа туристов, увеличением инвестиций в туристическую инфраструктуру и активным внедрением цифровых технологий. Согласно данным Комитета по развитию туризма, в 2024 году количество зарегистрированных малых гостиниц превысило 2500, что на 18% больше по сравнению с предыдущим годом. Однако, несмотря на количественный рост, уровень экономической эффективности и рентабельности малых гостиниц остаётся недостаточным.

Проведённый анализ показывает, что основными проблемами, сдерживающими развитие малых гостиниц, являются:

• ограниченные финансовые ресурсы и трудности в получении кредитов;
• низкий уровень внедрения современных систем управления и бронирования;
• дефицит квалифицированного персонала;
• слабая маркетинговая активность и недостаточное продвижение услуг на внутреннем и внешнем рынках.

В то же время, исследования показывают, что малые гостиницы, которые внедряют инновационные методы управления, автоматизированные системы бронирования и активно используют онлайн-маркетинг, добиваются роста доходов в среднем на 25–30%. Это подтверждает необходимость цифровой трансформации как ключевого направления повышения эффективности деятельности.

Экономический анализ также выявил тесную взаимосвязь между инвестициями в инфраструктуру и качеством обслуживания клиентов. В частности, каждые 10% увеличения капитальных вложений в ремонт и обновление гостиниц сопровождаются ростом уровня удовлетворённости клиентов на 6–8%, что напрямую влияет на коэффициент повторных посещений и общий доход предприятия.

Для дальнейшего повышения конкурентоспособности малых гостиниц необходимы меры по оптимизации операционных расходов, внедрению энергосберегающих технологий и расширению спектра дополнительных услуг (транспорт, экскурсии, питание, спа-услуги). Всё это способствует увеличению средней продолжительности пребывания туристов и повышению общей рентабельности.

**Таблица 1.**

**Проведённое исследование позволяет сделать следующие выводы**

| **Предложение** | **Задачи** |
|---|---|
| Малые гостиницы | Являются важным элементом туристической инфраструктуры, обеспечивающим гибкость и доступность услуг для различных категорий туристов. |
| Эффективность их деятельности | Во многом зависит от уровня цифровизации, профессионализма персонала и наличия устойчивой бизнес-модели. |
| Инвестиции в модернизацию | И внедрение современных технологий бронирования и маркетинга позволяют существенно повысить финансовые показатели и качество обслуживания. |
| Государственная поддержка | Играет ключевую роль в стимулировании развития малых гостиниц, особенно через льготное кредитование, налоговые преференции и грантовые программы. |

| | |
|---|---|
| Взаимодействие с частным сектором | Развитие партнёрских программ и участие в туристических кластерах создают дополнительные возможности для роста и повышения конкурентоспособности. |

**Выводы и рекомендации**

На основе вышеизложенного предлагаются следующие рекомендации:

- активизировать инвестиции в цифровую инфраструктуру и обучение персонала;
- разработать специализированные программы государственной поддержки малых гостиниц;
- внедрить стандарты устойчивого (экологического) туризма для повышения привлекательности объектов;
- расширить использование инструментов интернет-маркетинга и онлайн-бронирования;
- создать региональные ассоциации малых гостиниц для обмена опытом и совместного продвижения на рынке.

Внедрение указанных мер позволит повысить эффективность работы малых гостиниц, укрепить их финансовую устойчивость и внести значительный вклад в развитие туристического сектора и экономики страны в целом.

**Заключение**

Проведённое исследование подтвердило, что малые гостиницы занимают стратегически важное место в структуре туристического сектора Узбекистана, обеспечивая не только расширение туристического предложения, но и содействуя развитию региональной занятости, малого бизнеса и социальной инфраструктуры. Однако для достижения устойчивого роста и конкурентоспособности требуется системный подход к управлению их деятельностью.

Анализ показал, что основной резерв повышения эффективности малых гостиниц заключается в цифровизации процессов управления**,** повышении качества обслуживания и инвестициях в инновационные технологии. Применение экономико-математических методов оценки деятельности гостиниц подтверждает наличие прямой зависимости между уровнем автоматизации, маркетинговыми инвестициями и увеличением прибыли предприятий.

Кроме того, особое значение имеет развитие устойчивого (экологического) туризма, который способствует не только улучшению имиджа страны, но и формированию ответственного отношения к природным ресурсам. Внедрение энергоэффективных технологий, использование

локальных материалов и продвижение эко-программ создают дополнительные конкурентные преимущества для малых гостиниц.

Важным направлением также остаётся человеческий капитал**.** Развитие профессиональных компетенций сотрудников, обучение современным методам обслуживания и управления персоналом напрямую влияют на уровень удовлетворённости клиентов и формируют долгосрочную клиентскую лояльность.

Таким образом, эффективность деятельности малых гостиниц должна рассматриваться как комплексный процесс, включающий финансовую устойчивость**,** операционную оптимизацию**,** маркетинговые инновации и социально-экологическую ответственность**.** Реализация данных направлений в совокупности обеспечит формирование конкурентоспособного и устойчивого гостиничного сектора, способного успешно функционировать как на внутреннем, так и на международном рынке.

В перспективе совершенствование механизмов государственного регулирования, расширение частно-государственного партнёрства и внедрение эконометрического мониторинга результатов деятельности позволят более точно оценивать эффективность вложений и стратегически направлять развитие малого гостиничного бизнеса в Узбекистане.

**Список литературы**

1. Государственный комитет Республики Узбекистан по развитию туризма. (2024). *Отчет о состоянии и перспективах развития туристической отрасли Узбекистана*. Ташкент: Госкомтуризм.

2. Всемирная туристская организация (UNWTO). (2023). *Tourism for Development – Key Statistics and Trends 2023*. Мадрид: UNWTO.

3. Кабулов, А. Ш., & Саттарова, Н. И. (2022). *Развитие гостиничного бизнеса и его влияние на экономику Узбекистана*. Экономика и туризм, 3(2), 45–52.

4. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.

5. Махмудова, Г. А. (2023). *Современные направления повышения эффективности деятельности малых гостиниц*. Туризм и сервис, 5(1), 67–74.

6. Khan, M. A., & Rahman, M. (2022). *Digital transformation in small hospitality enterprises: Drivers and barriers*. Journal of Tourism and Hospitality Management, 10(4), 25–39.

7. Briedenhann, J., & Wickens, E. (2021). *Tourism routes as a tool for the economic development of rural areas—vibrant hope or impossible dream?* Tourism Management, 42(3), 123–131.

8. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике.

(2024). *Статистический ежегодник Узбекистана*. Ташкент: Госкомстат.

9. Дадамухамедова, Д. С. (2023). *Роль устойчивого туризма в обеспечении конкурентоспособности гостиничного бизнеса Узбекистана*. Вестник экономики и инновационных исследований, 7(9), 98–106.

10. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: United Nations.

## Mamlakatimiz turizm sohasi xizmatlar sifati bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili

**Suyunov Raximjon G’anijon o’g’li,**
*SamISI “Buxgalteriya hisobi va menejment” fakulteti tyutori*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston turizm sohasida xizmatlar sifati bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotda turistik xizmatlarning sifat darajasi mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, bandlik, investitsiya oqimi va valyuta tushumlariga ko‘rsatgan ta’siri o‘rganilgan. Muallif tomonidan turizm xizmatlari sifati va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik aniqlangan hamda xizmatlar sifatini oshirish orqali iqtisodiy natijalarni yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, xizmat sifati, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, samaradorlik, bandlik, investitsiyalar, daromad, raqobatbardoshlik.

### Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotining yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida turizm sohasi jadal rivojlanmoqda. Mamlakatimizda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi yo‘nalishlarni shakllantirish, hududiy brendlarni targ‘ib etish hamda xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, turizmning iqtisodiyotga ta’siri nafaqat turistlar soni bilan, balki xizmatlar sifatining darajasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Chunki xizmat sifati turizmning raqobatbardoshligi, samaradorligi va barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xizmatlar sifati yuqori bo‘lgan mamlakatlarda turizm sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘iga aylangan. Masalan, Turkiya, Ispaniya, BAA kabi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turistlarga qulay, xavfsiz va yuqori darajadagi xizmatlar taqdim etilishi milliy daromad va bandlikni oshiradi, investitsiya muhitini yaxshilaydi hamda xalqaro imidjni mustahkamlaydi. O‘zbekiston uchun ham ushbu yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mamlakatda turistik xizmatlarning sifati, narx-navo muvozanati va mijoz qoniqish darajasi hali to‘liq optimallashtirilmagan. Shu bois, turizm xizmatlari sifati bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish zaruriyati ortib bormoqda. Bunday tahlil xizmatlar sifati darajasi va iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, turizm sektorining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, turistlar oqimi, turizm daromadlari, mehmonxona

bandligi, investitsiya hajmi, eksport ulushi kabi ko‘rsatkichlar xizmatlar sifati bilan qanday o‘zgarishini aniqlash iqtisodiy siyosatni takomillashtirishga yordam beradi.

**Asosiy qism**

Mazkur maqolaning maqsadi — O‘zbekiston turizm sohasida xizmatlar sifati bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish, ularning o‘zaro ta’sir mexanizmini aniqlash hamda soha raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot davomida turizm xizmatlarining sifati, iqtisodiy samaradorlik, bandlik darajasi va investitsiyalar oqimi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda mamlakatimiz turizm sohasida xizmatlar sifati bilan iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, ularning ta’sir darajasini baholash hamda amaliy xulosalar chiqarish maqsad qilingan. Shu bois, tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, statistik yondashuv, taqqoslash va korrelyatsion tahlil usullari tashkil etadi.

Tadqiqotda turizm sohasida xizmat sifati bilan iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kompleks ko‘rsatkichlar tizimi asosida baholandi. Shuningdek, xizmat sifati indeksi (Y) bilan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari (daromad, bandlik, investitsiya oqimi) o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlik modeli ishlab chiqildi. Bu esa O‘zbekiston turizm bozorida sifat siyosatini iqtisodiy natijalar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Turizm sohasi xizmatlar tizimi jihatidan murakkab, ko‘p tarmoqli va iqtisodiy jarayonlarning kesishgan nuqtasida joylashgan faoliyat yo‘nalishidir. Xizmat sifati bu tizimda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turizmning iqtisodiy natijalari — ya’ni daromad hajmi, bandlik darajasi, investitsiya oqimi va eksport ulushi — xizmatlar sifati bilan bevosita bog‘liq.

Nazariy jihatdan xizmat sifati tushunchasi bir nechta ilmiy maktablar tomonidan izohlangan. Masalan, K. Grönroos xizmat sifatini iste’molchi kutilmalari va real tajribasi o‘rtasidagi farq bilan ifodalaydi. Parasuraman, Zeithaml va Berry tomonidan ishlab chiqilgan SERVQUAL modelida esa sifat beshta asosiy komponent orqali baholanadi: ishonchlilik, javob beruvchanlik, ishonch uyg‘otish, empatiya va jismoniy ko‘rinish. Ushbu yondashuvga ko‘ra, turist xizmatdan olgan taassurotini ushbu besh omil bo‘yicha baholaydi va aynan shu ko‘rsatkichlar umumiy iqtisodiy natijalarga ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan xizmat sifati resurslarning samarali taqsimlanishiga, mehnat unumdorligining o‘sishiga hamda xo‘jalik subyektlarining raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi. Yuqori sifatli xizmatlar taklifi turistlar sonining o‘sishiga, demakki, turizm daromadlarining ortishiga olib keladi. Shuningdek, xizmat sifati milliy daromadning tarkibida turizm ulushining oshishiga bevosita sabab bo‘ladi. Xizmat sifati bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda “iqtisodiy samaradorlik modeli” muhim o‘rin tutadi. Bu modelga ko‘ra, xizmat sifati (Y) mustaqil o‘zgaruvchi sifatida turizm sohasi daromadi ($X_1$), bandlik darajasi ($X_2$), investitsiya hajmi ($X_3$) va eksport ko‘rsatkichlari ($X_4$) kabi bog‘liq o‘zgaruvchilarga ta’sir qiladi. Sifatning har bir birligi oshgani sari ushbu iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ham ijobiy siljish kuzatiladi. Bundan tashqari, xizmat sifati turizm bozorida raqobat muvozanatini ham belgilaydi. Filip Kotler nazariyasiga ko‘ra,

turizmda raqobat afzalligi endilikda narx omiliga emas, balki xizmatning emosional, estetik va psixologik qiymatiga asoslanmoqda. Shu sababli xizmat sifati faqat mijoz qoniqishini emas, balki iqtisodiy ko‘rsatkichlarning barqaror o‘sishini ham ta’minlovchi strategik resurs sifatida talqin etiladi.

BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tahlillarida ham turizm xizmatlari sifati global iqtisodiy o‘sish bilan bevosita bog‘lanadi. Tashkilot hisobotlariga ko‘ra, sifat darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda turizm sohasi yalpi ichki mahsulotning 8–10 foizini tashkil etadi, past sifatli xizmatlar esa iqtisodiy ulushni 3–4 foiz darajasida ushlab turadi. Shu nuqtayi nazardan, xizmat sifati iqtisodiy natijalarning differensial omili sifatida qaraladi. O‘zbekiston sharoitida ham turizm xizmatlari sifati bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning o‘zaro ta’siri sezilarli. Xizmatlar sifati oshgani sari turistlar oqimi barqaror o‘sadi, bu esa iqtisodiy faollik, yangi ish o‘rinlari va soliq tushumlarini ko‘paytiradi. Shu tariqa, xizmat sifati nafaqat iste’molchi qoniqishini ta’minlovchi omil, balki makroiqtisodiy barqarorlikni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Turizm xizmatlari sifatini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmat sifati iqtisodiy ko‘rsatkichlarning shakllanishida markaziy rol o‘ynaydi. Xizmat sifati oshgan sari turistlar oqimi, daromadlar hajmi, investitsiyalar faolligi va mehnat bandligi kabi ko‘rsatkichlarda ijobiy dinamik o‘zgarishlar kuzatiladi. Nazariy jihatdan bu jarayon “multiplikativ ta’sir” bilan izohlanadi. Ya’ni, xizmat sifati yaxshilanishi nafaqat bevosita turizm daromadiga, balki unga qo‘shimcha tarmoqlarda — transport, savdo, umumiy ovqatlanish, madaniyat va axborot xizmatlarida ham iqtisodiy jonlanishni keltirib chiqaradi. Shu tariqa, xizmat sifati ko‘rsatkichlari milliy iqtisodiyotning umumiy faolligi bilan tizimli bog‘liqdir.

G‘arbiy iqtisodiy maktablarning fikricha, xizmatlar sifati iqtisodiy o‘sish mexanizmining intellektual komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, E. Deming va J. Juran sifat menejmentini ishlab chiqarish samaradorligining asosiy elementi sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, bu yondashuv turizmda ham o‘z aksini topgan. Xizmat sifati yuqori bo‘lgan turistik subyektlar mijozlarni ushlab turish, qayta tashriflar sonini oshirish va yangi investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston tajribasida, turizm xizmatlari sifati bilan bog‘liq iqtisodiy natijalar orasida eng sezilarli bog‘liqlik turistlar oqimi va daromadlar hajmida namoyon bo‘ladi. So‘nggi yillarda ichki va tashqi turistlar sonining oshishi, xizmat turlarining diversifikatsiyalanishi hamda mehmonxona infratuzilmasining kengayishi sifat ko‘rsatkichlari bilan birgalikda iqtisodiy samaraning o‘sishini ta’minlamoqda. Shu jarayonda xizmatlar sifati yaxshilanishi milliy turizm mahsulotining qadriyat asosidagi qiymatini oshiradi.

Nazariy model nuqtayi nazaridan, xizmat sifati indeksining 1 foizga oshishi natijasida turizm daromadlarining o‘rtacha 0,8–1,0 foizgacha o‘sishi kuzatiladi. Bu holat xizmat sifati iqtisodiy o‘sishga chiziqli yaqin ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. Boshqacha aytganda, xizmat sifati yaxshilangan sari iqtisodiy natijalar mutanosib ravishda oshadi. Shuningdek, xizmat sifati va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy barqarorlik nazariyasi asosida izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun xizmatlar sifatining uzluksiz

yaxshilanishi talab etiladi, chunki sifat – bu raqobatbardoshlikning uzoq muddatli garovidir. Shu bois, xizmat sifati nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki turizm tarmog‘ining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro tajriba bilan solishtirilganda, O‘zbekistonda turizm xizmatlari sifati hali ham to‘liq institutsional tizimga ega emas. Biroq nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sifatining bosqichma-bosqich yaxshilanishi turizm sohasining iqtisodiyotdagi ulushini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Natijada, xizmat sifati — bu iqtisodiy rivojlanishning yangi strategik drayveri sifatida qaralishi zarurligini anglatadi.

O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasi rivojida xizmatlar sifati — iqtisodiy natijalar tizimining markaziy elementi hisoblanadi. Xizmat sifati oshishi bilan bir qatorda turizm daromadlari, bandlik darajasi, investitsiya hajmi va eksport ko‘rsatkichlarida ijobiy dinamik o‘zgarishlar yuz beradi. Boshqacha aytganda, xizmat sifati turizm iqtisodiyotining o‘sish sur’atlarini belgilovchi asosiy drayver bo‘lib xizmat qiladi. Xizmatlar sifatini baholashning nazariy modellari (Grönroos, Parasuraman, Zeithaml, Berry) tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, xizmatning ishonchliligi, javob beruvchanligi, empatiyasi va tashqi ko‘rinishi nafaqat turistlarning qoniqishiga, balki iqtisodiy natijalarning barqarorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois turizm xizmatlari sifatini yaxshilash masalasi — iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur.

Turizmda xizmat sifati nazariy jihatdan iqtisodiy samaradorlik modeli orqali izohlanadi: xizmat sifati indeksi o‘sishi bilan turistlar oqimi, daromad, bandlik va investitsiya ko‘rsatkichlari ham mos ravishda ortadi. Bu o‘zaro bog‘liqlik turizm sektorining sifatga yo‘naltirilgan boshqaruv siyosatini shakllantirish zarurligini taqozo etadi. Shuningdek, nazariy jihatdan xizmat sifati raqobat ustunligi nazariyasi bilan ham uzviy bog‘liq. F. Kotler va M. Porter ta’kidlaganidek, zamonaviy iqtisodiyotda raqobat ustunligi endi narx siyosatiga emas, balki iste’molchiga yaratilayotgan qadriyat — ya’ni xizmat sifati darajasiga tayanadi. Shu sababli, xizmatlar sifati iqtisodiy rivojlanish strategiyasida yangi, barqaror o‘sish manbai sifatida talqin etilishi lozim.

**Xulosa**

Umuman olganda, O‘zbekiston turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi:

- xizmat sifati turizm sohasining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlariga (daromad, bandlik, investitsiya oqimi) bevosita ta’sir ko‘rsatadi.
- xizmat sifati yuqori bo‘lgan hududlarda turizm tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligi yuqoriroq bo‘ladi.
- xizmatlar sifatini yaxshilash jarayoni turizmning milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi.
- xizmat sifati milliy turizm mahsulotining qadriyat asosidagi raqobatbardoshligini shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois, nazariy tahlil natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, turizmda xizmat sifati faqat mijozni qoniqtirish vositasi emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi, iqtisodiy o‘sishni jadallashtiruvchi omildir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘RQ-549-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-sonli “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Middleton, V. T. C., & Clarke, J. (2011). *Marketing in Travel and Tourism* (4th ed.). Routledge.
4. Crouch, G. I., & Ritchie, J. R. B. (1999). Tourism, competitiveness, and societal prosperity. *Journal of Business Research*, 44(3), 137–152.
5. Yulchiyev, A. (2023). Turizm xizmatlar sifatini boshqarish mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* ilmiy elektron jurnali.
6. Mirzayev, U. (2024). Turistik xizmatlar xususiyatining “4 ta S” bilan ifodalanishi hamda xizmat ko‘rsatish paketi. *Nordic Studies in Academic Research*.
7. Turdiyeva, U. (2024). Turizm xizmatlarining sifati va raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro tajriba (Krouch va Ritchie modeli misolida). *Byulleten studentov Novogo Uzbekistana*.
8. UNWTO (2019). *Tourism Highlights 2019 Edition*. World Tourism Organization. ISBN: 978-92-844-2240-7.
9. Qualité Tourisme Program – Official French Tourism Quality Label. (2021). Available at: https://www.qualite-tourisme.gouv.fr
10. Liao, M. C. H. (2016). *Omotenashi: The Japanese Art of Hospitality*. Springer.
11. National Geographic. Virtual Reality Travel Experience. Available at: https://www.nationalgeographic.com


## TURIZMDA HUDUDLARNING EKOLOGIK SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH: FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA


**Mamajonova Shoiraxon Vohidjon qizi**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti,*

**Abduvahidov Abdumalik Mahkamovich**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,*
*Turizm va mehmonxona biznesi*
*kafedrasi professori, i.f.d.*



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatida turizm sohasida hududlarning ekologik salohiyatidan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan.

Rishton, Qo‘qon, Farg‘ona shahri va Shohimardon hududlari misolida turizmning rivojlanish holati, mavjud infratuzilma, ekologik imkoniyatlar va boshqaruv masalalari o‘rganilgan. Statistik ma’lumotlar asosida taqqoslashlar amalga oshirilgan va ekologik turizmni yanada rivojlantirish bo‘yicha muallif tavsiyalari berilgan.

**Kalit so‘zlar:**Ekoturizm, Farg‘ona vodiysi, Shohimardon, Rishton, Qo‘qon, turizm boshqaruvi, ekologik salohiyat, madaniy meros.

## Kirish

So‘nggi yillarda turizm tarmog‘i nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki hududning tabiiy go‘zalligini saqlash va ijtimoiy-ahvolini yaxshilashda muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, *ekoturizm* - ya’ni tabiiy muhitga yumshoq ta’sir ko‘ rsatadigan turizm - barqaror rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Ekoturizm nazariy jihatdan shunday ta’riflanadi: u nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarda sodir bo‘ladigan, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va mahalliy aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan mas’uliyatli sayohat shaklidir. IUCN ta’kidicha, bunday sayohatlar atrof-muhitga «yumshoq» ta’sir ko‘rsatishi, mahalliy jamoalar faol ijtimoiy-iqtisodiy ishtirokini ta’minlashi kerak. Shuningdek, ekoturizm barqaror turizm tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tashrif buyurilgan hududning rekreatsion salohiyatidan ortiqcha foydalanmaslik va mahalliy jamoani qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. [99] O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan Farg‘ona viloyati o‘zining boy tarixiy madaniyati va serquyosh tabiat manzaralari bilan tanilgan. yaqinini mahalliy sayyohlar tashkil qilgani qayd etilgan. Bu ko‘rsatkichlar viloyatning turistlar uchun qanchalik jozibali ekanini Viloyatga 2023-yilda jami 2 165 ming nafar kiruvchi sayyoh tashrif buyurgani, ularning yarmi ko‘rsatadi. [100] Maqolaning maqsadi - Farg‘ona viloyatida hududlarning ekologik salohiyatidan turizm maqsadlarida samarali foydalanish usullarini o‘rganish, mavjud loyihalar va dasturlarni tahlil qilish hamda barqaror rivojlanish yo‘nalishi da takliflar ishlab chiqishdir.

## Asosiy qism

Ekoturizm barqaror turizm va ekologiya muvozanatini ta’minlaydigan o‘ziga xos turizm shakli sifatida ko‘plab tadqiqotlarda ko‘tarilgan mavzu hisoblanadi. Masalan, Jahon Tabiatni Muhofaza qilish Ittifoqi (IUCN) ekoturizmni nisbatan boy tabiatli hududlarda ekoturizm qatnashchilarining sayohatini atrof-muhitga mas’uliyat bilan olib borish hamda mahalliy aholi farovonligini oshirish maqsadida tashkil etilgan faoliyat sifatida ta’riflaydi. Boshqa manbalarda esa ekoturizmning asosiy mezonlari sifatida tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik, mahalliy aholi bilan sinergiya o‘rnatish va hududning ekologik salohiyatidan ortiqcha foydalanmaslik ko‘rsatilgan. O‘zbek sharoitida ekoturizm barqarorlik prinsiplari doirasida rivojlantirilishi nazarda tutiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi

[99] Hector Ceballos-Lascurain (1996). Tourism, Ecotourism, and Protected Areas: The State of Nature-Based Tourism Around the World and Guidelines for Its Development. IUCN.

[100] Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi: *“Farg‘ona viloyatida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko ‘rsatkichlari”* (2021-2023 yillar haqida ma’lumotlar)

Ekologiya,atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zga rishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasiga ko‘ra, ekoturizm hudud resurslarini muhofaza qilish bilan birga mahalliy aholi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi kerakligi urg‘ulanadi. Shu bois viloyat turizmini rejalashtirishda xalqaro hamkorlik va mahalliy boshqaruv organlari tajribalari hisobga olinishi lozim.Shohimardon misolida o'rganadigan bo'lsak Shohimardon dengiz sathidan 1550 metr balandlikda joylashgan, tabiiy tog‘ manzaralari, daryolari va toza havosi bilan mashhur. 2021 - yilda yarim yil ichida atigi 1 ming tashrif buyuruvchilar qayd etilgan bo‘lsa, 2019 -yil ko‘rsatkichlariga nisbatan bu besh b aravar kam. 2024-yilda esa chegara postlari 24 soat ishlay boshladi. Bu sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda[101].

Farg‘ona viloyatining turistik salohiyati Farg‘ona viloyati turizm resurslari jihatdan xilma-xildir: bu yerda tarixiy yodgorliklar va hunarmandchilik markazlari bilan birga betakror tabiiy manzaralar mavjud. Misol uchun, viloyatning Rishton tumani an'naviy kulolchilik markazi bo‘lib, u yerda ishlab chiqariladigan keramik buyumlar mahalliy turizmning ajralmas qismiga aylangan. Farg‘ona shahrida joylashgan hududdagi muzeylar va ko‘rgazmalar xalqqa xos tekstil va yog‘och o‘ymakorlik namunalarini namoyish etadi. Qo‘qon shahri esa o‘zining tarixiy obidalari, xususan Xon saroyi bilan mashhur; shuningdek, Marg‘ilon atlaslari va ipaklari, Rishton keramika an'analari kabi madaniy boyliklar viloyatni diqqatga sazovor qiladi. Umuman olganda, Farg‘ona shahri, Qo‘qon, Marg‘ilon va Rishton kabi shaharlarda arxitektura yodgorliklari va mahalliy hunarmandchilikni ko‘rish uchun turistik marosimlar tashkil etilgan. Bu omillar viloyatga keluvchi mahalliy va chet ellik sayyohlar sonining sezilarli darajada o‘sishiga yordam beradi.Shuningdek, viloyatda ulkan tabiiy salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari ham mavjud. Shohimardon (so‘nggi paytlarda "Shohimardon" turizm direksiyasi tashkil etilgan Farg‘ona tumani) - Oloy tog‘ tizmasi boshlang‘ich qismida joylashgan tog‘li hudud bo‘lib, dengiz sathidan taxminan 1 550 metr balandlikda joylashgan va maydoni 90 $km^2$ gacha yetadi. Bu hudud O‘zbekistonda "Farg‘ona vodiysining Shveysariyasi" deya ta'riflanadi; u yerda sanatoriyalar, dam olish bazalari va Shohimardonsoy daryosi bo‘yi bo‘ylab ko‘plab tabiiy yo‘laklar mavjud. Quva tumani hududidagi Karkidon suv ombori atrofida ham so‘nggi yillarda ekoturizm majmuasi tashkil etish rejalashtirilgan: 2024-yilning iyul qaroriga ko‘ra, suv ombori atrofi 250 gektar hududda dam olish, xizmat ko‘rsatish va mehmonxona obyektlari qurilishi bo‘yicha master-reja ishlab chiqilgan. Beshariq tumani bo‘yida Sirdaryo bo‘yi orqali cho‘zilgan Sariqamish o‘rmon milliy bog‘i ham dam olish va yugurish yo‘laklari bilan mashhur; ekologik sayohat marshrutlari asosida bu hudud ham sayyohlar uchun xizmat ko‘rsatadi. [102]

Shohimardon (Farg‘ona tumani): Oloy tog‘lari qoyalari bag‘rida joylashgan, tog‘li qishloq salohiyatiga ega hudud. Shu hududning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda 2019-yilda Shohimardon va Yordon qishloqlarida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqila boshlandi. Ekoturizm yo‘nalishlarida yangi turizm zonalari rejalashtirilgan.

Karkidon suv ombori (Quva tumani): 250 gektar hududni o‘z ichiga oluvchi

[101] Shohimardonda turizmni rivojlantirish direksiyasi tashkil etildi" - Qalampir.uz, 2019

[102] https://uza.uz/posts/288368 Shohimardon-''O'zbekiston Shvetsariyasi''

suv ombori atrofida sayyohlik majmuasi bunyod etilishi ko‘zda tutilgan. U yerga 100 dan ortiq dam olish, savdo va k o‘ngilochar obyektlari, zamonaviy mehmonxonalar qurilishi rejalashtirilgan. 2024-yil oktyabrda viloyat rahbari o‘rinbosari hududdagi tadbirkorlar bilan uchrashib, suv ombori atrofida turizm xizmatlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvlarga erishdi[103].

Sariqamish milliy bog‘i (Beshariq tumani): Sirdaryo bo‘yidagi o‘rmon hududi, qushlar va o‘simliklar bilan boy. Bu zonada dam olish va sport bilan shug‘ullanish uchun markazlar tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya,atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi malumotiga ko’ra Sariqamish aholi va sayyohlar uchun xizmat qiluvchi dam olish maskanlari ro‘yxatiga kiritilgan[104].

Yuqoridagi misollar Farg‘ona viloyatining tabiiy resurslari va landshaftlari sayyohlik salohiyatini ko‘rsatadi. Bularning barchasi viloyatning ichki va xalqaro miqyosdagi turizm raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratadi, biroq tashrif buyuruvchilar oqimini muvozanatli ravishda boshqarish ham talab etiladi.

Boshqaruv va rivojlanish istiqbollari. Farg‘ona viloyatida turizmning barqaror rivojlanishi uchun ekologik salohiyatni e’tibor bilan boshqarish zarur. So‘nggi yillarda viloyatda turizm infratuzilmasi, jumladan oilaviy mehmonxona va agroturizm loyihalari qo‘llab-quvvatlanmoqda; press-turlar davomida mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish, ekoturizm va madaniy merosni saqlashga alohida e’tibor berilgani qayd etildi. Masalan, viloyat hokimining topshirig‘iga binoan Shohimardon va Yordon qishloqlarida yangi turizm yo‘nalishlari ishlab chiqilmoqda, bu hududlarning ekoturizm salohiyati asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro va mahalliy hamkorlik doirasida viloyatda turizmga oid ilmiy-amaliy tadbirlar o‘tkazilmoqda. 2025-yilda O‘zbekistonda barqaror turizm bo‘yicha tashkil etilgan konferensiyada ham turizm iqtisodiyotidagi yangi tendensiyalar, ekologiyani muhofaza qilish va madaniy merosni saqlash masalalari muhokama qilindi. Bu kabi tashabbuslar viloyatdagi loyihalarning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Metodologiya**

Maqola doirasida Rishton, Qo‘qon, Farg‘ona shahri va Shohimardon hududlari tahlil qilindi. Metodologiya sifatida statistik ma’lumotlar, rasmiy hisobotlar va mavjud ilmiy manbalar o‘rganildi.

**Tahlil natijalari**

Farg‘ona viloyatining tabiiy muhitida yuqori ekoturizm salohiyati mavjud. Xususan, tog‘li hududlar (Shohimardon), ko‘llar (Karkidon) va o‘rmonli zonalar (Sariqamish) sayyohlarni jalb qilishda muhim omil sanaladi.

2023-yilda viloyatga kelgan sayyohlar soni 2,165 ming kishini tashkil etib, ularning katta qismi ichki sayyohlar bo‘lgani, 2,475 ming kishini tashkil qilgani qayd etildi. Bu ko‘rsatkichlar viloyat turizmi uchun katta bozor va resurs borligini

[103]Farg‘ona viloyati Turizm boshqarmasi sayti: *“Karkidon suv ombori”*

[104] Farg‘ona viloyatining ekoturizm maskanlari - rasmiy turizm portali (Shohimardon, Karkidon, Sariqamish ta’riflari)

namoyish etadi[105]

Press-tur va rasmiy tadbirlar viloyatda ekoturizm va oilaviy mehmonxonalarga e'tibor qaratilayotganini ko'rsatdi. Jumladan, hududlardagi innovatsion turizm loyihalari bo'yicha hukumat tomonidan ko'rsatmalar berilgan, tadbirkorlar bilan muzokaralar o'tkazilmoqda.

Hududlarni barqaror ravishda rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb qilish va mahalliy jamoalarning ishtiroki muhim omil bo'lib, ularning qo'llab -quvvatlanishi viloyat iqtisodiyotining ijobiy o'sishiga xizmat qiladi.Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona viloyatida ekoturizm bo'yicha loyihalarni tashkil etish va amalga oshirish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik barqarorligiga katta hissa qo'sha oladi.

**Xulosa va takliflar**

Farg'ona viloyati turizm salohiyati boy va xilma-xildir. Shohimardon kabi tabiiy hududlar, Rishton keramikasi, Qo'qonning tarixiy yodgorliklari va Farg'ona shahrining zamonaviy imkoniyatlari viloyat ekoturizm va madaniy turizmni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hududning ekologik salohiyatidan samarali foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish va marketingni kuchaytirish orqali sayyohlar oqimini sezilarli darajada ko'paytirish mumkin. Farg'ona viloyatining turizmda ekologik salohiyatidan foydalanish barqaror rivojlanish tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim. Shohimardon, Karkidon va Sariqamish kabi tabiiy zonalardagi ekskursiya yo'laklari va dam olish maskanlarini rivojlantirish, shu bilan birga ularni asrab-avaylashka qaratilgan chora-tadbirlar olib borilmoqda. Olingan tajribalar shuni ko'rsatadiki, mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantirish, yangi investitsiyalar va turizm infrastrukturasini barqaror rivojlantirish orqali Farg'ona viloyatining tu rizm salohiyati to'liq ro'yobga chiqadi. Masalan, davlat dasturlari va press-turlar ekoturizmni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarning amalga oshirilayotganini ko'rsatmoqda. Xalqaro konferensiya natijalarida esa barqaror turizm iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik muhofaza va madaniy merosni saqlashda ham muhim rol o'ynashi ta'kidlandi. Shu sababli, hududlarning ekologik salohiyatidan turizm maqsadlarida samarali foydalanish viloyatning ichki va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshiradi va umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.Takliflarga yo'nalsak:

- Farg'ona vodiysida ekologik va madaniy turizm paketlarini shakllantirish kerak,bu orqali ichki turizm ham rivojlantiriladi;
- Marketing va xalqaro reklama kampaniyalarini kuchaytirish orqali ommaning etiborini o'zimizga qarata olamiz.;
- Mahalliy aholining turizm xizmatlarida faol ishtirokini ta'minlash,bu orqali aholini ish bilan taminlash,daromadini oshirish va kambag'allikni qisqartirish;
- Chegara va transport infratuzilmasini yanada yaxshilash;
- Farg'ona viloyatining ekologiyasiga zarar bermaslik uchun ekologik muhofaza choralarini kuchaytirish.

[105] "Barqaror turizm" - O'zbekiston hukumat axborot portali, 2025 (barqaror turizm mavzusidagi xalqaro anjuman yakunlari) gov.uz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Hector Ceballos-Lascurain (1996). Tourism, Ecotourism, and Protected Areas: The State of Nature-Based Tourism Around the World and Guidelines for Its Development. IUCN.
2. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi: *“Farg‘ona viloyatida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari”* (2021-2023 yillar haqida ma’lumotlar)
3. “Shohimardonda turizmni rivojlantirish direksiyasi tashkil etildi” - Qalampir.uz, 2019
4. https://uza.uz/posts/288368 Shohimardon-‘’O’zbekiston Shvetsariyasi’’
5. Farg‘ona viloyati Turizm boshqarmasi sayti: *“Karkidon suv ombori’’*
6. Farg‘ona viloyatining ekoturizm maskanlari - rasmiy turizm portali (Shohimardon, Karkidon, Sariqamish ta’rif
7. “Barqaror turizm...” - O‘zbekiston hukumat axborot portali, 2025 (barqaror turizm mavzusidagi xalqaro anjuman yakunlari) gov.uz.

## FARG’ONA VILOYATINING EKOLOGIK SALOHIYATIDAN TURIZM SOHASIDA SAMARALI FOYDALANISH

**Mamajonova ShoiraVohidjon qizi**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda Farg’ona viloyatining tabiiy resurslari va ekoturizm salohiyatidan turizm sohasida foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Farg’ona vodiysining tog‘li maskanlari (Shohimardon vodiysi, tog‘lari, va boshqalar) sayyohlarga tabiiy muhit va sport-turizm imkoniyatlari yaratishi ta’kidlanadi. Mahalliy faollar tomonidan amalga oshirilgan turistik tashabbuslar (xususan, Yozyovon tumanidagi “Pamirtravel” firmasi) ham ko‘rib chiqiladi; masalan, bu firma Yordon MFYda 30 o‘rinli dam olish maskani yaratgan va yil yakunigacha 22 ming nafar sayyohni qabul qilgan. Davlat darajasida esa 2019-yilda Shohimardon va Yordon MFYlarida turizmni rivojlantirish direksiyasi tashkil etilganligi hamda 2023-yilda Shohimardon tarixi va tabiati muzeyi ochilishi belgilanishi alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Xalqaro tajriba sifatida Kosta-Rika misoli keltiriladi (30 ta milliy bog’, 19 ta yovvoyi tabiat qo‘riqxonasi, 8 ta biologik rezervatsiya.

**Kalit so`zlar:** ekoturizm; turizm salohiyati; Farg‘ona viloyati; Shohimardon; tabiiy resurslar.

### Kirish

Ekoturizm – bu “tabiatni bilish bilan bog‘liq bo‘lgan va mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olgan holda ekotizimlarni saqlashga hissa qo‘shadigan turizm turi” hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro Ittifoqining ta'rifiga ko'ra,"ekologik turizm yoki ekoturizm-tabiat muhitga nisbatan ma'suliyat bilan

sayohat qilish, tabiat hududlariga ziyon etkazmagan holda o'rganish, hamda tabiatning betakror jalb etuvchi joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilishga ko’maklashadi, atrof-muhitga "yumshoq" ta'sir etadi , mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va shu faoliyatdan ularning imtiyozlar olishini ta'minlaydi,,deb keltirilgan. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ta’kidlaganidek, “Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to’liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini ... ekoturizmni, ichki,kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish” belgilangan Shunga ko’ra Farg’ona viloyati ham o’zining ekologik salohiyatidan kelib chiqib hudud turizmini rivojlantirishga o’z hissasini qo’shishi kutilmoqda hamda viloyatning tabiiy resurslarini muhofaza qilib, ularni turizm maqsadlarida uyg‘unlashgan holda foydalanish imkoniyatlariga e’tibor qaratilmoqda.

Farg’ona vohasining tabiiy boyliklari (tog’lar, daryolar, o‘rmonlar) ekoturizm imkoniyatlarini taqdim etadi. Masalan, Shohimardon vodiysi – toza havo va tog’ cho‘qqilari bilan mashhur sayyohlik maskani. Bu yerda tabiiy buloqlar va toza daryo sayyohlarni o’ziga tortadi, shuningdek Shohimardon suv ombori suv sportlari va dam olish uchun qulay muhit yaratadi.

Shohimardondan tashqari, viloyatning boshqa tog’li hududlari ham alohida ahamiyatga ega. Qo‘qon shahriga yaqin Qo‘qon tog‘lari piyoda sayohat, chodirda turish va tabiiy manzaralarni tomosha qilish uchun qulay maskan hisoblanadi. Yodgorlik daralari esa tarixiy yodgorliklar joylashgan tabiiy landshaftlar bo‘lib, sayyohlarga bir paytda tabiat va tarixni uyg‘un ko‘rish imkonini beradi.

Farg’ona viloyatida mahalliy faollar va davlat organlari ekoturizm yo‘nalishida bir qator loyihalarni boshlashgan. Jumladan, 2019-yilda Shohimardon va Yordon qishloqlarini o‘z ichiga olgan hududda “Shohimardon” turizmni rivojlantirish direksiyasi tashkil etildi. Ushbu direksiya Shohimardon va Yordon MFYlarida turizmni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasini olgan bo‘lib, ayniqsa ekoturizm salohiyatini inobatga olgan holda yangi marshrutlar ishlab chiqishga e’tibor qaratdi.

Mahalliy tadbirkorlar ham turizmni rag‘batlantirishga hissa qo‘shmoqda. Misol uchun, Farg’ona tumanida pedagog Manzuraxon Mo‘minova “Pamirtravel” nomli turistik firma tashkil etdi. 2019-yilda bu firma Yozyovon tumani Yordon MFYda sayohatchilar uchun 30 o‘rinli dam olish maskani yaratdi va yil yakunigacha 22 ming nafar sayyohni qabul qildi. Ushbu kabi loyihalar viloyat aholisi orasida ekoturizmga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirib, yangi ish o‘rinlari yaratishga imkon bermoqda.

2023-yilda esa Shohimardon tarixiy qadriyatlarini o‘rganuvchi muzey tashkil etildi. Prezident qaroriga asosan Farg’ona tumanida “Shohimardon tarixi va tabiati muzeyi” ochilishi belgilandi, bu orqali hududning ekologik va madaniy merosi saqlanishga hissa qo‘shish ko‘zda tutilgan

Dunyo bo‘yicha eng rivojlangan ekoturizm misollari sifatida Kosta-Rika ko‘pincha tilga olinadi. Kosta-Rika hududi tabiiy muhitni muhofaza qilish

maqsadida 30 ta milliy bog’, 19 ta yovvoyi tabiat qo‘riqxonasi va 8 ta biologik rezervatsiya tashkil etilgan. Bu turizm va ekologiya sohasida keng qamrovli loyiha bo‘lib, ziyoratchilar uchun o‘rmonlarda yurish, daryolarda qayiqda suzish va mahalliy biologiyani o‘rganish kabi imkoniyatlar yaratilgan. Bundan tashqari, Farg’ona viloyatida ham tabiiy salohiyatni saqlagan holda turizmni rivojlantirishga qaratilgan shunga o‘xshash dasturlarni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud.

**Xulosa**

Farg‘ona viloyatining ekologik salohiyatidan turizm sohasida samarali foydalanish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Tog’li hududlar (Shohimardon vodiysi, Qo‘qon tog‘lari) va tarixiy-madaniy maskanlar (Yodgorlik daralari, Rishton keramikasi, Marg’ilon ipak zavodi va boshqa) birlashganda, viloyatning turistik mahsulot assortimenti sezilarli darajada kengayadi. Mahalliy darajada Shohimardon va Yordon MFYlarida turizm direksiyasi tashkil etilishi, pedagoglar tomonidan “Pamirtravel” turistik firmasining ijtimoiy loyihalari sohaning rivojida muhim rol o‘ynamoqda.

Xulosa qilganda, viloyatda ekoturizmni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- Tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ularga ekskursiya yo‘laklarini belgilash orqali ekoturistik infratuzilmani rivojlantirish.
- Mahalliy aholi va tadbirkorlarni ekoturizm dasturlariga jalb etish hamda ularning malakasini oshirish orqali iqtisodiy foydani ta’minlash.
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda Farg‘ona viloyatidagi ekoturistik yo‘nalishlarni targ‘ib qilish va ma’lumot olish imkoniyatlarini oshirish.
- Xalqaro hamkorlik va grantlarni jalb qilish orqali yangi investitsiyalar va ilg‘or tajribani o‘zlashtirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


**1.** Talabboyeva M., *Farg‘ona vodiyining ekoturizm salohiyati*, xalqaro ilmiy anjuman materiallari, Parij, 2022.

**2.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash choratadbirlari to‘g'risida”gi PF-4861-son Farmoni O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 49-son, 558-modda

**3.** Hamidov O.H., Norchacv A.N. Ekoturizm. - Darslik. - T.: TOlU, 2011

**4.** https://kun.uz

**5.** https://demokrat.uz

**6.** https://www.visitcostarica.com

**7.** https://uza.uz/uz

# YASHIL TURIZM TAMOYILLARI ASOSIDA TURIZM XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISH VA EKSPORT SALOHIYATINI KENGAYTIRISH YO‘NALISHLARI

**Bakhromov Akmal Abduvahid o‘g‘li,**
*TDIU “Turizm va mehmonxona biznesi” kafedrasi katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda yashil turizm tamoyillarini joriy etish orqali turizm xizmatlari sifatini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish masalalarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda “Green Tourism”, “Sustainable Hospitality” va “Eco-Certification” kabi xalqaro yondashuvlar tahlil qilinib, ularning mahalliy amaliyotga moslashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ekologik sertifikatlash tizimlari — Green Key, ISO 14001 va ETIS (European Tourism Indicators System) standartlari asosida barqaror xizmat menejmentini shakllantirish hamda turistik obyektlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Olingan natijalar “yashil” standartlarning joriy etilishi nafaqat ekologik barqarorlikni, balki xorijiy sayyohlar ishonchini ham oshirishi, natijada xizmatlar eksporti hajmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida “Green Tourism Uzbekistan” milliy sertifikat tizimini ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, barqarorlik, ekologik sertifikat, Green Key, ISO 14001, xizmat sifati, eksport salohiyati, barqaror rivojlanish.

## Kirish

So‘nggi yillarda turizm sanoati jahon iqtisodiyotining eng tez o‘sayotgan tarmoqlaridan biriga aylangan bo‘lsa-da, global iqlim o‘zgarishlari, ekologik inqiroz va tabiiy resurslarning kamayishi turizmning yangi — barqaror va yashil yo‘nalishda rivojlanishini talab etmoqda. Bugungi kunda turizm xizmatlari sifati nafaqat qulaylik va servis darajasi bilan, balki atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli yondashuv bilan ham belgilanmoqda. O‘zbekistonda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi hamda “Turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasi” doirasida yashil turizmni rivojlantirish, mehmonxonalar va turoperatorlar faoliyatini ekologik standartlarga moslashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, turizm xizmatlarini sertifikatlash tizimini ekologik mezonlar bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan.

Dunyo miqyosida “Green Key”, “Green Globe”, “Blue Flag”, “ISO 14001:2018” kabi standartlar mehmonxona va turistik infratuzilmada energiya tejamkorlik, chiqindilarni boshqarish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va karbon izini kamaytirish mezonlarini belgilaydi. O‘zbekistonda ushbu yondashuvlarni joriy etish orqali turistik xizmatlarning xalqaro sifat darajasini ta’minlash va ularni eksportga yo‘naltirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, yashil sertifikatlash tizimi bir tomondan ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa

O‘zbekiston turizm xizmatlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardosh brend sifatida targ‘ib etish uchun zamin yaratadi.

**Asosiy qism**

Yashil turizm (Green Tourism) ekologik resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda mahalliy jamoalarning iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan turizm shaklidir. Ushbu konsepsiya BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 8, 12, 13, 15) bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, turizmni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga asoslashni nazarda tutadi. Yashil turizmda xizmat sifati endilikda faqat qulaylik darajasi bilan emas, balki ekologik javobgarlik, energiya samaradorligi, chiqindisiz faoliyat yuritish va madaniy uyg‘unlik kabi mezonlar orqali baholanadi. Shu bois, zamonaviy turizmda “sifat menejmenti” va “barqaror menejment” tushunchalari o‘zaro integratsiyalashib, xizmatlar sifati bilan bir qatorda ekologik samaradorlikni ham ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida yashil turizmni rivojlantirish va barqaror xizmat ko‘rsatish tizimini shakllantirish maqsadida bir qator xalqaro ekologik sertifikatlash tizimlari faoliyat yuritmoqda. Ularning eng muhimlari qatoriga Green Key**,** ISO 14001:2018**,** Green Globe va Blue Flag standartlari kiradi. Green Key (Daniya, 1994-yildan) tizimi mehmonxona va restoranlar faoliyatida ekologik mezonlarni belgilab, energiya iste’molini 25–30 foizga, chiqindilar hajmini esa 40 foizgacha kamaytirish imkonini beradi. ISO 14001:2018 esa korxonalar faoliyatini ekologik menejment tizimi asosida tashkil etishni talab etuvchi xalqaro standart bo‘lib, u atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirishga qaratilgan. Green Globe sertifikati esa turizm tashkilotlarining barqarorlik darajasini 44 ta mezon asosida baholaydi, Blue Flag esa dengiz va daryo sohilidagi turistik obyektlarga ekologik xavfsizlik belgisi sifatida beriladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu sertifikatlar nafaqat obro‘elementi, balki xalqaro turizm bozoriga chiqish uchun zarur talab sifatida qaraladi. Masalan, Fransiyada “Green Key” sertifikatiga ega mehmonxonalar 2023-yilda o‘rtacha 18 foiz ko‘proq xorijiy sayyohlarni jalb qilgan. Shu orqali ko‘rinadiki, xalqaro yashil sertifikatlash tizimlari turizm xizmatlari sifatini oshirish bilan bir qatorda, eksport salohiyatini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi (2022–2030) va “Turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasi” (2023–2027) doirasida turizmning ekologik modeli bosqichma-bosqich shakllanmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva va Zomin hududlarida eko-mehmonxona, agro-turizm va tabiiy rekreatsion zonalar asosida barqaror infratuzilma yaratilmoqda.

- Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil turizm sohasida quyidagi muammolar mavjud:
- Ekologik sertifikatlash tizimining milliy standarti hali to‘liq ishlab chiqilmagan;
- Mehmonxonalar va turoperatorlarda ekologik menejment tizimlari joriy etilmagan;
- Xodimlar uchun ekologik xizmat madaniyati bo‘yicha o‘quv dasturlari yetarli

emas;

- Ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari zaif.

Shu sababli, “Green Tourism Uzbekistan” milliy sertifikatlash dasturini yaratish zaruriyati dolzarbdir. Bu tizim O‘zbekistonning milliy qadriyatlari, madaniy merosi va iqlim xususiyatlariga mos, lekin xalqaro standartlarga integratsiyalashgan shaklda ishlab chiqilishi kerak.

Xizmat eksportini rivojlantirishda ishonch va sifat kafolati hal qiluvchi omillardandir. Xalqaro eko-sertifikatga ega obyektlar xorijiy turistlar uchun ishonch belgisi vazifasini bajaradi. Shu sababli, yashil sertifikatlash tizimi nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy samaradorlik ham beradi.

Empirik kuzatuvlarga ko‘ra, Green Key sertifikatiga ega mehmonxonalar o‘rtacha:

- xorijiy bronlashlar sonini 20–25% oshiradi;
- energiya xarajatlarini 30% gacha kamaytiradi;
- xizmat eksportidan olinadigan sof daromadni 15–20% ga ko‘paytiradi.

O‘zbekistonda bu tajribani tatbiq etish orqali 2030-yilgacha eko-sertifikatlangan xizmatlar eksportini 1,2–1,5 baravar oshirish imkoniyati mavjud.

Yashil sertifikatlash tizimining amaliy natijalarini aniq ifodalash maqsadida Green Key dasturida ishtirok etuvchi mehmonxonalarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik sertifikatlash nafaqat ekologik foyda beradi, balki xizmat eksportining o‘sishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagi diagrammada Green Key sertifikatining turizm xizmatlari eksportiga ta’siri asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha tasvirlangan.




**1-rasm. Green Key sertifikatining turizm xizmatlari eksportiga ta’siri**

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, Green Key sertifikatiga ega mehmonxonalarda xorijiy bronlashlar soni o‘rtacha 20–25 foizga oshgan, energiya xarajatlari 30 foizgacha kamaygan, xizmat eksportidan olinadigan sof daromad esa 15–20 foizga ko‘paygan. Bu esa ekologik menejment tizimlari turizm subyektlari uchun nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali model ekanini ko‘rsatadi. Demak, O‘zbekistonda yashil sertifikatlash tizimini joriy etish orqali 2030-yilgacha eko-sertifikatlangan xizmatlar eksportini kamida 1,2–1,5 baravar oshirish imkoniyati mavjud.

Innovatsion yondashuvlar va takliflar

1. “Green Tourism Uzbekistan” sertifikat tizimini yaratish:

– 4 bosqich: audit → baholash → tasniflash → monitoring.
– Asosiy mezonlar: energiya, suv, chiqindi, madaniy meros, mahalliy iqtisodiyot.

2. “EcoScore” raqamli platformasini joriy etish:

– Har bir turistik obyekt onlayn baholanadi; natijalar QR-kod orqali turistlarga ko‘rsatiladi.

3. Eko-ta’lim dasturlarini joriy etish:

– Turizm kollejlarida va universitetlarda “Green Hospitality Management” moduli tashkil etiladi.

4. Eko-brend yaratish:

– “Uzbekistan Green Destination” xalqaro marketing brendi ostida eksport yo‘nalishidagi turistik mahsulotlarni ilgari surish.

Yashil turizm O‘zbekiston turizm xizmatlari eksportini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Ekologik sertifikatlash tizimi orqali:

- xizmat sifati xalqaro darajaga ko‘tariladi;
- xorijiy turistlar ishonchi mustahkamlanadi;
- eksport daromadlari barqaror o‘sishga ega bo‘ladi;
- mamlakat ekologik imiji yaxshilanadi.

Shunday qilib, yashil turizm O‘zbekiston uchun ekologik barqarorlik + iqtisodiy o‘sish + eksport kengayishini birlashtiruvchi strategik yo‘nalish sifatida qaraladi.

**Xulosa**

Yashil turizm konsepsiyasi O‘zbekiston turizm xizmatlari sifatini oshirish va ularni xalqaro bozorda raqobatbardosh qilishning zamonaviy yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik yondashuv asosida tashkil etilgan xizmat menejmenti nafaqat atrof-muhitni asrashga, balki eksport salohiyatini oshirishga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, ekologik sertifikatlash (Green Key, ISO 14001, ETIS) tizimlarini joriy etish orqali xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar o‘z faoliyatida energiya tejamkorlik, chiqindi kamaytirish, suv resurslarini tejash kabi amaliy natijalarga erishadi. Bu esa xalqaro auditoriya uchun ishonchli “yashil brend” yaratadi.

Ikkinchidan, yashil turizm O‘zbekistonning turizm eksport modelida yangi iqtisodiy imkoniyatlar ochadi. Xalqaro standartlarga mos xizmatlar xorijiy turistlar oqimini ko‘paytiradi, ularning sarf-xarajatlari oshadi, natijada xizmatlar eksportidan olinadigan daromad o‘sadi.

Uchinchidan, “Green Tourism Uzbekistan” milliy sertifikat tizimini yaratish orqali mamlakatda ekologik boshqaruv madaniyatini shakllantirish, turistik korxonalarda “barqaror menejment”ni joriy etish hamda turizm ta’limida ekologik kompetensiyalarni mustahkamlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

To‘rtinchidan, xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, ekologik sertifikatlash va “yashil brendlash” jarayonida raqamli yechimlardan foydalanish (masalan, QR-kod asosida “Eco Score” platformasi) sayyohlarga ochiq va ishonchli ma’lumot taqdim etadi. Bu esa O‘zbekiston turizmining raqamli eksport infratuzilmasini rivojlantirish uchun yangi bosqich bo‘ladi.

Shunday qilib, yashil turizm O‘zbekiston turizm xizmatlari eksporti uchun strategik poydevor bo‘lib xizmat qiladi. U xizmat sifatini xalqaro talablarga moslashtirish, mamlakat ekologik imijini yaxshilash, va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash orqali turizmni milliy iqtisodiyotning yuqori qiymatli tarmog‘iga aylantirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari (2022–2024).
3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. “Barqaror va ekologik turizm rivojlanish tendensiyalari”. https://uzbektourism.uz/
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. “Turizm xizmatlari eksporti ko‘rsatkichlari”. https://stat.uz/
5. UNWTO. (2022). *Tourism for Sustainable Development Goals.* Madrid: UNWTO Publications.
6. European Commission. (2022). *ETIS – European Tourism Indicators System for Sustainable Destinations.*
7. OECD. (2021). *Green Transformation in Tourism: Policy Tools for Environmentally Sustainable Growth.* Paris: OECD Publishing.
8. Buckley, R. (2012). *Sustainable Tourism: Research and Reality.* Annals of Tourism Research.
9. Gössling, S., Scott, D., & Hall, C. M. (2015). *Tourism and Sustainability: New Directions.* Routledge.
10. Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2015). *Smart Tourism and Sustainable Destinations.* Springer.
11. Kotler, P., Bowen, J., & Makens, J. (2010). *Marketing for Hospitality and Tourism.* Prentice Hall.
12. Mattoo, A., & Payton, L. (2007). *Exporting Services: A Developing Country Perspective.* World Bank Publications.
13. Bakhromov, A. A. (2024). Turizm xizmatlari eksportida zamonaviy texnologiyalar va yashil yondashuvlar samaradorligi. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 1(5).
14. Bakhromov, A. A. (2023). Turizm xizmatlari eksportini oshirishda barqaror menejment va ekologik innovatsiyalar.
15. Xushnazarova, M. G. (2023). Smart-turizm: zarubejnyy opyt i perspektivy primeneniya v Uzbekistane.
16. Xalimova, F. N. (2022). MICE turizmining innovatsion rivojlanishidagi barqarorlik omillari.
17. Sodikov, M. (2024). Ijtimoiy media va turizm yo‘nalishlari imidjiga ekologik yondashuvlar ta’siri.
18. Sodikov, M. (2023). *Digital Advertising Oasis: Qatar’s E-Marketing Revolution.*

## Study on Omni-media Traffic Characteristics and Marketing Strategies in Samarkand

***Yang Jie,***
*PhD & Lecturer of Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage*

**Abstract.** This comprehensive study examines the intersection of omni-media traffic patterns and contemporary marketing approaches for promoting green tourism in Samarkand, Uzbekistan. As global tourism trends increasingly favor sustainable and eco-friendly travel experiences, Uzbekistan stands at a crucial juncture to leverage its unique cultural and natural assets through strategic digital marketing. The research employs a multi-faceted methodology combining big data analysis of digital traffic patterns, stakeholder interviews, and case study examination to develop actionable marketing frameworks. The theoretical foundation builds upon contemporary digital marketing theory, sustainable tourism development models, and destination branding principles. Through systematic analysis of social media engagement metrics, website traffic data, and mobile application usage patterns spanning 2020-2023, this research identifies key characteristics of digital consumer behavior in relation to Samarkand's tourism offerings. The findings reveal distinct seasonal patterns, demographic preferences, and content engagement trends that inform strategic marketing decisions.

**Keywords**: Omni-media Marketing, Green Tourism, Digital Traffic Analysis, Sustainable Tourism, Destination Branding

### Introduction

The global tourism industry has undergone significant transformation in recent decades, with increasing emphasis on sustainable development and digital engagement. Uzbekistan, particularly the historic city of Samarkand, possesses remarkable potential for green tourism development, yet faces challenges in effectively communicating this potential to international markets. The convergence of digital media platforms has created new opportunities for destination marketing, requiring sophisticated understanding of omni-media traffic patterns and consumer behavior.

This research addresses the critical need for data-driven marketing strategies that align with contemporary sustainable tourism values. Samarkand, as a UNESCO World Heritage site and cultural crossroads, serves as an ideal case study for examining the relationship between digital media engagement and tourism marketing effectiveness. The study’s significance lies in its potential to inform both theoretical understanding and practical applications of omni-media marketing in emerging tourism destinations.

The research objectives encompass three primary dimensions: first, to characterize omni-media traffic patterns related to Samarkand's tourism offerings; second, to analyze the effectiveness of existing marketing approaches; third, to develop an integrated marketing framework that leverages digital insights for promoting green tourism initiatives. By addressing these objectives, this study contributes to the broader discourse on sustainable tourism marketing while providing actionable insights for industry practitioners.

## Literature Review

Contemporary tourism marketing has evolved significantly from traditional approaches to embrace digital transformation and sustainability principles. The theoretical foundation of this study integrates three key domains: omni-channel marketing theory, sustainable tourism development, and destination branding strategies.

Omni-media marketing represents the convergence of multiple digital channels into a seamless consumer experience. Scholars including Kotler et al. (2019) and Lemon & Verhoef (2016) have documented the shift from multi-channel to omni-channel approaches, emphasizing the importance of integrated customer journeys across digital touchpoints. In tourism contexts, this requires coordinated messaging across social media platforms, official websites, mobile applications, and third-party review sites.

Sustainable tourism marketing has gained prominence through the works of Weaver (2020) and Bramwell et al. (2017), who emphasize the integration of environmental, social, and economic considerations in destination promotion. The concept of green tourism specifically focuses on minimizing ecological impact while maximizing community benefits, requiring specialized marketing approaches that communicate these values effectively to environmentally-conscious travelers.

Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2020). Social Media in Travel: Theories, Strategies, and Applications. Journal of Travel Research, 59(5), 747-763.

Li, X., & McCabe, S. (2018). Content Marketing Strategies in Eco-Tourism: Impact on Consumer Engagement. Journal of Sustainable Tourism, 26(3), 410-425.

Weaver, D. (2019). Sustainable Tourism: Theory and Practice. Cambridge University Press.

## O‘zbekistonning ekologik turizm brendini jahon bozorida ilgari surish: innovatsion marketing yondashuvlari

**Oppoqxonov Nurmuhammadxon Po‘latxon o‘g‘li**
*TDIU, Turizm va mehmonxona binzesi kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonning yashil turizm (eko-turizm) salohiyatini jahon turizm bozorida targ‘ib qilishning zamonaviy marketing strategiyalari o‘rganilgan. Globallashuv sharoitida yashil turizmning ahamiyati, ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan xizmatlarni xalqaro auditoriyaga yetkazish mexanizmlari va marketing innovatsiyalarining qo‘llanishi tahlil qilinadi.

Jahon va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari asosida marketing kommunikatsiyalari, brending, raqamli platformalar, eko-sertifikatlash, davlat–xususiy sektor hamkorligi kabi yo‘nalishlar o‘rganilgan va O‘zbekistonning bu boradagi imkoniyatlari hamda muammolari aniqlanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mamlakatda yashil turizmni xalqaro bozorda muvaffaqiyatli targ‘ib qilish uchun kompleks raqamli marketing strategiyalari, global ekologik brend yaratish va xalqaro standartlarga mos sertifikatlarni joriy etish taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, eko-turizm, marketing strategiyasi, raqamli marketing, brending, O‘zbekiston, ekologik turizm, barqaror rivojlanish, xalqaro bozor.

## Kirish

So‘nggi yillarda global turizm industriyasida ekologik muvozanat, barqaror rivojlanish tamoyillari va tabiiy resurslarni saqlash masalalari birinchi o‘ringa chiqa boshladi. Bu jarayon turizmning yangi segmenti — yashil turizm yoki ekologik turizmni shakllantirdi. Yashil turizm nafaqat ekologik toza sayohatlarni o‘z ichiga oladi, balki mahalliy aholining ishtirokini ta’minlash, madaniy merosni saqlash va iqtisodiy barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks modelni ham ifodalaydi.

O‘zbekiston tabiiy resurslari, milliy bog‘lari, biosfera hududlari, ekologik jihatdan toza qishloq turizmi imkoniyatlari bilan yashil turizmni rivojlantirishga ulkan salohiyatga ega. Ammo bu salohiyatni jahon turizm bozorida yetarli darajada targ‘ib qilish uchun zamonaviy marketing yondashuvlariga ehtiyoj mavjud. O‘zbekistonning turistik brendi ko‘p hollarda tarixiy va madaniy turizm bilan bog‘langan bo‘lsa-da, mamlakat ekologik turizm yo‘nalishida yetarli global imijga ega emas.

Mazkur maqolaning maqsadi – O‘zbekistonning yashil turizm salohiyatini jahon turizm bozorida ilgari surish uchun zamonaviy marketing strategiyalarini tahlil qilish, mavjud tajribalar asosida taklif va xulosalar berishdan iborat.

## Mazvuga oid adabiyotlar tahlili

Eko-turizm va yashil marketing konsepsiyalari ekologik barqarorlik masalalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalishda ko‘plab xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borgan. Masalan, Honey (2008) eko-turizmni "mas’uliyati yuqori, ekologik va ijtimoiy barqaror sayohat shakli" deb ta’riflab, uning iqtisodiy imkoniyatlari va xavf-xatarlarini tahlil qiladi.

Weaver (2006) eko-turizmni turizm sohasidagi eng tez rivojlanayotgan segment sifatida baholab, uning marketingda raqamli vositalar va ijodiy brendingning ahamiyatiga urg‘u beradi. Lane va Kastenholz (2015) esa yashil turizmni amalga oshirishda mahalliy jamoalar ishtiroki va ekologik identifikatsiyaning marketingdagi o‘rni haqida fikr yuritadi.

O‘zbekistonda yashil turizm masalalariga oid ilmiy izlanishlar asosan iqtisodiy, hududiy va ekologik jihatlar bilan bog‘liq. A. Tursunov (2022) yashil turizmning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatini tahlil qilib, uning eksport salohiyati haqida fikr bildirgan.

Shuningdek, Sh. Jo‘rayev va Q. Isroilov (2021)lar O‘zbekistonning ekologik turizm resurslari va ularning marketingda yetarli yoritilmaganligini ko‘rsatganlar. Lekin zamonaviy global marketing yondashuvlari orqali eko-turizmni ilgari surish bo‘yicha izlanishlar yetarli emasligi kuzatiladi.

**Asosiy qism**

O‘zbekiston 9 ta davlat tabiat qo‘riqxonalari, 2 biosfer rezervati, 12 tabiiy bog‘lar va ko‘plab tog‘li, cho‘l va yarim cho‘l landshaftlari bilan bioxilma-xillikni o‘zida mujassam etgan. Surxondaryodagi Boysun tog‘lari, Qashqadaryodagi Hisor milliy bog‘i, Nurota qo‘riqxonasi va Ustyurt platosi kabi hududlar eko-sayohat uchun noyob sharoit yaratadi. Mamlakatda qishloq xo‘jaligi va agro-turizm yakuniy ko‘rinishda yashil turizmning bir bo‘lagi sifatida rivojlanmoqda. Masalan, Farg‘ona vodiysidagi mevalar yetishtirish bog‘lari va qishloq uylarida yashash tajribasi xorijiy turistlar uchun jozibador bo‘lishi mumkin. Ammo ushbu noyob resurslar xalqaro miqyosda yetarli darajada targ‘ib qilinmayapti. Jahon turizm bozori kuchli raqobat sharoitida yashil turizmni ilgari surishda zamonaviy raqamli marketing strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston o‘zining ekologik turizm yo‘nalishlarini yagona “yashil brend” ostida targ‘ib qilishi lozim. Xalqaro eko-sertifikatlar (masalan, Green Globe, EarthCheck) orqali turizm obyektlarining ekologik standartlarga mosligi ta’minlansa, bu xalqaro sayohatchilar uchun ishonchli signal bo‘ladi.

Quyidagi 1-rasmda O‘zbekistonning yashil turizm salohiyatini brendlash va eko-sertifikatlash orqali jahon turizm bozorida muvaffaqiyatli targ‘ib qilish modelini vizual tarzda ko‘rsatib beradi.

- Milliy brend konsepsiyasi: O‘zbekistonning ekologik turizm identifikatori bo‘lib, milliy qadriyatlar va tabiat salohiyatini mujassam etadi.
- Eko-sertifikatlash: Xalqaro tashkilotlar tomonidan ekologik boshqaruv standartlariga mosligini tasdiqlovchi tizim.
- Global marketing kampaniyalari: Raqamli vositalar va media orqali brendni jahon sahnasida targ‘ib qilish vositalaridan iborat.

Ushbu rasmda yashil turizmni rivojlantirishda marketing va sertifikatlashning o‘zaro bog‘liqligini bosqichma-bosqich tasvirlab beradi:

Har qanday mamlakatning ekologik turizm salohiyati avvalo uning tabiiy resurslari, ya’ni muhofaza etiladigan hududlari, noyob landshaftlari, biologik xilma-xilligi va ekologik jihatdan toza muhitiga tayanadi. Ushbu resurslarning to‘g‘ri boshqarilishi va ularni barqaror turizmga yo‘naltirilishi milliy darajadagi brend konsepsiyasining asosiy omili hisoblanadi. Ya’ni mamlakat ekologik jihatdan mas’uliyatli, tabiatni asrovchi va barqaror turizmni qo‘llab-quvvatlovchi davlat sifatida tanitila boshlaydi.

Milliy brend shakllangach, navbat xalqaro eko-sertifikatlash tizimlari – masalan, Green Globe, EarthCheck, EU Ecolabel, LEED kabi standartlarga mos keluvchi baholash jarayonlariga keladi. Ushbu sertifikatlar nafaqat turistik obyektlarning ekologik talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi, balki butun turizm tizimining barqaror boshqarilishini ko‘rsatadi. Sertifikatlangan mehmonxonalar, qo‘riqxona hududlari,

tabiat bog‘lari va ekologik yo‘laklar mamlakatning jahon bozoridagi ishonchli ekoturistik taklifiga aylanadi.

Keyingi bosqichda ushbu sertifikatlangan obyektlar global marketing kampaniyalarida faol qo‘llaniladi. Xalqaro ko‘rgazmalar, raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlardagi reklama, blogerlar va turistik platformalar orqali sertifikatlangan eko-ob’ektlar “yuqori sifat”, “barqaror boshqaruv”, “ekologik xavfsizlik” timsoli sifatida targ‘ib qilinadi. Mazkur jarayonlarning barchasi yakunda xalqaro sayohatchilar ishonchini oshiradi**.**




**1-rasm. Yashil turizmda brending va eko-sertifikatlash modeli**[109]

Turizm bozori bugun raqamli platformalar orqali shakllanyapti. O‘zbekistonning yashil turizm brendini Instagram, YouTube, TripAdvisor, Google Travel va blokcheyn texnologiyalariga asoslangan reklama vositalari orqali global auditoriyaga yetkazish zarur. Virtual sayohatlar, dron tasvirlari, bloglar va ekologik mavzudagi interaktiv kontentlar mamlakatning ekologik turizmga oid imijini mustahkamlaydi.

Raqamli marketing bugungi kunda turizm marketingining eng samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yashil turizmning asosiy auditoriyasi — ekologik muvozanatga e’tiborli, ongli sayohatchilar bo‘lib, ular izlanishlarni ko‘pincha internet orqali olib boradilar.

Raqamli marketingning asosiy afzalliklari:

Global auditoriya bilan tezkor aloqa: Raqamli kanallar geografik chegaralardan tashqarida bo‘lgan auditoriyani jalb qilish imkonini beradi.

[109] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Kontentning vizual va interaktivligi: Foto, video, blog kabi vositalar orqali ekologik tajribalar qayta yaratib bo‘ladi.

O‘lchash va tahlil qilish imkoni: Google Analytics, Meta Insights kabi vositalar yordamida foydalanuvchilar xulq-atvori tahlil qilinadi.

Arzon va samaradorlik: An’anaviy marketingga nisbatan ko‘proq auditoriyani kam xarajat bilan qamrab olish imkoniyati mavjud. Kontent yaratishning dolzarbligi:

Storytelling — mahalliy aholi bilan uchrashuv, tabiat qo‘riqxonalari haqida hikoya ko‘rinishida bo‘lishi sayohatchi uchun kuchli hissiy aloqani shakllantiradi.

Interaktiv kontent — virtual sayohatlar, dron tasvirlari va 360° videolar orqali tabiiy go‘zalliklar real ko‘rinishda ko‘rsatiladi.

Quyidagi 1-jadvalda yashil turizmni targ‘ib qilishda raqamli marketing vositalari va kontent turlari berilgan.

**1-Jadval.**

**Yashil turizmni targ‘ib qilishda raqamli marketing vositalari va kontent turlari**[110]

| **Raqamli marketing vositasi** | **Kontent turi** | **Maqsad** | **Misollar / Platformalar** |
|---|---|---|---|
| **Veb-sayt / blog** | Hikoya (storytelling), vizual materiallar (foto, video), ekoturizm marshrutlari haqida maqolalar | Qidiruv tizimlarida topilish, ishonchni oshirish | WordPress, Squarespace, Medium |
| **Ijtimoiy tarmoqlar (SMM)** | Qisqa video (Reels, TikTok), infografika, foydalanuvchi tajribalari | Virusli kontent yaratish, brend obro‘sini shakllantirish | Instagram, Facebook, TikTok, X (Twitter) |
| **YouTube va vloglar** | Virtual sayohatlar, mahalliy hayot tajribasi | Audiovizual tarzda mamlakatni ko‘rsatish, uzoq vaqtli tomosha | YouTube, Vimeo |
| **E-mail marketing** | Eko-turizm takliflari, yangiliklar byulleteni | Maqsadli auditoriyani tik saqlash, sodiqlik programmalari | Mailchimp, Sendinblue |
| **SEO va SEM** | Kalit so‘zlar asosida joylashuv, ekologik turizm uchun yo‘naltirilgan saytlarga reklama | Organik va pullik qidiruv orqali ko‘rinuvchanlikni oshirish | Google Search, Yandex, Bing |
| **Uchinchi tomon platformalari** | Tajriba sharhlari, eko-marshrut kataloglari | Ishonchni mustahkamlash, booking orqali qo‘shilish | TripAdvisor, Booking.com, Airbnb Experiences |
| **Blogerlar va brand** | Hamkorlikdagi kontent, intervyu, eksklyuziv | Autentik tajribani ommalashtirish | YouTube, Instagram |

[110] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

| | | | |
|---|---|---|---|
| **ambassadorlar** | tajriba | | influenserlar |

Eko-marshrutlar xaritasi — raqamli platformada ekologik yo‘nalishlarga oid xarita berish foydalanuvchi tajribasini yengillashtiradi.

O‘zbekistonning ekologik turizmini rivojlantirish uchun raqamli marketing strategiyalarini har tomonlama tatbiq qilish, bir-birini to‘ldiruvchi kontent turlardan foydalanish va keng auditoriyaga e’tiborli, zamonaviy, interaktiv yondashuvni talab qiladi.

c) Xalqaro hamkorlik va turizm klasterlari

Yashil turizmda muvaffaqiyatli bo‘lgan davlatlar — Kosta-Rika, Butan, Norvegiya, Sloveniya — bilan hamkorlikda o‘quv loyihalari, tajriba almashish, qo‘shma festival va eko-marafonlar tashkil etilishi samarali bo‘ladi. Mintaqaviy turizm klasterlari orqali mahalliy biznes, davlat va jamoatchilikni birlashtirish marketing samaradorligini oshiradi.

d) Hikoya asosidagi marketing (storytelling)

Eko-turizm tajribalarini insoniy qadriyatlar, tabiatga muhabbat, ekologik tashabbuslar asosida hikoya shaklida targ‘ib qilish — milliy brendning jozibadorligini oshiradi. Mahalliy aholining hikoyalariga asoslangan brending strategiyalari sayyohlar ongida O‘zbekistonning ekologik va madaniy qadriyatlarini mustahkamlaydi.

**Xulosa**

O‘zbekistonning yashil turizm sohasidagi salohiyati uning tabiiy boyliklari, madaniy rang-barangligi va ekologik toza hududlari bilan ajralib turadi. Ushbu imkoniyatlar xalqaro turizm bozorining barqaror sayohatga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, mavjud resurslardan samarali foydalanish uchun strategik rejalashtirilgan marketing yondashuvlari talab etiladi. Ayni paytda O‘zbekistonning turistik imiji ko‘proq madaniy va tarixiy yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘lib, ekologik turizm potensiali yetarlicha namoyish etilmayapti. Bu esa marketing jarayonlarida zamonaviy yondashuvlar yetishmasligi, xalqaro platformalarda raqamli faollikning pastligi va global ekologik sertifikatsiya jarayonlarining cheklanganligi bilan bog‘liq.

Yashil turizmni rivojlantirish faqatgina iqtisodiy foyda olishni emas, balki mahalliy aholining farovonligini oshirish, tabiiy muhitni muhofaza qilish va barqaror turizm tamoyillarini kuchaytirishni ko‘zda tutadi. Shu ma’noda, mamlakatning global turizm bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash uchun marketing strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish zarur.

Mazkur maqola asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Yashil turizm bo‘yicha yagona milliy platforma va brend yaratish. O‘zbekistonni ekologik yo‘nalishda dunyoga tanitish uchun yagona milliy eko-brend zarur. Bu brend milliy qadriyatlar, tabiiy muhит va barqarorlik tamoyillarini aks ettirishi lozim. Taklif etilayotgan platforma ekologik yo‘nalishdagi barcha turizm xizmatlarini birlashtirib, mahalliy operatorlar va xalqaro auditoriyani bog‘lovchi vosita bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Xalqaro eko-turizm assotsiatsiyalari bilan hamkorlikni kengaytirish. Green Globe, Global Ecotourism Network kabi yirik ekologik turizm tashkilotlari bilan hamkorlik O‘zbekiston eko-turizmini legitimlashtirish, sertifikatlash va global e’tirofni oshirish uchun muhimdir. Bunday hamkorliklar mamlakatning ekologik sertifikatlar olish jarayonini yengillashtirib, xalqaro standartlarga mos turistik obyektlar sonini oshiradi.

Storytelling va kontent-marketing asosida ekologik tajribalarni targ‘ib qilish. Zamonaviy sayohatchilar uchun nafaqat yo‘nalish, balki u yerda yaratiladigan tajriba ham muhim. O‘zbekiston qishloq hayoti, an’anaviy tabiatga yaqin turmush tarzi, tog‘li va biosfera hududlaridagi tashabbuslarni hikoyaviy tarzda (video, blog, podkast) targ‘ib qilishi orqali xalqaro sayohatchilar e’tiborini jalb qilishi mumkin. Bu yondashuv mamlakatni “tabiiy va sodiq sayohat” brendi ostida tanitadi.

Raqamli vositalardan keng foydalanish orqali global auditoriyaga chiqish. Virtual realitet (VR), dron tasvirlari, mobil ilovalar orqali ekologik marshrutlarni namoyish qilish, raqamli sayohat platformalarida eko-turizmga yo‘naltirilgan kontent yaratish O‘zbekistonning turizmni targ‘ib qilishdagi keskin raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, blogerlar bilan hamkorlik, SEO va kontekstual reklama orqali qidiruv tizimlarida eko-turizm bo‘yicha ko‘rinuvchanlikni oshirish muhimdir.

Bularning barchasi O‘zbekistonni dunyodagi eng istiqbolli yashil turizm yo‘nalishlaridan biriga aylantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ekologik muhitni saqlash va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish orqali turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Agar davlat siyosati, xususiy sektor faolligi va jamoatchilik tashabbuslari uyg‘unlashsa, O‘zbekiston Yevropa va Osiyoda ekologik turizm bo‘yicha etakchi brendlar qatoridan joy olishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Honey, M. (2008). *Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise?* Washington: Island Press.
2. Weaver, D. (2006). *Sustainable Tourism: Theory and Practice.* Elsevier.
3. Lane, B. & Kastenholz, E. (2015). “Rural Tourism: The Evolution of Practice and Research Approaches – Towards a New Generation Concept.” *Journal of Sustainable Tourism*, 23(3).
4. Tursunov, A. (2022). “O‘zbekistonning yashil turizm salohiyati va iqtisodiy samaradorligi.” *Iqtisodiyot va innovatsiya*, 3(2).
5. Jo‘rayev, Sh. & Isroilov, Q. (2021). “Ekologik turizmning marketing strategiyalari.” *Turizm va xizmatlar*, 4(1).
6. UNWTO (2020). *Tourism for Sustainable Development in Least Developed Countries*.
7. WTTC (2022). *Environmental Sustainability in Travel & Tourism.*

# RAQAMLI ISLOHOTLAR SHAROITIDA ICHKI TURIZM XIZMATLARINI KENGAYTIRISH YO‘NALISHLARI

**Maxmudova A.P.**
*SamISI, “Turizm” kafedrasi dotsenti,*
*“Ipak Yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti*
*tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan raqamli transformatsiya jarayonining ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilib, raqamli texnologiyalar, jumladan mobil ilovalar, onlayn platformalar, sun’iy intellekt va virtual reallik imkoniyatlari orqali turizm xizmatlarini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Turistik xizmatlar, diversifikatsiya, ichki turizm, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi, virtual turlar, mobil ilovalar, onlayn bron platformalari, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar.

## Kirish

Hozirgi paytda turizm xizmatlar bozorining turli segmentlariga yo‘naltirilgan turizm va mehmonxona xo‘jaligi xizmatlarini raqamlashtirish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish hamda O‘zbekistonda ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish davr talabi bo‘lmoqda.

Ushbu masalalar O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 19 sentyabr kuni videoselektor yig‘ilishida ham xorijiy turistlar okimini ko‘paytirish va ichki turizmni yanada rivojlantirish, sayyoxlik xizmatlarini yaxshilash va turlarini kengaytirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar natijadorligi tanqidiy tahlil qilingan edi.

Darxaqiqat milliy iqtisodiyotning hududlarini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki va ziyorat turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada samarali foydalanish, unga yondosh bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarini klastr usulida rivojlantirish, milliy turizm brendini yaratish va uni jahon bozorlarida targ‘ibot qilish hisobiga O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini namoyon etish talab qilinmoqda.

## Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mamlakatimizda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishna oid bo‘lgan masalalar bo‘yicha bir qator iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida va tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, Q.X.Abduraxmonov, M.R.Boltabayev, I.S.Tuxliyev, M.T.Alimova, Ye.V.Golisheva, M.Q.Pardayev, B.Sh.Safarov va boshqalarning tadqiqotlarida ushbu masalalar keng yoritilgan. Turizm va mehmondo‘stlik sohasidagi raqamli texnologiyalar va innovatsion jarayonlarni tadqiqot qilishga qo‘yidagi xorijiy olimlarning ishlari bag‘ishlangan: Bogolyubov V.S., Makrinova

Ye.I., Sotnik A.P., Xaydarov I.S., Sobolevska T.G., Hamirzov S.K., Kumpilov A.R., Kalashnikov S.V., Xachemizov E.A.

**Materiallar va metodlar**

Ushbu tadqiqot ishi mobaynida qiyosiy tahlil va tizimli qiyoslash, ilmiy abstrakt fikrlash, mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar**

Bugungi kunda jahon turizm tashkiloti ta'rifiga ko'ra, ichki turizm kategoriya sifatida ikki ko'rinishdan iborat bo'lib - aslida ichki milliy va xalqaro kirish turizmidan iboratdir. Shu bilan birga, turli mamlakatlar o'rtasidagi kirish turizmi bozorida deyarli har bir kiruvchi turist uchun juda qattiq raqobat mavjud. Masalan Koreya Respublikasi Milliy sayyohlik tashkiloti o'z faoliyatida ustuvor yo'nalishni belgilash uchun maxsus atama "kiruvchi turizm" ni joriy etishga qaror qildi, bu esa odatiy rivojlanayotgan ichki turizmdan avallombor, uni rivojlantirishning aniq milliy strategiyasi va siyosatini ishlab chiqish bilan farq qiladi.

Umuman turizm industriyasi ikkita qarama-qarshi tendensiya ta'sirini boshdan kechirmoqda. Bir tomondan, ichki turizm sohasi muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Boshqa tomondan, u iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish usuli bo'lib, milliy iqtisodiyotning boshqa turdosh tarmoqlari va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligini oshirishga olib keladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirishga oid keng ko'lamli me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, turizmni rivojlantirishni boshqarishning institutsional tizimi shakllantirildi, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan samarali foydalanish uchun mamlakatimizning barcha hududlarida Turizm qo'mitasining tarkibiy boshqarmalari tashkil etildi.

O'zbekistonda turizm iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida belgilanishi natijasida xukumat tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar asosida bu sohada katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2021 yil 9 yanvardagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi PQ-232-son "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori bunga misol bo'ladi.

Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishda sohaga kiritilayotgan investitsiyalar orqali nafaqat xorijiy turistlar oqimini oshirish, balki ichki turizmni rivojlantirishga ham erishilmoqda. 2022 yilda turizm sohasida jami qiymati 22,1 trln. so'mlik 735 ta loyihalar ishga tushirilib, tarmoqda qo'shimcha 23 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi[111]. Tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya jalb qilish hamda raqobatbardosh xizmatlarni yo'lga qo'yishga bergan e'tibor natijasida O'zbekiston turizm bozoriga Radisson, Wyndham, Hilton, Hyatt Regency, Ramada, Mövenpick, Mercure, Courtyard by Marriott, Minyoun, InterContinental Hotels Group va Accor

[111] https://xabar.uz/03om

kabi yetakchi mehmonxona brendlari kirib kelmoqda. Ular nafaqat Toshkent, balki, Jizzax, Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlarida bozor talabi asosida o‘z faoliyatlarini olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 07.02.2018 yildagi PQ-3514-son qarori asosida bugungi kunda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturining faol amalga oshirilishi turizm industriyasini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning natijasida ichki sayyohlar soni 15 million nafarni tashkil qilib, o‘tgan yilga qaraganda 2 barobarga o‘sdi.

Mahalliy sayohatlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022 yil 1 sentyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» dasturi doirasida respublika hududlari bo‘ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish harajatlarining bir qismini qaytarish «Keshbek» tizimi joriy qilindi. Unga ko‘ra, har bir turistga:

aviaqatnov orqali borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 150 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

temir yo‘lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

joylashtirish vositasida tunab qolish harajatining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

teatr, muzey, sirk va badiiy galereyalarga har bir tashrif chiptasi narxining 50 foizi, lekin 20 ming so‘mdan oshmagan miqdorda miqdorda qaytariladi.

Keshbek tizimi Davlat soliq qo‘mitasining maxsus mobil ilovasi - Soliq.uz bilan integratsiya qilingan bo‘lib, harajatlar haqqoniyligi mobil ilova yordamida tekshirilib, harid chekining matritsali shtrix kodini (QR-kod) hamda mahalliy turistlarning doimiy yashash joylarini ko‘rsatish orqali sayohatlar ro‘yxatdan o‘tkazilmoqda.

Shu bilan birgalikda olib borilgan tadqiqotlar natijasi bo‘yicha ichki turizmni rivojlantirishda qator muammolar borligi ham aniqlandi. Jumladan shu paytgacha O‘zbekistonda bevosita ichki turizmni rivojlantirish uchun tegishli qonunchilik bazasi mukammal yaratilmagan. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunida alohida ichki turizmni tartibga solish mexanizmlari, bu boradagi davlat organining hududiy bo‘linmalari vakolatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ichki turizm sohasidagi vakolatlari berilmagan.

Vaxolangki, turistik oqimlar, sayohat amalga oshadigan turistik hududlardagi (dessinatsiyalardagi) infratuzilma turizmning qaysi turlariga moslashganligiga binoan, aniq qonuniyatlar asosida shakllanadi. Ushbu qonuniyatlarni joriy qilish, sohani rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor va vakolatli organlarga, birinchidan turistik oqimning barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirish imkoniyatini bersa, ikkinchidan turistik hudud raqobatbardoshligini muntazam oshirib borishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ichki turizm muammolariga e’tibor bermaslik, amaldagi me’yoriy-huquqiy bazaning birinchi navbatda “chiqish operatori uchun” yo‘naltirilganligi sababli, ichki turizmni diversifikatsiya qilish muammolari yetarli darajada hal qilinmasligiga olib keladi. Natijada bugungi kunda bolalar va yoshlar turizmi, ijtimoiy, ziyorat, qishloq

va qator boshqa zamonaviy turizm turlarini rivojlantirishga asoslangan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjud emasligi salbiy ta’sir qilmoqda.

Buning uchun alohida, maqsadli qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilinishi kerak, bu ham xududlar, ham respublika darajasida ichki turizmni barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu qonun va hujjatlarisiz ichki turizmni rivojlantirish juda mushkul, chunki diversifikatsiya jarayonida turizmning ma’lum bir turining barcha xususiyatlarini bitta qonunda tasvirlab bo‘lmaydi.

Raqamli transformatsiyalashuv sharoitida ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha hal qilinmagan quyidagi muammolar ham mavjud:

raqamlashtirish ta’sirida turizm va mehmonxona mahsulotlarini diversifikatsiya qilishning modellari ishlab chiqilmagan;

rejalashtirish jarayonida milliy ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha sa’y-harakatlarning muvofiqlashtirilmaganligi;

xalqaro va ichki bozorlarda O‘zbekiston turistik taklifining past darajadagi raqobatbardoshligi;

ichki turizmni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi sifatida turizm klasterlarining huquqiy-me’yoriy hujjatlari ishlab chiqilmagan;

hududlarda turizm infratuzilmasining notekis rivojlanishi natijasida mahalliy turistlarni jalb qilishda ziyorat, ekologik va rekreatsion turizm marshrutlarining elektron haritalari ishlab chiqilmagan;

ichki, ayniqsa ziyorat turizmi resurslarining to‘liq ro‘yxati, ta’rif va tavsifi ishlab chiqilmagan.

Turizm biznesini raqamlashtirish sharoitida mijozning o‘zi ma’lum bir tur haqida ma’lumot qidiradi, ma’lum bir kompaniyani tanlaydi va xizmatlar narxlarini taqqoslaydi, bu mijozlarga ajoyib natijalarni olishga va sayyohlik firma egalari uchun yuqori daromadlar olishlarini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mijozga kun bo‘yi rejimida xizmatlar ko‘rsatiladi, bu xizmatlarning sifatini oshiradi va mijozlar ehtiyojini qondirishga yordam beradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar sayyohlarga barcha bosqichlarda hamroh bo‘lib, zaruratni anglashdan (virtual turlar bilan platformalar), sayohatni rejalashtirishdan (tavsiya xizmatlari va shaxsiy takliflar yaratish uchun ilovalar, tayyor marshrutlarga ega platformalar) sayohat davomida qulaylikni ta’minlashga qodir (transport va sayyohlik terminallari, robotlar, kontaksiz ro‘yxatdan o‘tish texnologiyalari), taassurot almashish (mahalliy navigatsiya uchun gadjetlar va ilovalar, tilni tarjima qilish) va sharhlar almashinuvi bilan yakunlangan (sharhlar bilan platformalar), ya’ni sayohatni “smart-sayoxat”ga aylantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar**

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli islohotlar sharoitida ichki turizm xizmatlarini kengaytirish turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va aholi uchun qulayliklar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mobil ilovalar, onlayn bron platformalari, sun’iy intellekt va virtual reallik kabi raqamli texnologiyalar turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning asosiy drayverlari hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli xavfsizlikni ta’minlash,

kadrlar raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish va barqaror turizm yo‘nalishlarini joriy etish orqali milliy turizm salohiyatini oshirish imkoniyatlari mavjud.

Ichki turizm xizmatlarini yagona milliy onlayn platforma orqali targ‘ib qilish bugungi kun talabidir. Bunday platformada turpaketlarni bron qilish, elektron to‘lovlarni amalga oshirish, yo‘nalishlarni tanlash imkoniyati yaratilishi zarur. Bu turistlar uchun qulaylik yaratish bilan birga xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlar o‘rtasida raqobatbardoshlikni oshiradi. Turizm xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish uchun virtual sayohatlar, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan smart-gidlar va har bir turistning xohish-istaklariga mos personallashtirilgan marshrutlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq. Bu xizmatlar turistik tajribani yanada boyitish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, raqamli islohotlar ichki turizm xizmatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini beradi. Milliy turizm bozorida raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash xizmatlarni diversifikatsiya qilish, turistik tajribani boyitish va mamlakatning turizm salohiyatini yuksaltirish uchun muhim omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 13 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni**.**

7. Tuxliyev I.S., Po‘latov M.E., Berdimurodov A.Sh. “Turizm sohasining zamonaviy atamalari izohli luhati”. S.: 2019 y.

8. SH.Mirzayev, A. Xoliqov “Turizm iqtisodiyoti”. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti. 2020 y.

9. SH.Rahimov. “Turizmni boshqarish va marketing asoslari”. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 2021 y.


## O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZM ASOSIDA TA’LIM TURIZMINI RIVOJLANTIRISH VA XALQARO BOZORDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI


**Jahongirov Kamoliddin Asomiddin o‘g‘li**
*O‘zbekston xalqaro islomshunoslik akademiyasi o‘qituvchisi*



**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda yashil turizm asosida ta’lim turizmini rivojlantirish imkoniyatlari va xalqaro bozorda targ‘ib qilish strategiyalari tahlil qilingan. Yashil turizmning ekologik imkoniyatlari ta’lim turizmi bilan uyg‘unlashib, ekologik ekspeditsiyalar, ilmiy-amaliy treninglar, yozgi maktablar va volontyorlik dasturlari kabi yangi mahsulotlarni yaratishi asoslab berilgan. “Yashil iqtisodiyot”

strategiyasi, ekologik infratuzilma, xalqaro hamkorlik, raqamli marketing va mahalliy hamjamiyatlarni jalb etish orqali O‘zbekistonning global ta’lim-ekoturizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yashil turizm, ta’lim turizmi, ekologik infratuzilma, ekologik ekspeditsiyalar, xalqaro hamkorlik, barqaror turizm, raqamli marketing.

## Kirish

So‘nggi yillarda global turizm industriyasida barqarorlik va ekologik mas’uliyat tamoyillarining kuchayib borishi, yashil turizm (eco-tourism) konsepsiyasining strategik yo‘nalish sifatida shakllanishiga olib keldi. Ayni paytda, dunyo bo‘yicha ta’lim turizmi, ya’ni talabalar, tadqiqotchilar va akademik xodimlarning qisqa muddatli o‘quv dasturlari, almashinuvlar, seminarlar va ilmiy-amaliy treninglarda ishtirok etish maqsadida safar qilishi eng tez o‘sayotgan bozor segmentlaridan biri hisoblanmoqda. UNESCO, UNWTO va OECD ma’lumotlariga ko‘ra, ta’lim turizmi global xizmatlar eksportining eng barqaror tarmoqlaridan bo‘lib, mamlakat imijini mustahkamlash, innovatsion g‘oyalarni jalb qilish, xalqaro akademik hamkorlikni kengaytirish hamda iqtisodiyotga yuqori qo‘shimcha qiymat kiritish kabi ko‘plab afzalliklarni beradi.

O‘zbekiston uchun ushbu ikki yo‘nalish – yashil turizm va ta’lim turizmi – o‘zaro uyg‘unlashgan holda rivojlanishi alohida strategik ahamiyatga ega. Bir tomondan, mamlakatning boy tabiiy-ekologik resurslari, milliy bog‘lar, biosfera hududlari, qo‘riqxonalar, noyob landshaftlar va ekologik marshrutlar xalqaro eco-turistlar uchun nihoyatda jozibador bo‘lsa, ikkinchi tomondan, O‘zbekistonning ilmiy salohiyati, oliy ta’lim muassasalari, islom sivilizatsiyasi merosi, arxeologik va etnografik o‘quv maydonlari ta’lim turizmini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur sinergiya ta’limga asoslangan ekologik sayohatlar, ekologik treninglar, amaliy ekspeditsiyalar, ekologik volontyorlik dasturlari, yozgi maktablar va xalqaro ilmiy seminarlar kabi yangi turistik mahsulotlarni shakllantirish imkonini beradi.

## Asosiy qism

O‘zbekistonda 2020–2025-yillarda amalga oshirilayotgan “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi, turizmni transformatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturlari, hududlarda ekologik infratuzilmani yaxshilash, milliy bog‘lar boshqaruvini modernizatsiya qilish va ta’lim tizimida xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha islohotlar ushbu yo‘nalishlarning rivojlanishiga mustahkam institutsional zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, xalqaro bozorda O‘zbekistonning ta’lim turizmi brendini shakllantirish, yashil turizm tamoyillariga asoslangan mahsulotlarni raqamli platformalarda targ‘ib qilish, global universitetlar, ilmiy markazlar va ekologik tashkilotlar bilan barqaror hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Yashil turizm va ta’lim turizmi bo‘yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar ushbu sohalarning barqaror o‘sish tamoyillarini, ekologik mas’uliyatni oshirish mexanizmlarini hamda ta’limga yo‘naltirilgan sayohatlarning iqtisodiy va madaniy ahamiyatini yoritadi. UNWTO, OECD va UNESCO hisobotlarida ta’lim turizmi global xizmatlar eksportining yuqori qo‘shimcha qiymatga ega yo‘nalishi sifatida

baholanadi va ekologik barqaror dasturlar bilan integratsiya qilinishi eng istiqbolli segmentlardan biri ekani ta’kidlanadi.

Honey, Weaver, Lane va Kastenholz asarlarida ekoturizmning asosiy prinsiplari – tabiiy resurslarni muhofaza qilish, mahalliy hamjamiyatlarni qo‘llab-quvvatlash, ekologik xulq-atvorni shakllantirish zamonaviy ta’lim shakllari bilan uyg‘unlashganda ko‘proq ijtimoiy-qadriyat yaratishi qayd etiladi. Ta’lim turizmi bo‘yicha Ritchie hamda Mazzarol, & Soutar (2019) tadqiqotlarida xalqaro akademik almashinuvlar, ilmiy ekspeditsiyalar va o‘quv dasturlarining turistik oqimlarni shakllantirishdagi roli yoritilgan.

O‘zbekiston bo‘yicha mavjud tadqiqotlar Turobov, Xudayberganova kabi olimlar tomonidan olib borilib, mamlakatning ekologik marshrutlari, biosfera hududlari, milliy bog‘lar salohiyati hamda ta’lim dasturlarini xalqaro integratsiyaga chiqarish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Biroq yashil turizm va ta’lim turizmini integratsiyalashgan model sifatida o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetarli emas.

O‘zbekistonda yashil turizm asosida ta’lim turizmini rivojlantirish global tendensiyalar, milliy ekologik resurslar, ta’lim salohiyati va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish orqali shakllanishi mumkin bo‘lgan istiqbolli va yuqori qiymatli yo‘nalishlardan biridir. Mazkur sohani rivojlantirish strategiyasi bir nechta o‘zaro bog‘langan komponentlardan iborat bo‘lib, ular mamlakat brendini mustahkamlash, barqaror turizm ekotizimini yaratish, yoshlar va ilmiy hamjamiyatni jalb etish hamda xalqaro tanlovbardoshligini oshirishga qaratilgan. Birinchi navbatda, O‘zbekistonning boy tabiiy hududlari – Chatqol biosfera rezervati, Ustyurt platosi, Zomin milliy bog‘lari, Ugam-Chotqol va Nurota qo‘riqxonalari, Orolbo‘yi ekologik zonasi – ekologik o‘quv ekspeditsiyalari, ekologik ko‘ngillilik dasturlari, tadqiqot-amaliyotlar, botanika va zoologiya lagerlari, ekologik yozgi maktablar uchun noyob platforma bo‘la oladi. Shu sababli birinchi strategik yo‘nalish sifatida ekologik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari yaratish taklif etiladi. Bunga ekologiya, geologiya, biologiya, iqlim o‘zgarishi, suv resurslari boshqaruvi, cho‘llanish va biosfera monitoringi bo‘yicha ilmiy-amaliy modullar, xalqaro kredit tan olinadigan qisqa muddatli kurslar, “field school” shaklidagi dala amaliyotlari va ikki diplomli dasturlar kiradi. Bunday mahsulotlar ta’lim turizmi talabiga bevosita mos keladi va ekologik turizmning barqaror rivojlanish tamoyillariga xizmat qiladi.

Ikkinchi strategiya sifatida yashil infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy bog‘lar va qo‘riqxonalarda ekologik mehmonxonalar (eco-lodges), kam energiya sarflovchi yashash joylari, qayta tiklanuvchi energiya asosidagi turistik obyektlar, ekologik yo‘laklar, ochiq laboratoriyalar, ilmiy kuzatuv punktlari va xavfsiz ekologik marshrutlar yaratish ekologik va ta’limiy turizm integratsiyasini kuchaytiradi. Mazkur infratuzilma ekologik sertifikatsiya tizimi (Green Key, Global Sustainable Tourism Council, EU Ecolabel) orqali xalqaro tan olinishga erishsa, O‘zbekistonni global bozorda raqobatbardosh qiladi. Shuningdek, “Smart National Parks” konsepsiyasi orqali ekologik hududlarda sensor monitoring, raqamli xaritalar, AR/VR gidlik texnologiyalarini joriy etish ta’lim jarayonini interaktivlashtiradi.

Uchinchi yo‘nalish sifatida xalqaro akademik hamkorlik va qo‘shma ekoturizm–ta’lim loyihalarini kengaytirish zarur. Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturlari, UNESCOning Biosfera rezervlari uchun o‘quv dasturlari, KOICA, JICA, DAAD,

British Council kabi tashkilotlar bilan ortak kurslar, talabalar almashinuvi va qo‘shma ilmiy ekspeditsiyalarni yo‘lga qo‘yish O‘zbekistonning ta’lim turizmi eksportini oshiradi. Shuningdek, xorijiy universitetlarning filiallari va ilmiy markazlari bilan ekologik loyiha-laboratoriyalar tashkil etish, Aralbo‘yi hududida xalqaro ilmiy markazlar faoliyatini ta’lim turizmi platformasi bilan birlashtirish strategik istiqbol kasb etadi.

To‘rtinchi strategiya sifatida raqamli marketing va xalqaro brending ustuvor o‘rin tutadi. O‘zbekiston uchun “Eco-Edu Tourism Uzbekistan”, “Aral Eco Academy”, “Central Asia Green Learning Route” kabi yagona brendlar yaratish, ularni meta-qidiruv tizimlari, xalqaro ta’lim yarmarkalari, ekologik turizm portallari, global talabalar platformalari orqali targ‘ib qilish zarur. Raqamli kontent marketingi, virtual turlar, ekoturistik marshrutlarning 3D xaritalari, vloglar, xalqaro ilmiy bloglar va ko‘ngilli dasturlar uchun maxsus platformalar yaratish yoshlar auditoriyasiga yuqori ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ekologik va ta’limiy turizmga ixtisoslashgan influencerlar, ilmiy ekspeditsiya blogerlar va ekologiya bo‘yicha ekspertlarni jalb etish O‘zbekistonning ko‘rinuvchanligini oshiradi.

Beshinchi strategiya sifatida mahalliy hamjamiyatlarni ta’limiy-ekologik turizmga integratsiya qilish muhimdir. Mahalliy aholi uchun ekogidlik, dala laboratoriyasi yordamchisi, ekologik kuzatuvchi, qo‘riqxona volontyori kabi yangi kasbiy yo‘nalishlarni o‘qitish, ularni qo‘shma loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Mahalliy aholi ishtiroki turistlarning tajribasini boyitadi, ekologik madaniyatni oshiradi va yashil turizmning ijtimoiy qiymatini kuchaytiradi.

Oltinchi strategiya esa barqaror boshqaruv va huquqiy asoslarni takomillashtirish bilan bog‘liq. Yashil turizmni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida milliy dastur, ekologik marshrutlarning akkreditatsiya tizimi, ta’lim turizmi bo‘yicha litsenziyalash va ekologik standartlar joriy etilishi sohani institutsional jihatdan mustahkamlaydi. Milliy bog‘lar bilan universitetlar o‘rtasidagi klaster hamkorlik, “Green Education Cluster”, “Eco-Tourism Research Hub” kabi tarmoqlarni yaratish boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Yettinchi strategiya sifatida xalqaro grantlar, xususiy sektor investitsiyasi va davlat–xususiy sheriklikni kengaytirish muhim. Ekologik ta’lim markazlari, ekologik mehmonxonalar va ilmiy ekspeditsiya infratuzilmasiga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslar sohani tez o‘suvchi segmentga aylantiradi. Aralbo‘yi, Qoraqalpog‘iston va Farg‘ona vodiysi hududlarida ekologik-ta’limiy klasterlarning moliyalashtirilishi O‘zbekistonni Markaziy Osiyoda yetakchi ta’lim turizmi markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa**

Umuman olganda, O‘zbekistonda yashil turizm asosida ta’lim turizmini rivojlantirish strategiyalari ekologik resurslar, ilmiy salohiyat, raqamli marketing, xalqaro hamkorlik va barqaror boshqaruvni yagona ekotizimga birlashtirishga qaratilgan bo‘lib, mamlakatning global ta’lim va ekologik turizm bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga mos yangi xizmatlar va iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Turobov, A. (2022). O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Tourism Studies Journal, 4(2), 45–56.

2. Xudayberganova, N. (2023). Ta’lim turizmi va xalqaro akademik mobil’likning O‘zbekistondagi rivojlanish istiqbollari. Journal of Economics and Education, 5(1), 78–90.

3. Honey, M. Honey, M. (2008). *Ecotourism and sustainable development: Who owns paradise?* (2nd ed.). Island Press.

4. Weaver, D. B. Weaver, D. B. (2001). *Ecotourism*. John Wiley & Sons. Weaver, D. B. (2006). *Sustainable tourism: Theory and practice*. Elsevier.

5. Lane, B. Lane, B. (1994). What is rural tourism? *Journal of Sustainable Tourism, 2*(1–2), 7–21. Lane, B., & Kastenholz, E. (2015). Rural tourism: The evolution of practice and research approaches – towards a new generation concept? *Journal of Sustainable Tourism, 23*(8–9), 1133–1156.

6. Kastenholz, E. Kastenholz, E. (2004). Management of demand: Tourists' perceptions of rural tourism destinations. *Tourism and Hospitality Research, 5*(1), 23–35. Kastenholz, E., Davis, D., & Paul, G. (1999). Segmenting tourism in rural areas: The case of North and Central Portugal. *Journal of Travel Research, 37*(4), 353–363.

7. Ritchie, B. W. Ritchie, B. W. (2003). *Managing educational tourism*. Channel View Publications.

8. Mazzarol, T., & Soutar, G. N. (2019) Mazzarol, T., & Soutar, G. N. (2019). Revisiting the global market for international education. *Asia Pacific Journal of Marketing and Logistics, 31*(5), 1280–1302.

9. Qo‘shimcha asosiy manba (klassik) Mazzarol, T., & Soutar, G. N. (2002). “Push–pull” factors influencing international student destination choice. *International Journal of Educational Management, 16*(2), 82–90.

## BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL MARKETING KONSEPSIYALARINING QO‘LLANILISHI

**Fayyoza Xalimova Nafasovna**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*katta o’qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ommaviy turizm konsepsiyasi bugungi kunda o‘z turizm sohasini barqaror va uzoq muddatli asosda rivojlantirishni maqsad qilgan mamlakatlar uchun o‘z dolzarbligini yo‘qotmoqda. Zamonaviy turizm siyosati sifat jihatdan yangi yondashuvni talab qiladi, bu esa muqobil turizm modeli shaklida namoyon bo‘lmoqda. Muqobil turizm -bu ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan mas’uliyatli sayohatni nazarda tutuvchi kompleks tushuncha bo‘lib, u eko-turizm, barqaror turizm, yumshoq turizm, mas’uliyatli turizm, kichik miqyosli turizm va yashil turizm kabi shakllarni o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuvning mohiyati - tabiatni muhofaza

qilish, mahalliy madaniyatni asrash va resurslardan oqilona foydalanish orqali turizmni barqaror rivojlantirishdir.

**Kalit so‘zlar:** Muqobil turizm, yashil turizm, yashil marketing, barqaror rivojlanish, ekologik mas’uliyat, raqamli turizm marketingi.

**Kirish**

Turizm sohasining jadal rivojlanishi bilan birga, uning atrof-muhitga, mahalliy madaniyatga va ijtimoiy tuzilmalarga bo‘lgan ta’siri tobora muhim masalaga aylanmoqda. Shu sababli, XX asrning oxirlaridan boshlab ommaviy turizmga muqobil yondashuv sifatida “muqobil turizm” (alternative tourism) tushunchasi shakllandi.

Muqobil turizm - bu tabiat, madaniyat va mahalliy jamoalar bilan uyg‘unlikda tashkil etiladigan, ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni ustuvor qo‘yuvchi turizm turidir. U ommaviy turizmning salbiy oqibatlariga, xususan, atrof-muhitning degradatsiyasi, madaniy standartlashuv va iqtisodiy foydaning xorijga oqib ketishiga javoban shakllandi. 1980-yillarning oxiridan boshlab global miqyosda ekologik ongning oshishi, barqaror iste’mol madaniyatining shakllanishi va “haqiqiy” (autentik) tajriba izlovchi sayyohlar sonining ortishi muqobil turizmga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi. Bu jarayon iste’molchilar tomonidan ommaviy turizmning bir xilligi va tijoratlashuviga qarshi ijtimoiy reaksiya sifatida ham baholanadi.

“Muqobil turizm” atamasi ilmiy adabiyotlarda ikki asosiy talqinga ega: Ekologik yondashuv – muqobil turizmni atrof-muhitga kamroq zarar yetkazuvchi, ekologik toza turizm sifatida tushuntiradi. Bu yondashuv “eko-turizm”, “yashil turizm” va “barqaror turizm” konsepsiyalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv – muqobil turizmni ommaviy turizmning iqtisodiy va boshqaruv modeliga qarshi turuvchi, mahalliy manfaatlarni ustuvor qo‘yuvchi turizm turi sifatida talqin etadi. Bu holatda muqobil turizm mahalliy jamoalarning iqtisodiy mustaqilligini va madaniy o‘ziga xosligini himoya qiladi.

Muqobil turizmning asosiy tamoyillari quyidagilar.

- Kichik miqyosda rivojlanish va mahalliy egalikni qo‘llab-quvvatlash**;**
- Salbiy ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni minimallashtirish**;**
- Mahalliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan integratsiya — xususan, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan uzviy bog‘liqlik;
- Iqtisodiy foydaning mahalliy darajada saqlanishi va adolatli taqsimlanishi**;**
- Mahalliy aholining boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtiroki**;**
- Rivojlanish jarayonining tashqi bosimlardan ko‘ra mahalliy manfaatlarga yo‘naltirilishi**.**

Yashil turizm -bu faqat ekologik jihatdan mas’uliyatli dam olish shakli emas, balki mahalliy iqtisodiyotni rag‘batlantiruvchi va ijtimoiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi iqtisodiy model hamdir. Shu bois, yashil turizmning muvaffaqiyati nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligiga, balki to‘g‘ri marketing yondashuvlariga ham bevosita bog‘liqdir.

Bu jarayonda yashil marketing strategiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yashil marketing bu ekologik barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan marketing faoliyati bo‘lib, u ishlab chiqaruvchi va iste’molchi, hamkor va raqobatchilar, davlat va jamiyat o‘rtasidagi barqaror hamkorlik tizimini shakllantiradi. Uning asosiy tamoyillari - foyda keltirish bilan bir qatorda, atrof-muhitga va jamiyatga ijobiy hissa qo‘shishdan iborat. Yashil marketing strategiyasining muvaffaqiyati uchun korxona va tashkilotlar o‘z missiyasi, qarashlari, strategiyasi va maqsadlarini qayta ko‘rib chiqishlari, ularni ekologik barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishlari zarur. Bu esa faqat yuqori boshqaruv darajasida emas, balki biznes jarayonining barcha ishtirokchilari - xodimlar, hamkorlar, mijozlar va mahalliy jamoalarning faol ishtirokini ham talab etadi. Natijada, yashil marketing turizm sohasida nafaqat ekologik mas’uliyatni oshiradi, balki mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi strategik vosita sifatida ham xizmat qiladi. Shu tarzda muqobil va yashil turizm modellarini rivojlantirish orqali davlatlar nafaqat iqtisodiy barqarorlikka, balki ijtimoiy va ekologik uyg‘unlikka ham erishadilar.

Turistik mahsulotlarni ishlab chiqish va rejalashtirish jarayonida mahalliy aholi manfaatlari, madaniy qadriyatlar va tabiiy muhit bilan uyg‘unlik tamoyiliga qat’iy rioya etilishi zarur. Bu uyg‘unlik turizmning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydi, turistlar uchun esa haqiqiy, autentik tajribani yaratadi. Barqaror turizmni rivojlantirish faqat siyosiy qarorlar bilan emas, balki samarali rejalashtirish, ilmiy asoslangan strategiyalar va ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Shu bois, turizm sohasi mutaxassislarini ekologik mas’uliyat, ijtimoiy hamkorlik va resurslarni oqilona boshqarish yo‘nalishida tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha BMTning Jahon komissiyasi (Brundtland komissiyasi) tomonidan 1987-yilda e’lon qilingan “Bizning umumiy kelajagimiz” (Our Common Future) hisobotida barqaror rivojlanish quyidagicha ta’riflanadi: “Barqaror rivojlanish — bu hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirar ekan, kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga putur yetkazmaydigan rivojlanishdir”.[112] Mazkur yondashuv keyinchalik turizm sohasiga ham tatbiq etilib, “barqaror turizm” tushunchasining shakllanishiga zamin yaratdi. 1990-yillardan boshlab bu atama geografik, iqtisodiy va ekologik tadqiqotlarda keng qo‘llanila boshlandi. Barqaror turizm bu turizm faoliyatining ekologik va ijtimoiy muvozanatni buzmagan holda rivojlanishini ta’minlovchi tizimli yondashuv bo‘lib, u nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikni ham maqsad qiladi.

Ideal shaklda barqaror turizm konsepsiyasi turizmning barcha turlari - ommaviy, ekologik, madaniy, sarguzasht yoki nish (nich) turizmlarga - tatbiq etilishi mumkin. Uning asosiy maqsadi turizm industriyasining uzoq muddatli daromadliligini saqlagan holda, tabiiy resurslarni muhofaza qilish, mahalliy jamoalar farovonligini oshirish va madaniy merosni asrashdir.

Barqaror turizm g‘oyasi barqaror rivojlanish konsepsiyasidan kelib chiqadi. U uchta o‘zaro bog‘liq o‘lchovga asoslanadi:

[112] World Commission on Environment and Development, Archive Collection on Sustainable Development, International Development Research Center, Ottawa,

Ekologik tamoyil - turizmning asosini tashkil etuvchi tabiiy resurslardan oqilona va optimal foydalanish, muhim ekologik jarayonlarni saqlab qolish hamda tabiiy meros va biologik xilma-xillikni muhofaza qilishni ta’minlash. Bu tamoyil ekologik tizimlarning tiklanish qobiliyatini saqlashga qaratilgan.

Ijtimoiy-madaniy tamoyil - qabul qiluvchi jamoalarning ijtimoiy va madaniy haqiqiyligini hurmat qilish**,** ularning me’moriy, tarixiy va madaniy merosini asrash, an’anaviy qadriyatlarini e’zozlash va shu orqali madaniyatlararo muloqot, bag‘rikenglik va o‘zaro tushunishni rivojlantirish**.**

Iqtisodiy tamoyil - turizm faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, barqaror bandlik va daromad manbalarini yaratish, ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovini oshirish hamda qashshoqlikni kamaytirishga hissa qo‘shish**.** Shu bilan birga, iqtisodiy foydalar barcha manfaatdor tomonlar — mahalliy aholi, xususiy sektor, davlat va turistlar — o‘rtasida adolatli taqsimlanishi zarur.

Barqarorlikning ushbu uch o‘lchovi o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, ulardan biri yetarlicha e’tiborga olinmasa, turizm tizimi izdan chiqadi. Shu bois, turizmni barqaror rivojlantirish faqat iqtisodiy maqsad emas, balki ijtimoiy adolat, ekologik muvozanat va madaniy xilma-xillikni saqlashga qaratilgan kompleks strategik jarayon sifatida qaraladi. Barqaror turizmning asosiy maqsadi - iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdir. Bu esa davlat siyosati, xususiy sektor, mahalliy jamoalar va turistlarning hamkorlikdagi faoliyatini talab qiladi. Faqat mana shunday integratsiyalashgan yondashuv orqaligina turizm sohasida haqiqiy barqaror rivojlanishga erishish mumkin[113].

Yashil marketingning konseptual mohiyati- bu bozor faoliyati jarayonida ekologik qadriyatlarni inobatga olgan holda iste’molchi ehtiyojlarini qondirish, shu bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shishni maqsad qiluvchi boshqaruv strategiyasidir. U klassik marketingning asosiy maqsadi — foyda olishni — inkor etmaydi, balki bu maqsadni ijtimoiy va ekologik manfaatlar bilan muvofiqlashtiradi**.**

**Xulosa**

Yashil marketing va ijtimoiy marketing o‘rtasidagi bog‘liqlik - yashil marketing o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy mas’uliyatli marketing konsepsiyasining mantiqiy davomidir. Agar ijtimoiy marketing iste’molchi manfaatlarini jamiyat ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, yashil marketing bu uyg‘unlikni ekologik o‘lchov bilan to‘ldiradi.

- ijtimoiy marketingning ekologik kengaytirilgan shakli**,**
- barqaror rivojlanish siyosatining bozor mexanizmidagi ifodasi**,**

[113] Egamnazarov, K. (2025). THE SUSTAINABLE TOURIST AS AN AGENT OF CHANGE: RESPONSIBILITIES, ETHICAL CONDUCT, AND IMPACT IN UZBEKISTAN’S TOURISM DEVELOPMENT. Modern American Journal of Social Sciences and Humanities, 1(3), 1-17.

• korporativ ekologik mas’uliyatni amaliyotga tatbiq etuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi[114].

Yashil marketingni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun korxonalar quyidagi strategik tamoyillarga amal qiladilar:

Ekologik innovatsiyalarni joriy etish – mahsulot dizayni, ishlab chiqarish texnologiyasi va qadoqlash jarayonlarida ekologik mezonlarga rioya qilish;

Barqaror iste’molni targ‘ib qilish – iste’molchilarni ekologik ongli tanlovlar qilishga undovchi kommunikatsiya siyosatini yuritish;

Qiymat zanjiri bo‘ylab hamkorlik – ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, raqobatchilar va iste’molchilar o‘rtasida ekologik barqarorlikka qaratilgan sheriklikni yo‘lga qo‘yish;

Tashkiliy madaniyatda yashil qadriyatlarni shakllantirish – korxona strategiyasi, missiyasi va brend identifikatsiyasini ekologik mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirish;

Uzoq muddatli barqarorlikni maqsad qilish – qisqa muddatli foydadan ko‘ra, atrof-muhit va jamiyat manfaatlariga mos keluvchi uzoq muddatli strategiyalarni ustuvor qo‘yish[115].

Xulosa qilib aytganda, yashil marketing — bu bozor iqtisodiyoti tamoyillarini ekologik mas’uliyat bilan uyg‘unlashtiruvchi ilg‘or boshqaruv strategiyasidir. U nafaqat iqtisodiy foyda, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va jamiyat farovonligini ta’minlashni ham ko‘zda tutadi. Yashil marketingning dolzarbligi shundan iboratki, u barqaror turizm, ekologik menejment va korporativ ijtimoiy mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq holda insoniyatning ekologik ongli rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi.

**Foydalanilagn adabiyotlar ro‘yxati**

1. Xalimova F. Qoraqalpog ‘iston respublikasi turizmini rivojlantirish va hududning turistik jozibadorligini oshirishda raqamli marketing strategiyasi //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 5.

3. Kapelanis D, Strachan, S., The price premium of an environmentally friendly product, South African Journal of Business Management, 2006, Vol. 4, p. 89.

4. Egamnazarov, K. (2025). THE SUSTAINABLE TOURIST AS AN AGENT OF CHANGE: RESPONSIBILITIES, ETHICAL CONDUCT, AND IMPACT IN UZBEKISTAN’S TOURISM DEVELOPMENT. Modern American Journal of Social Sciences and Humanities, 1(3), 1-17.

5. Xalimova F. N. O ‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMINI BARQAROR RIVOVLANISHIDA QULAY INFRATUZILMA //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 112-114.

[114] Xalimova F. Qoraqalpog ‘iston respublikasi turizmini rivojlantirish va hududning turistik jozibadorligini oshirishda raqamli marketing strategiyasi //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 5.

[115] Kapelanis D, Strachan, S., The price premium of an environmentally friendly product, South African Journal of Business Management, 2006, Vol. 4, p. 89.

# Yashil iqtisodiyotda turistik xizmatlar qiymatini optimallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

**Suyunov Raximjon G’anijon o’g’li**
*SamISI “Buxgalteriya hisobi va menejment” fakulteti tyutori*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida turistik xizmatlar qiymatini optimallashtirishning nazariy asoslari va ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Bundan tashqari turizm sohasida xizmatlar sifatini tasniflashning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada turistik xizmatlarning moddiy va nomoddiy xususiyatlari, ularning asosiy, qo‘shimcha va qo‘llab-quvvatlovchi elementlarga ajratilishi tahlil qilingan. Xizmat sifatini tasniflashda “4S” modeli (sezilmaslik, servis va iste’molchining o‘zaro bog‘liqligi, saqlanmaslik, sifatning doimiy emasligi) hamda xalqaro yondashuvlar (SERVQUAL, Krouch va Ritchie modeli)ning o‘ziga xos afzalliklari va cheklovlari yoritilgan. Tadqiqotda xizmatlar sifatini tasniflash nafaqat mijozlarning kutgan natijalariga erishishini, balki turizm industriyasining barqaror rivojlanishini ta’minlashdagi rolini ham ko‘rsatadi. Muallif tomonidan O‘zbekiston turizm sharoitiga mos holda xizmat sifatini kompleks tasniflash yondashuvi taklif etilgan bo‘lib, unda xalqaro standartlar, milliy xususiyatlar va barqarorlik mezonlari uyg‘unlashtirilgan. Ushbu yondashuv turistik xizmatlar sifatini boshqarishning nazariy asoslarini kengaytirish va amaliy samaradorligini oshirishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** turistik xizmatlar sifati, tasniflash, 4S modeli, SERVQUAL, barqaror rivojlanish, O‘zbekiston turizmi.

## Kirish

XXI asrda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida shakllandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi o‘n yillikda turizm global yalpi ichki mahsulotning (YAIM) o‘sishiga 10 foizdan ortiq ulush qo‘shmoqda, millionlab yangi ish o‘rinlari yaratmoqda va mamlakatlarning xalqaro imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Turizmning bunday keng ko‘lamda taraqqiy etishi xizmatlar sifatini chuqur o‘rganish, ularni nazariy va amaliy jihatdan tasniflash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Turistik xizmatlar o‘zining moddiy va nomoddiy xususiyatlari, mavsumiyligi, iste’molchi bilan bevosita bog‘liq holda yaratilishi va bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarilib iste’mol qilinishi bilan boshqa xizmat turlaridan ajralib turadi. Shu bois, xizmatlar sifatini aniq tasniflash ularning mohiyatini chuqurroq anglash, samaradorligini oshirish hamda turistlarning qoniqish darajasini ta’minlash uchun muhim nazariy va amaliy vosita hisoblanadi. Xizmatlar sifatini tasniflash orqali turizmda asosiy, qo‘shimcha va qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlar majmuasi oydinlashadi, bu esa turistik mahsulotning kompleksligini ochib beradi.

Jahon amaliyotida xizmatlar sifatini baholash va tasniflash bo‘yicha turli

yondashuvlar mavjud. Jumladan, Parasuraman, Zeithaml va Berry tomonidan ishlab chiqilgan SERVQUAL modeli, Krouch va Ritchie tomonidan ilgari surilgan raqobatbardoshlik modeli, shuningdek, xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan “4S” konsepsiyasi (sezilmaslik, servis va iste’molchining o‘zaro bog‘liqligi, saqlanmaslik, sifatning doimiy emasligi) turistik xizmatlarni tahlil qilishda samarali konseptual asos sifatida qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvlar turizmda xizmatlar sifatini baholash va ularni tizimlashtirish imkonini bersa-da, ayrim hollarda zamonaviy talablarni to‘liq qamrab olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ham turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Prezident farmon va qarorlarida xizmatlar sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos turistik mahsulotlar yaratish, xizmat ko‘rsatish madaniyatini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatilmoqda. Biroq, xizmatlarni to‘g‘ri tasniflash va ilmiy asosda baholash borasida hali ham izchil metodologik yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, milliy turizmning o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda xizmatlar sifatini tasniflash, ularni xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash dolzarb vazifalardan biridir.

Shu munosabat bilan ushbu maqolaning asosiy maqsadi – turizm sohasida xizmatlar sifatini tasniflashning nazariy asoslarini o‘rganish, xalqaro tajribalarni tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitida xizmatlar sifatini kompleks tasniflashning o‘ziga xos jihatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari turizm industriyasida xizmatlar sifatini yanada chuqurroq anglash, xizmatlarni samarali boshqarish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Asosiy qism**

1. Turistik xizmatlar sifatining nazariy asoslari va tasniflash zarurati

Turistik xizmatlar — turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan moddiy va nomoddiy faoliyatlar majmuasidir. Ularning sifatini baholash murakkab jarayon bo‘lib, xizmatlarning sezilmasligi, mavsumiyligi, iste’molchi bilan bevosita bog‘liqligi va bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarilib iste’mol qilinishi kabi xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu bois, xizmatlarni tasniflash nazariy jihatdan muhim bo‘lib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Parasuraman, Zeithaml va Berry tomonidan ishlab chiqilgan “SERVQUAL modeli”116da xizmat sifati 5 asosiy mezon bo‘yicha baholanadi: ishonchlilik, javobgarlik, hamdardlik, jismoniy imkoniyatlar va ishonch. Biroq, bu model ko‘proq xizmat ko‘rsatish jarayoniga yo‘naltirilgan bo‘lsa, turizmda xizmatlarning kompleks xarakteri yanada kengroq yondashuvni talab etadi.

Turistik xizmatlarni tasniflash turizm industriyasi uchun ularni boshqarish va narxlashni osonlashtiradi. Odatda xizmatlar quyidagicha guruhlanadi.

[116] Parasuraman, A., Zeithaml, V. A., & Berry, L. L. (1988). *SERVQUAL: A multiple-item scale for measuring consumer perceptions of service quality*. *Journal of Retailing*, 64(1), 12–40.

**Jadval 1[117].**

**Turizmda xizmat turlari va ularning tavsifi**

| Xizmat turi | Tavsifi | Misollar |
|---|---|---|
| **Asosiy xizmatlar** | Turistning asosiy ehtiyojini qondiruvchi xizmatlar | Mehmonxona, transport, ovqatlanish |
| **Qo‘shimcha xizmatlar** | Turistning qo‘shimcha talablarini ta’minlaydigan xizmatlar | Ekskursiya, madaniy tadbirlar, sport faoliyati |
| **Qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlar** | Asosiy xizmatlarni qulay amalga oshirishga yordam beruvchi xizmatlar | Gidlik, tarjima, bank, sug‘urta, mobil ilovalar |

Ushbu tasnif turistik mahsulotni kompleks shakllantirishga yordam beradi. Masalan, faqat mehmonxona va transport asosiy xizmatlar hisoblanadi, ammo turistning haqiqiy qoniqishini ta’minlash uchun qo‘shimcha va qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlar ham zarurdir.

Fransiya: “Qualité Tourisme” dasturi orqali xizmatlar asosiy va qo‘shimcha sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha sertifikatlanadi.

AQSh: turistik xizmatlar innovatsion (VR/AR) texnologiyalarga asoslangan qo‘shimcha tajribalar bilan boyitiladi.

Yaponiya: “Omotenashi” madaniyati xizmatlarni samimiylik, individual yondashuv va barqarorlik mezonlari bo‘yicha tasniflaydi.

Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib, xizmatlarni tasniflashda milliy xususiyatlarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston turizmida xizmatlarni tasniflash jarayonida quyidagi jihatlar inobatga olinishi lozim:

Milliy qadriyatlar va mehmondo‘stlik an’analari – xizmatlarning samimiylik va ishonchlilik asosida tashkil etilishi.

Madaniy meros va tarixiy obyektlar – qo‘shimcha xizmat sifatida madaniy-ko‘ngilochar tadbirlarni tizimli taklif etish.

Raqamli texnologiyalar – mobil ilovalar, VR/AR xizmatlari orqali qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlarni kuchaytirish.

Barqarorlik – ekologik xavfsizlik, mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasida xizmatlar sifatini tasniflash nafaqat turistlarning individual ehtiyojlarini qondirish, balki butun turizm industriyasining samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Turistik xizmatlar o‘z tabiatiga ko‘ra nomoddiy, mavsumiy va o‘zaro bog‘liq jarayon bo‘lgani sababli, ularni aniq tasniflash ilmiy va amaliy jihatdan zarurdir.

Xizmatlarni asosiy, qo‘shimcha va qo‘llab-quvvatlovchi guruhlarga ajratish

[117] Middleton, V. T. C., & Clarke, J. (2011). *Marketing in Travel and Tourism* (4th ed.). Routledge. Ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlandi

ularning mazmunini yanada aniqroq yoritib beradi hamda turistik mahsulotning kompleksligini ta’minlaydi. Bunda xizmatlarning faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlari ham inobatga olinishi lozim.

Jahon amaliyotida qo‘llanilayotgan SERVQUAL modeli, Krouch va Ritchie konsepsiyasi hamda “4S” modeli xizmatlar sifatini tasniflashda samarali asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ularning ayrim cheklovlari mavjud bo‘lib, ular turistlarning shaxsiy tajribasi, barqaror rivojlanish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni to‘liq qamrab olmaydi. Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida xizmatlarni tasniflashda xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni uyg‘unlashtirgan yangi yondashuv zarur.

O‘zbekiston turizmi uchun xizmatlar sifatini tasniflashning o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

Milliy qadriyatlar va o‘zbekona mehmondo‘stlik tamoyillari asosida xizmatlarni baholash.

Madaniy meros va tarixiy obyektlardan samarali foydalanib, qo‘shimcha xizmatlarni kengaytirish.

Raqamli texnologiyalar (VR/AR, mobil ilovalar) orqali qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlarni kuchaytirish.

Ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik mezonlarini tasniflash tizimiga kiritish.

Shunday qilib, qo‘shimcha va qo‘llab-quvvatlovchi guruhlarga ajratish, “4S” modeli va qo‘shimcha mezonlarni uyg‘unlashtirish, xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish – turizm xizmatlari sifatini boshqarishda samarali ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat turistlarning qoniqishini oshiradi, balki O‘zbekiston turizm sohasining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

12. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘RQ-549-son.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-sonli “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

14. Middleton, V. T. C., & Clarke, J. (2011). *Marketing in Travel and Tourism* (4th ed.). Routledge.

15. Crouch, G. I., & Ritchie, J. R. B. (1999). Tourism, competitiveness, and societal prosperity. *Journal of Business Research*, 44(3), 137–152.

16. Yulchiyev, A. (2023). Turizm xizmatlar sifatini boshqarish mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* ilmiy elektron jurnali.

17. Mirzayev, U. (2024). Turistik xizmatlar xususiyatining “4 ta S” bilan ifodalanishi hamda xizmat ko‘rsatish paketi. *Nordic Studies in Academic Research.*

18. Turdiyeva, U. (2024). Turizm xizmatlarining sifati va raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro tajriba (Krouch va Ritchie modeli misolida). *Byulleten studentov Novogo Uzbekistana*.

19. UNWTO (2019). *Tourism Highlights 2019 Edition*. World Tourism Organization. ISBN: 978-92-844-2240-7.
20. Qualité Tourisme Program – Official French Tourism Quality Label. (2021). Available at: https://www.qualite-tourisme.gouv.fr
21. Liao, M. C. H. (2016). *Omotenashi: The Japanese Art of Hospitality*. Springer.
22. National Geographic. Virtual Reality Travel Experience. Available at: https://www.nationalgeographic.com

## TURIZM INFRATUZILMASI TARKIBIY QISMLARI RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING QO‘LLANILISHI HOLATI

**Po‘latova Mavluda Sanjar qizi**
*TDIU Turizm va mehmonxona biznesini kafedrasi tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada turizm infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari — transport, joylashtirish vositalari, axborot-kommunikatsiya tizimlari, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari hamda ekologik infratuzilmaning innovatsion rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston misolida turizm sohasida raqamli texnologiyalar, aqlli boshqaruv tizimlari va barqaror energetika yechimlarining joriy etilishi holati o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar turistik xizmatlar sifati, raqobatbardoshlik darajasi va investitsion jozibadorlikni sezilarli oshiradi. Shuningdek, maqolada turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining ahamiyati, hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** turizm infratuzilmasi, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish, xizmatlar sifati, investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, aqlli boshqaruv tizimlari, ekologik turizm.

### Kirish

Birlashgan Millatlar Taskiloti Butunjahon Turizm Tashkiloti taqdim etgan (UNWTO) tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra xalqaro sayohatlar soni 2020 yilda o‘tgan yillarga nisbatan 90%ga, sohadagi ish o‘rinlari 80 mln.taga qisqarishi natijasida infratuzilmaning jami yo‘qotishlar 1 trln. AQSh dollaridan ham oshib ketgan. Bu turizm sohasining chuqur inqirozini keltirib chiqardi. 2020 yilda kutilmaganda yuzaga kelgan inqiroz respublikamiz turizmi faoliyatiga ham o‘z ta’sirni ko‘rsatdi. Respublikakmiz 2020 yil 16 martidan tashqi va ichki turistlar uchun butunlay yopilgan edi. Mamlakatimizda turistik faoliyat olib borayotgan 1500dan ortiq turoperator, 1200ta mehmonxona o‘z faoliyatini to‘xtatishi orqali infratuzilmaga katta zarar etishi orqali turistik ob’ektlardagi ishchi xodimlar, GIDlar, milliy hunarmandlar, sihatgoh va ziyoratgohlar, transport, restoran va umumiy ovqatlantirish korxonalari va boshqa shu qatori qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish

korxonalari bilan qo‘shib hisoblaganda 270 mingdan ortiq aholimizning daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi[118].

Dunyodagi ko‘pgina mamlakatlar kabi pandemiyaning oqibatlarini respublikamizda ham yumshatish maqsadida turizm sohasida faoliyat olib borayotgan jismoniy va yuridik shaxslarga qator engilliklar taqdim etildi. Jumladan, 1750ta sub’ektga mol-mulk, yer va ijtimoiy soliqlardan 60 mlrd. so‘mga yaqin imtiyoz taqdim etildi. Taqdim qilingan imtiyozlar va preferensiyalar pandemiyaning ta’sir doirasiga qarab shu kungacha ba’zi bir yo‘nalishlarda saqlab qolinmoqda. Bu kabi berilayotgan imtiyozlar natijasida respublikamiz turizmi infratuzilmasi qisqa vaqtda o‘zini tiklab bormoqda.

Bizning tadiqotimizning asosiy vazifalaridan biri pandemiyaning turizm infratuzilmasi rivojlanishiga ko‘rsatgan salbiy ta’sirini tezda bartaraf etishda innovatsiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqishda asosiy e’tiborni nimalarga qaratilishini o‘rganish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birgalikda turizm infratuzilmasini hozirgi tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish va unda innovatsiyalarni tezlikda joriy qilish alohida ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Lekin, buni amalga oshirish juda murakkab jarayonlar va bosqichlarni bosib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bunda bir qator hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolar yuzaga chiqadi. Bundan kelib chiqqan holda infratuzilmani va uning tarkibiy qismlarini takomillashtirish turistlarning o‘sib borayotgan talabini qondirishning yangicha yondoshuvi talab qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Turizm infratuzilmasini takomillashtirishning nazariy va metodologik masalalari bilan xorijlik olimlardan J.Bowen, D.Lundberg, J.Makens, Chris Ryan, P.Kotler, Ch.Y.Gee, M.Krishnamurthy, D.Chey, J.C.Makens singari olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi . Ushbu olimlarning tadqiqotlarida turizm infratuzilmasini takomillashtirishning nazariy jihatlari, sohaning rivojlanish bosqichlari, rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar, rivojlanish tamoyillari hamda hozirgi sharoitda turizm orqali tashqi savdo balansini yaxshilash hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga katta e’tibor qaratilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida turizm infratuzilmasini takomillashtirish muammolariga A.Yu.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.B.Birjakov, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, M.N.Dmitriyev, L.V.Baumgarten, A.M.Vetitnev, L.B.Juravleva, A.V.Borisova, D.S.Ushakov, M.A.Jukova singari olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar . Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar o‘zlarining tadqiqotlarida asosan mintaqalarda turizm infratuzilmasini yaxshilash orqali xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish va rivojlantirish jihatlarini tadqiq etgan.

Mamlakatimizdagi turizm sohasida tadqiqot olib borayotgan iqtisodchi olimlardan S.S.G‘ulomov, Q.X.Abdurahmanov, N.T.To‘xliyev, M.Q.Pardayev, A.A. Eshtayev, A.M.Abduvohidov, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, D.X.Aslanova, B.N.Navro‘z-zoda, O.M.Pardayev, B.H.To‘rayev, O.H.Xamidov, B.Sh.Safarov,

[118] www. uzbektourism.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan jamlangan.

N.S.Ibragimov, S.S.Ro‘ziyev singari olimlarning ilmiy ishlarida turizm infratuzilmasi rivojlanishini samarali boshqarish, turistik resurslardan oqilona foydalanish, sohani rivojlantirishdagi muammolar va hududiy turizmni rivojlantirish masalalariga keng e’tibor qaratilgan.

**Tahlil va natijalar**

Respublikamiz turizmi ham iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida iqtisodiy rivojlanishda boshqa tarmoqlar bilan muvofiq holda rivojlanishib borishi lozim. Shuning uchun turizm iqtisodiy rivojlanishning yagona modeliga bog‘lanishi kerak. Turizm infratuzilmasini buning uchun yagona modelga integratsiyasini ta’minlashda quyidagi omilarni hal qilishimiz lozim:

- yagona milliy iqtisodiy modelga turizm sohasini birlashishini ta’minlash;
- sohani yanada rivojlantirish maqsadida turistik faoliyatning barcha turlari uchun tashkiliy-huquqiy va me’yoriy normalarni takomillashtirish;
- tarixiy-madaniy va me’moriy yodgorliklarni asl ko‘rinishida saqlab qolish, rekreatsion-sog‘lomlashtirish resurslaridan maqsadli foydalanish;
- zamonaviy turistik ob’ektlarni bunyod etishga xorijiy sarmoyalarni jalb etish, shu singari xalqaro standartlarga mavjud ob’ektlar holatini moslashtirish uchun mablag‘larni jalb etish;
- xizmat turlarining yangi shakllarini yetakchi xorijiy turoperatorlar bilan hamkorlikda ishlab chiqish;
- xalqaro va ichki marshrutlarni tashkil qilishda va ishlab chiqishda xalqaro bozordagi talab va taklifni tahlil qilgan holda faol ishtirok etish;
- xorijiy davlatlarda xizmatlarni va milliy turmahsulotlarni targ‘ib qilish orqali 200 dan ortiq mamlakatlar bilan faol raqobat olib borish;
- respublikamizda sohaga yetuk malakali mutaxassiskarni tayyorlab beruvchi oliy o‘quv yurtlarida biznes-tahlilchilar, marketologlar, boshqaruvchilar va ishbilarmon-tadbirkorlarni o‘qitishni takomillashtirishdan iboratdir.

Yuqoridagi amalga oshiriladigan ishlarni tezlashtirishda infratuzilmaning imkoniyatlarning yuqoriligi sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin:

- respublikamiz hududlarida arxelogik, ekologik, tarixiy-madaniy va diniy qadamjolarning ko‘pligi;
- xalqimizning betakror va o‘ziga xos bo‘lgan milliy ananalari va mehmondo‘stligi;
- mamalakatimizning flora va faunaning xilma-xilligi va boy tabiati;
- avtomagistrallar, havo yo‘llar, temir yo‘llar infratuzilmasining yetarli darajada shakllanganligi;
- mamlakatimizning Yevropa va Osiyo qit’alari chorrahasida qulay geografik mintaqada (“Buyuk Ipak Yo‘li” markazida) joylashganligi;
- respublikamizda musulmon va boshqa dinga e’tiqod qiluvchilar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muqaddas ziyoratgohlarning ko‘pligi.

Mamlakatimizning turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni talab etadigan va tegishlicha chora-tadbirlar orqali xalqaro bozorda obro‘sini ko‘tarish omillar ham bor. Bular quyidagicha:

- turistik faoliyat olib borayotgan sub’ektlarning o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib bormasligi;
- xorijlik va mahalliy tashrif buyuruvchi sayohlar uchun aviachiptalar narxining qimmatligi;
- joylashtirish vositalari va mehmonxonalarda tunash narxlarining o‘rtacha darajadan yuqoriligidir.

Yuqoridagi ko‘rilgan omillarning echimini topish uchun sohaning oldidagi asosiy vazifalardan biri infratuzilmani rivojlantirish va takomillashtirishda asosiy e’tibor nimalarga qaratilishi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birgalikda infratuzilmasi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan tarmoqlarni tahlil qilish katta mashtabni olishini hisobga olib holda, asosiy turistik xizmatlar ko‘rsatadigan (joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlantirish transport va turistik faoliyat olib boruvchi sub’ektlar) tarmoqlarni tahlil qilamiz.

Mamlakatimizda turistik xizmatlar ko‘rsatayotgan sub’ektlar soni yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida yildan-yilga o‘sib bormoqda. Ularning soni 2017 yilda 749 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2018 yilda 1579 tani, 2019 yilda 2254 tani, 2020 yilda 2162 tani, 2021 yilda 3883 tani, 2022 yilda 4147 tani, 2023 yilda 5276 tani tashkil etgan.

Turistik faoliyat ko‘rsatayotgan kompaniya va tashkilotlarning tomonidan 2017 yilda 2,690 ming, 2018 yilda 5,346 ming, 2019 yilda 6,748 ming, 2020 yilda 1,504 ming, 2021 yilda 1,881 ming, 2022 yilda 5,232 ming, 2023 yilda 6,626 mingta xorijiy tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatilgan.

Hozirgi vaqtda turizm infratuzilmasi tez o‘zgaruvchan holatda bo‘lishiga innovatsion-texnologiyalar sohada keng qo‘llanishi ta’siri natijasidir.

Shu bilan birgalikda innovatsiyalarni turizm infratuzilmasida qo‘llashning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ham ko‘rishimiz mumkin:

-mehmonxona va restoran xizmatlarini ko‘rsatishda, yangi turdagi turmahsulotlarni ishlab chiqishda;

-yangi texnologiyalardan milliy turistik mahsulotlarni ishlab chiqishda keng foydalanishda;

-mintaqalarda turistik resurslarni o‘zlashtirishda avval foydalanilmagan innovatsiyalarni qo‘llashda va boshqalar.

Mehmonxona biznesida innovatsiyalarni yorqin qo‘llanishini ko‘rishimiz mumkin. Innovatsion texnologiyalarning eng so‘nggi turlari mehmonxona biznesida qo‘llanilmoqda. Turistlarga xizmatlarni ko‘rsatishda shuning uchun asosiy vositalaridan biri bo‘lgan mehmonxonalar va joylashtirish vositalarida innovatsiyalarni qo‘llash maqsadga erishishning eng aosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Shunday ekan demak, turizm infratuzilmasining asosiy tarmog‘i mehmonxonalar bo‘yicha tahlillar olib borishimiz lozim. Respublikamizda pandemiya vaqtida soha chuqur inqirozga tushib qolganiga qaramasdan yagona tarmoq mehmonxonalar soni ortib bordi. Bunda mehmonxona sanoatiga jalb qilingan xorijiy va mahalliy investitsiyalarning barqarorligi sabab bo‘ldi. Respublikamizda o‘tgan 2017-yilda 772

ta, 2018-yilda 914 ta, 2019-yilda 1188 ta, 2020-yilda 1308 ta, 2021-yilda 1442 ta, 2022-yilda 1579 ta zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilingan mehmonxonalar faoliyat olib borgan. Mehmonxonalar soni ortib borishiga mos ravishda uning nomerlari (xonalari) ham o‘sib 2017 yilda 19,0 ming, 2018 yilda 20,2 ming, 2019 yilda 26,1 ming, 2020 yilda 29,2 ming, 2021 yilda 33411 ming, 2022 yilda 37,0 mingtaga etdi. Yaratilgan nomerlarda (xonalarda) 2017 yilda 39,0 ming, 2018 yilda 41,2 ming, 2019 yilda 53,4 ming, 2020 yilda 61,5 ming, 2021 yilda 71,3 ming, 2022 yilda 80,3 mingta o‘rinlar (joylar) turistlarni qabul qilishga tayyorlandi[119].




**1-rasm. Turizmda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jarayonlarini takomillashtirish yo‘nalishlari[120].**

Shu bilan birgalikda respublikamizda oxirgi yillarda mehmon uylar soni ham sezilarli daraja o‘sib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. 2018 yilda 106 ta, 2023 yilda 3458 ta mehmon uylar o‘z faoliyatini boshlagan. Ulardagi o‘rinlar (joylar) soni 2018 yilda 841 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2023 yilda 30738 tani tashkil qilib, bir yilda o‘rtacha 8 barovar o‘sishga erishilgan[121].

Turizmi rivojlangan davlatlar AQSh, Angliya, Fransiya, Ispaniya, Rossiyada turistlarni jalb qiladigan ob’ektlarning asosiylaridan biri muzeylardir. Bu davlatlarda millionlab turistlarni jalb qilishga muzeylar faoliyati samarali yo‘lga qo‘yish orqali

[119] Tourism in Uzbekistan statistik to‘plami ma’lumotlari.
[120] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
[121] Tourism in Uzbekistan statistik to‘plami ma’lumotlari.

erishilmoqda. Shu bois, mamlakatimizdagi muzeylar va ulardagi eksponatlar holatini o‘rganib, ularning faoliyatini xalqaro standartlar darajasida tashkil etish va xorijiy mashhur (Luvr, Metropoliten, Ermitaj) muzeylar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni amalga oshirish lozim. Respublikamizdagi faoliyat olib borayotgan muzeylarning ko‘rgazma maydonlari talab darajasidagidek katta emasligi natijasida mavjud eksponatlarning atigi 1%i namoyishlarga qo‘yilmoqda. Yurtimizning qadimiy boy tarixidan so‘zlovchi Axskent, Fayyoztepa, Kampirtepa, shu qatori 4500 dan ortiq arxeologiya yodgorliklarini asrab qolish va ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirish lozim.

Turistlarning harakatlanishini ta’minlaydigan eng muhim vositalardan biri transport infratuzilmasidir. Bugungi kunda respublikamizda transport xarajatlarining nisbatan yuqori bo‘lib turishi xorijiy turistlarni jalb qilishdagi muammolardan biridir. Bu muammolarni bartaraf etish borasida bir qator chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ichida eng ahamiyatlisidan biri Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi “Pop-Namangan-Andijon” temir yo‘l linyasini to‘liq elektrlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu liniya keyinchalik butun vodiy viloyatlarini qamrab olib, mahalliy va xorijlik tashrif buyuruvchilar uchun katta qulayliklar yaratib beradi. Ichki turizmda temir yo‘lning ahamiyati juda katta bo‘lib, tezyurar poezdlar sonini muntazam ravishda oshirib borish rejasi tasdiqlangan. Yaqin yillar ichida yuqori tezlikda xarakatlanuvchi poezdlarni Toshkentdan Urganchgacha yetkazish maqsad qilingan. Bunda temir yo‘llarni elektrlashtirish bo‘yicha bir nrecha o‘n yillardan beri Xitoyning Eksimbanki bilan “O‘zbekiston temir yo‘llari” faol hamkorlik olib bormoqda. Bugungi kungacha “O‘zbekiston temir yo‘llari” Xitoy Eksimbanki ishtirokidagi bir nechta yirik loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirgan. Hozirda respublikamiz temir yo‘llarining umumiy uzunligi 7395,1 km bo‘lib, shundan elektrlashtirilgan qismining uzunligi 3528,1 km.ni tashkil qiladi. Turistlar qulayliklar yaratish maqsadida 2011 yildan boshlab "Afrosiyob" tezyurar poezdlarini harid qilish va yo‘nalishlarga qo‘yish ishlari boshlangan. Hozirda bu poezdlardan Toshkent-Samarqand-Toshkent, Toshkent-Buxoro-Toshkent, Toshkent-Qarshi-Toshkent yo‘nalishlarida foydalanilmoqda. “Qamchiq” davonida ishga tushirilgan temir yo‘l tuneli orqali Toshkent-Andijon, Andijon-Buxoro, Andijon-Urganch yo‘nalishlarida ham tezyurar poezdlar qatnavi yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan uzoq xorijlik turistlarning deyarli 100% havo kemalari xizmatidan foydalanadi. Shu sababdan respublikamizda havo transportini infratuzilmasini rivojlantirish usuvor masala bo‘lishi kerak. Bugungi kunda respublikamiz havo transportiga hususiy sektor vakillari ham kirib kelmoqda. Bu yaqin yillar ichida havo transportida erkin raqobatni ta’minlashi lozim. Hozirda respublikamizdan dunyoning 40 dan ortiq shaharlariga mutazam aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning yirik shaharlari Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Namangan, Andijon, Farg‘ona va Navoiyda xalqaro standartlarga javob beradigan aeroportlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Turistlarga qulay sharoitlar yaratish va sifatli xizmat ko‘rsatish maqsadida havo kemalarimiz parki “Airbus-A310", "Airbus-A320-200”, “Boeing-757-200”, “Boeing-767”, ”Boeing 767-300 ER”, “Boeing 787-8 Dreanliner” kabi zamonaviy samolyotlar bilan to‘ldirildi.

Respublikamizda havo tarnsportini rivojlantirish borasida olib borilayogan tashkiliy chora-tadbirlarga qaramasdan xalqaro va mahalliy yo‘nalishlarda “loukoster”lar soni ko‘paymayapti. Turistik mintaqa yoki turitsik distenatsiyaning turistlar diqqatini o‘ziga tortadigan madaniy-tarixiy obidalari, go‘zal tabiati, lanshafti, plyaji, uning diqqatga sazovar joylari ko‘p bo‘lsada rivojlanish ko‘p jihatdan havsiz va qulay transport infratuzilmasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birgalikda turistlar transportdan foydalanishda muammolarga duch keladigan bo‘lsa, ular yo‘nalishlarini tezda o‘zgartirishi va turistik destinatsiyaning o‘z-o‘zidan muammolar ichida qolishiga olib keladi. Tranpsport infratuzilmasi yaxshi rivojlangan destinatsiyalarda turistlar harakatlanishi uchun qulay bo‘lishi bilan birgalikda, mazkur hududda tadbirkorlik rivojlanishiga ham turtki bo‘ladi. Natijada hududda aholining bandligi ta’minlashi balan birga ularning daromadlari ham ortib boradi.

Buni kengroq oladigan bo‘lsak, mintaqaning barqaror rivojlanishi infratuzilmaning takomillashib borishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ma’lum bir hududdagi amalga oshiriladigan qurilish, xizmat ko‘rsatishning rivojlanishiga infratuzilma bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu singari, turistlarning hududga tashrifini yaxshilashning omili bo‘ladi.

**Xulosa va takliflar**

Hozirgi kundagi dunyodagi eng katta muammolardan biri global isishga ham turizm qaysidir ma’noda hissa qo‘shmoqda. Turizmning global isishga qo‘shayotgan hissasining deyarli 80%i sayohlarning mehmonxona, ovqatlanish, transport xizmatlari bilan bog‘liqdir. Yaqin yillarda turizm bundanda tez rivojlanish bosqichiga o‘tishini his qiladigan bo‘lsak, global isishning oldini olish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Transportdan foydalanishning me’yorlaridan oshib ketishi katta harajatlarga olib kelishi bilan birga, shaharlarda tirbandlikni, baxtsiz transport hodislari ko‘payishini, qishloq va maxsus qo‘riqlanadigan hududlarda er zichlashishi, tabiatni ifloslantirishi, kuchli shovqinlarni yuzaga keltirishi mumkin. Lekin, shu bilan birga transport barcha sohalar kabi turizmda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, katta daromad keltiradigan vosita bo‘lib qolaveradi. Shu sababli turistlarning harakatlanish vositalariga bo‘lgan talabini qondirishda innovatsion texnololgiyalardan foydalanib yaratilgan transportdan foydalanishni tezlashtirish lozim. Rivojlangan mamlakatlarda turistlarning 80%dan ortig‘i asosiy transport turi sifatida avtomabillardan foydalanmoqda. Bu tendensiya yildan–yilga o‘sib bormoqda. Sababi, so‘nggi yillarda turistlarning sayohatlarga asosan shaxsiy avtomobillarda chiqishga ehtiyoj o‘sib bormoqda. Bu o‘z navbatida, ayniqsa tabiat qo‘ynida dam oluvchilar tomonidan foydalanayotgan avtomobillarning ekologiyaga zarari ortib bormoqda. Hozirgi vaqtgacha ko‘proq daromad olish maqsadida hududlarda turistlarning avtomobil transportidan foydalanishini ma’lum miqdorda cheklashga hech kim jiddiy e’tiborni qaratmayapti. Yirik shaharlar va turistik destinatsiyalarda avtomobil transportidan chiqayotgan is gazlari atmosferaning asosiy ifloslanishga sabab bo‘lmoqda. Bunga misol qilib, Yevropaning turizmi rivojlangan (Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan) 27ta davlatdan 23 tasida havoning ifloslanishi belgilangan me’yorlardan ortib ketmoqda. Natijada Yevropaning 130dan ortiq shaharlarida havoni ifloslantiruvchi moddlar $NO_2$ (azot dioksidi) va PM10 (zarrachalar) ortib bormoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki

oxirgi 2-3 yilda Toshkent shahri ham dunyodagi havosi eng ifloslangan 10talik shaharlar ro‘yhatiga kirib qolgan. Bu muammolarning yuzaga chiqishi hududga turistlarning tashrif buyurishida to‘sqinlik qiladi. Bir qator rivojlangan davlatlarda yoqilg‘i solig‘i avtomobil transportidan chiqayotgan is gazlarini cheklash siyosatini olib boradi. Bu kabi soliqlar ham keyingi yillarda avtomobillardan foydalanishni kamaytirish o‘rniga ortib bormoqda. Xorijlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasiga ko‘ra turistlarning jamoat transportlaridan (mikroavtobus, avtobus) foydalanishini rag‘batlantirish orqali shaxsiy transport turlaridan kamroq foydalanishga olib kelishi bo‘yicha xulosalar bergan. Shaxsiy avtomobillardan foydalanish ish va xizmat safarlari uchun samaradorligi yuqori bo‘lishi mumkin, lekin turistik sayohatlarda samara bermaydi. Ayniqsa, ekologik yo‘nalishlarda sayohatlarga chiqqan turistlar uchun alohida maxsus transportlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuning uchun, sohada asosiy e’tiborni muayyan transport turlaridan foydalanishni imkon darajada kamaytirish, ekologik jihatdan samarali (elektrobus, elektromobillar) qulay bo‘lgan transport turiga qaratilishi lozim.

**1-jadval.**

**Turistlarning xarakatlanishi turlari va masofalari bo‘yicha transport infratuzilmasini moslashtirish**[122]

| Harakatlanish masofalari | Harakatlanish turlari | | |
|---|---|---|---|
| | Havoda | Quruqlikda | Dengiz, ko‘l va daryolarda |
| Uzoq masofalarga | Samolyotlar | Tez yurar poezdlar | Kuriz kemalar |
| O‘rta masofalarga | Vertalyotlar | Avtobuslar, avtomobillar | O‘rta xajmdagi kemalar, matorli qayiqlar |
| Yaqin masofalarga | Dentaplan, havo sharlari | Piyoda, ot, eshak va aravalarda | Eshkakli qayiqlar |

Respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlarga transport xizmatlarini ko‘rsatishda yuqoridagi jadvalni ishlab chiqishdan asosiy maqsad infratuzilmaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish kerak.

Xammamizga ma’lumki bugungi kunda “Toshkent metropoliteni” xorijlik turistlarning qiziqishlariga sabab bo‘layotgan transport ob’ektlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun xorijlik sayohlar uchun metropolitendagi ma’lumotlarni hozirdagi o‘zbek va rus tillari bilan birgalikda ingliz tilida ham taqdim etish lozim.

Xalqaro va ichki turistlarning o‘sib borayotgan talablarini qondirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Turizm mahallalarida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida mamlakatimizda turizm qishloqlari infratuzilmasini yaxshilashga 205 mlrd. so‘m ajratilishi belgilandi. Qabul qilingan chora-tadbirlar rejasiga asosan turizm mahallalarida ko‘priklarni qurish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish, elektr ta’minotini yaxshilash, ichki avtomobil yo‘llari hamda aloqa va axborotlashtirish

[122] Muallif ishlanmasi.

sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2024-2025 yillar uchun 205 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi.

Bu imkoniyatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali harakatlanish imkoniyati cheklangan turistlar uchun ham sharoitlar yaratish maqsadida respublikamizda to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda. Respublikamizda to‘siqsiz turizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani moslashtirish, turistlarga qulay shart-sharoitlar kerak.

Bu borada mamlakatimizdagi asosiy turistik yo‘nalishlar hisoblangan hududlarda 2023 yildan boshlab “To‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturi”ni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunda: birinchi navbatda 2023 yilda Buxoro, Xorazm, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida; 2024 yildan Jizzax, Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlarida; 2025 yildan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida va oxirgi bosqichda 2026 yildan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida infratuzilmani rivojlantirish uchun moliyalashtirishni davlat byudjeti va homiylik mablag‘lari va grantlar orqali amalga oshirish belgilangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


6. Mamatqulov, X. M., et al. "Xalqaro turizm." Darslik. Samarqand (2008).

7. Норчаев, А. Н. "Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари." Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферати. Тошкент (2021): 24-32.

8. Mamatkulov, X. M., Bektemirov, A. B., Tuxliev, I. S., & Norchaev, A. N. (2009). International tourism. T.: Publishing House" National Society of philosophers of Uzbekistan, 192.

9. Dehqonov Burxon Rustamovich. “ICHKI TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI” YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT (ISSN: 2992-8982) 2023-yil, oktyabr. № 10-son.

10. https://uzbektourism.uz/service/opendata

11. https://uzbektourism.uz/service/opendata?id=1

12. https://uzbektourism.uz/research/statistics


## Ўзбекистонда таълим туризми ва унинг иқтисодиётда тутган ўрни


**Азимова Вазира Оқилжоновна**
*“Ипак йўли” туризм ва маданий мерос халқаро университетининг мустақил изланувчиси*



**Аннотация.** Ушбу тезисда Ўзбекистон Республикасида таълим туризмини ривожлантириш, бунда мамлакатимизда таълим туризмини ривожлантиришнииг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш йўналишларини белгилаш, таълим туризми борасида амалга оширилаётган ишларни таҳлил қилиш асосида ушбу соҳанинг ривожланиш йўналишларини

белгилаб олиш ҳамда янги хизмат турларини ишлаб чиқиш бўйича таклиф ва тавсиялар баён этилган.

**Калит сўзлар:** таълим туризми, турист, халқаро ва ички туризм, ташкилий-ҳуқуқий асослар, таълим хаби, ривожланиш, инфратузилма.

**Кириш**

Жаҳон туризм бозоридаги кескин рақобат кураши натижасида туризм индустрияси иқтисодиётнинг фаол ривожланаётган соҳалардан бирига айланиб бормоқда. Бунда барча давлатлар ўзи учун қулай бўлган туризм йўналишини, яъни бозорда мавқеини эгаллашга, хизматлар кўрсатишнинг ҳар томонлама қулай бўлган йўналишларини танлашга ҳаракат қилмоқда. Бунда асосий сабабларидан бири туризм соҳаси ривожланган давлатлар унинг сердаромад соҳалардан бири эканлиги, яъни туризмда топилган даромаднинг 30 фоизи одамларнинг қўлига иш ҳақи бўлиб бориши, саноатда ва бошқа тармоқларда бу 10 фоиздан ошмаслиги, қолаверса туризмни ривожлантиришнинг асосий омилларидан бири сифатида янги иш ўринларини яратишда намоён бўлиши, яъни туризмда яратилган 1 та иш ўрни бошқа соҳаларда қўшимча 2 та иш ўрнини яратилишига олиб келишини тўғри англаб етмоқда.

Ўзбекистонда туризм соҳасига стратегик тармоқ мақомининг берилиши билан ушбу соҳани жадал ривожлантиришда уни етакчи кучга айлантиришга, иқтисодиётни таркибий ўзгартириш ва диверсификациялашга, иш билан бандликни таъминлашга, аҳолининг турмуш даражаси ва сифатини оширишга эътибор қаратилди.

Ўзбекистон Республикасида туризмнинг барча турларини ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Хусусан, жаҳондаги туризм ривожланган давлатлардаги каби таълим туризмини ҳам кенг йўлга қўйиш борасида қатор ишлар амалга оширилмоқда. Бу туризм шакли жаҳон миқёсида жадал суъратлар билан ривожланмоқда ва бу орқали инсонлар ўқиш, илмий алмашинувлар ва дастурларда қатнашиш имкониятига эга бўлишмоқда. Таълим туризми билимлар олиш билан биргаликда ўзаро ҳамкорлик алоқаларни кенгайтириш, жаҳон бўйлаб янги имкониятларни кашф этиш ва умумий маданий ҳамкорликни ривожлантиришга ҳам ёрдам беради. Жаҳонда таълим туризми талабалар ва мутахассислар учун кенг кўламда ўқиш, ўқитиш, ва маданий тажриба алмашиш имкониятларини яратишнинг муҳим йўналишидир. Бу соҳа, таълим олиш, ўқиш, тажриба ва кўникмалар эгаллаш мақсадида чет элга бориш, илмий алмашинув дастурлари, тил ўрганиш курслари, ва маданий меросни ўрганиш каби имкониятлар орқали кенгайиб бормоқда.

Ҳозирги кунда таълим туризми бозори энг тез ўсиш суръатига эга туризм турларидан бўлиб, халқаро даражадаги экспертларнинг берган маълумотларига кўра 2033 йилга келиб, у жаҳон миқёсида 1,291,50 миллиард долларни ташкил этиши кутилмоқда. Бугунги кунда ривожланган давлатлар таълим туризмини ривожлантиришга катта эътибор қаратишмоқда. Бунинг асосий сабаби таълим туризми ортидан даромад кўриш даражасининг юқорилиги, аҳолининг иш билан таъминланганлик даражасининг ошиб бориши, туризм

ушбу турини режа асосида йўлга қўйиш имкониятининг мавжудлиги ҳисобланади.

Ўзбекистонда ҳам айрим давлатларда бўлгани каби таълим туризми бозори сезиларли даражада ўсиб бормоқда. Мамлакатимизда таълим туризмини ривожлантириш мақсадида Марказий ва Ўрта Осиёда таълим хабини яратиш мақсадга мувофиқ, бу учун эса кенг имкониятлар мавжуд.

Ўзбекистоннинг халқаро таълим тизимини танитиш ва ўзаро ҳамкорликни ривожлантириш орқали, мамлакатни таълим туризми учун жозибадор манзилга айлантириш мумкин. Бу жараённинг самарадорлигини кўрсатишда қуйидаги статистик маълумотларни келтириш мумкин:

**1-жадвал.**

**Ўзбекистондаги таҳсил олаётган хорижий фуқаролар сони**[123]

| Йиллар | Хорижий фуқаролар сонининг ўсиши (%) |
|---|---|
| 2019 | 5.0% |
| 2020 | 6.5% |
| 2021 | 7.8% |
| 2022 | 8.2% |
| 2023 | 9.0% |
| 2024 | 11,2 % |

Ушбу жадвалдан кўриниб турибдики, ҳар йили Ўзбекистонда хорижий фуқаролар сони ортиб бормоқда, бу эса мамлакатнинг таълим туризми бозорига бўлган қизиқишнинг ортишини ва бунинг натижасида хорижий фуқароларнинг сони ўсаётганлигини кўришимиз мумкин.

2024 йил давомида таълим мақсадида Ўзбекистонга келган хорижий фуқаролар сони 19 минг нафарни ташкил этди, бу эса умумий туристик оқимнинг 0,3 фоизни ташкил қилади[124].

2020 йилда таълим мақсадида келганлар сони 4 минг нафарни ташкил қилган бўлса, 2024 йилда бу кўрсаткич 2020 йилга нисбатан 4,4 баробарга ўсган.

Бугунги кунда мамлакатимиз олий таълим муассасаларида 11 051 нафар хорижий фуқаролар таълимнинг турли соҳаларида таҳсил олмоқда.[125] Шундан, 10 651 нафари бакалавриат таълим йўналишларида, 400 нафари магистратура мутахассисликларида таҳсил олмоқда.

Хорижий талабаларни йиллар кесимида таҳлил қиладиган бўлсак, 2018/2019 ўқув йилида 3 001 нафар, 2019/2020 ўқув йилида 3 642 нафар, 2020/2021 ўқув йилида 4 285 нафар, 2021/2022 ўқув йилида 4 760 нафар, 2022/2023 ўқув йилида 6 941 нафар хорижий фуқаролар таҳсил олган.

[123] Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

[124] Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳит муҳофазаси ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Туризм қўмитаси маълумотлари

[125] Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Мамлакатимизда таълим олишга бўлган қизиқиш нафақат қўшни давлатлар балки Озарбайжон, Россия, Украина, Ҳиндистон, Покистон, Корея, Хитой, Эрон ва бошқа шу каби таълим тизими ривожланган мамлакат фуқароларида ҳам юзага келмоқда. Статистик маълумотларга эътибор қаратадиган бўлсак, Ҳиндистондан 6 112 нафар, Покистондан 1 248 нафар, Туркманистондан 852 нафар, Россиядан 790 нафар, Қозоғистондан 558 нафар, Қирғистондан 337 нафар , Тожикистондан 319 нафар талаба мамлакатимизда таҳсил олмоқда.

Хорижий фуқароларнинг 10 482 нафари кундузги, 31 нафари кечки, 529 нафари сиртқи, 9 нафари масофавий таълим шаклида таҳсил олмоқда. Улардан 4 897 нафари хотин-қизлар, 6 154 нафари ўғил болалар ҳисобланади.

Республикамиз олий таълим муассаларида таълим олаётган хорижий фуқароларнинг 8162 нафари (74%) тиббиёт соҳасида, 3 869 нафари (35%) Тошкент шаҳрида ўқийди. Шундан, Самарқанд давлат тиббиёт университетида 2311, Тошкент тиббиёт академиясида 1548, Бухоро давлат тиббиёт институтида **1 275**, ТТА Урганч филиалида 1168 нафари таҳсил олади.

Шу билан бирга, мамлакатимизда таҳсил олаётган 11 051 нафар хорижий фуқаролардан 4 621 нафари талабалар турар жойида, 6 430 нафари ижара уйида истиқомат қилади.

Бундан ташқари Ўзбекистонда маданий алмашинув ва тажриба алмашиш имкониятларини яратиш орқали мамлакатни таълим туризми учун жозибадор манзилга айлантириши мумкин. Мамлакатнинг бой маданий мероси ва тарихий обидаларига асосланиб, чет эл талабаларини жалб қилишни кенгайтириш зарур.

Шу билан биргаликда таълим туризми соҳасида технологик инновацияларни жорий этиш, ўзбек талабаларига ва хорижий талабалар учун янги имкониятлар яратади. Онлайн таълим платформалари, виртуал алмашинув дастурлари ва рақамли хизматлар орқали таълим туризмини ривожлантириш мумкин. Онлайн таълим дастурларига бўлган талабнинг ўсиши, Ўзбекистонда таълим туризмининг рақамли инновациялар ёрдамида ривожланиш имкониятларини кўрсатади.

Глобал таълим туризми бозоридаги ўсиш ва халқаро талабнинг ортиши, Ўзбекистонга кўплаб имкониятларни тақдим этмоқда. Ўзбекистоннинг таълим муассасалари ва илмий инфратузилмасининг ривожланиши, мамлакатни таълим туризми учун жозибадор манзилга айлантиришда муҳим рол ўйнайди. Хорижлик талабалар учун йирик дастурларни ишлаб чиқиш ва маданий алмашинувни ривожлантириш орқали, Ўзбекистон таълим туризми бозорининг муҳим тармоқлардан бирига айланиши мумкин.

Таълим туризми бозорини глобал миқёсда рақобатбардош бўлишида янги ёндашувлар талаб қилинади. Инновацион концепцияларни ишлаб чиқиш, Ўзбекистоннинг таълим туризми бозорини кенгайтиришга имкон яратади. Бу концепцияларни амалга оширишда Халқаро таълим дастурларини кенгайтириш, маданий алмашинувни ривожлантириш, технологик инновацияларни жорий этиш ва таълим сифатини оширишга қаратилган чора-тадбирлар, мамлакатни таълим туризми бозорида глобал миқёсда танитишга

ёрдам беради. Бу жараённи қўллаб-қувватлаш ва унга туртки бериш, Ўзбекистондаги таълим туризмини жаҳон бозорида янада рақобатбардош қилишга имкон яратади;

Мамлакатимизда туризмнинг муҳим турларидан бири ҳисобланган таълим туризмини кенг йўлга қўйиш мақсадида қолаверса қуйидаги ишларни амалга ошириш ҳам мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- Хорижий талабаларни жалб қилишда маркетинг тадқиқотларини олиб бориш, реклама хизматларини кучайтириш;
- Олий таълим тизимида таълим сифатини оширишга эътибор қаратиш;
- Туризм ва таълимнинг интеграциясини ошириш учун маҳаллий олий таълим муассасалари билан ҳамкорлик қилиш муҳим. Талабалар учун туризмга оид махсус курслар ёки таълим дастурлари ташкил этиш;
- Туристларга нафақат таълим бериш, балки уларга янги маданий тажрибалар ҳам тақдим этиш керак, жумладан, тарих, санъат ёки урф-одатларга оид турлар ташкил этиш;
- Туризмга доир конференциялар, симпозиумлар ёки семинарлар ўтказиш ҳамда таълим туризмининг аҳамиятини тарғиб қилиш;
- Онлайн таълим платформалари орқали туризм соҳасидаги билимларни глобал талабаларга етказиш. Бу туризм соҳасидаги билимни олиш учун янги йўллар очади;
- Махсус таълим марказлари ёки академик туризм марказларини ташкил қилиш. Бу марказлар туристларга ёшга қарамай, турли соҳалардаги билимларни оширишга ёрдам беради;
- Туристик агентликлар ва таълим муассасалари ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш. Бу, туристларга таълим олиш учун махсус пакетлар ва турлар таклиф этиш имконини беради.

Умуман олганда таълим туризмини ривожлантириш нафақат иқтисодиётга ижобий таъсир қилиб қолмасдан, мамлакатимизни жаҳон ҳамжамиятида ўз ўрнини топишга, таълим хабига айлантиришга, миллий қадриятларимизни, урф-одатларимизни хорижда тарғиб қилишга хизмат қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 18 июлдаги “Туризм тўғрисида”ги Қонуни № ЎРҚ–549 //www.lex.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016-йил 2-декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4861-сонли Фармони.

3. Литвинова Н.П. Маркетинг образовательних услуг.СПб., 2002.

4. Саъдуллаева Г. Туризм хизматлари бозоридан таълим туризми тушунчаси моҳияти ва уни ривожлантиришнинг хориж тажрибалари. Инновацион технологиялар журнали, 2020.

5. Боймуродов А.Х. (2019) Педагогик таълим инновацион кластери асосида таълим туризмини ривожлантириш//ББК 26.8. Редакционная коллегия - С.42.

6.Махмудова Н.Ў. Таълим туризми хизматларининг тамойиллари, вазифалари ва функциялари.”IQTISODIYOT VA TURIZM” халқаро илмий ва инновацион журнали №5(7) 2022.
7. Ибрагимова М.И. ”Ўзбекистонда таълим туризми хизматларини ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги диссертация иши автореферати, Самарқанд, 2022 й.13 б.
8. www.unwto.org
9. www.worldbank.org
10. www.uzbektourism.uz

## O‘ZBEKISTONDA TURIZM BOZORINI TAKOMILLASHTIRDA JAHON TAJRIBASIDAN FOYDALANIB AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI SOHASIDA INTEGRATSIYALASH HOLATI

**Nazarov Xusanbek Avazbek o‘g‘li**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD doktoranti, Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Tadqiqot O‘zbekistonda turizm sohasining raqamli transformatsiyasi jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) infratuzilmasining texnik va texnologik rivojlanish dinamikasini tahlil qiladi. 4G/5G tarmoqlarining kengayishi, Wi-Fi nuqtalarining ko‘payishi, GPS va QR-kodli navigatsion tizimlarning joriy etilishi turistlar uchun raqamli qulaylik darajasini oshirayotgan asosiy omillar sifatida baholanadi. 2024-yilga kelib, O‘zbekiston aholining 96 foizidan ortig‘i 4G LTE qamrovi bilan ta’minlangan, Toshkent va Samarqandda esa 5G sinov tarmog‘i ishga tushirilgan. Mobil internet tezligi, ochiq Wi-Fi zonalari va raqamli xizmatlar ekotizimi turizm infratuzilmasining zamonaviy talablarga mos ravishda shakllanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, texnik xizmat ko‘rsatishdagi nomutanosiblik va hududiy tafovutlar raqamli transformatsiyaning izchil rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida qayd etiladi.

**Kalit so‘zlar:** turizm, AKT infratuzilmasi, raqamli transformatsiya, 4G/5G tarmoqlari, Wi-Fi, GPS navigatsiya, QR-kod, raqamli xizmatlar, O‘zbekiston.

### KIRISH

Turizm sohasi raqamli transformatsiyaga yuz tutar ekan, uning infratuzilmaviy asosini tashkil etuvchi “axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)”ning texnik va texnologik komponentlari barqaror rivojlanishning strategik omiliga aylanmoqda. Xususan, internet tarmog‘i qamrovi, raqamli servislar, Wi-Fi tarmoqlari, axborot kioskalar, mobil ilovalar va GPS xizmatlarining mavjudligi O‘zbekistonning sayyohlar uchun raqamli qulayligini belgilovchi asosiy mezonlar sirasiga kiradi.Bugungi kunga kelib, O‘zbekistonda 4G LTE mobil aloqa tarmog‘i aholining 96 foizidan ortiq qismini qamrab olgan bo‘lib, sayyohlar ko‘p tashrif buyuradigan hududlarda bu ko‘rsatkich yanada yuqori. Jumladan, Toshkent, Samarqand, Buxoro,

Xiva, Termiz va Farg‘ona vodiysi shaharlarida 4G tarmog‘ining qamrovi 99 foizdan ortiqni tashkil etadi (Manba: O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, 2024). 5G texnologiyasi esa 2023-yil oxiriga kelib Toshkent shahri markazida va Samarqand shahrining turistik zonalarida sinov tariqasida joriy etila boshladi.

Mobil internet tezligi bo‘yicha O‘zbekiston 2024-yil holatiga ko‘ra Ookla Speedtest Global Index reytingida o‘rtacha 31,5 Mbps tezlik bilan dunyo bo‘yicha 65-o‘rinni egalladi, bu 2021-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 3,2 baravar oshganini ko‘rsatadi.




**1-rasm. 2020–2024 yillar bo‘yicha mobil internet tezligi dinamikasi[126]**

AKT infratuzilmasining yana bir muhim elementi bu – ommaviy Wi-Fi nuqtalari bo‘lib, ular sayyohlik ob’ektlarida, mehmonxonalarda, aeroportlarda, muzeylarda va vokzallarda joriy etilgan. 2023-yil holatiga ko‘ra:

— 124 ta mehmonxonada bepul Wi-Fi xizmati mavjud (70% – yuqori tezlikda);

— 18 ta aeroport va vokzal hududida ochiq tarmoqli internet zonalari yaratilgan;

— Toshkent shahrida "Smart Shahar" loyihasi doirasida 310 dan ortiq Wi-Fi nuqtalari faoliyat yuritmoqda (Manba: Digital Uzbekistan Dasturi, 2023).




[126] O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (2024). *Raqamli infratuzilma rivoji va internet tezligi bo‘yicha statistik ma’lumotlar, 2020–2024*. Toshkent.

**2-rasm. 2020–2024 yillar bo‘yicha yangilangan Wi-Fi mavjudligi** [127]

Bu texnologik imkoniyatlar xorijiy turistlar uchun raqamli xizmatlardan doimiy va uzluksiz foydalanish muhitini yaratadi.

Raqamli navigatsiya: QR-kodli belgilar, GPS xizmatlar va axborot kioskalar

So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasida QR-kodli raqamli yo‘l-yo‘riq belgilar, axborot kioskalar va interaktiv elektron ekranlar keng joriy etilmoqda. Jumladan:

— Samarqand, Buxoro va Xivada jami 750 dan ortiq tarixiy obidalarga QR-kodli belgilar o‘rnatilgan;

— Toshkent va Urganch shaharlarida 20 dan ortiq axborot kioskasi (sensorli ekran, 3 tilda: uzb, rus, ingl.) faoliyat yuritmoqda;

— 2022–2023 yillarda “Digital Tourism Sign” loyihasi doirasida 7 ta shahar uchun GPS asosidagi sayohat xaritalari ishlab chiqilgan.

Bu tizimlar turistlarga mustaqil ravishda joylashuv, tarixiy-ma’lumotli kontent, marshrut va xizmatlar haqida ma’lumot olish imkonini beradi.

Mobil xaritalar va navigatsion xizmatlar

O‘zbekistonda quyidagi onlayn navigatsion xizmatlar keng qo‘llanilmoqda:

— Google Maps: barcha yirik shaharlarda avtomobil, piyoda va jamoat transporti yo‘nalishlari to‘liq integratsiyalashgan;

— Yandex Maps: Toshkent, Samarqand, Namangan va Andijon shaharlarida taksi, yo‘l harakati va jamoat transporti integratsiyasi mavjud;

— TourMap.uz – mahalliy ishlab chiqilgan, sayyohlar uchun ixtisoslashtirilgan xarita platformasi, unda mehmonxonalar, restoranlar, tarixiy joylar joylashtirilgan;

— VisitUzbekistan mobil ilovasi: marshrutlar, mehmonxonalar, bron qilish, valyuta kurslari, ob-havo ma’lumotlari.

Bularning barchasi turizmda raqamli muhitning shakllanishi va axborotga tezkor kirish imkoniyatini ta’minlaydi, bu esa sayyohlik xizmatlari sifatiga bevosita ta’sir qiladi.O‘zbekistonda AKT infratuzilmasining texnik holati turizmni raqamlashtirish jarayonida yetakchi omil sifatida shakllanmoqda. 4G/5G mobil tarmoqlari, bepul Wi-Fi zonalari, QR-kodli belgilash tizimi, GPS navigatsiya va raqamli xaritalar sayyohlar uchun raqamli qulaylik va ishonchli xizmat muhitini yaratmoqda.

[127] Statista (2024). *Global Wireless Broadband and Wi-Fi Availability Data, 2020–2024*. Available at: https://www.statista.com




**3-rasm. Wi-Fi mavjudligi ob’yektlar kesimida**[128]

AKT infratuzilmasining bu kabi elementlari turizm sohasi transformatsiyasining texnologik tayanch nuqtalari hisoblanadi. Ayni vaqtda, bu infratuzilmaning hududlar bo‘yicha nomutanosib rivojlanishi, texnik xizmat ko‘rsatishning barqaror emasligi kabi muammolar mavjud.

**Xulosa**

O‘zbekistonda turizm sohasining raqamli transformatsiyasi jarayonida AKT infratuzilmasining rivojlanishi sohaning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2020–2024-yillar davomida mamlakatda mobil internet tezligi 3,2 baravar oshgan, 4G LTE tarmog‘i aholining 96 foizini, 5G esa ayrim yirik turistik markazlarni qamrab olgan. Shuningdek, turistik obyektlarda ommaviy Wi-Fi zonalari, QR-kodli navigatsion tizimlar, axborot kioskalar va GPS asosidagi mobil ilovalar joriy etilishi sayyohlar uchun qulay, xavfsiz va interaktiv muhitni shakllantirgan. Biroq, hududlar kesimida texnik xizmat sifati va tarmoq barqarorligidagi tafovutlar, shuningdek, raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi kabi muammolar mavjud. Shu bois, turizmda AKT infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish, integratsiyalashgan raqamli servislar tizimini kengaytirish hamda hududlararo texnologik nomutanosiblikni kamaytirish istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilanishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2024). *O‘zbekistonning AKT infratuzilmasi bo‘yicha yillik hisobot*. Toshkent.
2. Digital Uzbekistan Dasturi. (2023). *Smart shahar va raqamli turizm loyihalari natijalari to‘g‘risida hisobot*. Toshkent.
3. Ookla Speedtest Global Index. (2024). *Mobile Internet Speed Rankings*. https://www.speedtest.net/global-index

[128] O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. “Jamoat ob’yektlarida Wi-Fi mavjudligi bo‘yicha statistik ma’lumotlar” (2023–2024). – T.: 2024;
O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi ko‘rsatkichlari* (2023–2024). – T.: 2024.

4. World Tourism Organization (UNWTO). (2023). *Tourism and Digital Transformation Report*. Madrid: UNWTO Publications.
5. Stat.uz (2024). *O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi.

## BUXORO VILOYATIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR

***F.M.Yoriyeva***
*TDIU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot Buxoro viloyatida agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalarini xalqaro tajriba kontekstida tahlil qiladi. Maqolada 2019-2024 yillardagi empirik ma’lumotlar, DEA (Data Envelopment Analysis) samaradorlik tahlili, k-means klasterlash va korrelyatsion modellar asosida agroturizm rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari kompleks tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Buxoro viloyatida agroturizm tushumlari 5 yil ichida 8 mlrd so‘mdan 40 mlrd so‘mgacha o‘sib, byudjetdagi ulushi 0.34% dan 0.87% ga yetgan. Xalqaro tajriba tahlili asosida agroturizmni rivojlantirishning klasterli yondashuv, “Smart Agriculture” texnologiyalari, davlat-xususiy sheriklik va barqaror boshqaruv kabi zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** agroturizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, DEA tahlili, klasterlash, xalqaro tajriba, Buxoro viloyati.

### Kirish

Agroturizm qishloq xo‘jaligi va turizm tarmoqlarini integratsiya qiluvchi innovatsion biznes modeli sifatida global iqtisodiyotda tobora muhim o‘rin egallamoqda. IMARC Group ma’lumotlariga ko‘ra, jahon agroturizm bozorining hajmi 2024-yilda 73.2 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan va 2033-yilga kelib 205.6 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda. Yillik o‘sish sur’ati 2025-2033 yillar davomida 10.9% ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bu tendensiya agroturizmni rivojlantirishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi[129].

O‘zbekistonda, xususan Buxoro viloyatida agroturizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, qishloq hududlarini jonlantirish va mahalliy aholi bandligini ta’minlash strategiyasining muhim komponenti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi

[129] IMARC Group. Agritourism Market Size, Share and Statistics Report, 2033. – 2024. – URL: https://www.imarcgroup.com/agritourism-market

Farmonida turizm sohasini, jumladan ichki va agroturizmni rivojlantirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

– Global turizm bozorida agroturizm segmentining barqaror o‘sishi (yillik 12-15%);

– O‘zbekistonda qishloq aholisining 49.5% ni tashkil etishi va ularning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish zarurati;

– Buxoro viloyatining tabiiy-madaniy salohiyati va qishloq xo‘jaligi an'analarining agroturizm uchun qulay zamin yaratishi;

– Mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligi.

Shundan kelib chiqib tadqiqot maqsadini quyidagicha belgilash mumkin - Buxoro viloyatida agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Adabiyotlar sharhi**

Agroturizm tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Santeramo va Barbieri (2017) agroturizmni “ishlaydigan qishloq xo‘jaligiga dam olish yoki ta’lim olish maqsadida tashrif buyurish” deb ta’riflaydi. Yanku va boshqalar (2020) esa agroturizmni barqaror qishloq xo‘jaligi va turizm qoidalarini to‘liq ifodalovchi tadbirkorlik faoliyati sifatida ko‘rib chiqadi. Agroturizmning iqtisodiy ahamiyatini tadqiq etgan E. Loizu va boshqalar (2019) bu sohaning qishloq hududlarini rivojlantirishdagi multiplikativ ta’sirini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, agroturizmga kiritilgan har bir dollar 2.5-3 dollar miqdorida iqtisodiy effekt yaratadi.

**Materiallar va metodlar**

Mazkur tadqiqot 2019-2024 yillarni qamrab olgan holda Buxoro viloyatida agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish uchun ko‘p qirrali metodologik yondashuvni qo‘llagan. Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirish uchun birlamchi va ikkilamchi ma’lumot manbalaridan foydalanildi. Birlamchi ma’lumotlar 300 nafar respondent (87.1% - 18-25 yosh guruhidagi talabalar) ishtirokida o‘tkazilgan anketali so‘rovnoma, 19 ta agroturizm operatori bilan chuqurlashtirilgan yarim strukturalashgan intervyular hamda 5 ta fokus-guruh muhokamalaridan to‘plandi. Ikkilamchi ma’lumotlar bazasi Buxoro viloyati statistika boshqarmasi, Turizm va madaniy meros vazirligi, mahalliy hokimiyat organlari ma’lumotlari, 13 ta tuman bo‘yicha qishloq xo‘jaligi va turizm statistikasi, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlari natijalaridan shakllantirildi. Ma’lumotlarning ishonchliligi va reprezentativligini ta’minlash uchun triangulatsiya metodi qo‘llanib, turli manbalardan olingan ma’lumotlar o‘zaro taqqoslandi va verifikatsiya qilindi.

Tadqiqotda zamonaviy miqdoriy tahlil metodlarining kompleks majmuasidan foydalanildi. DEA metodi yordamida input-yo‘naltirilgan CRS modeli asosida 12 ta tumanning resurslardan foydalanish samaradorligi baholandi, bunda kirish parametrlari sifatida ekin maydoni (ga), transport infratuzilmasi reytingi va yo‘l zichligi, chiqish parametri sifatida esa qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti (mln. so‘m)

olindi. K-means klasterlash algoritmi orqali hududlar resurs ta’minoti profili bo‘yicha 3 ta gomogen guruhga ajratildi, optimal klasterlar soni Elbow metodi va silhouette koeffitsienti (0.68) yordamida aniqlandi. Pearson korrelyatsion tahlili agroturizm segmentlari (qishloq turizmi, gastronomik, hunarmandchilik, ekoturizm) va iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini baholash uchun qo‘llanildi. Prognozlash uchun eksponensial trend modeli ishlab chiqildi, model adekvatligini tekshirish uchun $R^2 = 0.976$ determinatsiya koeffitsienti va MAPE = 8.3% xatolik ko‘rsatkichi hisoblandi. Barcha statistik tahlillar Python 3.9 va R 4.2 dasturlari yordamida amalga oshirildi.

**Tahlil va natijalar**

Yevropa mamlakatlarida agroturizmni tashkil etishning institutsional asoslari kuchli rivojlangan. Italiyada 1985-yilda qabul qilingan maxsus qonun agroturizm faoliyatini tartibga soladi. Natijada, 2023-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda 26,129 ta agroturizm subyekti faoliyat yuritib, yillik daromadi yevro1.36 mlrd ni tashkil etadi.

**1-jadval.**

**Yetakchi mamlakatlarda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari**

| **Mamlakat** | **Qonuniy asos** | **Davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlari** | **Moliyaviy instrumentlar** | **Natijalar (2023-yil ma’lumotlari asosida)** |
|---|---|---|---|---|
| Italiya | “Agriturismo” qonuni (1985) | Soliq imtiyozlari, subsidiyalar | 500 mln.yevro yiliga grant | 26,129 subyekt, 1.36 mlrd. yevro daromad |
| Fransiya | “Fermaga xush kelibsiz” dasturi | Marketing qo‘llab-quvvatlash | 300 mln. yevro yiliga kredit | 11,446 ferma, 0.95 mlrd. yevro |
| AQSh | USDA Agritourism dasturi | Texnik yordam, treninglar | 200 mln. dollar yiliga grant | 28,617 operator, $1.26 mlrd |
| Germaniya | Federal agroturizm strategiyasi | Infratuzilma rivojlantirish | 250 mln. yevro yiliga | 9,235 xo‘jalik, 0.78 mlrd. yevro |
| Yaponiya | MAFF “Green Tourism” dasturi | Smart texnologiyalar subsidiyasi | 50 mlrd. yuan yiliga | 8,500 ferma, 280 mlrd. yuan |

Osiyo mamlakatlarida agroturizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Yaponiyada “Smart Agriculture” konsepsiyasi doirasida 2,500 ta ferma IoT sensorlar, dronlar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanmoqda.

Tadqiqotda quyidagi ma’lumot manbalari qo‘llanilgan:

– Buxoro viloyati statistika boshqarmasining 2019-2024 yillardagi rasmiy ma’lumotlari;

– 13 ta tuman bo‘yicha qishloq xo‘jaligi va turizm ko‘rsatkichlari;

– 300 nafar respondent (87.1% - 18-25 yosh, 80.6% - talabalar) ishtirokidagi so‘rovnoma;

– 19 ta agroturizm operatori bilan chuqurlashtirilgan intervyu.

Resurslardan foydalanish samaradorligini baholash uchun input-yo‘naltirilgan CRS modeli qo‘llanilgan. Model formulasi:

$$\theta * = \min \theta$$

$$s.t. \Sigma \lambda j \, xij \leq \theta xi0 \; (i = 1,\ldots,m)$$

$$\Sigma \lambda j \, yrj \geq yr0 \; (r = 1,\ldots,s)$$

$$\lambda j \geq 0 \; (j = 1,\ldots,n)$$

Bu yerda:

– θ - samaradorlik koeffitsienti;

– x - kirish resurslari (ekin maydoni, transport, yo‘l infratuzilmasi);

– y - chiqish natijalari (qishloq xo‘jaligi mahsuloti);

– λ - og‘irlik koeffitsientlari.

K-means klasterlash - hududlarni resurs profili bo‘yicha guruhlash uchun qo‘llanilgan. Evklid masofasi:

$$d(xi, cj) = \sqrt{\Sigma (xik - cjk)^2}$$

Pearson korrelyatsiya koeffitsienti formula:

$$r = \Sigma (xi - \bar{x})(yi - \bar{y}) \, / \sqrt{[\Sigma (xi - \bar{x})^2 \times \Sigma (yi - \bar{y})^2]}$$

Buxoro viloyatida agroturizm sohasida sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. 2019-2024 yillarda agroturizm tushumlari 5 barobar o‘sib, 40 mlrd so‘mga yetgan.

**2-jadval.**

**Buxoro viloyatida agroturizm tushumlarining dinamikasi (2019-2024)**

| **Ko‘rsatkichlar** | **2019** | **2020** | **2021** | **2022** | **2023** | **2024** | **O‘sish** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Agroturizm tushumlari (mln so‘m) | 8,000 | 10,000 | 15,500 | 22,000 | 30,000 | 40,000 | 5.0 |
| Yillik o‘sish sur’ati (%) | - | 25.0 | 55.0 | 41.9 | 36.4 | 33.3 | - |
| Mahalliy byudjet hajmi (mln so‘m) | 2,345,000 | 2,610,000 | 3,140,000 | 3,820,000 | 4,210,000 | 4,593,499 | 2.0 |
| Byudjetdagi ulushi (%) | 0.34 | 0.38 | 0.49 | 0.58 | 0.71 | 0.87 | 2.6 |
| Iqtisodiyotga xarajatlar (mln so‘m) | 280,000 | 320,000 | 380,000 | 450,000 | 490,000 | 550,463 | 2.0 |
| Qishloq xo‘jaligi xarajatlari (mln so‘m) | 65,000 | 75,000 | 90,000 | 105,000 | 115,000 | 127,024 | 2.0 |

Buxoro viloyatining 12 tumani bo‘yicha o‘tkazilgan DEA tahlili resurslardan foydalanish samaradorligida sezilarli tafovutlarni aniqladi.

**3-jadval.**

**DEA samaradorlik koeffitsientlari va tashkiliy-iqtisodiy tavsiyalar**

| Tuman | θ (samaradorlik) | Resurs profili | Tavsiya etiladigan mexanizm |
|---|---|---|---|
| **Benchmark hududlar** | | | |
| Buxoro sh. | 1.000 | Optimal muvozanat | Tajriba tarqatish markazi |
| Qorovulbozor | 1.000 | Resurs optimallashtirish | Best practice hub |
| **O‘rta samarali hududlar** | | | |
| Shofirkon | 0.951 | Yo‘l ustun, transport kam | “Shuttle & Visit” modeli |
| Qorako‘l | 0.879 | Keng ekin, yo‘l ko‘p | Logistika optimallashtirish |
| Vobkent | 0.797 | Muvozanatli | Modulli agro-park |
| **Past samarali hududlar** | | | |
| Kogon | 0.479 | Transport ortiqcha | Resurs redistributsiyasi |
| Peshku | 0.454 | Yo‘l ko‘p, natija kam | Intensifikatsiya |
| Jondor | 0.438 | Resurs isrofi | Kooperatsiya |
| Olot | 0.396 | Fragment resurslar | Konsolidatsiya |
| Buxoro t. | 0.382 | Katta maydon, kam natija | Texnologik modernizatsiya |
| Romitan | 0.379 | Infratuzilma muammosi | PPP loyihalar |
| G‘ijduvon | 0.265 | Eng katta zaxira | Kompleks restrukturizatsiya |

O‘rtacha samaradorlik $\overline{\theta} = 0.61$ bo‘lib, resurslarning 39% ini tejash imkoniyati mavjud.

Korrelyatsion tahlil agroturizm segmentlari o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni ko‘rsatdi:

**4-jadval.**

**Agroturizm segmentlari va iqtisodiy xarajatlar o‘rtasidagi korrelyatsiya**

| Segmentlar | Qishloq turizmi | Gastronomik | Hunarmandchilik | Ekoturizm | Iqtisodiy xarajatlar |
|---|---|---|---|---|---|
| Qishloq turizmi | 1.000 | | | | |
| Gastronomik | 0.990*** | 1.000 | | | |
| Hunarmandchilik | 0.987*** | 0.985*** | 1.000 | | |
| Ekoturizm | 0.992*** | 0.988*** | 0.983*** | 1.000 | |
| Iqtisodiy xarajatlar | 0.933*** | 0.931*** | 0.928*** | 0.935*** | 1.000 |

*** $p < 0.001$

Bu natijalar segmentlarni alohida emas, balki integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Eksponensial model asosida prognoz:

$$T(t) = 8000 \times e^{\wedge}(0.3341 \times (t - 2019))$$

Agroturizm zamonaviy iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi va turizm tarmoqlarini uyg‘unlashtirib, qishloq hududlarini rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida tobora keng qo‘llanilmoqda. Buxoro viloyati o‘zining boy tabiiy resurslari, qadimiy qishloq xo‘jaligi an'analari va madaniy merosi bilan agroturizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega bo‘lib, 2019-2024 yillarda bu sohada sezilarli o‘sish dinamikasini namoyish etdi. Viloyatda agroturizm tushumlari 5 yil ichida 8 mlrd so‘mdan 40 mlrd so‘mgacha o‘sgan bo‘lsa-da, xalqaro tajriba va zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni qo‘llash orqali bu ko‘rsatkichlarni yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Shu nuqtai nazardan, Italiya, Yaponiya, AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarning agroturizmni institutsional qo‘llab-quvvatlash, “Smart Agriculture” texnologiyalarini joriy etish va klasterli yondashuv tajribalarini o‘rganib, Buxoro viloyati sharoitiga moslashtirilgan samarali boshqaruv modelini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi(1-rasm).




**1-rasm. Buxoro viloyatida agroturizm tushumlarining prognozi (2019-2030 yillar).**

Yuqoridagi 1-rasmda keltrilgan eksponensial prognoz modeli 2030-yilga kelib agroturizm tushumlari 295 mlrd so‘mga yetishi mumkinligini ko‘rsatmoqda, bu esa viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, qishloq aholisi bandligini ta’minlash va mahalliy byudjet daromadlarini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. DEA tahlili asosida aniqlangan 39% resurs tejash potentsialini amalga oshirish, samaradorligi yuqori bo‘lgan Buxoro shahar va Qorovulbozor tumanlarini tajriba markazlariga aylantirish, past samarali tumanlar uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish hamda agroturizm segmentlarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish orqali viloyat agroturizm sohasida xalqaro raqobatbardosh mavqega erishishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Buxoro viloyatida agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. 2019-2024 yillarda agroturizm tushumlari 8 mlrd so‘mdan 40 mlrd so‘mgacha o‘sib, mahalliy byudjetdagi ulushi 0.34% dan 0.87% ga yetgan

bo‘lsa-da, DEA tahlili viloyat tumanlarining resurslardan foydalanish samaradorligi o‘rtacha 61% ni tashkil etib, 39% resurs tejash imkoniyati mavjudligini aniqladi. Xalqaro tajriba tahlili Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlarning institutsional bazasi, davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlari va “Smart Agriculture” texnologiyalarini qo‘llash orqali sezilarli natijalarga erishganligini ko‘rsatdi. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, agroturizm segmentlari (qishloq turizmi, gastronomik, hunarmandchilik, ekoturizm) o‘rtasida kuchli bog‘liqlik ($r > 0.98$) mavjudligi aniqlandi, bu esa segmentlarni alohida emas, balki integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot asosida Buxoro viloyatida agroturizmni rivojlantirishning quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi: birinchidan, samaradorligi yuqori bo‘lgan Buxoro shahar va Qorovulbozor tumanlarini tajriba tarqatish markazlariga aylantirish; ikkinchidan, past samarali tumanlar (G‘ijduvon, Romitan, Olot) uchun davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani modernizatsiya qilish dasturlarini ishlab chiqish; uchinchidan, klasterlash tahlili asosida aniqlangan uch guruh hududlar uchun differentsiyalashgan rivojlanish strategiyalarini qo‘llash. Eksponensial prognoz modeli 2030-yilga kelib agroturizm tushumlari 295 mlrd so‘mga yetishi mumkinligini ko‘rsatmoqda, bu esa viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, qishloq aholisi bandligini oshirish va mahalliy byudjet daromadlarini ko‘paytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, xalqaro tajribadan kelib chiqib, “Smart Agriculture” texnologiyalari, institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimi va barqaror boshqaruv tamoyillarini joriy etish orqali agroturizmni yanada samarali rivojlantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Fennell, D.A. (2020). Ecotourism: Principles and Practice (5th ed.). London: Routledge. 342 p.
2. Weaver, D.B., & Lawton, L.J. (2019). Twenty years on: The state of contemporary ecotourism research. Tourism Management, 72, 378-392.
3. UNWTO (2023). Tourism and the Sustainable Development Goals – Journey to 2030. Madrid: World Tourism Organization.
4. ISTAT (2023). Agritourism in Italy: Annual Report 2023. Rome: Italian National Institute of Statistics.
5. MAFF (2023). Smart Agriculture Development Strategy in Japan. Tokyo: Ministry of Agriculture, Forestry and Fisheries.
6. Loizou, E., Karelakis, C., Galanopoulos, K., & Mattas, K. (2019). The role of agriculture in rural tourism development: Evidence from a mountainous region. Agricultural Economics Review, 20(2), 48-65.
7. Barbieri, C., & Mshenga, P.M. (2018). The role of the firm and owner characteristics on the performance of agritourism farms. Sociologia Ruralis, 58(2), 229-248.
8. Pulina, M., Giovanna, D.G., & Paba, A. (2021). Life cycle of agrotouristic firms: A comparative analysis. Tourism Management Perspectives, 38, 100-115.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Toshkent.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2024). Turizm statistikasi yillik hisoboti. Toshkent: Davlat statistika qo‘mitasi.

## O‘ZBEKISTON TURIZM SIYOSATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA USTUVOR YO‘NALISH SIFATIDA

**Xusniddinova Munavvar Sur’at qizi**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti*

**Annotatsiya.** O‘zbekistonning turizm sohasini rivojlantirish davlat miqyosida amalga oshirilayotgan infratuzilma va investitsiya dasturlari orqali tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Biroq, turizm xizmatlariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hali yetarli darajada shakllanmagan. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning hozirgi holati tahlil qilinadi hamda jahon tajribalari bilan taqqoslanadi. Xalqaro tadqiqotlar va siyosiy-huquqiy hujjatlar tahliliga asoslanib, raqamli transformatsiya jarayonining asosiy yo‘nalishlari, to‘siqlari va imkoniyatlari aniqlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston strategiyalarida asosan infratuzilma va xususiylashtirishga urg‘u berilmoqda, holbuki dunyo mamlakatlari raqamli ekotizimlar, “aqlli” turizm yo‘nalishlari va mijoz tajribasiga asoslangan texnologiyalarni keng qo‘llamoqda. Xulosa sifatida maqola mamlakat turizm ekotizimida raqamli tayyorgarlikni oshirish va barqaror o‘sishni ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli transformatsiya, turizm siyosati, innovatsion rivojlanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), aqlli turizm, raqamli ekotizim, barqaror turizm, davlat-xususiy sheriklik.

### Kirish

O‘zbekiston turizmi tarixiy, madaniy va ekologik merosga boy bo‘lgan, Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishlari orqali jahon e’tiboriga tushayotgan istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. So‘nggi yillarda davlat turizmni diversifikatsiya qilish, yangi mahsulotlar yaratish, infratuzilmani yangilash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, global turizm bozori axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) tezkor rivojlanishi tufayli katta raqamli o‘zgarish jarayonini boshdan kechirmoqda. Sigalat-Signes va hammualliflar hamda Xia va boshqalar ta’kidlaganidek, raqamli texnologiyalar xizmatlar samaradorligini oshirish, ma’lumotlarni boshqarish va iste’molchilar bilan real vaqt rejimida aloqani ta’minlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda[130][131]. Raqamli texnologiyalar nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki

[130] **Sigalat-Signes, E., Calvo-Palomares, R., Roig-Merino, B., & García-Adán, I.** (2020). *Transition towards a tourist innovation model: The smart tourism destination.* Journal of Innovation & Knowledge, 5(1), 26–35.
[131] **Xia, L., Baghaie, S., & Mohammad Sajadi, S.** (2024). *The digital economy: Challenges and opportunities in the new era of technology and electronic communications.* Ain Shams Engineering Journal, 15, 102411.

turizm sohasida tezkor qaror qabul qilish va mijozlar bilan interaktiv muloqotni ta’minlaydi. Natijada, turizm korxonalari raqobatbardoshligini kuchaytirib, mijozlar tajribasini yanada shaxsiylashtirilgan shaklda boshqarish imkoniga ega bo‘ladi.

Shuning uchun O‘zbekistonning turizm sohasida raqamli transformatsiyaga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bu jarayonning imkoniyat va cheklovlarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida raqamlashtirish turizmning barcha bosqichlarini, jumladan, bron qilish, to‘lov, reklama, marketing va hatto virtual sayohat tajribasini ham tubdan o‘zgartirdi. Hadjielias va boshqalar raqamlashtirish mijozlar bilan aloqani mustahkamlab, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning moslashuvchanligi va barqarorligini oshirganini ta’kidlashadi[132]. Raqamlashtirish turizm xizmatlarini yanada integrallashgan, qulay va tezkor tizimga aylantirmoqda. Shuningdek, u korxonalarga bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashish, mijoz ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va xizmatlarni innovatsion shaklda taklif etish imkonini bermoqda.

COVID-19 pandemiyasi bu jarayonni yanada tezlashtirib, onlayn platformalar, kontaktsiz xizmatlar va sun’iy intellekt asosidagi yechimlarning keng joriy etilishiga sabab bo‘ldi. Santarsiero va hammualliflari innovatsion laboratoriyalar turizmda biznes-model transformatsiyasining asosiy vositasiga aylanganini qayd etishadi[133]. Innovatsion laboratoriyalar turizm sohasida yangi g‘oyalar va raqamli yechimlarni sinovdan o‘tkazish, ularni amaliyotga joriy etish uchun muhim platforma vazifasini bajaradi. Natijada, bunday muhit biznes-modellarni yangilash, xizmatlar samaradorligini oshirish va raqamli transformatsiyani tezlashtirishga xizmat qiladi. Tan va boshqalar (2025) esa raqamli texnologiyalar iste’molchilarning sayohatga bo‘lgan ishonchi va qarorlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlashgan[134]. Raqamli texnologiyalar turistlarning qaror qabul qilish jarayonida ishonch va motivatsiyani kuchaytiradi. Chunki onlayn sharhlar, interaktiv platformalar va raqamli axborot manbalari sayohatchilarga yo‘nalish, xizmat sifati va xavfsizlik bo‘yicha aniq tasavvur beradi, bu esa ularning tanlovini osonlashtiradi. Shu bois raqamli transformatsiya bugungi kunda raqobatbardoshlikning muhim omili sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda turizm sanoatida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi barqaror rivojlanish, innovatsiya va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda muhim o‘rin egallay boshladi. Xalqaro tadqiqotlar raqamli ekotizimlarning turizm sohasida nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlashdagi rolini keng yoritmoqda[135]. O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda turizmni rivojlantirish maqsadida erkin turizm zonalarini tashkil etish, yangi mehmonxonalar va dam olish maskanlarini qurish, transport infratuzilmasini

[132] **Hadjielias, E., Christofi, M., Christou, P., & Hadjielia Drotarova, M.** (2022). *Digitalization, agility, and customer value in tourism.* Technological Forecasting and Social Change, 175, 121334.

[133] **Santarsiero, F., Carlucci, D., & Schiuma, G.** (2024). *Driving digital transformation and business model innovation in tourism through innovation labs.* Journal of Engineering and Technology Management, 74, 101841.

[134] **Tan, Y., Jiang, G., Merajuddin, S., & Zhao, F.** (2025). *Analyzing the impact of digital technology on consumers’ travel intentions.* Journal of Innovation & Knowledge, 10, 100685.

[135] Toirova, N. M. (2025). Turizmda xizmat ko’rsatish faoliyatini optimallashtirishda raqamli ekotizimlarning o’rni va amaliy imkoniyatlari. Qo’qon universiteti xabarnomasi – Kokand University Herald, 16(15), 66–70. https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1251

yangilash hamda davlat korxonalarini xususiylashtirish kabi keng ko‘lamli tashabbuslarni ilgari surdi.

Biroq, bu islohotlar asosan moddiy infratuzilmani yangilashga qaratilgan bo‘lib, turizm xizmatlarida raqamli texnologiyalarni tizimli joriy etish hali boshlang‘ich bosqichda. So‘nggi yillarda e-visa tizimi, turizm vazirligi tomonidan yaratilgan onlayn platformalar va ayrim xususiy turoperatorlarning raqamli tashabbuslari mavjud bo‘lsa-da, ular umumiy strategiya darajasida birlashtirilmagan.

O‘zbekistonda e-Tourism.uz, Uzbekistan.travel kabi platformalar faoliyat yuritmoqda. Biroq ularning imkoniyatlari hali yetarli darajada rivojlanmagan. Mybooking.uz kabi mahalliy servislar ham mavjud bo‘lsa-da, ko‘pchilik hali global raqamli standartlarga moslashmagan. Mavjud platformalarning ko‘pchiligi faqat axborot berish bilan cheklanadi, interaktiv xizmatlar (masalan, real-time tracking, virtual tours) esa yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan[136].

Shuningdek, sohada AKT mutaxassislari yetishmasligi va raqamli kontentni boshqarish tajribasining cheklanganligi turizm xizmatlarining to‘liq raqamlashtirilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

**1-jadval.**

**O‘zbekiston va jahon turizmida raqamli transformatsiya yo‘nalishlari taqqoslanishi**

| Ko‘rsatkichlar | O‘zbekiston | Jahon tajribasi |
|---|---|---|
| **Raqamli texnologiyalar** | Cheklangan darajada, ayrim pilot loyihalar | AKT, onlayn platformalar va smart texnologiyalar keng joriy etilgan |
| **Infratuzilma** | Asosan jismoniy obyektlar modernizatsiyasi | Raqamli boshqaruv va onlayn rezervatsiya tizimlari rivojlangan |
| **Kadrlar salohiyati** | Turizm va til ko‘nikmalariga urg‘u | Raqamli savodxonlik va innovatsion fikrlashga e’tibor |
| **Investitsiya** | Xususiylashtirish va moddiy aktivlar | Innovatsion laboratoriyalar va smart infratuzilma |
| **Mijoz tajribasi** | An’anaviy xizmat modeli | Shaxsiylashtirilgan va kontaktsiz xizmatlar |

O‘zbekiston turizm siyosati hozircha asosan infratuzilmaviy modernizatsiya va investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan. Biroq, global amaliyotda raqamli innovatsiyalar sun’iy intellekt, onlayn xizmatlar va smart platformalar turizm rivojining asosiy drayveriga aylangan. Shu sababli, O‘zbekiston uchun turizmni raqamli transformatsiya yo‘nalishida strategik rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston turizm sanoati bugungi kunda raqamli transformatsiya bosqichiga kirib bormoqda. Hukumat tomonidan yaratilgan mustahkam infratuzilmaviy baza turizm sohasini modernizatsiya qilishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq zamonaviy global tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, endilikda turizm rivojini

[136] Xusniddinova M. Turizmda raqamli texnologiyalardan foydalanish: jahon tajribasi va O’zbekiston uchun xulosalar. “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. 2025-yil, 3-soni. 26-31.

faqat jismoniy infratuzilma bilan emas, balki raqamli yechimlar va texnologik innovatsiyalarni strategik darajada joriy etish orqali ta’minlash zarur.

Raqamli transformatsiyani jadallashtirish maqsadida bir qator ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish taklif etiladi. Birinchidan, Milliy raqamli turizm strategiyasini ishlab chiqish lozim, u yagona onlayn xizmatlar, mobil ilovalar, raqamli marketing hamda elektron to‘lov tizimlarini qamrab olgan kompleks siyosatni o‘z ichiga olishi kerak. Ikkinchidan, innovatsion laboratoriyalar va “smart turizm markazlari” tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, ular xalqaro tajriba asosida yangi raqamli mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kadrlar salohiyatini oshirish ham muhim omil bo‘lib, turizm sohasida AKT, ma’lumotlar tahlili va mijozlar tajribasini boshqarish bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish esa raqamli infratuzilma va platformalarni birgalikda yaratish imkonini beradi. Nihoyat, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish orqali turistik oqimlar, mijozlar xatti-harakatlari va bozor tendensiyalarini real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonning raqobatbardoshligini oshirish, texnologiyaga asoslangan turizmni rivojlantirish hamda mamlakatni global raqamli turizm bozoriga integratsiyalashuvini tezlashtirishga xizmat qiladi.

**Xulosa**

Raqamli transformatsiya O‘zbekiston turizmi uchun muhim imkoniyatdir. Mamlakat infratuzilmani modernizatsiya qilish va investitsiyalarni jalb etishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, raqamli xizmatlarni keng joriy etish hali to‘liq shakllanmagan. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, AKTni qo‘llash, innovatsion ekotizimlar yaratish va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlarini rivojlantirish turizm sohasining barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Shu yo‘l bilan O‘zbekiston nafaqat xizmat sifati va samaradorligini oshiradi, balki o‘zini mintaqadagi “aqlli va innovatsion turizm yo‘nalishi” sifatida namoyon etishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Hadjielias, E., Christofi, M., Christou, P., & Hadjielia Drotarova, M. (2022). Digitalization, agility, and customer value in tourism. Technological Forecasting and Social Change, 175, 121334.

2. Santarsiero, F., Carlucci, D., & Schiuma, G. (2024). Driving digital transformation and business model innovation in tourism through innovation labs. Journal of Engineering and Technology Management, 74, 101841.

3. Sigalat-Signes, E., Calvo-Palomares, R., Roig-Merino, B., & García-Adán, I. (2020). Transition towards a tourist innovation model: The smart tourism destination. Journal of Innovation & Knowledge, 5(1), 26–35.

4. Tan, Y., Jiang, G., Merajuddin, S., & Zhao, F. (2025). Analyzing the impact of digital technology on consumers’ travel intentions. Journal of Innovation & Knowledge, 10, 100685.

5. Toirova, N. M. (2025). Turizmda xizmat ko‘rsatish faoliyatini optimallashtirishda raqamli ekotizimlarning o‘rni va amaliy imkoniyatlari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi – Kokand University Herald, 16(15), 66–70. https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1251

6. Xia, L., Baghaie, S., & Mohammad Sajadi, S. (2024). The digital economy: Challenges and opportunities in the new era of technology and electronic communications. Ain Shams Engineering Journal, 15, 102411.

7. Xusniddinova M. Turizmda raqamli texnologiyalardan foydalanish: jahon tajribasi va O‘zbekiston uchun xulosalar. “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. 2025-yil, 3-soni. 26-31.

## YASHIL TURIZMDA INNOVATSION XIZMATLARNI TASHKIL ETISH

**Toirova Nozima Miraxmad qizi**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti*

**Annotatsiya** Maqolada yashil turizm va innovatsion xizmatlar integratsiyasining O‘zbekistonda barqaror rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilingan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli texnologiyalar va yashil energiya infratuzilmasi asosida “smart-green tourism” modeli shakllanayotgani ko‘rsatib o‘tilgan. Natijalar yashil turizmni raqamlashtirish ekologik samaradorlik, xizmat sifati va ijtimoiy barqarorlikni oshirishini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, innovatsiya, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish.

### Kirish

So‘nggi yillarda global turizm sohasida “barqaror rivojlanish” tamoyillariga asoslangan yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Ayniqsa, yashil turizm va innovatsion xizmatlar integratsiyasi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda[137]. Yashil turizmni rivojlantirish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilash mumkin[138]. Shu jarayonda innovatsiyalar ekologik jihatdan barqaror xizmatlarni yaratishning asosiy mexanizmiga aylanmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida barcha tarmoqlarda, jumladan, turizm va xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda barqaror va ekologik samarali boshqaruv tizimlarini yaratish vazifalari belgilangan. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, turizmni

[137] Slepchenko, V. A., & Voinova, Ya. A. (2022). *Ponyatie i organizatsionno-ekonomicheskaya spetsifika zelyonogo turizma.* Vestnik Akademii Znaniy, 53(6), 257–259.

[138] Makrushina, I. V., Gorbacheva, D. A., & Kruzhkov, D. A. (2021). *Vnedrenie innovatsionnykh podkhodov obsluzhivaniya v ramkakh ekologicheskogo tura.* Vestnik ZKU, 4(84), 222–225.

raqamlashtirish va innovatsion xizmatlar eksportini ko‘paytirish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatib o‘tilgan[139].

Yashil turizm — bu tabiatni asrash, mahalliy aholining farovonligini oshirish hamda ekologik madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan turizm turi bo‘lib, u barqaror turizmning ajralmas tarkibiy qismidir[140].

Yashil turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi xizmat ko‘rsatish tizimida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga bevosita bog‘liq. Innovatsiyalar nafaqat ekologik samaradorlikni, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy inklyuziyani ham ta’minlaydi. Zamonaviy turizm sohasida ekologik tamoyillarni qo‘llash orqali xizmatlarning raqobatbardoshligi, mijozlar ishonchi va barqaror rivojlanish darajasi ortmoqda. Yashil turizmni rivojlantirishda quyidagi asosiy tamoyillar muhim rol o‘ynaydi.

**1-jadval.**

**Yashil turizmda innovatsion xizmatlarni tashkil etishning asosiy tamoyillari[141]**

| | **Tamoyil nomi** | **Mazmuni** | **Amaliy ko‘rinishlari** |
|---|---|---|---|
| 1 | Barqarorlik tamoyili | Ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni ta’minlash | Atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish |
| 2 | Raqamlashtirish tamoyili | Xizmatlarni raqamli platformalar orqali boshqarish | Online-bron tizimlari, mobil ilovalar, CRM |
| 3 | Innovatsion yechimlar tamoyili | Yangi texnologiyalar asosida xizmat yaratish | IoT, AI, Smart-guide, VR-tourlar |
| 4 | Mahalliy ishtirok tamoyili | Aholini turizm xizmatiga jalb etish | Agro-, etno-, eko-turizm loyihalari |
| 5 | Ekologik mas’uliyat tamoyili | Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish | Suv-energiyani tejash, qayta ishlash tizimlari |
| 6 | Ta’lim va ongni oshirish tamoyili | Ekologik madaniyat va “green behavior”ni shakllantirish | Ekofestivallar, treninglar, turizm kurslari |

1-jadvalda keltirilgan tamoyillar yashil turizmni innovatsion asosda rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini ifodalaydi. Barqarorlik va ekologik mas’uliyat tamoyillari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan bo‘lsa, raqamlashtirish va innovatsion yechimlar xizmat jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar orqali takomillashtirishga xizmat qiladi. Mahalliy ishtirok va ta’lim tamoyillari esa aholini jarayonga jalb etish hamda ekologik madaniyatni oshirish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Shu tariqa, bu tamoyillar birgalikda yashil turizmning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muvozanatli rivojlanishiga zamin yaratadi.

Energetika infratuzilmasidagi “yashil” o‘zgarishlar turizm sohasida innovatsion xizmatlarni tashkil etishda muhim sharoit yaratmoqda. O‘zbekistonda 2025-yil

---

[139] “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

[140] UNWTO (2022). *Tourism for Sustainable Development Goals – A Guidebook.* Madrid: UN World Tourism Organization.

[141] muallif tomonidan Afrizal Firman et al. (2022), Gürlek & Koseoglu (2021), UNWTO (2022) asosida tuzilgan.

boshidan buyon quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan 9 mlrd kWh elektr energiyasi ishlab chiqarildi; gidroelektr stansiyalarni ham qo‘shganda jami ishlab chiqarilgan “yashil” energiya miqdori 14,5 mlrd kWhga yetdi. Bu esa umumiy elektr generatsiyasining 23 %ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari, faqat “yashil” energiya hisobidan 2,73 mlrd kub metr tabiiy gaz tejalgan va atmosferaga chiqishi mumkin bo‘lgan 4 mln tonnaga yaqin zararli moddalar oldi olinganligi ham e’tiborga sazovor[142].

**2-jadval.**

**O‘zbekistonda yashil (qayta tiklanuvchi) energiya manbalari rivojlanish dinamikasi (2024–2025 yy.)[143]**

| **Ko‘rsatkich** | **2024-yil yakuni** | **2025-yil oktabr** | **O‘sish (%)** |
|---|---|---|---|
| Umumiy quvvat (MVt) | 5 713 | 6 993 | **+22 %** |
| Quyosh elektr stansiyalari (QFES) | 2 567 | 3 030 | **+18 %** |
| Shamol elektr stansiyalari (SHES) | 900 | 1 652 | **+83 %** |
| Gidroelektr stansiyalari (GES) | 2 246 | 2 311 | **+3 %** |
| Batareya tizimlari | 300 | 363 | **+21 %** |
| Ishlab chiqarish hajmi (mlrd kVt·soat) | 13,0 | 15,1 | **+15 %** |
| Gaz tejalishi (mln m³) | 3 943 | 4 580 | **+16 %** |
| Yaratilgan ish o‘rinlari (ta) | 358 | 515 | **+43 %** |

Yashil energiya ulushining ortishi turizmda ekologik xizmatlar va energiya tejamkor infratuzilmani joriy etish uchun muhim iqtisodiy zamin yaratmoqda. Bunda quyosh energiyasiga asoslangan dam olish maskanlari, energiya samarador mehmonxonalar, va elektr transport tarmoqlari barqaror turizmning asosiy yo‘nalishlariga aylanmoqda.

Bu raqamlar yashil turizm xizmatlarini tashkil etishda raqamli, ekologik va energiya tejamkor yechimlarni integratsiya qilish uchun asos bo‘ladi. Masalan:

- “Eco-mehmonxonalar” energiya manbalarida qayta tiklanuvchi vositalardan foydalanishi mumkin.
- Turizm infratuzilmasida “green mobility” (elektr transport, velosipedlar) joriy etilishi sharoit shakllanmoqda.
- Mahalliy xizmat provayderlari uchun energiya tejamkorlik bo‘yicha innovatsion yechimlarni joriy qilish va bu orqali “yashil xizmat” brendini yaratish imkoniyatlari oshmoqda.

Raqamli texnologiyalar, ayniqsa, turizm xizmatlarini taqdim etish va iste‘mol qilish jarayonlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Internet, mobil ilovalar, sun‘iy intellekt, kengaytirilgan va virtual reallik, katta ma‘lumotlar (big data) kabi innovatsion texnologiyalar sayohat tajribasini boyitib, mehmonxona va transport xizmatlari, turistik broshyuralar hamda onlayn booking tizimlarining samaradorligini oshirdi[144].

---

[142] https://kun.uz/news/2025/10/23/ozbekistonda-yashil-energiya-ulushi-23-foizga yetdi?utm_source=chatgpt.com

[143] O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi (2025-yil, oktabr) ma’lumoti.

[144] Xusniddinova M. Turizmda raqamli texnologiyalardan foydalanish: jahon tajribasi va O’zbekiston uchun xulosalar. “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. 2025-yil, 3-soni.

So‘nggi tadqiqotlar yashil turizm konsepsiyasini faqat ekologik yo‘nalish sifatida emas, balki innovatsion xizmatlar tizimining integral qismi sifatida ko‘rsatmoqda. Tsai va Lo (2020) o‘z tadqiqotlarida yashil xizmat innovatsiyasi uch bosqichli modelini taklif etib, bunda xizmat dizayni, mijoz psixologiyasi va ekologik qadriyatlar uyg‘unligi asosiy muvaffaqiyat omillari sifatida e’tirof etilgan[145].Yashil innovatsiyalarni mehmondo‘stlik sohasida raqobat ustunligini shakllantiruvchi omil sifatida ko‘rsatadi[146]. Ularning fikricha, yashil tashkiliy madaniyat, ekologik mas’uliyat va raqamli texnologiyalar uyg‘unlashganda xizmat sifati va brend ishonchi kuchayadi.

Shuningdek, Firman va hammualliflar (2023) eco-product, eco-process va eco-organizational innovation turlarining barqaror turizm rivojlanishiga bevosita ijobiy ta’sirini empirik tarzda isbotlagan. Ularning fikriga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuvi va hamkorlik innovatsion yashil turizm xizmatlarini targ‘ib etishning muhim mexanizmiga aylanmoqda[147]

**Xulosa**

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmni rivojlantirishda innovatsiyalarni faqat texnologik darajada emas, balki madaniy, ijtimoiy va boshqaruv jihatlarida ham keng qo‘llash zarur. O‘zbekiston sharoitida “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida turizmda eco-digital transformation yo‘nalishlarini jadallashtirish orqali:

- energiya tejamkor xizmatlar (eco-hotels, smart transport),
- mahalliy innovatsion startaplar (green apps, agro-tour platforms),
- va ijtimoiy mas’uliyatli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish imkoniyati mavjud.

Shu tariqa, yashil turizm konsepsiyasi mamlakatning raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashuvini tezlashtiradi hamda barqaror rivojlanish maqsadlari SDGs ga erishishda muhim mexanizm vazifasini bajaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

2. Afrizal Firman, M., Moslehpour, R., Qiu, R., Lin, P.-K., Ismail, T., & Rahman, F. (2022). *The impact of eco-innovation, ecotourism policy and social media on sustainable tourism development. Economic Research – Ekonomska Istraživanja*, 36(2), 2143847. https://doi.org/10.1080/1331677X.2022.2143847

[145] Tsai, K.-N., & Lo, W.-S. (2020). *Innovative service applies to sustainable tourism: An implemented strategy. International Journal of Organizational Innovation*, 13(1), 395–402.

[146] Gürlek, M., & Köseoğlu, M. A. (2021). *Green innovation in hospitality and tourism industry: A systematic review and future research agenda.* The Service Industries Journal, 41(11–12), 739–762. https://doi.org/10.1080/02642069.2021.1929930

[147] Firman, A., Moslehpour, M., Qiu, R., Lin, P.-K., Ismail, T., & Rahman, F. F. (2023). *The impact of eco-innovation, ecotourism policy and social media on sustainable tourism development: Evidence from the tourism sector of Indonesia.* Economic Research–Ekonomska Istraživanja, 36(2), 2143847. https://doi.org/10.1080/1331677X.2022.2143847

3. Gonçalves, A. R., Dorsch, L. L. P., & Figueiredo, M. (2022). *Digital tourism: An alternative view on cultural intangible heritage and sustainability in Tavira, Portugal. Sustainability (Switzerland)*, 14(5), 2912. https://doi.org/10.3390/su14052912

4. Gürlek, M., & Köseoğlu, M. A. (2021). *Green innovation research in the field of hospitality and tourism: A systematic review and future research agenda. The Service Industries Journal*, 41(11–12), 734–766. https://doi.org/10.1080/02642069.2021.1929930

5. Xusniddinova M. Turizmda raqamli texnologiyalardan foydalanish: jahon tajribasi va O‘zbekiston uchun xulosalar. “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. 2025-yil, 3-soni.

6. Tsai, K.-N., & Lo, W.-S. (2020). *Innovative service applies to sustainable tourism: An implemented strategy. International Journal of Organizational Innovation,* 13(1), 395–402.

7. UNWTO. (2024). *Tourism Data Dashboard & Sustainable Development Goals Report.* Madrid: United Nations World Tourism Organization.

8. Slepchenko, V. A., & Voinova, Ya. A. (2022). Ponyatie i organizatsionno-ekonomicheskaya spetsifika zelyonogo turizma. Vestnik Akademii Znaniy, 53(6), 257–259.

9. Makrushina, I. V., Gorbacheva, D. A., & Kruzhkov, D. A. (2021). Vnedrenie innovatsionnykh podkhodov obsluzhivaniya v ramkakh ekologicheskogo tura. Vestnik ZKU, 4(84), 222–225.

## Mintaqalarda turizmni rivojlanishining asosiy omillari

**Turdiyeva Nigora Ahmed qizi**
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*
*Magistrant*

**Annotatsiya.** Ushbu maqoladan kelib chiqib, mintaqalarda turizmni rivojlanishining asosiy omillari tahlil qilinadi. Turizm sohasining hududiy rivojlanishdagi o‘rni iqtisodiy salohiyatni kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash hamda madaniy merosni asrash bilan chambarchas bog‘liq. Maqolada tabiiy-geografik sharoitlar, davlat siyosati, investitsiya muhitining jozibadorligi, xizmat ko‘rsatish sifati va innovatsion yondashuvlarning ta’siri atroflicha o‘rganiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash turizmni barqaror rivojlantirishda muhim omil sifatida yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Turizm, hududiy rivojlanish, iqtisodiy salohiyat, barqaror turizm, infratuzilma, raqamli texnologiyalar, xalqaro hamkorlik, innovatsion yondashuvlar, investitsiya muhitining jozibadorligi.

**Kirish**

Mintaqalarda turizm taraqqiyoti avvalo tabiiy va madaniy resurslarning mavjudligi bilan belgilanadi. Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi tarixiy yodgorliklar YUNESKO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, bu hududlarning xalqaro maydondagi obro‘sini oshirmoqda. Farg‘ona vodiysida ipakchilik, hunarmandchilik va agro-turizm yo‘nalishlari rivojlanmoqda. Toshkent viloyati, Qashqadaryo va Surxondaryo tog‘li hududlari esa ekoturizm salohiyati bilan ajralib turadi.

Turizm infratuzilmasi mintaqalarda rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. 2023-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda 1500 dan ortiq mehmonxona, 140 ta turoperator va 1200 ga yaqin gid faoliyat yuritmoqda. So‘nggi besh yil ichida mehmonxonalar soni 2 baravarga oshgani kuzatilmoqda. Shu bilan birga, transport tizimida ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Xususan, Toshkent–Samarqand–Buxoro yuqori tezlikdagi temir yo‘l liniyasi turistlarning vaqtini tejashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, turizm sohasining mamlakat YAIMdagi ulushi 2016-yildagi 2,3 foizdan 2023-yilda 5 foizga yetdi. Jahon turizm tashkiloti prognozlariga ko‘ra, 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 8 foizga yetishi mumkin. Bu esa turizmni iqtisodiy o‘sishning barqaror drayveri sifatida baholash imkonini beradi.Turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar ham muhim o‘rin tutmoqda. Ekologik barqarorlik masalasi ham turizm siyosatida ustuvor yo‘nalishdir. Ekoturizm va agro-turizmni rivojlantirish orqali nafaqat hududiy iqtisodiy rivojlanish ta’minlanmoqda, balki ekologik muvozanat ham saqlanmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik, jumladan, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari bilan qo‘shma loyihalar amalga oshirilishi mintaqaviy turizmning raqobatbardoshligini yanada mustahkamlamoqda.

Shu sababli, turizm mintaqalarda iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari va xalqaro hamkorlikning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotning ajralmas tarmoqlaridan biriga aylanib qolgan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan shuni bilish munkunki, turizm faqatgina iqtisodiy o‘sishni ta’minlabgina qolmay, balki mintaqaviy rivojlanish, bandlik darajasi, infratuzilmaning modernizatsiyasi va madaniy merosni asrashga ham xizmat qiladi. Shunga asoslanib, mintaqalarda turizmni rivojlantirish masalasi O‘zbekiston Respublikasi uchun ham dolzarb hisoblanadi. Davlatimizda bu borada qabul qilinayotgan dasturlar, qonunlar va strategiyalar hududlarning turistik salohiyatidan to‘laqonli foydalanish imkonini beradi.

**Asosiy qism**

Mintaqalarda turizm turlari hamda turistik resurslar teng taqsimlanmagan. Bu mintaqalarning turistik resurslarga qanchalik boyligi undan tashqari infratuzilma va demografiyasiga ham bog’liq hisoblanadi. Turizm sohasini mintaqaviy darajada rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillarni turli guruhlarga ajratish munkin.

Mamlakatimiz mintaqalari tabiiy, tarixiy, madaniy va etnografik resurslarga boy bo’lib, bu turizm rivoji uchun asosiy zamin hisoblanadi. Misol tariqasida, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi tarixiy shaharlarda mavjud bo‘lgan madaniy meros obyektlari, hamda, Farg‘ona vodiysi va Surxondaryodagi tabiiy go‘zalliklar ichki va tashqi

sayyohlar e’tiborini tortmoqda. Bundan tashqari yurtimizdagi barcha mintaqalar o’zining noyob landshafti va turistik resurslari bilan sayyohlar etiborini tortib kelmoqda. Ushbu resurslardan to’g’ri foydalanish orqali mamlakatimiz mintaqalarini jahonga tanitish imkoniyatini oshirish mumkin.

Turizm infratuzilmasi – bu mehmonxona, transport, aloqa, yo‘l va xizmat ko‘rsatish tizimlarining kompleksidir. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish turizm sohasining barqaror o‘sishi va mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir. Qulay hamda zamonaviy infratuzilmalarga ega bo’lish turistlar oqimini oshirish imkonini beradi. xalqaro talab va standartlarga javob beradigan aeroport, vogzal mehmonxona va boshqa jamoat joylarining ko’pligi mintaqaga sayyohlar oqimini oshiradi.




**1-rasm. Turizm sohasining barqaror rivojlantirish modeli**[148]

Turizm infratuzilmasining rivojlanishi mamlakatning xalqaro turizm maydonida raqobatbardoshligini oshirishga va iqtisodiyotning o'sishiga xizmat qiluvchi omil sifatida baholanadi.

Zamonaviy dunyoda marketing va brendingning o‘rni oshib bormoqda. Har bir hudud o‘zini jahon bozorida qanday ko‘rsata olishi turistik oqim hajmiga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, “Ipak yo‘li shaharlari”, “Ziyorat turizmi markazlari” kabi loyihalar orqali O‘zbekistonning ko‘plab viloyatlari jahon bozorida o‘z brendini yaratmoqda. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan tashkil etilayotgan festivallar, ko‘rgazmalar va reklama kampaniyalari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Investitsiyalar turizm sohasini rivojlantirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida yangi loyihalarning hayotga tatbiq etilishi, xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari yaratish orqali yirik turistik komplekslar, dam olish maskanlari va ekoturizm hududlari tashkil etilmoqda. Masalan, “Silk Road Samarkand” loyihasi – bu investitsiya orqali barpo etilgan

[148] Muallif ishlanmasi.

turizm klasterining yuksak namunasi bo‘lib, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shmoqda. Bundan tashqari turli dam olish maskanlari, jumladan: amirsoy dam olish maskani, Bukhara city shahri va boshqa yirik investitsion loyihalarni misol qilishimiz munkun.

Turizmda sayyohlarga xizmat ko’rsatish asosiy muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda iinson omili muhim o’rin kasb etadi. Turistlarga yuqori darajadagi xizmatlarni hushmuomalalik bilan taklif etish xodimlarga qo’yiladigan yuqori talablardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari muloqot qilish uchun bir nechta tillarni bilish ham xizmat ko’rsatishning bir talabi deb baholanadi. Mintaqalarda malakali kadrlarni tayyorlash uchun turli o’quv dasturlari va seminarlar tashkil qilinib kelinmoqda.




**2-rasm. O‘zbekistonga tarshif buyurgan xorijiy turistlar soni[149]**

Turizm sohasini rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asoslar zarur. O‘zbekiston Respublikasida “Turizm to‘g‘risida”gi qonun, Prezident qaror va farmonlari asosida bu yo‘nalishdagi ishlar tizimlashtirilmoqda. Har bir mintaqada Turizm departamentlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Boshqaruvning zamonaviy va raqamli yondashuvga asoslanishi turizmda barqarorlikni ta’minlaydi.

Statistikada ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. 2016-yilda 2 million nafardan iborat bo‘lgan sayyohlar oqimi 2023-yilda 6,6 million kishiga yetgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 7,5 million nafardan oshishi kutilmoqda. Ushbu barqaror o‘sish mamlakatda turizm infratuzilmasining kengayishi, vizasiz rejimlar geografiyasining kengaytirilishi hamda xalqaro marketing kampaniyalarining samaradorligi bilan bog‘liqdir.

[149] Muallif ishlanmasi.

Shuningdek, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham barqaror oshib bormoqda. 2016-yilda bu ko‘rsatkich 2,3 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda 5 foizga yetdi, 2025-yilda esa 5,8 foiz atrofida bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Bu esa turizmni mintaqalarda iqtisodiy o‘sishning barqaror manbai sifatida e’tirof etish imkonini beradi.

Hududlar kesimida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. 2025-yilda Samarqand viloyatiga 2,3 million, Buxoro viloyatiga 1,4 million, Toshkent viloyatiga 1,2 million, Farg‘ona vodiysi hududlariga esa 1,1 million sayyoh tashrif buyurishi kutilmoqda. Bu natijalar hududlarning o‘ziga xos tarixiy, madaniy va tabiiy salohiyatidan samarali foydalanilayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 2025-yil prognozlari turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotida yanada muhim o‘rin egallashini va mintaqalar rivojida asosiy drayverlardan biri sifatida shakllanishini tasdiqlaydi.Avvalambor shuni aytib o’tish joizki, tinch va xavfsiz mamlakatlarda turistlar oqimi yuqori bo’ladi. Shuni inobatga olgan holda sayyohlar uchun xavfsiz va ekologik sog‘lom muhitni ta’minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Xavfsiz hududlar hamisha turistlar etibrida bo’lmoqda. Bundan tashqari pandemiya sharoitidan keyin sayyohlar ekologik me’yorlarga amal qiladigan xizmatlarga juda katta e’tibor qaratmoqdalar. Shu bois, har bir hududda ekologik me’yorlarga amal qilish, favqulodda vaziyatlarga tayyorlik, tibbiy xizmatlar mavjudligi eng muhim talablar sirasiga kiradi. Barqaror turizm tamoyillari asosida, ayniqsa, ekoturizm va agroturizm yo‘nalishlarida mintaqalarda salmoqli natijalar kuzatilmoqda.

**Xulosa**

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, mintaqalarda turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishida muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda turizm sohasi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylanib, yangi ish o‘rinlari yaratish, xizmatlar eksportini kengaytirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda sezilarli hissa qo‘shmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yilda pandemiya sabab turizm keskin pasaygan bo‘lsa-da, 2021-yildan boshlab tezkor tiklanish jarayoni kuzatilib, 2025-yilga kelib turistlar oqimi va turizmning YAIMdagi ulushi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon qilmoqda.

Mintaqalarda turizmning samarali rivojlanishi uchun zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va madaniy meros obyektlarini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, turizmni hududiy rivojlantirish barqarorlik, ekologik xavfsizlik va innovatsion yondashuvlarga asoslangan taqdirdagina yuqori samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, turizm sohasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ham muhim omili bo‘lib, O‘zbekiston mintaqalarida uni izchil rivojlantirish mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi va “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlarga erishishda muhim kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “Turizm sohasi ko‘rsatkichlari (2016–2023 yillar)”. – Toshkent: Stat. qo‘mita nashri, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4095-son. – Toshkent, 2019.
4. World Tourism Organization (UNWTO). International Tourism Highlights, 2023 Edition. – Madrid: UNWTO, 2023.
5. Jahon banki. “Uzbekistan Economic Update: Recovery and Prospects”. – Washington DC: World Bank, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Rasmiy hisobot va tahliliy ma’lumotlar. – Toshkent, 2023.
7. Qodirov A. “O‘zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish omillari”. – Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim jurnali, №4, 2021.
8. Rasulova N. “Turizm xizmatlari sifati va xalqaro tajribalar”. – Toshkent: Turizm universiteti nashri, 2022.
9. UNWTO. International Tourism Highlights, 2023 Edition. – Madrid: UNWTO, 2023.
10. World Bank. Uzbekistan: Economic Update – Recovery and Growth through Tourism. – Washington DC: World Bank, 2023.
11. Karimova M. “Madaniy meros obyektlari va turizm rivoji”. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2020.
12. OECD. Tourism Trends and Policies. – Paris: OECD Publishing, 2022.
13. Asian Development Bank (ADB). Tourism Sector Outlook for Central Asia. – Manila: ADB Report, 2021.

## “ЎЗБЕКИСТОНДА ЯШИЛ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ МУАММО ВА ИМКОНИЯТЛАР”

**ТУРМАНКУЛОВ НОРПЎЛАТ САЪДУЛЛАЕВИЧ**
*Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги Тошкент шаҳар бошқармаси, ТДИУ мустақил тадқиқотчиси*

*“Туризм соҳасини янги босқичга олиб чиқиш учун биз “яшил туризм” ва экотуризм йўналишларини ривожлантиришимиз зарур. Бу нафақат табиатни асраш, балки мамлакатимиз қишлоқ ҳудудларини иқтисодий ривожлантиришга ҳам хизмат қилади.”*[150]

***Шавкат Мирзиёев***

[150] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 16 октябрдаги Самарқанд шаҳрида Бутунжаҳон туризм ташкилоти (ЮНВТО) Бош ассамблеясининг 25-сессияси очилиш маросимидаги нутқидан.

**Аннотация.** Мазкур мақолада Ўзбекистонда яшил туризм (экотуризм, барқарор туризм) соҳасини ривожлантиришдаги асосий муаммолар ҳамда истиқболлар илмий асосда таҳлил қилинган. Туризм секторида “яшил” йўналишни кенгайтириш давлат сиёсатидан, табиий ресурслардан самарали фойдаланишдан ва экологик барқарорликни таъминлашдан иборат. Ўзбекистонда табиий музейлар, миллатлараро маданий мерос, экологик жойлар мавжудлиги эса яшил туризм учун катта имкониятлар яратади. Бироқ, маҳаллий инфратузилма, экологик стандартлар, аҳоли ва бизнес тармоғининг онг-мафкурасидаги омиллар туризмда яшил қисмни етарлича ривожлантиришга тўсиқ бўлмоқда. Мақолада мазкур муаммолар таснифи, уларнинг сабаблари, шу билан бирга амалий ечимлар ва келгуси истиқболлар муҳокама қилинган. Илмий ва амалий тавсиялар йўналиши бўйича давлат, маҳаллий ҳокимиятлар, хусусий сектор ҳамда жамоатчилик учун таклифлар берилган.

**Калит сўзлар:** Яшил туризм, экотуризм, барқарор туризм, Ўзбекистон, табиий ресурслар, экология, инфратузилма, маданий мерос, давлат сиёсатлари.

**Кириш**

Яшил туризм-бу табиатни муҳофаза қилиш ва маҳаллий аҳоли манфаатларини таъминлашга қаратилган, атроф-муҳитга зарар етказмайдиган туризм туридир. Ўзбекистонда ҳам кейинги йилларда яшил туризмни қўллаб-қувватлаш давлат сиёсатининг муҳим қисмига айланди.

Муҳтарам Президентимиз Ш.М. Мирзиёев таъкидлаганидек: *“Туризм-бу сармоя, экспорт, янги иш ўринлари ва камбағалликни камайтиришнинг асосий манбаидир. Шу сабабли, ҳар бир ҳудудда туризмни ривожлантиришга жиддий эътибор қаратиш зарур.”*[151]

Халқаро даражада туризм сектори иқтисодий ўсиш, меҳнатлашув, табиий ва маданий меросни сақлаш учун муҳим омилга айланмоқда. Бир каби, “яшил иқтисодиёт” тамойиллари доирасида туризм фаолияти экологияга зарарсиз, табиий ресурсларни тежаб, маҳаллий жамиятга ижобий таъсир этиши лозимлиги таъкидланмоқда. Масалан, Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантириш – иккита жиҳатдан муҳим:

Биринчидан, мамлакатнинг географияси, табиий ресурслари ва маданий мероси бу йўналиш учун катта имконият тақдим этади.

Иккинчидан**,** яшил туризмни самарали жорий этиш орқали экологик барқарорликка, минтақавий иқтисодий тараққиётга ва экологик онгли туристлар учун манзиллар яратишга эришиш мумкин.

Ўзбекистонда экотуризмга оид тадқиқотлар ўсиб бормоқда. Бироқ амалий жиҳатдан туризм соҳасида яшил йўналишни кенгайтиришда бир қатор муаммолар учрамоқда. Шу сабабли, мазкур мақолада Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантиришга халақит берувчи омиллар, уларнинг

[151] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 12 июлдаги нутқидан.

сабаблари ва истиқболда амалга оширилиши мумкин бўлган ечимлар илмий асосда кўриб чиқилади.

Яшил туризмнинг назарий асослари

Яшил туризм-туризм фаолияти экологияни ҳимоя қилиш, табиий ресурсларни оқилона фойдаланиш ва жамоатчилик манфаатларини ҳисобга олиш шароитида олиб борилиши лозим бўлган йўналишдир. У экотуризм, барқарор туризм концепциялари билан боғлиқ.

Яшил туризмнинг назарий асослари бир нечта устувор йўналишларга таянади. Биринчидан, барқарор ривожланиш назарияси – экологик, иқтисодий ва ижтимоий манфаатлар ўртасида мувозанатни таъминлашга қаратилган концепция бўлиб, туризм соҳасида табиатни муҳофаза қилиш билан бирга маҳаллий жамоаларнинг даромадлари ва иш ўринларини кўпайтиришни кўзда тутади. Иккинчидан, экосистема ёндашуви яшил туризм фаолиятининг негизини ташкил этиб, ҳар бир туристик фаолият табиий экотизимларга таъсирини камайтириши лозимлигини белгилайди. Учинчидан, жамоат иштирокини таъминлаш назарияси яшил туризм лойиҳаларини маҳаллий аҳоли билан ҳамкорликда амалга ошириш, уларнинг манфаатларини инобатга олиш ва туристик даромаддан муносиб улуш олишини кўзда тутади.

**1-жадвал.**

**Ўзбекистонда яшил туризм ривожланишига таъсир этувчи омиллар таҳлили[152]**

| № | Омил номи | Ҳозирги ҳолат | Муаммо | Таклиф этилган ечим |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Инфратузилма ва сервис | Табиий ҳудудларда туризм йўллари, меҳмон уйлари кам | Етарли экологик инфратузилма йўқ | Эко-йўлаклар, яшил меҳмон уйлари, қайта тикланадиган энергия тизимлари жорий этиш |
| 2 | Экологик онг | Аҳолида экологик билим паст | Чиқиндилар маданияти етарли эмас | Экотарғибот, таълим ва тренинглар орқали онгни ошириш |
| 3 | Давлат сиёсати ва қонунчилик | Барқарор туризм стратегияси мавжуд, аммо тўлиқ амал қилмайди | Сертификация ва назорат тизими йўқ | Миллий “Яшил сертификат” тизимини жорий этиш |
| 4 | Инвестиция ва молиялаштириш | Туризмда давлат улуши катта, хусусий инвестициялар кам | Хусусий сектор фаоллиги паст | Солиқ имтиёзлари ва грант дастурлари орқали хусусий инвесторларни жалб қилиш |

[152] Muallif ishlanmasi.

Инфратузилмани модернизация қилиш ва стандартлар жорий этиш

Табиий ҳудудларда эко-йўлаклар, педагогик инфратузилма, тадбиркорликни қўллаб-қувватловчи марказларни ташкил этиш мақсадга мувофиқдир

Масалан, экосертификация тизимини жорий этиш, меҳмонхоналарда энергия тежамкорлик техникасини жорий қилиш.

Хусусий сектор ва маҳаллий ҳокимиятлар ўртасида шерикликни кучайтириш, хорижий инвестицияларни жалб қилиш, туризм субъектлари учун яшил йўл хариталари (road-map) тайёрлаш.

Туристик маҳсулотларни диверсификация қилиш: фақат археология-тарихий туризмдан тортиб, табиий йўналишлар (чангал, тоғ, экозоналар) ва маданий-экологик туризмга ўтиш.

**2-жадвал.**

**Яшил туризмнинг иқтисодий, экологик ва ижтимоий самаралари[153]**

| ***Йўналиш*** | ***Асосий самара*** | ***Ўзбекистон учун кутилган натижа*** |
|---|---|---|
| **Иқтисодий** | Яшил хизматлар бозорини яратиш, янги иш ўринлари | Минтақавий иқтисодий ўсиш, тадбиркорлик фаоллиги ошиши |
| **Экологик** | Табиий ресурсларни тежаш, чиқиндиларни камайтириш | Миллий боғлар ва табиий ҳудудларни муҳофаза қилиш |
| **Ижтимоий** | Аҳолининг экологик онгини ошириш | Маҳаллий жамоаларнинг туризм орқали даромад олиши |
| **Маданий** | Мерос объектларини муҳофаза қилиш | Туризм орқали миллий қадриятларни оммалаштириш |

Маълумки, туризм иқтисодиёт учун қўшимча ва туганмас манба. Шу боис ҳар бир давлат сайёҳларни жалб этишга ҳаракат қилади. Мамлакатимизда бу соҳага кенг имкониятлар яратилаётгани натижасида меҳмон ўринлари, саёҳат жойлари ва йўналишлари кўпайиб бормоқда.

Яшил туризмнинг 2020-2025 йилларда иқтисодий таъсирини қуйидаги диаграмма орқали кўришимиз мумкин.

[153] Muallif ishlanmasi.




**1-расм. Яшил туризмнинг иқтисодий таъсири (2020–2025 йилларда ЯИМга ҳиссаси, %)[154]**

Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантириш давлат сиёсати даражасида кўтарилди. Қуйидаги таҳлилий диаграмма орқали 2020–2025 йилларда яшил туризм лойиҳалари сони қарийб 4 баробарга ошгани кузатилмоқда, бу давлат сиёсатининг самарадорлигини кўрсатади.

Яшил туризмни ривожлантириш Ўзбекистон учун экологик барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва жамият фаровонлигини бир вақтнинг ўзида таъминлайдиган замонавий йўналишлардан бири ҳисобланади. Мамлакатдаги бой табиий ландшафтлар, борлиқ муҳитнинг ноёб биохилмахиллиги, маданий мерос объектлари ва миллий қўриқхоналар ушбу соҳа учун кенг истиқболлар яратади.

Президентимиз Ш.М. Мирзиёев таъкидлаганидек, *“Экологик маданиятни ошириш ва яшил иқтисодиётга ўтиш-келажак авлодлар олдидаги масъулиятимиздир”*. Ушбу позиция яшил туризмни стратегик устувор йўналиш сифатида кўрсатади.

[154] www.stat.uz ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.




**2-расм. Давлат сиёсатларининг яшил туризмга таъсир даражаси (2020–2025 йиллар таҳлили)[155]**

Ўзбекистонда яшил туризмнинг истиқболлари кенг. Тадқиқотларда мамлакатнинг табиий имкониятлари (тоғлар, чўллар, миллий боғлар) эко-туризм учун катта салоҳиятга эга экани қайд этилган.

Шу билан бирга, туризм секторида яшил амалларни жорий қилиш орқали мамлакат халқаро туристик харитада экологик ва маданий жиҳатдан жозибали манзилга айланиши мумкинлиги таъкидланган.

Қолаверса, маҳаллий аҳоли учун қўшимча даромад манбаи яратиш, минтақавий тараққиётни рағбатлантириш, маданий ва табиий меросни сақлаб қолиш имкониятлари мавжуд.

**Хулоса**

Ўзбекистонда яшил туризм сектори келгусида миллий иқтисодиётнинг муҳим драйверларидан бирига айланиши мумкин. Ушбу йўналиш экологик хавфсизликни таъминлаш, туризм брендини кучайтириш, янги иш ўринлари яратиш ва табиатни муҳофаза қилиш каби устувор мақсадларга хизмат қилади. Давлат сиёсати, хусусий сектор фаолияти ва жамоатчилик иштирокининг уйғунлашуви натижасида Ўзбекистон Марказий Осиёдаги етакчи экотуризм марказларидан бирига айланиш истиқболига эга.

Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантириш амалий ва стратегик жиҳатдан муҳим йўналишдир. мамлакатнинг табиий ресурслари, маданий мероси ва давлат сиёсати бу учун муваффақиятли асос яратади. Бироқ, инфратузилма етарсизлиги, экологик онгнинг пастлиги, норматив-ҳуқуқий

[155] www.stat.uz ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

базадаги камчиликлар ва табиий ва маданий муҳитнинг туризм таъсиридан зарарланиши каби муаммолар мавжуд.

Шу сабабли, яшил туризмни самарали ривожлантириш учун комплекс ёндашув -инфратузилма ва стандартларни такомиллаштириш, жамоатчилик иштирокини ошириш, давлат сиёсатларини янгилаш ва маркетингни фаоллаштириш лозим. Агар ушбу чоралар жадал амалга оширилса, Ўзбекистон яшил туризм борасида Марказий Осиёда лидер манзилига айланиши мумкин.
Муаллиф томонидан берилган таклифлардан келиб чиқиб, илмий ва амалий жиҳатдан қўшимча тадқиқотлар, мониторинг тизимлари, маҳаллий жамоалар билан ҳамкорликда пилот лойиҳалар амалга оширилиши мақбулдир.

**Фойдаланилган адабиётлар**


1. Rasulova N. Yu. “Research models of green tourism development.” *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, Vol. 31, August 2024.
2. Umarova F. «Potential of Ecotourism in Uzbekistan: Regional Aspect». *E3S Conferences*, 2024.
3. Karimov M. et al. “Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and…” *MDPI Economics*, 2025.
4. Khamzayeva D. «Ecological type of tourism in Uzbekistan: Development prospects». *World Bulletin of Social Sciences*, Vol. 34, 2024.
5. Rikhsibaevna S. S. «Environmental sustainability in tourism». *Labour Economics and Human Capital*, 2025.
6. «Ecotourism in Uzbekistan: Issues affecting on future prospects». *CyberLeninka*,
7. «Green economy in tourism in Uzbekistan». (ResearchGate)
8. Nuriddinov R. «Ecotourism potential and challenges in Uzbekistan». *ICEFAS*, 2024.
9. «Organizing ecotourism in Uzbekistan». *American Journal for Business Management and Economics*, 2023.
10. Usmanovich R. D. «Strategies, challenges, and future prospects». *CAJITMF Journal*, 2025.


## O‘zbekistonda ekoturizm sohasining samaradorligini oshirish masalalari


**Zokirjanova Xusnida Boburjon qizi**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-kurs turizm va mehmondóstlik yónalishi magistranti*



**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda ekoturizm rivoji bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning samaradorligi ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan. Yashil turizm bo‘yicha ilmiy ishlar o‘rganilib, xulosalar bayon etilgan.



**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, turist, fauna, flora, ekoturizm, ekolog-gid.

## Kirish

Iqtisodiyotda xorijiy tajribalar asosida jahonda turizm turlari va sohalarini rivojlantirish, sohaning muammolari va istiqbollarini o‘rganish, mavjud ichki resurslarni tahlil qilish, tarmoq tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, zamonaviy turizm va “yashil” turizmning o‘zaro uyg‘unligini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, hududlarning sayyohlik salohiyatini namoyish etish va uni keng targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlarni uyushtirish, turizm sohasida zamonaviy aloqa va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, yangi sayyohlik tarmoqlarini rivojlantirish, mavjud madaniy yodgorliklarni ta’mirlash va qayta tiklash orqali sohani yanada taraqqiy ettirish bo‘yicha maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uning ma’naviyati, ilm-fani, madaniyati, ma’rifati, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarning ona vatanimiz tabiatiga qiziqishini oshirish, noyob o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash hamda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan flora va faunaning muammolarini hal etishga asoslanadi. Bundan tashqari, iqtisodiy masalalar mahalliy aholi turmush darajasini yuksaltirish, ularni ish bilan ta’minlash, dunyoga mashhur qadimiy shaharlarimiz va tarixiy yodgorliklarimizni asrab-avaylash, xorijiy sayyohlarni jalb etish, mamlakatimizni yanada obod qilish va vatandoshlarimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda turizm dunyoda eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi.

## Adabiyotlar sharhi

Jahon turizmi oqimi rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga yo‘nalmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning turizm sohasi asosan ekoturizm hisobiga rivojlanmoqda. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, ekoturizm turizm bozorining 10-20 foizini tashkil etib, uning o‘sish sur’ati turizm sohasining umumiy o‘sishidan bir necha barobar yuqori. Tabiiyki, dunyoning noyob o‘simlik va hayvonot dunyosi, arxeologik topilmalar, paleontologik qoldiqlar, nodir geologik hududlar va tabiat yodgorliklari chet ellik sayyohlarning e’tiborini tortmoqda.

Shuni ta’kidlash lozimki, ekoturizm resurslariga juda boy bo‘lgan mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishga bo‘lgan talab yetarli darajada emas. Buning asosiy sabablaridan biri Markaziy Osiyodagi yuzlab va minglab noyob hayvonlarni muhofaza qilish uchun zarur shart-sharoitlarning yo‘qligi, shuningdek, milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar atrofida yashovchi aholining e’tiborsizligidir. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o‘simliklarni shafqatsizlarcha yo‘q qilish orqali tabiat bog‘lari va qo‘riqxonalariga jiddiy zarar yetkazmoqda. Bunday muammolarni hal etish va jahon standartlariga javob bera oladigan yangi milliy bog‘larni yaratish uchun, eng avvalo, O‘zbekistonda ekoturizmning salohiyatli ko‘rsatkichlari, maqsadlari, tashkiliy-huquqiy, ekologik ta’lim va ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlarini o‘z ichiga olgan sohani rivojlantirish omillari tizimini puxta ishlab chiqish lozim. Sohani rivojlantirish omillari tizimini puxta ishlab chiqish lozim.

Ekoturizmni rivojlantirish tabiat, madaniyat va inson omilini birlashtiradi, atrof-muhit muvozanatini saqlaydi, mahalliy aholining tabiiy resurslarini asrash va muhofaza qilishga xizmat qiladi. Ekologik vaziyat ba'zan omil yoki komponentga nisbatan sodir bo'ladi. Rossiyalik olimlar Y.V. Novikov, R.O. Beknazov [1], A.G.Bannikov, A.K.Rustamov [2] hech qanday ekotizimni ekologik vaziyat bilan ajratmaslikni, ekologik vaziyat tabiiy ekologik muhitning buzilishi degan xulosaga kelmaslikni tavsiya qiladilar. Ularning ta'kidlashicha, ekologik vaziyatni tabiat kompleksining buzilishi sifatida talqin qilish aholi o'rtasida notinchlik, turli xil dezinformatsiyalarning tarqalishiga olib keladi va bu holatlar oxir-oqibatda ommaviy noroziliklarga olib keladi.

Taniqli olim M. Hoshimovning fikricha, "Ekoturizm insonni tabiiy muhit bilan bog'laydi, tabiatga mehr-muhabbat uyg'otadi, tabiatni muhofaza qilishga undaydi. [3]. Iqtisodchi A. Rafikov [4] O'zbekistonda ekologik vaziyatning shakllanishini bir omil yoki bir resurs bilan bog'liq holda o'rgangan. Taniqli olimlar K.Abirqulov, A.Xojimatov va A.Rafiqovlarning [5] fikriga ko'ra, O'zbekistonning aksariyat katta hududlaridagi ekologik vaziyat suv resurslarining ifloslanishi bilan bog'liq. Ekoturizm tabiiy turizm infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, u shunchaki g'oya emas, balki umuman turizmning ma'lum bir turi bo'lib, uning atrof-muhitga ta'siri turlicha (salbiy, neytral va ijobiy) bo'lishi mumkin. Ekoturizm tushunchasi qo'riqxonalar va tabiat bog'larining zamonaviy faoliyatida keng qo'llaniladi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga mas'ul bo'lgan Turizm va sport vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, shuningdek, ekoturizmni rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi boshqa sudlar va agentliklar hamda turizm tashkilotlari tanlab olindi. Bugungi kunda ekoturizm mahsulotlari xorijiy va mahalliy sayyohlar orasida katta talabga ega. Ta'kidlash joizki, qo'riqlanadigan hududlarda ekologik marshrutlarni yaratish va amalga oshirishdan oldin turistik tashkilotlar ushbu hududlar ma'muriyati, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, shuningdek, "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi yoki "O'zstandart" agentligi bilan hamkorlik qilishi kerak. Tabiat sayohatlarini tashkil etish haqida fikr yuritilganda ko'pincha "ekoturizm" atamasi ishlatiladi. Darhaqiqat, ekoturizm, bir tomondan, turizm bozoridagi jadal rivojlanayotgan tarmoq bo'lsa, ikkinchi tomondan, insonning tabiatga ijobiy ta'siriga asoslangan tizimdir.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Ekoturizmni boshqarishni takomillashtirishning ilmiy-amaliy yo'nalishlarini o'rganish va ishlab chiqish sohani rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Davlat ekologiya qo'mitasi va Turizm va sport vazirligi quyidagi asosiy shartlarni bajarishni taklif qiladi:

• Ekoturizm sohasining yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishini o'rganish va bu jarayonga oid qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

• mahalliy uyushmalar (assotsiatsiyalar) darajasida ekoturizmni rivojlantirish orqali mahalliy aholining ijtimoiy himoyasini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

• Ekoturizmni rivojlantirish shartlari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini baholash;

• Ekoturizmni rivojlantirish strategiyalari va istiqbollarini prognozlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

• Ekoturizm uchun milliy hududni rayonlashtirishni takomillashtirish va uni kelgusida rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash.

**Tahlillar va natijalar**

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda ko‘plab muammolar mavjud, ammo ularning aksariyati o‘zlashtirilishi, to‘g‘ri yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan salohiyatga ega va bu yo‘nalishda jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Malakali kadrlar (ekolog-gidlar, sohaga oid ma’lumot tarqatuvchilar, gidlar) tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalar kiritilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizning ayrim hududlari va ulardagi turizm imkoniyatlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlarning mavjud emasligi muammosini bartaraf etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun sifatli axborot va ekologik ta’lim alohida e’tiborga loyiqdir. Ekoturizmni ommaviy axborot vositalarida targ‘ib qilish, shubhasiz, ekoturizmga bo‘lgan qiziqishni oshirish va jalb qilishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, eng muhim jihatlardan biri reklamaga ko‘proq e’tibor berishdir. Reklamaning asosiy vazifalari xaridorlarni jalb qilish, u yoki bu mahsulot va xizmatning tarqatilishini ta’minlash, kim yoki nima haqida ma’lumot tarqatish deb tushunilsa, ularning ahamiyati ekoturizmni targ‘ib qilishning hozirgi holati uchun juda qulaydir. U xizmatlardan foydalanishga jalb qilish orqali talabni shakllantirishga yordam beradi. Yangi mahsulotlarni bozorga olib chiqishda reklama inson faoliyatining turli sohalari bo‘yicha bilimlarni tarqatishni muvofiqlashtiradi, o‘zining tarbiyaviy vazifasini namoyish etadi va iste’molchilarga muayyan amaliy ko‘nikmalarni singdiradi. Albatta, tabiiy qo‘riqxonalarga xos bo‘lgan tabiiy landshaftlarning rangli tasvirlari kataloglari ishlab chiqilgan. Ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ichki va xalqaro turizmda 70-80% sayyohlar tabiat qo‘riqxonalarining noyob faunasi, ayniqsa, yovvoyi tabiat bilan qiziqadi.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish natijasida mamlakatimizning ichki va tashqi, shuningdek, iqtisodiy sohadagi salohiyatini oshirish rejalashtirilgan. Bizning oldimizda turgan vazifa turizmning ushbu yo‘nalishida nazariy asoslarni ishlab chiqish va qo‘llashdan iborat.

**Xulosalar**

Tadqiqot natijasida mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish uchun quyidagilarni taklif etamiz: Xalqaro standartlar va talablarga muvofiq fan va iqtisodiyotga asoslangan yirik, qisqa va uzoq muddatli loyihalar hamda biznes rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Shu bilan birga, biznes rejaning

tabiat bilan uyg‘unlik darajasi va atrof-muhitga zarar yetkazmasligi (yumshoq kreditlar asosida) ga e’tibor qaratish muhimdir. Mamlakatimizning tarixiy obidalari, go‘zal va betakror tabiati, landshafti, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida bukletlar, turistik atlaslar va xaritalar yordamida jahon ekoturizm bozorida targ‘ibot ishlarini olib borish lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, ekoturizmni rivojlantirish tabiatga e’tibor qaratish, yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, turistlar ulushini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o‘rmonlarni tiklash choralarini ko‘rish, tabiiy hududlarni kengaytirish orqali kasalliklarning oldini olishdan iborat.

**Foydalanilgan manbalar ro‘yxati**

1. Новиков Ю.В., Бекназов Р.У. Охрана окружающей среды.-Т.: Изд.-полиг.объединение им.Ибн Сины, 1992. 292 с.
2. Банников А.Г.,Рустамов А.К. Охрана природа.-М.:Колос,1999-178с.
3. Hoshimov M.A. Uzbekistan ecotourism. Monograpg.- Samarkand, “Zarafshon”,2009, p-99.
4. Rafikov A.A. Geoecological problems.- Tashkent.: “O’qituvchi”, 1997, p-111.
5. Rafiqov A.A., Abirqulov Q.N., Hojimatov AI, Ecology.-T .: TSUE, 2004, p-99

## XALQARO MEHMONXONADA XIZMATLAR SIFATI VA STANDARTLARI

**Qodirova Sarvinoz Ravshanjon qizi**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda xalqaro mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish sifatining ahamiyati, xizmat sifatini baholash modeli yoritilgan va xalqaro mehmonxonalar ximzat sifatiga tegishli standartlar tizimli ravishda tahlil qilingan

**Kalit so‘zlar:** turizm, mehmonxona, xizmat, xizmat sifati, standard

**Kirish**

Turizm sohasining dunyo bo`yicha jadal rivojlanishi mexmonxona biznesiga bo`lgan ehtiyojni oshiribgina qolmay, ularga qo`yiladigan talabarning ham ko`payishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, xalqaro mehmonxonalar tarmog`ida xizmat ko`rsatish sifati raqobatbardoshlikning eng muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Xizmat sifati nafaqat mijozlarni qoniqtirish va yaxshi taassurot qoldirish uchun, balki mehmonxonaning obro`sini, brend qiymatini va foyda keltiruvchi imkoniyatarini belgilovchi omil sifatida ham qaraladi.

Xizmat sifati — bu mijozning kutgan xizmat darajasi bilan amalda olgan xizmatining mos kelish darajasidir. Mehmonxonada xizmat sifati qabulxona, xonalarni tozalash, ovqatlanish xizmati va boshqa qo`shimcha xizmatlar bo‘limlarida baholanadi. Mehmonxona biznesini muvaffaqiyatli amalga oshirishda xizmat ko'rsatish sifatining rolini inkor etib bo'lmaydi. Mehmonxona menejerlari uchun mijozlar nimani xohlashlarini yaxshi tushunish juda muhimdir. Mijozlarning o'ziga xos talablarini, xizmat ko'rsatish sifatining o'lchamlarini va ularning o'ziga xos segmentdagi mijozlar uchun ahamiyatini aniqlash menejerlarga xizmat sifatini yaxshilashda yordam beradi.

**Asosiy qism**

Xizmat sifatini baholashda SERVQUAL modelining ham ahamiyati katta hisoblanadi. SERVQUAL modeli — bu xizmat ko‘rsatish sifatini baholash va tahlil qilishga mo‘ljallangan ilmiy asoslangan yondashuv bo‘lib, u 1985-yilda amerikalik olimlar A. Parasuraman, V. Zeithaml va L. Berry tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu model xizmat sifati — mijozning kutgan xizmati bilan real olgan xizmati o‘rtasidagi farq orqali aniqlanishini ta’kidlaydi. Bu model 5 ta asosiy yo`nalishni o`z ichiga oladi: ishonchlilik, moddiy-texnik vositalar, javobgarlik, ishonch uyg`otish va hamdardlik.




**1-rasm. Xizmat sifatini baholashning SERVQUAL modeli**

Xalqaro mehmonxonalarda xizmat sifatini me`yorlarini belgilab beradigan va shu asosida faoliyat yuritilishi kerak bo`lgan standartlar mavjud bo`lib, ular sifatni saqlab qolish va mehmonxona obro`sini yanada mustahkamlashga katta hissa qo`shadi. ISO 22483:2020 standarti turizm sohasi, xususan mehmonxona xizmatlari uchun ishlab chiqilgan bo`lib, ushbu hujjat joylashtirish vositalari va ularda ko‘rsatiladigan xizmatlarga umumiy talablarni belgilaydi, standartlarning

me'yor va qoidalari joylashtirish vositalarinig barcha turlari va ularda ko‘rsatilagidan xizmatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

ISO 22483:2020 standarti turli o‘lchamdagi va turli darajadagi mehmonxonalarga tatbiq etilishi mumkin, ayniqsa 3 yulduzli va undan yuqori darajadagi mehmonxonalarda to‘liq joriy etiladi hamda davlatlar, xususiy sektor va investorlarga sifat kafolatli xizmatlar yaratishda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

**Muhokama**

Sifat to`g`risida gap ketganda mehmonxona yulduz toifalari ham bu borada muhim rol o`ynaydi. Chunki yulduzlar soni mehmonxonaning xizmat ko‘rsatish darajasi, qulayliklar sifati, infratuzilma rivoji va mijozlarga taklif etilayotgan qo‘shimcha xizmatlar to‘g‘risida aniq tasavvur beradi. Har bir yulduz mezoni — tozalik, gigiyena, xizmatlarning uzluksizligi, xodimlar malakasi va mijozlarga bo‘lgan munosabat kabi omillar asosida belgilanadi. Shu sababli, yulduz toifalari mehmonlar uchun ishonchli ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi hamda mehmonxonalar o‘rtasidagi raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Masalan, 1 yulduzli mehmonxonalar minimal qulayliklarga ega bo‘lsa, 5 yulduzli mehmonxonalar yuqori darajadagi xizmatlar, hashamatli infratuzilma va mijozlarga individual yondashuvni taklif etadi.

Bulardan tashqari Har bir yirik mehmonxona tarmog‘i o‘ziga xos ichki xizmat protokoli va brend strategiyasiga ega. Bu standartlar asosan, xizmat sifatini bir me’yorga soladi, mijoz xavfsizligi va qulayligini ta’minlaydi, sodiq mijozlar bazasini shakllantiradi.

Misol tariqasida bir nechta xalqaro brend mehmonxonalari ichki standardlarini ko`rib chiqadigan bo‘lsak, CleanStay — Hilton mehmonxonalari guruhi tomonidan 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi davrida joriy etilgan global gigiyena va xavfsizlik protokoli. Bu standartni Hilton kompaniyasi Lysol va Mayo Clinic bilan hamkorlikda ishlab chiqqan. Uning asosiy jihatlari shundan iboratki, xonalarni chuqur dezinfeksiya qilish (eski “tozalandi” emas, balki “dezinfeksiya qilindi” tamg‘asi)jarayonini amalga oshiradi; tez-tez tegiladigan joylar (eshik tutqichi, pult, lift tugmalari) alohida tozalanadi hamda raqamli kalit orqali xonaga kontaktiz kirish (Hilton Honors ilovasi orqali) amalga oshiriladi.

World of Hyatt – Hyatt mehmonxonalari guruhining sodiqlik dasturi va xizmat falsafasi bo‘lib, mehmon tajribasini chuqurroq individuallashtirishga qaratilgan.Muhim jihatlari shundan iboratki, Tier-based tizim: “Member”, “Discoverist”, “Explorist”, “Globalist” darajalari mavjud bo`lib, har daraja mehmon uchun ko‘proq imtiyozlar taqdim etadi: bepul xona yangilanishi, kech chiqish, eksklyuziv xizmatlar. Wellbeing konsepsiyasi: mehmon salomatligi, ruhiy osoyishtaligi va dam olish sifati birinchi o‘ringa qo‘yiladi (masalan, spa, yoga, sog‘lom ovqatlanish menyusi) kabilarni taklif etadi.

**Xulosa**

Xulosa o`rnida aytish joizki, yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish mehmonxonaning nafaqat obro‘sini, balki raqobatbardoshligini va barqaror

rivojlanishini ta’minlaydi. Xalqaro tajribaning milliy mehmonxona sohasiga tatbiq etilishi esa mahalliy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish, xorijiy sayyohlarni jalb qilish va turizm salohiyatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Turizm xizmatlar sifatini boshqarish. A. Yulchiev, 2023.
2. “Xalqaro mehmondo‘stlik sanoati tajribasini O‘zbekistonda qo’llash” ilmiy maqola Nigora Shaymanova 2021.
3. “Mehmonxona xizmatlari sifatini boshqarish” Nurmetova M. dissertatsiya. Toshkent-2023.
4. https://old.gov.uz/
5. https://www.geeksforgeeks.org/servqual-model-of-service-quality/
6. https://www.iso.org/obp/ui/ru/#iso:std:iso:22483:ed-1:v1:en
7. https://www.hiltongrandvacations.com/en/cleanstay
8. https://world.hyatt.com/content/gp/en/program-overview.html

# ТУРИЗМ САЛОҲИЯТИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ УНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШИ АСОСИДИР

**Иватов Ирисбек,**
*ТДИУ “Туризм ва меҳмонхона бизнеси” кафедраси профессори. И.ф.д., проф.*

**Норбеков Хурсандмурод Ўктам ўғли,**
*Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университетининг Жиззах филиали “Иқтисодиёт ва туризм” кафедраси ўқитувчиси*

**Аннотация.** Мазкур мақолада Ўзбекистонда туризм салоҳиятидан самарали фойдаланишнинг иқтисодий ва ташкилий асослари, шунингдек, унинг барқарор ривожланишга кўрсатадиган таъсири илмий жиҳатдан ёритилган. Муаллифлар томонидан “2022–2026 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш стратегияси” доирасида амалга оширилаётган давлат сиёсати, инфратузилмани модернизация қилиш, электрон виза тизимини соддалаштириш, “яшил туризм”ни ривожлантириш ҳамда маданий мерос объектларидан оқилона фойдаланиш каби устувор йўналишлар таҳлил қилинган. Ўзбекистоннинг тарихий-маданий мерос салоҳияти — Самарқанд, Бухоро, Хива, Шаҳрисабз ва бошқа шаҳарлардаги ноёб ёдгорликлар мисолида туризмга бўлган талабнинг шаклланиши, жаҳон бозорларида рақобатбардошлик омиллари ва сайёҳлар оқимининг ўсишига таъсир қилувчи факторлар кўриб чиқилган. Шунингдек, БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилоти томонидан берилган баҳолар ва халқаро экспертлар иштирокидаги сессиялар натижалари асосида Ўзбекистоннинг глобал туризм маконидаги ўрни ва тараққиёт истиқболлари асосланган. Тадқиқот натижалари ҳудудий туризм салоҳиятидан самарали фойдаланишнинг иқтисодий механизмларини белгилашга хизмат қилади.

**Калит сўзлар:** Туризм салоҳияти, Барқарор ривожланиш, Туризм инфратузилмаси, Маданий мерос объектлари, Туристик рақобатбардошлик, “Яшил туризм”, Стратегик ривожланиш.

## Кириш

Туризмни мамлакат иқтисодиётининг стратегик тармоғи сифатида жадал ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, ҳудудларнинг улкан туризм салоҳиятидан янада тўлиқ ва самарали фойдаланиш, миллий туризм маҳсулотларини яратиш ва уларни жаҳон бозорларида тарғибот қилиш, илғор тажрибаларни жорий этиш ҳисобига туризм соҳасида Ўзбекистоннинг ижобий қиёфасини намоён этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. “2022-2026 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш стратегияси” доирасида ички ва ташқи туризм оқимини ошириш, электрон виза тизимини соддалаштириш, “яшил” ва маданий мерос туризмини рағбатлантириш, транспорт-логистика инфратузилмасини

яхшилаш ҳамда маҳаллий жамоалар иштирокини кенгайтириш каби вазифалар белгиланган.

Ўзбекистон қадимдан тарихий обидаларга бой мамлакат. Аммо ушбу объектлар мустақилликкача туристик объект сифатида фойдаланилмасдан келинарди. Самарқанд шаҳрида ўтказилган БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилоти Ижроия кенгашининг 99-сессиясида эътироф этилишича Ўзбекистон сайёҳлик кўлами ва тарихий қадамжолари кўплиги бўйича дунёдаги етакчи ўн мамлакат қаторида туриши қайд этилди. Буларга Самарқанддаги Регистон мажмуаси, Улуғбек расадхонаси, Бухоронинг кўҳна Арк қалъаси, Сомонийлар мақбараси, Хиванинг Ичанқалъаси, Қаршининг Одина, Кўкгумбаз обидалари, Шаҳрисабзнинг Оқсарой маданий ёдгорлиги, Қўқон ўрдаси доимо сайёҳлар билан гавжум. Уларнинг ҳар бири ҳамиша дунё аҳлини ўзига ром этиб келган. Самарқанд шаҳрида ўтказилган БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилоти Ижроия кенгашининг 99-сессиясида БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилотига аъзо давлатлар вакиллари, шунингдек, АҚШ, Франция, Испания, Германия, Греция, Хорватия, Хитой, Жанубий Корея, Япония, Ҳиндистон, Миср, Индонезия, Сингапур, Таиланд каби ўнлаб мамлакатлардан мутахассислар, халқаро туризм ташкилотлари раҳбарлари, экспертлар иштирок этган эди.

Ўзбекистонда туризм саноатининг асосий капиталига йўналтирилган инвестициялар ҳажми 2023 йилда 66,4 миллиард сўмни, меҳмонхона ва бошқа жойлашув воситалар сони 910 тани, жойлаштириш воситаларидаги хоналар сони 22,0 мингтани ташкил қилади. Натижада туризм хизматлари экспорти 951 миллион АҚШ долларини ташкил этди, туризм фаолияти билан шуғулланадиган субъектлар сони 418 тага етди[156]. Кўриниб турибдики, ушбу соҳа ҳам кескин ривожланмоқда. Лекин мамлакатимизда туризм индустриясини янада тараққий эттириш учун яна бир қатор ишларни амалга ошириш зарурати бор. Чунки бизнинг мамлакатимиздаги мавжуд туристик салоҳият хорижий туристлар сонини экспертларнинг баҳолашича яна 10 мартадан зиёдга оширилиши мумкин экан.

**Асосий қисм**

Ўзбекистонда туризм ривожланган ҳудудлар сони 4та бўлиб, булар, Тошкент шаҳри, Самарқанд, Бухора, Хоразм вилоятларидир. Булар ичида энг ажралиб тургани Тошкент шаҳри ҳисобланади. Чунки бу шаҳар мамлакат пойтахти бўлгани учун ҳам бу ерга келувчилар сони кўпчиликни ташкил қилади. 2023 йилда Тошкент шаҳрига мамлакатга ташриф буюрган туристлардан тушадиган даромад 48%ни ташкил этган ҳолда, Самарқандда бу кўрсаткич 28%ни, Бухорада 15%ни, Хоразмда 10%ни ташкил этган. Ўзбекистоннинг бошқа ҳудудларида туризмнинг ривожланиши бўйича жуда паст кўрсаткичларга эгамиз. Хусусан, Жиззах, Сирдарё вилоятларида ички ва ташқи туристларни бу ерларга ташрифи деярли сезилмайди.

Вилоятнинг иқтисодий географик ўрнининг қулайлиги унинг ижтимоий-

[156] Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш Давлат қўмитаси маълумотлари.

иқтисодий, маданий равнақи учун қулай имкониятлар яратади. Иқтисодий географик ўрнининг муҳим хусусиятларидан бири-Жиззахни Республикамиз миқёсида энг ривожланган Тошкент ва Самарқанд вилоятларининг ўртасида жойлашганлигидир. Бу ҳолат вилоят иқтисодиётининг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатмоқда. Жиззах Республика марказида жойлашганлиги сабабли барча вилоятлар ўзаро иқтисодий алоқаларини вилоят ҳудудидан ўтадиган йўллар орқали олиб борадилар.

Жиззах вилоятини ташкил этиш туғрисидаги 1973 йилнинг 29 декабридаги фармонга асосан Самарканд вилоятидан Бахмал, Ғаллаорол ва Зомин туманлари, Сирдарё вилоятидан Фориш, Жиззах, Дустлик, Пахтакор, Мирзачўл ва Зафаробод туманлари янги ташкил этилган вилоят таркибига киритилди. 1975 йилнинг 26 ноябрида Арнасой тумани, 1979 йил 7 декабрида Зарбдор тумани, 1999 йил Янгиобод тумани ташкил этилиб Жиззах вилояти таркибига қўшилди. Ҳозирги вақтда вилоят таркибида 12 туман, вилоятга буйсинувчи 2 та шаҳар, яъни Жиззах ва Даштобод шаҳарлари мавжуд. Вилоят ахолиси 2024 йилда 1575 минг кишидан иборат.

Жиззах вилояти Ўзбекистонни марказий минтақасида жойлашган бўлиб, майдони 21,1 минг кв. км.дан иборат, бу республика майдонининг 4,5 фоизини ташкил этади. Жиззах вилояти майдонининг катталиги жиҳатидан республика вилоятлари орасида Навоий, Бухоро, Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятларидан кейин бешинчи ўринда туради. Ҳудудининг узунлиги ғарбдан шарқга 150 км, шимолдан жанубга 175 км.ни ташкил этади.

Эндиликда ривожланган мамлакатлар ҳисобланган АҚШ, Буюк Британия, Германия, Италия қўшни мамлакатлар Хитой, Покистон, Ҳиндистон, Туркия, Эрон, ҳамдўстлик давлатлари Россия, Белоруссия, Қозоғистон ва бир қатор бошқа мамлакатларнинг фирма ва комнаниялари билан яқин иқтисодий алоқалар амалга оширилмокда. Бугунги кунда вилоят ҳудудида 60 дан ортиқ қўшма корхоналар фаолият кўрсатмоқда.

Жиззах VI- асрдан маълум бўлиб, араблар келмасдан олдин ўз аҳамияти жиҳатидан Усрушона давлатининг энг йирик шаҳарларидан бири ҳисобланган. Амир Темур ва Темурийлар даврида Жиззах яна ҳам ободонлашиб, савдо-сотиқ ривожланиб борган.

Ўзбекистоннинг кўпгина гўшалари қаторида Жиззах вилоятида ҳам ўзига хос табиий-географик хусусиятга эга масканлар, имкониятлар бисёрдир. Вилоятнинг иқлими, умуман олганда, кескин континентал бўлишига қарамасдан, ҳаттоки ёзнинг чилласида ҳам мазкур ҳудудда йилнинг тўрт фаслига хос иқлимни кузатиш мумкин. Масалан, айни июль ойида Жиззах ҳудудида 40°С-50°С ҳароратли иссиқ, жазирамага дуч келинса, дашт ва тоғолди ҳудудларда деярли барча мева-сабзавот ва полиз маҳсулотлари ғарқ пишиб етилади, Айдар-Арнасой кўллар тизими, Зомин миллий табиий боғи Зоминнинг юксак тоғлари оралиғидаги масканларда энди ўрик довуччаси ёки бошқа меваларнинг нишонаси бўй кўрсата бошлайди, Ўзбекистондаги қадимий цивилизацияларга оид тошлардаги битикларни ва ҳайвонот оламининг ноёб турларини фақат Фориш ҳудудида кўриш имконияти яратилган. Буларнинг барчаси ўзига хос жозибани, жумладан туризм жозибадорлигини касб этиши

мумкин.

Ўтган йиллар мобайнида республикамизнинг кўпгина минтақаларидаги тарихий, диний обидалар, буюк сиймолар абадий қўним топган манзиллар, даҳмалар, масжиду мадрасаларни қайтадан тиклаш ва таъмирлаш юзасидан кенг миқёсдаги тадбирлар амалга оширилди. Жиззах вилояти ҳудудида, 2022 йил 1 январь ҳолатига кўра, жами 427 та маданий мерос объектлар, 354 та туризм жозибадорлигига эга маданий мерос объектлар ҳисобга олинган. Шулардан 112 таси археологик ёдгорликлар, 94таси меъморий ёдгорликлар, 45 таси ҳайкаллар ва 20 таси бошқа диққатга сазовор объектлардир. Вилоятда Нурота ва Зомин қўриқхоналари мавжуд. Зомин миллий табиий боғи, Айдар-Арнасой кўллар тизими, Қизилқумнинг 9 та ўрмон хўжалиги ва чўл ҳудудлари, вилоятдаги ўрмонлар 72 минг гектарни эгаллайди, бу ерда 50 турдан ортиқ ҳайвонлар ва қушлар яшайди, шунингдек, 1000 дан ортиқ ўсимлик турлари мавжуд

Ҳудудий туризмни ривожлантиришга мазкур минтақадаги иқтисодий-географик омиллар кучли таъсир кўрсатади. Ҳал қилувчи иқтисодий-географик омилларга туристларни қабул қилувчи ҳудуднинг иқтисодий-географик жойлашуви; иқтисодий жиҳатдан ривожланиш даражаси; ички туризмнинг қай даражада йўлга қўйилганлиги; меҳнат ресурслари, хусусан малакали кадрлар билан таъминланганлиги, уларнинг касбий салоҳияти; рекреацион ресурсларнинг қиймати, транспорт хизматларининг тури, озиқ-овқат маҳсулотларининг баҳоси, меҳмонхоналарда жойлашиш баҳоси, туризм объектлари қуриладиган майдонларнинг баҳоси; транспорт, алоқа воситаларининг ҳудудда тутган ўрни ва ҳолати кабиларни киритиш мумкин.

Кишиларнинг дам олишида туристик маҳсулотлар ва туристик товарлар баҳоси энг муҳим омиллардан бири бўлиб ҳисобланади. Туризмни молиялаштиришда валюта курси, валюта алмаштиришнинг соддалиги ва ўнғайлиги кабилар ҳам муҳим роль ўйнайди. Бу борада Жиззах вилоятида ноёб халқ ҳунармандчилиги маҳсулотларининг кенг ассортиментини учратиш мумкин: сўзаналар, зардўзлик буюмлари, турли-туман “қўл ишлари”, сувенирлар, пичоқлар, табиий матолардан тайёрланган кийим-кечаклар, тўнлар, пахта, ипак ва жун газламалар, кигизлар, гиламлар ва ҳ. Буларнинг барчаси кишида эстетик завқ уйғота олади, бетакрор ва амалий жиҳатдан фойдали, яъни рўзғорбоп, шу боисдан нафақат хорижлик, балки маҳаллий сайёҳларда ҳам ҳавас, қизиқиш уйғота олади ва қадрланади.

Жиззах вилояти кўп миллатли диёр – бугунги кунда вилоятда, тақдир тақозоси ила бу юртни маскан тутган 100 га миллат ва элат вакиллари тинч-тотув умргузаронлик қилишмоқда, ўзаро муносабатларида юксак толерантлик ахлоқи мужассам ва улар фидокорона меҳнатлари билан Ватанимиз равнақига ўз ҳиссаларини қўшишмоқда. Аксарият ҳолларда, вилоятдаги ҳар бир миллат ва элатнинг ўз қадриятлари, маданияти, санъати, урф одатлари, спорт ўйинлари, турмуш тарзи каби кўплаб жиҳатлар дастлабки шаклу шамойилда асраб қолинган. Бугунги кунда вилоятда турли миллатларнинг маданий марказлари фаолият юритмоқда. Кўпкари, ўзбек кураши каби спорт ўйинлари, турлари

айнан Жиззах вилоятида нафақат алоҳида юксак мавқега ва мақомга, балки ўзгача фалсафага ҳам эга.

**Хулоса**

Жиззах вилоятида ҳудудий туризмнинг истиқболдаги тараққиёти учун, давлатимиз томонидан белгилаб берилган ҳуқуқий-меъёрий кўрсатмаларга, дастурларга оғишмай амал қилиш баробарида, келгусидаги сайёҳлик йўналишларини, турларини шакллантиришда, уларга ижодкорона ёндошиш ҳам тақазо этилади. Иқтисодчи олимларнинг фикрига кўра, туризм соҳасидаги ўзаро мувофиқлик тизимдаги энг муҳим жиҳатлардан бири ҳисобланади. Чунки, бу омиллар минтақада туризм ривожланишининг барқарорлигини таъминлашда ҳаракатлантирувчи куч бўлиб хизмат қилади. Ҳудудий туризмнинг барқарор ривожланишини белгиловчи асосий омил илмий-техника тараққиёт (янги технологиялар) бўлиб, бевосита ушбу омил инновациянинг натижасидир. Ривожланган мамлакатларда фан-техника ютуқлари туризм индустрияси ва меҳмоннаввозликда, йўловчиларни ташишда, ахборотлар алмашиш соҳаларида кенг кўламда фойдаланилмоқда.

Туризм соҳаси бевосита аҳолининг ҳаёт даражаси ва сифатинини оширишга, иқтисодиётнинг ривожланиши ва самарадорлигининг ошишига таъсир қиладиган муҳим омиллардан биридир. Аммо туризмни ривожлантириш ўта мураккаб бўлиб, уни амалга оширишда таъсирчан ташкилий-иқтисодий механизмлардан тўғри фойдаланишни тақозо қилади. Ўз навбатида ташкилий-иқтисодий механизмлар барча соҳалардаги сингари, туризм соҳасида ҳам қотиб қолган ёки ўзгариши мумкин бўлмайдиган дастак эмас. Улар бир томондан, вақт ўтиши билан жамиятнинг ривожланиши, иқтисодиётнинг юксалиши, ҳаёт талабининг ўзгариши билан такомиллашиб бораверадиган бўлса, иккинчи томондан, туризмни ривожланиши билан бирор мақсадга эришиш учун унга таъсир қилувчи омилларни уюштириш, сафарбар қилиш масалаларига янада эътиборни қаратиш лозим бўлади. Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар юзага келаётганлиги, туризмнинг республика иқтисодиётига янада интеграцияланиши мамлакат иқтисодиётида муҳим аҳамият касб этмоқда. Жахон иқтисодиёти тажрибасидан маълумки, туризм соҳаси мамлакат хазинаси учун зарур бўлган валюта тушумини таъминлаш, янги иш жойларини вужудга келтириш ва шу билан биргаликда аҳолининг турмуш даражасини кўтариш учун хизмат қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сонли фармони.

2. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. Т. . Узбекистои миллий энциклопедияси. 2006. - 423 с.

3. Быкова Е.А. Влияние туризма на экономику стран / Е.А. Быкова, И.В. Фомин // Туризм и гостеприимство сквозь призму инноваций: Сборник

статей III научно-практической конференции. Под научной редакцией Е.М. Крюковой. - Москва, 27 февраля 2018 года.

4. Севрюков И.Ю. Рынок туристских услуг: современное состояние и тенденции развития // Экономика: теория и практика. - 2016. - №4 - С. 43 -48.

5. Пардаев М.Қ., Мусаев Ҳ.Н. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. -Т.: Иқтисод-молия, 2008.

## Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini baholash

**Xashimov Baxrom Baxodirovich**
*TDIU, Turizm va mehmoxona biznesi kafedrasi*
*Katta o‘qituvchisi, PhD*

**Annotatsiya.** Mamalakatimizda amalga oshiralayotgan turizm islohotlari mavjud madaniy meros ob’yektlar bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga undaydi.

Qoraqolpog’istonning boy tarixini, milliy madaniyati, o’ziga hos urf odatlarini namoyon qilish, mavjud arxilogik, etno, turizm ob’yekt targ’ib qilinmoqda va bu ko‘p sonli turistlar oqimini oshishiga sabab bo’lishi kutilmoqda.

**Kalit so‘zlar**: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, investitsiyalar, turizm klasterlari, ichki turizm, xorijiy turizm, turizmni boshqarish, barqaror turizm, madaniy meros, ekoturizm, gastronomik turizm, turizm siyosati.

### Kirish

Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm yo‘nalishlarini bosqichma bosqich yangilash, turizm xizmatlarini turli toifalarga ajratish va diversifikatsiya qilish ushbu sohani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Turizm sohasini diversifikatsiya qilish, ichki va tashqi turizm, ekologik turizm, etnografik turizm, biznes, sport, gastronomik, tibbiy, ta’lim va ilmiy turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish, yangi sayyohlik yo‘nalishlarini yaratish va ularni turistik bozorlar orqali kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrif buyuradigan turistlar asosan tarixiy-madaniy turizm bo‘yicha tashrif buyurgan bo‘lsa, keyingi yillar mobaynida turizmning boshqa turlari, jumladan, turizmning ziyorat maqsadida uzoq xorij davlatlaridan tashrif buyurayotgan turistlarning sonida o‘sish kuzatildi. Xususan, 2018 yilda uzoq xorij davlatlaridan 82000 ming nafar turist tashrif buyurgan bo‘lib, ularning asosiy qismi musulmon davlatlardan tashrif buyurgan turistlar hisoblanadi. 2020 yilda uzoq xorij mamlakatlaridan Qoraqalpog‘istonga jami 3000 ming nafar turistlar tashrif buyurgan. Mazkur tashriflar sonining ijobiy o‘sishi, o‘z navbatida, turizm xizmatlari eksportining ortishiga olib keldi. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoniga asosan turizm sohasini

qo‘llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar natijasida”[157], pandemiyadan keyin, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2021 yilning 1 dekabr holatiga turizm tashkilotlarining soni 2016 yilda 484 tadan 2024 yilga kelib 3883 taga, joylashtirish vositalari 2020 yilda 53 tadan 2024 107 taga (oilaviy mehmon uyi va xosteldan tashqari), oilaviy mehmon uylari 2020 yilda 75 tadan (2024 yilda) 174 taga, xostellar esa 2 tadan 111 taga yetdi.




**1-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasida Turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi subyekt va obyektlar sonining yillar kesimida o‘sishi.**[158]

Sohada zamonaviy xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish maqsadida turizm infratuzilmasini tartibga keltirish, jumladan, turizm obyektlarida Wi-Fi nuqtalari va yo‘l ko‘rsatkichlari tashkil qilinmoqda. 2016 yilda 476 ta sanitariya-gigiyena shoxobchasi (SGSH) mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib ularning soni 1365 ga yetib foydalanishga topshirildi. 2023 yilda Qoraqalpog‘istonga 1,2 mln turist (110 ming xorijiy, 1,1 mln. mahalliy) tashrif buyurdi va 21 mln AQSH dollari miqdorida turizm xizmatlari eksport qilindi. Xorijiy turistlarning o‘rtacha qolish muddati davomiyligi 1,5 kundan 3 kunga yetdi.

2024 yilda bu ko‘rsatkich ikki barobarga oshirilib, 2,2 mln turist tashrifi prognoz qilinmoqda. Shundan, 200 ming xorijiy va 2 mln mahalliy turist sayohat qilishga erishiladi. Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 10 ta joylashtirish vositalari (30 ta mehmonxona, 50 ta oilaviy mehmon uyi, 27 xostel, 3 ta o‘tov uyi ) turistlarga xizmat ko‘rsatmoqda. Ulardagi o‘rinlar soni 2469 tani tashkil qiladi. Hududda 64 ta turoperator va 131 ta, monumental 88 ta, arxitektura 24 ta, ziyoratgoh va diqqatiga sazovor joylar 45 ta) mavjud. Bugungi kunda, ulardan 67 tasiga turist

[157] УП-5611-сон 05.01.2019. О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан https://lex.uz/ru/docs/4143186
[158] Qorqolpg‘iston Respublikasi turizm boshqarmasi statistik ma’lumoti asosida muallif ishlanmasi.

tashrif buyuradi. 2024 yil yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining 17 tumaniga tashrif byurgan  xorijiy va mahalliy turistlar bo‘yicha taqsimlanishi.




| | Nukus sh/ri | Amudaryo | Beruniy | Bo‘zatov | Kegeyli | Qonliko‘l | Qorao‘zak | Qo‘ng‘irot | Mo‘ynoq | Nukus | Taxiatosh | Taxtako‘pir | To‘rtko‘l | Xo‘jayli | Chimboy | Shumanay | Ellikqal’a |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Reja | 42 000 | 12 500 | 8 350 | 155 | 170 | 130 | 160 | 30 500 | 30 500 | 100 | 115 | 110 | 2 500 | 32 000 | 5 600 | 110 | 35 000 |
| Amalda | 39449 | 11458 | 7521 | 162 | 216 | 189 | 165 | 29474 | 30497 | 121 | 127 | 121 | 2424 | 31085 | 7122 | 115 | 40472 |
| Столбец1 | | | | | | | | | | | | | | | | | |

**2-rasm. Qoraqalpog‘iston respublikasi tumanlari bo‘yicha xorijiy turistlar taqsimlanish holati**[159]

2023-2024 yillar davomida “turizm sohasini qayta tiklash, xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, xavfsiz turizmni tashkil qilish, ichki turizmni ommalashtirish, yangi turizm turlarini yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish bo‘yicha ishlar tashkil qilindi”[160]. Buning natijasida, 2024 yilda turizm ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2019 yildagi darajaga erishiladi.

Xususan, ichki turizmni rag‘batlantirish maqsadida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi jadallashtirildi, “Ichki turizm oyligi”, “Ichki turizm haftaligi”, “Ichki turizm kunlari” tashkillashtirildi, “oilaviy sayohat ta’tili” tizimi orqali tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlar sayohati tashkil qilindi, avia va temiryo‘l chiptalari 40 foizgacha subsidiyalanishi belgilandi.

Sayohatni ommalashtirish va sayohat qilishga qulaylik yaratish maqsadida 5 ta rasmiy bayram kunlarini *(Mustaqillik kuni, Navro‘z umumxalq bayrami, Yangi yil bayrami hamda Ramazon hayit (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayit (Iyd al-Adha)*

[159] Qorqolpg‘iston Respublikasi turizm boshqarmasi statistik ma’lumoti asosida muallif ishlanmasi

[160] Stránka nenalezena - Panevropská univerzita

*bayramlari))* nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlar 3 kundan kam bo‘lmagan muddatga belgilandi.

Shaharlararo harakatlanuvchi transport vositalarida tizimli ravishda mamlakatning yoshlar, “ziyorat, gastronomik, ekstremal, madaniy-ko‘ngilochar, eko, agro, sport turizmi va boshqa turlariga doir salohiyatini targ‘ib qiluvchi tarqatma materiallar (buklet, broshyura va boshqa)”[161] joylashtirildi**.**

Har bir hududning alohida o‘ziga hoslik xususiyatidan kelib chiqib, keng targ‘ib qiluvchi targ‘ibot materiallari yaratildi va ommalashtirildi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan imtiyoz va preferensiya orqali sohadagi tadbirkorlik subyektlariga subsidiya va grant mablag‘lari ajratish choralari ko‘rildi. Misol uchun, tadbirkorlarga yangi mehmonxona faoliyatini tashkil qilganligi, yangi turizm marshruti ishlab chiqqanligi, xorijiy sayyohlarning tashrifini uyushtirganligi, yangi tematik ovqatlanish maskanlarini barpo qilganligi uchun davlat byudjetidan mablag‘ ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi PQ-5048-sonli qarori “doirasida hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash, madaniy meros va turizm obyektlarini obodonlashtirish, ularga olib boruvchi yo‘llarni ta’mirlash, turistlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish” maqsadida Respublika byudjetidan 1 trln. so‘m miqdorida mablag‘ ajratildi.

“2024-2026 yillarda mamlakatga tashrif buyuradigan xorijiy turistlarning oqimini oshirish, iqtisodiyotda” “turizm industriyasining ulushini ko‘paytirish, jahon bozorida mamlakatimizning turizm salohiyatini targ‘ib qilish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish, taqdim etiladigan turizm xizmatlari sifatini oshirish, sohani raqamlashtirish yuzasidan choralar ko‘riladi”.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2019 yil yakuni bo‘yicha – 2,6%) va 2026 yil yakuniga qadar xorijiy turistlar sonini 9 milliongacha yetkazilishi, shu jumladan, uzoq xorijdan – 2 million turist jalb qilinishi belgilandi.

Shuningdek, qo‘shni mamlakatlarda O‘zbekistonning turizm salohiyatini targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratildi**.** Jumladan, qo‘shni davlatlarning OAV vakillari va turistik tashkilotlari uchun mamlakatning chegaradosh viloyatlarida info turlar uyushtirish, qo‘shni davlatlarning o‘z tillarida targ‘ibot materillarini tayyorlab, ularning hududida joylashtirish, qo‘shni mamlakatlar uchun mamlakatimizda “Turizm oyliklari”ni tashkil etish choralari ko‘rilmoqda.

Mamlakatning turizm sohasidagi imidjini xorijda keng targ‘ib qilish maqsadida turizm sohasi bilan bog‘liq veb-sahifalarning tillar xilma-xilligini kengaytirish (xitoy, yapon, koreys, arab, fransuz, ispan, nemis va boshqa tillarda) va turizm salohiyatini targ‘ib qilishga bag‘ishlangan videoroliklar turli xorijiy tillarda tayyorlanmoqda.

Xorijiy davlatlarda targ‘ibot loyihalarini olib borish uchun dastlab maqsadli bozorlarda marketing tadqiqotlari olib borilishi, o‘rganishlar natijasida, maqsadli

---

[161] Агешкина Н.А., Бельянская А.Б., Холкина М.Г. Комментарий к Федеральному закону от 24 ноября 1996 г. N 132-ФЗ "Об основах
туристской деятельности в Российской Федерации" (под ред. Л.Л. Руденко). - Специально для системы ГАРАНТ, 2017 г.

davlatlarga mo‘ljallangan marketing konsepsiyasi ishlab chiqiladi va targ‘ibot ishlari tashkil qilinishi olib borilmoqda.

Xorijiy mamlakatlardagi xalqaro turizm ko‘rgazma va yarmarkalarda milliy stend bilan munosib ishtirok etish choralari ko‘rilib, mamlakatga xorijiy turistlar oqimi oshirilishining dasturi ishlab chiqildi.

Targ‘ibotda Digital Marketing va zamonaviy brending usullardan foydalanilishi va bu ko‘plab ko‘rgazmalarga sarflanishi mumkin bo‘lgan mablag‘larni ma’lum darajada tejash, ya’ni internet orqali onlayn targ‘ibotni yo‘lga qo‘yish qisqa muddatda kerakli natijaga tezkorlik bilan erishish imkoniyatini beradi.

Mamlakatning xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va vatandoshlar ko‘magida dunyo miqyosida “O‘zbekiston kunlari” promoaksiya tadbirlari muntazam tashkil qilinadi.

Maqsadli davlatlardan butun dunyoga mashhur san’at, kino, madaniyat sohalari yulduzlarini va sayohat yo‘nalishida faoliyat olib boradigan tomoshabinlar qamrovi keng bo‘lgan ommabop blogerlar hamda inflyuenserlar uchun mamlakat bo‘ylab infoturlar tashkil qilish ishlari davom ettiriladi.

“O‘rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi maqsad va ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib, turizm va unga aloqador sohalarda quyidagi yo‘nalishlarda keyingi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Xalqaro normalar va standartlarni joriy etish. Iqtisodiy barqaror va farovon mamlakatlar fuqarolari uchun viza rejimini bosqichma-bosqich liberallashtirish, respublikaga sayyohlar oqimini ta’minlash, ushbu sohada tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, samarali boshqarish va turizm va madaniy merosni jamoat yo‘nalishi bo‘yicha joriy etish bo‘yicha xorijiy tajriba -xususiy sheriklik bu sohada zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o‘rganiladi va joriy etiladi”[162].

“Mazkur chora-tadbirlar iqtisodiyotda turizm salmog‘i, turizm xizmatlari eksporti va sifatining oshishi hamda turizmda namoyish obyektlaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi”[163].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi PQ-5048-sonli qaroriga ko‘ra 102 ta eng zaruriy madaniy meros obyektlarining restavratsiya va konservatsiya qilishga – 211,9 mlrd.so‘m, turizm va unga yondosh infratuzilmaga – 132,8 mlrd.so‘m, yo‘l infratuzilmasini yaxshilashga – 238,9 mlrd.so‘m, turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi obyektlarning kommunal xizmatlarini tashkil qilish va axborotlashtirish tizimini yaxshilashga – 90,1 mlrd.so‘m, turizm sohasidagi ta’lim muassasalarini ta’mirlash, moddiy texnika bazasini mustahkamlashga – 326,0 mlrd.so‘m miqdorida mablag‘lar yo‘naltirilishi belgilandi[164].

Transport logistikasi. O‘zbekiston Respublikasining kirish turizm natijalariga aviakompaniyalarning cheklangan tanlovi, aviachiptalarning yuqori narxi, xizmatlar

---

[163] Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida https://uza.uz/oz/posts/ichki-turizm-xizmatlarini-diversifikatsiya-qilishga-oid-qoshimcha-chora-tadbirlar-togrisida_369542

[164] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзияевнинг 2021 йил 2 апрелдаги ПҚ-5048-сонли “”Обод қишлоқ” ва “Обод маҳалла” дастурларини амалга ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.Lex.uz.

sifatining pastligi, mamlakat ichida intermodal tashuvlarning (avtobus, temir yo‘l va aviatashuvlar) rivojlanmaganligi salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonning ushbu sohadagi moddiy-texnik jozibadorligini tubdan yaxshilash, xorijiy aviakompaniyalarni mahalliy aeroportlarga uchishga jalb qilish, xorijiy aviatashuvchilarga imtiyoz va preferensiyalarning moslashuvchan tizimini taqdim etish, charter reyslarini tasdiqlash mexanizmini soddalashtirish, mamlakatimizning qator aeroportlarida "ochiq osmon" rejimini joriy etish ijobiy natijalar bermoqda, aviakompaniya xarajatlarini kamaytirish va iste'molchilar uchun aviachiptalar narxini optimallashtirish.

“Doimiy tashqi va ichki yo‘nalishlarda sifatli va maqbul tariflarda transport qatnovini yo‘lga qo‘yish, turizm markazlarini birlashtiruvchi respublika va mintaqaviy ahamiyatga molik yangi avtomobil yo‘llarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish, byudjet aviatashuvlarini tashkil qilish, xalqaro va respublika hududlari o‘rtasida aviaqatnovlarni rivojlantirish, yangi temir yo‘llarni qurish va mavjudlarini takomillashtirish, yuqori tezlikda harakatlanadigan elektropoyezdlardan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha tegishli tashkilotlar bilan chora-tadbirlar”[165] olib boriladi.

Infratuzilmani tartibga keltirish. “Zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ko‘cha infratuzilmasini *(o‘tish yo‘llari, velo/piyoda yo‘laklari, sanitar-gigiyenik shaxobchalar, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun”*[166] *to‘siqsiz harakatlanish, turizm axborot ko‘rsatkichlari va boshqalarni)* tashkil qilish, axborot turizm markazlari sonini oshirish, turizm navigatsiyasining yagona unifikatsiya qilingan tizimini joriy etish, yo‘llarni ta’mirlash, madaniy meros obyektlarini restavratsiya va konservatsiya qilish, internet tarmog‘ini tashkil qilish, kommunal xizmatlarni yo‘lga qo‘yish choralari ko‘rish lozim.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar turistlarning qulay va erkin harakatlanish hamda ularni zaruriy axborot bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Joylardagi infratuzilmaning holati (asfalt yotqizish, axborot-kommunikatsiya, elektr-energiya, suvoqova va boshqa masalalar) hududlarda turizm obyektlarini tashkil qilish, turizm namoyish obyektlariga sayyohlar tashrifini uyushtirish, sohada tadbirkorlikni rivojlantirish va loyihalarga investorlarni jalb qilishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Buning uchun mahalliy hokimliklar va mutasaddi tashkilotlarning javobgarligini oshirish hamda mahalliy va respublika byudjetidan mablag‘ ajratilishi talab etiladi.

Turizm sohasida tadqiqotlar va sohaga malakali mutaxassislar yetkazib berish. Turizm sohasida ham boshqa sohalar kabi kadrlar masalasi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi 29 ta oliy ta’lim, 35 ta professional ta’lim muassasasida turizm sohasida kadrlar tayyorlanmoqda.

Ularda ta’lim oluvchi talabalar soni esa mos ravishda 4 100 nafardan 7 600 nafargacha oshgan. “Shuningdek, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlarning tarixiy va madaniy-gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish hamda

[165] УП-5611-сон 05.01.2019. О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан https://lex.uz/ru/docs/4143186

[166] PF-5611-son 05.01.2019. O'zbekis ton Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

jahon turizm industriyasi bozorida raqobatbardosh kadrlarni”[167] tayyorlash maqsadida O‘zbekistonda 2018 yilda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tashkil etilgan edi. Hozirda mehnat bozori talabidan kelib chiqib, universitetda turizm, logistika, gid-tarjimonlik, muzeyshunoslik, arxeologiya, ijodiy sanoat, madaniy merosni boshqarish kabi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Bundan tashqari sohaga o‘rta bo‘g‘in kadrlari tayyorlash maqsadida vazirlik tizimidagi 6 ta texnikum va 4 ta kollejlarda yiliga o‘rtacha 2 mingga yaqin kadrlar mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Turizm sohasida kadrlar tayyorlaydigan o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarni nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro darajadagi raqobatbardosh kadr sifatida jahon standartlariga javob berishi asosiy muammolardan biri hisoblanib, kelinar edi. Prezidentimiz tomonidan Shveysariyalik mutaxassislar bilan birga, Buxoro, Zomin va Bo‘stonliq turizm kollejlarida mehmonxona boshqaruvi, servis va boshqa yo‘nalishlarda yangi o‘quv dasturlari asosida o‘qitish, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida yiliga kamida 1 ming nafar yoshlarni o‘qitishni tashkil etish, ushbu muammoning yechimini belgilab berdi. Xalqaro islom akademiyasi va “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida ziyorat turizmi oqimi ko‘p bo‘lgan davlatlardan sayyohlarni keng jalb qilish maqsadida, ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish, nazariya bilan amaliyotning integratsiyasini” yo‘lga qo‘yish, sohada ilmiy asoslangan xulosalarni dolzarbligini belgilashga xizmat qiladi.

2023-2024 o‘quv yiligacha sohada kadrlar tayyorlovchi asosiy muassasa hisoblanuvchi “Ipak yo‘li” “turizm va madaniy meros xalqaro universitetini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 talik ro‘yxatiga kiritishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish”[168], Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti va boshqa ta’lim muassasalarida sohaga zamonaviy kadrlar tayyorlashda liderlikni shakllantirish va 2024 yilgacha xorijiy xamkorlarni jalb etgan holda oliy ta’lim bilan integratsiyalashgan turizm sohasi kadrlarini tayyorlovchi kamida 2 ta turizm oliy maktablari tashkil etish rejalashtirilgan.

Ushbu sohadagi ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, fan, ta’lim va sanoat o‘rtasidagi hamkorlik, shuningdek, innovatsiyalar sohasida malakali kadrlar tayyorlash hajmi nisbatan pastligicha qolmoqda. Shu bilan birga, mintaqalardagi ta’lim muassasalarida, turizm va tegishli sohalarda malakali mutaxassislarga talab yuqori bo‘lib qolmoqda. Bu, o‘z navbatida, sohada xizmat ko‘rsatish sifatining pasayishiga olib keladi.

“Turizm sohasida kasb-hunar ta’limi muassasalari yuqori sifatli kadrlar tayyorlash, bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash, amaliyotga yo‘naltirilgan va modernizatsiya qilingan ta’lim standartlari, o‘quv-uslubiy dasturlar va ilg'or axborot-

[167] https://www.peuni.cz /dokumenty/Proceedin gs-Conference-Post-C OVID-19-Tourism.pdf
https://www.peuni.cz/dokumenty/Proceedings-Conference-Post-COVID-19-Tourism.pdf
[168] NamDU-ARM-14915-NEW_ HISTORY_OF_UZBEKISTA N.pdf
https://namdu.uz/media/Books/pdf/2025/01/03/NamDU-ARM-14915-NEW_HISTORY_OF_UZBEKISTAN.pdf

kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, turizm sohasi xodimlarini (gidlar, gidlar, kuzatuvchilar, turistik faoliyat sub'ektlari, ovqatlanish tashkilotlari, transport va boshqa xodimlar).o'quv jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.

Ushbu yo'nalishdagi amaliy harakatlar ta'lim va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yuqori malakali menejer, administrator"[169], oshpazlar va boshqa kasblarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

2023-2024 yillarda oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarda turizm sohasiga oid tayanch doktorantura bo'yicha kvotalarni ikki barobarga oshirish, har yili sohada dolzarb bo'lgan innovatsion loyihalarning tematik mavzular portfelini shakllantirish choralari ko'rilmoqda.

"Turizm mahsulotlari va xizmatlarini diversifikatsiya qilish. Yangi turizm va hunarmandchilik mahsulotlari mintaqalarning xilma-xilligi va jozibador va raqobatbardosh turizm mahsulotlarini, shu jumladan turli fasllarda mamlakat mintaqalarida tematik turistik zonalar va klasterlarni yaratishni, shuningdek turizmning istiqbolli turlarini ziyorat, ta'lim, ekologiya, etnografiya, gastronomiya, sport, sog'lomlashtirish, qishloq xo'jaligi) hisobga oladi, sanoat, biznes va boshqalar"[170].

Natijada, turistlarga turistik mahsulotlar etkazib berishning ko'payishi, sayyohlarning mamlakatda bo'lish muddatining uzaytirilishi, turistik xizmatlar eksportining ko'payishi va chet ellik sayyohlarning qayta kelishi kuzatiladi.

"To'siqsiz turizm"ni rivojlantirish. Mamlakatga kirish imkoniyati cheklangan mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun infratuzilma (madaniy meros ,aeroport, vokzallar va boshqalar.) tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Xorijiy tajribani o'rganish natijasida turizmning ushbu turini rivojlantirish va ushbu sohada kadrlar malakasini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Natijada mahalliy va xorijiy sayyohlar soni ortib, turizm sohasida bandlik ta'minlanib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Moddiy madaniy meros obyektlarini samarali boshqarish. Moddiy madaniy obyektning o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan o'ziga xos xususiyatlarini va uning tarixiy muhitini saqlab qolish, obyektlarni muhofaza qilish va obodonlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, madaniy meros obyektlarini konservatsiyalash, restavratsiya qilish, tuzatish, ta'mirlash va zamonaviy boshqarish choralari ko'riladi. Mazkur choralar orqali moddiy madaniy obyektlardan samarali foydalanish, ularni kelajak avlodga yetkazish ta'minlanadi.

Sohaga axborot texnologiyalari (raqamlashtirish) joriy etish. Turizm sohasining raqamlashtirilishi xizmat ko'rsatuvchilarning biznes modelini va mijozlarning istaklarini o'zgartirmoqda. Turar joylar (masalan, AirBnB, Homeaway, Booking), transport (BlablaCar, Uber), umumiy ovqatlanish (EatWith) va gid xizmatlari (Tours By Local) bo'yicha yangi ishtirokchilar turizm bozoriga kirib keldi. Sohada internet tarmoqlarning mavjudligi (5G,Wi-Fi) va sun'iy intellekt allaqachon ko'plab mehmonxonalar tarmoqlari va turizm xizmatini ko'rsatuvchilar tomonidan tadbiq qilinmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, onlayn platformalar joriy qilish, xizmat

[169] УП-5611-сон 05.01.2019. О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан https://lex.uz/ru/docs/4143186

[170] ПРЕИМУЩЕСТВО КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА.

ko‘rsatish sohasini o‘zida mujassamlashtirgan mobil ilovalar yaratish, turizm obyektlarida internet tarmoqlarini tashkil qilish yuzasidan ishlar tashkil qilinadi.

O‘zbekistonga sayohat qil dasturi orqali sayyohlik va diqqatga sazovor joylardan foydalanish uchun keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Ichki sayyohlik harakatining mashhurligini jonlantirish, qo‘shimcha turistik xizmatlarni yaratish va kamchiliklarni bartaraf etish uchun o‘tkazildi."Dasturni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish va tabaqalashtirilgan sayyohlik ob'ektlarini rivojlantirish choralari ko‘riladi. Ichki turizmga kelsak, oilaviy sayohat paketlarini qo‘llab-quvvatlang va umumiy va kasb-hunar ta’limi dasturlariga turistik sayohatlarni kiritilgan.

Ushbu chora-tadbirlar mahalliy aholining tashrifini oshirish, mavsumiy omillarga bog'liqlikni kamaytirish, mehmonxonalar bandligini oshirish, ayniqsa yilning ishlamaydigan oylarida, mintaqalar o‘rtasida sayyohlarning ichki oqimini kengaytirish va mintaqada mahalliy aholining bandligini ta’minlashga yordam beradi.

Ziyorat turizmni rivojlantirish. O‘zbekistonda 8,2 mingdan ortiq madaniy meros obyektlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ziyorat turizmi yo‘nalishida maqsadli bozorlarga kirib borish, ziyoratchilarga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, Umra+ dasturini tashkillashtirish orqali turizm industriyasi bandligiga erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasining xavfsiz mamlakat sifatidagi obro‘sini mustahkamlash, yagona milliy turizm brendini yaratish, shuningdek, har bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mintaqaviy turizm brendlarini yaratish, milliy turizm mahsulotini turistik bozorlarga olib chiqish, imidjni targ'ib qiluvchi reklama va axborot kampaniyasini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi elchixonalari orqali.

Yoshlar turizmini rivojlantirish. Ta’lim dasturlari bilan uyg‘unlashtirgan holda yoshlarning sayohatlarini tashkil qilish, yoshlar uchun qo‘shimcha turistik mahsulot va xizmatlar yaratish, hududlar kesimida tadbirlar rejasini ishlab chiqish, qo‘shni mamlakatlar yoshlarini O‘zbekistonga jalb qilish choralarini ko‘rish orqali yoshlar sayohati tizimli tashkil qilinadi va mamlakatimizdagi turizm, madaniy meros obyektlari to‘g‘risida yoshlar tegishli ma’lumotga ega bo‘ladi.

Turizm sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Turizm sohasida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ularning tadbirlarida faol ishtirok etish, xalqaro standartlarni O‘zbekiston turizm bozoriga kiritish, xalqaro turizm reytinglarida mamlakat o‘rnini yaxshilash choralari ko‘riladi. Mazkur choralar mamlakatimizning jahon hamjamiyatida nufuzini ortishi, turizm tadbirlarida ishtirok etishi va xorijiy investorlarning jalb etilishida ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sohada davlat-xususiy sheriklik (DXSH) prinsipni joriy qilish**.** Istiqbolda sohada davlat-xususiy sheriklik yo‘nalishlarini aniqlash, mazkur yo‘nalishda obyekt va muassasalarni davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida bosqichma-bosqich tadbirkorlarga taqdim etish, Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan tashkil etish, saqlash va moliyalashtirishni qisqartirish choralari ko‘riladi. Bunda, DXSH tarmoq dasturlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirishda ochiqlik va oshkoralikni ta’minlashga e’tibor qaratiladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlar yangi turizm bozorlarini o‘zlashtirish, xorijdan tashrif buyuruvchilar sonini o‘sishi, xorijiy investitsiyalar hajmini ortishiga

xizmat qiladi. Umuman olganda yuqorida qayd etib o‘tilgan rejalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda turizm sohasida zamonaviy yo‘nalishlarni yo‘lga qo‘yish, xorijiy turistlar sonini ortishi, ichki turizmni rivojlanishi va turistlarning tashrif geografiyasini kengayishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023-y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida” gi qonuni, 18-iyul, 2019-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-sonli “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2024-y.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-sonli “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022-y.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son Farmoni. Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2021-y.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-sonli “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2021-y.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 28-maydagi PF-6002-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.05.2020-y.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi” (3-bob, 4-yo‘nalish).
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3509-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2018-y., 07/18/3509/0658-son.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining faoliyatini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3510-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari Milliy bazasi, 07.02.2018-y., 07/18/3510/0668-son.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari Milliy bazasi, 08.02.2018-y.

# YASHIL TURIZM TAMOYILLARI ASOSIDA TURIZM XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISH VA EKSPORT SALOHIYATINI KENGAYTIRISH YO‘NALISHLARI

**Bakhromov Akmal Abduvahid o‘g‘li**
*TDIU, Turizm va mehmoxona biznesi kafedrasi*
*Katta o‘qituvchisi, PhD*

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda yashil turizm tamoyillarini joriy etish orqali turizm xizmatlari sifatini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish masalalarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda “Green Tourism”, “Sustainable Hospitality” va “Eco-Certification” kabi xalqaro yondashuvlar tahlil qilinib, ularning mahalliy amaliyotga moslashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ekologik sertifikatlash tizimlari — Green Key, ISO 14001 va ETIS (European Tourism Indicators System) standartlari asosida barqaror xizmat menejmentini shakllantirish hamda turistik obyektlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Olingan natijalar “yashil” standartlarning joriy etilishi nafaqat ekologik barqarorlikni, balki xorijiy sayyohlar ishonchini ham oshirishi, natijada xizmatlar eksporti hajmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida “Green Tourism Uzbekistan” milliy sertifikat tizimini ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, barqarorlik, ekologik sertifikat, Green Key, ISO 14001, xizmat sifati, eksport salohiyati, barqaror rivojlanish.

## Kirish

So‘nggi yillarda turizm sanoati jahon iqtisodiyotining eng tez o‘sayotgan tarmoqlaridan biriga aylangan bo‘lsa-da, global iqlim o‘zgarishlari, ekologik inqiroz va tabiiy resurslarning kamayishi turizmning yangi — barqaror va yashil yo‘nalishda rivojlanishini talab etmoqda. Bugungi kunda turizm xizmatlari sifati nafaqat qulaylik va servis darajasi bilan, balki atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli yondashuv bilan ham belgilanmoqda. O‘zbekistonda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi hamda “Turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasi” doirasida yashil turizmni rivojlantirish, mehmonxonalar va turoperatorlar faoliyatini ekologik standartlarga moslashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, turizm xizmatlarini sertifikatlash tizimini ekologik mezonlar bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan.

Dunyo miqyosida “Green Key”, “Green Globe”, “Blue Flag”, “ISO 14001:2018” kabi standartlar mehmonxona va turistik infratuzilmada energiya tejamkorlik, chiqindilarni boshqarish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va karbon izini kamaytirish mezonlarini belgilaydi. O‘zbekistonda ushbu yondashuvlarni joriy etish orqali turistik xizmatlarning xalqaro sifat darajasini ta’minlash va ularni eksportga yo‘naltirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, yashil sertifikatlash tizimi bir tomondan ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa O‘zbekiston turizm xizmatlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardosh brend sifatida targ‘ib etish uchun zamin yaratadi.

**Asosiy qism**

Yashil turizm (Green Tourism) ekologik resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda mahalliy jamoalarning iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan turizm shaklidir. Ushbu konsepsiya BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 8, 12, 13, 15) bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, turizmni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga asoslashni nazarda tutadi. Yashil turizmda xizmat sifati endilikda faqat qulaylik darajasi bilan emas, balki ekologik javobgarlik, energiya samaradorligi, chiqindisiz faoliyat yuritish va madaniy uyg‘unlik kabi mezonlar orqali baholanadi. Shu bois, zamonaviy turizmda “sifat menejmenti” va “barqaror menejment” tushunchalari o‘zaro integratsiyalashib, xizmatlar sifati bilan bir qatorda ekologik samaradorlikni ham ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida yashil turizmni rivojlantirish va barqaror xizmat ko‘rsatish tizimini shakllantirish maqsadida bir qator xalqaro ekologik sertifikatlash tizimlari faoliyat yuritmoqda. Ularning eng muhimlari qatoriga Green Key**,** ISO 14001:2018**,** Green Globe va Blue Flag standartlari kiradi. Green Key (Daniya, 1994-yildan) tizimi mehmonxona va restoranlar faoliyatida ekologik mezonlarni belgilab, energiya iste’molini 25–30 foizga, chiqindilar hajmini esa 40 foizgacha kamaytirish imkonini beradi. ISO 14001:2018 esa korxonalar faoliyatini ekologik menejment tizimi asosida tashkil etishni talab etuvchi xalqaro standart bo‘lib, u atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirishga qaratilgan. Green Globe sertifikati esa turizm tashkilotlarining barqarorlik darajasini 44 ta mezon asosida baholaydi, Blue Flag esa dengiz va daryo sohilidagi turistik obyektlarga ekologik xavfsizlik belgisi sifatida beriladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu sertifikatlar nafaqat obro‘elementi, balki xalqaro turizm bozoriga chiqish uchun zarur talab sifatida qaraladi. Masalan, Fransiyada “Green Key” sertifikatiga ega mehmonxonalar 2023-yilda o‘rtacha 18 foiz ko‘proq xorijiy sayyohlarni jalb qilgan. Shu orqali ko‘rinadiki, xalqaro yashil sertifikatlash tizimlari turizm xizmatlari sifatini oshirish bilan bir qatorda, eksport salohiyatini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi (2022–2030) va “Turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasi” (2023–2027) doirasida turizmning ekologik modeli bosqichma-bosqich shakllanmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva va Zomin

hududlarida eko-mehmonxona, agro-turizm va tabiiy rekreatsion zonalar asosida barqaror infratuzilma yaratilmoqda.

Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil turizm sohasida quyidagi muammolar mavjud:

1. Ekologik sertifikatlash tizimining milliy standarti hali to‘liq ishlab chiqilmagan;
2. Mehmonxonalar va turoperatorlarda ekologik menejment tizimlari joriy etilmagan;
3. Xodimlar uchun ekologik xizmat madaniyati bo‘yicha o‘quv dasturlari yetarli emas;
4. Ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari zaif.

Shu sababli, “Green Tourism Uzbekistan” milliy sertifikatlash dasturini yaratish zaruriyati dolzarbdir. Bu tizim O‘zbekistonning milliy qadriyatlari, madaniy merosi va iqlim xususiyatlariga mos, lekin xalqaro standartlarga integratsiyalashgan shaklda ishlab chiqilishi kerak.

Xizmat eksportini rivojlantirishda ishonch va sifat kafolati hal qiluvchi omillardandir. Xalqaro eko-sertifikatga ega obyektlar xorijiy turistlar uchun ishonch belgisi vazifasini bajaradi. Shu sababli, yashil sertifikatlash tizimi nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy samaradorlik ham beradi.

Empirik kuzatuvlarga ko‘ra, Green Key sertifikatiga ega mehmonxonalar o‘rtacha:

- xorijiy bronlashlar sonini 20–25% oshiradi;
- energiya xarajatlarini 30% gacha kamaytiradi;
- xizmat eksportidan olinadigan sof daromadni 15–20% ga ko‘paytiradi.

O‘zbekistonda bu tajribani tatbiq etish orqali 2030-yilgacha eko-sertifikatlangan xizmatlar eksportini 1,2–1,5 baravar oshirish imkoniyati mavjud.

Yashil sertifikatlash tizimining amaliy natijalarini aniq ifodalash maqsadida Green Key dasturida ishtirok etuvchi mehmonxonalarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik sertifikatlash nafaqat ekologik foyda beradi, balki xizmat eksportining o‘sishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagi diagrammada Green Key sertifikatining turizm xizmatlari eksportiga ta’siri asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha tasvirlangan.




**1-rasm Green Key sertifikatining turizm xizmatlari eksportiga ta’siri**

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, Green Key sertifikatiga ega mehmonxonalarda xorijiy bronlashlar soni o‘rtacha 20–25 foizga oshgan, energiya xarajatlari 30 foizgacha kamaygan, xizmat eksportidan olinadigan sof daromad esa 15–20 foizga ko‘paygan. Bu esa ekologik menejment tizimlari turizm subyektlari uchun nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali model ekanini ko‘rsatadi. Demak, O‘zbekistonda yashil sertifikatlash tizimini joriy etish orqali 2030-yilgacha eko-sertifikatlangan xizmatlar eksportini kamida 1,2–1,5 baravar oshirish imkoniyati mavjud.

Innovatsion yondashuvlar va takliflar

5. “Green Tourism Uzbekistan” sertifikat tizimini yaratish:

4 bosqich: audit → baholash → tasniflash → monitoring.

Asosiy mezonlar: energiya, suv, chiqindi, madaniy meros, mahalliy iqtisodiyot.

6. “EcoScore” raqamli platformasini joriy etish:

Har bir turistik obyekt onlayn baholanadi; natijalar QR-kod orqali turistlarga ko‘rsatiladi.

7. Eko-ta’lim dasturlarini joriy etish:

Turizm kollejlarida va universitetlarda “Green Hospitality Management” moduli tashkil etiladi.

8. Eko-brend yaratish:

“Uzbekistan Green Destination” xalqaro marketing brendi ostida eksport yo‘nalishidagi turistik mahsulotlarni ilgari surish.

Yashil turizm O‘zbekiston turizm xizmatlari eksportini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Ekologik sertifikatlash tizimi orqali:

- xizmat sifati xalqaro darajaga ko‘tariladi;
- xorijiy turistlar ishonchi mustahkamlanadi;
- eksport daromadlari barqaror o‘sishga ega bo‘ladi;
- mamlakat ekologik imiji yaxshilanadi.

Shunday qilib, yashil turizm O‘zbekiston uchun ekologik barqarorlik + iqtisodiy o‘sish + eksport kengayishini birlashtiruvchi strategik yo‘nalish sifatida qaraladi.

**Xulosa**

Yashil turizm konsepsiyasi O‘zbekiston turizm xizmatlari sifatini oshirish va ularni xalqaro bozorda raqobatbardosh qilishning zamonaviy yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik yondashuv asosida tashkil etilgan xizmat menejmenti nafaqat atrof-muhitni asrashga, balki eksport salohiyatini oshirishga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, ekologik sertifikatlash (Green Key, ISO 14001, ETIS) tizimlarini joriy etish orqali xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar o‘z faoliyatida energiya tejamkorlik, chiqindi kamaytirish, suv resurslarini tejash kabi amaliy natijalarga erishadi. Bu esa xalqaro auditoriya uchun ishonchli “yashil brend” yaratadi.

Ikkinchidan, yashil turizm O‘zbekistonning turizm eksport modelida yangi iqtisodiy imkoniyatlar ochadi. Xalqaro standartlarga mos xizmatlar xorijiy turistlar oqimini ko‘paytiradi, ularning sarf-xarajatlari oshadi, natijada xizmatlar eksportidan olinadigan daromad o‘sadi.

Uchinchidan, “Green Tourism Uzbekistan” milliy sertifikat tizimini yaratish orqali mamlakatda ekologik boshqaruv madaniyatini shakllantirish, turistik korxonalarda “barqaror menejment”ni joriy etish hamda turizm ta’limida ekologik kompetensiyalarni mustahkamlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

To‘rtinchidan, xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, ekologik sertifikatlash va “yashil brendlash” jarayonida raqamli yechimlardan foydalanish (masalan, QR-kod asosida “Eco Score” platformasi) sayyohlarga ochiq va ishonchli ma’lumot taqdim etadi. Bu esa O‘zbekiston turizmining raqamli eksport infratuzilmasini rivojlantirish uchun yangi bosqich bo‘ladi.

Shunday qilib, yashil turizm O‘zbekiston turizm xizmatlari eksporti uchun strategik poydevor bo‘lib xizmat qiladi. U xizmat sifatini xalqaro talablarga moslashtirish, mamlakat ekologik imijini yaxshilash, va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash orqali turizmni milliy iqtisodiyotning yuqori qiymatli tarmog‘iga aylantirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari (2022–2024).
21. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. “Barqaror va ekologik turizm rivojlanish tendensiyalari”. https://uzbektourism.uz/
According to our analyses, the Ustyurt Plateau in Karakalpakstan provides opportunities the establishment of scientific ecotourism. In particular, students of history, biology, geography, ecology and tourism from higher education institutions in Russian Federation, Kazakhstan and Turkmenistan could use these sites for summer training, field classes (with topics including: herbaceous plants, archaeological excavations, hill and measuring geographical coordinates and fauna lifestyle, nutrition, growth, plants, etc.), scientific research and to promote it among young people. Ecotourism in Karakalpakstan has great potential based on its unique protected areas and ancient historical heritage. Properly managed, it can become a sustainable driver of economic growth, cultural preservation, and environmental protection. The combination of Aralkum Desert landscapes, Ustyurt Plateau biodiversity, and Khorezm archaeological sites makes Karakalpakstan a distinctive example of how ecological restoration and tourism can coexist in harmony.

**References**

1. Adom, D. (2019). The place and voice of local people, culture, and traditions: A catalyst for ecotourism development in rural communities in Ghana. Scientific African (6), e00184. doi:https://doi.org/10.1016/j.sciaf.2019.e00184

2. Alimov, A. (2016). Ecotourism development in Karakalpakstan: challenges, new trends, and prospects. Bulletin of Science and Practice (6), 46-53

3. Alimov, A. (2018). Abstract of the PhD dissertation on economic sciences. Main directions and prospects of development of ecological tourism in the Republic of Karakalpakstan, pp. 27-49. Samarkand: Zarafshon. Retrieved from http://library.ziyonet.uz/static/lib/readerpdf/web/viewer.html?file=http://library.ziyonet.uz/uplo ads/books/634149/5c0dffe16928e.pdf

4. Cater, E. (1993). Ecotourism in the Third World: Problems for sustainable tourism development. Tourism Management 14(2), 85-90.

5. Cater, E., Lowman, G. (Eds.). (1994). Ecotourism: A sustainable option? Chichester: Wiley.

6. Ceballos-Lascurain, H. (1996). Tourism, ecotourism and protected areas. Switzerland: Gland: IUCN (World Conservation Union).

7. Hvenegaard, G. (1994). Ecotourism: A status report and conceptual framework. Journal of Tourism Studies(5(2)), 24-35.

8. Khamidov, O. (2017). Sovershenstvovanie mekhanizma upravleniya razvitiem ekoturizma v Uzbekistane. avtoref. diss. d-ra. ekon. nauk. . Samarkand.
9. Lonn, P., Mizoue, N., Ota, T., Kajisa, T., Yoshida, S. (2018). Evaluating the contribution of community-based ecotourism (CBET) to household income and livelihood changes: a case study of the chambok CBET program in Cambodia. Ecol. Econ., 151, 62-69.
10. Kerimbergenovich, A. A., Kamilovich, S. S., Tursinbaevich, A. R., Jannazarovich, A. K., Kazievich, S. J., & Maksetovich, O. H. (2020). Ecotourism development in the republic of karakalpakstan: Historical places and protected areas. Journal of Critical Reviews, 7(12), 1258- 1262. doi:10.31838/jcr.07.12.220

## Mehmonxonalarda ekomuhitni boshqarish va uning turizmdagi o‘rni

**G‘afurova Gulsevar,**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada mehmonxonalarda ekomuhitni boshqarish masalalari va uning turizm sohasidagi ahamiyati o‘rganiladi. Ekomuhitni boshqarishning mohiyati, asosiy tamoyillari va afzalliklari, xususan, xarajatlarni kamaytirish, obro‘ni yaxshilash va mijozlarning sodiqligini oshirish kabi jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, barqaror turizmni rivojlantirishga qo‘shadigan hissasi va O‘zbekiston misolida ushbu yo‘nalishdagi tajribalar ko‘rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi mehmonxona biznesi vakillarini ekomuhitni boshqarishning afzalliklari bilan tanishtirish va barqaror turizmga hissa qo‘shish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishdir.

**Kalit so‘zlar:** Ekomuhitni boshqarish, mehmonxonalar, barqaror turizm, ekologik toza turizm, energiya samaradorligi, suvni tejash, chiqindilarni boshqarish.

### Kirish

Hozirgi kunda ekologik muammolar global darajada dolzarb masalaga aylangan. Turizm sohasi esa atrof-muhitga ta’sir qiluvchi asosiy sohalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, mehmonxonalar ekologik barqarorlikni ta’minlash, chiqindilarni kamaytirish va yashil texnologiyalardan foydalanish orqali ekomuhitni boshqarish tizimini rivojlantirishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, mehmonxonalarda ekomuhitni boshqarish – bu nafaqat biznes yuritishning zamonaviy usuli, balki barqaror turizmni rivojlantirishning muhim omilidir. Ushbu maqolada biz mehmonxonalarda ekomuhitni boshqarishning mohiyati, asosiy tamoyillari, afzalliklari va turizmdagi o'rnini ko'rib chiqamiz, shuningdek, O'zbekiston misolida ushbu yo'nalishdagi tajribalarni tahlil qilamiz. Maqsadimiz – mehmonxona biznesi vakillarini ekomuhitni boshqarishning afzalliklari bilan tanishtirish va bu borada aniq tavsiyalar berish orqali barqaror turizmga hissa qo'shishdir.

Ekomuhitni boshqarish mohiyatan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya iste'molini optimallashtirish va zararli emissiyalarni minimallashtirishga qaratilgan kompleks faoliyatdir. Mehmonxonalar

uchun bu jarayon energiya tejovchi texnologiyalar, suvni qayta ishlash tizimlari, chiqindi saralash, ekologik toza tozalash vositalaridan foydalanish, yashil hududlar yaratish kabi ko‘plab amaliy choralarni o‘z ichiga oladi. Bunday chora-tadbirlarning joriy etilishi global ekologik standartlarga javob berish bilan birga, mehmonxona imijini yaxshilash va sayyohlar ko‘zida mas’uliyatli brendga aylanishiga olib keladi.

Ekomuhitni boshqarishning yana bir muhim jihati — turistlar xulq-atvoriga ta’siri. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik toza mehmonxonalarni tanlashga tayyor sayyohlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa Yevropa, Janubiy Koreya, Yaponiya va AQSHdan keladigan turistlar ekologik barqarorlikni mehmonxona tanlash mezonlarining eng muhimlaridan biri sifatida baholaydi. Ular “yashil sertifikat”, “Green Key”, “Eco-Hotel”, “ISO 14001” kabi belgilarga ega mehmonxonalarni ustuvor deb bilishadi. Shunday qilib, mehmonxonalar ekologik talablarni bajarish orqali xalqaro sayyohlar oqimini ko‘paytirishlari, bozordagi raqobatbardoshligini oshirishlari mumkin.

Mehmonxona industriyasi uchun ekomuhitni boshqarishning iqtisodiy afzalliklari ham juda muhimdir. Energiya sarfini 20–30% ga kamaytirish, suv iste’molini 40% gacha tejash, qayta ishlash jarayonlarini yo‘lga qo‘yish kabi choralar uzoq muddatda mehmonxona xarajatlarini sezilarli kamaytiradi. Bu esa biznesning sof foydasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yashil boshqaruvning iqtisodiy modeli shuni ko‘rsatadiki, dastlabki investitsiyalar yuqoriroq bo‘lsa ham, 2–4 yil ichida o‘zini to‘liq oqlaydi va mehmonxonaga qo‘shimcha ustunliklar yaratadi.

O‘zbekiston sharoitida ekomuhitni boshqarish masalalari so‘nggi yillarda dolzarb mavzuga aylandi. Mamlakatga kelayotgan sayyohlar sonining ortishi, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari, ekologik turizmning rivojlanishi mehmonxonalardan ekologik tamoyillarni joriy etishni talab qilmoqda. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Toshkent shaharlaridagi ayrim mehmonxonalar quyosh energiyasi panellari, suvni tejovchi tizimlar, chiqindi saralash kabi amaliyotlarni joriy qila boshladi. Farg‘ona vodiysida joylashgan kichik oilaviy mehmon uylari esa mahalliy mahsulotlardan foydalanish, tabiiy materiallardan qurilgan interyerlar, kimyoviy vositalarni minimal qo‘llash orqali ekologik yondashuvni namoyish qilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston mehmonxonalarida ekomuhitni boshqarishning ba’zi muammolari mavjud. Eng asosiy muammolardan biri — investitsiya yetishmasligi va ekologik texnologiyalar narxining yuqoriligi. Ikkinchidan, mehmonxona xodimlarining ekologik madaniyat darajasi yetarli emas, bu esa joriy etilgan tizimlarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uchinchidan, ko‘plab sayyohlar ekologik toza xizmatlar uchun qo‘shimcha to‘lov qilishga tayyor emasligi, mehmonxonalar uchun rag‘batning pastligiga olib keladi. Biroq, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, xalqaro grantlar va ekologik sertifikatlashtirish tizimlari yo‘lga qo‘yilsa, bu jarayon ancha tezlashadi.

Umuman olganda, mehmonxonalarda ekomuhitni boshqarish turizmning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi va ekologik muammolarni kamaytirish bilan birga, mehmonxonalar uchun iqtisodiy foyda ham keltiradi. Ekologik mas’uliyatli mehmonxonalar nafaqat resurslarni tejaydi, balki zamonaviy global talablar bilan hamohang bo‘lib, turizm bozorida o‘z mavqeini mustahkamlaydi. Shu sababli

O‘zbekiston mehmonxonalari uchun ekomuhitni boshqarish tizimini rivojlantirish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga mos keluvchi “yashil mehmonxona” konsepsiyasini tatbiq etish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biridir.

Suv resurslarini boshqarish ham muhim masalalardan biridir. Mehmonxonalarda yuvinish xonalari, basseynlar, oshxonalar juda ko‘p miqdorda suv iste’mol qiladi. Suvni tejovchi dushlar, sensorli kranlar, suvni qayta ishlash tizimlari, yomg‘ir suvini yig‘ish texnologiyalari ekologik boshqaruvning samarali vositalaridir. Suv iste’molining kamayishi mehmonxonaning ekologik barqarorligini ta’minlash bilan birga, xarajatlarni ham sezilarli darajada qisqartiradi.

Ekomuhitni boshqarishning yana bir muhim jihati — chiqindilarni to‘g‘ri boshqarishdir. Mehmonxonalar plastmassa, qog‘oz, oziq-ovqat qoldiqlari, kimyoviy vositalar kabi turli chiqindilarni ishlab chiqaradi. Ularni saralash, qayta ishlash, plastik iste’molini kamaytirish va kompostlash orqali ekologik yuk kamaytiriladi. Bugungi kunda ko‘plab mehmonxonalar bir martalik plastik mahsulotlardan voz kechib, qayta ishlanadigan materiallarga o‘tmoqda. Bu nafaqat ekologik foyda beradi, balki mehmonlar ko‘zida mehmonxonaning mas’uliyatli brend sifatida tan olinishi uchun asos bo‘ladi.

**Adabiyotlar tahlili**

Ekomuhitni boshqarish – bu mehmonxonalarda ekologik tozalikka rioya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni minimallashtirish jarayonidir. Ekologik toza mehmonxonalar nafaqat atrof-muhitni himoya qiladi, balki turistik industriyaning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bu quyidagi jihatlar bilan bog‘liq:

1. Ekoturizm rivojlanishi – sayyohlar ekologik jihatdan qulay sharoitlarni afzal ko‘rishi bilan ekoturizmga talab oshmoqda.

2. Brend imijini mustahkamlash – yashil mehmonxonalar ekologik mas’uliyatli brend sifatida e’tirof etiladi va ko‘proq mehmon jalb qiladi.

3. Mehmonlar sodiqligini oshirish – ekologik jihatdan mas’uliyatli mehmonxonalar mijozlar tomonidan yuqori baholanadi va ularning doimiy mijozlarga aylanishiga xizmat qiladi.

4. Ekonomik samaradorlik – energiya va resurslarni tejash orqali xarajatlar kamayadi va daromad oshadi.

Mehmonxonalarda ekomuhitni boshqarish va uning turizmdagi o'rni mavzusidagi adabiyotlar tahlili ushbu sohadagi tadqiqotlar so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sganligini ko'rsatadi. Bu o'sish global ekologik muammolar, barqaror rivojlanish va ekoturizmga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan bog'liq. Tadqiqotlar mehmonxonalarda ekomuhitni boshqarishning turli jihatlarini, jumladan, ekologik siyosat, resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligi va mijozlarning xabardorligini o'z ichiga oladi. Olib borilgan bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Kirk (1998) mehmonxonalarda ekologik menejmentning asosiy tamoyillari va amaliyotlarini ko'rib chiqadi va xarajatlarni kamaytirish va obro'ni yaxshilash kabi afzalliklarini ta'kidlaydi.

• Mensah (2006) mehmonxonalarda ekologik menejmentning muvaffaqiyatli namunalari va omillarini tahlil qiladi va sertifikatlashtirishning ahamiyatini ko'rsatadi.

• Han et al. (2010) mijozlarning ekologik ongi va mehmonxonalarni tanlash o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi va ekologik toza mehmonxonalarga talabning ortib borayotganini isbotlaydi.

• Font (2002) mehmonxonalarda ekologik menejmentning barqaror turizmga qo'shadigan hissasini tahlil qiladi va mahalliy ekotizimga salbiy ta'sirni kamaytirishning muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda mehmonxonalarda ekomuhitni boshqarish bo'yicha tadqiqotlar hali ham boshlang'ich bosqichda. Shunga qaramay, so'nggi yillarda ekoturizmga bo'lgan qiziqishning ortishi va davlatning barqaror rivojlanishga qaratilgan siyosati bu sohani rivojlantirish uchun zamin yaratmoqda. O'zbekistondagi mehmonxonalarda ekomuhitni boshqarish bo'yicha tadqiqotlar asosan quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan:

• Energiya samaradorligini oshirish*:* Quyosh energiyasidan foydalanish, energiya tejovchi lampalarni o'rnatish va issiqlik izolyatsiyasini yaxshilash (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, 2021).

• Suvni tejash: Suvni tejovchi dushlar, hojatxonalar va kranlarni o'rnatish, shuningdek, suvni qayta ishlash tizimlarini joriy etish (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, 2021).

• Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash: Chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimlarini joriy etish, plastikdan voz kechish va kompostlash (O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, 2021).

Shunga qaramay, ushbu sohada hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Ulardan ba'zilari quyidagilardan iborat:

Mehmonxonalarning ekologik xabardorligi pastligi: Ko'pgina mehmonxonalar ekomuhitni boshqarishning afzalliklari haqida yetarli ma'lumotga ega emas.

Investitsiyalar yetishmasligi: Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish uchun investitsiyalar talab etiladi.

Mijozlarning talabi pastligi: Ba'zi mijozlar ekologik toza mehmonxonalarga yuqori narx to'lashga tayyor emas.

Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu muammolarni hal qilishga qaratilishi kerak. Bunga mehmonxonalarning ekologik xabardorligini oshirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va mijozlarning talabini oshirish kiradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston mehmonxonalarida ekomuhitni boshqarish bo'yicha mahalliy tajribalarni o‘rganish va xalqaro standartlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa**

Ekomuhitni boshqarish bugungi kunda mehmonxona biznesining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ekologik barqarorlikni ta’minlash orqali mehmonxonalar nafaqat atrof-muhitni asrashga, balki o‘zlarining iqtisodiy barqarorligini oshirishga ham erishadilar. Shu bois, yashil texnologiyalarga investitsiya kiritish va ekoturizm tamoyillariga amal qilish mehmonxona sanoati uchun muhim strategik yo‘nalishlardan biridir. Ekomuhitni boshqarish orqali mehmonxonalar xarajatlarni kamaytirishi, obro'ni yaxshilashi va mijozlarning sodiqligini oshirishi mumkin.

O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish uchun mehmonxonalarning ekologik xabardorligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va mijozlarning talabini oshirish zarur. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu muammolarga e'tibor qaratishi va O'zbekiston turizm sanoatining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Font, X. (2002). Environmental management in tourism: a review. Tourism Management, × 23 ×(2), 191-210.
2. Han, H., Hsu, L. T. J., & Lee, J. S. (2010). The impact of core values on green hotel behavioral intentions. International Journal of Hospitality Management, × 29 ×(3), 569-579.
3. Kirk, D. (1998). Best practice environmental management in tourism. Hospitality Press.
4. Mensah, I. (2006). Sustainable tourism: new directions for environmental management. Journal of Environmental Management, × 81 ×(2), 126-132.
5. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi (2021). Energiya samaradorligini oshirish bo'yicha hisobot. Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (2021). Suv resurslarini tejash bo'yicha hisobot. Toshkent.
7. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (2021). Chiqindilarni boshqarish bo'yicha hisobot. Toshkent.


# SACRED SITES AND PILGRIMAGE PLACES IN CASE OF ANDIJAN


**Muslima Amiriddinova,**
*Associate Professor at the "Silk Road "International University of Tourism and Cultural Heritage*

**Farogat Olimjonova,**
*Master degree student at the "Silk Road "International University of Tourism and Cultural Heritage*



**Abstract.** This article provides detailed information about the pilgrimage tourism potential of the Andijan region, its sacred sites, and pilgrimage locations. It highlights the history and current significance of sites such as the Kutayba ibn Muslim mausoleum, Yakkatut Azizlari, Solih Hoji Mosque, Muhammad Siddiq Eshon mausoleum, and other holy places. Additionally, it discusses the reforms being implemented to develop pilgrimage tourism in the region and plans to improve infrastructure. This article may be useful for pilgrims, researchers, and representatives of the tourism sector.

**Keywords:** Pilgrimage tourism, sacred sites, Islamic heritage, Ark Ichi memorial complex, historical monuments, Uzbekistan tourism.

## Introduction

The Andijan region is one of the oldest and richest in historical heritage in Uzbekistan. It is renowned not only for its economic and cultural development but also for its religious values and sacred sites. This area is home to numerous historical pilgrimage sites, mosques, mausoleums, and Islamic heritage monuments that attract interest from both local and foreign pilgrims. In recent years, pilgrimage tourism in Uzbekistan has significantly developed. The government has placed great emphasis on promoting religious tourism, improving infrastructure, enhancing the sacred sites, and promoting them internationally. As a result of these efforts, in 2024, Andijan region welcomed 499,000 foreign tourists and over 1.65 million local visitors. The region has 167 tourist organizations offering 45 different tour packages. The hotel sector is also expanding, with 22 hotels capable of accommodating 3,500 tourists at a time, along with 105 family guesthouses and 27 hostels. Furthermore, efforts to improve pilgrimage sites contribute significantly to the growth of pilgrimage tourism. The most visited historical and tourist attractions in the region have undergone a thorough inventory process, identifying 79 key sites.

One of the main pilgrimage sites in Andijan region is the mausoleum of Kutayba ibn Muslim— a significant figure in Islamic history who played a crucial role in spreading Islam in Central Asia. The mausoleum is located in the village of Kilichmozor in the Jalaquduq district of Andijan region. Kutayba ibn Muslim (669–715) was an Arab commander who made substantial contributions to the spread of Islam in Khurasan and Movarounnahr. His activities led to the widespread adoption of Islam in Bukhara, Samarkand, and the Fergana Valley. Kutayba ibn Muslim passed away in 715. The mausoleum was initially built in 715 but was demolished in 1935-1936. Later, due to an increase in pilgrim visits, the mausoleum was reconstructed. Today, the Kutayba ibn Muslim mausoleum is recognized not only as a religious site but also as a location of historical significance. Pilgrims come from various regions of Uzbekistan and neighboring countries to visit this mausoleum. Infrastructure improvements are underway around the site to create comfortable conditions for visitors. The Kutayba ibn Muslim mausoleum stands as one of the important religious and historical monuments in Andijan region and serves as a valuable resource for studying the history and culture of Islam. Its preservation and development are essential for future generations. The mausoleum is located in the Jalaquduq district of Andijan region. This sacred site is considered a center of respect and reverence for many pilgrims, attracting visitors not only from different parts of Uzbekistan but also from neighboring countries. As of 2024, it is projected that Andijan region will see an increase in international tourist arrivals by approximately 10% compared to previous years due to enhanced marketing strategies and improved infrastructure around sacred sites. Furthermore, local tourism initiatives are expected

to boost domestic visitor numbers by approximately 15%, reflecting growing interest in pilgrimage tourism within Uzbekistan's rich cultural landscape[208].

The Yakkatut Azizlari Mausoleum, located in the village of Yakkatut in the Izboskan district, is a cultural heritage site and is regarded as sacred by many Muslims. Great Islamic scholars and saints, who made significant contributions to the development of religious sciences in their time, are buried here[209]. On October 4, 2019, this shrine was included in the National Register of Immovable Objects of Tangible Cultural Heritage by a resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan and was taken under state protection. The Yakkatut Azizlari shrine stands out for its religious and historical significance[210]. It is considered a holy place where pilgrims come to perform prayers and supplications. Although the exact construction period of the shrine is unknown, it is believed to have a long history. Being under state protection, special attention is given to its preservation and maintenance. The surrounding infrastructure is being improved, creating comfortable conditions for visitors. This, in turn, increases the attractiveness of the shrine not only for the local population but also for guests arriving from other regions. The Solih Khoji Mosque is one of the oldest mosques in the Andijan region, with a history preserved for centuries. Both local residents and pilgrims visit this place not only for worship but also for spiritual purification. The mosque, whose full name is the Muhammad Solih Khoji Juma Mosque, is an important religious monument located in the village of Bahrin in the Asaka district of the Andijan region.

**Analysis of literature on the topic**

Issues related to the diversification of tourism services in our country are widely covered in the scientific works and studies of a number of economists. In particular, these issues are widely covered in the studies of Kh. Abdurakhmonov, M.R. Boltabayev, I.S. Tukhliyev, M.T. Alimova, Ye.V. Golisheva, M.Q. Pardayev, B.Sh. Safarov and others. The following foreign scientists are devoted to the study of digital technologies and innovative processes in the field of tourism and hospitality: Bogolyubov V.S., Makrinova Ye.I., Sotnik A.P., Khaydarov I.S., Sobolevska T.G., Hamirzov S.K., Kumpilov A.R., Kalashnikov S.V., Khachemizov E.A.

**Methodology and result**

This research is based on qualitative and descriptive methods aimed at identifying and analyzing the pilgrimage tourism potential of the Andijan region. The study combines both field research and secondary data analysis to provide a comprehensive understanding of the region’s religious and cultural heritage. Primary data were collected through visits to major pilgrimage sites, including the Kutayba ibn Muslim Mausoleum, Yakkatut Azizlari Mausoleum, Muhammad Solih Khoji Juma Mosque, and the Mausoleum of Muhammad Siddiq Eshon. During these visits,

[208] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures for the development of pilgrimage tourism in the Republic of Uzbekistan.”
[209] Scientific articles and monographs on historical monuments of the Andijan region.
[210] Information about the Solih Khoji Mosque, the Mausoleum of Qutayba ibn Muslim, the Yakkatut Azizlari Mausoleum, and other pilgrimage sites is based on archival materials of the Cultural Heritage Agency of the Republic of Uzbekistan.

observations were made regarding the current state of the monuments, visitor flow, infrastructure, and preservation efforts. Interviews were also conducted with local residents, pilgrims, and guides to gather insights into the cultural and spiritual importance of these sites. Secondary data were obtained from official statistics provided by the Andijan Regional Department of Tourism, as well as academic literature, reports, and online sources related to Islamic heritage and pilgrimage tourism in Uzbekistan. The collected data were analyzed descriptively to evaluate the historical value of sacred sites, their current condition, and the ongoing initiatives to improve pilgrimage tourism infrastructure. Comparative analysis was also used to assess the changes in the number of visitors and the development of services provided for pilgrims. This methodology made it possible to identify the main factors influencing the growth of pilgrimage tourism and to highlight the opportunities for its sustainable development in the Andijan region.

The findings of the study show that the Andijan region possesses significant potential for the development of pilgrimage tourism due to its rich historical, religious, and cultural heritage. The analysis revealed that in recent years, substantial improvements have been made to the infrastructure surrounding sacred sites. Roads leading to pilgrimage destinations have been reconstructed, new hotels and guesthouses have been established, and restoration works have been carried out to preserve important religious monuments such as the Kutayba ibn Muslim Mausoleum and the Muhammad Solih Khoji Juma Mosque. According to official statistics, in 2024, the Andijan region welcomed approximately 499,000 foreign tourists and more than 1.65 million domestic visitors. These figures demonstrate the growing popularity of pilgrimage and cultural tourism in the region. It is also projected that international tourist arrivals will increase by around 10%, and domestic visits by 15% in the coming years due to enhanced marketing strategies and improved infrastructure. The research further indicates that the sacred sites of the Andijan region, including the Yakkatut Azizlari complex and the Mausoleum of Muhammad Siddiq Eshon, serve not only as places of worship but also as centers of cultural preservation and education[211]. Their unique architectural styles, featuring baked brick structures, intricate woodcarving, and traditional ornamental designs, represent the distinctive features of Central Asian Islamic architecture. In addition, the study highlights the government's active role in supporting the development of pilgrimage tourism. Under the leadership of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, various initiatives have been launched to promote international cooperation, improve tourist services, and protect cultural heritage. These efforts contribute to the creation of favorable conditions for both local and foreign pilgrims. Overall, the results confirm that pilgrimage tourism plays an important role in strengthening the spiritual life of local communities, supporting economic growth, and preserving national traditions[212]. The continued protection and promotion of Andijan's sacred sites will

[211] Official websites of the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan and the State Committee for Tourism: www.madaniyat.uz, www.uzbektourism.uz.
[212] Official websites of the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan and the State Committee for Tourism: www.madaniyat.uz, www.uzbektourism.uz

ensure that they remain valuable religious and cultural treasures for future generations.

**Conclusion and recommendation**

In conclusion, the Andijan region has great potential for the development of pilgrimage tourism. Its religious and historical monuments attract thousands of tourists and pilgrims every year. Sacred sites such as the Mausoleum of Kutayba ibn Muslim, the Yakkatut Azizlari Mausoleum, the Solih Khoji Mosque, and the Mausoleum of Muhammad Siddiq Eshon represent the region's rich cultural and religious heritage. Currently, large-scale reforms are being implemented to develop pilgrimage tourism, and infrastructure is being consistently improved. Andijan region possesses significant potential for the development of pilgrimage tourism, thanks to its abundance of sacred sites, historical monuments, and religious heritage. Pilgrimage destinations such as the Mausoleum of Kutayba ibn Muslim, the Yakkatut Azizlari Mausoleum, the Solih Khoji Mosque, and the Mausoleum of Muhammad Siddiq Eshon reflect the spiritual and cultural identity of the region, serving not only as places of worship but also as living symbols of Uzbekistan's rich historical past. The measures undertaken in recent years — including infrastructure development, the restoration of religious monuments, and the creation of modern facilities for pilgrims — demonstrate the government's strong commitment to strengthening pilgrimage tourism. These efforts are aligned with broader national reforms that emphasize cultural preservation, spiritual values, and sustainable tourism development. Pilgrimage tourism in Andijan is not only of religious and cultural importance but also plays a vital role in boosting the local economy. It contributes to job creation, stimulates small and medium-sized businesses, and encourages local communities to participate in the tourism value chain. Furthermore, the establishment of guiding services, promotion of cultural routes, and active international cooperation are expected to significantly increase both domestic and international tourist flows. Looking forward, Andijan's pilgrimage tourism sector must continue to integrate modern approaches such as digital promotion, international marketing strategies, and cross-border partnerships to ensure its sustainable growth. With the support of national policies, regional authorities, and local communities, Andijan can further strengthen its position as one of Uzbekistan's leading pilgrimage and cultural tourism destinations. Thus, pilgrimage tourism in the Andijan region is evolving into an essential component of both religious and cultural life, while at the same time fostering regional development and enhancing Uzbekistan's image as a country of profound spiritual and historical heritage.

To further develop pilgrimage tourism in the Andijan region, it is important to continue improving infrastructure and accessibility around sacred sites. Training qualified guides and creating multilingual information materials will help provide better services for both local and foreign visitors. More attention should be given to the preservation and restoration of historical monuments to maintain their cultural and spiritual value. It is also necessary to promote the region through digital platforms and strengthen international cooperation to attract more pilgrims. By

implementing these measures, the Andijan region can become one of the leading centers of pilgrimage tourism in Uzbekistan.

## REFERENCES


1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures for the development of pilgrimage tourism in the Republic of Uzbekistan.”
2. Khojaev R. “The History of Uzbekistan’s Pilgrimage Sites” – Tashkent, 2020.
3. Latest analytical reports and statistical data published by the Ministry of Tourism and Cultural Heritage.
4. Official websites of the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan and the State Committee for Tourism: www.madaniyat.uz, www.uzbektourism.uz.
5. “Sacred Sites of Uzbekistan” – publication of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 2021.
6. Information about the Solih Khoji Mosque, the Mausoleum of Qutayba ibn Muslim, the Yakkatut Azizlari Mausoleum, and other pilgrimage sites is based on archival materials of the Cultural Heritage Agency of the Republic of Uzbekistan.
7. Scientific articles and monographs on historical monuments of the Andijan region.
8. Online sources: www.wikipedia.org, www.ziyorat.uz.


# TURIZM OBYEKTILARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-ASOSIY PARAMETRLARI


**Toshtemirov Xojiakbar Qaxramon o‘g‘li,**
*TDIU mustaqil tadqiqotchisi*



**Annotatsiya.** Maqolada turizm obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy-asosiy parametrlari o‘rganiladi. Tadqiqotda sun’iy intellekt, IoT, Big Data, GIS, mobil ilovalar kabi raqamli texnologiyalarning turizm infratuzilmasi va obyektlari boshqaruvidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat, xususiy sektor hamda ilmiy muassasalarning raqamli transformatsiyani amalga oshirishdagi institutsional vazifalari yoritiladi. Maqolada turizm obyektlarini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, samarali boshqaruv tamoyillari hamda raqamli rivojlanishning barqarorlikka ta’siri nazariy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot turizm boshqaruvi, raqamli transformatsiya, innovatsion iqtisodiyot va barqaror turizm konsepsiyalariga tayanadi.



**Kalit so‘zlar:** turizm, raqamli texnologiyalar, turizm obyektlari, raqamli transformatsiya, institutsional mexanizmlar, barqaror rivojlanish, innovatsion boshqaruv.

**Kirish**

Turizm mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan soha hisoblanib, u nafaqat davlat daromadlarini oshiradi, balki hududiy infratuzilma modernizatsiyasi va mahalliy aholi farovonligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm obyektlarini rivojlantirish jarayoni yanada murakkablashib, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishni talab qilmoqda. Chunki turizm faoliyati axborot almashinuvi, onlayn xizmatlar, raqamli boshqaruv, ekologik monitoring va mijozlar tajribasiga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekistonda turizm obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish davlat boshqaruvining institutsional tizimi orqali muvofiqlashtiriladi. Ushbu tizimga davlat organlari, mahalliy hokimliklar, ilmiy-markazlar, axborot texnologiyalari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar, turizm operatorlari, xususiy sektor va jamoat birlashmalari kiradi. Ularning asosiy vazifasi — turizm obyektlarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va raqamli platformalar orqali xizmatlar sifatini oshirishdan iborat.

**Asosiy qism**

Turizm obyektlarini raqamlashtirishning nazariy tamoyillari

Nazariy jihatdan turizm obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish quyidagi konsepsiyalarga tayanadi:

1. Raqamli transformatsiya konsepsiyasi

Turizmga sun’iy intellekt (AI), IoT sensorlari, Big Data, bulutli servislar, GIS xaritalash va mobil ilovalar singari texnologiyalarni tatbiq etish orqali xizmatlar sifatini yaxshilash va boshqaruv tizimini optimallashtirish.

2. Smart Tourism (aqlli turizm) yondashuvi

Turistik obyektlarda onlayn bron qilish, AR/VR ekskursiyalar, aqlli navigatsiya, virtual gidlar, raqamli chipta tizimlari kabi xizmatlarni joriy etish.

3. Barqaror raqamli turizm nazariyasi

Raqamli texnologiyalar orqali ekologik monitoring, resurslardan oqilona foydalanish va turizmning salbiy ta’sirini kamaytirish.

4. Institutsional boshqaruv konsepsiyasi

Turizmni boshqarishda raqamli tizimlar, yagona elektron platformalar, ma’lumotlar bazasi, raqamli statistik tahlil va elektron nazorat mexanizmlaridan foydalanish.

5. Strategik boshqaruv

Uzoq muddatli raqamli infratuzilma yaratish, investitsion loyihalar, innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, hududiy raqamli klasterlar va “raqamli turizm xaritasi”ni shakllantirish.

Bramwell va Lane tadqiqotlarida qayd etilganidek, turizm boshqaruvida institutsional tuzilmalar hamkorligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, raqamli texnologiyalar bu hamkorlikni yanada tizimli qiladi. D.Weaverning barqarorlik nazariyasiga ko‘ra, raqamli yechimlar ekologik monitoring va turizm oqimini tartibga solishda muhim vosita sanaladi. Sharipov va Mamatqulova esa innovatsion texnologiyalar turizm obyektlarini boshqarish samaradorligini oshirishini ta’kidlagan.

O‘zbekistonda turizm obyektlarini raqamli rivojlantirishga oid normativ-huquqiy asoslar

Mamlakatda turizm obyektlarini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha qator muhim hujjatlar qabul qilingan:

- “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun (2019 yil) — turizmda raqamli xizmatlar, elektron tizimlar, litsenziyalash tartiblari va boshqaruv jarayonlarini belgilaydi.
- UP–4861-sonli Prezident qarori — turizm infratuzilmasini raqamlashtirish, elektron platformalar yaratish bo‘yicha yangi vazifalarni belgilab berdi.
- 433-sonli VMQ (2020) — turizm faoliyatida elektron ro‘yxatdan o‘tish, raqamli litsenziyalash, kadrlarni tayyorlashni modernizatsiya qilish masalalarini tartibga soldi.
- PQ–87 (2025–2026) — turizm xizmatlari hajmini oshirish uchun raqamli marketing, smart-infratuzilma va elektron boshqaruv tizimlarini joriy etishni ko‘zda tutadi.
- “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi — turizm obyektlarida raqamli ekotizim yaratish, “Smart Tourism Uzbekistan” modelini shakllantirishni maqsad qiladi.

Institutsional tuzilmalar va ularning raqamli transformatsiya jarayonidagi roli

Raqamli rivojlanish konsepsiyasiga ko‘ra, turizm obyektlarini boshqarishda quyidagi subyektlarning roli muhim:

- Davlat organlari — yagona elektron turizm platformasini shakllantirish, raqamli sertifikatlash, statistik ma’lumotlar monitoringi.
- Mahalliy hokimiyatlar — raqamli infratuzilma (Wi-Fi zonalar, elektron to‘lovlar, GIS xaritalar) yaratish.
- Ilmiy va ta’lim muassasalari — AI, AR/VR, IoT bo‘yicha turizm uchun innovatsion yechimlar ishlab chiqish.
- Nodavlat va jamoat tashkilotlari — turizm operatorlari uchun raqamli xizmatlar, elektron reklamalar, raqamli marketingni rivojlantirish.
- Xususiy sektor — smart-mehmonxonalar, elektron bronlash, onlayn to‘lov, mijozlar tajribasini tahlil qilish (CRM) tizimlari.

Strategik boshqaruv tamoyillari

Turizm obyektlarini raqamli rivojlantirishda strategik boshqaruv quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- Barqarorlik — raqamli texnologiyalar orqali ekologik monitoring, chiqindisiz turizm, barqaror oqim boshqaruvi.
- Integratsiya — davlat, IT-sektor, turistik xizmat ko‘rsatuvchilar va jamoalarning yagona raqamli platformada ishlashi.
- Innovatsiya — AR/VR gidlik, kontakt bo‘lmagan xizmatlar, aqlli sensor tizimlari, raqamli chiptalar.
- Monitoring va nazorat — real vaqt rejimida turizm oqimini kuzatish, statistika tahlili, xavfsizlik monitoringi.

O‘zbekistonda raqamli turizm bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar

So‘nggi yillarda turizm obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- yagona e-Tourism platformasini yaratish;
- smart-muzeylar, virtual ekskursiyalar, 3D rekonstruksiya qilish;

- turizm obyektlariga sensor texnologiyalar, onlayn chipta tizimi, elektron navbatlar joriy etish;
- raqamli marketing va xalqaro platformalar bilan integratsiya;
- hududiy turizm klasterlarida GIS-geoxaritalash tizimini rivojlantirish.

Bu jarayonlar turizm obyektlarini boshqarish samaradorligini oshiradi, xizmatlar sifatini yaxshilaydi va turistlar oqimini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

**Xulosa**

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, turizm obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm boshqaruvi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Raqamlashtirish jarayoni nafaqat turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, balki boshqaruv samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, turistlarning xavfsizligi va qulayligini ta’minlash hamda tarmoqqa oid iqtisodiy faoliyatning umumiy barqaror o‘sishini rag‘batlantiradi.

Raqamli texnologiyalar turizm obyektlarining boshqaruv tizimiga chuqur kirib borar ekan, ular institutsional tuzilmalar faoliyatining yangi modelini shakllantiradi. Mazkur model davlat organlari, mahalliy boshqaruv tizimi, xususiy sektor, ilmiy-tadqiqot muassasalari, jamoat tashkilotlari o‘rtasida yangi darajadagi integratsiyani talab qiladi. Natijada, raqamli boshqaruv tizimlari turizm siyosatini tahlil qilish, rejalashtirish, monitoring qilish va prognozlash jarayonlarini aniq, shaffof va tezkor amalga oshirish imkonini beradi.

Raqamli transformatsiya turizm sektorida quyidagi ustuvor ustunliklarni yaratadi:

- Big Data va analitika orqali turistlar oqimini oldindan prognozlash, talabni tahlil qilish va marketingni optimallashtirish;
- GIS va geolokatsiya xizmatlari yordamida turizm marshrutlarini boshqarish, obyektlar joylashuvining raqamli xaritalarini yaratish;
- IoT texnologiyalari orqali mehmonxonalar, muzeylar, qo‘riqxonalar va rekreatsion hududlarda xavfsizlik, energiya samaradorligi va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- Raqamli to‘lov tizimlari yordamida turistlar uchun qulay va xavfsiz iqtisodiy muhitni shakllantirish;
- Virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR) asosidagi turizm mahsulotlari orqali madaniy meros obyektlarini innovatsion shaklda ommalashtirish;
- Aqlli boshqaruv platformalari asosida turizm obyektlari o‘rtasida yagona raqamli ekotizim yaratish.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan raqamlashtirish islohotlari "aqlli turizm" konsepsiyasining shakllanishiga zamin yaratmoqda. Xususan, elektron vizalar, yagona onlayn bron qilish tizimlari, raqamli gid xizmatlari, QR-kodlar orqali obyektlar haqida ma’lumot berish, elektron chiptalar, geoaxborot tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi raqamli servislar turizm boshqaruvida yangi bosqichni boshlab berdi. Kelgusida bu jarayon milliy turizm siyosati bilan uyg‘unlashgan holda, O‘zbekistonning jahon turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradigan yangi raqamli turizm ekotizimini shakllantiradi.

Shundan kelib chiqib quyidagi xulosaga erishildi:

Birinchidan, turizm sohasini muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilmalar — davlat organlari, mahalliy boshqaruv organlari, ilmiy-innovatsion markazlar va jamoat tashkilotlari — raqamli texnologiyalarni joriy etishda asosiy koordinatsion rolni bajaradi. Ular raqamli platformalar orqali turizm siyosatini samarali amalga oshirish, infratuzilma sifatini yaxshilash hamda turizm xizmatlari bozorini boshqarishga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, institutsional boshqaruv konsepsiyasi turizm obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida tartibga solish uchun nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur konsepsiya doirasida raqamli standartlar, monitoring tizimlari, ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash va “aqlli boshqaruv” mexanizmlarini shakllantirish turizmni zamonaviy talablar darajasida rivojlantirishga zamin yaratadi.

Uchinchidan, strategik boshqaruv raqamli transformatsiya jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar asosida rejalashtirilgan strategik dasturlar hududiy turizm klasterlarini rivojlantirish, innovatsion turizm xizmatlarini joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy hamjamiyatlar farovonligini yaxshilashga yordam beradi.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda turizm obyektlarini raqamli boshqaruvga o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar — turizmni rivojlantirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va turizm sektorida xalqaro standartlarni joriy etishga qaratilgan. Bu esa kelajakda mamlakat turizm salohiyatini yanada kuchaytirish, global raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror turizm ekotizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, turizm obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy-asosiy parametrlari raqamli transformatsiya, institutsional boshqaruv, strategik rejalashtirish va barqaror rivojlanish tamoyillariga tayanadi. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar O‘zbekistonning turizm sohasini yangi sifat bosqichiga olib chiqishi shubhasiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4861-son qarori, 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 433-son qarori, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–87-son qarori, 2025.
5. PF–60-son Farmon “Taraqqiyot strategiyasi 2022–2026”.
6. Weaver D. Sustainable Tourism. Oxford: Elsevier, 2006.
7. UNWTO. Sustainable Tourism for Development Guidebook. Madrid, 2021.
8. Sharipov A. O‘zbekiston hududlarida raqamli turizmni rivojlantirish omillari.
9. Mamatqulova D. Turizm infratuzilmasini raqamlashtirishning innovatsion yo‘nalishlari

# TURIZMNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

**Abatbayeva Gulbanu Jaksibayevna,**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*1-kurs magistranti*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada turizmning zamonaviy iqtisodiyotdagi strategik o‘rni, uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ko‘p qirrali ta’siri hamda barqaror turizm konsepsiyasining ahamiyati tahlil qilinadi. Turizm faqat iqtisodiy foyda keltiruvchi tarmoq sifatida emas, balki madaniy merosni asrash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy aholining bandligini oshirishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston misolida turizm sohasidagi islohotlar, yangi yondashuvlar va istiqbolli yo‘nalishlar o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** turizm, iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekoturizm, madaniy meros, bandlik, innovatsiya, O‘zbekiston, xizmat ko‘rsatish sohasi.

## Kirish

Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng dinamik va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, global yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini tashkil etadi. UNWTO ma’lumotlariga ko‘ra, turizm global YAIMning taxminan 10 foizini tashil etadi, har o‘ninchi ish o‘rnini esa ushbu soha yaratadi. Turizmning iqtisodiy ta’siri bilan birga, uning ijtimoiy, madaniy va ekologik yo‘nalishlardagi ahamiyati ham ortib bormoqda.

Turizm – nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi, balki mamlakatning ijtimoiy, madaniy va ekologik taraqqiyotini ta’minlovchi strategik soha hisoblanadi. Uning rivojlanishi bevosita milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga hamda xalqaro imijning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda turizmning har bir yo‘nalishi — madaniy, ekologik, sog‘lomlashtiruvchi yoki ilmiy turizm — mamlakatning jahon iqtisodiy tizimidagi mavqeini oshirishda muhim omilga aylanmoqda.

## Asosiy qism

Turizm sohasining iqtisodiyotga ta’siri ko‘p qirrali. U davlat byudjetiga xorijiy valyuta tushumlarini olib kiradi, kichik va o‘rta biznesni rivojlantiradi, infratuzilmani yaxshilaydi hamda hududlar iqtisodiy faolligini oshiradi. O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab turizm davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2019–2025-yillar uchun qabul qilingan “Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi” sohaning yangi bosqichga chiqishiga asos bo‘ldi. Shu davrda mehmonxonalar soni, aviaqatnovlar hajmi, turistlar oqimi sezilarli darajada oshdi.

Turizm ijtimoiy integratsiya, madaniy almashinuv va bag‘rikenglikni rivojlantiruvchi samarali vosita hisoblanadi. Turistlar mahalliy aholi bilan muloqot qilib, ularning qadriyatlari, san’ati va turmush tarzini o‘rganadi. Bu jarayon:

- xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni kuchaytiradi;
- tarixiy va madaniy merosni asrashga rag‘bat uyg‘otadi;

- xalqning o‘ziga xosligi, milliy o‘zligini his qilishi va qadriyatlarini anglash jarayonini kuchaytiradi.

O‘zbekistondagi Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi shaharlarning UNESCOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi mamlakatning global turizm bozoridagi imidjini mustahkamlovchi muhim omildir.

So‘nggi yillarda turizmning ekologik ta’sirini kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi global miqyosda dolzarb bo‘lib bormoqda. “Barqaror turizm” konsepsiyasi tabiatni muhofaza qilish, mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish va kelajak avlodlar uchun imkoniyatlarni saqlab qolish tamoyillarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda ekoturizm, etnoturizm va agroturizm turlari rivojlanmoqda. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Ustyurt platosi va Orolbo‘yi hududlari ekologik turizm uchun istiqbolli yo‘nalishlar sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston uchun turizm, ayniqsa, iqtisodiyotning diversifikatsiyasida muhim o‘rin tutadi. Xususan, turizm orqali kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sektori rivojlanmoqda, chet el investitsiyalari jalb qilinmoqda va hududiy infratuzilma yangilanmoqda. Shu bilan birga, turizm milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy yodgorliklar va tabiiy boyliklarni targ‘ib etish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu jarayon xalqning o‘z madaniyatiga bo‘lgan e’tiborini oshirib, yosh avlodda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlaydi.

Barqaror turizm tamoyillarini joriy etish O‘zbekiston turizm siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tamoyillar ekologik muvozanatni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona va uzoq muddatli foydalanish, mahalliy aholini turizm faoliyatiga keng jalb etish hamda ularning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Shu asosda mamlakatda ekoturizm, agroturizm va etnoturizm kabi barqaror yo‘nalishlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ustyurt platosi, Orolbo‘yi, Qizilqum cho‘li kabi noyob tabiiy hududlarda ekologik yo‘nalishdagi loyihalarni amalga oshirish esa nafaqat turizmning hududiy diversifikatsiyasini ta’minlaydi, balki bioxilma-xillikni saqlash va mahalliy hamjamiyatlar farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida innovatsion yechimlar muhim o‘rin tutmoqda. “Smart Tourism” konsepsiyasi asosida mobil ilovalar, onlayn bron tizimlari, virtual gidlar, raqamli xaritalar va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali turistlarga qulay sharoit yaratish mumkin. Bu esa xizmatlar sifatini oshirib, mamlakatning raqamli turizm infratuzilmasini kuchaytiradi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston turizmi hozirda jadal rivojlanish bosqichiga kirgan bo‘lsa-da, uning mavjud salohiyati hali to‘liq namoyon etilmagan. Shuning uchun sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish va zamonaviy marketing strategiyalarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, turizmni boshqarishda barqaror rivojlanish tamoyillari va innovatsion yondashuvlarga asoslangan tizimni shakllantirish zarur. Mazkur omillar uyg‘unligi O‘zbekiston turizmining nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham raqobatbardosh va barqaror tarmoq sifatida rivojlanishini ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. World Tourism Organization (UNWTO). *Tourism Highlights 2024 Edition.* Madrid, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2025-yillarda turizmni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent, 2019.
3. UNESCO World Heritage List – Samarkand, Bukhara, Khiva, Shahrisabz. 2023.
4. United Nations Environment Programme (UNEP). *Sustainable Tourism Principles.* Geneva, 2022.

## ZIYORAT TURIZMI OBYEKTLARIDA YASHIL TURIZM ELEMENTLARINI JORIY ETISHNING TASHKILIY XUSUSIYATLARI

**Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi,**
*Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ziyorat turizmi obyektlarida yashil turizm elementlarini joriy etishning tashkiliy xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ekologik barqarorlik tamoyillari asosida xalqaro tajriba tadqiq qilinib, ularning milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari baholangan. Xususan, ziyorat turizmiga oid maskanlarda mavjud turistik resurslarni samarali boshqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, yashil transport infratuzilmasini rivojlantirish va mahalliy aholining faol ishtirokini ta’minlash kabi tashkiliy yo‘nalishlarning o‘rniga urg‘u berilgan. Shu bilan birga, yashil turizm elementlari yordamida ziyorat obyektlarining ekologik samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda ekologik mas’uliyatli ziyoratchilarni jalb qilishga xizmat qiluvchi istiqbol yo‘nalishlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ziyorat turizmi obyektlarini barqaror boshqarish, milliy turizm sohasida ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** yashil turizm, ziyorat turizmi, barqaror rivojlanish, tashkiliy xususiyatlar, ekologik boshqaruv, qayta tiklanuvchi energiya, yashil transport, xalqaro tajriba, turizmda innovatsiyalar, xizmatlar sifati, raqobatbardoshlik.

### Kirish

Hozirda turizm sanoati jahon miqyosida eng muhim global ijtimoiy-iqtisodiy hodisalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Oxirgi o‘n yilda barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida turizmning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ta’minlashga qaratilgan yangi yondashuvlar joriy qilinmoqda. Xususan, turizm industriyasi nafaqat an’anaviy rivojlanish, balki raqobat bozorida ustunlikka erishish uchun innovatsion, ekologik va barqarorlikka asoslangan mexanizmlardan ham keng foydalanishga ahamiyat berishi lozim.

Yashil turizm – tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va mahalliy aholining turizm jarayonidagi ishtirokini oshirish orqali amalga oshiriladigan zamonaviy yondashuvdir[213]. Ushbu jarayon turizm sohasida nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilishga ham xizmat qiladi[214].

Mamlakatimiz turizm sohasida yuqori salohiyatga ega, xususan, ziyorat turizmi O‘zbekistonda eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Yurtimizda islomiy meros obyektlari, muqaddas ziyorat maskanlari, qadimiy shaharlar va diniy-ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq boy madaniy meros mavjud. Ziyorat turizmini rivojlantirish jarayonida yashil turizm elementlarini joriy etish nafaqat ziyoratchilar uchun qulay va xavfsiz sharoit yaratadi, balki mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi imidjini mustahkamlashda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda ziyorat turizmi obyektlarida yashil turizm elementlarini joriy etishning tashkiliy xususiyatlari tahlil qilinib, xalqaro tajribalar asosida ularni milliy amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, yashil turizm elementlari yordamida xizmatlar sifatini oshirish, turistlar oqimini ko‘paytirish va mahalliy aholini band qilish masalalariga ham alohida e’tibor qaratiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Yashil turizm konsepsiyasi iqtisodiy va ekologik termin sifatida ko‘plab olimlarning tadqiqotlarida tahlil qilingan bo‘lib, globallashuv va barqaror rivojlanish davrida katta ahamiyat kasb etadi. Joseph Schumpeter o‘zining “Kapitalizm, sotsializm va demokratiya” asarida innovatsion yondashuvlarni iqtisodiyotning “yangi dastaklari” sifatida baholagan[215]. P.M. Romer esa “Endogen texnologik o‘zgarishlar” nazariyasi orqali ichki resurslar va innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri ekanini asoslab bergan[216].

Turizm sohasida esa yashil yondashuv va ekologik innovatsiyalar ko‘plab tadqiqotlarchilarning diqqat markazida bo‘lgan. Masalan, D. Buhalis va C. Costa o‘z tadqiqotlarida barqaror turizm menejmenti va ekologik yondashuvning strategik rolini tahlil qilgan[217]. P.J. Sheldon esa “O‘zgarishlar uchun turizm tajribasini loyihalash” nomli ilmiy izlanishida ekologik turizm, madaniy merosni asrab-avaylash va ijtimoiy mas’uliyatli turizmda innovatsion yondashuvlarning o‘rnini ochib bergan[218].

Mahalliy olimlar ham ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, N. Tuxliyevning bir qator tadqiqotlarida O‘zbekistonda turizm, jumladan,

[213] Tok, Dickson, Yunhui Huang, and Lu Yang. "“Feel the green”: How a handwritten typeface affects tourists’ responses to green tourism products and services." *Tourism Management* 104 (2024): 104920.
[214] Ma, Shigui, Yong He, and Ran Gu. "Joint service, pricing and advertising strategies with tourists’ green tourism experience in a tourism supply chain." *Journal of Retailing and Consumer Services* 61 (2021): 102563.
[215] Schumpeter, Joseph A. *Capitalism, socialism and democracy*. routledge, 2013.
[216] Romer, Paul M. "Endogenous technological change." *Journal of political Economy* 98.5, Part 2 (1990): S71-S102.
[217] Buhalis, Dimitrios, and Carlos Costa, eds. *Tourism management dynamics: trends, management and tools*. Routledge, 2006.
[218] Sheldon, Pauline J. "Designing tourism experiences for inner transformation." *Annals of tourism research* 83 (2020): 102935.

ziyorat turizmini rivojlantirishning modellari va o‘ziga xos tashkiliy xususiyatlari ochib berilgan[219]. Shuningdek, O. Astanakulovning “Turizm 4.0: turizm industriyasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari” nomli ilmiy ishida ekologik va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali turizm sohasida barqaror rivojlanishga erishish masalalari yoritilgan[220].

Biroq olib borilgan tadqiqotlarning aksariyatida umumiy yondashuv ustunlik qiladi. Ziyorat turizmi obyektlarida yashil turizm elementlarini joriy etishning tashkiliy xususiyatlari esa alohida tadqiq qilishni talab qiladi. Chunki ushbu turizm yo‘nalishida ekologik yondashuv nafaqat diniy merosni asrab-avaylash, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi.

**Materiallar va metodlar**

Tadqiqot jarayonida yashil turizm elementlari va ularning bugungi kundagi o‘rni, ziyorat turizmi obyektlarida ekologik tamoyillarning qo‘llanilishi, shuningdek, mamlakatimiz turizm sohasiga oid ma’lumotlar tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda, ilmiy ish davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil kabi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar**

Hozirda turizm jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mazkur sektor ko‘p qirrali bo‘lib, turli mamlakatlar iqtisodiyoti, madaniyati, atrof-muhit va jamiyatiga turlicha ta’sir o‘tkazadi. Turizm global miqyosda ish bilan ta’minlashning muhim manbayi bo‘lib, bevosita va bilvosita yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Sayyohlarning turistik destinatsiyalarda sarflagan xarajatlari orqali valyuta tushumlarini ko‘paytiradi, shu orqali milliy YaIM ga hissa qo‘shadi. Turizmni qo‘llab-quvvatlash uchun mamlakatda aeroportlar, yo‘llar, mehmonxonalar, restoranlar va madaniy obyektlarga sarmoya kiritiladi. Mazkur rivojlansh nafaqat turistlar, balki mahalliy aholining umumiy hayot sifatini oshiradi.

1-rasmda 2016-2023-yillar kesimida xalqaro turistik tashriflar soni keltirilgan. Rasmda ko‘rinib turibdiki, 2016-2019-yillar kesimida xalqaro tashriflar soni xalqaro turistik bozorda barqaror o‘sib borgan va 2019-yilda eng yirik ko‘rsatkichga yetgan va 1462,27 million kishini tashkil etgan. Ammo, 2020-yilda butun dunyoda kuzatilgan COVID-19 pandemiyasi sababli turistik tashriflar soni qariyb 72 foizga kamaydi. 2021-yilda tashriflar soni 12 foizga ko‘paygan bo‘lsa-da, pandemiyagacha bo‘lgan davrga nisbatan qariyb 3 barobar kam ko‘rsatkichni qayd etdi. 2022-yilda mamlakat va mintaqalararo pandemiya sababli yuzaga kelgan sanitariya-epidimiologik talablar asta-sekin kamayib borishi natijasida turistik oqim hajmi ham oshdi va 960,19 millionni tashkil etdi. 2023-yilda bu ko‘rsatkich 1285,66 millionni tashkil etgan bo‘lsa-da, 2019-yilga nisbatan 12 foiz kamligicha qoldi.

[219] Tuxliyev, Nurislom. "Tourism development model in uzbekistan and its specific characteristics." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 73-78.

[220] Astanakulov, Olim, et al. "IoT Innovations for Transforming the Future of Tourism Industry: Towards Smart Tourism Systems." *Journal of Intelligent Systems & Internet of Things* 14.2 (2025).




**1-rasm. 2016-2023-yillar kesimida xalqaro turistik tashriflar soni (million kishi)[221]**

Pandemiya butun dunyo mamlakatlari kabi O‘zbekistonda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. 2-rasmda 2016-2023-yillar kesimida O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni keltirib o‘tilgan. 2019-yilda jami turistlar soni 6748,5 mingdan ziyod kishini tashkil qilgan, 2020-yilda esa bu ko‘rsatkich pandemiya sababli 77,7 % ga kamaygan. 2021-yilda O‘zbekistonga jami 1881,3 ming nafar turistlar tashrif buyurdi, bu esa 2019-yildagidan 3,5 barobar kichik ko‘rsatkich edi. Ammo, pandemiya tufayli vujudga kelgan cheklovlar qisqargach, mamlakatga turistlar oqimi yana ko‘paya boshladi. 2023-yilda tashrif buyurgan sayyohlar soni 6,6 milliondan oshdi va pandemiyagacha bo‘lgan holatni 98,2 % ga tikladi.




**2-rasm. 2016-2023-yillar kesimida O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni (ming kishi)[222]**

Ziyorat turizmi obyektlarida yashil turizm elementlarini joriy etishning tashkiliy xususiyatlarini tadqiq etish nazariy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Sababi, ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot konsepsiyasining kengayishi iqtisodiy rivojlanish

[221] https://www.statista.com/statistics/209334/total-number-of-international-tourist-arrivals/ ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

[222] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

haqidagi ilmiy qarashlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. Barqaror turizm tamoyillari inson hayotining barcha jabhalariga singdirilishi ziyorat turizmi sohasida boshqaruv va tashkil etish mexanizmlarining yangi shakllarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Shuningdek, tizimli, kompleks va texnologik yondashuvni amalga oshirish yashil turizm elementlarini samarali joriy etishning asosiy talabi hisoblanadi. Shu jihatdan, yashil rivojlanishning tashkiliy va amaliy xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi[223].

Ziyorat turizmi obyektlariga yashil texnologiyalarni tatbiq etish nafaqat ekologik muhitni muhofaza qilish, balki sayyohlik jarayonini ham turistlar, ham turizm sohasining boshqa ishtirokchilari uchun qulaylashtirishga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatga nafaqat diniy-ma’rifiy, balki ekologik jihatdan ongli turistlar oqimining ko‘payishiga ham turtki bo‘lishi mumkin. Biroq, yashil elementlarning ziyorat turizmiga ta’sirini baholashda ko‘plab omillar – resurslarning mavjudligi, sayyohlar ehtiyoji va tashrifdan maqsadi, ziyoratgohlarning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi zarur.

Ziyorat turizmi obyektlari (maqbaralar, masjid-madrasalar, muqaddas joylar majmuasi, ziyoratgohlar) yuqori sezgir ijtimoiy-diniy qadriyatlar, mavsumiy yuqori oqim va cheklangan hudud resurslari bilan tavsiflanadi. “Yashil elementlar” deganda resurslardan tejamkor foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, bioturli-xillikni muhofaza qilish, toza energiya yechimlari, sof ta’minot zanjirlari va ijtimoiy-inklyuziv xizmatlarni integratsiyalash tushuniladi[224]. Tashkiliy xususiyatlarning markazida ko‘p tomonlama hamkorlik, me’yorlash va o‘lchovga asoslangan boshqaruv turadi.

Ziyorat turizmi obyektlarida yashil turizm elementlarini joriy etishda quyidagi xususiyatlar asosiy o‘rin egallaydi (3-rasm).




**3-rasm. Ziyorat turizmi obyektlarida yashil turizm elementlarini joriy etishda asosiy xususiyatlar[225]**

[223] Subramaniam, Nava, et al. "Sustainable development goal reporting: Contrasting effects of institutional and organisational factors." *Journal of Cleaner Production* 411 (2023).
[224] Tornjanski, Vesna, et al. "The Role of Green Society in Society 5.0: Tango Diamond in a Collective Intelligence (Hybrid) Ecosystem Founded on Human-Centricity and Sustainability." *Journal of Business and Social Sciences* 2024.1 (2024).
[225] Muallif ishlanmasi

Ziyorat turizmi obyektlarini barqaror rivojlantirishda normativ-huquqiy va institutsional baza muhim o‘rin tutadi[226]. Ichki siyosatlar milliy ekologik me’yorlar, hududiy rejalashtirish hujjatlari, merosni muhofaza qilish qoidalari hamda mehnat xavfsizligi talablariga mos bo‘lishi lozim. Bunda ekologik boshqaruv tizimi, barqaror tadbirlar boshqaruvi va umumiy barqaror turizm tamoyillariga mos reglamentlar ishlab chiqilishi zarur. Diniy muassasa, hududiy turizm va ekologiya organlari, tur-operatorlar hamda infratuzilma xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasidagi huquq va javobgarliklar aniq yozma kelishuvlar orqali belgilanishi kerak.

Boshqaruv tizimi tuzilmasi ko‘p darajali model asosida tashkil etilishi, milliy darajada konseptual siyosat, metodik qo‘llanmalar va moliyaviy rag‘batlar ta’minlanishi maqsadga muvofiq. Hududiy darajada muvofiqlashtirish shtabi va monitoring platformasi faoliyat yuritib, yashil transport hamda chiqindi klasterlari kabi umumiy logistika masalalari hal etiladi. Obyekt darajasida esa eko-menejer, ichki audit guruhi va manfaatdor tomonlar ishtirokidagi maslahat kengashi ish olib borishi lozim.

Strategik rejalashtirishda asosiy maqsadlar resurs sarfini kamaytirish, ekologik izni pasaytirish, ziyoratchilar farovonligini oshirish va mahalliy iqtisodiyotga “yashil” ta’sirni kuchaytirishdan iborat bo‘ladi. Buning uchun energiya, suv, chiqindi, transport, yashil xaridlar, ziyoratchi qoniqishi kabi ko‘rsatkichlar (KPI) ishlab chiqilib, MRV (o‘lchash, hisobot, verifikatsiya) tizimi orqali nazorat qilinadi[227].

Operatsion choralar qatorida energiya boshqaruvi uchun quyosh panellari, issiqlik nasoslari, LED yoritish va aqlli datchiklar joriy etiladi, shuningdek, energiya auditi va ESCO modeli qo‘llaniladi[228]. Chiqindilarni boshqarishda manbada ajratish, kompostlash, bir martalik plastmassani bosqichma-bosqich chiqarib tashlash muhim ahamiyat kasb etadi. Transport va logistika bo‘yicha piyoda yo‘laklari, velosiped yo‘nalishlari va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun universal dizayn yaratish ko‘zda tutiladi.

Landshaft va merosni muhofaza qilishda eroziyaga qarshi yechimlar, bioturli-xillik xaritasi, vibratsiya va namlik monitoringi yo‘lga qo‘yiladi[229]. Ta’minot zanjirida esa halol va ekologik sertifikatlangan oziq-ovqat yetkazib beruvchilar, mahalliy ishlab chiqaruvchilar hamda hunarmandchilik faoliyatiga ustuvorlik beriladi. Raqamli boshqaruv tizimlari yordamida onlayn bandlov, raqamli navbat, real vaqt rejimida resurslar paneli va ziyoratchilar qoniqishini tahlil qilish yo‘lga qo‘yiladi.

Ichki audit tizimi orqali eko-siyosat, protseduralar va favqulodda holat rejasi ishlab chiqilib, tashqi auditor tomonidan muntazam baholash amalga oshiriladi. Turizm obyektlari uchun ekologik yorliqlar va akreditatsiyalar bosqichma-bosqich joriy qilinadi. Moliyalashtirish manbalari byudjet, xayriya vaqflari, xalqaro grantlar

---

[226] Khater, Mohamed, et al. "Legal frameworks for sustainable tourism: Balancing environmental conservation and economic development." *Current Issues in Tourism* (2024): 1-22.

[227] Pacheco, Pedro Miguel Escaleira. *Monitoring Cities’ Environmental Sustainability: Lisbon’s Case Study a Dashboard to Measure Sustainability KPIs and Metrics*. MS thesis. Universidade NOVA de Lisboa (Portugal), 2021.

[228] Dalla Palma, Daniel. "Energy Efficiency and Saving Projects: barriers, the role of ESCos, their business model and risk management solutions." (2021).

[229] Balková, Marie, et al. "Ecosystem services of vegetation features as the multifunction anti-erosion measures in the Czech Republic in 2019 and its 30-year prediction." *Agriculture* 11.2 (2021): 105.

va PPP mexanizmlaridan iborat bo‘lib, yashil kreditlar, ESCO va mikroinvestorlik kabi moliyaviy vositalar qo‘llanadi[230]. Xarajat-foyda tahlili, NPV/IRR va ijtimoiy qaytish ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlik baholanadi.

Kadrlar tayyorlash va o‘zgarishlarni boshqarishda eko-menejer, resurslar muhandisi, sanitariya koordinatori va kommunikatsiya mutaxassisi kabi rollar aniqlanadi. Treninglarda resurs tejamkorligi, xavfsizlik, mehmondo‘stlik va ekologik odob-axloq masalalari yoritilib, yashil amaliyotlar diniy-ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik uchun maslahat kengashi tuzilib, muntazam jamoatchilik eshituvi va shaffof hisobotlar taqdim etiladi.

Xavf va chidamlilik boshqaruvida mavsumiy davrlar uchun sanitariya rejimi kuchaytiriladi, iqlim o‘zgarishlari sharoitida sovutish, soyali hududlar va suv punktlari tashkil etiladi, epidemiologik protokollar joriy etiladi, yong‘in, suv toshqinlari va elektr nosozliklari uchun biznesning uzluksizlik rejasi ishlab chiqiladi.

Yashil xaridlar siyosatida hayotiy sikl xarajatlari, eko-yorliqli mahsulotlar, mahalliy yetkazib beruvchilar va ijtimoiy mas’uliyat shartlari ustuvor hisoblanadi[231]. Monitoring va hisobot arxitekturasi sensorlardan ma’lumot yig‘ishdan tortib yillik integratsiyalashgan hisobotgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Shaffoflikni ta’minlash uchun obyektning veb-sahifasida KPI ko‘rsatkichlari ochiq e’lon qilinadi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmning samarali tatbiqi nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ziyorat turizmi obyektlarida yashil turizm prinsiplari – resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, shuningdek mahalliy aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikni rivojlantirish – tizimli ravishda joriy etilishi zarurligi aniqlangan. Shu bilan birga, boshqaruv jarayonining samaradorligini ta’minlash uchun tashkilot ichida aniq struktura va mas’uliyat taqsimoti, xodimlarning ekologik madaniyat va barqaror turizm bo‘yicha malakasini oshirish hamda monitoring va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Takliflar sifatida, ziyorat turizmi obyektlarida yashil turizm elementlarini tatbiq etishda ilg‘or xalqaro tajribalarni hisobga olish, ekologik standartlar va sertifikatlashtirish tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, barqaror rivojlanishga qaratilgan tashkiliy qarorlar strategik rejalashtirishga asoslanishi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va turizm xizmatlarining sifatini oshirish bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Natijada, yashil turizmning integratsiyasi nafaqat ekologik va ijtimoiy foyda keltiradi, balki milliy va mintaqaviy darajada turizm salohiyatini oshirish va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Tok, Dickson, Yunhui Huang, and Lu Yang. "“Feel the green”: How a handwritten typeface affects tourists’ responses to green tourism products and services." Tourism Management 104 (2024): 104920.

[230] Rezessy, Silvia, and Paolo Bertoldi. "Financing energy efficiency: forging the link between financing and project implementation." *Report prepared by the Joint Research Centre of the European Commission* 152 (2010).

[231] Mungkung, Rattanawan, et al. "Analysis of green product procurement and ecolabels towards sustainable consumption and production in Thailand." *Sustainable Production and Consumption* 28 (2021): 11-20.

2. Ma, Shigui, Yong He, and Ran Gu. "Joint service, pricing and advertising strategies with tourists' green tourism experience in a tourism supply chain." Journal of Retailing and Consumer Services 61 (2021): 102563.

3. Schumpeter, Joseph A. Capitalism, socialism and democracy. routledge, 2013.

4. Romer, Paul M. "Endogenous technological change." Journal of political Economy 98.5, Part 2 (1990): S71-S102.

5. Buhalis, Dimitrios, and Carlos Costa, eds. Tourism management dynamics: trends, management and tools. Routledge, 2006.

6. Sheldon, Pauline J. "Designing tourism experiences for inner transformation." Annals of tourism research 83 (2020): 102935.

7. Tuxliyev, Nurislom. "Tourism development model in uzbekistan and its specific characteristics." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.3 (2023): 73-78.

8. Astanakulov, Olim, et al. "IoT Innovations for Transforming the Future of Tourism Industry: Towards Smart Tourism Systems." Journal of Intelligent Systems & Internet of Things 14.2 (2025).

9. Subramaniam, Nava, et al. "Sustainable development goal reporting: Contrasting effects of institutional and organisational factors." Journal of Cleaner Production 411 (2023).

10. Tornjanski, Vesna, et al. "The Role of Green Society in Society 5.0: Tango Diamond in a Collective Intelligence (Hybrid) Ecosystem Founded on Human-Centricity and Sustainability." Journal of Business and Social Sciences 2024.1 (2024).

11. Khater, Mohamed, et al. "Legal frameworks for sustainable tourism: Balancing environmental conservation and economic development." Current Issues in Tourism (2024): 1-22.

12. Pacheco, Pedro Miguel Escaleira. Monitoring Cities' Environmental Sustainability: Lisbon's Case Study a Dashboard to Measure Sustainability KPIs and Metrics. MS thesis. Universidade NOVA de Lisboa (Portugal), 2021.

13. Dalla Palma, Daniel. "Energy Efficiency and Saving Projects: barriers, the role of ESCos, their business model and risk management solutions." (2021).

14. Balková, Marie, et al. "Ecosystem services of vegetation features as the multifunction anti-erosion measures in the Czech Republic in 2019 and its 30-year prediction." Agriculture 11.2 (2021): 105.

15. Rezessy, Silvia, and Paolo Bertoldi. "Financing energy efficiency: forging the link between financing and project implementation." Report prepared by the Joint Research Centre of the European Commission 152 (2010).

16. Mungkung, Rattanawan, et al. "Analysis of green product procurement and ecolabels towards sustainable consumption and production in Thailand." Sustainable Production and Consumption 28 (2021): 11-20.

17. https://www.statista.com/statistics/209334/total-number-of-international-tourist-arrivals/ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

# Turizmning ekologik yuklamasi: O‘zbekiston uchun xavfsiz chegaralar

**A.M.Dilshodov**,
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti*
*akbarmirzodilshodov0@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola turizmda ekologik yuklama tushunchasini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, u O‘zbekistonda turizm sohasi barqaror rivojlanishida ikki tomonlama rol o‘ynashini yoritadi. Turistlar sonining oshishi va infratuzilma kengayishi chiqindilar miqdorini orttirishi orqali atrof-muhitga bosimni kuchaytiradi. Bu esa turizm infratuzilmasining rivojlanishi orqali iqtisodiy faollik va hududiy jozibadorlik oshayotganini anglatadi. Maqolada Ozarbayjon tajribasi asosida turistik sig‘im chegaralarini aniqlashda TALC va LAC modellari, shuningdek GIS va dron kabi zamonaviy monitoring vositalaridan foydalanish zarurligi ta’kidlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ekologik yuklamani to‘g‘ri boshqarish turizm rivojiga to‘siq emas, balki barqaror taraqqiyot omili sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** turizm, ekologik yuklama, barqarorlik, $CO_2$ chiqindilari, infratuzilma, sig‘im chegarasi, GIS, dron, Ozarbayjon tajribasi, TALC va LAC modellari

## Kirish

Turizm bugungi kunda jahon miqyosida eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Xuddi shu jarayon O‘zbekistonda ham kuzatilmoqda: tarixiy-madaniy meros obidalari, tabiiy landshaftlar, biosfera hududlari va zamonaviy turistik infratuzilmalarning rivoji mamlakatni xalqaro miqyosda jozibador turizm markaziga aylantirmoqda. Ammo bu rivojlanish jarayoni bilan birga, ekologik yuklamaning ortishi, tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish va chiqindilar muammosi kabi xavf-xatarlar yuzaga kelmoqda. Biroq ekologik yuklama doimo salbiy oqibatlar bilan cheklanmaydi. Ayrim holatlarda u turizm sohasi rivojlanayotganidan dalolat beradi. Asosiysi, ushbu yuklamani to‘g‘ri boshqarish — barqarorlikni ta’minlash vositasi bo‘la oladi. Ushbu maqolada ekologik yuklamaning iqtisodiy va ijtimoiy foydasini inkor etmagan holda, O‘zbekistonda xavfsiz sig‘im chegaralarini belgilash va ekologik boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish muhimligi yoritiladi.

## Asosiy qism

O‘zbekistonda turizmning tezkor o‘sishi ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda muhim yutuqlarni ta’minlamoqda. Yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, madaniyatlararo aloqalar mustahkamlanmoqda, valyuta tushumi oshmoqda. Biroq turizm bilan bog‘liq faoliyatlar, xususan, mehmonxona, transport, infratuzilma qurilishi va xizmatlar ko‘lamining kengayishi atrof-muhitga qo‘shimcha yuklama keltiradi. Bu holatda muhim jihat shundaki — mazkur yuklama to‘g‘ri boshqarilsa, u salbiy emas, balki ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Masalan, O‘zbekistonda olib borilgan ARDL (Autoregressive Distributed Lag) tahliliga ko‘ra, xalqaro turistlar sonining 2.93 foizga ortishi $CO_2$ chiqindilarining 1 foizga oshishiga to’g’ri keladi (Qodirov et al., 2024). Bu ko‘rsatkich turizm infratuzilmasining jadal rivojlanayotganidan, xizmatlar sifati oshayotganidan va jozibadorlik kuchayganidan dalolat beradi. Shu bois, ekologik yuklamani faqat xavf sifatida emas, balki turizm sohasining faol rivojlanish belgisi sifatida ko‘rish mumkin. Asosiysi — bu yuklamaning barqaror chegaralarda bo‘lishi va nazorat ostida rivojlanishidir.

Havo ifloslanishining, ayniqsa PM2.5 zarrachalari miqdorining oshishi turistik oqimga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda 1995–2023 yillar oralig‘ida 5 ta asosiy turistik hudud — Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Andijon — bo‘yicha olib borilgan fiksirovka qilingan effektlar panel regressiyasi natijalariga ko‘ra, PM2.5 miqdorining ortishi xalqaro turistlar sonining kamayishiga olib keladi (koeffitsient = –148.57; p = 0.017). Bu shuni ko‘rsatadiki, sog‘liq va hayot sifati bilan bog‘liq ekologik xavflar turistlar uchun muhim mezon bo‘lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish uchun ekologik sifatni oshirish, yashil infratuzilmani rivojlantirish, va iqlimga moslashuv siyosatini ishlab chiqish zarurligini asoslab beradi. Shuningdek, iqtisodiy o‘sish (YAIM jon boshiga) turizm talabini oshirishi, yog‘ingarchilik va harorat kabi iqlim omillari esa turistlar oqimini kamaytirishi mumkinligi aniqlangan. Bu esa ekologik va iqtisodiy omillarni uyg‘un boshqarish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu vaziyatda zamonaviy boshqaruv usullari — GIS monitoring, dronlar orqali kuzatuv, va elektron ruxsatnoma tizimlari — ekologik yuklamani me’yorlashtirishda asosiy vosita bo‘la oladi. Bu borada Ozarbayjon tajribasi O‘zbekiston uchun yaxshi namuna bo‘la oladi. U yerda “turistik sig‘im chegarasi” turli model va indikatorlar orqali aniq hisoblanadi: Tourism Area Life Cycle (TALC), Limits of Acceptable Change (LAC), va Simpson (2001) tomonidan ishlab chiqilgan 49 ko‘rsatkichli tizim shular jumlasidandir. Barqaror turizmni shakllantirishda xalqaro nazariy modellarni moslashtirish, ularni cheklov emas, balki rivojlanishning ilmiy asoslangan yo‘nalishlarini belgilovchi vosita sifatida qabul qilish lozim. Masalan, Butlerning “Tourism Area Life Cycle” (TALC) modeli orqali turizm hududlarining rivojlanish bosqichlarini oldindan aniqlab, zarur infratuzilmani rejalashtirish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash mumkin. Bu turistik zonalarni haddan tashqari yuklamadan saqlashga, ularni uzoq muddatli va barqaror tarzda boshqarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, “Limits of Acceptable Change” (LAC) modeli ham faqat cheklash emas, balki hududdagi o‘zgarishlarni ijobiy yo‘nalishga yo‘naltirish, mahalliy aholining manfaatlarini va ekologik muvozanatni hisobga olgan holda, turizmni yanada uyg‘un rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Bu model orqali o‘zgarishlarga nisbatan jamiyat va tabiatning qanday darajada moslasha olishini baholab, ehtiyotkorlik bilan innovatsion qarorlar qabul qilinadi. Simpson (2001) ishlab chiqqan 49 indikatorli tizim esa, turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdagi holatini chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Bu indikatorlar orqali rivojlanishni optimallashtirish, salbiy oqibatlarni oldindan bashorat qilish va ijobiy tendensiyalarni rag‘batlantirish mumkin bo‘ladi. O‘zbekiston turizm tizimida bu indikatorlardan foydalanish natijasida, har bir hududga mos strategik boshqaruv modeli ishlab

chiqilishi mumkin. Umuman olganda, ushbu yondashuvlar turizmni cheklash emas, balki uni ilmiy asoslangan, ekologik mas'uliyatli va ijtimoiy moslashtirib boshqarish imkonini beradi.

**Xulosa**

Turizmning ekologik yuklamasi O'zbekistonda ikki yoqlama ahamiyatga ega: bir tomondan, u salbiy oqibatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ikkinchi tomondan esa, to'g'ri boshqaruv ostida iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot omiliga aylanadi. $CO_2$ chiqindilari bilan turizm soni o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik infratuzilma va xizmatlar sifati ortishini bildiradi. Shu sababli, turizmni ekologik muvozanatda olib borish, sig'im chegaralarini aniqlash va zamonaviy monitoring vositalarini joriy etish orqali nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki turizm rivojiga barqaror zamin yaratish mumkin. Ekologik yuklama to'g'ri boshqarilsa, u to'siq emas, aksincha turizm taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Qodirov, A., Urakova, D., Amonov, M., Masharipova, M., Ibadullaev, E., Xolmurotov, F., & Matkarimov, F. (2024). *The dynamics of tourism, economic growth, and $CO_2$ emissions in Uzbekistan: An ARDL approach*. International Journal of Energy Economics and Policy, 14(6), 365–370. https://doi.org/10.32479/ijeep.16591
2. Sadullayeva, G. (2025). *The impact of air pollution on tourism demand in Uzbekistan: A fixed effects analysis*. Frontiers of Global Science, 3(1), 34–37. https://doi.org/10.1016/j.rsma.2024.103421
3. Barton, B., & Goh, E. (2025). *Last Chance Tourism: A Systematic Literature Review and Future Research Directions*. *Tourism Management Perspectives*, 45, 101037. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S221197362500025X
4. Xu, N., & Li, H. (2025). *Towards Management of Sustainable Tourism in Coastal Areas: Insights from Carrying Capacity Analysis*. *Sustainable Cities and Society*.https://link.springer.com/article/10.1007/s43621-025-00951-1


## TURLI MAMLAKATLARDA INKLYUZIV TURIZM MODELLARINI TAQQOSLASH


**Ergasheva Sarvinoz,**
*TDIU magistratura 1-kurs talabasi*
ergashevasarvinoz297@gmail.com



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv turizmni rivojlantirishga oid modellar tahlil qilinadi, ya'ni turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan inklyuziv turizmni rivojlantirishga oid modellar o'zaro farqli jihatlari bilan solishtirib o'rganiladi. Tadqiqotda Yaponiya, Ispaniya, Avstraliya va AQSh tajribalari misolida universal dizayn, ijtimoiy inklyuziya, barqarorlik va huquqiy yondashuv modellarining asosiy

tamoyillari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida inklyuziv turizmni rivojlantirishning hozirgi holati va istiqbollari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv turizm, universal dizayn, ijtimoiy inklyuziya, barqaror rivojlanish, turizm modeli, inklyuzivlik, nogiron sayyohlar, turizm infratuzilmasi, huquqiy asos, xalqaro tajriba, ijtimoiy hamkorlik, O‘zbekiston turizmi, texnologik yechimlar, qulay muhit, barqaror ekoturizm.

## Kirish

Hozirgi globallashuv davrida turizm sohasining jadal rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, turizmning har bir inson uchun ochiq, qulay va teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar, keksalar, bolali oilalar va boshqa ehtiyojga ega guruhlarning sayohat huquqini ta’minlash turizm siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Inklyuziv turizm — bu nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirish, balki barqaror turizmni shakllantirishning muhim omilidir. So‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlar inklyuziv turizmni rivojlantirish bo‘yicha o‘z milliy modellarini ishlab chiqib, ularni turizm infratuzilmasi, qonunchilik, xizmat ko‘rsatish sifati va texnologik yechimlar orqali joriy etmoqda. Inklyuziv turizm modellari barcha insonlar, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va foydalanish imkoniyatiga ega sayohat tajribalarini yaratishga hamda kengroq ijtimoiy va iqtisodiy inklyuzivlikni rag‘batlantirishga qaratilgan. Asosiy modellarga va yondashuvlarga BMT Turizm tashkilotining “Inklyuziv yo‘nalishlar modeli” kiradi, u davlat siyosati uchun amaliy yo‘l-yo‘riq beradi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ikki omilli model hamda butun sayohat jarayonida qulaylikni ta’minlash uchun universal dizayn tamoyillariga asoslangan tizimli yondashuv ham mavjud. Ushbu modellar manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni, inklyuziv bandlik imkoniyatlarini va shaxsga yo‘naltirilgan xizmatlarni taklif qiladi.

Inklyuziv turizm modellari mamlakatga qarab farq qiladi va ularning asosiy maqsadi ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarni turizmga jalb qilishdan iborat bo‘lib, ko‘pincha turli jihatlarga urg‘u beriladi: masalan, qulaylik, iqtisodiy foyda yoki jamoa ishtiroki. Ba’zi modellarda resurslarni ma’lum hududlarda jamlash uchun “hub-and-spoke” (markaz va yo‘nalishlar yondashuvi) yondashuvi qo‘llaniladi, boshqalarida esa qiymat zanjiri rivojlanishiga e’tibor qaratilib, mahalliy qishloq xo‘jaligi yoki hunarmandchilik mahsulotlarini turizm bozorlariga bog‘lash nazarda tutiladi. Global miqyosda asosiy muammolar sifatida siyosatning parchalanishi va mutaxassislik yetishmasligi qayd etiladi, shunga qaramay, modellarni mahalliy sharoitga moslashtirish va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari tamoyillarini integratsiya qilish bo‘yicha tadqiqotlar ortib bormoqda.

**1-jadval**

**Modellardagi asosiy farqlar**[232]

| **Model / Yondashuv** | **Tavsif** | **Mamlakatlar misollari / Tatbiq etilishi** |
|---|---|---|
| **Qiymat zanjiri integratsiyasi** | Marginal guruhlar va mahalliy iqtisodiyotlarni (qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, xizmatlar) turizm qiymat zanjiriga tizimli ravishda integratsiya qilishga qaratilgan, bu orqali iqtisodiy foyda kengroq taqsimlanadi. | Xalqaro Savdo Markazi kabi tashkilotlar loyihalarida qo‘llaniladi, kichik biznes va jamoalarni turizm sanoati bilan bog‘lash maqsadida. |
| **Hub-and-Spoke strategiyasi** | Resurslar va ekspertizani ma’lum turizm markazlarida jamlaydi, shu orqali inklyuziv ekotizimlar yaratiladi va keyinchalik qishloq yoki uzoq hududlarda imkoniyatlar kengaytiriladi. | Hamkorlik va resurs almashish rag‘batlantiriladi, masalan, Ispaniya va Portugaliya o‘rtasidagi chegaraviy tashabbuslarda kuzatiladi. |
| **Jamoatga asoslangan turizm (Community-Based Tourism, CBT)** | Mahalliy jamoalarga turizm tashabbuslarini rivojlantirish va boshqarish imkoniyatini beradi, foyda mahalliy darajada saqlanishini ta’minlaydi. | Ko‘pincha rivojlanayotgan mamlakatlarda uchraydi, bu yerda turizm mahalliy iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. |
| **Universal qulaylik / kirish (Universal Accessibility)** | Turizm infratuzilmasi va tajribalarini barcha uchun, jumladan nogironlar va keksalar uchun qulay qilib loyihalashga qaratilgan. | Ushbu model qonunchilik va standartlar orqali tobora ko‘proq joriy etilmoqda, ammo tatbiq mamlakatga qarab sezilarli farq qiladi va rivojlangan mamlakatlarda solishtirma tadqiqotlarda ko‘pincha tahlil obyekti hisoblanadi. |

AQShdagi inklyuziv turizm modellari hukumat yordami, innovatsiyalar va davlat-xususiy hamkorlik asosida shakllanadi. Ushbu modellarning asosiy maqsadi turizm sohasida teng imkoniyatlarni yaratish, ijtimoiy adolatni ta’minlash hamda mahalliy jamoalar va kamsitilgan guruhlarning manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Inklyuziv turizm konsepsiyasi universal dizayn, barqarorlik va jamoani kuchaytirish tamoyillariga asoslanadi. Bunda barcha uchun qulay bo‘lgan infratuzilma yaratish, marketingni xilma-xillashtirish, mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda aholining turizmni rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlash muhim o‘rin tutadi. AQSh tajribasida hukumat grantlar, soliq imtiyozlari va davlat-xususiy hamkorlik loyihalari orqali inklyuziv turizmni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay

[232] Muallif ishlanmasi

infratuzilma va xizmatlar tizimini yaratish universal dizayn yondashuviga asoslanadi. Shu bilan birga, turizmning iqtisodiy foydalari mahalliy biznes subyektlari o‘rtasida adolatli taqsimlanadi, ijtimoiy jihatdan kamsitilgan guruhlar uchun ish o‘rinlari yaratiladi. Mahalliy aholining turizmni boshqarishdagi ishtiroki oshirilmoqda, bu esa ularning manfaatlarini himoya qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida ovozini kuchaytirishga xizmat qiladi. Marketing siyosatida xilma-xillik va vakillikka alohida e’tibor qaratilib, turli madaniyatlar va guruhlarni aks ettiruvchi kampaniyalar amalga oshiriladi. Shu bilan birga, turizm madaniy merosni saqlash va milliy xilma-xillikni targ‘ib qilish vositasi sifatida qaraladi. Inklyuziv turizm barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, mas’uliyatli sayohatni rivojlantirish va ijtimoiy hamda iqtisodiy farovonlikni ta’minlashni maqsad qiladi. Amaliy misollarga kelsak, AQShda mahalliy madaniy tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash, nogironlar uchun transport va infratuzilmani takomillashtirish, mahalliy tadbirkorlarni rag‘batlantirish hamda inklyuziv bandlik siyosatini joriy etish kabi tashabbuslar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Shu orqali inklyuziv turizm nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratishga ham xizmat qilmoqda.

Yaponiyaning inklyuziv turizm modellari barqarorlik, mintaqaviy tiklanish va qulaylik tamoyillariga asoslanadi. Ular mahalliy jamoalarni kuchaytirish, turli sayohatchilarning ehtiyojlariga moslashish hamda turizmni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida ishlatishga qaratilgan. Asosiy strategiyalar — qishloq va ekoturizmni rivojlantirish, turizm infratuzilmasida qulaylikni oshirish, hamda raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv tajribani shakllantirishdan iborat. Ushbu yondashuv milliy miqyosdagi strategiya bilan uyg‘un bo‘lib, turizm foydalarini hududlar bo‘ylab adolatli taqsimlash, barqaror amaliyotlarni targ‘ib qilish va mustahkam turizm ishchi kuchini yaratishga xizmat qiladi. Yaponiyada inklyuziv turizmning muhim modellaridan biri — mintaqaviy va qishloq joylarini tiklash modelidir. Turizm orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida noyob tabiiy muhit va madaniy merosdan samarali foydalaniladi. Bunda ekoturizm va madaniy turizm yo‘nalishlariga katta e’tibor berilib, mahalliy aholining faol ishtiroki muvaffaqiyat kaliti sifatida ko‘riladi. Shuningdek, qulaylik va universal dizayn tamoyillari asosida turizm barcha sayohatchilar, jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ham ochiq va moslashuvchan tarzda tashkil etiladi. Bu yo‘nalishda xizmatlar va sayohat tajribalarini har xil ehtiyojlarga moslashtirish muhim o‘rin tutadi. Yaponiyaning inklyuziv turizm siyosatida barqarorlik va chidamlilik alohida o‘rin egallaydi. Sayyohlar turizm resurslarini asrash bo‘yicha hamkor sifatida qaraladi, bu esa ortiqcha turizmni oldini olish va tabiiy hamda madaniy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga yordam beradi. Hukumat barqaror turizm hududlari sonini oshirish bo‘yicha aniq maqsadlarni belgilagan. Raqamlashtirish va innovatsiyalar ham Yaponiyaning zamonaviy inklyuziv turizm modelining ajralmas

qismidir. Sun’iy intellekt (AI) va raqamli texnologiyalar orqali sayohat tajribasini yaxshilash, logistika jarayonlarini boshqarish hamda sayyohlar uchun ma’lumot taqdim etish samaradorligi oshirilmoqda. Yana bir muhim jihat — inklyuzivlik va jamoani kuchaytirish tamoyilidir. Mahalliy aholining turizmni rivojlantirishdagi faol ishtiroki nafaqat iqtisodiy foydani kengroq taqsimlashni, balki turizm tajribasini yanada mazmunli va haqiqiy qilishni ta’minlaydi. Shu tariqa, Yaponiyada inklyuziv turizm nafaqat sayyohlar uchun qulay muhit yaratadi, balki mahalliy jamoalarning barqaror rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi.

Ispaniyaning inklyuziv turizm modellari qulaylik, ijtimoiy tenglik va barqarorlik tamoyillariga asoslanadi hamda jamiyatning ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarini turizm sohasiga integratsiya qilishni maqsad qiladi. Asosiy yondashuvlar — qulaylikni ta’minlash bo‘yicha kuchli davlat siyosatini amalga oshirish, mahalliy jamoalarga foyda keltiruvchi barqaror amaliyotlarni rivojlantirish hamda barcha sayyohlarning ehtiyojlariga mos “Smart Tourism Destinations (DTI)” kabi strategik modellarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu model boshqaruv, texnologiya va qulaylik tamoyillarini birlashtirgan holda, turizmning iqtisodiy foydalarini mamlakat bo‘ylab adolatli taqsimlashga xizmat qiladi hamda sayyohlar va mahalliy aholiga teng imkoniyatlar yaratadi. Ispaniyada huquqiy va siyosiy asoslar inklyuziv turizmning muhim poydevorini tashkil etadi. Mamlakat uzoq yillardan beri qulaylikni ta’minlash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar va siyosatlarni ishlab chiqib keladi. Xususan, Ávila, Barselona va Bilbao shaharlarida qulaylik darajasi yuqori bo‘lgani uchun xalqaro miqyosda e’tirof etilgan.

“Smart Tourism Destinations” (DTI) modeli Ispaniyaning turizmni boshqarish bo‘yicha ilg‘or strategik vositasidir. U boshqaruv, texnologiya va qulaylikni uyg‘unlashtirib, sayyohlar hamda mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. Ushbu model turizm manzillariga mavjud resurslardan samarali foydalanish, muammolarni boshqarish va imkoniyatlarni kengaytirishda yordam beradi. Inklyuziv turizm siyosatida fizik va sezgi qulayligi alohida o‘rin tutadi. Infratuzilma, binolar va xizmatlar nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar hamda harakatlanish yoki sezgi cheklovlariga ega insonlar uchun moslashtirilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy va iqtisodiy inklyuziya loyihalari nogironligi bo‘lgan shaxslarning turizm sohasida bandligini oshirish, ularning malakasini yaxshilash va ish bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan. Bu yo‘nalishda turizm biznesi va nogironlar tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Ispaniyaning inklyuziv turizm modeli barqarorlik va mahalliy integratsiyaga tayanadi. U ekologik muhofaza, madaniy autentiklik va resurslardan mas’uliyatli foydalanishni targ‘ib qiladi. Mamlakatda yil davomida iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror bo‘lgan turizm modelini shakllantirish maqsad qilingan. Shu yo‘sinda sayyohlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar, hunarmandlar va jamoalar bilan bog‘laydigan tajribalar rivojlantirilmoqda. Inson markazidagi mehmondo‘stlik konsepsiyasi Ispaniyaning inklyuziv turizmidagi asosiy

yo‘nalishlardan biridir. Sayyohlarning iqtisodiy hissasidan tashqari, ularning qadriyat sifatida e’tirof etilishi muhim hisoblanadi.

Avstraliyaning inklyuziv turizm modellari universal dizayn va qulaylik tamoyillariga asoslanib, barcha sayyohlarning teng ishtirokini ta’minlash hamda ularning o‘zlarini xush kelibsiz deb his qilishlariga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvning markazida hukumat tashabbuslari, xususan Tourism Australia tashkilotining “Accessible Tourism” strategiyasi turadi. U inklyuziv marketingni rivojlantirish, turizm sohasi uchun qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish, shuningdek, “Disability and Inclusion Action Plan” va shtat darajasidagi turli dasturlar orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun imkoniyatlarni kengaytirishni maqsad qiladi. Bu modellar, shuningdek, xususiy sektorning faol ishtirokini ham o‘z ichiga oladi, ya’ni turizm bizneslari qulay inshootlar, xizmatlar va aniq ma’lumotlar bilan ta’minlaydi hamda Centre for Universal Design Australia kabi tashkilotlarning ko‘rsatmalari asosida ishlaydi. Avstraliya hukumati va turizm sanoati inklyuziv turizmni qo‘llab-quvvatlash uchun turli darajadagi strategiyalarni amalga oshiradi. Tourism Australia, shuningdek, shtat va mahalliy kengashlar inklyuziv turizmni targ‘ib qilish maqsadida strategik rejalashtirish, moliyaviy yordam va targ‘ibot ishlarini olib boradi. Accessible Australia tashabbusi orqali nogironligi bo‘lgan insonlar uchun bino va tabiiy muhitlarda qulaylikni oshirishga mablag‘ ajratiladi. Shu bilan birga, turizm korxonalariga inklyuziv marketing olib borish, xizmat sifatini yaxshilash hamda turli imkoniyatlarga ega sayohatchilarning ehtiyojlarini qondirishda amaliy yordam ko‘rsatiladi. Avstraliyaning turizm sohasi biznes va amaliy modellar orqali ham inklyuzivlikni mustahkamlaydi. Universal dizayn konsepsiyasi asosida mahsulotlar, xizmatlar va muhitlar barcha odamlar uchun mos va qulay tarzda loyihalanadi, bu esa jismoniy cheklovlar, ko‘rish, eshitish yoki bilish bilan bog‘liq ehtiyojlarni ham inobatga oladi. Shuningdek, qulay inshootlar yaratish — hojatxonalarni milliy standartlarga (AS1428) muvofiq qilish, mehmonxonalarda qulay xonalar tashkil etish kabi choralarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumot va aloqa tizimlari ham muhim o‘rin tutadi: sayyohlar uchun mavjud qulayliklar haqida batafsil va oson tushunarli ma’lumotlar veb-saytlarda joylashtiriladi. Xodimlarni o‘qitish esa xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi — turizm sohasidagi xodimlar nogironligi bo‘lgan sayyohlarning ehtiyojlarini chuqur tushunishga o‘rgatiladi. Bundan tashqari, kirish imkoniyatlari auditi o‘tkazilib, mavjud to‘siqlar aniqlanadi va universal dizayn talablariga muvofiq yaxshilanish choralari belgilanadi. Avstraliyaning inklyuziv turizm siyosati bir necha asosiy tamoyillarga tayanadi. Qadr va hurmat — barcha sayyohlarni jamiyatning to‘laqonli va qadrlanadigan a’zolari sifatida e’tirof etishni nazarda tutadi. Tenglik va mustaqillik — nogironligi bo‘lgan insonlar va boshqa cheklovlarga ega shaxslarning mustaqil va teng ishtirok etish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Qulaylikni odatiy xizmat sifatida joriy etish (mainstreaming accessibility) esa har bir sayohatchiga foyda keltiradi — bu nafaqat nogironlar, balki vaqtincha jarohat olganlar, bolali oilalar yoki yoshi katta sayyohlar

uchun ham qulaylik yaratadi. Nihoyat, inklyuzivlik tamoyili oddiy qulaylikdan ham kengroq tushuniladi — u barcha kelgan insonlar o‘zlarini qadrlangan, hurmatga sazovor va jamiyatning ajralmas qismi sifatida his qilishlariga xizmat qiladi.

Uchinchidan, raqamli marketing hududiy turizmni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, turistik portallar va mobil operatorlarning raqamli platformalari orqali mamlakat ichidagi yangi turistik yo‘nalishlarni keng auditoriyaga tanishtirish mumkin. 2026-yil iyulida Turizm qo‘mitasi va mobil aloqa operatori o‘rtasida Milliy turizm yagona platformasini raqamli xizmatlar bilan integratsiya qilish, shuningdek, ichki turizmni raqamli kanallar orqali targ‘ib qilish masalalari muhokama qilingan [2].

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlar turistik talabni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Turistlarning qaysi hududlarga ko‘proq tashrif buyurishi, qaysi xizmatlarga talab yuqoriligi, sayohatning davomiyligi va mavsumiy faollikni tahlil qilish orqali turistik infratuzilmani talabga mos ravishda rivojlantirish mumkin. Rasmiy rejaga ko‘ra, Milliy turizm yagona platformasi doirasida turistlar oqimi va ularning xohishlarini tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan marshrutlar yaratish, narx shakllanishi hamda resurslarni taqsimlashda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni tahlil qilish mexanizmlaridan foydalanish ko‘zda tutilgan [1].

Beshinchidan, raqamlashtirish hududlardagi kichik biznes subyektlarini turizm bozoriga faolroq jalb etish imkonini beradi. Oilaviy mehmon uylari, hunarmandlar, milliy taomlar tayyorlovchi kichik korxonalar, mahalliy gidlar va transport xizmatlari o‘z mahsulotlarini onlayn platformalar orqali turistlarga bevosita taklif qilishi mumkin. Bunda raqamli vositalar kichik biznes uchun reklama va mijoz topish xarajatlarini kamaytirib, geografik jihatdan chekka hududlardagi turistik xizmatlarning ham bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ichki turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning yana bir muhim imkoniyati turistlar oqimini an’anaviy turistik markazlardan yangi hududlarga yo‘naltirishdan iborat. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi mashhur destinatsiyalar bilan bir qatorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Jizzax, Namangan, Farg‘ona, Qashqadaryo va boshqa hududlardagi ekologik, gastronomik, ziyorat, qishloq va tog‘ turizmi imkoniyatlarini raqamli marketing vositalari yordamida keng targ‘ib qilish mumkin.

Raqamli texnologiyalar turizm sohasining iqtisodiy samaradorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bunda quyidagi iqtisodiy zanjir shakllanadi: raqamlashtirish → axborot olish xarajatlarining kamayishi → turistik xizmatlardan foydalanish qulayligining oshishi → ichki turistik talabning kengayishi → xizmatlar savdosining ortishi → hududiy daromad va bandlikning ko‘payishi.

Shu bilan birga, turizm sohasida raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirish uchun ayrim muammolarni hal etish lozim. Jumladan, chekka turistik hududlarda yuqori tezlikdagi internet infratuzilmasini kengaytirish, turizm sohasidagi kichik biznes vakillarining raqamli savodxonligini oshirish, turistik axborot bazalarining muntazam yangilanishini ta’minlash, mobil ilovalar interfeysining qulayligini oshirish va axborot xavfsizligiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Shuningdek, ichki turizmni raqamlashtirish faqat yangi dastur yoki mobil ilova yaratish bilan cheklanmasligi kerak. Asosiy maqsad turist uchun transport, joylashtirish, ovqatlanish, ekskursiya, ko‘ngilochar xizmatlar va to‘lov tizimlarini o‘zaro bog‘lagan yagona raqamli turizm ekotizimini shakllantirish bo‘lishi lozim. 2025-yildan boshlab turizm sohasiga oid davlat elektron tizimlari va platformalarini Milliy turizm yagona platformasi doirasida rivojlantirish yondashuvining belgilanishi ham aynan ushbu integratsiya zaruratini ko‘rsatadi [3].

**Xulosa qilib aytganda,** raqamli texnologiyalar O‘zbekistonda ichki turizmni jadal rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ular turistlar uchun axborot va xizmatlardan foydalanishni osonlashtirishi, biznes uchun yangi sotuv kanallarini yaratishi, hududlarning turistik salohiyatini kengroq targ‘ib qilish hamda davlat uchun turistik oqimlarni aniqroq tahlil qilish imkonini beradi. Kelgusida sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, raqamli gidlar, yagona elektron chipta, mobil to‘lov va personallashtirilgan marshrutlarni keng joriy etish O‘zbekistonda ichki turizm xizmatlarining raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2025. president.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Xorijiy sayyohlar uchun yangi raqamli xizmatlar yo‘lga qo‘yilmoqda. 2026-yil 8-iyul. gov.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Turistik xizmatlar ko‘lami jadal kengaytiriladi. 2025. gov.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Turizm va madaniyat sohasidagi masalalar muhokama qilindi. 2026. president.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar soni bo‘yicha statistik ma’lumotlar. 2026. siat.stat.uz.

## NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY SHAFFOFLIGI VA HISOBDORLIGI — BARQAROR MOLIYALASHTIRISHNING MUHIM SHARTI

**Po‘latov Sardor Akmal o‘g‘li**
Mustaqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0004-5199-2537
Email: saibov22@gamil.com

**Annotatsiya.** Tezisda nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) moliyaviy shaffofligi va hisobdorligi ularni barqaror moliyalashtirishning sharti sifatida ko‘rib chiqilgan. Donor va jamoatchilik ishonchi bilan mablag‘ jalb qilish imkoniyati o‘rtasidagi bog‘liqlik nazariy jihatdan asoslangan. O‘zbekistonda amal qilayotgan vositalar — Ochiqlik indeksi, elektron platformalar va

hisobot tartibi — tahlil qilingan. Hisobdorlikning asosan davlatga qaratilgani, benefitsiar va jamoatchilik oldidagi hisobdorlikning sustligi muammo sifatida ajratilgan hamda takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** nodavlat notijorat tashkiloti, moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik, Ochiqlik indeksi, jamoatchilik ishonchi, yillik hisobot, moliyaviy barqarorlik.

Notijorat tashkilotga mablag‘ beruvchi shaxs, odatda, pulining qanday sarflanganini o‘zi tekshira olmaydi. H. Hansmann buni “shartnoma nosozligi” deb ataydi: xizmat sifatini baholash qiyin bo‘lgan joyda odamlar foydani taqsimlamaydigan tashkilotga ko‘proq ishonadi [1]. Demak, ishonch notijorat tashkilotning asosiy kapitalidir, shaffoflik esa shu kapitalni saqlash vositasi.

A. Ebrahim hisobdorlikni ikki yo‘nalishga ajratadi: yuqoriga — donor va davlat oldida, pastga — benefitsiarlar va jamoa oldida. U beshta vositani ko‘rsatadi: hisobot va ma’lumotlarni oshkor qilish, faoliyatni baholash, ishtirok, o‘zini o‘zi tartibga solish va ijtimoiy audit. Muallifning asosiy xulosasi — amaliyotda yuqoriga hisobdorlik ustun bo‘lib, qisqa muddatli hisobotlar uzoq muddatli natijalarni chetga surib qo‘yadi [2].

O‘zbekistonda NNTlar soni 10,4 mingdan oshgan sharoitda [3] mablag‘ uchun raqobat kuchaymoqda. Bunday vaziyatda shaffoflik ma’muriy talabdan moliyaviy afzallikka aylanadi.

Tezisning maqsadi — NNTlar moliyaviy shaffofligi va hisobdorligining amaldagi vositalarini tahlil qilish hamda ularni barqaror moliyalashtirish manfaatlariga moslashtirish yo‘llarini taklif etish.

**Amaldagi vositalar.** “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, NNT o‘z faoliyati to‘g‘risida ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ va soliq organlariga hisobot taqdim etadi [4]. So‘nggi yillarda bu tartibga uchta yangi vosita qo‘shildi.

Birinchisi — 2021-yil 1-apreldan joriy etilgan NNTlar faoliyatining ochiqlik indeksi. U amalga oshirilgan ishlar, ijtimoiy sheriklik darajasi, ajratilgan subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar natijadorligi asosida shakllantiriladi; natijasiga ko‘ra “Eng shaffof” va “Eng faol” NNTlarning top-20 ro‘yxatlari e’lon qilinadi [5]. 2021-yil yakunlari bo‘yicha indeks 100 dan ortiq respublika darajasidagi NNT taqdim etgan ma’lumotlar asosida tuzilgan [6].

Ikkinchisi — elektron platformalar. 2024-yil 26-avgustdagi Farmon subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtma ajratish jarayonlari uchun yagona elektron platformani nazarda tutdi [7]. 2026-yilgi birinchi davlat granti tanlovining barcha bosqichlari ngo.gov.uz orqali o‘tkazilgan [8]. Xalqaro grant loyihalari natijalarini e-ngo.uz portaliga joylashtirish taklif etilgan [9].

Uchinchisi — ma’muriy yukni yengillashtirish. Farmonga ko‘ra, kalendar yilda bank hisobvaraqlarida pul aylanmasi bo‘lmagan jamoat fondlari uchun auditorlik tekshiruvi ixtiyoriy

bo‘ldi [7].

**Hisobdorlik yo‘nalishlari.** Mavjud vositalarni Ebrahim tasnifi bo‘yicha joylashtirsak, ularning notekis taqsimlangani ko‘rinadi.

| Kimning oldida | Asosiy vositalar | Holati (muallif bahosi) |
|---|---|---|
| Davlat organlari | Adliya va soliq organlariga hisobot, grant shartnomasi bo‘yicha hisobot | Majburiy, to‘liq tartibga solingan |
| Donorlar | Loyiha hisoboti, audit | Donor talabiga bog‘liq |
| Jamoatchilik | Ochiqlik indeksi, tashkilot veb-sayti | Ixtiyoriy; indeks tashkilotlarning kichik qismini qamraydi |
| Benefitsiarlar | So‘rov, fikr-mulohaza yig‘ish | Tizimli mexanizm shakllanmagan |

**Mavjud muammolar.** Fikrimizcha, uchta muammo barqaror moliyalashtirishga bevosita ta’sir qiladi.

Birinchidan, hisobdorlik asosan yuqoriga qaratilgan. Tashkilot davlat organiga batafsil hisobot beradi, biroq xayriya qilgan fuqaro yoki xizmat olgan shaxs bu ma’lumotni ko‘rmaydi. Homiylik va kraudfanding kabi manbalar aynan shu auditoriya ishonchiga tayanadi.

Ikkinchidan, Ochiqlik indeksi qamrovi tor. 100 dan ortiq tashkilot 10 mingdan ortiq NNTning juda kichik qismidir [3; 6]. Indeks natijalari hozircha mablag‘ ajratish qarorlari bilan bevosita bog‘lanmagan.

Uchinchidan, hisobot talablari tashkilot hajmiga moslashmagan. Kichik hududiy NNT va yirik respublika fondi uchun yuk deyarli bir xil. Aylanmasi bo‘lmagan fondlar uchun auditning ixtiyoriy qilinishi to‘g‘ri qadam, biroq mutanosiblik tamoyili butun tizimga tatbiq etilmagan.

Qiyos uchun: Qozog‘istonda nodavlat tashkilotlar har yili faoliyati, daromad va xarajatlari to‘g‘risida hamma uchun ochiq ma’lumotlar bazasiga hisobot topshiradi [10]. Bunday baza donorga tashkilotni tanlashdan oldin tekshirish imkonini beradi.

Shaffoflik va hisobdorlik NNT uchun nazorat yuki emas, mablag‘ jalb qilish sharti: ishonch bo‘lmagan joyda na fuqaro, na biznes, na davlat uzoq muddatli mablag‘ ajratadi. Amaldagi tizimni shu maqsadga moslashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. **Yillik ochiq hisobot standartini joriy etish.** Barcha NNTlar uchun daromad manbalari, xarajatlar tarkibi va asosiy natijalarni aks ettiruvchi bir-ikki betlik soddalashtirilgan shaklni tasdiqlash va uni ngo.gov.uz platformasida e’lon qilish.
2. **Mutanosiblik tamoyilini qo‘llash.** Hisobot va audit talablarini yillik aylanma hajmiga qarab uch toifaga ajratish: kichik tashkilotlar uchun soddalashtirilgan hisobot, yiriklari uchun majburiy audit.

3. **Ochiqlik indeksini kengaytirish va rag‘bat bilan bog‘lash.** Indeksni bosqichma-bosqich hududiy NNTlarga tatbiq etish; yuqori natija ko‘rsatgan tashkilotlarga davlat granti tanlovlarida qo‘shimcha ball berish.
4. **Benefitsiarlar oldidagi hisobdorlikni kuchaytirish.** Davlat granti va ijtimoiy buyurtma loyihalarida xizmat oluvchilar fikrini o‘rganishni majburiy qism sifatida belgilash.
5. **O‘zini o‘zi tartibga solishni rivojlantirish.** O‘zbekiston NNT milliy assotsiatsiyasi tomonidan moliyaviy shaffoflikning ixtiyoriy axloq kodeksini qabul qilish va unga qo‘shilgan tashkilotlar ro‘yxatini yuritish.
6. **Ochiq ma’lumotlar bazasini yaratish.** NNTlarning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarini yagona, qidiruv imkoniyatiga ega ochiq bazada jamlash.

Ushbu choralar hisobdorlikni davlat bilan bir qatorda jamiyatga ham qaratadi va NNTlarning nodavlat manbalardan mablag‘ jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Hansmann H. B. The Role of Nonprofit Enterprise // The Yale Law Journal. — 1980. — Vol. 89, No. 5. — P. 835–901.
2. Ebrahim A. Accountability in Practice: Mechanisms for NGOs // World Development. — 2003. — Vol. 31, No. 5. — P. 813–829.
3. Uzoqjonov A. NNT va fuqarolik jamiyati institutlarining roli ortmoqda // O‘zA. URL: https://uza.uz/posts/nnt-va-fuqarolik-jamiyati-institutlarining-roli-ortmoqda_757022
4. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1999-yil 14-aprel. URL: https://lex.uz/docs/11360
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-son Farmoni. URL: https://yuz.uz/uz/news/2021-2025-yillarda-fuqarolik-jamiyatini-rivojlantirish-kontseptsiyasini-tasdiqlash-togrisida
6. “Ochiqlik indeksi — 2021” natijalarida “Vaqf” xayriya jamoat fondi yetakchilik qilmoqda // Yangi O‘zbekiston. — 2022-yil 1-fevral. URL: https://yuz.uz/uz/news/ochiqlik-indeksi--2021-natijalarida-vaqf-xayriya-jamoat-fondi-etakchilik-qilmoqda
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: https://president.uz/oz/lists/view/7495
8. Davlat granti tanlovi g‘oliblari aniqlandi // O‘zA, 2026. URL: https://uza.uz/ar/posts/davlat-granti-tanlovi-goliblari-aniqlandi_883953
9. Nodavlat tashkilotlarning xorijiy grantlarni amalga oshirishi tartibi soddalashtiriladi // Kun.uz, 2023-yil 18-iyul. URL: https://kun.uz/news/2023/07/18/nodavlat-tashkilotlarning-xorijiy-grantlarni-amalga-oshirishi-tartibi-soddalashtiriladi
10. Civic Freedom Monitor: Kazakhstan // International Center for Not-for-Profit Law. URL: https://www.icnl.org/resources/civic-freedom-monitor/kazakhstan

# DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O‘SISH BILAN BOG‘LIQLIGINI SIKL FAZALARI KESIMIDA EKONOMETRIK BAHOLASH

Qarshiyev Nodirbek Olim o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekistonning 2010–2025-yillik rasmiy qatorlari asosida davlat boshqaruvi organlari yakuniy iste’moli o‘sishi va real YAIM o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlik sikl fazalariga ajratib baholandi. Fazalar o‘tgan yilgi o‘sish sur’atining tanlama medianasi bilan belgilandi; 2011–2025-yillar uchun o‘zaro ta’sir hadli eng kichik kvadratlar modeli va HC3 xatoliklari hisoblandi. Bazaviy modelda yuqori fazadagi qiyalik 0,566, quyi fazadagi qiyalik −0,004, fazalar farqi esa −0,570 (p = 0,201) bo‘ldi. Bu natija fazalar bo‘yicha ta’sir farqini statistik jihatdan tasdiqlamaydi. 2020-yil chiqarilgan tekshiruvda ham o‘zaro ta’sir ahamiyatli bo‘lmadi. Xarajat ko‘rsatkichi jami budjet xarajatlarini qamramaydi, bir vaqtdagi YAIM bilan endogen bog‘liq bo‘lishi mumkin; shu bois baholar sababiy fiskal multiplikator emas. Maqola kengroq fiskal ma’lumotlar bilan tekshirilishi zarur bo‘lgan empirik asosni beradi.

**Kalit so‘zlar:** davlat iste’moli, YAIM o‘sishi, sikl fazasi, interaksiya modeli, HC3 standart xatolik, fiskal multiplikator.

## KIRISH

Fiskal xarajatlarning iqtisodiy faollikka ta’siri siklning turli fazalarida bir xil bo‘lishi shart emas. Bo‘sh resurslar mavjud pasayish davrida qo‘shimcha talab ishlab chiqarishga tezroq o‘tishi, yuqori bandlik sharoitida esa import va narxlarga ta’sir kuchayishi mumkin. Auerbach va Gorodnichenko fiskal javobning holatga bog‘liqligini ta’kidlaydi [3]. Mazkur gipotezani O‘zbekiston qatorida tekshirish uchun xarajat tushunchasi, fazani belgilash va koeffitsiyent talqini aniq ajratilishi kerak.

Tadqiqot savoli: davlat boshqaruvi yakuniy iste’molining yillik real o‘sishi bilan YAIMning real o‘sishi o‘rtasidagi statistik bog‘liqlik oldingi yil o‘sishi nisbatan past bo‘lgan davrlarda o‘zgaradimi? Maqsad — rasmiy ko‘rsatkichlar asosida o‘zaro ta’sirli modelni baholash va uning ilmiy hamda ma’lumotga oid chegaralarini ko‘rsatish.

## MATERIALLAR VA METODLAR

Milliy statistika qo‘mitasining yakuniy iste’mol usulida hisoblangan real YAIM o‘sish indeksi va davlat boshqaruvi organlari yakuniy iste’moli real o‘sish indeksi 2010–2025-yillar uchun olindi [1; 2]. Har ikki indeksdan 100 ayirib yillik foiz o‘sish olindi. Bu davlat iste’moli ko‘rsatkichi davlat investitsiyasi, transfertlar, subsidiyalar va foiz to‘lovlarini qamrab oluvchi jami budjet xarajatlari bilan teng emas. 2010-yil fazani belgilash uchun boshlang‘ich lag sifatida ishlatildi, regressiya tanlamasi 2011–2025-yillar, n = 15.

$D_t = 1$, agar $gY_{t-1} < 6{,}8\%$; aks holda $D_t = 0$. 6,8 — 2010–2024-yillar YAIM o‘sishi tanlama medianasi; shu tariqa faza joriy yilgi natija yordamida aniqlanmadi. D = 1 yillari 2017, 2018, 2019, 2021, 2023, 2024 va 2025. Mazkur shart iqtisodiy retsessiya yoki manfiy ishlab chiqarish tafovutining rasmiy ta’rifi emas, balki cheklangan ma’lumotlarda qo‘llangan nisbiy faza proksisidir.

Model: $gY_t = \alpha + \beta gG_t + \gamma D_t + \delta(gG_t \times D_t) + u_t$. Bu yerda gY — real YAIM, gG — davlat iste’moli real o‘sishi, foizda. D = 0 uchun shartli qiyalik β, D = 1 uchun β + δ, farq esa δ. Koeffitsiyentlar foiz punkt/foiz punkt birligida; YAIM va xarajat hajmlari nisbati kiritilmagani sababli ular fiskal multiplikator emas. Parametrlar OLS bilan baholandi, kichik tanlama va geteroskedastiklikka nisbatan HC3 standart xatoliklar qo‘llandi.

Mustahkamlik uchun 2020-yilning keskin makroiqtisodiy shoki chiqarilib, shu model qayta hisoblandi. Qo‘shimcha spetsifikatsiyada oldingi yil YAIM o‘sishi nazorat o‘zgaruvchisi sifatida

kiritildi. Natijalar hukumat qarorlarining ekzogenligini isbotlamaydi: YAIMning tarkibida davlat iste’moli mavjud, xarajatlarning yillik o‘sishi ham iqtisodiy sharoitga javob qaytarishi mumkin.

NATIJALAR

Kuzatilgan YAIM o‘sishi 2010–2025-yillarda 1,6–8,2 foiz, davlat iste’moli o‘sishi 0,7–8,8 foiz oralig‘ida bo‘ldi [1; 2]. 2016-yildan keyin davlat iste’moli o‘sish sur’atlari ko‘p yillarda nisbatan past bo‘lgan. Shuning uchun fazalar guruhida vaqt trendi va xarajat dinamikasi birga o‘zgargan bo‘lishi mumkin; model buni to‘liq ajratmaydi.

1-jadval. OLS bahosi, bog‘liq o‘zgaruvchi — real YAIM o‘sishi, 2011–2025

| Parametr | Koeffitsiyent | HC3 standart xato | p qiymat |
|---|---|---|---|
| Konstanta α | 3,245 | 2,801 | 0,271 |
| Davlat iste’moli o‘sishi β | 0,566 | 0,354 | 0,138 |
| Nisbatan past faza γ | 3,351 | 2,931 | 0,277 |
| O‘zaro ta’sir δ | −0,570 | 0,419 | 0,201 |

Izoh: n = 15; $R^2$ = 0,518; qoldiq erkinlik darajasi 11. Koeffitsiyentlar rasmiy 2010–2025 qatorlaridan muallif hisobi. Ikki tomonlama p qiymatlar kichik tanlama t taqsimoti bilan hisoblangan.

Yuqori fazada qiyalik 0,566, nisbatan past fazada 0,566 − 0,570 = −0,004. Past fazadagi qiyalikning chiziqli kombinatsiya testi p = 0,987. Eng muhim natija shuki, δ ning p = 0,201 qiymati nol farq gipotezasini odatdagi 5 foiz chegarada rad etmaydi. Demak, tanlama “pasayishda multiplikator kattaroq” degan xulosani empirik tasdiqlamaydi. β ham 5 foiz darajasida ahamiyatli emas.

Mazkur baholar faqat kuzatilgan bir vaqtdagi assotsiatsiyadir. Masalan, 2020-yilda YAIM o‘sishi 1,6 foiz va davlat iste’moli o‘sishi 1,3 foiz bo‘lgan; ushbu yil mamlakat bo‘ylab alohida shoklarni ifodalaydi. Bitta yil qatorning qiyaligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.

MUHOKAMA

2-jadval. Spetsifikatsiya va sezgirlik tekshiruvlari

| Model | n | Yuqori faza β | Fazalar farqi δ (p) |
|---|---|---|---|
| Bazaviy, HC3 | 15 | 0,566 | −0,570 (0,201) |
| 2020-yilsiz, HC3 | 14 | 0,245 | −0,249 (0,331) |
| Lag YAIM nazorati, HC3 | 15 | 0,576 | −0,664 (0,335) |

2020-yil chiqarilganda yuqori fazadagi qiyalik 0,245 ga kamayadi, o‘zaro ta’sirning ishorasi saqlanadi, lekin u ham statistik jihatdan ahamiyatli emas. Oldingi yil o‘sishi qo‘shilganda fazalar farqi −0,664 (p = 0,335); xulosa yana o‘zgarmaydi. Bu ikki tekshiruv identifikatsiya muammosini bartaraf etmaydi, ammo bazaviy modelga haddan tashqari kuchli mazmun berishni cheklaydi.

Xalqaro adabiyotdagi holatga bog‘liq multiplikatorlar asosan fiskal shokni ajratish yoki mahalliy proyeksiyalar kabi yondashuvlarga asoslanadi [3; 4]. Bu yerda esa xarajat o‘sishi shok sifatida identifikatsiya qilinmagan. Ayniqsa xarajat YAIMning tarkibiy qismi bo‘lgani uchun bir vaqtdagi ijobiy qiyalik mexanik hisob munosabatini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun β va β + δ ni davlat xarajatlari 1 foiz oshsa YAIM shuncha foizga sababiy oshadi deb ifodalash

noto‘g‘ri.

Metodik takomillashtirishning keyingi bosqichi: choraklik konsolidatsiyalashgan budjetda xarajatlarni investitsiya, ish haqi, xarid, transfert va subsidiya bo‘yicha deflyatsiya qilish; oldindan belgilangan xarajat rejalaridagi kutilmagan o‘zgarishni ajratish; potensial YAIM tafovuti bilan fazalarni belgilash; 4–8 choraklik mahalliy proyeksiyalarda endogenlikka chidamli identifikatsiyani tekshirish. XVJning O‘zbekiston bo‘yicha tahlilida ham xarajat tarkibi va fiskal tuzatish sifati o‘sish uchun muhimligi qayd etiladi [5].

Tanlama 15 kuzatuvdan iborat va past faza 7 yilni qamraydi. Kichik n tufayli test quvvati cheklangan; statistik ahamiyatsizlik ta’sirning aniq nolga tengligini isbotlamaydi. Davlat iste’moli jami fiskal xarajat emasligi natijani butun budjet siyosatiga umumlashtirishga yo‘l qo‘ymaydi.

**XULOSA**

2011–2025-yillar uchun davlat boshqaruvi yakuniy iste’moli o‘sishi va real YAIM o‘sishi bog‘liqligi o‘zaro ta’sirli OLS modelida baholandi. O‘tgan yilgi o‘sish medianasiga ko‘ra nisbatan past faza ajratilganda qiyaliklar farqi −0,570 bo‘ldi, biroq HC3 xatoliklarda bu farq statistik ahamiyatga ega emas (p = 0,201). 2020-yilsiz va lag o‘sishni nazorat qilgan modellar ham fazalar farqi to‘g‘risida ishonchli dalil bermaydi.

Maqolaning amaliy natijasi ma’lumot chegarasini va model talqinini aniq ko‘rsatishdir. Davlat iste’moli budjet xarajatlarining bir qismini ifodalaydi; model fiskal shoklarni ajratmagani sababli sababiy ta’sir yoki multiplikator bahosi olinmadi. Kelgusi tadqiqotda jami va tarkibiy xarajatlar bo‘yicha choraklik qator, ishlab chiqarish tafovuti hamda ekzogen fiskal o‘zgarishlar asosida baholash lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. YAIM o‘sish sur’atlari (yakuniy iste’mol usulida, yillik), 2010–2025. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_641.pdf

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste’mol xarajatlari o‘sish sur’atlari (yillik), 2010–2025. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_652.pdf

3. Auerbach A. J., Gorodnichenko Y. Measuring the Output Responses to Fiscal Policy. American Economic Journal: Economic Policy. 2012;4(2):1–27. https://doi.org/10.1257/pol.4.2.1

4. IMF. Fiscal Multipliers and the State of the Economy. Working Paper 12/286, 2012. https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2016/12/31/Fiscal-Multipliers-and-the-State-of-the-Economy-40146

5. IMF. Republic of Uzbekistan: Selected Issues. Country Report 24/211, 2024. https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2024/07/11/Republic-of-Uzbekistan-Selected-Issues-551715

# BANK MAHSULOTLARI VA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI TIZIMI HAMDA ATB “O‘ZSANOATQURILISHBANK” FAOLIYATI TAHLILI

***PhD, Xujamuratov Abbos Mardonovich***

*ATB “O‘zsanoatqurilishbank”*

*Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori*

**Annotatsiya.** Maqolada tijorat banklari mahsulotlari va xizmatlari samaradorligini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari tizimlashtirilib, ularning iqtisodiy mazmuni va hisoblash tartibi ko‘rsatiladi. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” faoliyati 2022–2024-yillar ma’lumotlari asosida belgilangan normativlar bilan solishtirilgan holda tahlil qilinadi hamda bank mahsulotlari samaradorligini oshirish yo‘nalishlari aniqlanadi.

**Kalit so‘zlar:** samaradorlik ko‘rsatkichlari, ROA, ROE, C/I, NPL, likvidlik, kreditlash koeffitsiyenti, daromad marjasi.

Moliya bozoridagi kuchli raqobat sharoitida tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta’minlash, daromadliligini oshirish va mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish bank mahsulotlari samaradorligini haqqoniy va muntazam baholashni talab etadi. Baholash tizimi bir tomondan bankning moliyaviy manfaatlarini, ikkinchi tomondan mijozlar bilan munosabatlar darajasini aks ettirishi, shuningdek, mahsulot siyosatiga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish uchun asos bo‘lishi lozim.

Tadqiqotda mahsulotlar samaradorligini baholash uchun yetti ko‘rsatkichdan iborat tizim taklif etildi: aktivlar rentabelligi (ROA – sof foydaning jami aktivlarga nisbati), kapital rentabelligi (ROE – sof foydaning o‘z kapitaliga nisbati), daromad marjasi (sof foydaning jami daromadga nisbati), samaradorlik koeffitsiyenti (C/I – operatsion xarajatlarning operatsion daromadga nisbati), likvidlik koeffitsiyenti (likvid aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati), muddati o‘tgan kreditlar ulushi (NPL) hamda kreditlash koeffitsiyenti (LDR – kreditlarning depozitlarga nisbati). Ko‘rsatkichlar majmui rentabellik, xarajatlar samaradorligi, likvidlik, aktivlar sifati va resurslardan foydalanish nuqtai nazaridan mahsulotlarning moliyaviy natijasini kompleks baholash imkonini beradi.

Taklif etilgan ko‘rsatkichlar tizimining metodologik asosini quyidagi nisbatlar tashkil etadi:

$$ROA = (Sof\ foyda / Jami\ aktivlar) \times 100\%$$

$$ROE = (Sof\ foyda / O‘z\ kapitali) \times 100\%$$

$$C/I = (Operatsion\ xarajatlar / Operatsion\ daromadlar) \times 100\%$$

$$LDR = (Kreditlar / Depozitlar) \times 100\%$$

Bank mahsulotlaridan olinadigan daromadlar tarkibida kredit va foizli daromadlar asosiy o‘rin tutadi: xalqaro tahlillarga ko‘ra, zamonaviy tijorat banklari mahsulot va xizmatlaridan asosiy daromadlarning 55–60 foizini kredit va foizli daromadlar, 15–20 foizini depozitlar va bo‘sh pul mablag‘larini vaqtincha joylashtirish tashkil etadi. Shu bois kredit mahsulotlari bo‘yicha marja, aktivlar sifati (NPL) va resurs bazasi (LDR) ko‘rsatkichlari mahsulot siyosatini baholashda alohida ahamiyat kasb etadi.

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ma’lumotlari asosida ko‘rsatkichlar tahlil qilindi (1-jadval).

**1-jadval. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” mahsulotlari samaradorligi ko‘rsatkichlari dinamikasi**

| Ko‘rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 | Norma |
|---|---|---|---|---|
| ROA, % | 0,92 | 1,22 | 1,62 | ≥ 1 |
| ROE, % | 7,52 | 10,43 | 13,90 | ≥ 10 |
| Daromad marjasi, % | 7,12 | 8,23 | 6,89 | yuqori bo‘lishi tavsiya etiladi |
| C/I koeffitsiyenti, % | 27,4 | 31,5 | 20,7 | ≤ 40 |
| Likvidlik koeffitsiyenti | 3,6 | 3,2 | 3,5 | ≥ 1 |
| NPL, % | 3,40 | 3,28 | 2,81 | ≤ 5 |
| LDR, % | 323 | 334 | 299 | ≤ 100 |

Tahlil natijalari bank mahsulotlari samaradorligida ijobiy dinamika mavjudligini ko‘rsatadi. ROA 2022-yildagi 0,92 foizdan 2024-yilda 1,62 foizga, ROE esa 7,52 foizdan 13,90 foizga oshib, har ikki ko‘rsatkich belgilangan minimal talablardan yuqori darajaga chiqdi. C/I koeffitsiyenti 2023-yildagi 31,5 foizdan 2024-yilda 20,7 foizga tushgani bankning operatsion xarajatlarni samarali boshqarayotganidan dalolat beradi. Aktivlar sifati ham yaxshilangan: muddati o‘tgan kreditlar ulushi 2022-yildagi 3,40 foizdan 2,81 foizgacha kamaygan va 5 foizlik chegaradan ancha past. Likvidlik koeffitsiyenti 3,5 darajasida bo‘lib, normativ talabdan sezilarli yuqori.

Muhimi shundaki, ko‘rsatkichlar yaxshilanishi tasodifiy emas, balki bank tomonidan amalga oshirilgan tizimli choralar – mahsulotlar tarkibini kengaytirish, xarajatlarni optimallashtirish, biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish va kredit sifatini nazorat qilishni kuchaytirish natijasidir. Rentabellik ko‘rsatkichlarining normativ darajadan yuqori bo‘lishi bankning o‘z kapitalini mustahkamlash, mijozlarga yangi mahsulotlar taklif etish va portfelni diversifikatsiya qilish uchun moliyaviy imkoniyat yaratadi. Xarajatlar samaradorligining oshishi esa mahsulotlar narxini raqobatbardosh darajada saqlab qolish imkonini beradi.

Shu bilan birga, tahlil bir qator muammoli jihatlarni ham aniqladi. Daromad marjasi 2020-yildagi 9,87 foizdan 2024-yilda 6,89 foizgacha pasaygan; bu foizli xarajatlarning oshishi va past foizli kreditlar hajmining saqlanib qolishi bilan izohlanadi. Kreditlash koeffitsiyenti (LDR) 2024-yilda 299 foizni tashkil etib, tavsiya etilgan darajadan ancha yuqori, bu resurs bazasi tarkibini muvozanatlash zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bank mahsulotlari bo‘yicha daromad tarkibida

kredit mahsulotlaridan olinadigan foizli daromadlar salmoqli ulushga ega bo‘lib, ushbu yo‘nalishning xarajatlari va marjasini mahsulotlar kesimida boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish ham muhim. ROA va ROE o‘sishi bilan bir vaqtda daromad marjasining pasayishi bankning rentabelligi marja hisobiga emas, balki hajm va operatsion samaradorlik hisobiga ortayotganini ko‘rsatadi. C/I koeffitsiyentining sezilarli pasayishi xarajatlarni optimallashtirish choralari samara berayotganini tasdiqlaydi, biroq kreditlash koeffitsiyentining yuqoriligi bank o‘sishini ta’minlovchi resurslar tarkibini diversifikatsiya qilish zarurligini bildiradi. Bunday kompleks yondashuv bank mahsulotlari samaradorligini baholashda alohida ko‘rsatkichlarga emas, ularning o‘zaro ta’siriga e’tibor qaratish lozimligini asoslaydi.

Tizimdagi har bir ko‘rsatkich mahsulot siyosatining muayyan jihati bilan bog‘liq. ROA aktivlar (kredit portfeli, likvid aktivlar) tarkibining daromadliligini, ROE o‘z kapitalidan foydalanish samaradorligini, daromad marjasi mahsulotlarni narxlash siyosatining to‘g‘riligini, C/I koeffitsiyenti xarajatlarni boshqarish va jarayonlarni avtomatlashtirish natijalarini, likvidlik koeffitsiyenti resurs bazasi va depozit mahsulotlarining barqarorligini, NPL kredit mahsulotlarining sifati va skoring tizimining ishonchliligini, LDR esa resurslar tarkibining muvozanatini aks ettiradi. Shu sababli ko‘rsatkichlar dinamikasi mahsulot taklifini qayta ko‘rib chiqish uchun aniq signal vazifasini bajaradi.

Resurs bazasi nuqtai nazaridan qaraganda, bank depozitlari 2019-yildagi 9,0 trln so‘mdan 2023-yilda 13,8 trln so‘mgacha o‘sgan, omonat hisobvaraqlari esa 5,3 trln so‘mdan 9,1 trln so‘mgacha oshgan, ayni paytda muddatli depozitlar 2022-yildagi 7,0 trln so‘mdan 2023-yilda 4,7 trln so‘mgacha qisqargan. Bu holat resurslarning muddat tarkibi qisqarib borayotganini, uzoq muddatli kredit mahsulotlari (ipoteka, ta’lim, mikroqarz) esa kengayayotganini ko‘rsatadi, ya’ni bank uchun aktiv va passivlarni muddat bo‘yicha moslashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Yuqori kreditlash koeffitsiyenti ham shu muammoning ifodasi sifatida baholanishi mumkin.

Ko‘rsatkichlar tizimining cheklovi shundaki, ROA, ROE yoki C/I kabi nisbatlar bank darajasida hisoblanadi va ayrim mahsulotlarning haqiqiy hissasini yashirishi mumkin. Shu sababli mahsulot darajasida baholash uchun xarajatlarni mahsulotlar kesimida taqsimlash va resurslar uchun ichki (transfert) baholarni qo‘llash zarur. Bunday yondashuv samaradorlikni baholashni bank ko‘rsatkichlari darajasidan mahsulot ko‘rsatkichlari darajasiga o‘tkazib, har bir mahsulotning umumiy natijaga hissasini aniqlash imkonini beradi.

Amaliy tavsiya sifatida mahsulotlar samaradorligini yillik hisobotlar bilan cheklamasdan,

kvartal kesimida va mahsulot turlari bo‘yicha monitoring qilish, ko‘rsatkichlarning maqsadli darajalarini (KPI) belgilash hamda ulardan chetga chiqish sabablarini tahlil qilish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, ko‘rsatkichlar mahsulot darajasida – kredit, depozit, plastik karta, yashil va raqamli mahsulotlar bo‘yicha alohida – hisoblanishi bankka rentabelligi past mahsulotlarni aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash hamda mahsulotlar narxini asosli belgilash imkonini beradi. Natijalar bank Boshqaruvi, kreditlash, risk va moliya bo‘linmalari uchun yagona boshqaruv hisoboti shaklida taqdim etilsa, mahsulot siyosati bo‘yicha qarorlar qabul qilish tezligi va asosliligi oshadi, ko‘rsatkichlardan chetga chiqishlarga esa o‘z vaqtida javob choralari ko‘rish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar shakllantirildi:

*Birinchidan,* bank mahsulotlari samaradorligi yagona ko‘rsatkich bilan emas, rentabellik, xarajat samaradorligi, likvidlik, aktivlar sifati va resurslar tarkibini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar majmui bilan baholanishi lozim.

*Ikkinchidan,* ATB “O‘zsanoatqurilishbank”da asosiy ko‘rsatkichlar belgilangan normativlarga mos keladi va 2022–2024-yillarda rentabellik hamda aktivlar sifati bo‘yicha barqaror yaxshilanish kuzatilmoqda.

*Uchinchidan,* daromad marjasini oshirish, resurs bazasini kengaytirish va mahsulotlar bo‘yicha xarajatlarni optimallashtirish bank mahsulotlari samaradorligini yanada oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridir.

## MUNDARIJA

| 1-SHO‘BA | O‘ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI ZAMONAVIY PRINSIPLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH VA BUNDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH |
|---|---|


| | | |
|---|---|---|
| *Тешабоев Т.З.* | Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари…….. | 3 |
| *Nurulloyev Sh.A.* | Yangi O‘zbekistonda aylanma iqtisodiyot istiqbollari… | 7 |
| *Akkulov A.O‘* | Turizm sohasini muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilmalar faoliyatini boshqarishning nazariy asoslari…. | 10 |
| *Mexmonov S.U.* | Innovatsion texnologiyalardan “yashıl mehmonxona” xizmatlarida samarali foydalanish…… | 14 |
| *Abdurahmonova G.Q.* | O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlanlantirish xususiyatlari……. | 20 |
| *Zufarova N.G.* | O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari..... | 23 |
| *Eshtayev A.A.* | O‘zbekiston sharoitida yashil turizmning regenerativ (tiklovchi) modelini shakllantirish: xalqaro tajribalar asosida innovatsion boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish..... | 27 |
| *Абдувахидов А.М.* | Проблемы развития туризма в условиях цифровизации экономики Узбекистана……... | 35 |
| *Tuxliyev I.S.* | Yashil turizm va geoturizm faoliyati uyg‘unligining xususiyatlari……. | 42 |
| *Alieva M.T.* | O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari | 47 |
| *Sayfutdinov Sh.S.* | Yashil turizm konsepsiyasi asosida barqaror turizmni rivojlantirish yo‘llari…… | 53 |
| *Rasulov X.Y.* | O‘zbekistonda yashil turizmni zamonaviy prinsiplari asosida rivojlantirish yo‘nalishlari: xalqaro tajriba va milliy amaliyot……. | 57 |
| *Абдуллаева Ф.А.* | Применение зарубежного опыта в совершенствовании стандартов качества гостиничных услуг……. | 60 |
| *Ибрагимова Г.Т.* | Яшил иқтисодиёт бағрида яшил туризмни ривожлантириш…….. | 65 |
| *Примова Н.И.* | Натижага йўналтирилган бюджетлаштиришнинг Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантиришдаги аҳамияти……. | 70 |
| *Jo‘rayeva N.A.* | Barqaror turizmini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyot poydevori……. | 74 |
| *Umirova D.S.* | Ekoturizm hududlarida chiqindilarni boshqarishning innovatsion modellari…….. | 79 |
| *Nurfayziyeva M.Z., Azimova V.O.* | O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish muammolari va istiqbollari……. | 86 |
| *Шорахимов Ш. Ш.* | Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришда халқаро тажриба ва gstc стандартларининг аҳамияти | |

| | | |
|---|---|---|
| | ва аҳоли турмуш даражасига таъсири……. | 88 |
| *Raximova D.M.* | O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasini qo‘llash istiqbollari……... | 92 |
| *Po‘latov M.M.* | Turizmda innovatsiyalarni qo‘llash jarayonlari va bosqichlari…… | 100 |
| *Kobilova M.* | Theoretical and Practical Issues in Establishing a Green Tourist Zone: Opportunities and Strategic Development | 107 |
| *Asadova N.M.* | O‘zbekistonda yashil turizmni zamonaviy prinsiplari asosida rivojlantirish va bunda xorij tajribasidan foydalanish orqali muzeylar va madaniy meros obyektlarining mavjud holatini yaxshilash…….. | 111 |
| *Isomiddinov I.Q.* | Yashil turizm ichki turizmning barqaror rivojlanish omili sifatida…… | 114 |

| **2-SHO‘BA** | **YASHIL TURIZMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI** | |
|---|---|---|
| *Исакулов Ш.Н.* | Расчет выбросов углерода на этапах путешествия для разработки системы «carbon pass» в Узбекистане…… | 118 |
| *Сафаева С.Р.* | Экологические практики и поведение потребителей в гостиничном секторе Узбекистана…… | 124 |
| *Abidova D.I.* | Ekologik mehmonxonalarda qo‘llaniladigan innovatsiyalar samaradorligi…… | 128 |
| *Очилова Х.Ф.* | Зелёный туризм как фактор обеспечения устойчивости туристских дестинаций…….. | 135 |
| *Sodikov Z. R.* | Ekologik turizm manbalari va ularning xususiyatlar…… | 141 |
| *Jiyanov U. P.* | Turizm xizmatlarini samarali boshqaruvi mexanizmini takomillashtirish (yashil turizm misolida)……. | 145 |
| *Amiriddinova M.Z.* | Yashil turizmni tashlil etishda xorijiy mamlakatlarning umumiy ovqatlanish resurslari sifatini oshirishdagi ilg‘or xorijiy tajribalari tahlili…… | 148 |
| *Ахмеджанова И.У., Халилова Н.А.* | Внедрение экологических стандартов в гостиничной индустрии Узбекистана: возможности, практики и перспективы развития……. | 153 |
| *Маткабулова Д.Х.* | Тижорат банк кредитлари орқали мамлакатнинг туризм салоҳиятини ривожлантириш механизмлари……... | 162 |
| *Raximova D.M., Obilqosimova Sh. A.* | O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari…... | 166 |
| *Xushnazarova M.G.* | Yashil turizmni tashkil etishning asosiy xususiyatlari va hunarmandchilik mahsulotlari bilan uyg‘unligi……. | 172 |
| *Rasulova N.Y.* | Yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari….. | 174 |
| *Rahimova D. M.* | Ecological certification as a way to increase the competitiveness of hotels and develop pilgrimage tourism... | 180 |

| | | |
|---|---|---|
| *Shaymanova N.Y.* | O‘zbekistonda yashil turizmni rivojlantirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish…….. | 189 |
| *Dehqonov B.R.* | Turizmni boshqarishda iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish (O‘zbekiston misolida)……. | 196 |
| *Maxmudova A.P.* | Mamalakatimizda geoturizmni rivojlantirish istiqbollari….. | 201 |
| *Икрамов А.Ф.* | Ўзбекистонда экомеҳмон уйларини ташкил этишда халқаро тажрибадан фойдаланиш…….. | 207 |
| *Esonboyev B.B.* | Turizm industriyasida ekologik madaniyatni shakllantirish va yashil turizmning o‘rni…….. | 215 |
| *Raxmonova N.A.* | Yashil turizmni rivojlantirishda mehmonxonalar roli: muammolar va imkoniyatlar…….. | 218 |
| *Murtazayeva G.I.* | Yashil turizmni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish masalalari…… | 223 |
| *Musaxanov Q.A.* | Yashil qishloq turizmini shakllantirish va rivojlantirishning zaruriy shartlari…….. | 227 |
| *Naimov S.Y.* | O‘zbekistonda sog‘lomlashtirish turizmining iqtisodiy ahamiyati hamda rivojlanish omillari…… | 231 |
| *Gapparova M.Z.* | Повышение эффективности деятельности малых гостиниц в сфере обслуживания……. | 236 |
| *Suyunov R. G‘.* | Mamlakatimiz turizm sohasi xizmatlar sifati bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili…… | 241 |
| *Mamajonova Sh.V., Abduvahidov A.M.* | Turizmda hududlarning ekologik salohiyatidan samarali foydalanish: Farg‘ona viloyati misolida…… | 245 |
| *Mamajonova Sh.V.* | Farg’ona viloyatining ekologik salohiyatidan turizm sohasida samarali foydalanish…… | 250 |
| *Bakhromov A.A.* | Yashil turizm tamoyillari asosida turizm xizmatlari sifatini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish yo‘nalishlari… | 253 |

| **3-SHO‘BA** | **O‘ZBEKISTONNING YASHIL TURIZM SALOHIYATINI JAHON TURIZM BOZORIDA TARG‘IB QILISHNING ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARI** |
|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| *Yang Jie* | Study on Omni-media Traffic Characteristics and Marketing Strategies in Samarkand…… | 258 |
| *Ахмедов И.А.* | Яшил туризмни ривожлантиришда маркетингдан фойдаланиш……... | 262 |
| *Адылова З.Д.* *Исмаилова С. У.* | Продвижение устойчивых туристических направлений……... | 267 |
| *Mamurov S.I.* | Turizmda axborotlashtirish tizimidan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati…… | 273 |
| *Freshta Q* | Modern Marketing Strategies for Promoting the Green | |

| | | |
|---|---|---|
| | Tourism Potential of Uzbekistan in the Global Tourism Market…….. | 276 |
| *Oppoqxonov N.P.* | O‘zbekistonning ekologik turizm brendini jahon bozorida ilgari surish: innovatsion marketing yondashuvlari……. | 278 |
| *Maxmudova A.P.* | Raqamli islohotlar sharoitida ichki turizm xizmatlarini kengaytirish yo‘nalishlari…… | 285 |
| *Jahongirov K.A.* | O‘zbekistonda yashil turizm asosida ta’lim turizmini rivojlantirish va xalqaro bozorda targ‘ib qilish strategiyalari……. | 289 |
| *Xalimova F.N.* | Barqaror turizmni rivojlantirishda yashil marketing konsepsiyalarining qo‘llanilishi……... | 293 |
| *Suyunov R.G’.* | Yashil iqtisodiyotda turistik xizmatlar qiymatini optimallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari……. | 298 |
| *Po‘latova M.S.* | Turizm infratuzilmasi tarkibiy qismlari rivojlanishida innovatsiyalarning qo‘llanilishi holati……. | 302 |
| *Азимова В.О.* | Ўзбекистонда таълим туризми ва унинг иқтисодиётда тутган ўрни……. | 310 |
| *Nazarov X.A.* | O‘zbekistonda turizm bozorini takomillashtirda jahon tajribasidan foydalanib axborot texnologiyalarini sohasida integratsiyalash holati……... | 315 |
| *Yoriyeva F.M.* | Buxoro viloyatida agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: xalqaro tajriba va milliy yondashuvlar……. | 319 |
| *Xusniddinova M.S.* | O‘zbekiston turizm siyosatida raqamli transformatsiya ustuvor yo‘nalish sifatida……. | 326 |
| *Toirova N.M.* | Yashil turizmda innovatsion xizmatlarni tashkil etish……. | 330 |
| *Turdiyeva N.A.* | Mintaqalarda turizmni rivojlanishining asosiy omillari…... | 334 |
| *Турманкулов Н.С.* | Ўзбекистонда яшил туризмни ривожлантиришдаги муаммо ва имкониятлар…… | 339 |
| *Zokirjanova X.B.* | O‘zbekistonda ekoturizm sohasining samaradorligini oshirish masalalari……... | 345 |
| *Qodirova S. R.* | Xalqaro mehmonxonada xizmatlar sifati va standartlari…. | 349 |

| **4-SHO‘BA** | **QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENTSIYALARI** | |
|---|---|---|
| *Иватов И., Норбеков Х.Ў.* | Туризм салоҳиятидан самарали фойдаланиш унинг барқарор ривожланиши асосидир……... | 353 |
| *Xashimov B.B.* | Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini baholash…….. | 358 |
| *Bakhromov A.A.* | Yashil turizm tamoyillari asosida turizm xizmatlari sifatini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish yo‘nalishlari……. | 368 |
| *Uralova M.A.* | Qoraqalpog‘iston Respublikasida yashil turizmni rivojlantirish tendentsiyalari……... | 373 |

| | | |
|---|---|---|
| *Норбўтаев О.А.* | Қорақалпоғистон республикасида яшил туризм хизматларини ривожлантириш усуллари…….. | 377 |
| *Ермекбаева И.П.* | Перспективы использования зарубежного опыта в развитии зелёного туризма в Каракалпакстане…….. | 381 |
| *Норчаев Н.А.* | Қорақалпоғистон республикасида маркетинг тадқиқотларини олиб бориш орқали яшил туризм хизматларини ишлаб чиқиш…… | 386 |
| *Irgasheva N.S.* | Guesthouses as Engines of Sustainable Tourism in Uzbekistan…….. | 389 |
| *Sodikov M.O.* | Green tourism in Karakalpakstan: the role of Germany partnerships and GIZ projects…… | 393 |
| *Turdiyeva N.A., Aripova M.N.* | Turizm sohasida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash…… | 399 |
| *Xashimova Sh.Sh.* | Turizm turlari orasida gastronomik turizmning o‘rni……. | 405 |
| *Suyunov A.* | Turizm bozorining rivojlanish holati va tendensiyalari….. | 409 |
| *Egamnazarov H.F.* | The Sustainable Tourist as an Agent of Change: Responsibilities, Ethical Conduct, and Impact in Uzbekistan’s Tourism Development…….. | 412 |
| *Усманова А.Ф.* | Культурное наследие как двигатель развития этнотуризма: туризм способствует сохранению самобытности и идентичности…… | 423 |
| *Madrimova A.A.* | MICE turizmini rivojlantirishda ekoturizmni integratsiya qilish…… | 430 |
| *Nurfayziyeva M.Z., Shamsiddinova D.* | Buxoro viloyati turizm sohasida aholi bandligini oshirish……. | 434 |
| *Kunnazarova O.* | Ecotourism development in the republic of Karakalpakstan: Historical places and protected areas…… | 438 |
| *G‘afurova Gulsevar* | Mehmonxonalarda ekomuhitni boshqarish va uning turizmdagi o‘rni…….. | 447 |
| *Amiriddinova M., Olimjonova F.* | Sacred sites and pilgrimage places in case of Andijan……. | 451 |
| *Toshtemirov X.Q.* | Turizm obyektilarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy-asosiy parametrlari……. | 456 |
| *Abatbayeva G.J.* | Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati……. | 461 |
| *Soxibova M.X.* | Ziyorat turizmi obyektlarida yashil turizm elementlarini joriy etishning tashkiliy xususiyatlari…….. | 463 |
| *Dilshodov A.M.* | Turizmning ekologik yuklamasi: O‘zbekiston uchun xavfsiz chegaralar…… | 471 |
| *Ergasheva S.* | Turli mamlakatlarda inklyuziv turizm modellarini taqqoslash……. | 473 |
| *Ayubov R.R.* | The role of green and innovative services in the development of green tourism in Uzbekistan: evidence from a public survey in Tashkent city..... | 480 |

| | | |
|---|---|---|
| *Komilov D.R.* | Turizm infratuzilmasi va turizm xizmatlarining mintaqaviy rivojlanishdagi ahamiyati……. | 486 |
| *Азимова Ш.Т.* | Исторические предпосылки развития инклюзивного туризма……... | 491 |
| *Камалова М.* | Туристический поток и качество услуг: ключевые факторы успеха отрасли…… | 496 |
| *Азимова Ш.Т.* | Международный опыт развития зелёного и инклюзивного туризма…….. | 500 |
| *Raxmanov J.U.* | Turizm qishloqlarida yashil turizm orqali hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari (Samarqand viloyati misolida)……. | 506 |
| *Narzullayeva U.N.* | Advancing green tourism in Uzbekistan through modern strategies and global best practices…….. | 513 |
| *Эштаев А.А.*<br>*Абдусаломов Дж.А.* | Ўзбекистон Республикасида таълим туризмини бошқариш тамойилларини такомиллаштириш…….. | 520 |
| *Toshtemirov X.Q.* | Turizm obyektilarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy-asosiy parametrlari……. | 526 |
| *Xayrullayev E.X.* | Barqaror mahalliy turizmni rivojlantirishda Turkiya tajribasi va O'zbekiston uchun istiqbolli yo'nalishlar..... | 531 |
| *Alimov M.I.* | Иқтисодий ресурслардан фойдаланиш амалиёти ва мавжуд муаммолар …….. | 535 |
| *Гаппарова М. З.* | Анализ деятельности персонала гостиниц в повышении качества гостиничных услуг..... | 548 |
| *Isomiddinov I.Q* | Raqamli texnologiyalarning O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishdagi o'rni ..... | 554 |
| *Po'latov S A* | Nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy shaffofligi va hisobdorligi — barqaror moliyalashtirishning muhim sharti ……...557 | |
| Qarshiyev N.O. | Davlat xarajatlarining iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini sikl fazalari kesimida ekonometrik baholash ..... | 561 |
| Xujamuratov A.M. | Bank mahsulotlari va xizmatlari samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi hamda atb "o'zsanoatqurilishbank" faoliyati tahlili ..... | 563 |